

ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

Q. Shodiyeva

NUTQ O'STIRISH USLUBIYOTI

*Pedagogik yo'nalishdagi kasb-hunar kollejarining
maktabgacha ta'lim ixtisosligi talabalari
uchun darslik*

„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2008

Ushbu darslik o'ra maxsus ta'lim dasturlari asosida yozilgan bo'lib, Davlat ta'lim standarti talablariga mos.

Muallif maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqini o'stirishning ahamiyati, vazifalari, metodlariga to'xtalib, maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachining bajarishi lozim bo'lgan ish mazmunini ham yoritgan.

Darslikda har bir mavzudan so'ng o'quvchilar bilimini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar, shu bilan birga, mustaqil bajarish uchun ijodiy topshiriqlar ham berilgan.

Ushbu darslik pedagogik yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlarning maktabgacha ta'lim ixtisosligi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan maktabgacha ta'lim muassasalarining tayyorlov guruhi tarbiyachilari, uslubiyotchilar ham foydalanishlari mumkin.

Sh 4306020200—101 Qat'iy buyurtma — 2008
353 (04)—2008

MAKTABGACHA TARBIYA TIZIMIDA ONA TILI

1- §. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda ona tilining ahamiyati

Qayta qurish jamiyatimizning faqatgina ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohasidagina emas, balki madaniy hayotida ham o'z aksini topmoqda. Ma'lumki, adabiy tilda gapirish va yozish kishilarning bir-birini tez va oson tushunishiga yordam beradi, nutqning jozibadorligini, ta'sirchanligini oshiradi. Bolalarni adabiy nutqqa o'rgatishda oila, maktabgacha tarbiya muassasalarining roli benihoyadir. Bugungi kunda bizning asosiy vazifamiz bog'cha yoshidanoq bolaning og'zaki nutqini o'stirib borishdir.

„Bola, — degan edi K. D. Ushinskiy, — ilk yoshlik chog'idayoq xalq madaniyati elementlarini o'zlashtira boshlaydi, bularni avvalo, ona tilini bilish yo'li bilan o'rganadi. Shu bois, bizning fikrimizcha, oilada, bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda ona tilidan o'rinli foydalanmoq zarur“.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotida tilning ahamiyati juda katta. Butun dunyo xalqlarining xoh siyosiy, xoh madaniy taraqqiyotini tilsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki til eng muhim aloqa vositasi, jamiyat esa aloqasiz rivojlanmaydi.

Bog'chada ta'lim berish samaradorligini oshirish, bolalarni mustaqil ta'lim olishga (maktab ta'limiga) tayyorlash, yangi jamiyatning ongli quruvchilarini tarbiyalash kabi muhim va hayotiy vazifalarni hal qilishda ona tili asosiy o'rin egallaydi.

„... Xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lmish o'zbek tilini rivojlantirish — bu tilning davlat maqomini izchil va to'liq ro'yobga chiqarish ... demakdir“¹, deb ta'kidlab o'tgan edi Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov.

O'zbek adabiy tili o'zbek xalqining yagona, normallashtirilgan tili sifatida og'zaki va yozma shaklda asrlar mobaynida rivojlanib, mukammallashtirilib keldi.

¹ I.A. Karimov. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. Toshkent, „O'zbekiston“. 1992- y., 20- bet.

O'zbek adabiy tilini taraqqiyot bosqichiga ko'ra ikki adabiy tilga ajratish mumkin: eski o'zbek adabiy tili va hozirgi zamon o'zbek adabiy tili.

Eski o'zbek adabiy tili o'zbek xalqining buyuk mutafakkiri Navoiy asos solgan va keyinchalik Muqimiy, Furqat kabi demokrat shoirlar tomonidan rivojlantirilgan adabiy tildir. Bu adabiy tilda yaratilgan yozma yodgorliklar o'zbek xalqi va uning tili taraqqiyot tarixini o'rganish uchun manba bo'lishi bilan birga, hozirgi zamon o'zbek adabiy tili uchun ham asos bo'lgan. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili eski o'zbek adabiy tilining davomi, yangi sharoitda o'zbek xalqining iqtisodiyoti va madaniyatining rivojlanishi asosida har tomonlama boyigan shaklidir.

Bolalar bog'chasi bolalarni har tomonlama, ya'ni jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik tomondan tarbiyalashdek maqsadni o'z oldiga qo'ygan. Bu maqsad esa bolalarga ona tilini o'rgatish jarayonida amalga oshiriladi. Bog'chada og'zaki nutqni o'stirish natijasida bolalar aqlan rivojlanib, umumiy madaniy saviyasi oshadi. Ular tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunib boradilar. Bolalarda nutqning rivojlanishi ularning ruhiy jihatdan ham takomillashib borishiga yordam beradi.

Bola tashqi dunyoni xotira, tasavvur, xayol, tafakkur kabi ruhiy jarayonlar yordamida, shuningdek nutq yordamida bilib olish qobiliyatiga ega. Ammo bolalardagi intellekt, ya'ni ruhiy jarayonlar (xotira, tasavvur, xayol, tafakkur va h. k.) shunchaki bola organizmining o'sib borishi va takomillashishi bilangina paydo bo'lmay, balki nutqning rivojlanishi bilan paydo bo'ladi va takomillashadi.

Agar bola kichik yoshidan boshlab to'g'ri gapirishga (so'zlashishga) o'rgatib borilsa, u vaqtda bunday bola normal holatda rivojlanadi, ya'ni avval tasavvur etish, keyin esa fikr yuritish, xayol qilish qobiliyati paydo bo'ladi va bu qobiliyat har bir yosh bosqichida takomillashib boradi. Bolalarda intellekt bilan barobar (parallel) ravishda iroda kabi ruhiy jarayon ham takomillashib boradi.

Ko'pgina tajribalar shuni ko'rsatdiki, nutqi rivojlanmagan bola to'liq shaxs sifatida kamol topmaydi.

Demak, tarbiyachi har doim shuni esda tutishi kerakki, nutq bu maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda barcha ruhiy jarayonlar rivojlanishiga ko'maklashuvchi vositadir. Bolaga ona tilini o'rgatish bilan bir vaqtda, ularni maktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun zamin tayyorlanadi, mehnat faoliyatiga ijodiy yondashishga

o'rgatiladi. Bolalar bog'chasining barcha tarbiyaviy-ta'limiy ishlarida bolalarga ona tilini o'rgatish orqali ularning nutqi o'stiriladi. Ayniqsa, nutq o'stirish mashg'ulotlarida har bir bolaning nutqini rivojlantirish bo'yicha ishlar rejalashtiriladi. Bolalarga barcha mashg'ulotlarning mazmuni faqat ona tili orqali singdiriladi. „Ona tili, — deb ta'kidlagan edi K.D. Ushinskiy, — har qanday taraqqiyotning asosi, butun bilimning xazinasidir. Har qanday tushunish undan boshlanadi, u orqali o'tadi va unga qaytadi“.

So'z boyligi bolaga barcha mashg'ulotlarda beriladigan bilimlarni tez va puxta o'zlashtirib olish va bu bilim, tushunchalarni nutq orqali ifodalash imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, bola kamoloti uchun ham keng yo'l ochadi. Bilimlarni puxta egallashga, uni sekin-asta hayotga tatbiq etishga ham o'rgatadi. Ona tili aqliy tarbiyaning manbayi va vositasi hamdir.

K.D.Ushinskiyning fikricha, bolaga ta'lim va tarbiya berishda tilning qimmatini dastlab ijtimoiy hodisaning chuqur xalqchilligi bilan, uning milliy xarakteri bilan belgilanadi. U „tilda chuqur ma'noli ko'pdan ko'p falsafiy fikrlar, chinakam nafis his-tuyg'ular, nihoyatda to'g'ri, ko'rkam did, fikrni bir yerga to'plab, zo'r diqqat bilan qilingan mehnat izlari, tabiat hodisalarini va ulardagi eng nozik rang-barangliklarni g'oyat darajada ziyraklik bilan his etish, kuzatuvchanlik, zo'r mantiqiylik ... bor“¹ deb ta'riflaydi.

K.D.Ushinskiy o'zining „Ona tili so'zlari“ maqolasida bolani ona tili, ona tilidagi so'zlar orqali tarbiyalash masalasini qo'ydi. Chunki xalqchilik dastlab ona tilida o'z ifodasini topadi. Bolaning shaxsiyati, bilimi, malakasi, ma'naviy qiyofasi ana shu til ta'sirida shakllanadi. Shoira Zulfiya ta'kidlaganidek: „Ona tilini mukammal o'rgangan kishi ona yurtining tarixini to'liq o'rganish baxtiga muvassar bo'ladi“.

Ona tili bolalarda vatanparvarlik, baynalmilal tuyg'ularni o'stirib borishda, bolalarning madaniy saviyalarini oshirib borishda qudratli vosita bo'lib xizmat qiladi. Demak, ona tili bolalarni axloqiy tomondan tarbiyalash vositasidir.

Bolalar bog'chasida tarbiyalanayotgan bola o'rtoqlari bilan o'ynaydi, qo'lidan kelgancha mehnat qiladi. Bu jarayonda o'z

¹ K.D. Ushinskiy. Tanlangan asarlar. O'quvpeddavnashr. T., 1959, 398-bet.

harakatlariga baho berishga, fikrini boshqalarga tushunarli qilib bayon eta olishga o'rganadi.

Bola kuzatish va nutq orqali dunyoni, borliqni bilib oladi: tevarak-atrofdagi narsa va buyumlarning, voqea va hodisalarning nomini, sifatleri va belgilarini, xususiyatlarini, o'xshash va farqli tomonlarini aytishga o'rganadi.

Ona tili orqali bolalar o'z ajdodlarining tarixini, madaniyatini, qadriyatlarini, urf-odatlarini bilib oladilar, xalq og'zaki ijodiyoti, badiiy adabiyot, san'at bilan tanishadilar.

Shunday qilib, ona tili maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni ruhiy jihatdan rivojlantirishda, ularning madaniy saviyasini oshirishda, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunib olishlarida, maktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun zamin yaratishda, mehnat faoliyatiga ijodiy yondashishga o'rgatishda, aqliy va axloqiy tarbiyani amalga oshirishda, dunyoni, borliqni bilib olishda, xalqimiz madaniy merosini o'rganishlarida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

2- §. Til tafakkur quroli va muomala vositasi ekanligi

Til jamiyatda kishilarning bir-birlari bilan aloqa bog'lashlari uchun, bir-birlarining fikrlarini tushunishlari uchun muhim vositadir. Til jamiyatga xizmat qiladi. Shuning uchun u ijtimoiy hodisa hisoblanadi.

Til jamiyat paydo bo'lishi bilan paydo bo'lgan, jamiyat taraqqiyoti bilan birga taraqqiy etgan, rivojlangan. Jamiyatda fikr almashuv doimiy va hayotiy zarurat hisoblanadi. Odamlar til vositasida o'zaro fikr almashadilar. Shuning uchun ham til aloqa vositasi bo'lishi bilan birga, jamiyatning rivojlanish manbayi hamdir.

Odamlarning nutq orqali aloqalari har doim ma'lum bir til vositasida amalga oshiriladi. Til yordamida fikr almashmay turib, odamlar o'zaro mehnat faoliyatlarini tashkil eta olmaydilar. Tilsiz ijtimoiy ishlab chiqarish hamda jamiyat bo'lmaydi.

Til jamiyat hayotida katta rol o'ynasa-da, u ijtimoiy taraqqiyotning mahsulidir.

Nutq bilan til o'zaro chambarchas bog'liq. Nutq odamlarning til vositasida aloqa bog'lashlaridir. Har bir kishining o'z nutqi bor. Ammo ana shu nutqni bir necha tilda ifodalash mumkin.

Til ijtimoiy hodisa bo'lganligi uchun ham u kishilarda mustaqil holda mavjud bo'ladi.

Til tarixiy taraqqiyot davomida odamlarning nutq orqali aloqa bog'lashi jarayonida vujudga kelgan va rivojlangan. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning nutqi tashqi olam bilan bog'langan holda uchta vazifani bajaradi: 1) kommunikativ; 2) bilish, 3) tartibga solish.

Nutqning kommunikativ vazifasi bolada juda erta paydo bo'ladi. Bolaning ilk bor aytgan birinchi so'zi kommunikativ vazifani bajaradi. Keyinchalik esa bu so'z bolaning atrof-dagi kishilar bilan muomala qilish ehtiyoji o'sib borgani sari nutq sifatida takomillashib boradi. Ikki yoshdan boshlab bola o'z istak-xohishini atrof-dagi kishilarga tushunarli tarzda ifodalay oladi, o'ziga qarata aytilgan nutqni, so'zlar ma'nosini tushuna boshlaydi.

Uch yoshdan keyin bola ichki nutqni egallaydi. Bu vaqtda nutq uning uchun muomala vositasi bo'libgina qolmay, balki boshqa vazifani — bilish vazifasini bajara boshlaydi: yangi so'zlar va so'z shakllarini o'zlashtira borib, tevarak-atrof haqidagi, predmet va hodisalar, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi.

Bola nutqning kommunikativ va bilish vazifasi bilan birgalikda xulqini tartibga soluvchi nutqni ham egallay boshlaydi.

Bola xulqini tartibga soluvchi birinchi so'z—bu **mumkin**, **mumkin emas** hamda buyruq fe'li shaklidagi **ye**, **bor** kabi so'zlar bo'lib qoladi.

— **Mumkin emas! Qo'ling kuyadi!**—deb taqiqlash ohangi bilan aytilgan gap, qo'lini issiq choyni olib borayotgan bolani bu harakatdan to'xtatadi. Yoki kitobni yirtishga harakat qilayotgan kichikintoy qo'lidan kitobni olayotgan onaning qat'iy ravishda:— **Mumkin emas!** Kitob ketib qoladi. „Vali yomon bola ekan“ deb aytadi,—degan so'zlari bolani tartibli, intizomli bo'lishga undaydi. Tartibli, intizomli bo'lish esa shaxsning asosiy sifatlaridan biri bo'lib, undagi xarakter xususiyatlarining rivojlanishi uchun manba bo'lib hisoblanadi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bolaga qaratilgan nutq uning xulq-atvorini tartibga solib turuvchi, qilinadigan ishlarni rejalashtirishga undovchi vositadir.

Biz nutq orqali, ya'ni til vositasi bilan har xil mulohazalar yuritamiz. Tafakkur hamisha til vositasida ifodalanadi. Til va tafakkur o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan jarayondir. Shuning uchun ham

fikrning realligi tilda namoyon bo'ladi, deyilishi bejiz emas. Tafakkur jarayonida nutq — hukm, xulosa chiqarish va tushuncha shakllarida namoyon bo'ladi.

Demak, kishilar til yordamida o'zlaridan ilgari yashagan kishilarning hayotini, bo'lib o'tgan voqea va hodisalarni bilib oladilar. Shu bilan birga, o'zlari yashayotgan davrda bo'layotgan voqea va hodisalarni, yangiliklarni o'rganib, bilib oladilar.

Til kishilarning eng qulay aloqa-aralashuv vositasidir.

Inson til orqali: a) o'z fikrini bayon qiladi — axborot beradi; b) boshqalarning fikrini anglaydi — axborot qabul qiladi.

3- §. Bolalarni axloqiy va estetik ruhda tarbiyalashda ona tilining roli

Nutqning bola xulqini tartibga soluvchi vazifasi ta'sirida bola tomonidan nutqni egallash — bu ona tilining axloqiy tarbiyalash vositasi bo'lib qolganligini bildiradi. Shu vaqtdan boshlab kattalar o'zlarining bolalarga aytadigan so'zlariga, xulqlariga e'tibor berishlari kerak. Bola xulqini tartibga solib turuvchi **mumkin emas, mumkin, kerak** kabi so'zlar bilan bir qatorda, **yaxshi, yomon** kabi tushunchalarni ham farqlab boradi.

Mumkin so'zi yaxshi, foydali, oliyjanob ishga ruxsat berilganini bildiradi.

Kerak so'zi yordamida esa iroda mashq qildiriladi, bolada o'z burchiga munosabat shakllantiriladi: *qishda qushlarga g'amxo'rlik qilish kerak; uy ishlarida buvingga yordam berishing kerak; himoyasiz bolalarni himoya qilish kerak.*

Bola ona tilini o'zlashtirishi bilan birga, shu tilda samimiy murojaat etish shakllarini ham o'rganib boradi.

Masalan, „O'qib bering!“ deyish o'rniga: „Hozir siz bizlarga nimani o'qib berasiz?“, „Siz bizga o'qib bera olmaysizmi?“ degan so'zlar bilan murojaat qilishga o'rganadi. Yoki o'rtoqlaridan biron narsani so'rashda „Menga ber!“ deb do'q ohangida gapirish o'rniga: „Mumkin bo'lsa, qalamingni berib tur“, „Iltimos, koptogingni biroz o'ynay“ kabi so'zlar bilan samimiy murojaat etishga o'rganadilar.

Agar bola *xushfe'l, oliyjanob, g'amxo'r, samimiy, mehnatsevar, jasur, rostgo'y, kamtarin, sodiq* kabi so'zlarning ma'nosini tushunsa, keyinchalik bu so'zlar uning axloqiy sifatlarini shakllantirish dasturi bo'lib qolishi mumkin. Bola sekin-asta bu

soʻzlarning maʼnosini tushunish bilan birga, ularga qarama-qarshi maʼnoli— antonim soʻzlarni topib ayta oladi: *qoʻpol, pastkash, dangasa, yovuz, qoʻrqq, yolgʻonchi, maqtanchoq*.

Kichik yoshdagi bolalar hali bu soʻzlarning maʼnosini tushunmaydi, albatta. Avval ular qahramonlari oʻzlarining mehnat-sevarlik, gʻamxoʻrlik, oliyanoblik, mehribonlik, rostgoʻylik, sadoqat kabi sifatlarini namoyon etadigan xalq ertaklarini, sheʼr, hikoya, masal va h. k. larni tinglaydilar. Keyin esa oʻzlari ham ana shunday axloqiy fazilatlarga ega boʻlishni orzu qiladilar.

Demak, ona tili bolaga birinchi estetik goʻzallik darsini ham beradi.

Ashulalar, hazil-mutoyibalar, soʻz oʻyinlari, sheʼrlar aytib berish, ertaklar hikoya qilib berish jarayonida ham bolalarda goʻzallikka intilish, undan gʻururlanish hissi vujudga keladi. Bularning barchasi ona tili orqali amalga oshiriladi.

4- §. Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar nutqini rivojlantirish

Bolalar bogʻchasida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga taʼlim va tarbiya berishda eng asosiy vazifalardan biri bolalarga ona tilini oʻrgatish, nutqini rivojlantirish, nutqiy munosabatga, muomalaga oʻrgatishdir.

Nutq oʻstirish uslubiyoti pedagogik fan boʻlib, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutqni shakllantirishga qaratilgan pedagogik qonuniyatlarni oʻrganadi.

Nutq oʻstirish uslubiyoti fanining asosiy vazifasi— nutq oʻstirish uslubi va uslubiyotlarini, ularning eng samarali vositalarini ilmiy-pedagogik asoslarda ishlab chiqish va bolalar bogʻchalari tarbiyachilarini ular bilan taʼminlashdan iboratdir. Tarbiyachilar esa oʻzlashtirilgan uslub va uslubiyot yordamida bolalarda zaruriy nutqiy malaka va koʻnikmalarni rivojlantirishga harakat qiladilar.

Nutq oʻstirish uslubiyotining maqsadi bolalarning ogʻzaki nutqini rivojlantirishdan, atrofdegilar bilan nutqiy muloqotda boʻlish malakasini shakllantirishdan iborat.

Nutq oʻstirish uslubiyoti boshqa xususiy uslubiyotlar kabi quyidagi savollarga javob beradi:

1) nimaga oʻrgatish kerak (bolalarda qaysi nutqiy malakalarni tarbiyalash kerak); 2) qanday oʻrgatish kerak (bolalar nutqini

shakllantirishda qanday sharoit, qaysi usul va uslubiyotlardan foydalanish kerak); 3) nima uchun xuddi shunday o'rgatish kerak (nutqni rivojlantirish uchun taklif etilayotgan usullar nazariy va amaliy jihatdan qanday asoslangan).

Nutq o'stirish uslubiyoti vazifasi o'z ichiga bir qancha maxsus xususiy vazifalarni ham qamrab olgan. Jumladan, bolalar bog'chasida bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha quyidagi maxsus, xususiy vazifalar amalga oshiriladi:

1. Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutqini o'stirish, boyitish.

2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish.

3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.

4. So'zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish.

5. Hikoya qilishga o'rgatish (monologik nutqni shakllantirish).

6. Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish.

7. Bolalarni boshlang'ich savodga tayyorlash.

Ushbu vazifalar har bir guruhdagi bolalarning yoshi va individual xususiyatlariga ko'ra quyidagicha taqsimlangan:

Birinchi va ikkinchi kichik guruhda.

1. Tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutq o'stirish, lug'atini boyitish.

2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish.

3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.

4. So'zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish.

5. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish.

Ushbu guruhda hikoya qilishga (monolog nutqqa) o'rgatish bo'yicha boshlang'ich ma'lumot berish belgilangan.

Kichik guruh bolalari tarbiyachining hikoyasini eshitib, uning savollariga javob bera olishi, mavzulardagi rasm yuzasidan suhbatlarda ishtirok etishi bilan birga, avval eshitgan ertak va hikoyani xotirasida tiklab, uning mazmunini buzmasdan aytib bera olishlari lozim.

O'rta va katta guruhlarda tarbiyachi bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirishi kerak:

1. Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutqini o'stirish, lug'atini boyitish.

2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish.

3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.

4. So'zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish.

5. Hikoya qilishga (monolog nutq) o'rgatish.

6. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish.

Maktabga tayyorlov guruhida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutqini o'stirish, lug'atini boyitish.

2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish.

3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.

4. So'zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish.

5. Hikoya qilishga o'rgatish (monolog nutqni shakllantirish).

6. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish.

7. Bolalarni savod o'rgatishga tayyorlash.

1. Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutqini o'stirish, lug'atini boyitish. Lug'at ustida ishlash bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish orqali amalga oshiriladi. Bolalarni tevarak-atrofdagi buyumlar, hodisalar, o'simliklar, hayvonot dunyosi, kattalar mehnati va h. k. lar bilan tanishtirish jarayonida ularning nomlarini, sifatlarini, xususiyatlarini, xarakterlarini so'zlar bilan aytamiz.

Masalan, buyumlarning nomini anglatadigan: *ko'zgu, taroq, sovun, tish va kiyim cho'tkalari, palos, gilam, javon, karavot, xontaxta*; sabzavotlarning nomini anglatadigan: *sabzi, karam, sholg'om, bodring, baqlajon*; o'simliklar: *daraxt, gul, o't* va boshqalar; mevalar: *olma, nok, olcha, gilos, olxo'ri* va hokazolar; uy hayvonlari: *xo'roz, tovuq, ot, sigir, it, mushuk, qo'y, eshak*; ularning bolalarining nomini bildiruvchi: *jo'ja, toychoq, buzoq, qo'zichoq, uloqcha, xo'tik*; harakatlarni ifodalovchi: *yuvnimoq, artmoq, pishirmoq, tayyorlamoq, kir yuvmoq, dazmollamoq, ekmoq* va boshqalar; sifatlarni bildiruvchi: *katta, kichik, qizil, sariq, ko'k, zangori, oq, qora, issiq, sovuq, shirin, achchiq* va hokazo so'zlar bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonida bolalar lug'atiga kiritiladi, buning natijasida ularning lug'ati boyitiladi, nutqi rivojlanadi.

Bolalar bog'chasida lug'at bilan ishlash dasturi mavjud bo'lib, tarbiyachi bolalarga atrofdagilar bilan tez nutqiy muloqotga kirishib keta olishiga yordam beradigan so'zlarni tanlab, maxsus usul va uslubiyot yordamida ular nutqiga kiritib boradi. Bolalarni so'zlarning ma'nosini tushunishga o'rgatibgina qolmay, balki bu so'zlarni o'z nutqlarida faol ishlatishga ham odatlantirib boradi. Shuningdek, tarbiyachi bola lug'atining qo'pol so'zlardan xoli

bo'lishiga, shevaga oid (mahalliy) so'zlarni adabiy tildagi so'zlar bilan almashtirishga e'tibor berishi kerak.

2. *Nutqning grammatik tomonini shakllantirish.* Lug'at tilning qurilish materiali hisoblanadi. Grammatika esa gapda so'zlarning o'zgarishi va ularning o'zaro bog'lanish usullarini belgilaydi. Bundan tashqari, grammatika tilning qurilish modelini (so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi) belgilaydi.

Bola atrofda gildardan grammatik tomondan shakllangan nutqni eshitadi. Eshitganining ma'nosiga tushunish bilan birga, tilning grammatik tomonini egallaydi, modelini bilib oladi. Bola ona tilining barcha grammatik shakllarini qancha erta o'zlashtirsa, u aqliy jihatdan shunchalik tez rivojlanadi. Agarda bolalarda nutqning grammatik tomoni noto'g'ri shakllansa, aqliy rivojlanishi kechikadi.

Shuning uchun tarbiyachi grammatikaning (morfologiya va sintaksis) turli shakllarini o'zlashtirishga yordam beruvchi didaktik o'yin va mashqlarni tashkil etadi. Masalan, kelishik qo'shimchasini o'zlashtirish uchun „Top-chi, men qayerda bo'ldim?“ (katta guruhda); ikkinchi darajali gap bo'laklarini o'zlashtirish uchun „Men boshlayman, sen esa oxiriga yetkaz!“; otning kelishiklar bilan turlanishini o'zlashtirishda „Top-chi, nima yetishmaydi?“, fe'l zamonlarini o'zlashtirish uchun „Siz nima qilishni xohlaysiz?“ va hokazolar.

3. *Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.* Bola, eng avvalo, tilning tovush tomonini egallashi kerak, ya'ni tovushlarni to'g'ri talaffuz etishi lozim. Nutqning tovush tomoni ustida ishlash o'zbek tilining fonetikasi va orfoepiyasiga asoslanadi. Bola kattalarga taqlid qilib, so'zlarda urg'uni to'g'ri ishlatishga o'rganib oladi, ona tilining intonatsion tomonini o'zlashtiradi hamda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga odatlanadi. Ayniqsa, bola atrofda gildar bilan nutqiy muloqotda bo'layotganda samimiy ohangda, burro va aniq gapirishga o'rgatiladi. Har bir bolada nutqning bunday sifatlarini tarbiyalash, kelgusi hayotida, ya'ni maktabda, o'quv yurtlarida ta'lim olishda, mustaqil mehnat faoliyatida jamoa, jamiyat o'rtasida o'z fikrlarini to'liq va tushunarli qilib bayon etishda muhim ahamiyatga egadir.

Agarda tarbiyachi bola nutqidagi, tovush talaffuzidagi nuqsonlar, ohang va tempga, diksiyasiga (aniq, burro gapirish), nutqining mazmundorligi va ifodaliligiga e'tibor bermasa, bunday nuqsonlar bilan maktabga borgan bola bilimni o'zlashtira

olmaydi va bu uning kelajakdagi mustaqil hayotida ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi, ya'ni nutqida nuqsoni bo'lgan bolaning nutqi boshqalarga tushunarsiz bo'ladi, o'z fikrini ifodalashda qiynaladi, uyaladi, natijada gapirmaslikka harakat qilib, indamas, jizzaki bo'lib qoladi. Bularning hammasi uning ruhiy rivojlanishiga ham ta'sir etadi.

4. *So'zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish.* Bolalarga bilim va tarbiya berishda so'zlashuv nutqiga (dialog) o'rgatish katta ahamiyatga egadir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan so'zlashish bolalarning kundalik faoliyatlari va turli voqeahodisalarni kuzatish natijasida hosil bo'lgan tushunchalarni aniqlash va uni bir tizimga solishda eng zaruriy ish vazifasi hisoblanadi. Bolada so'zlashuv nutqini shakllantirish — bu boshqalarning nutqini tinglash va tushunish, so'zlashishni quvvatlash, savollarga javob berish va so'rashdir (savollar berish). Bola so'zlashuv nutqining rivojlanganlik darajasi uning lug'at boyligiga, tilning grammatik tomonini egallaganligiga bog'liqdir. Bolani so'zlashuv nutqiga o'rgatish uning madaniy nutqni egallaganlik darajasiga ham bog'liqdir. Masalan, suhbatdosh bilan so'zlashayotgan vaqtda o'zining va suhbatdoshining nutqiga doimo e'tiborli bo'lish, suhbatdoshining nutqini aslo bo'lmaslik, savollarga odob bilan qo'l ko'tarib, ruxsat berilgach, javob berish, „ha“ yoki „yo'q“ deb qisqa javob bermay, balki shoshmay, o'ylab, so'ng to'liq, to'g'ri javob qaytarishga odatlantirish lozim. So'zlashganda o'rtacha ovozda fikrni tushunarli qilib bayon etish, nutqning yoqimli bo'lishiga e'tibor berish, shuningdek, gapirayotgan vaqtda yerga, tevarak-atrofga qaramay, balki o'rtoqlariga qarab, ikki qo'lini yonga tushirib, erkin, samimiy so'zlashishga o'rgatishi va buni har mashg'ulotda bolalardan talab qilib borish zarur.

5. *Hikoya qilishga (monolog nutqqa) o'rgatish.* Bolalarni maktabga tayyorlashda monolog nutqni rivojlantirish juda muhimdir. Monolog nutq boladan o'z fikrini tushunarli va izchil bayon qilishni talab etadi, bunday nutq turini esa bola 5 — 6 yoshda egallay boshlaydi. Chunki bu yoshda mantiqiy tafakkur rivojlana boshlaydi, bolada katta so'z boyligi to'planadi, tilning grammatik qurilishini egallab oladi. Nutqning monolog shakli bolalarga ko'rgan narsalari haqida batafsil va izchil so'zlab berishga, o'z fikrlarini to'g'ri tuzilgan jumlar orqali bayon qilishga imkon beradi.

Bogʻlangan nutq (monolog nutq) bolada boshqalarning hikoyasini tinglashga va uni tushunishga, qisqa, oʻzlariga tanish boʻlgan voqeani qayta hikoya qilib berishga, ertakda ishtirok etuvchi qahramonlarning gaplarini ifodali aytib bera olish malakasining shakllanishiga yordam beradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi (katta guruh) bolalar rasmda tasvirlangan narsalar, oʻz hayotiga doir voqealar haqida oddiy hikoyalar tuzishga, koʻrgazmali qurolsiz, mustaqil tarzda hikoya toʻqishga oʻrgatiladi. Bolalarni hikoya qilishga oʻrgatish ularning aqliy rivojlanishiga yordam beradi, fikr yuritish doirasi kengayadi, diqqat, tafakkur kabi psixologik jarayonlar rivojlanadi, nutqi ifodali boʻlib boradi, bolada oʻzini tutish va jamoa oldida soʻzlay olish malakasi hosil boʻladi.

6. *Badiiy adabiyot bilan tanishtirish.* Bolalar badiiy adabiyoti keng tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga va bola shaxsini har jihatdan kamol toptirishga yordam beradi. U bolaning kishilar hayoti haqidagi bilimlarini kengaytiradi, emotsional taassurotlarini boyitadi. Tarbiyachi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirar ekan, u bolalarda quyidagi malakalarni shakllantiradi: 1. Badiiy asarlarni tinglash va tushunish. 2. Asar qahramonlarining xatti-harakatlarini baholash. 3. Insonlardagi axloqiy sifatlar va nuqsionlarni taʼriflab berish. 4. Adabiy asarning mazmuniga doir savollarga javob qaytarish, kichik hajmdagi sheʼrlarni intonatsiyalarga rioya qilib yodlab olish va taʼsirchan qilib aytib berish va h. k.

Bola hikoya, sheʼr, ertak tinglayotganida quvonadi, huzurlanadi. Bu emotsional taʼsirlanish bolada badiiy adabiyotni estetik idrok etish, yaʼni uni sanʼat asari sifatida his etish qobiliyatining paydo boʻlishiga, unda axloqiy sifatlarning shakllanishiga yordam beradi. Tarbiyachi bolalarni badiiy asar bilan tanishtirar ekan, har bir bolada kitobga nisbatan qiziqish va muhabbatni tarbiyalashi kerak.

7. *Bolalarni boshlangʻich savodga tayyorlash.* Bolalar bogʻchasida bolalar nutqini rivojlantirish boʻyicha olib boriladigan barcha pedagogik ishlar ularni maktabga tayyorlashga qaratilganidir.

Maktabda toʻgʻri ogʻzaki nutq, boshqalarni tinglay olish, ular nutqining mazmunini tushunish, zarur boʻlganda oʻrtogʻining javobini toʻldirish yoki toʻgʻrilashda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Nutq bolalar uchun tahlil predmeti boʻlib qoladi, bu esa bolalardan zoʻr aqliy kuchni talab etadi.

Shunday qilib, bolalar nutqini rivojlantirish boʻyicha har

bir ish jarayoni bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bu borada yuqorida bayon etilgan vazifalarning har biri o'zining ta'limiy va tarbiyaviy jihatiga ega. Nutqni rivojlantirish jarayonida shaxsning axloqiy sifatlari shakllantiriladi, aqliy va estetik tarbiyaning muhim vazifalari hal etiladi.

5-§. Bolalar bog'chasida nutqni rivojlantirish dasturi, uning ilmiy asosi, tuzilishi va mazmuni

„Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ kabi „Nutq o'stirish dasturi“ ham ilmiy asoslarga tayanib tuzilgan. Eng avvalo, „Nutq o'stirish dasturi“ o'zining butun mazmuni bilan bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Bundan tashqari, „Nutq o'stirish dasturi“ bolalar tomonidan og'zaki nutqni o'zlashtirish to'g'risidagi psixologiya fani ma'lumotlari, bola bilish faoliyatining xususiyatlari to'g'risidagi nazariyaga asoslangan. Shuningdek, dastur bolaning rivojlanishida nutq faoliyatining roli to'g'risidagi nazariy asoslarga, didaktik prinsiplarga ham tayanib tuzilgan: „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“da „Nutq o'stirish dasturi“ har bir guruhda quyidagi bo'limlardan iborat qilib tuzilgan.

Birinchi va ikkinchi kichik guruhlarda:

1. Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutq o'stirish, lug'at ustida ishlash.
2. Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish.
3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.
4. So'zlashuv nutqini (dialog nutqni) shakllantirish.
5. Bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish.

O'rta va katta guruhlarda:

1. Tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutq o'stirish, lug'at ustida ishlash.
2. Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish.
3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.
4. So'zlashuv nutqini (dialog nutqni) shakllantirish.
5. Hikoya qilish (monolog nutq)ga o'rgatish.
6. Bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish.

Maktabga tayyorlov guruhi:

1. Tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutq o'stirish, lug'at ustida ishlash.

2. Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish.
3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.
4. So'zlashuv nutqi (dialog nutq)ni shakllantirish.
5. Hikoya qilish (monolog nutq)ga o'rgatish.
6. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish.
7. Savod o'rgatishga tayyorlash.

Tarbiyachi dastur bo'limlarini va har bir bo'lim talablarini yaxshi bilishi va uning mazmunini aniq belgilab olish malakasini egallagan bo'lishi kerak.

Masalan, tarbiyachi katta guruhdagi bolalarni „Tevarakatrof bilan tanishtirish va nutqini o'stirish“ bo'limida ko'rsatilgan obyekt yoki hodisa bilan tanishtirishda lug'at ishiga qo'yilgan aniq talablarni yaxshi bilishi, bolalarni turli savollarga javob berishga o'rgatishi kerak. Chunonchi: „Bolalar bog'chasida ta'lim va tarbiya dasturi“ning nutq o'stirish bo'limida katta guruhdagi bolalarni oshpazning mehnati bilan tanishtirish tavsiya etilgan. Bolalar oshpazning mehnati bilan tanishish jarayonida oshpazga ovqat pishirish uchun kerak bo'ladigan maishiy-xo'jalik asboblarning (go'sht maydalagich, tova, qozon, kappir, cho'mich, taxtakach va h. k.), oziq-ovqat mahsulotlarining (karam, lavlagi, loviya, no'xat, qovoq, sholg'om va h. k.), ovqatlarning (sho'rva, mastava, shavla, palov, moshxo'rda, manti, lag'mon, do'lma, chuchvara, kotlet va h. k.), ovqatlarni pishirish bilan bog'liq bo'lgan ish-harakatlarning nomlarini (qovuradi, qaynatadi, suzadi va h. k.) bilib oladilar va buning natijasida ularning lug'ati boyib boradi va faollashadi.

Dasturda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishga katta ahamiyat berilgan. Bolalar nutqning grammatik tuzilishini kattalar bilan muomalada bo'lish va taqlid qilish asosida asta-sekin o'zlashtirib boradilar. Nutqning grammatik tuzilishini egallash murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir.

Shuning uchun ham dasturda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish bo'yicha ish mazmuni har bir yosh guruhida bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilangan. Masalan, birinchi va ikkinchi kichik guruhda bolalarga otlarni ko'plikda to'g'ri ishlatish, sifatlarning ot bilan shaxs va sonda moslashuvini, fe'lning o'tgan va kelasi zamonda ishlatishni mashq qildirish, ularni so'roq so'zlarning intonatsiyasini egallashga tayyorlash kabi vazifalarni hal etish rejalashtirilgan bo'lsa, o'rta

guruhda esa bu vazifa ancha murakkablashadi. Endi ushbu guruh bolalari nutqini morfologik va sintaktik tomondan takomillashtirishga, otni kelishiklar bo'yicha to'g'ri turlashga, fe'llarni shaxs va zamonda to'g'ri tushlashga o'rgatiladi.

Katta va tayyorlov guruhlarida nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish bo'yicha dastur vazifalari va ularning mazmuni ancha murakkablashishi bilan ajralib turadi. Ushbu guruhdagi bolalarni o'z nutqlarida uyushiq bo'lakli, yoyiq va qo'shma gaplarning turli xillaridan (bog'langan qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap), ko'makchi, bog'lovchi va ravishlardan foydalanishga o'rgatish, otlarni ko'plikda (qo'ylar, jo'jalar, uloqchalar) to'g'ri ishlatish kabi malakalar takomillashtiriladi.

Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish — „Bolalar bog'chasida nutqni rivojlantirish dasturi“ning muhim bo'limlaridan biri. Tovush madaniyati ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni, diksiya hamda intonatsiyaga bog'liq bo'lgan nutqning ifodaliligini, so'zlashgan vaqtda to'g'ri nafas olish va chiqarishni, ovoz toni va tempini tartibga solishni o'z ichiga oladi.

Dastur maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aniq, shoshilmay, yetarlicha baland ovozda gapirishga, so'zlarni donadona qilib talaffuz qilishga, unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga, intonatsiya vositalaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatish kabi vazifalarni amalga oshirishni belgilab bergan. Dasturdagi ushbu vazifalar har bir guruhda, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilib boriladi.

Bolalarni so'zlashuv nutqiga o'rgatish. Bolalarni so'zlashuv (dialog) nutqiga o'rgatish bo'yicha dastur talabida ularni butun guruh uchun berilgan savollarga bitta-bittadan javob berishga, jamoa bo'lib so'zlashishga, suhbatda qatnashishga, o'rtoqlarining javobini qunt bilan tinglash va o'zi ham savol berishga o'rgatilishi ko'rsatilgan. Shu bilan bir qatorda, tevarak-atrofdagi kishilar bilan so'zlashganda samimiy, mazmunli gapirish kabi ijobiy xislatlar ham tarbiyalanib boriladi.

Dasturda o'rta guruhdan boshlab bog'lanishli nutqni rivojlantirish, ya'ni hikoya qilishga (monologik nutqqa) o'rgatish mo'ljallangan. Dastur 4 — 5 yoshdan boshlab bolalarni buyumlarni tasvirlashga (o'yinchoqlarni, o'simliklarni, kiyimlarni), ularning o'ziga xos belgilarini aytishga, qisqa, bolalarga tanish

ertaklarni, mashg'ulotlarda birinchi marta o'qib berilgan, hajmi uncha katta bo'lmagan hikoyalarni qayta hikoya qilishga o'rgatishni nazarda tutadi. Dasturda katta va tayyorlov guruhdagi bolalarni ijodiy hikoya qilish (tarbiyachi tomonidan boshlangan ertak yoki hikoyani nihoyasiga yetkazishga, taklif etilgan mavzuda alohida ertak yoki hikoya o'ylab topishga, taklif etilgan mavzu va reja asosida ertak yoki hikoya to'qish)ga, berilgan 3 — 4 so'z asosida ertak yoki hikoya o'ylab topishga, bolalarning shaxsiy tajribalari, hayotiy mavzular asosida hikoya yoki ertak tuzishga o'rgatish belgilangan.

Badiiy adabiyot bilan tanishtirish. Bolalarni badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishga dasturda alohida bo'lim ajratilgan. Bolalarning adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini va muhabbatini o'stirish va rivojlantirish maqsadida ularga hikoyalar, she'rlar o'qib beriladi, ertaklar hikoya qilib beriladi, she'rlar yod oldiriladi. Kitobdagi rasmlarni ko'rib chiqib, uni to'g'ri idrok etish, asar mazmunini tushunib olish, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholay olish, badiiy so'z jozibasini his eta olish qobiliyatini tarbiyalash kabi vazifalar dasturda ko'rsatilgan.

Dasturda katta va tayyorlov guruhidagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlash uchun ham alohida o'rin ajratilgan. Bu bolalarni ikki, uch, to'rt so'zdan iborat, ko'makchi va bog'lovchilarsiz gap tuzishga (masalan, „Koptok dumaladi“, „Chiroyli qo'ng'iroq“, „Ahmad koptokni oldi“, „Lola Ahmadga koptokni irg'ityapti“ va h. k. lar), so'zlarni bo'g'inlarga ajratishga (masalan, Lo-la, qo'-g'ir-choq, o'y-na-yap-ti) o'rgatadi.

„Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“dagi „Tevarakatrof bilan tanishtirish, nutq o'stirish“ bo'limlarining ikkita xususiyati bor:

— Bolalar bog'chasida ona tilini o'rgatish va shu orqali bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishga asoslanganligidir.

6- §. Dastur vazifalarini amalga oshirish yo'llari

Bolalar bog'chasida nutq o'stirish dasturi bolalarning u yoki bu faoliyati (o'quv, o'yin, mehnat, maishiy) jarayonida amalga oshiriladi.

Bolalar nutqini shakllantirish katta kishilar tomonidan ma'lum bir faoliyat orqali amalga oshiriladi. Bu faoliyat turlarini

shartli ravishda vositalar deb aytish ham mumkin. Shunday qilib, nutqni rivojlantirish vositalariga mashg'ulotlar, o'yin, mehnat, maishiy faoliyat yoki kundalik hayot faoliyati, san'at asarlarini idrok etish kabilarni kiritish mumkin. Ammo bu faoliyat turlarining barchasiga tarbiyachi va kattalar rahbarlik qiladi, boshqaradi, yo'llaydi.

Bolalar kundalik hayotdagi faoliyatlarida nutqdan mustaqil ravishda foydalanadilar. Ammo ularni kattalar nazoratisiz qoldirilsa, nutqida ba'zi nuqsonlar mustahkamlanib qoladi. Shuningdek, yaxshi tashkil etilmagan mashg'ulot, o'yin, mehnat, maishiy faoliyat ham bola nutqiga salbiy ta'sir etadi. „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“da ham bola nutqini rivojlantirish bo'yicha ikkita ish turi ko'rsatilgan: birinchisi — bolalarning barcha bog'cha xodimlari, tarbiyachilar hamda bir-birlari bilan erkin muomalada bo'lishga o'rgatish; ikkinchisi—nutq o'stirish bo'yicha mustaqil mashg'ulotlar. Bolalarni erkin muomalaga o'rgatish quyidagi faoliyatlar jarayonida amalga oshiriladi: a) maishiy faoliyatda (ertalabki kiyim almashtirishda, kiyinishda, ovqatlanish jarayonida, yuvinishda va hokazo); b) sayr vaqtida; d) o'yin jarayonida; e) tevarak-atrof bilan tanishtirishda (ijtimoiy hayot va yilning turli fasllaridagi tabiat bilan); f) mehnat jarayonida (xo'jalik-maishiy, qo'l mehnati); g) bayram tadbirlari vaqtida; h) boshqa mashg'ulotlarda (elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish, rasm, qurish, yasash, qirqib-yelimlash, jismoniy tarbiya, musiqa). Nutq o'stirish bo'yicha maxsus mashg'ulotlar hamma guruhlarda „Tevarak-atrof bilan tanishtirish, ijtimoiy hayot hodisalariga qiziqishni tarbiyalash“, „Nutq o'stirish“, „Badiiy adabiyot“, „Tabiat bilan tanishtirish va nutq o'stirish“ nomi bilan berilgan. Bola nutqini rivojlantirishning asosiy vositalaridan (shakllaridan) biri bu ta'limdir.

Ta'limning asosiy shakli mashg'ulotdir. Nutq o'stirish mashg'ulotlarida bola o'z nutqini tarbiyachining namunaviy nutqi bilan taqqoslashga, boshqa bolalar bilan o'quv materialini bajarishga, ya'ni tarbiyachining tushuntirishini, hikoyasini tinglashga, birgalikda rasmlarni, diafilmlarni ko'rishga, suhbatlashishga, didaktik o'yinlarda ishtirok etishga, birgalikda kuylashga, musiqa tinglashga, ma'lum bir obyektga diqqatini qarata olishga, navbat bilan gapirishga o'rganadi. Bolalar mashg'ulotda yangi bilimlar (voqea va hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarga taalluqli so'zlar,

nutqning grammatik shakllari) bilan tanishadilar, tarbiyachining nutqiy ko'rsatmasi orqali o'quv ishlarini bajarishga, o'z ishlariga baho berishga o'rganadilar.

Ona tilini o'rgatish mashg'ulotlarini didaktik maqsadiga ko'ra quyidagi tiplarga ajratish mumkin: yangi materialni bayon etuvchi mashg'ulotlar, bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlovchi mashg'ulotlar, bilimlarni umumlashtiruvchi va bir tizimga soluvchi mashg'ulotlar, yakunlovchi yoki tekshiruvchi-hisobga oluvchi-sinovchi aralash mashg'ulotlar.

Bolalar bog'chasida ilgari hosil qilingan *bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlovchi mashg'ulotlardan* keng foydalaniladi.

Masalan, sayohatlari haqida hikoya qilib berish, sport xonasi haqida suhbat, ilgari o'qib yoki hikoya qilib berilgan ertak yoki hikoyani qayta so'zlab berish, ilgari yod olgan she'rlarini takrorlash.

Bilimlarni umumlashtiruvchi va bir tizimga (sistemaga) soluvchi mashg'ulotlar.

Bu mashg'ulot turi o'zining mazmuni jihatidan ilgari hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlovchi mashg'ulot turiga yaqinroqdir.

Masalan, „Kimga nima kerak?“, „Do'kon“ o'yinlarida bolalar predmetlarni rangiga, shakliga, nima uchun mo'ljallanganligiga qarab tasniflaydilar.

Katta guruhlarda ona yurt, kattalarning mehnati, transport haydovchisining mehnati, kitoblar haqida umumlashtiruvchi (yakunlovchi) suhbat o'tkaziladi. Bunda bolalar oldiga materialni maqsadga qaratgan holda esga olish vazifasi qo'yiladi. Umumlashtiruvchi (yakunlovchi) tipdagi mashg'ulotlar bolalarda mantiqiy tafakkurni, analitik-sintetik faoliyatni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Hisobga oluvchi mashg'ulotlardan tasviriy faoliyatda keng foydalaniladi. Biroq bu mashg'ulot turi bolalarning ona tili bo'yicha bilim va malaka darajalarini aniqlash uchun zarurdir.

Ayrim bilimlar bo'yicha sinov-tekshiruv mashg'ulotlarini o'quv yilining boshida guruhga yangi qabul qilingan bolalarning bilimni aniqlash maqsadida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Qilingan ishlarga yakun yasash maqsadida yilning oxirida ham sinov-tekshiruv mashg'ulotlari o'tkaziladi.

Bolalar bog'chasida ko'proq *aralash turdagi mashg'ulotlar-*

dan foydalanish joriy qilingan. Masalan, bir mashg'ulotning o'zida bolalarni yangi bilim beruvchi material bilan tanishtiriladi, ilgari hosil qilingan bilim (o'tilgan material) takrorlanadi va mustahkamlanadi. Nutq o'stirish mashg'ulotlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ayrim vaqtlarda mashg'ulotni o'tkazishda qiyinchiliklar vujudga keladi.

Tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya, musiqa mashg'ulotlarida, hamma bolalar bir xilda faollik ko'rsatadilar, ammo nutq o'stirish mashg'ulotida hamma bolalar faol qatnashmaydilar. Rasm asosida hikoya tuzish, savollarga javob berish, she'rni yoddan aytib berish kabi topshiriqlar bo'yicha ba'zi bolalar javob beradilar, qolganlar esa o'rtoqlarining javobini to'ldiradilar. Mashg'ulot vaqti chegaralanganligi sababli, har bir bola bilan alohida shug'ullanish imkoniyati yo'q. Shuning uchun mashg'ulotlarda yuqori natijalarga erishish uchun ularni umumiy didaktik talablarga javob beradigan qilib tashkil etish kerak.

Har bir tarbiyachi mashg'ulotlarni tashkil etishda quyidagi didaktik talablarga qat'iy rioya qilishi lozim:

1. Mashg'ulotga oldindan puxta tayyorlanish, uning mazmunini, ta'lim usullarini aniqlash. Bunda ona tili bo'yicha bolalarning bilim va malakalari aniq bo'lishi kerak. Belgilangan dastur materialini o'rganish uchun zarur bo'lgan uslubiyotlar va usullar tanlanadi, mashg'ulotning tuzilishi va borishi oldindan o'ylab olinadi. Kerakli ko'rgazmali qurollar, o'quv jihozlari tayyorlab qo'yiladi, individual (yakkama-yakka) ta'lim vazifalari aniqlanadi (yakka beriladigan topshiriqlar, bolalarni javob berishga chaqirish navbati belgilanadi).

2. Aqliy ish bilan bandlik yukini to'g'ri taqsimlash (aqliy zo'riqishni oldindan belgilash). Tarbiyachi ta'limning rivojlantiruvchi tamoyiliga amal qilib, bolalardan aqliy faollikni talab etuvchi, murakkab vazifalar beradi. Ba'zan bolani aqliy ish bilan band qilish yoki aqliy zo'riqishni talab etuvchi ish yetarli bo'lmaydi: bolalarning o'zlari mustaqil ravishda ish ko'rishga kirisha olmaydi, analitik-sintetik xarakterdagi nutqiy vazifalarni hal eta olmaydi; predmetlar o'rtasidagi bog'liqlikni (aloqadorlikni) aniqlay olmaydi; o'xshash narsalarni guruhlay olmaydi va hokazolar.

Aqliy ish bilan bandlik yukini (aqliy zo'riqishni) to'g'ri taqsimlashda mashg'ulotning aralash strukturasi (tuzilishi), shuningdek, xulosa chiqarish va taqqoslash uchun beriladigan savollar yordam beradi.

3. Mashg'ulotning tarbiyaviy xarakterga ega bo'lishi.

Nutqni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'limning tarbiyaviy tomoni ham hisobga olinadi.

Bolalar tomonidan ona tilini egallash, uning boyligini, jozibadorligini bilib olish vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda yordam beradi. Ijtimoiy-tarixiy hayot voqealari, Navoiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Bobur, Amur Temur, Jaloliddin Manguberdi, Sobir Rahimov va hokazolar haqidagi hikoyalar axloqiy tuyg'ular bilan bog'liq bo'lib, ular bolalarni ona-Vatanga muhabbat, baynalmilallik, kollektivizm, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

4. Mashg'ulotning jo'shqinlik xarakteriga ega bo'lishi. Mashg'ulotni boshlashdan avval bolalarda bilim olish istagini, qiziquvchanlikni, yangilikni bilib olishga ishtiyoqni vujudga keltirish kerak. Mashg'ulot bolalarda qoniqish hissini vujudga keltirishi lozim.

5. Ta'lim usullarini mashg'ulotning tuzilishiga qarab tanlash. Mashg'ulotning tuzilishi avvaldan aniq qilib belgilab qo'yilishi kerak. Mashg'ulotning boshida yangi material bilan tanishtirishda avvalgi mashg'ulotlarda o'rganilgan materiallar esga olinib, uni bolalar tajribasi bilan bog'lanadi.

Katta guruhlarda ko'pincha mashg'ulotning maqsadi asoslab beriladi. Masalan, tarbiyachi bolalar bilan nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash bo'yicha mashg'ulotni boshlashda avval shunday deydi: „Aytilishi qiyin so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga o'rganish kerak. Chunki bizning nutqimiz to'g'ri, chiroyli, atrofdegilar uchun tushunarli bo'lishi lozim“.

Tarbiyachining bunday asosli gapi bolalarning yangi bilim va ko'nikmalarni egallash zarurligiga ishontradi.

Mashg'ulotning asosiy qismini aniq rejalashtirish kerak. Uning birinchi bosqichida (yangi vazifani hal etishda) bolalarga nutqiy faoliyatning va uning maqsadini aniqlashga yordam beruvchi ta'limning asosiy usullari mujassamlangan bo'ladi.

So'ngra bolalar tomonidan mustaqil ishlar (savollarga javoblar, mashqlar va h. k.) amalga oshiriladi, ammo tarbiyachi tomonidan rahbarlik qilinadi.

Mashg'ulotning yakuniy qismi qisqa va jo'shqinligi bilan ajralib turishi kerak, ya'ni mashg'ulotda o'zlashtirilgan materialni mustahkamlash uchun mavzuga yaqin bo'lgan badiiy asarlarni o'qib berish, she'r aytib berish, topishmoq aytish, didaktik o'yin kabi usullardan foydalaniladi.

6. Mashg'ulotning hamma bosqichlarida har bir bolaning nutqiy faolligini o'stirish. „Nutqiy faollik“ bolaning butun mashg'ulot davomida hammaga eshitarli qilib gapirishi emas, balki pedagogning va tengdoshlarining nutqini faol tarzda idrok qilishi va uni tushunishi demakdir. Imkoniyatga qarab ko'proq bolalarning ovoz chiqarib gapirishlari, faol nutqlari uchun sharoit yaratib berish kerak. Bolalarning nutqiy faolligini o'stirishda ko'rgazmali qurollardan oqilona foydalanish katta ahamiyatga ega. Shuningdek, faoliyatning xilma-xilligi, ular turlarining o'zgartirib turilishi, o'yin usullari ham bolalarning nutqiy faolligini oshiradi. To'g'ri tanlangan va tuzilgan savollar, topshiriqlar ham nutq faolligini ta'minlovchi vositalardan biridir. Tarbiyachi savollar, topshiriqlar berganda, guruhdagi hamma bolalarga qarata murojaat qiladi, zarur bo'lganda uni takrorlaydi, javob beruvchiga baland, aniq, hammaga tushunarli qilib gapirish kerakligi haqida ko'rsatma beradi, nutqiy rivojlanishi har xil darajada bo'lgan bolalardan navbatma-navbat so'raydi, hadeb bir boladan so'rayvermaydi, guruhdagi bolalarga javob berayotgan bolaning javobi to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini nazorat qilib borishni aytadi, ularga savol bilan murojaat etadi: u to'g'ri va to'liq javob berdimi? Yana nimalar haqida gapirishi kerak edi? Tartib bilan so'zlab berdimi?

Bolalarning nutqiy faolligiga baho beruvchi savollardan (Senga nimasi yoqadi?) foydalanish, ijodiy topshiriqlar berish, shaxsiy tajribalaridan foydalanishga undash va hokazolar ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

7. Ta'limning kollektiv xarakter kasb etishini bolalarga individual yondashish bilan birga qo'shib olib borish. Ishning frontal shakli — bu umumiy topshiriqlar, umumiy ritm, jo'r bo'lib javob berish va hokazolardir. Bular esa, o'z navbatida, bolalarga beriladigan alohida topshiriqlar bilan qo'shib olib borilishi kerak. Tarbiyachi yakka (individual) topshiriq va usullarni tanlashda bolaning bilim darajasini va nutq malakasini, qiziqishini hisobga olishi kerak.

Ayniqsa, pedagog mashg'ulotda nutqi yaxshi rivojlanmagan bolalarga alohida e'tibor qaratishi kerak. Shuningdek, indamas, muloqot qilishni istamaydigan, o'zini tutib tura olmaydigan, ezma bolalarga yakkama-yakka yondashishi lozim.

8. Mashg'ulotni to'g'ri tashkil etish. Nutq o'stirish bo'yicha mashg'ulotlar turli sharoitlarda tashkil etilishi mumkin. Ko'proq nutq o'stirish mashg'ulotlari guruh xonasida o'tkaziladi. Shu-

ningdek. qo'g'irchoq teatri, kinofilmlar, harakatli o'yinlar va boshqa mashg'ulotlar zalda o'tkaziladi. Yilning issiq kunlarida mashg'ulotlar guruh maydonchasida, peshayvonda ham o'tkazilishi mumkin. Nutq o'stirish mashg'ulotlari va boshqa mashg'ulotlarda quyidagi gigiyenik sharoitlarga amal qilish lozim: yorug'lik yetarli darajada bo'lishi, stollar, jihozlar bolalar bo'yiga mos bo'lishi kerak. Bolalarning va tarbiyachining doimiy o'tiradigan joyi bo'lishi, bolalar stol atrofida o'tirishganda tarbiyachini aniq ko'rib turishlari, bolalar tarbiyachiga, tarbiyachi esa bolalarga qarab o'tirishi kerak. Guruh xonasining havosi doimo yangilanib turishi lozim.

Mashg'ulotda harakatlanuvchi, mayda predmetlar, shuningdek, loto o'yini vaqtida tarqatma predmetlar bilan mashq qilishda, akvariumdagi baliqni, qafasdagi qushni va hokazolarni kuzatishda bolalar doira shaklida o'tirishadi, tarbiyachi esa bolalar o'rtasida o'tiradi. Mashg'ulot vaqtidagi muhit estetik talablarga javob berishi lozim.

9. Mashg'ulot natijalarini hisobga olish. Bolalar bilimi mashg'ulot jarayonining o'zida e'tiborga olib boriladi. Tarbiyachi mashg'ulot vaqtida bola nutqini kuzatib, uning javobini hisobga olib boruvchi daftarga belgilab qo'yadi. Ayniqsa, dasturning murakkab bo'limi hisoblangan hikoya qilishga o'rgatish bo'yicha bolalarning javoblarini kundalikka yozib boradi. Bunday hisobga olib borish tarbiyachi uchun kelgusi ish vazifalarini belgilab olishda yordam beradi.

10. O'tilgan materialni boshqa mashg'ulotlarda yoki boshqa faoliyatlarda mustahamlash. Bu talab didaktik prinsiplardan biri—takrorlash prinsipiga asoslangan. Bu talabga rioya qilish juda muhimdir. Chunki bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ish jarayonida murakkab aqliy ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Bolalarga ona tilini o'rgatish boshqa mashg'ulotlarda ham (dastlabki matematik tasavvurlarni shakllantirish, musiqa, tasviriy faoliyat va hokazolarda) amalga oshiriladi. Bu, o'z navbatida, bolaning turli faoliyatlarini tashkil etishda nutqning roli katta ekanligidan dalolat beradi.

Birgina mashg'ulot orqali hamma nutqiy vazifalarni (dastur talablarini) amalga oshirib bo'lmaydi. Masalan, maishiy faoliyatga, tabiat hodisalariga, maishiy-xo'jalik, qo'l mehnati va tabiatdagi mehnatga taalluqli so'zlar faqat tabiiy holda, bolalarning shaxsan ishtiroklari jarayonidagina (ovqatlanish, yuvinish, kiyinish,

o'simliklarni parvarish qilish, tabiatda mehnat qilish va hokazolarda) ular lug'atiga kiritiladi.

Mehnat va uning turlari (maishiy-xo'jalik, qo'l mehnati va tabiatdagi mehnat, bolalar lug'atini boyitishda va nutqiy munosabat malakalarini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Mehnat jarayoni haqidagi tarbiyachining hikoyalari bolalar tomonidan lug'atni faol o'zlashtirishda, bog'lanishli nutqni rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi.

O'yin bolalar nutqining rivojlanishi va boyishiga yordam beruvchi muhim vosita hisoblanadi. Har bir o'yin turi alohida ahamiyatga ega. Rolli o'yinlar ma'lum bir sohaga oid so'zlarni o'zlashtirishga, o'z fikrini mustaqil ravishda bayon etishga o'rgatadi. Kasbga taalluqli bo'lgan (shifokor, uy bekasi, tarbiyachi, haydovchi, sotuvchi) rolli o'yinlar kasbga oid so'zlarning bola lug'atiga jadal kirib borishiga hamda madaniy so'zlashish malakasini egallashiga yordam beradi.

Yasash, qurishga doir o'yinlar bolalarning lug'atini o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan so'zlar bilan to'ldirish va ularni nutqida faol qo'llashda muhim ahamiyatga ega. Bunday o'yinlar orqali bolalar narsalar (predmetlar)ning sifatini, o'lchamini, fazoviy joylashishini (yirik, yo'g'on, kalta, og'ir, yuqqa, uzun, yuqorida, pastda, oldinda, orqada, o'ngda, chapda va boshqalar) bilib oladilar va lug'atlarini boyitadilar.

Harakatli musiqa, sahnalashtirilgan o'yinlar bolalarda ifodali, mazmunli nutqni, ovozning to'g'ri tempini va ohangini, to'g'ri nafas olish va chiqarishni, diksiyani shakllantiradi.

Didaktik o'yinlardan bolalarning tevarak-atrof to'g'risidagi bilimlarini, lug'atlarini mustahkamlash uchun hamda nutqiy malaka va ko'nikmalarini (jumla tuzish, so'z shaklini o'zgartirish, hikoya tuzish va hokazolar) shakllantirishda foydalaniladi.

Tasviriy faoliyat, bolalar adabiyoti, bayram tadbirlari nutqni rivojlantirishning muhim vositalaridan hisoblanadi. Bu vositalar dastur materialini xotirada uzoq saqlashga yordam beradi, nutqning ifodaliligini ta'minlaydi. Tasviriy san'at bolalarni ko'plab savollar berishga undaydi, o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashishga o'rgatadi.

Maishiy faoliyat tarbiyachi tomonidan to'g'ri tashkil etilsa, u nutqni to'g'ri rivojlantirishning zaruriy vositasi bo'lib qoladi.

Tarbiyachi maishiy faoliyat (ovqatlanish, kiyinish, gimnastika, sayr, uxlashga tayyorgarlik va hokazolar) jarayonidagi

tarbiyaga vaqtni to'g'ri ajratib, to'g'ri rahbarlik qilsa, bola lug'ati tez boyiydi, so'zlashuv nutqi rivojlanadi. Shunday qilib, „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ning „Tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutq o'stirish“ bo'limlari, ularning vazifalarini amalga oshirishda tarbiyachi bolalar nutqini rivojlantirishning juda ko'p vositalaridan foydalanar ekan. Agar ushbu vositalarning barchasidan bir vaqtning o'zida bir butun pedagogik jarayon sifatida foydalansagina yaxshi natijaga erishishi mumkin.



Takrorlash uchun savollar

1. Nutq uslubiyoti fani nimani o'rganadi? Uning maqsadi nima?
2. Nutq o'stirish uslubiyoti qanday savollarga javob beradi?
3. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda ona tilining ahamiyati nimadan iborat?
4. Til tafakkur quroli va muomala vositasi deganda nimalarni tushunasiz?
5. Bolalarni axloqiy va estetik ruhda tarbiyalashda ona tilining roli qanday?
6. Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha ish vazifalari, mazmuni nimalardan iborat?
7. Bolalar nutqini rivojlantirish dasturining ilmiy asosi va tuzilishi haqida nimalarni bilasiz?
8. Bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha dasturiy vazifalarni amalga oshirish shakllari (vositalari) va mazmuni nimalardan iborat?



Amaliy topshiriq

1- topshiriq. Ona tilining (tilning) ahamiyati to'g'risida shoir-larning, yozuvchi va mutafakkirlarning pedagogik fikrlarini to'plab, albom tuzing.

2 - topshiriq. „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ning „Tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutq o'stirish, badiiy adabiyot“ bo'limlarini tahlil qiling.

3 - topshiriq. Mashg'ulotda bir necha bolalarning nutqini yozib oling, masalan, rasm asosida suhbat mashg'ulotidagi bolalar javobini yoki didaktik o'yin jarayonidagi bolalar nutqini yozing. Ularni tahlil qiling: suhbat mazmuni asosidagi savol va unga bolaning bergan javobi, talaffuzi, so'zlarni ma'no jihatdan to'g'ri ishlatadimi yoki yo'qmi, grammatik xatolari bormi.

TARBIYACHINING NUTQI — BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY MANBAYI

1- §. Tarbiyachi nutqining bolalar nutqini to'g'ri rivojlantirish uchun namuna sifatidagi aha- miyati

Tilshunoslik bolalar nutqni kattalarga taqlid qilish yo'li bilan egallab olishlarini isbotlab berdi. Tarbiyachining nutqi ona tilini endigina o'rganayotgan bolalar uchun namuna va ularga ta'sir etish vositasidir. Bolalar hali tajribalari yo'qligi, nutqlari yaxshi rivojlanmaganligi sababli kattalar nutqidagi yaxshi jihatlarga ham, yomon tomonlarga ham bir xilda taqlid qilaveradilar.

Har bir yosh guruhidagi bolalar, o'z tarbiyachilari bilan maishiy-xo'jalik, mehnat, o'yin faoliyatida muloqotda bo'ladilar. Tarbiyachi bolalar o'yinini tashkil etadi, badiiy asarlarni o'qib beradi yoki hikoya qiladi. Mana shu jarayonda tarbiyachi nutqining yaxshi tomonlari ham, nuqsonlari ham yaqqol namoyon bo'ladi va bu xususiyatlar tarbiyalanuvchilar nutqida o'z aksini topadi. Demak, bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchilarining nutq xususiyatlari to'laligicha tarbiyachi nutqiga bog'liq. Doimo bolalarning diqqat markazida bo'lgan tarbiyachining nutqi bolalar uchun madaniy nutq namunasi hisoblanadi.

Tarbiyachi har doim o'z nutqiga tanqidiy nuqtayi nazardan qarashi, agar nutqida biror kamchilikni sezsa, uni darhol bartaraf etishga harakat qilishi lozim. Biroq u har doim ham o'z nutqidagi kamchilikni aniqlashga muvaffaq bo'lmaydi, chunki uning diqqati nutqining shakliga emas, balki mazmuniga qaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari, uzoq vaqtgacha o'z nutqiga ehtiyotsizlik, e'tiborsizlik bilan qaraganligi tufayli, ayrim kamchiliklar nutqiga mustahkam o'rnashib qolishi va bu nuqson o'ziga mutlaqo sezilmasligi mumkin. Buning uchun tarbiyachi hamkasblarining ko'rsatmalariga amal qilishi va bu kamchilikni bartaraf etishga harakat qilishi kerak.

2- §. Tarbiyachi nutqiga qo'yiladigan pedagogik talablar

Tarbiyachi uchun namunali nutqni egallash — bu uning o'z kasb-koriga tayyorligini belgilovchi ko'rsatkich hisoblanadi.

Taniqli pedagog, bolalarni ona tiliga o'rgatish uslub va uslubiyotlarini ishlab chiqqan uslubiyotchi, maktabgacha tarbiya bo'yicha mashhur mutaxassis, professor Y.I.Tixeyeva tarbiyachi nutqiga yuksak baho berib, shunday degan edi: „Bog'chada bolalar beixtiyor taqlid qiladigan namuna tarbiyachi (bog'bon)ning tilidir, tarbiyachining tili bolalar tiliga g'oyat samarali va nihoyatda kuchli ta'sir ko'rsatadigan hamma narsalarni o'zida birlashtiradigan bo'lishi kerak. Bog'bonning tili bekam-u ko'st, adabiy talaffuzning har qanday nuqsonlaridan xoli bo'lishi lozim“.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, har bir tarbiyachi o'z nutqidagi nuqsonlarni aks ettiruvchi daftar tutishi, unga kamchiliklarini belgilab borishi, so'ngra ularni bartaraf etish bo'yicha reja tuzib, ishni tashkil etishi kerak.

Har bir tarbiyachi-pedagog nutqiga qo'yilgan talablarni juda yaxshi bilgan holda o'z nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etib borishi kerak.

Tarbiyachi nutqiga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardir:

1. *Nutq tovush tomonining to'g'riligi.* Agar tarbiyachining nutqi aniq bo'lsa, jummalarni, so'zlarni va har bir tovushni aniq talaffuz etsa, bolalar ona tilining tovush tomonini muvaffaqiyatli o'zlashtira oladilar.

Ko'p hollarda, ayrim tarbiyachilar tovushlarni noaniq talaffuz etadilar, so'zning tarkibidagi ayrim tovushlarni tushirib ketadilar, tovushlar o'rnini almashtiradilar.

2. *Adabiy til normalariga muvofiq to'g'ri talaffuz.* Tarbiyachi adabiy til normalariga amal qilishi, o'z nutqida turli mahalliy so'zlarni ishlatmasligi, so'z urg'ularini to'g'ri ishlatishi lozim.

3. *Nutqning intonatsion-ifodaviy vositalaridan to'g'ri foydalanish.* Nutqda fikrlar, his-tuyg'ularni aniq ifoda etish lozim. Bunga faqat so'zlar yordamidagina emas, balki nutqning intonatsion-ifodaviy vositalaridan: ovoz kuchi, temp, to'xtam, ritm, urg'u va hokazolardan foydalanish orqali erishiladi.

Tarbiyachining she'r, ertak va hikoyalar o'qib berayotganda ushbu vositalardan o'rinli foydalanishi bolalar asar mazmunini

yaqshhi tushunib olishlari va ona tilining go'zalligini his etishlariga yordam beradi.

Tarbiyachining bir xil ohangdagi nutqi kichkintoylarni zerik-tiradi, asar mazmuniga bo'lgan qiziqishini susaytiradi. Bunday nutqni eshitishdan zerikkan bola boshqa narsalarga chalg'iydi, so'ngra tarbiyachining nutqiga butunlay quloq solmay qo'yadi.

4. *Tarbiyachi nutqining jo'shqin, intonatsiyaga boy bo'lishi.* Shoshilib gapirish so'zlar tarkibidagi tovushlarni noaniq talaffuz etilishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun bolalar bilan nutqiy muloqotda bo'lganda shoshilmasdan, o'rtacha tempda (tezlikda) gapirish kerak. Bunday tempda gapirish nutqning aniq bo'lishini ta'minlaydi, aksincha, tez temp nutqning buzilishiga sabab bo'ladi, uni idrok qilishni qiyinlashtiradi.

Tarbiyachi ovozdan to'g'ri foydalanishi lozim. Haddan tashqari baland gapirish bolalarni charchatadi. Agar ovoz past va kuchsiz bo'lsa, bolalar mashg'ulotda zerikadilar.

5. *Tarbiyachi nutqining aniq, oddiy bo'lishi, fikrlar izchillik bilan bir-biriga bog'lanib, tushunarli ifodalanishi.* Bolalar tarbiyachidan, kattalardan tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz etishni o'rganibgina qolmasdan, balki tinglagan ertak va hikoyalarining mazmunini aniq, qiziqarli tarzda qayta hikoya qila olishga, tevarak-atrofnı kuzatish natijasida olgan taassurotlarini so'zlab berishga, o'z fikrlarini ketma-ketlik bilan bayon etishga, xulosalar qilishga ham o'rganadilar.

Nutqda bildiriladigan mazmunni bolalarga tushunarli, qiziqarli, bog'langan holda yetkaza olish tarbiyachi nutqining zaruriy xususiyatlaridan hisoblanadi.

Tarbiyachi fikrini ketma-ketlik bilan bayon etishi, o'z nutqini tushunarsiz so'zlar, murakkab va uzun jumlar bilan qalashtirib tashlamasligi kerak. Agar tarbiyachining nutqi qisqa jumladan iborat bo'lsa, uni bolalar oson o'zlashtiradilar. Aksincha, nutqdagi jumlar uzundan uzoq bo'lsa, nutqning mazmunini tushunib olish juda qiyin bo'ladi.

6. *Tarbiyachi lug'atining boy bo'lishi.* Tarbiyachi o'z nutqida so'zlarni to'g'ri va aniq ishlata olsa, u holda uning nutqi bolalarga tushunarli bo'ladi. O'zbek tilining lug'ati juda ham boy, u doimo yangi so'zlar bilan to'ldirib boriladi, iste'moldan chiqqan so'zlar yo'qolib boradi. Tarbiyachi bolalar bilan nutqiy muloqotda bo'lganda, ularning yoshini hisobga olib, ona tilining lug'at boyligidan keng foydalanmog'i lozim.

Soʻzlarni toʻgʻri tanlash tarbiyachi nutqini ifodali, mazmunli boʻlishini taʼminlaydi.

Yangi soʻzlarni ishlatishga juda ehtiyotlik bilan yondashish kerak. Bunda ushbularni hisobga olish lozim:

- birinchidan, bolaning yoshini hisobga olib soʻz tanlash;
- ikkinchidan, doimo yangi soʻzlarni lugʻatiga kiritish, lugʻatida bor boʻlgan soʻzlarni faollashtirish, ularning ahamiyatini tushuntirish.

Xulosa qilib aytganda, tarbiyachining hikoyasi toʻliq, chiroyli, soʻzlari toʻgʻri tanlab olingan, grammatik tomondan toʻgʻri shakllangan, mazmunli va ifodali, mantiqan bogʻlangan boʻlishi kerak.

Tarbiyachi hikoya qilib berishda sinonimlardan, oʻxshatish va hikoya soʻzlardan foydalanishi zarur. Bu tarbiyachi nutqining ifodali, jozibali, mazmunan boy boʻlishini taʼminlaydi. Shuningdek, tarbiyachi oʻz nutqida xalq ogʻzaki ijodidan (maqol, matal, tez aytish, topishmoq va h.k.), frazeologik soʻzlardan oʻrinli foydalanishi kerak.

7. Tarbiyachi nutqining samimiy boʻlishi. Tarbiyachi bolalar bilan ishlash jarayonida nutqining quyidagi jihatlariga eʼtibor berishi lozim:

1. Ona tilidagi hamma tovushlarni toʻgʻri talaffuz etishi, nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishi.

2. Sof, aniq-ravshan nutqqa ega boʻlishi, yaʼni diksiyasi yaxshi boʻlishi.

3. Nutqida adabiy talaffuzdan (soʻzlardan) foydalanishi, yaʼni orfoepik normalarga rioya qilishi.

4. Bayon etiladigan fikrlarning mazmuniga qarab intonatsiya vositalaridan (ovoz kuchi, tempi, urgʻu, toʻxtam, ritm, temp, ohang) toʻgʻri foydalanishga harakat qilishi.

5. Bolalar bilan nutqiy muloqotda boʻlganda yengil, sekin tempdagi, oʻrtacha baland ovozdagi nutqdan foydalanishi.

6. Bolalarning yoshiga qarab hikoya matnining mazmunini bayon etishda sinonim, omonimlardan va kinoya soʻzlardan, xalq ogʻzaki ijodiyotining namunalaridan foydalanishi.

7. Nutqning grammatik tomoniga eʼtibor bergan holda fikrini izchillik bilan, bir-biriga bogʻlab bayon etishi.

8. Bolalar bilan soʻzlashganda baland tonda gapirmaslik, qoʻpol soʻzlardan (adabiy til normalariga toʻgʻri kelmaydigan, mantiqsiz soʻzlardan) foydalanmaslik.

3- §. Tarbiyachining o'z nutqini takomillashtirish ustida ishlashining zarurligi

Nutqdagi kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etmaslik natijasida yillar o'tishi bilan bu nuqsonlar mustahkamlanib, kishilar uni sezmay ham qoladi.

Nutqida kamchiligi bo'lgan tarbiyachi bolalar bilan ishlashi mumkin emas.

Ko'pchilik kattalar nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish mumkin emas, deb hisoblaydilar. Lekin bu fikr to'g'ri emas. O'z nutqi ustida doimiy va qat'iy ishlagan tarbiyachi nuqsonlarini bartaraf etishi mumkin. Ayniqsa, tarbiyachi o'z nutqida sirg'aluvchi (s, z), shovqinli (sh, j, ch), sonor (l, r) tovushlar talaffuziga e'tibor berishi kerak. Agar tovush talaffuzida nuqsoni bo'lsa, artikulatsiya apparati a'zolarining harakatiga, tovush talaffuzini takomillashtirishga yordam beruvchi mashqlarni bajarishi kerak. Buning uchun maxsus adabiyotlardan foydalanishi lozim. (T.B. Filicheva, L.S. Volkova, G.Chirkina, L.Mo'minova. „Logopediya“. T., „O'qituvchi“, 1993; Q.Shodiyeva. „Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish“. T., „O'qituvchi“, 1994).

To'g'ri nafas olish va nafas chiqarish ustida ishlash. Tarbiyachi so'zlashganda to'g'ri nafas olib, uni to'g'ri chiqarishi nutqning jarangdor, ohangdor bo'lishiga yordam beradi. U normal holdagi ovoz va tovushning hosil bo'lishini ta'minlaydi, nutqning bir xilligi va musiqaviyligini saqlaydi, nutqning mazmundorligiga qarab ovoz kuchi va balandligini o'zgartirish imkonini beradi. Nutq jarayonida to'g'ri nafas chiqarishda kamchiligi bo'lgan tarbiyachi doimiy ravishda to'g'ri nafas chiqarishga yordam beruvchi quyidagi mashqlarni bajarib borishi zarur:

1. Tarbiyachi o'ziga qulay bo'lgan holatni (turgan holda, chalqancha yotgan holda, o'tirgan holda) tanlaydi. Bir qo'lini qorniga, ikkinchi qo'lini esa yondan ko'krak qafasining pastki qismiga qo'yib, burni orqali chuqur nafas oladi (bunda qorin yuqoriga ko'tariladi, oldinga chiqadi, ko'krakning pastki qismi kengayadi). Bu qorin va ko'krak qafasiga qo'yilgan qo'l yordamida his etiladi — shu vaqtning o'zida havo erkin, bir tekisda chiqariladi (qorin va ko'krak qafasining pastki qismi avvalgi holatiga qaytadi).

2. Burun orqali qisqa havo olib, uni 2 — 3 soniya davomida o'pkada ushlab turib, so'ngra og'iz orqali bir tekisda cho'zib chiqarish.

3. Og'izni ochgan holda qisqa nafas olish va cho'zib, ashula qilib unli tovushlardan (**a, o, i, u**) birontasini talaffuz etish.

4. Bir nafas chiqarishda bir nechta unli (**a→o→u**) tovushlarni talaffuz etish.

5. Bir nafas chiqarishda 3 dan 5 gacha sanash (bir, ikki, uch...), sekin-astalik bilan sanashni 10 — 15 tagacha yetkazish. Bir nafas chiqarishda teskari (o'n to'rt, o'n uch, o'n ikki) sanash.

6. Bir nafas chiqarishda (avval qisqa, so'ngra cho'zib) tez aytish aytib, bir jumla bilan ikkinchi jumla o'rtasidagi to'xtam vaqtda havoni yutish (nafas olish):

a) Oq choynakka oq qopqoq, ko'k choynakka ko'k qopqoq.

b) Chovli simdan, chovgun misdan.

d) Lola arralaydi, Sora allalaydi.

e) G'uj chumchuqlar g'ujum ustida chug'urlashib, g'uj chumchuqqa g'ujum cho'qilatmaydi.

7. Bir nafas chiqarishda yonib turgan shamni puflab o'chirish, shoxdagi barglarni, qoqigulni, yupqa qog'ozdan qirgilib, ipga osilgan kapalak shakllarini puflash va hokazolar.

Diksiya ustida ishlash. Diksiya deganda — sof, aniq, ravshan nutqni, tovush talaffuzini tushunamiz. Yaxshi diksiyani hosil qilish uchun artikulatsiya apparati a'zolarining harakatlarini takomillashtirish va mustahkamlash kerak (lablarni sust harakatlanishini, tilning kam harakatchanligini va hokazolarni bartaraf etish), to'g'ri nafas olish va chiqarishga ahamiyat berish lozim. Buning uchun pastki jag', til, lablar harakatini rivojlantiruvchi maxsus mashqlarni bajarish kerak. Tarbiyachi bu mashqlarni oyna oldida o'tirib bajaradi.

Pastki jag' muskullari harakatini rivojlantirish uchun tarbiyachi quyidagi mashqlarni bajarishi mumkin:

1. Pastki jag'ni tishlar orasidagi oraliq ikki barmoq kengligida bo'lguncha erkin ravishda qo'yib yuborish.

2. Bir nafas chiqarishda unli tovushlarni talaffuz etish.

3. Unli tovushlarni (**a, o, u, i**) ovoz qo'shib aytish.

4. Bir nafas chiqarishda bir nechta unli tovushni birgalikda cho'zib talaffuz etish.

5. Unli tovushlarga boy bo'lgan maqollar, tez aytishlar, topishmoqlar, so'z o'yinlarini aytish.

I. Tez aytishlar:

a) Juvarini chumchuq yeb ketdi. Egasi ertaga kelaman deb ketdi. Kelmay ketgur ko'r chumchuq juvarini egasi kelguncha vayron qilib ketdi.

b) To'rt laylak tog'ga chiqib, lakalakalamoqchi bo'libdi. Lakalakalasa ham lakalakalamoqchi bo'libdi.

II. So'z o'yinlari:

- a) Olmaxon olmani ol, ma!
Olmani olmaxondan olma.
- b) Menman sizning olmangiz,
Xomligimda olmangiz,
Nortojiga o'xshab so'ng
Voy qornim deb qolmangiz.

III. Topishmoqlar:

- a) Yurar tekis egatdan,
Barmoqlari po'latdan,
Yelkasida qopi bor,
Katta temir savatdan. (*Paxta terish mashinasi*)
- b) Kelsangiz ham,
Ketsangiz ham,
Har zamonda qo'l berishni,
Yo'l berishni,
Qilmas kanda. (*Eshik*)
- d) Tarvuzim bir oyoqli,
Po'sti rangdor bo'yoqli.
Ko'rsatar hamma yoqni,
Ham yaqin, ham yiroqni. (*Globus*)

IV. Maqollar:

- a) Birlashgan yovni yengar.
- b) Do'st so'zini tashlama, tashlab boshing qashlama.
- d) Avval o'yla, keyin so'yla.
- e) Bir kattaning so'ziga kir, bir kichikning.

Yuqoridagi vazifalarni bajarishda pastki jag'ning erkin tarzda pastga tushishini nazorat qilib turish kerak.

Pastki labning harakatini rivojlantirish uchun mashqlar. Pastki

labning yetarli darajada harakat qilmasligi sababli ayrim tarbiyachilarda ko'pgina unli va undosh tovushlar aniq, ravshan talaffuz etilmaydi. Har bir tovushni talaffuz etishda artikulasiya apparatining ma'lum bir a'zosi harakat qiladi.

Masalan, „S“ tovushini talaffuz etganda artikulasiya apparati a'zolari quyidagi holatda bo'ladi:

— lablar kulgu holatida, ochiq;

— pastki va ustki tishlar bir-biriga yaqinlashgan, orasi biroz ochiq;

— tilning uchi pastki tishlar orqasida, yuqori qismi esa yuqori tishlar tomon biroz ko'tarilgan.

„Sh“ tovushini talaffuz etganda esa artikulasiya apparati a'zolari quyidagi holatda bo'ladi:

— lablar biroz oldinga naychaga o'xshab cho'zilgan;

— tishlar bir-biriga yaqinlashgan, ammo birikmagan (ular orasidagi masofa 1 mm ga teng);

— tilning uchi yuqorigi tishlar tomon ko'tarilgan.

Mana shu holatlarni hisobga olgan holda tarbiyachilar artikulasiya apparati a'zolarining harakatini takomillashtirish maqsadida ushbu mashqlarni bajarishlari foydadan xoli emas:

1. Tishlarni biriktirmasdan, lablarni kulgu holatiga keltirib, bir necha daqiqa ushlab turish.

2. Tishlarni bir-biriga yaqinlashtirib, lablarni oldinga naycha holatiga keltirib cho'zish.

3. Og'izni yumib, tishlarni bir-biriga jipslashtirib, lablarni kulgu holatiga keltirish.

4. Lablarni naycha holatiga keltirib oldinga cho'zish bilan lablarni kulgu holatiga keltirish mashqini navbatma-navbat bajarish.

Shunga o'xshash mashqlarni maxsus adabiyotlardan foydalanib bajarish kerak. (*M. Y. Xvatsov*. Logopediya. M., 1959, *T. B. Filicheva*, *L. S. Volkova*, *G. Chirkina*, *L. Mo'minova*. Logopediya. T., O'qituvchi, 1993, *Q. S. Shodiyeva*. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. T., „O'qituvchi“, 1984, 1994.)

Til muskullarini rivojlantirish uchun mashqlar. Til tovushlar hosil bo'lishida faol ishtirok etadi. Uning harakatiga qarab nutq aniq, ravshan bo'ladi. Ayniqsa, undosh tovushlarning birikmasidan iborat bo'lgan so'zlarni talaffuz etishda qiyinchiliklar vujudga keladi, chunki til harakati bir holatdan ikkinchi bir

holatga tez o'tishi zarur bo'ladi. Shuning uchun har bir tarbiyachi til muskullari harakatini rivojlantirish va mustahkamlash uchun bir qancha mashqlarni bajarishi lozim. Bular taxminan quyidagi mashqlardir:

1. Tilni chiqarib o'ngga, chapga, yuqoriga, pastga harakatlantirish.

2. Tilni chiqarib chapdan o'ngga, o'ngdan chapga qarab aylanma harakatlantirish.

3. Og'izni ochib, tilni yengil chiqarib, uni keng, tor, kosacha holatga keltirish.

4. Og'izni biroz ochib, til uchi bilan yuqorigi tishlarning tashqari va ichkari tomoniga tekkizish.

Tarbiyachi ushbu mashqlarni bajarishda maxsus adabiyotlardan (Logopediya. T., „O'qituvchi“, 1993- y., 75 — 79- betlar) foydalanishi mumkin.

Nutq orfoepiyasi (to'g'ri talaffuz etish qoidalari) ustida mashq qilish. Nutq orfoepiyasi ustida mashq qilish, nutqning adabiy talaffuzini o'zlashtirish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki talaffuz har doim ham qoida talabi asosida, ya'ni adabiy til normasi talablari darajasida bo'lmaydi. Shuning uchun ham adabiy til normalari darajasidagi nutqni suxandonlardan, badiiy so'z ustalaridan, namunali madaniy nutqqa ega bo'lgan kishilardan o'rganish kerak. Ularning nutqlariga taqlid qilish lozim.

Agar ayrim so'zlarning to'g'ri talaffuz etilishiga, urg'ularning ishlatilishiga shubha bo'lsa, lug'atdan foydalanish kerak.

Nutqning ifodaliligi ustida ishlash. Nutqning ifodaliligi ustida ishlashda og'zaki nutq uchun ifodalilikning intonatsion vositalaridan to'g'ri foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun tarbiyachi o'z nutqida urg'ularni to'g'ri ishlatish, ovoz tempini va kuchini o'zgartirish bilan so'zlarning mazmunini ajratish, to'xtamlardan nutqda ovozni vaqtincha to'xtatish (o'rinli foydalanish, nutqda ovozning balandligi va kuchiga qarab harakati, nutq tempi, ma'lum vaqt ichida aytiladigan so'zlar miqdori), ovoz balandligini o'zgartirish ustida mashq qilish lozim. Intonatsiya nutqni jonli, jo'shqin qiladi, fikrni to'liq va tugallangan holda bayon etishga yordam beradi.

Tarbiyachi o'z lug'atini, uning grammatik tomonini badiiy, ilmiy, maxsus va boshqa adabiyotlarni doimiy ravishda o'qib borish bilan boyitadi va takomillashtiradi. Biroq tarbiyachi adabiyotlarni o'qish jarayonida uning mazmuniga, yangi so'zlarga ahamiyat

beribgina qolmasdan, balki muallifning asar mazmunini ochishda tilning qaysi vositalaridan foydalanganligiga, qaysi soʻz va grammatik shakllarni ishlatganligiga, materialni qay darajada bayon etganligiga ham eʼtiborni qaratishi kerak.

Shunday qilib, tarbiyachi nutqidagi soʻzlar aniq tanlansa, jumlar grammatik tomondan toʻgʻri boʻlsa, undagi fikrlar oddiy, aniq, ravshan boʻlsa, izchil ketma-ketlikda bayon etilsa, bolalarning yoshi va psixik xususiyatlari hisobga olinsa, bunday nutq bolalar tomonidan osonlik bilan idrok qilinadi va ular uchun tushunarli boʻladi.



Takrorlash uchun savollar

1. Nima uchun tarbiyachi nutqi bolalar nutqini rivojlantirishda asosiy manba hisoblanadi?
2. Tarbiyachi nutqiga qanday talablar qoʻyilgan? U qanday boʻlishi kerak?
3. Tarbiyachi qanday qilib oʻz nutqi ustida ishlaydi? Nutqning qaysi sifatlarini takomillashtiradi?



Amaliy topshiriqlar

1. Tarbiyachining bolalar bilan soʻzlashishini kuzating. Uning nutqida qanday kamchiliklar bor? Tarbiyachi bolalar nutqidagi kamchiliklarga ahamiyat beradimi? Shular haqida yozing.

2. Tarbiyachi nutqini tahlil qiling: bolalar bilan soʻzlashganda tarbiyachining ovoz toni, talaffuzi, lugʻati, nutqining grammatik qurilishi.

3. Bironta guruhda mashgʻulotni (rasmga qarab suhbat yoki suhbat mashgʻulotini) kuzating. Mashgʻulot jarayonida tarbiyachining xulqiga va nutqiga ahamiyat bering.

4. Tarbiyachi lugʻatini boyitishga yordam beruvchi soʻz materiallarini (maqol, matal, topishmoqlar, tez aytishlar, soʻz oʻyinlari, omonim, sinonim, paronim, antonim soʻzlar va boshqalar) toʻplang, ularni amaliy daftarga yozing.

5. Bolalar uchun hikoya tuzing. Hikoya uchun bolalar yoshiga mos va qiziqarli boʻlgan, oʻzingizning shaxsiy hayotingizga taalluqli voqealarni tanlang. (Masalan: „Eng qiziq oʻtgan kunim“, „Bogʻchamiz hovlisiga koʻchat oʻtqazdik“, „Bizning bogʻimiz“ va hokazo.)

ILK YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYOTI

1- §. Ikki yoshgacha bo'lgan bolalarning rivojlanishida nutqning ahamiyati

Ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalasi pedagogikaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha uzoq va ko'p yillar davomida tadqiqot ishlari olib borildi. Bu masala bo'yicha mashhur olimlar, amaliyotchi-pedagoglar, metodistlardan Y. I. Tixeyeva, N. M. Shelovanov, N. M. Aksarina, N. F. Lasigina, Y. K. Kaverina, G. L. Rozengart-Pupko, G. M. Lyalina, V. A. Petrova, N. S. Kar-pinskaya, I. A. Panina, S. L. Novoselova, Y. V. Zvorgina, I. M. Kononova, N. N. Palagina, M. I. Popova, Y. I. Radina va boshqalar tadqiqot ishlari olib bordilar.

Bola hayotining birinchi yili eng mas'uliyatli davr bo'lib, bu davrda bola nutqida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu bolaning umumiy rivojlanishida namoyon bo'ladi.

Bola tayyor nutq apparati bilan tug'iladi, lekin u gapirmaydi. Buning sabablari bir qancha:

1. Yangi tug'ilgan chaqaloq (go'dak) o'zining nutq apparatidan foydalanish ko'nikmasiga ega emas, bu ko'nikmani unda hosil qildirish kerak.

2. Unda nutq uchun mavzu (obyekt) yo'q, u bu mavzuni (obyektni) to'plashi kerak.

3. Unga nutqning so'z shakllari tanish emas, bola ular bilan tanishishi kerak.

4. Nutq tafakkur bilan bog'liq, shuning uchun bolaning tafakkurini rivojlantirish kerak.

5. Nutq kishilarning bir-birlari bilan bo'lgan munosabatida rivojlanadi, go'dak hali atrofini o'rab olgan kishilar bilan aloqa o'rnatgan emas.

Mana shu yuqoridagi yo'nalishlarga qarab, bolalar nutqining rivojlanishiga rahbarlik qilish kerak. Bola nutq apparatining takomillashishiga va nutqining rivojlanish jarayoni tezlashishiga ta'sir etish lozim.

O'z vaqtida, to'liq qiymatga ega bo'lgan nutqni egallash bo'lada to'liq qiymatga ega bo'lgan psixik jarayonning vujudga kelishida va uni kelgusida rivojlantirishdagi eng muhim vositalardan biri ekanligini olimlar o'zlarining ilmiy-nazariy qarashlarida isbotlab berishgan.

Bolada nutq ilk yoshidanoq shakllana boshlaydi. Bu davrda egallangan nutq bolaning kelgusida ona tilini mukammal egallashida asosiy zamin bo'lib xizmat qiladi. Bola tug'ilishi bilan atrofdagilar bilan nutqiy munosabatga kirishadi, bu munosabat orqali o'zidagi hamma kuch va qobiliyatni rivojlantiradi.

Tarbiyachi-hamshira ilk yoshdagi bolalar nutqini o'stirishga jiddiy e'tibor berishi va uni rivojlantirishga oid barcha ishlarni sistemali tarzda tashkil etishi lozim.

Ilk yoshidagi davr bolaning jismoniy va ruhiy tomondan tezkorlik bilan (intensiv) rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Bu yoshda markaziy nerv sistemasining rivojlanishida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ladi va miya fiziologik jihatdan yetilib bo'ladi.

Masalan, 7 oylikda bolaning miyasi ikki baravar, bir yoshida uch baravar o'sadi. 2 yoshida esa katta yoshdagi kishilar miya og'irligining 70 foizini tashkil etadi.

Bola ikki yoshli davrida aniq harakatlarni shakllantirish uchun javobgar bo'lgan markaziy nerv sistemasining bo'limi — miyacha 5 baravar, xotira, tafakkur, nutq va xayol kabi ruhiy jarayonlar hamda ixtiyoriy harakatning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan bosh miya po'stlog'ining maydoni esa 2,5 baravar kattalashadi.

Fiziologlarning ilmiy nazariyalariga ko'ra, markaziy nerv sistemasining funksiyalari ularning tabiiy ravishda shakllanish davrida mashq qilish va tarbiyalanishga yengillik bilan moyillik bildiradi.

Bolaning uch yoshgacha bo'lgan davri uning nutqi, tafakkuri va bilish faoliyatining rivojlanishi uchun eng qulay bosqich hisoblanadi. „Bu davrga kelib miyaning nutq bo'limi anatomik tomondan yetilib bo'ladi, bola ona tilining asosiy grammatik shakllarini egallaydi, ko'p so'z to'plamiga ega bo'ladi. Agar uch yoshgacha bo'lgan bolalar nutqiga yetarlicha e'tibor berilmagan bo'lsa, u vaqtda kelgusida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish uchun katta kuch va g'ayrat sarf etishga to'g'ri keladi“,— deb ta'kidlaydi o'zining tadqiqotida M.M.Kolsova (M. M. Колсова. Ребенок учится говорить. М., 1973, 5- bet).

Ilk yoshdagi bola nutqining o'z vaqtida va to'g'ri rivojlanishi aqliy rivojlanishning asosidir. Nutq vositasida bola bilan kattalar o'rtasida turli munosabatlar o'rnatiladi. Yaxshi rivojlangan nutq ruhiy jarayonlarning (xotira, tafakkur, xayol va boshqalar) rivojlanishiga, bolalarning bog'cha davridagi va undan keyingi faoliyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalar nutqining rivojlanishi bilan kattalar nutqining tarbiya vositasi sifatidagi roli ortib boradi.

Aksincha, bolaning bog'cha yoshigacha bo'lgan davrida nutqning rivojlanishiga tarbiyachi-hamshiraning yetarlicha ahamiyat bermaganligi, unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatmaganligi natijasida bolalar bog'cha yoshida (3—4 yoshda) ham nutqni yaxshi egallay olmaydilar. Bolalar nutqni ancha kechikib egallashlari sababli, ularning nutqida so'zlar miqdori yetishmaydi, grammatik xatolar, talaffuzida nuqsonlar juda ko'p bo'ladi. Buning oqibatida bola o'z fikrini boshqalarga bildirishga qiynaladi, atrofdagilar bilan muomala qilish imkoniyatlari cheklanadi. Natijada tarbiyachilar, ota-onalar nutq vositasida bolalarga ta'lim-tarbiya berish imkoniyatlaridan foydalana olmaydilar. Shuningdek, nutqning yetarlicha rivojlanmaganligi bolalarni shaxs sifatida har tomonlama barkamol inson bo'lib yetishishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ya'ni barcha ruhiy jarayonlar — idrok, xotira, diqqat, fikr yuritish operatsiyalari, xayol rivojlanishdan orqada qoladi, ularga aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, mehnat tarbiyasini berish imkoniyatlari chegaralanadi. Bola nutqini ilk yoshdan boshlab to'laqonli o'stirish sohasida olib borilgan izlanishlar natijalariga ko'ra, kattalarning bola bilan yaqindan munosabatda bo'lib, qulay shart-sharoitlar yaratishlari nutqni o'z vaqtida o'stirish imkonini beradigan tarbiyaviy ta'sirning asosiy shaklidir.

Bir yoshgacha bo'lgan bolalarda nutq o'stirishning tayyorgarlik bosqichi.

Ilk yoshdagi bolalar nutqining rivojlanishi ikki davrdan iborat:

1) tayyorgarlik davri. Bu davr bir yoshgacha bo'lgan bolalar hayotini o'z ichiga qamrab oladi;

2) nutqning mustaqil rivojlanishi davri. Bu davrga ikki va uch yoshdagi bolalar kiradi.

Bolaning tug'ilgandan keyin bir yoshgacha bo'lgan davri nisbatan kam harakat va „nutqsiz“ taraqqiyot davridir. Bu davrda bolaning o'sishi va taraqqiyoti oila va yashidagi sharoitga va tarbiyaga bog'liq bo'ladi. Lekin shunday bo'lsa ham bu davr har jihatdan juda ildam rivojlanish davridir.

Bola hayotining birinchi yilida bolaning har tomonlama tarbiyasiga katta ahamiyat berish va quyidagilarni amalga oshirish lozim: ko'ruv, eshituv organlari, sezish taassurotlarini, emotsional his-tuyg'ularni bolaning jilmayishi, kulishi, narsa-buyumlar bilan harakat qilishini shakllantirish.

Bir yoshgacha bo'lgan bola hayotini to'rt davrga bo'lib o'rganish lozim.

- 1) tug'ilgandan 2,5 — 3 oylikkacha;
- 2) 2,5 — 3 oylikdan 5 — 6 oylikkacha;
- 3) 5 — 6 oylikdan 9 — 10 oylikkacha;
- 4) 9 — 10 oylikdan 1 yoshgacha.

Bu davrlardagi vazifalar turlicha bo'lib, shu vazifalar asosida nutqni o'stirishga tayyorgarlik ishlari olib boriladi.

Nutqqa tayyorgarlik davrining o'zi uch bosqichdan iborat:

1. Chinqirish davri (tug'ilgandan 2,5 — 3 oylikkacha).
2. Guvrash davri (2,5 — 3 oylikdan 5 — 6 oylikkacha).
3. Til chiqarish davri (5 — 6 oylikdan 9 — 10 oylikkacha va 9 — 10 oylikdan 1 yoshgacha).

1. Chinqirish davri. Go'dak (tug'ilgandan 2,5 — 3 oylikkacha) hali o'zining nutq apparatidan foydalana olmaydi, u faqat chinqirish bilan, ya'ni ovoz reaksiyalari bilan turli istak va xohishlarini bildiradi: „Qornim ochdi, ovqatlanmoqchiman“, „Tagim ho'l bo'ldi, quruqlang“, „Qomim og'riyapti“ va boshqalar.

Go'dakning chinqirishi ma'lum bir kommunikativ vazifani (muomala vazifasini) bajaradi. Chinqirish davrida sensor jarayonlarini taraqqiy qildirish, ko'rish, eshitish va sezish taassurotlarini (tevarak-atrofdagi kishilar va buyumlar bilan bog'liq bo'lgan taassurotlarni) ta'min etish zarur. Bolani unga so'z qotayotgan katta yoshdagi kishilarga bo'yalgan va yaltiroq o'yinchoqlarga diqqat bilan qarashga, harakatdagi buyumlarni ko'z bilan kuzatishga odatlantirish zarur. Turli xil tovushlarga, katta yoshdagi kishining so'zi, qo'shig'iga, shiqildoqning shaqillashiga quloq sola bilish malakasini o'stirish lozim. Bolalarda ko'rish va eshitish malakasini o'stirishga yordam berish zarur, chunki bu malaka bolaning umumiy o'sishi uchun, tevarak-atrofdagilar bilan munosabatda bo'lishi va emotsional reaksiyalar hosil bo'lishi uchun katta ahamiyatga egadir. Bola 1 — 1,5 oylik (uch-besh haftalik) bo'lganida unda dastlabki quvonch alomatlari paydo bo'ladi, unga kulib boqqan, so'z qotgan kishiga javoban tabassum qiladi. Bola ikki-uch oylik bo'lganda esa katta

yoshdagi kishilar bilan munosabatda bo'lganda faqat jilmayibgina qolmay, balki turli ovozlar ham chiqara boshlaydi, qo'l va oyoqlarini tez-tez tipirchilatadi. Bolaning bunday emotsional-ifodali reaksiyasi uning organizmini, umumiy hayotiy faoliyati darajasini o'stiradi, harakatlari va ovoz reaksiyasining o'sishiga yordam beradi.

Bola hayotining birinchi oylarida unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uni parvarish qilish vaqtida amalga oshiriladi. Ular kompleks xarakterga ega bo'lib, bular: a) ko'ruv organiga; b) eshituv organiga; d) sezgi organiga ta'sir etadi.

Bolaga ta'sir ko'rsatish ularni tinchlantirishga, bezovtalikni yo'qotishga qaratilgan bo'ladi. Buning uchun har doim kattalarning chehralarida quvnoqlik alomati, jilmayish holatlari bo'lishi, so'z ohangi muloyim, yumshoq bo'lishi lozim. Kattalar bolaning oyoq-qo'llarini, orqasini silaydi, yonini oladi, erkalaydi va h. k. Mana shu harakatlarni bola bilan „gaplashish“ orqali bajarishi lozim. Buday „gaplashish“ mazmun jihatidan juda oddiydir. Bundan asosiy maqsad, bolani tinchlantirishdan, unga o'zining mehribonchiligini bildirishdan iboratdir (Salim, Salimjon, yig'lama, hozir senga ovqat beraman. Yig'lama, mening erkatoym, shiringina uxlagin. Hozir men sening tagingni quruqlayman, keyin tinchgina uxlaysan. Seni hech kim ko'tarmadimi, hozir men seni sayrga olib chiqaman va hokazo). Bola hayotining birinchi oyi oxiri va ikkinchi oyining boshida muomalasi faollashadi. Bu davrda bolada ijobiy-emotsional holatlar paydo bo'la boshlaydi.

Bu davrda kattalar kundalik tartib daqiqalarida va chiniqtirish paytlarida bolaning ko'ruv, eshituv va sezgi organlariga kompleks ta'sir etishni amalga oshiradilar (xuddi birinchi oylardagi kompleks ta'sir etishdek).

Bolaning ko'ruv va eshituv organiga ta'sir etish jarayonida bola nigohini o'ziga qaratishi va uni bir necha daqiqa ushlab turishi kerak.

Bola bilan „gaplashish“ tinch ohangda, xuddi bola hayotining birinchi oylarida „gaplashgandek“ bo'lishi kerak. „Gaplashish“ ning mazmuni xuddi avvalgidek (bir oylikdagidek) sodda bo'lsa-da, ovoz ohangi xilma-xillikni talab etadi. Bu oyda bolaning ovoz reaksiyasi ifodali bo'lib boradi: baland ovozda, qichqirib, qiqir-lab kula boshlaydi. Kattalarning bola bilan „gaplashishi“ bolaning qichqirig'ini to'xtatadi. Bu bolaning kattalar bilan muomalasi ancha faollashganidan dalolatdir.

2. Guvrash davri. Bu davrga 2,5 — 3 oylikdan 5 — 6 oylikkacha bo'lgan payt kiradi. Bu oylarda bolalarda sezish qobiliyatini yanada o'stirish va idrok eta bilishni tarkib toptirish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish lozim. Bola bu davrda ba'zi bir buyumlarni (shisha va shiqildoq) farq qila boshlaydi, o'ziga yaqin kishilarni begonalardan ajrata boshlaydi, onasini va o'ziga yaqin kishilarni ko'rgan zahoti taniydi.

Bolada tovushlarni diqqat bilan tinglash va bir-biridan farqlash qobiliyati o'sa boshlaydi, tanish tovush diqqatini darrov o'ziga jalb qiladi, tinchlantiradi va quvontiradi.

Bola 4 oylik bo'lganida shiqildoq tovushiga yoki ko'rinmasdan chaqirayotgan kishi ovozigacha boshini buradi va uni topib oladi.

Bu oyda bola diqqatini musiqaviy tovushlarga jalb etish kerak. Qo'shiqlar, musiqaviy o'yinchoqlarning ohangdor jaranglashi bolada quvnoq kayfiyat qo'zg'aydi, uning diqqatini kattalarning musiqa sadosiga uyg'un suratda bayroqcha, ro'molcha bilan ijro etiladigan harakatlarga jalb etadi.

Bola to'rt oylik bo'lganida qiqirlab kuladi, u o'zi bilan har kuni muomalada bo'ladigan kishilarga juda ham o'rganib qoladi. Shuning uchun bolaga tez-tez so'z qotib turish kerak. Kattalar bolalar bilan muomala qilish jarayonida bolada tovushga javoban tovush chiqarish qobiliyatini paydo qilish va o'stirish kerak. Bola 3 — 4 oylik bo'lganda uning „gugu“ lashiga (g-g, bu-u), 4, 5 oylik bo'lganda esa: „ma-ma“, „da-da“, „buv-buv“, „baba“, „aya“, „yya“, „a-na“ kabi unli tovushlar ko'proq bo'lgan bo'g'inlarni takrorlashiga ahamiyat berish kerak. Bolada „gugu“ lash qobiliyatini o'stirishga harakat qilish uning tili chiqishiga yordam beradigan artikulatsiya apparatining o'sishiga va tovushga quloq sola bilish faoliyatini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Agar bola katta kishi tomonidan talaffuz etilgan („ma-ma-ma“) bo'g'inni takrorlasa, unga kulib boqib (tasdiq ma'nosida), silab qo'yish va yana bir marta quvnoq ohangda mashqni takrorlash kerak. Mashg'ulotning oxirida ota yoki ona (tarbiyachi-hamshira) bolaning harakatini yana bir marta tasdiqlaydi. Tasdiqlash vaqtida so'zlarni to'liq aytish kerak.

3. Til chiqarish davri. Bola 5 — 6 oylik bo'lganda kattalar, bolalar, hayvonlar, atrofdagi o'yinchoqlar, buyumlar bilan ko'proq qiziq boshlaydi. Bola bularning hammasini bir-biridan yaxshigina farqlay oladi: notanish odamlarni ko'rganida ulardan yuz o'girib olib, hatto yig'lab yuborishi mumkin. Kattalar

og'zidan chiqayotgan tovushga quloq soladi, tovush talaffuzini va ba'zi bir so'zlarni farqlaydi, kattalarning ovoz ohangiga ongli tarzda javob beradi, uni nutqning mazmuni bilan bog'lay oladi. Endi nutq bilishning elementar funksiyasini bajara boshlaydi.

Masalan, ota yoki ona qo'g'irchoqni ko'rsatib, uni qanday raqsga tushishini quvnoq ohangda aytib ko'rsatadi. Yoki qo'g'irchoq stol ustidan tushib ketganda, ular ovozga achinish ohangini berib, shu vaziyatga mos so'zlarni aytadi. Bu bilan kattalar harakat va ovoz ohangiga ma'no, mazmun beradilar, ya'ni ular, qo'g'irchoq yiqilib tushdi, uning oyog'i og'riyapti, u yig'layapti, unga mehribonlik qilish kerak (uni silab qo'yish kerak) kabi gaplar bilan bolani ovutadilar.

Nutqni o'stirish, kattalar nutqini tushunish, faol nutqqa tayyorlash bu yoshdagi bolalar tarbiyasining muhim vazifasidir.

Bola 7 oylik bo'lganda kattalarning unga bergan savoliga („Oying qani?“ „Soat qani?“) qarab yaqinida turgan kishiga yoki devorda, javon ustida turgan buyumga bosh burib qaraydi va uni ko'zi bilan qidirib topadi.

8 — 9 oylik bo'lganda nomi aytilgan buyumni zo'r berib axtaradi va u buyum qayerda turgan bo'lmasin, uni ko'zi bilan axtarib topadi. Bola 6 oylikdan 9 oylikkacha takror-takror aytilgan so'zlarni, „chapakka ho-chapakka“, „chimo-chimo“, „sarak-sarak“, „assalom“ „xayr-xayr“, „qo'lingni ber“ kabi harakatlarni farq qila boshlaydi va ularni bajon-u dil bajaradi, tanish harakatlarni bildiradigan so'zlarni („o'tir“, „yot“ kabi) tushunadi.

Tevarak-atrofdagi kishilar nutqini tushuna boshlagach, bolada faol nutq kurtaklari paydo bo'ladi. Tevarak-atrofdagilar ta'siri ostida bola kattalar talaffuz qilayotgan tovushlarga taqlid qila boshlaydi, bu tovushlarni qayta-qayta takrorlaydi, tovush reaksiyalariga diqqat bilan quloq soladi. Shu tariqa bolada faol nutqni o'stirishga sharoit yaratiladi.

5 — 6 oylikdan 9 — 10 oylikkacha bo'lgan bolalarda nutqni rivojlantirishning asosiy vazifasi kattalar nutqida uchraydigan tovush birikmalarini tushunishga va unga taqlid qilishga o'rgatishdan iboratdir.

Bunday yakkama-yakka mashqlar o'tkazishdan tashqari, guruhlar bilan ham o'yin-mashqlar o'tkaziladi.

Mashg'ulotning mazmuni va uni o'tkazish uslubiyoti bolalar nutqini rivojlantirishning maqsad va vazifalariga bog'liq bo'ladi.

Tevarak-atrofnı idrok qilishga, narsa-buyumlarning, o'yinchoqlarning nomlarini bilib olishga va uni tushunishga o'rgatish bolalarning ko'ruv, eshituv a'zolariga ta'sir etish orqali amalga oshiriladi. Buning uchun albatta savoldan foydalanish kerak. Masalan: Chiq-chiq qani? Miyov-miyov qani? Vov-vov qani? Qu-qu qani? va hokazo.

Mashg'ulotning borishi har xil bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda kattalar (hamshira-tarbiyachi), eng avval bolaning eshituv a'zosiga ta'sir etadi — shiqildoqni shiqillatadi, so'ngra savol beradi: „Salima, kuchukcha (mushukcha) qani?“ Keyin shiqildoqni shiqillatadi. Ba'zi hollarda bola idrokini kuchaytirish maqsadida narsa-buyumni (o'yinchoqni) bola oldiga olib keladi. Bola uni qo'liga oladi, yaxshilab ko'radi. So'ngra tarbiyachi bu o'yinchoq (narsa-buyum)ni yashiradi yoki avvalgi joyiga olib borib qo'yadi va boladan: „Salima, kuchukcha (mushukcha) qani?“ — deb so'raydi. Bola aytilgan narsani zo'r berib qidiradi va uni topgach, qo'li bilan uni ko'rsatadi yoki kattalar bola bilan birga qidiradi va „Mana, kuchukcha (mushukcha)“ deb aytadi. Bu mashq bir necha marta takrorlanadi.

Harakatlarga taqlid qilish va bu harakatlarni tushunib olishni rivojlantirish uchun: „Chapak-chapak“, „Xayr-xayr“, „Qo'lingni ber“ „Assalom“ va boshqa o'yinlar o'tkaziladi.

Bolalarni bu o'yinga o'rgatishdan avval kattalar so'z bilan harakatni birga qo'shib olib borishlari kerak. Masalan, „Chapak-chapak“ o'yinida bolaning ikkala qo'lini ushlab, uni chapak chaldiradi, bola chapak chalayotganda „chapak-chapak“ so'zini aytib turadi. Bu harakat so'z yordamida bir necha marta takrorlangach, bolaga bu harakatni mustaqil bajarish taklif etiladi. Kattalar faqat so'zni takrorlaydilar, xolos.

9 — 10 oylikdan 1 yoshgacha bo'lgan davr. Bu davrdagi tarbiyaning eng muhim vazifasi nutqni o'stirishdir. Bolada yaqin kishilarning va bolalarning ismini bir-biridan farq qilish malakasini hosil qilish, uni tevarak-atrofdagi ba'zi buyumlar, o'yinchoq, hayvonlar va eng oddiy harakat nomi bilan tanishtirish, bolaning passiv lug'atini boyitish zarur. Bolani kattalarning unga aytgan va uning uchun tushunarli bo'lgan iltimosini, nomi aytilgan kishini yoki buyumni topish, ma'lum bir harakat, amalni bajarish kabi iltimoslarni ijro etishga o'rgatish lozim. Nima qilish, o'yinchoqdan qanday foydalanish kerakligini bolaga ko'rsatish, esiga solish kerak. Bola yoshiga to'lganda uning **mumkin emas** de-

gan soʻzning maʼnosini tushunishiga erishish va bu soʻzni unga oʻrgatish kerak. Bola bir yoshga toʻlganda *dada, buva, buvi, oyi, opa, nanna, umma, kuku, miyov-miyov, vov-vov* kabi 8 — 10 ta soʻzni bemalol ayta olishiga erishish kerak.

Bu yoshda (9 — 10 oylikdan 1 yoshgacha) nutqni rivojlantirish boʻyicha vazifalarni bajarish uchun bolani parvarish qilish vaqtlaridan unumli foydalanish kerak. Bu yoshga kelib bola hayoti ancha murakkablashadi: ovqatlanish tarkibiga turli xildagi oziq-ovqatlar kiritiladi, kiyim-kechaklarning yangi tur-laridan foydalaniladi, madaniy-gigiyenik odatlar shakllantiriladi. Eng muhimi shundaki, endi kattalar kundalik tartib jarayonida yeyish, kiyinish va boshqalar bilan bogʻliq boʻlgan harakatlarni shakllantirish maqsadida bolalarni sekin-astalik bilan faollashtirib boradi.

Endi unda turli xildagi predmetlarni (narsa-buyumlarni), harakatlar nomini (soat, stol, qoʻgʻirchoq, kuchuk, koʻylak, botinka, shippak, yech, kiyin, ber, olib kel va hokazolar) bil-diruvchi soʻzlarni tushunish rivojlanadi. Ular oʻzlarining hara-katini kattalar tomonidan qanday baholanayotganligini tushu-nib boradilar. Oʻz tushunchalarini avval harakatlarda, imo-ishoralarda, ovoz ohanglarida aks ettiradilar. Keyinchalik esa maʼlum ahamiyatga ega boʻlgan ayrim umumlashtiruvchi soʻz-larni ishlatadilar.

1 yoshdagi bolalar bilan nutqni rivojlantirish boʻyicha turli xildagi mashgʻulotlar oʻtkaziladi. Bu yoshda bolalar nutqini rivojlantirish vositalari kengayadi. Sujetli oʻyinchoqlar, qoʻgʻir-choq va hayvon oʻyinchoqlar bilan oʻtkaziladigan mashgʻulot-larga katta ahamiyat beriladi, birinchi marta predmetlarni aks ettiruvchi rasmlarni koʻrsatish mashgʻuloti kiritiladi, yaʼni oʻyin-ovutmachloqlardan foydalaniladi („Chapakka ho-chapakka“ va boshqalar). Qisqa ashulalar, sheʼrlar aytib berish ham kiritiladi.

Nutqni tushunish tevarak-atrofdagi predmetlarni idrok qi-lishning kengayishi jarayonida rivojlanadi. Ushbu yoshda mashgʻulotda foydalaniladigan uslubiyot, bu nomi aytilayotgan narsa-buyumni koʻrsatishdan, shuningdek, harakatni predmet bilan koʻrsatishdan iboratdir.

Koʻrsatish mashgʻulotning maqsadiga qarab har xil oʻtka-ziladi. Maʼlum bir predmetni anglatuvchi soʻzni tushunishni oʻzlashtirish uchun eng avval shu predmet koʻrsatiladi. Masalan, kuchukcha yoki xoʻroz oʻyinchoqni koʻrsatib, „Vali, qara, bu

kuchukcha. Uning ko'zlari, quloqlari, dumi, oyoqlari qayerda ekanligini ko'rsat. Mana bu—xo'roz. Mana uning boshi, dumi, panjalari. Xo'rozning boshi qani, dumi qani, panjalari qani, ko'rsat.“ Avval o'zi bu predmetlarning qismlarini ko'rsatadi, so'ngra boladan ko'rsatishni so'raydi.

Narsa-buyumlarni (o'yinchoqlarni) va harakatlarni bir vaqtning o'zida ko'rsatish uslubiyotidan foydalanib ham mashqlar o'tkaziladi.

Masalan: „Ajoyib xaltacha“ nomli didaktik o'yin mashg'ulotida xaltacha ichiga kuchukcha, mushuk, xo'roz kabi o'yinchoqlar solinib, o'yinchoqlar navbatma-navbat bolalarga ko'rsatiladi, nomi aytiladi, qanday yugurishi, qanot qoqishi, qichqirishi va hokazo harakatlar ko'rsatiladi.

Bu yoshdagi bolalar (1 yoshdagi) „ber“, „ol“ so'zlarini tushunishga va uni o'zlashtirib olishga o'rgatiladi.

Buning uchun mashg'ulotni quyidagicha tashkil etish mumkin. Kattalar avval kichkintoyini qo'lidagi o'yinchoqni berishga o'rgatishi lozim: „Karima, menga kuchukchani ber“. So'ngra maxsus o'yin-mashqni tashkil etadi: „Karima, men senga xo'rozcha olib keldim. Qara, u qanday chiroyli. Mana, xo'rozchani ol“. Bola xo'rozcha bilan biroz o'ynaganidan so'ng, „Karima, endi xo'rozchani menga ber“ deydi. *Ol* va *ber* so'zlari qatnashgan gap va jumalarni bir necha marta takrorlash mumkin.

Shunday qilib, 9 — 10 oylikdan 1 yoshgacha bo'lgan bolalarda o'yin mashg'ulotlari jarayonida kattalar nutqini tushunish saviyasi, tevarak-atrofdagilar bilan tanishish doirasi kengayadi, aytilgan narsani ko'z yuritib topishga yoki keltirib berishga odatlanadi. Tashqi ko'rinishi turli xil bo'lgan, ammo nomi bitta so'z bilan ataladigan o'yinchoqlarni ko'rsatib, ularning nomini aytadi, turli xil o'yinchoqlar bilan ayni bir xil harakat qilishga o'rganadi. Masalan, kuchukcha va mushukchaga ovqat berish, mashina va aravachani yurgizish, suratdagi narsa nimaligini aytib berishga o'rganadi. Buyumlarning va harakatlarning nomini to'g'ri aytish bilan birga, bola osonlik bilan takrorlay oladigan so'zlarini (masalan: *kuchuk* — *vov-vov*, *ovqat yeyapti* — *xam-xam*, *qo'g'irchoq uxlayapti* — *obbo-obbo* kabi) bema'lol takrorlay oladi. Bolalar kattalar bilan doimiy muloqotda bo'lishi jarayonida faqat tovushlar va imo-ishoralardan foydalanibgina qolmay, balki so'zlardan ham foydalana olish malakasini egallab oladilar.

2- §. Bola hayotining ikkinchi yili. Ikki yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari

Ikki yoshgacha bo'lgan bolalarda nutqni egallash jarayoni ikki davrdan iborat bo'ladi:

1 yoshdan 1 yosh-u 6 oygacha.

1 yosh-u 6 oylikdan 2 yoshgacha.

Har ikki davrda ham bola nutqini rivojlantirish bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:

a) nutqni tushunish va taqlid qilish malakasini rivojlantirish;

b) bolalar lug'atini boyitish;

d) nutqni atrofdaqilar bilan muomala qilish vositasi sifatida shakllantirish.

1 yoshdan 1 yosh-u 6 oygacha bo'lgan davrda nutqni rivojlantirishning muhim vazifasi: 1) bolaning kattalar nutqini tushunishini rivojlantirish; 2) kattalar nutqiga taqlid qilish orqali faol nutqni o'stirish.

Bolaning kattalar nutqini tushunishini rivojlantirish. Bu jarayon ma'nosiga tushunadigan so'zlar to'plamini kengaytirish bo'lib, uning mazmuniga quyidagilar kiradi: 1) o'z ismini, yaqin kishilari ismini; 2) kiyim-kechaklar, mebellar, idish-tovoqlar nomini; 3) bir joydan ikkinchi joyga borishda transport vositalari nomini; 4) o'ziga tanish bo'lgan hayvonlar va o'simliklar nomini; 5) o'z tanasining, o'yinchoq-hayvonlar tanasining ayrim qismlari (qo'l-oyoqlar, bosh, og'iz, ko'z, quloq) nomini bilib olishi.

Maishiy hayotda bajariladigan oddiy ish-harakatlarni bildiruvchi so'zlarni (*yot, uxla, o'tir, kiyinamiz, o'ynagani boramiz* va hokazo), o'yin va mashg'ulot jarayonida ishlatadigan so'zlarni (*o'chir, kiydir, och, bekit* va hokazo) bilib olish hisobiga bolada ma'nosiga tushunadigan so'zlar to'plami kengayib boradi.

Faol nutqni o'stirishga bola tomonidan tez-tez eshitib turiladigan tovush birikmalari va so'zlarga taqlid qilish orqali erishiladi.

1 yoshdan 1 yosh-u 6 oylikkacha bo'lgan bola ajablanish, shodlik, norozilik, xafalik va shu kabilarni ifodalovchi ba'zi bir intonatsiyalarni takrorlay bilishi, yaqin kishilarni (*oyi, dada, opa, aka* va hokazolar) hamda tanish buyumlar va o'yinchoqlarni (*piyola, karavot, stol, ayiqcha, qo'g'irchoq* va boshqalar), tanish ish-harakatlarni (*o'tir, tur, menga ber, qo'yib yubor* va boshqalar)

bildiruvchi soʻzlarni aytib, oʻz lugʻatini faollashtirib boradi. Shuningdek, bu yoshdagi bolalar qisqa hikoyalarni, sheʼr, hazil-mutoyibalarni tushunadilar; uncha murakkab boʻlmagan topshiriqlarni bajaradilar. Endi bola lugʻat toʻplamining kengayishi asosida, ilgari tushunib, bilib olgan soʻzlarini faol ishlata boshlaydi, qisqa gaplarni va ayrim jummalarni takrorlaydi. Bola 1 yosh-u 6 oylik boʻlganida baʼzi narsalarning sifatini, holatini va vazifalarini bilib olishga harakat qiladi. Lekin oʻzi bu belgilarni ayta olmaydi. Shuning uchun kattalar yordamiga muhtoj boʻladi. Masalan, kattalar (hamshira-tarbiyachi) shunday deydilar: „Qara, menda kichkina kubik, senda katta kubik bor“, „Mana bu — olma, uning rangi qizil, oʻzi shirin“ va hokazo. Bolalar 1 yosh-u 6 oylik boʻlishlari bilan kattalarning boʻlib oʻtgan hodisalar haqidagi gaplarini tushuna boshlaydilar.

Masalan: „Bugun sayrda bolalar quyunchalarni ovqatlantirdilar. Gulchehra quyunchaga sabzi berdi“.

Bola sekin-astalik bilan kattalarning nutq koʻrsatmasi asosida uncha murakkab boʻlmagan topshiriqlarni bajara boshlaydilar. Bu topshiriqlar „Koʻrpani top. Qoʻgʻirchoqni oʻra“ kabi yumushlardan iborat boʻlishi mumkin.

Bola 1 yosh-u 6 oylik boʻlganda u talaffuz etadigan soʻzlar miqdori 30 — 40 taga yetadi. (Masalan, „oyi“, „xola“, „amma“, „buvi“, „togʻa“, „aka“, „opa“ va boshqalar.) Ana shu soʻzlar bilan bir qatorda, bolalar oʻz ehtiyojlari uchun zarur boʻlgan soʻzlarni ham bilib oladilar. Chunonchi, „ma“, „ol“, „ber“ va boshqalar. Odatda, bu yoshdagi bola ayrim soʻzlarni uzuq-yuluq qilib, imo-ishora bilan bir amallab aytib beradi. Bunday nutq „situativ nutq“ (vaziyat nutqi) deb ataladi. Chunki bunday chalachulpa nutqning maʼnosini bolaga yaqin odamgina, yaʼni uning onasi yoki otasigina tushuntirib bera oladi. Bola nutqi taraqqiyotidagi bu davrning xarakterli belgisi shundan iboratki, bola aytib bera oladigan soʻzlar miqdori juda kam boʻladi. Bu davrda, yaʼni bolaning 1 yoshdan 1 yosh-u 6 oylik davrigacha faol lugʻati gʻoyat sekin toʻlib boradi. Bu davrda nutqning oʻsishi asosan tevarak-atrofdagi kishilar nutqini tushunish qobiliyatining oʻsishi, oʻziga qarata aytilgan soʻzlarni yaxshiroq tushuna borishi asosida sodir boʻladi. Uning passiv lugʻati boyib boradi, bola oʻzi hali gapira olmaydi, boshqalarning soʻzlarini koʻproq eshitadi, soʻz va jummalarni oʻzlashtirib boradi.

1 yosh-u 6 oylikdan 2 yoshgacha boʻlgan davr nutq oʻsishining

ikkinchi davri hisoblanadi. Bu davrda nutqni tushunish qobiliyatlari ularning faol nutqi taraqqiyotidan ancha o'zib ketadi. Taqlid qilishning o'sishi natijasida ikki yoshga qadam qo'yan bolalarning talaffuz etadigan so'zlari soni ortib, 200 — 300 taga yetadi; ularning lug'atidagi so'zlar tarkibida tevarak-atrofdagi kishilarni anglatadigan so'zlar (*qiz bola, o'g'il bola, xola, amma, tog'a, amaki, buvi, buva*), uyda va uydan tashqarida (*bog'da, hovlida, ko'chada*) bo'ladigan narsalarni anglatuvchi so'zlar, ba'zi bir hayvonlar va o'simliklarni, kunda ko'rib turadigan xatti-harakatlarini anglatuvchi so'zlar mavjud bo'lib, ular lug'at to'plamini kengaytirib boradi. Shuningdek, bu yoshdagi bolalar iboralar (*kosa stol ustida turibdi; sut kosada; u yerda; bu yerda*) ma'nosini to'g'ri tushunish qobiliyatiga ega bo'ladilar va ularni o'z o'rnida ishlata olish ko'nikmasi sekin-asta shakllana boradi. Endi bolalar katta va kichik narsalarni bir-biridan farq qiladilar, ranglarni ajrata oladilar (*qizil, ko'k, sariq, zangori*), buyumlarning boshqa sifatlarini (*toza, iflos, mazali, shirin va hokazolarni*) bilishga intiladilar. Bola nutqining bu xususiyatlari lug'atining boyib borishiga, faollashishiga katta ta'sir etadi. Bolalar ikki yoshga qadam qo'yanlarida ular umumlashtirish qobiliyati tarkib topa boshlaydi. Bu nutq faoliyatini xarakterlovchi asosiy xususiyatdir. Masalan, bola 10 oylik va 1 yosh bo'lganda „Kosa qani?“ degan savolga faqat o'zining har doim ovqat yeydigan kosasini ko'rsatadi. Ikki yoshga qadam qo'yganda esa u muomala qilish, tevarak-atrofdagi buyumlar bilan tanishish jarayonida bu savolga javoban turli rangdagi va kattalikdagi kosalarni ko'rsatadi. Kosalarni suratlar ichidan ham tanib oladi.

Ikki yoshli bola buyumlar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni ham tushuna boshlaydi. Shuning uchun kattalar bolalar diqqatini buyumlar bilan harakatlar orasidagi o'zaro aloqadorlikka jalb qilishi kerak. Masalan, qog'ozga rasm chizish uchun qalam kerak, ovqat yeyish uchun qoshiq kerak va hokazo.

Bolaning nutqi ma'noli bo'lib boradi. Ilgari uning so'zlari faqat ehtiyojlarini ifodalagan bo'lsa, endi nutqning nom berish xizmati tobora kuchayib boradi. Bu bolaning „Bu nima?“, „Nomi nima?“ degan savollarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Endi u sekin-astalik bilan imo-ishora orqali o'z istak hamda talablarini ifoda etadi. Katta yoshdagi kishilar talaffuz qilgan so'z va iboralarga taqlid qilib, ularni takrorlaydi, ashula, she'r,

ertaklarni eshitib, undagi ayrim ohanglarni kuylashga, ayrim soʻzlarni takrorlashga odatlanadi. Uning nutqi grammatik jihatdan ancha shakllanadi. U baʼzi bir olmoshlarni (*men, sen, biz, menga kabi*) qoʻllay boshlaydi, ravishlarni (*u yerda, bu yerda*), sifatlarni (*katta, kichkina, yaxshi, yomon, shirin*) oʻz oʻrnida ishlatishga harakat qiladi. Ular ish-harakatlarni bildiruvchi feʼllarni ham toʻgʻri qoʻllay boshlaydilar. Nutqida bosh gap bilan ergash gap-dan tuzilgan dastlabki qoʻshma gaplar ham paydo boʻladi.

Bola tovushga taqlid qilishdan odatdagi soʻzlarni ishlatishga oʻtadi (soatni „chiq-chiq“ deyish oʻrniga soat deb, kuchukni „vov-vov“ demasdan, kuchuk deb ishlatadi va hokazo).

Bola oʻziga berilgan savollarga tushunib, javob qaytaradi, kattalarga koʻproq savollar beradigan boʻladi. Kattalar bolani savollarga javob berishga oʻrgatishlari zarur. Buning uchun bolaga savol berib, soʻngra oʻzi shu savolga javob qaytarishi lozim.

Bola hayotining ikkinchi yoshi uning nutqini rivojlantirishning muhim davri hisoblanadi. Shuning uchun pedagogik jara-yonning butun tizimida nutqni rivojlantirishga alohida ahamiyat beriladi. Bola nutqini rivojlantirishga taʼsir etishda kundalik tartib daqiqalaridan, mustaqil oʻyinlardan, maxsus mashgʻulotlardan, narsa-buyumlar bilan qilinadigan harakatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashgʻulotlardan foydalaniladi. Kattalar (hamshira-tarbiyachi) ikki yoshgacha boʻlgan bolalar nutqini rivojlantirishda ular bilan soʻzlashishni toʻgʻri tashkil etishi kerak. Bola bilan soʻzlashganda turli xil usullardan foydalaniladi. Masalan:

1) buyumning nomi aytiladi (mana paypoqcha, mana shippak va hokazo);

2) nimanidir qayerdaligini koʻrsatishni soʻraydi (koʻylakning choʻntagi qayerda, kuchukchanning quloqlari qani, mushukning dumi qani va boshqalar);

3) buyumlarning sifatini tushuntiradi (katta ayiq, kichkina ayiq, shirin choy, issiq suv, sovuq suv);

4) „Bu kim?“, — deb savol beradi, bolaga topshiriq beradi (koʻrsat, olib kel, olib bor, top, soʻra va hokazo);

5) bolaga faol nutqni talab etuvchi topshiriqlar beriladi: („Komildan mushukchasini soʻra“, „Sharifa xolangga, uyqum kelyapti deb ayt“ va hokazo).

Bunday topshiriqlarni bergandan soʻng, albatta uning bajarilishini nazorat qilib turish kerak. Buning uchun „Sen

aytdingmi?“, „Sen so‘radingmi?“, „Sen bajardingmi?“ degan savollardan foydalanish lozim.

Shunday qilib, 2 yoshga qadam qo‘ygan bolalar nutqining o‘ishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, „Bolalar bog‘chasida ta‘lim-tarbiya dasturi“ bolalarda tevarak-atrofdagilar bilan asosiy aloqa vositasi bo‘lgan nutqni o‘stirishga; bolalarni kattalarga va boshqa bolalarga turli munosabatlar bilan murojaat qilishga undash, savollar bera olishga, o‘zining istaklarini va iltimoslarini, ko‘rgan-bilganlarini 2 – 3 gap bilan ifodalashga, atrofdagilarning gapiga diqqat bilan quloq solishga, ularning so‘z bilan ifodalangan talablarini bajarishga, savollarga (Bu kim?, Bu nima? va hokazo) javob berish qobiliyatini o‘stirishga alohida o‘rin ajratgan.

3- §. Ikki yoshgacha bo‘lgan bolalar nutqini rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish uslubiyatlari

„Bolalar bog‘chasida ta‘lim-tarbiya dasturi“da 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar nutqini rivojlantirish bo‘yicha vazifalarni bajarishga yordam beruvchi mashg‘ulotlarning ro‘yxati berilgan. Ushbu nutqni rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar to‘rt guruhga taqsimlangan. Bunda mashg‘ulotda foydalanish mumkin bo‘lgan ko‘rgazmali vositalar hisobga olingan. Ko‘rgazmali vosita sifatida jonli (mushuk, kuchuk, jo‘ja, akvariumdagi baliq, qafasdagi qush va hokazo) va jonsiz (o‘yinchoqlar) obyektlar, narsa-buyumlar, o‘yinchoqlarning tasviri tushirilgan suratlar va boshqalar bo‘lishi mumkin. Nutqni rivojlantirishda bolalarni hayvonlar va harakatlanuvchi transport vositalari (avtomobil, tramvay, trolleybus, matoroller va hokazolar) bilan tanishtirish katta ahamiyatga ega. Bu obyektlarni guruh xonasida olib boriladigan mashg‘ulotlarda va sayr vaqtida kuzatish mumkin.

Tabiiy sharoitda hayvonlarni va harakatlanayotgan turli transport vositalarini kuzatish bolalarda ixtiyorsiz diqqatning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bu esa tarbiyachining kuzatilayotgan obyektning muhim belgilariga, harakatlariga bolalar e‘tiborini qarata olishiga yordam beradi. Masalan, sayr vaqtida hamshiratarbiyachi: „Salim, qaragin, kuchukcha yuguryapti. Ana, u nimanidir qidiryapti. U suyak topib oldi, uni g‘ajiyapti. Kuchukcha qochib ketdi“, „Qaranglar, mushuk kelyapti. Yurib, yurib, to‘xtadi. Boshini burib, bizga qarayapti. Cho‘qqayib o‘tirdi. Hali ham o‘tiribdi. U charchagan. O‘tirib, dam olyapti. Uning ko‘zi

qani? Quloqlari-chi? Dumi qani? Ana, mushukcha yurib ketyapti, endi yuguryapti. Mushukcha ketib qoldi“.

Takroriy kuzatishga bolalarni oldindan tayyorlash kerak. Tayyorgarlikning mazmuni quyidagicha bo‘ladi: „Bugun sayr qilgani boramiz, ko‘chada qanday mashinalar yurayotganini kuzatamiz. Qushlarning uchishini kuzatamiz. Daraxtda qo‘nib o‘tirgan qushlarni kuzatamiz, qanday sayrashini tinglaymiz“.

Bolalarni jonsiz obyekt bilan tanishtirish sayr vaqtida tashkil etilishi mumkin. Masalan, bolalar bog‘chasi binosining tashqi ko‘rinishi bilan tanishtirish mashg‘uloti quyidagicha o‘tkaziladi: (Ushbu mashg‘ulot yilning ikkinchi yarmida o‘tkaziladi.)

Mashg‘ulotning mavzusi: „Bizning bog‘cha“.

Maqsadi: bolalarni bog‘cha binosining tashqi ko‘rinishi bilan tanishtirish.

Hamshira-tarbiyachi bolalarni sayrga olib chiqqandan keyin, bolalar 15—20 daqiqa o‘ynaydilar. So‘ngra hamshira-tarbiyachi bolalarni to‘plab, bog‘cha binosiga diqqat bilan qarashni aytadi.

Mashg‘ulotning borishi. „Salim, Komila, Oliya, qaranglar, mana bu katta bino bizning bog‘chamiz. Biz hammamiz unda yashaymiz. Mana bu eshik, biz undan sayr qilish uchun chiqdik. Sayrdan keyin, shu eshik orqali o‘tib, o‘z guruhimiz xonasiga kiramiz. Bog‘chamizning eshiklari juda ko‘p. Mana yana bitta eshik. Bu eshik orqali oshxonaga kiriladi. Bular esa deraza. Qaranglar, qancha ko‘p deraza. Mana deraza, mana yana deraza. Mana bizning guruhimiz xonasining derazasi“.

Bu mashg‘ulot bir necha marta takrorlanadi (2 — 4 marta). Takrorlash vaqtida quyidagi savollarni berish mumkin: „Bizning bog‘chamiz qani? Bu nima? Sayrdan keyin biz qaysi eshikdan ichkariga kiramiz? Bizning guruhimizning eshigi qani?“ Keyingi mashg‘ulotlarda esa bolalarga katta va kichkina uylarni ko‘rsatib, har bir uyning derazasini va eshigini ko‘rsatishni taklif etish kerak. Ikki yoshli bolalar bilan o‘yinchoqlar yordamida mashg‘ulot o‘tkazishda quyidagilarga katta ahamiyat beriladi: 1) o‘yinchoqning xususiyati bilan tanishtirish uchun bitta o‘yinchoqni ko‘rsatish; 2) o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash uchun ikkita o‘yinchoqni taqqoslash; 3) bir qancha o‘yinchoq ichidan bitta o‘yinchoqni tanlab olish; 4) bir qancha o‘yinchoqni ko‘rsatish — „Ajoyib xaltacha“; 5) o‘yinchoqni ko‘rib chiqish va u haqda hikoya qilish uchun o‘yinchoqlarni qidirib topish.

O'yinchoqlar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarni ikki qismdan iborat qilib tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Mashg'ulotning birinchi qismida o'yinchoqlar ko'rsatiladi, u orqali turli harakatlar qilib ko'rsatiladi, turli so'zlar aytiladi, bolalar tarbiyachi (kattalar) tomonidan aytilgan turli so'zlarni takrorlaydilar.

Masalan: hamshira-tarbiyachi (ota-ona) qo'g'irchoqni bolaga ko'rsatib: „Lola, qara, qo'g'irchoq qanday raqsga tushadi, tinglagin, u qanday ashula aytadi? Uni chaqir va shunday degin: „Karima, bizning yonimizga kel“.

Mashg'ulotning ikkinchi qismida o'yinchoqlar bolalarga tarqatib chiqiladi. Bolalar bu o'yinchoqlar bilan turli harakatlarni bajaradilar: u bilan o'ynaydilar, gaplashadilar, ovozigga taqlid qiluvchi tovushlarni aytadilar, kattalarga har xil masala (o'yinchoqlari orqali) yuzasidan murojaat etadilar.

Tarbiyachi (yoki ota-ona) bolaning murojaatiga albatta e'tibor berishi, javob qaytarishi, bolada o'yinchoqlar bilan turli harakatlarni bajarish istagini vujudga keltirishi kerak.

Bola nutqini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri bu rasmlar asosidagi mashg'ulotlardir. Bunday mashg'ulotlarni ikki yoshdan boshlab o'tkazish tavsiya etiladi.

Avval bitta rasm bo'yicha mashg'ulot yakkama-yakka o'tkaziladi.

Bolaga bitta rasm ko'rsatiladi va uning diqqati rasmdagi tasvirga yo'naltiriladi. Masalan, tarbiyachi (ota-ona) kuchuk rasmini bolaga ko'rsatib shunday deydi: „Shuhrat, qaragin, mana kuchukcha, kuchukcha „vov-vov“ deb vovullaydi. Kuchukcha qani, ko'rsat?“ Agar kerak bo'lsa, tarbiyachi bolaning ko'rsatkich barmog'i bilan tasvirdagi kuchukchani ko'rsatadi. Shundan so'ng bolaning qo'liga rasmni beradi va uni yashirishni taklif etadi. Bunday mashg'ulotlar bolalarda rasmda tasvirlangan predmetlarga (narsalarga) qiziqishni yuzaga keltiradi.

Olgan taassurotlarni, tushunchalarni mustahkamlash, tasvirdagi narsani tanish uchun ikkita rasm bilan mashg'ulot o'tkaziladi. Avval bitta rasmni bir necha marta ko'rsatib, uning nomini aytadi, so'ngra ikkinchi rasmni ko'rsatadi. Shundan so'ng har ikkala rasmni bir vaqtda ko'rsatadi. Agar bola rasmda tasvirlangan narsa-buyumning nomini aytib turish orqali to'g'ri topishga o'rganib olsa, u vaqtda sekin-astalik bilan bolaga nota-

nish bo'lgan, ya'ni narsa-buyum tasviri tushirilgan rasm tanish rasmlar qatoriga qo'yiladi.

Mashg'ulotning navbatdagi bosqichida o'yin uncha katta bo'lmagan guruh ishtirokchilari — ikki-uchta bola bilan o'tkaziladi. Ular nima qayerda ekanligini ko'rsatishga o'rgatiladi. Masalan, „Mushukcha qani? Kuchukcha qani? Xo'rozcha qani?“ Bu yo'l bilan nima qayerda ekanligini topishga o'rgatiladi. Masalan, „Qo'g'irchoqni top, kuchukchani top“; aytilgan narsani (predmetni) tasvirdan topish va uni tarbiyachiga (kattalarga) uzatish (berish); „Ayiqchani top va uni menga ber. Mushukchani top, uni menga ber“ kabi. Bir mashg'ulotda foydalaniladigan rasmlar soni 6 — 8 taga yetkaziladi. Sekin-astalik bilan bolalarga tanish bo'lgan narsa-buyumlarning (jonli obyektlar) harakati tasvirlangan rasmlar ko'rsatiladi. Bolalar endi tarbiyachi-hamshira (kattalar) nutqidagi 2 — 3 so'zdan iborat bo'lgan gaplarni eshitadilar va unga taqlid qila boshlaydilar. Masalan, tarbiyachi rasmni ko'rsatib: „Qaragin, qizcha o'tiribdi. Bu qizcha esa karavotda uxlayapti. Mushuk sut ichyapti“, deydi. Ushbu mashg'ulotni qayta o'tkazganda, bolalarga tanish bo'lgan rasmdagi tasvirlar bo'yicha savollar berish kerak: „Salim, bu rasmda nima tasvirlangan? Qo'g'irchoq nima qilyapti?“

Sekin-astalik bilan narsa-buyum tasvirlangan predmetli rasmlar bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarning vazifasi murakkablashib boradi. Endi bolalarda rasmda tasvirlangan predmetlarning kattaligini, narsa-buyumlarning rangini, turli holatini aytib berish ko'nikma va malakalari shakllantirib boriladi. Masalan, kuchukcha kichkina va qop-qora; qizil va sariq kubiklar; qizcha yuguryapti, yiqilib tushdi, yig'layapti.

Nutqni rivojlantirishga oid ishlarni tashkil etishda, ayniqsa, xalq og'zaki ijodiyoti namunalaridan, bolalar yozuvchilarining asarlaridan ham keng foydalaniladi.

Tarbiyachi tomonidan hikoya qilib berilgan ertaklar, o'qib berilgan hikoya va yoddan aytib berilgan she'rlar, so'z o'yinlari, hazil-mutoyibalar bolalarda obrazli nutqni tarbiyalashga yordam beradi. Bolalar nutqida turli intonatsiyalarning shakllanishida, tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga o'rgatishda asosiy material bo'lib hisoblanadi. Bola nutqini rivojlantirish bo'yicha ishlar mashg'ulotdan tashqari vaqtda — kundalik tartib daqiqalarida ham amalga oshiriladi. Ovqatlanish, yuvinish, kiyinish vaqtida bolalar

turli harakatlarni bajaradilar. Kattalarning nutqi yordamida qoshiqni to'g'ri ushlashga, ozoda va tartibli ovqatlanishga, qo'lini sovunlab yuvishga va sochiqqa artishga, uyqudan oldin yechinishga va hokazolarga o'rganiladi. Natijada bolalar juda ko'p nutqiy namunalarni idrok etadilar va ularning mazmunini tushunib olishga o'rganadilar. Nutqni tushunish asosida bolada faol nutq shakllanadi.

Kundalik tartibning ayrim jarayonlarida bolalarda sust nutq rivojlanadi, masalan, ovqatlanishda, uyquga yotishga tayyorlanishda. Bu kundalik tartib jarayonidagi kattalarning nutqi, bolalarda ma'lum bir ish-harakatni bajarish uchun iroda kuchini sarf etishga qaratilgandir. Masalan, qoshiqni ushlash, sho'rva to'kilib ketmasligi uchun kosani to'g'ri qo'yish, ko'ylakning tugmasini taqish va yechish, paypoq va tuflini (shippakni) yechish.

Bizga ma'lumki, bolalarning mustaqil o'yinlari bilan nutqni rivojlantirish o'rtasida mustahkam bog'liqlik bor. Bolalar o'yinining takomillashishi bilan nutq ham takomillashadi. Bolalar mustaqil o'yin faoliyati jarayonida o'yinchoqlar bilan turli harakatlarni bajaradilar: qo'g'irchoqni qoshiq bilan ovqatlantiradilar, predmet (narsa-buyumni) va uning qismlarini sinchiklab ko'rib chiqadilar, qo'l bilan predmetning shaklini tekshiradilar. Mana shu jarayonda katta kishilar ishtirok etishlari va bolalar o'yinlariga rahbarlik qilishlari lozim. Bolalar o'yiniga rahbarlik qilganda savollar berish usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu savolga bola so'z bilan javob beradi yoki harakatlarni bajarib ko'rsatadi. Bolalarning javoblariga qarab, kattalar kelgusi nutqiy muomala uchun yo'l tanlaydi.

Masalan, o'yin vaqtida qulay daqiqani tanlab, tarbiyachi boladan so'raydi: „Karim, sen g'ishtchalardan nima qurding?“ Bola: — „Uy“. „Bu uyda kimlar yashaydi?“ Bola bu savolga o'yinchoqlarini (qo'g'irchoq, xo'roz, kuchukcha va hokazolarni) ko'rsatadi yoki jim turadi. Agar bola savolga to'g'ri javob bersa, tarbiyachi savol berishni davom ettiradi: „Bu uyda yana kim yashaydi? Katta uy qurish kerakmi?“ Agar bola so'zlarni ishlatishda qiynalsa, u o'ynayotgan hamma o'yinchoqlarining nomlarini aytib berishi kerak. So'zni bir necha marta ketma-ket takrorlash lozim. So'ngra o'yinni tashkil etish kerak, o'yinchoqlarni ko'chaga olib chiqish va u yerda qoldirmaslik hamda uy va o'yinchoqlar haqida qisqacha so'zlashish, so'zlashishni 2 — 3 marta takrorlash lozim.

4- §. Ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda ta'limiy o'yin va mashg'ulotlar, ularga qo'yiladigan talablar

Kichkintoy uchun ta'lim shakllaridan biri bu ta'limiy o'yindir. Ta'limning o'yin shakli ilk yosh davrida asosiy usul hisoblanadi. Kundalik hayot jarayonida, kundalik tartib daqiqalarida (yuvinish, kiyinish, ovqatlanish va hokazolarda), shuningdek, sayrda, o'yinlarda bola bilan muloqotda bo'lish natijasida ularni ko'p narsalarga o'rgatish mumkin.

Ammo tarbiyachi tomonidan maxsus tashkil etilgan ta'limiy o'yin va mashg'ulotlar ta'limning faol shakllaridan biri bo'lib hisoblanadi. Tarbiyachi mashg'ulotning bu shakli orqali bolalarning idrokini rivojlantiradi, ular yoshiga mos bo'lgan ma'lumotlarni beradi, ayrim muhim sifatlarni va malakalarni shakllantiradi.

Mashg'ulotning tashkiliy xarakteri ular uchun kundalik tartib daqiqalarida maxsus ajratilgan vaqt tarbiyachiga mashg'ulot mazmunini oldindan o'ylab qo'yishga, bolalar o'yinini tanlashga, hamma bolalarga ta'sir etishga imkoniyat beradi.

Tarbiyachi ta'limiy o'yin va mashg'ulotlarni „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ asosida rejalashtiradi.

Agar tarbiyachi ta'limiy o'yin mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonida qanday vazifalar hal etilishini aniq tasavvur etsa, u vaqtda o'yindan yaxshi natijalarni kutish mumkin. Ta'limiy o'yin mashg'ulotlari bolalarning aqliy tarbiyasi uchun muhim bo'lgan jarayondir. Mashg'ulot vaqtida bolalarning aqliy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan sifatlarni, ya'ni diqqatini bir joyga to'plash malakasi hosil bo'ladi, ko'rsatilgan harakatlarni, aytilgan so'zlarni takrorlash istagi vujudga keladi.

Tarbiyachi bolalar diqqatini tortish, qiziqishini uyg'otish orqali aqliy rivojlanishning asosiy sifatlaridan biri bo'lgan qiziquvchanlik faoliyatiga asos soladi. Qiziquvchanlik tufayli kichkintoy mashg'ulotga jon-dili bilan qatnashadi, uni sabrsizlik bilan kutadi, undan xursand bo'ladi. Kattalarni tinglashga, ko'rsatilayotgan predmetga diqqat bilan qarashga o'rgangan bola ma'lum bir bilim hajmiga ega bo'ladi. U turli narsa-buyumlar haqida ko'p ma'lumotlarni, ya'ni ularning nima uchun mo'l-jallanganligini, tashqi ko'rinishini, xususiyatlarini, shaklini, rangini, katta-kichikligini, hajmini, og'irligini, materialning sifatini

va hokazolarni bilib oladi. Uning idroki rivojlanadi va takomillashadi.

Ta'limiy o'yin mashg'ulotlari orqali bolalar o'z atroflaridagi predmetlar, hodisalar haqidagi ma'lumotlarni yaxshi o'zlashtirib oladilar.

Shuningdek, ta'limiy o'yin mashg'ulotlari bolalarni axloqiy tomondan tarbiyalashda ma'lum bir ahamiyatga ega. Ularda sekin-astalik bilan tengdoshlari o'rtasida faoliyat ko'rsatish, ta'sir o'tkazish malakalari hosil bo'lib boradi. Avval boshqa bolalarning yonida ularga xalaqit bermasdan, o'yinchoqlarini tortib olmasdan, o'zi ham boshqa narsalarga chalg'imasdan nimadir qilishni o'rganadi. So'ngra boshqa bolalar bilan birgalikda (hamkorlikda) faoliyat ko'rsatishga o'rganadi: o'yinchoqlarni, suratlarni, hayvonlarni birga ko'radilar, birgalikda raqsga tushadilar, yuradilar va hokazo.

Shuni yaxshi esda tutish kerakki, mashg'ulotlar bolalarda yaxshi kayfiyatni vujudga keltirishi lozim. Bolalarda mashg'ulot vaqtida vujudga kelgan yaxshi kayfiyat, quvnoqlik his-tuyg'ulari bolaning ilk yoshdagi davrida nutqning muvaffaqiyatli rivojlani-shiga zamin bo'lib, kelgusida tarbiyachi uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Ta'limiy o'yinlar va mashg'ulotlarning qiziqarli bo'lishi va nutqni rivojlantirishga oid vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida tarbiyachi quyidagi ta'limiy talablarga amal qilishi kerak:

1. Agar ta'limiy o'yin va mashg'ulotlar reja asosida tashkil etilsa, yaxshi natijalarga erishiladi. Tarbiyachi oldindan „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“dan nutqni rivojlantirishga taalluqli bo'limni yaxshi o'rganib, materialni mashg'ulotlar bo'yicha taqsimlab chiqadi. O'quv materialini taqsimlashda ketma-ketlik va oddiydan murakkabga tomon borish ta'limiy prinsipiga amal qilinadi. Ayrim buyumlar va o'yinchoqlar bilan tanishtirishda ham oddiydan murakkabga tomon boriladi. Bu vazifani bajarish davomida bolalar bir vaqtning o'zida predmetlarni bilib olishga, ularning nomini aytishga, ular bilan turli harakatlarni bajarishga o'rganib oladilar.

Dastlabki mashg'ulotda bolalar narsa-buyumlarning nomini aytmaydilar, balki tarbiyachi aytgan narsalarni ko'rsatadilar, olib keladilar. Keyingi mashg'ulotlarda esa asta-sekinlik bilan narsa-buyumlarning nomini to'g'ri aytishga, ularning sifatiga bog'liq

holda harakatlar bajarishga o'rgatiladi. Shu tariqa, bolalarda sekin-astalik bilan tafakkur, nutq rivojlanadi, tevarak-atrof to'g'risidagi bilimlari boyib boradi.

2. Dasturdagi ish vazifalari va mazmunning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida mashg'ulotlarni takrorlash talab etiladi. Belgilangan dastur vazifalarini guruhdagi hamma bolalar egallashlari zarur. Ammo bir mashg'ulotdayoq bunga erishib bo'lmaydi. Chunki guruhda turli ruhiy xususiyatlarga va qobiliyatga ega bo'lgan bolalar bor. Ba'zi bir bolalar bir mashg'ulotdayoq narsalarning nomini tez aytadilar yoki ularda nimanidir bajarish istagi vujudga keladi. Ba'zi bolalar esa aytilgan narsalarning nomini yoki ish-harakatni uzoq vaqt davomida bilib oladilar.

Mashg'ulotda hosil qilingan bilim va malakalar yetarli darajada mustahkam bo'lishi, undan bolalar o'z o'yinlarida, kundalik tartib daqiqalarini bajarish vaqtida foydalana olishlari kerak. Bunday natijalarga esa mashg'ulotlarni takrorlash orqali erishiladi. Mashg'ulotlarni bir kunda 2 martadan 4 martagacha takrorlash mumkin. Takrorlash dastur mazmuni saqlangan holda, turli ko'rinishlarda amalga oshiriladi. Masalan, „Ajoyib xaltacha“ ta'limiy o'yinida bolalarni narsalarning o'lchamini, katta-kichikligini bilib olishga o'rgatish uchun bir mashg'ulotda katta va kichkina sharchalardan foydalanish mumkin. Ikkinchi bor takrorlash mashg'ulotida esa katta va kichkina qo'g'irchoqlar tanlanadi.

3. Takrorlashdan keyin ham qiynalayotgan bolalar bilan yakkama-yakka tarzda ishlash. Bu usul guruhdagi hamma bolalar bilan ortiqcha qayta takrorlashdan xalos etadi va zerikishning oldini oladi. Mashg'ulotdan keyin, bo'sh vaqtda kattalar mashg'ulot vaqtida materialni o'zlashtirishda qiynalgan bolalar bilan yakkama-yakka tarzda shug'ullanadi. Masalan, kubiklarni ustma-ust terish, qurilgan uyni buzish, uni qayta qurish, shuningdek, o'ynab turib ayrim so'zni yoki tovushlar birikmasini takrorlash va hokazo.

4. Mashg'ulotni emotsional tarzda, ta'sirchan qilib o'tkazish. Mashg'ulotni takrorlash orqali guruhdagi hamma bolalarda mustahkam bilim va malakalarni hosil qilgandan keyin ham, ularda mashg'ulotga bo'lgan qiziqishni saqlash kerak. Kattalar ulardan nimani talab etsa, shularning hammasini bajon-u dil bajarish istagini so'ndirmaslik lozim. Ilk yoshdagi bolalarda hali ixtiyoriy, irodaviy kuch yaxshi rivojlanmagan bo'ladi, boshqacha qilib aytganda, qiziqish uyg'otmagan narsani bajarishga o'zini majbur

qila olmaydi. Shuning uchun tarbiyachi bolalardagi bu xususiyatlarni hisobga olgan holda, mashg'ulotlarda bolalar diqqatini o'ziga tortuvchi, ularda qiziqish uyg'otuvchi, tashqi ko'rinishi bilan jozibador bo'lgan narsa-buyumlardan foydalanish kerak. Jumladan, rasmlar rangli bo'lishi, o'yinchoqlar butun, sinmagan bo'lishi, g'ishtchalar, sharlar, kubiklar toza, chiroyli, turli ranglarga bo'yalgan bo'lishi kerak.

5. Ta'limiy prinsiplarning asosiylaridan biri — bu ko'rsatmalilikning so'z bilan mos kelishi. Bizga ma'lumki, ilk yoshdagi bolalar atrofini o'rab turgan narsa-buyumlarni qo'llariga olib ko'radilar, mumkin bo'lsa, shu narsa-buyumlar bilan o'ynaydilar. Tarbiyachi bolalarning bu xususiyatlarini hisobga olib, mashg'ulotda ko'rgazmalilik usulidan keng foydalanadi, ya'ni narsa-buyumlar ko'rsatiladi, ularni ushlab ko'rishga imkon beriladi, sayr vaqtida yuk mashinasi ko'rsatiladi, bolalarni deraza oldiga olib kelib, yomg'ir yoki qorning yog'ishini kuzattiradi. Kattalar qanday mehnat qilishlari (kiyim-kechaklarni dazmollayotganini, bolalar o'yinchoqlarini tuzatayotganini va hokazolar)ni kuzatish uchun maxsus mashg'ulotlar tashkil etiladi.

6. Mashg'ulotda bolalarning faol harakat qilishlariga imkon yaratish ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga ijobiy ta'sir etadi. Masalan, tarbiyachi bolalar bilan qafasdagi qushni kuzatayotib, u haqida gapirib beradi. Mashg'ulotning oxirida tarbiyachi bolalardan qushcha qanday uchishini ko'rsatishni so'raydi. Bu bilan tarbiyachi bolalarning xona bo'ylab qo'llarini ikki tomonga yoyib (xuddi qushning qanot qoqishidek) yugurib harakat qilishlariga imkon beradi. Bolalarning harakatlanish faolligi hamma mashg'ulotlarda bir xilda bo'lmay, balki qo'yilgan vazifalarga qarab, ba'zi birlarida ko'proq, ba'zilarida esa kamroq bo'ladi.

7. Mashg'ulotning davomiyligi. Mashg'ulotning qancha davom etishi bolalarning mashg'ulotdagi faolligiga va emotsional holatiga bog'liq. Agar mashg'ulot davomida ular harakatlanish imkoniyatiga (stulhasidan turib, tarbiyachi aytgan narsa-buyumni olib kelsa) ega bo'lsa, mashg'ulotni 8 — 10 daqiqa davom ettirish mumkin.

Agar tarbiyachi bolalarda charchoq alomatlarini sezsa (ularning faolligi susayadi, boshqa narsalarga tez-tez chalg'iy boshlaydi), mashg'ulotni tugallashi va bolalarga erkin harakat qilish, o'ynash imkonini berishi kerak.

8. Mashg'ulot va ta'limiy o'yin to'g'ri tashkil etilgandagina, u muvaffaqiyatli o'tadi. Mashg'ulot va o'yinlar kundalik tartibda ajratilgan maxsus vaqt davomida o'tkaziladi: nonushtadan keyin ertalabki soatda, sayr vaqtida, kunduzgi uyqudan keyin bolalar ovqatlanib bo'lgach, kunduzi ikki marta uxlaydigan kichkintoylar bilan ikkinchi chiniqtirish vaqtida shug'ullaniladi.

9. Bolalarning yoshi va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish ham mashg'ulot va ta'limiy o'yinlarni to'g'ri tashkil etishda katta ahamiyatga ega. Bolalar bog'chasiga hali jamoa hayotiga o'rganmagan yoki sharoitga sekinlik bilan moslashadigan bolalar kelishadi. 1 yoshdan 1 yosh-u 6 oylikkacha bo'lgan bolalarda birgalashib faoliyat ko'rsatish malakasi hali rivojlanmagan bo'ladi. Shuning uchun yilning boshida mashg'ulotlar yakkama-yakka shaklda olib boriladi. Tarbiyachi har bir bolaning oldiga kelib, rangli sharchalarni ko'rsatishni taklif etadi yoki qo'g'irchoqni ko'rsatib, u bilan so'zlashishga, o'ynashga undaydi. Tarbiyachi shu tariqa, bog'chaga yangi kelgan bolalarni sharoitga o'rgatib boradi. Shuningdek, har bir bolaning rivojlanganlik darajasini, o'ziga xos xususiyatlarini bilib oladi, ular bilan yaqinlik, o'rtoqlik munosabatlarini o'rnatadi, ishonchni vujudga keltiradi, muloqotga kirishish istagini uyg'otadi.

1 yoshdan 1 yosh-u 6 oylikkacha bo'lgan bolalarda birgalikda mashg'ulotda qatnashish malakalari hali uncha taraqqiy etmagan bo'ladi. Shuning uchun bola 1 yoshga to'lgandan keyin u bilan asosan yakkama-yakka mashg'ulotlar o'tkaziladi. Hamma bolalarni guruh mashg'ulotlariga birlashtirish yaramaydi.

Bolalar ikki va ikki yarim yashar bo'lganlarida bir-birlaridan ancha farq qiladilar, ularning rivojlanish darajalari, bilimlari va ko'nikmalarni o'zlashtirish qobiliyatlari ham har xil bo'ladi. Bolalar guruhlariga avvalo yoshlariga qarab ajratiladi.

1 yosh-u 3 oylikkacha bo'lgan bolalar ikkinchi bir guruhga, 1 yosh-u 3 oylikdan 1 yosh-u 6 oylikkacha bo'lgan bolalar ikkinchi bir guruhga, so'ngra 1 yosh-u 6 oylikdan 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchinchi bir guruhga birlashtiriladi. Guruhlarni tashkil qilishda bolalarning sog'lig'i, oiladagi turmush sharoiti, rivojlanish darajasi va boshqalar hisobga olinadi. Masalan, kichik guruhga 1 yosh-u olti oylikdan biroz oshgan bolalardan bir-ikkitasini, aksincha, katta guruhga esa hali 1 yosh-u 6 oylik bo'lmagan, biroq taklif etilgan mashg'ulot materialini egallash qobiliyatiga ega bo'lgan bolalar birlashtirilishi mumkin.

„Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“da ilk yoshdagi bolalar nutqini o'stirishga doir vazifalarni amalga oshirish uchun turli o'yin-mashg'ulotlarni o'tkazish taklif etiladi. Bu o'yin-mashg'ulotlarda o'yinchoqlardan, suratlardan, tevarak-atrofdagi buyumlardan, jonli obyektlardan keng foydalaniladi. Quyida bunga bir qancha misollar keltiramiz.

9 — 12 oylik bolalarning nutqqa tayyorgarlik bosqichlarini rivojlantirish bo'yicha 3 — 5 — 6 bola bilan o'tkaziladigan o'yin-mashg'ulotlar.

„Qo'g'irchoq mehmonga keldi“ o'yini.

Maqsad: bolalarni qo'g'irchoq bilan tanishtirish, nutqni tushuna olish qobiliyatini rivojlantirish: „qayerda“ degan savolga qo'g'irchoqni, uning gavda, yuz qismlarini topib ko'rsatishga o'rgatish, o'zining ko'zlarini, burnini ko'rsata olish ko'nikmasini tarbiyalash.

Material: katta qo'g'irchoq (bolalarga notanish bo'lgan).

Tashkiliy qism: bolalar ko'rpacha solingan gilamcha, palos ustida aylana bo'lib o'tirishadi, tarbiyachi bolalarning o'rtasida o'tiradi.

Mashg'ulotning borishi. Tarbiyachi qo'g'irchoqni xonaga olib kiradi va bolalarga shunday deydi: „Bugun sizlarning oldingizga qo'g'irchoq mehmon bo'lib keldi“. Qo'g'irchoq har bir bola bilan qo'l berib ko'rishib chiqadi: „Assalomu alaykum Valijon, Nigoraxon, Salimjon“. Tarbiyachi har bir bolaga qo'l uzatib salomlashishlarini ta'kidlaydi. So'ngra qo'g'irchoq qanday yurishini ko'rsatadi. Yurish harakatini ko'rsatayotganda quyidagi so'zlarni aytadi: „Qo'g'irchoq yuryapti. Qo'g'irchoq o'tiribdi“. Bolalar qo'g'irchoqning yuz-ko'zlarini ko'rib chiqishadi, og'zini, burnini topib ko'rsatishadi. (Tarbiyachi Qo'g'irchoqning ko'zi qani? Burni qani? deb savol beradi.) So'ngra tarbiyachi bolalardan o'zlarining ko'zlarini, burunlarini ko'rsatishni aytadi, mashg'ulotning oxirida yana „Qo'g'irchoq qani?“ degan savolga, ko'p o'yinchoqlar ichidan (oldindan qo'yib qo'yilgan) qo'g'irchoqni qidirib topishadi. Tarbiyachining: Bu qanday o'yinchoq, u qanday yuradi? degan savoliga istalgan o'yinchoqni ko'rsatib, javob berishadi. Xuddi shunday tartibda istalgan o'yinchoq (ayiqcha, kuchuk, quyon va h. k.) bilan mashg'ulot o'tkazish mumkin.

„Qushcha uchib keldi“ ta’limiy o‘yini.

Maqsad: bolalarni o‘yinchoq qushcha bilan tanishtirish; *qushcha, uchyapti, cho‘qiyapti* kabi so‘zlarning ma’nosini tushunish malakasini rivojlantirish; qushchanning harakatlarini bajara olish malakasini hosil qilish.

Material: qushcha o‘yinchoq‘i. U rezinadan, metalldan, kartondan (qalin qog‘ozdan) qilingan hamda burab yurgiziladigan yoki qafasdagi qush bo‘lishi mumkin.

Tashkil etish: bolalar gilam ustida doira bo‘lib o‘tirishadi, o‘rtalarida tarbiyachi o‘tiradi.

Mashg‘ulotning borishi. Mashg‘ulotni qiziqarli tashkil etish maqsadida tarbiyachi qushchanning bosh qismini ko‘rsatadi va uni yashiradi. „Nima uchib keldi?“ degan savol bilan qushchani ko‘rsatadi „Bu qushcha, qushcha uchadi“, deb o‘yinchoqni kaftlarida ushlab, uning uchishini ko‘rsatadi, ya’ni qo‘llarini yon tomonga cho‘zib, xuddi qushning qanot qoqishidek harakat qiladi va bolalarga ham shunday harakat qilishni, ya’ni qush qanday qilib qanotlarini silkitishini ko‘rsatib berishni aytadi. So‘ngra qushchanning tumshug‘ini qo‘li bilan harakatlantirib, „Qushcha don cho‘qiyapti. Sizlar ham qushcha qanday don cho‘qishini ko‘rsating“, deydi. Bolalar ushbu harakatni bajarib bo‘lishgach, tarbiyachi qushchani kaftida ushlab, „U uchyapti“ deb, uchish harakatini ko‘rsatadi. „Qushcha uchib ketdi“ deb, uni yashiradi. (Agarda burab yurgiziladigan o‘yinchoq qushchadan foydalanilsa, uni burab yurgizib, u qanday qanot qoqayotganligi va „ashula aytayotganligi“ni aytib o‘tish mumkin.) Mashg‘ulotning oxirida tarbiyachi ikkita qushchani olib shunday deydi:

„Mana qushcha, mana yana qushcha, qushchalar uchishyapti, don cho‘qishyapti. Qushlar uchib ketishdi“.

„Ajoyib xaltacha ichidagi narsa-buyumlarni ko‘rsatish“.

Maqsad: o‘yinchoqlarning nomlarini bildiruvchi so‘zlarni tushunish malakasini rivojlantirish, ayrim harakatlarni bajara olishga, so‘z va bo‘g‘inlarga taqlid qilishga o‘rgatish.

Material: ajoyib xaltacha (chiroyli bezalgan), o‘yinchoqlar (qo‘g‘irchoq, kuchukcha, mashina).

Tashkil etish: 3 — 4 ta bola gilam ustida (o‘rtaga xontaxta qo‘yilsa ham bo‘ladi) o‘tirishadi, tarbiyachi ularga qarab (qarama-qarshi tomonda) o‘tiradi.

Mashg‘ulotning borishi. Tarbiyachi bolalarga o‘yinchoq solingan

xaltachani ko'rsatadi va shunday deydi: „Bu ajoyib xaltacha. Ko'raylik-chi, uning ichida nimalar bor ekan“. Qo'g'irchoqning boshini xaltacha ichidan biroz chiqaradi va yashiradi. So'ngra qo'g'irchoqni xaltacha ichidan olib, uning nomini aytadi („Mana — qo'g'irchoq“), u bilan turli harakatlarni bajarib, bu harakatlarni so'zlar bilan ifodalab boradi. (Qo'g'irchoq kelyapti. Qo'g'irchoq o'tiribdi.) So'ng xalta ichidan kuchukcha o'yinchog'ini oladi va shunday deydi: „Bu kuchukcha. Kuchukcha vovullaydi — vov-vov. Kuchukcha yuguradi“. Shu tariqa xaltacha ichidagi boshqa o'yinchoqlarning nomi bilan bolalar tanishtiriladi va turli harakatlar bajarib ko'rsatiladi. Mashg'ulotning oxirida har bir bolaga mashg'ulotda tanishtirilgan o'yinchoqlardan bittadan berib chiqiladi, bolalar esa o'yinchoqlar bilan bajarilgan harakatlarni takrorlaydilar.

Yuqorida bayon etilgan o'yin-mashg'ulotlardan tashqari, „O'zing och“, „Mashinada o'yinchoqlarni sayr qildiramiz“, „Piramidalalar bilan o'ynash“ va hokazo o'yinlarni tashkil etish mumkin.

1 yoshdan 1 yosh-u 6 oylikkacha bo'lgan bolalar bilan o'tkaziladigan o'yin-mashg'ulotlar. Bu yoshda nutqni rivojlantirish bo'yicha quyidagi vazifalar amalga oshiriladi: nutqni tushunish malakasini rivojlantirish; taqlid qilish qobiliyatini rivojlantirish; lug'atini boyitish; atrofdagilar bilan nutqiy muloqotni shakllantirish. 1 yoshdan 1 yosh-u 6 oylikkacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishning muhim vazifalaridan biri — kattalar nutqini tushunishni va unga taqlid qilishni rivojlantirishdan iboratdir. „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“da bolalarga tanishtirilishi lozim bo'lgan predmetlar (kiyimlar, mebellar, idish-tovoqlar, o'yinchoqlar va h. k.) va ularning nomini bildiruvchi so'zlar (oddiy harakat nomini bildiruvchi so'zlar) ro'yxati ko'rsatilgan. Bu yoshda atrofdagilar nutqiga taqlid qilishni rivojlantirish imkoniyatlari o'sganligini hisobga olib, nutqni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar mazmuni ham murakkablashib boradi. Quyida biz o'tkazilishi lozim bo'lgan o'yin-mashg'ulotlardan bir nechasini misol tariqasida ko'rsatib o'tamiz.

Qo'g'irchoq bilan mashg'ulot. Tarbiyachi bolalarni gilam ustiga (atrofiga ko'rpacha solinib, o'rtaga xontaxta qo'yishi ham mumkin) o'tqizadi, o'zi o'rtada o'tiradi. Bolalarga diqqat bilan, to'polon qilmasdan o'tirishni, guruhga kimnidir olib kelishini aytadi. So'ngra oq choyshabga o'ralgan qo'g'irchoqni olib keladi.

Qo'g'irchoqni bolalarga ko'rsatib, shunday deydi: „Bolalar, bu kim? (Choyshabni sekin-astalik bilan ochadi.) Ahmad, bu kim? Behzod, bu kim? Bu Maxsuma. Maxsuma bizga mehmon bo'lib kelibdi“. Qo'g'irchoqqa murojaat qiladi: „Maxsuma, bizning bolalarga qaragin. Mana Gavhar, Shuhrat, Behzod, Lobar, Nigina. Qara, ular qanday yaxshi bolalar, ular xontaxta atrofiga solingan ko'rpachada jimgina, tartibli o'tirishibdi. Men ularning tarbiyachisiman. Men ham ko'rpacha ustida o'tiribman. Sen ham mening yonimda, ko'rpacha ustida o'tirishni xohlaysanmi? Kel, Maxsuma, o'tir. Bolalar, kelinglar, hammamiz: „Maxsuma, kel, o'tir, deymiz“. Jim o'tirgan, indamas, kamgap bolalarga murojaat etib, shunday deydi: „Salim, Maxsumaga: kel, o'tir, deb aytgin“. So'ngra tarbiyachi qo'g'irchoqni o'tirgan bolalardan har birining yoniga olib borib: „Maxsumaning ko'zlari, burni, qo'llari, oyoqlari qani, ko'rsat“, — deb so'raydi.

Agar bola tarbiyachi bergan topshiriqni uddalay olmasa, u vaqtda bolaning ko'rsatkich barmog'ini ushlab, qo'g'irchoqning burni, ko'zlari va hokazolarini ko'rsatadi va bir vaqtning o'zida „Mana Maxsumaning burni. Mana bu Maxsumaning qo'llari (ko'zlari). Bu Maxsumaning oyoqlari“ deb o'zi ham aytadi. So'ngra har bir bolaga alohida murojaat etib, shunday savollarni beradi: „Farrux, senga qo'g'irchoqni beraymi? Bering, deb aytgin“. Mashg'ulotning oxirida har bir bolaga uncha katta bo'lmagan qo'g'irchoqlar tarqatib chiqiladi. So'ngra har bir bola bilan navbatma-navbat qo'lidagi qo'g'irchoq haqida gaplashadi. Xuddi shunday mazmundagi mashg'ulotlarni boshqa o'yinchoqlar (toychoq, ayiqcha, o'rdakcha va hokazolar) bilan ham o'tkazish mumkin. Shunday qilib, bolalar ko'p o'yinchoqlarning nomlarini, harakatlarini bilib oladilar va buning natijasida yangi-yangi so'zlarni o'zlashtiradilar.

„Qo'g'irchoq Karima ashula aytyapti va raqsga tushyapti“. Tarbiyachi mashg'ulotni boshlashdan oldin qo'g'irchoq Karimani qo'g'irchoqlar burchagiga qo'yadi, so'ngra bolalarni atrofiga o'tqizib, shunday deydi: „Bizning guruhimizga hozir kim kelar ekan? Hozir guruhimizga Karima ismli qo'g'irchoq mehmon bo'lib keladi. Bolalar, qaranglar, qo'g'irchoqlar burchagida kim turibdi? Bu — Karima. Kelinglar, hammamiz uni chaqiramiz: Karima! Karima!“ So'ngra har bir bolaga alohida-alohida murojaat etib, „Karima“ so'zini takrorlashni taklif etadi. Keyin qo'liga qo'g'irchoqni olib, undan so'raydi: „Karima, bolalar seni qanday

chaqirganlarini eshitdingmi? Ular: „Karima! Karima!“ deb chaqirishdi“. Endi hamma bolalar bilan so‘rashgin.“ Tarbiyachi qo‘g‘irchoq bilan har bir bolaning oldiga kelib, qo‘lini uzatib, „Assalomu alaykum“ deb so‘rashadi.

„Karima, sen ashula aytishni bilasanmi? Bizga ashula aytib ber“. Tarbiyachi qo‘g‘irchoqni bolalarga qaratib, tik qo‘yib qo‘yadi va „La-la, la-la-lum, la-la-la-la-lum, la-la-la-la-lum“ deb ashula aytadi. Ashula aytayotganida tarbiyachi qo‘g‘irchoqni ohangga mos ravishda goh o‘ng, goh chap tomonga harakatlantiradi. (Ohangni sekin tempda, cho‘zib, uncha baland bo‘lmagan ovozda kuylash kerak.) Tarbiyachi har bir bolani chaqirib, qo‘g‘irchoqning ashulasini aytib berishni taklif etadi. Hamma bolalarning aytib bergan ashularini ma‘qullaydi: „Yashanglar, bolalar, ashulani yaxshi aytdingiz, Karima ham yaxshi aytdi. Karima, raqs tushishni ham bilasanmi? Salima, Qunduz, Akmal, qaranglar, Karima qanday raqsga tushadi. Nay-nay-na-na-nay, nay-nay-na-na-nay, nay-nay-na-na-nay“. Tarbiyachi qo‘g‘irchoqning qo‘lidan ushlab, oyoqlari bilan kuy ohangiga moslab stolni tapillatadi, qo‘llarini yuqoriga ko‘taradi, aylanma harakatlar qiladi. Tarbiyachi hamma bolalarga ashula aytishni taklif qilib, ularni maqtaydi: „Yashanglar, bolalar, yaxshi kuyladingiz. Karima yaxshi raqsga tushdi. Karima charchadi. Rahmat, Karima, sen yaxshi ashula aytding va raqsga tushding. Bizga yana mehmon bo‘lib kelgin. Xayr, Karima! Nasiba, Salima, Gavhar, Karima bilan qo‘llaringizni silkitib xayrlashing va „Xayr, Karima“, — deb ayting“.

Mashg‘ulotning oxirida har bir bolaga qo‘g‘irchoq tarqatib chiqadi va mashg‘ulotda ko‘rgan, kuzatgan harakatlarni takrorlashni taklif etadi. Yuqorida bayon etilgan o‘yin-mashg‘ulotlardan tashqari „Qo‘g‘irchoq Karima yuryapti“, „Qo‘g‘irchoq Karima o‘zining yangi ko‘ylagini bolalarga ko‘rsatyapti“, „Xo‘roz qanday yuradi va qichqiradi, kuchuk qanday yuguradi va vovullaydi?“, „Kim qanday qichqiradi?“, „Tulki va quyoncha o‘yinchog‘i bilan o‘ynash“ va hokazo mavzulardagi ta‘limiy o‘yinlar tashkil etiladi.

Adabiy matnlar asosida o‘tkaziladigan o‘yin va mashg‘ulotlardan, „G‘ozlar, g‘ozlar“ o‘yini, „Barmoq-barmoq“ ovutmachoch o‘yini, qisqa-qisqa she‘rlar o‘qib berish („Ayiqcha“, „Toychoq“, „Quyuncha“ va hokazolar)dan ham foydalaniladi.

Suratlardan foydalanib o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar: 1) su-

ratlarni ko'rib, narsa-buyumlarni tanish va kattalar nutqini tushunish uchun (koptok, qo'g'irchoq, kuchuk, avtomobil, surnaycha, g'oz, xo'roz, soat va hokazo); 2) kuzatuvchanlikni va faol nutqni rivojlantirish uchun (nay ushlab turgan, ot minib olgan o'g'il bola, koptok ushlab turgan qizcha, karavotda uxlab yotgan qo'g'irchoq va hokazolar tasvirlangan suratlar); 3) tovushga taqlid qilishni rivojlantirish uchun (avtomobil (bib-bib), surnay (du-du-du), soat (chiq-chiq), koptok (top-top), shiqildoq (shiq-shiq), jo'ja (chi-chi-chi), mushuk (miyov-miyov), xo'roz (qu-qu-qu), kuchuk (vov-vov), qo'y (ma-a-a), sigir (mo'-mo'), o'rdak (g'aq-g'aq), echki (be-e-e), g'oz (g'oq-g'oq-g'oq), tovuq (qo-qo-qo) va hokazo).

1 yosh-u 6 oylikdan 2 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan o'tkaziladigan o'yin-mashg'ulotlar. Bir yarim yoshdan keyin nutqni tushunish takomillashadi, faol nutq tez sur'atda rivojlanadi. Bu yoshdagi bolalar endi alohida so'zlarnigina emas, balki sodda, qisqa jumlar tuza boshlaydi. Endi tarbiyachi o'z nutqini murakkablashtirishi va bir yosh-u 6 oylik bolalar bilan muomalada bo'lganda tovushlarga taqlid qilish, so'zlarni qisqartirish kabi holatlardan foydalanmasligi kerak.

Ushbu guruhda quyidagi o'yin-mashg'ulotlarni o'tkazish tavsiya etiladi: „Qo'g'irchoq Lolani uxlatish“, „Uyqudan keyin qo'g'irchoqni kiyintirish“, „Qo'g'irchoqni ovqatlantirish“, „Ayiq uyga keldi, qushchalar esa uchib ketishdi“, „Xo'roz, tovuq va jo'jalar uchun uycha qurish“, „Mushuk, kuchuk va echki uchun uycha qurish“, „Mushuk, kuchuk va echki o'ynashyapti“, „Ajoyib xaltacha“, „Bizning bog'cha“ mavzusida suhbat.

Adabiy matnlardan foydalanib o'yin va mashg'ulotlar o'tkazish. Fayzi Shohismoilning „To'p-to'p“ she'rini, Ilyos Muslimning „Ayiqcham“, Zafar Diyorning „To'p“, Anvar Obidjonning „Suhbat“ she'rlarini o'qib berish, „Parovoz“ o'yinini o'ynash.

Predmetni tasvirlovchi suratlar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar: 1) predmetlarning hajmi, shakli, rangi va boshqa xususiyatlarini bilib olish, lug'atini boyitish uchun (qo'g'irchoqlar, koptoklar); 2) predmetlar holatidagi farqni, harakatning nomini bilish, qisqa gaplar aytish uchun („Qo'g'irchoq stulchada o'tiribdi“, „Qo'g'irchoq karavotda yotibdi“, „Qo'g'irchoq yuvinyapti“, „Qo'g'irchoq chanada“, „Kuchukcha yotibdi“, „Kuchukcha o'tiribdi“, „Kaptar uchyapti“, „Kaptar qo'ngan“, „G'oz o'tloqda“, „O'rdak suzyapti“, „Mushuk koptok bilan

o'ynayapti“, „O'g'il bola nay chalyapti“, „Qizcha shiqildoq o'ynayapti“, „Avtobus yo'lovchilarni tashiyapti“, „Echki o't yeyapti“ va hokazolar).

Sujetli rasmlar bilan mashg'ulotlar: 1) bolalarning suratdagi voqea mazmunini tushunishlari; 2) tarbiyachining tushuntirishini, qisqa hikoyasini tinglay olish malakasini rivojlantirish, lug'atini kengaytirish va suratda tasvirlanganlar haqida gapirib berishga o'rgatish uchun („Bolalar ovqatlanishyapti“, „Ona bolasini cho'miltiryapti“, „O'g'il bola kuchuk bilan o'ynayapti“, „Bolalar bog'chasida archa bayrami“).

Devorga osilgan suratlar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar: „Bolalar tovuq va jo'jalar boqishyapti“, „Bolalar bog'chasida Navro'z bayrami“ va hokazo suratlar asosida tashkil etiladi.



Takrorlash uchun savollar

1. Ikki yoshgacha bo'lgan bolalarning rivojlanishida nutqning ahamiyati nimada?
2. Bola hayotining birinchi yilida nutq shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Bir yoshgacha bo'lgan bolalar bilan o'tkaziladigan o'yin mashg'ulotlarga qanday talablar qo'yilgan?
4. Ikki yoshgacha bo'lgan bolalar nutqi rivojlanishining qanday o'ziga xos xususiyatlari bor? Bola nutqini rivojlantirishda tarbiyachi qanday usullardan foydalanadi?
5. Ikki yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlarning qanday uslubiyotlarini bilasiz?
6. Tarbiyachi ikki yoshga qadam qo'ygan bolalar nutqining rivojlanishida qanday rol o'ynaydi?
7. Ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda ta'limiy o'yin va mashg'ulotlarga qo'yilgan talablar nimalardan iborat?



Amaliy topshiriqlar

1. 1 yoshdan 1 yosh-u 6 oylikkacha bo'lgan hamda 1 yosh-u 6 oylikdan 2 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish uchun o'tkaziladigan o'yin va mashg'ulotlar ishlanmasini tuzing. (Ushbu guruhlar uchun ko'rsatilgan o'yin-mashg'ulotlarning mavzulari asosida.)

2. Tuzilgan mashg'ulot ishlanmalari asosida bolalar bog'chasida (1 yosh-u 6 oylikdan 2 yoshgacha bo'lgan guruhlarda) mashg'ulot o'tkazing, uni tahlil qiling (bolalarning mashg'ulotda ishtirok etishi, javoblari va harakatlarini yozing).

BOLALARNI TEVARAK-ATROF BILAN TANISHTIRISH VA LUG'AT USTIDA ISHLASH USLUBIYOTI

1- §. Tevarak-atrof bilan tanishtirishning ahamiyati, bolalar tomonidan lug'atni o'zlashtirish xususiyatlari

Tevarak-atrof bilan tanishtirish va lug'at ustida ishlash bolalar bog'chasi tarbiyachilarining oldiga qo'yilgan eng muhim vazifalardan biridir. Maktabgacha tarbiya yoshi bolalarning voqelikni faol idrok qiladigan va tevarak-atrofdagi hayotga kirishib ketadigan bir davrdiki, bu davrda ularning so'z boylıkları juda tez o'sib boradi. Tarbiyachi bolalarni tevarak-atrof bilan (narsalar, jonli tabiat hodisalari, ijtimoiy hayot hodisalari) tanishtirar, ularning bilish faoliyatini yo'lga qo'yar va boshqarar ekan, har bir bolaga uning to'plagan tajribasini tartibga solishda yordamlashadi, unga yangi bilimlar beradi, unda qiziquvchanlik va kuzatuvchanlik qobiliyatlarini tarbiyalaydi, o'zini qurshab turgan olamni bilishga bo'lgan qiziqishini o'stiradi.

Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish ularga axloqiy tarbiya berish vositalaridan biri bo'lib, bolalarning og'zaki nutqini o'stirish imkonini beradi, bunda ularning so'z boyligi o'sib, to'g'ri talaffuz etish malakasi ortib boradi, ularda fikrni grammatik nuqtayi nazardan to'g'ri ifodalash ko'nikmasi tarkib topadi.

Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish va lug'at ustida ishlashga doir ishlarning mazmuni hamda ko'lemi bolalarning yosh xususiyatlariga bog'liq bo'lib, bu bolalar bog'chasining har bir guruhi uchun tarbiya dasturida alohida belgilab berilgan.

Bola nutqining taraqqiyoti uning atrofidagi odamlar nutqiga, tevarak-atrofdagi narsa-buyumlarni, ijtimoiy hayot hodisalarini kuzatishiga bog'liq bo'ladi. Yuqoridagi fikrlardan bizga ma'lumki (ilk yoshdagi bolalar nutqining rivojlanish xususiyatlari mavzusida bayon etilgan fikrlar), yangi tug'ilgan chaqaloqlar yig'lash orqali tashqi va ichki muhitdan keladigan signallarga (ochlik, tashnalik, sovuq, biror joyning og'rish yoki issiqlash va hokazolarga) javob beradi. Bola 2 — 3 oylik bo'lganda katta kishilar-

ning gaplariga, tevarak-atrofdagi g'ala-g'ovurlarga diqqat bilan quloq soladi, rangli narsalarga qaraydi va ularga nisbatan tovush chiqara boshlaydi. Bu esa 2 — 3 oylik bolaning rivojlanishiga xos bo'lgan so'zni ifodalaydi, ya'ni katta kishilar bilan aloqa qilish istagi vujudga kelganligidan dalolat beradi. Bola 5 — 6 oylik bo'lganda yengil talaffuz etiladigan tovushlarni birlashtirib, so'z chiqaradigan bo'ladi, 8 — 9 oyligida aytilgan buyumlarni ko'zi bilan qidirib, uni topadi va qo'li bilan ko'rsatadi yoki olib keladi. Bola bir yoshga to'lay deb qolganda o'nga yaqin so'zni talaffuz eta oladi. Bolalarning yoshi o'sgan sari ko'p narsalarga qiziqadi, o'zi bilmagan narsalarni bilib olishga intiladi. Bola bir yarim yoshga to'lganda uning lug'atidagi so'zlar miqdori 20 — 30 taga yetadi. Bu so'zlar o'ziga tanish bo'lgan kishilar: *aya, dada, nanna, buvi, bobo, amma, xola, opa*; hayvonlar: *vov-vov, miyov-miyov, mu-mu, qo-qo*; ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan so'zlar: *ma, ol, ber* va hokazolar. Bolalar tafakkurining rivojlanish xususiyatlari ularning lug'at boyligini belgilab beradi. Ya'ni bolalardagi ko'rsatma-ta'sirchan va ko'rsatma-obrazli tafakkur ularning lug'atida buyumlar, hodisalar, sifatarning nomlarini bildiruvchi so'zlarning ortib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalarda faol va sust lug'at mavjud bo'lib, faol lug'at orqali so'zlovchining so'zlarini (gaplarini) tushunibgina qolmay, balki o'z nutqida turli xil faoliyatga oid so'zlarni ham ishlatish mumkin bo'ladi. Sust lug'atga ega bo'lgan bola esa so'zlovchining so'zlarini tushunadi, tinglaydi, ammo o'zi gapirmaydi.

Bola nutqining taraqqiyoti ana shu xususiyatlari bilan katta kishilar nutqidan farq qiladi. Bir yoshdan bir yarim yoshgacha bo'lgan bola nutqining xarakterli belgisi shundaki, bola aytadigan so'zlar miqdori juda kam bo'ladi, ya'ni uning faol lug'ati juda sekin o'sib boradi. Bu yoshda bola lug'atining boyib borishi tevarak-atrofdagi kishilar nutqini tushunish qobiliyatining o'sishiga bog'liq bo'ladi. Bola o'ziga aytilgan so'zlarni yaxshiroq tushunadigan bo'ladi. Uning sust lug'ati o'sib boradi, o'zi yaxshi gapirmaydi, ammo boshqalarning so'zini ko'proq eshitib, eshitgan so'z va jumalarni o'ziga singdirib boradi va shuning zamirida keyinchalik o'z nutqini yuzaga keltiradi va boyitib boradi. Mana shu xususiyatlarni hisobga olgan pedagog-tarbiyachi bolalar idrok etadigan nutq, so'z va gaplarning mumkin qadar boy, rang-barang va to'g'ri bo'lishiga harakat qilishi kerakki, bu ularda og'zaki-mantiqiy fikrlash qobiliyatining paydo bo'lishiga ta'sir

etishi lozim. Bolada og'zaki-mantiqiy fikrning paydo bo'lishi esa ularning elementar tushunchalarni (*balandlik, yaxshi, yomon* va hokazolar) o'zlashtirib olishlariga yordam beradi.

Bola bir yoshga to'lganda faol lug'ati tez o'sadi. Bola aytadigan so'zlarning miqdori birdaniga ortib ketadi. Bolaning kattalar nutqiga taqlid qilishi yangi so'zlarni bilib olishida katta ahamiyat kasb etadi. Endi u kattalarning so'zlariga ongli ravishda, uning ma'nosiga tushunib taqlid qila boshlaydi. Ikki yoshga kirganda uning nutqi ma'noli bo'la boshlaydi. Narsalarni o'z nomi bilan atay boshlaydi. Chunonchi, *vov-vov — kuchuk, miyov-miyov — mushuk, chiq-chiq — soat* va hokazolar. Endi bola „Bu nima?, Nomi nima?“ degan savollar bera boshlaydi. Bu savollar uning o'ta sinchkovligi, miyasida narsa bilan uning nomi (ya'ni so'z) o'rtasida yangi bog'lanishlar paydo bo'lganligidan dalolatdir.

Daslabki paytda bola narsalarni bildiruvchi so'zlarni ko'proq ishlatsa, keyinchalik ish-harakatning nomini bildiruvchi so'zlarni ham ishlata boshlaydi. Ikki yoshga to'lgan bolaning so'z boyligi 250 — 300 taga yetadi. Uch yoshga qadam qo'yishi bilan uning lug'atida fazoviy munosabatlarni bildiruvchi *orqada, yuqorida, pastda, yonda* kabi ba'zi so'zlar paydo bo'la boshlaydi. Uch yoshning oxiriga borganda bola tevarak-atrofidagi kishilarning nutqini tobora mukammalroq tushunadigan bo'ladi, ularning aytib bergan hikoyalarini, kichik she'rlarni, ashula va ertaklarni diqqat bilan tinglaydi, yangi so'zlarni o'zlashtirib boradi. Kattalarga: Buning nomi nima? Nima uchun? Nega shunday? Qayerda? Qayerga ketdi? Qayerdan kelgan? Nimadan yasalgan? kabi savollarni beradi. Shular asosida uch yoshga to'lgan bolaning lug'at boyligi 1000 tadan 1200 tagacha, olti yashar bolaning so'z miqdori 3 — 3,5 mingtagacha yetadi. Demak, bog'cha yoshidagi davrda uning so'z boyligi juda tez ortadi. Bog'cha yoshida bolaning nutqi miqdor jihatidagina yangi so'zlar hisobiga boyib qolmay, balki sifat jihatidan ham ancha takomillashadi. Masalan, yasli yoshidagi bolalar juda kam so'z boyligiga ega bo'lib, ayrim tovushlarni (*r-l, sh-s, j-z* kabi) yaxshi farqlay olmaydilar. Bog'cha yoshidagi bolalar esa bunday tovushlarning ko'pchiligini aniq va ravshan talaffuz eta oladilar, so'zlarni gaplar tarkibida to'g'ri qo'llab, to'g'ri jumlar tuza oladilar. Ammo bog'cha yoshidagi bolalarning hammasida ham so'z boylıkları miqdor jihatidan bir xil bo'lmaydi. So'z to'plamining bir xil miqdorda bo'lishi bola tarbiyalanayotgan oila sharoitiga, oila a'zolarining

madaniy saviyasiga, tashqi muhit ta'siriga bog'liqdir. Ba'zi oilalarda bola nutqining o'sishi bilan maxsus shug'ullanadilar, ya'ni ularga yangi-yangi buyumlarni ko'rsatadilar, ularning nomlarini aytadilar, u bilan turli ish-harakatlarni bajarib ko'rsatadilar, bolaning sanoqsiz savollariga erinmay javob beradilar, o'zlari bilan ko'chaga aylangani olib chiqadilar, tevarak-atrof, muhit bilan tanishtiradilar. Kitobdagi illustratsiyalar yuzasidan suhbatlashadilar, kichik-kichik she'rlar, hikoya va ertaklar o'qib beradilar va hokazo. Bunday sharoitda tarbiyalanayotgan bolalar lug'ati talab etilgan so'z miqdoriga ega bo'ladi. Ular kelgusi faoliyatga (maktab va undan keyingi faoliyatga) tayyor bo'lishadi, ya'ni yetarli so'z miqdoriga, nutqning sifat jihatdan takomillashgan darajasiga ega bo'lishadi. Ba'zi oilalarda esa bola nutqining o'sishiga e'tibor berilmaydi. Ana shuning natijasida bog'cha yoshidagi bolalar so'z boyligi o'rtasida sezilarli farq ko'zga yaqqol tashlanadi.

2- §. Bolalar bog'chasida lug'at ishining vazifalari va mazmuni

Bolalar bog'chasida lug'at ishi — bu bolalarning faol lug'atini ularga notanish yoki qiyin so'zlar hisobiga rejali kengaytirishdir. Ma'lumki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning lug'atini kengaytirish bir vaqtning o'zida tevarak-atrofdagi voqelik bilan tanishtirish va unga to'g'ri munosabatda bo'lishni tarbiyalash bilan qo'shib olib boriladi.

Biz o'z fikrlarimizni gap orqali ifodalaymiz. Gap so'zlardan tuziladi. So'z esa tilning qurilish materialidir. Shuning uchun ham so'zni bilmay turib, tilni bilish mumkin emas. Nutqimizda ishlatiladigan so'zlarning hammasi tilimizning lug'at boyligini, ya'ni leksikasini tashkil etadi. Leksika so'zi yunoncha leksis so'zidan olingan bo'lib, u so'z degan ma'noni bildiradi.

Har bir so'zda quyidagilar muhim ahamiyatga ega: 1) uning ahamiyati yoki ma'nosi; 2) so'zning tovush tarkibi; 3) uning morfologik tuzilishi. Bolalar bilan lug'at ishini tashkil etganda so'zning mana shu uchta tomoniga e'tibor berish kerak.

Bolalar bog'chasida lug'at ishining aniq vazifalari bolalarni predmetlarning qismlarini, ranglarini, hajmini farqlashga o'rgatishdan iborat. Shu asosda gavda qismlarini (bosh, qo'llar, oyoqlar, burun, og'iz, ko'zlar va hokazo), hajmini (katta, kichik) va ranglarni (qizil, sariq, ko'k, yashil) bildiruvchi so'zlar bolaning lug'atiga kiritiladi.

Ikki yoshning oxirida o'xshash predmetlarni, narsa-buyumlarni (masalan, mushukni uning rangi, kattaligidan qat'i nazar tanish) bitta so'z bilan aytishga, bir guruhdagi buyumlarni boshqa guruhdagi buyumlardan rangi, kattaligidan qat'i nazar (koptokni shardan, piyolani stakandan va hokazo) farqlashga o'rgatiladi. Uch yoshdan boshlab bola lug'ati kattalar va o'zi shaxsan munosabatda bo'ladigan uy-ro'zg'or buyumlari nomini, ko'chada, bog'da, xiyobonda va boshqa joylarda (transport vositalari, qurilishlar, o'simliklar, hayvonlar va hokazo) ko'rgan predmetlar nomini bildiruvchi so'zlar bilan boyiydi.

Bola o'zi munosabatda bo'ladigan buyumlarning qismini (dasta, choynakning qopqog'i; yeng, cho'ntak, tugmalar, tugma teshigi, yoqa va hokazolarni), shaklini (shar, kubik, aylana), meva-sabzavotlarning mazasini (shirin, nordon, mazali, bemaza, achchiq), kunning qismlarini (ertalab, kunduzi, kechqurun) bildiruvchi so'zlar hisobiga lug'at boyligi kengayadi.

To'rt yoshli bolalar hamma buyumlarni, jihozlarni, turli transport vositalarining nomini aniq aytadilar. Bulardan tashqari: 1) buyumlarning hajmini, detallarining katta-kichikligini farqlashni bildiruvchi (kattaroq, katta, kichkina, kichkinaroq, keng, kengroq, uzun, uzunroq, yo'g'on, ingichka kabi);

2) buyumlarning joylashish o'rnini (o'ngda, chapda, o'rtasida, orqasida, yaqinida, yonida), kun qismlarini va ularning belgilarini (ertalab, kechqurun, kechasi, sahar, shom, xufton, qorong'i, yorug' kabi);

3) buyumlarning fizik sifatlarini (yumshoq, qattiq, issiq, sovuq, silliq, tip-tiniq, g'adir-budur, yaltiroq va hokazolar), xususiyatlarini (eriydi, iviydi, yirtiladi kabi) bildiruvchi so'zlar ham ular lug'atini boyitadi.

1. Bolalarning lug'atini boyitish. Bolalar lug'atini boyitish deganda, biz, ularni mustaqil o'zlashtirishlari uchun qiyin bo'lgan yangi so'zlar bilan muntazam tanishtirib borishni tushunamiz. Bolalar lug'atini boyitish ishi uch yo'nalishda olib borilishi mumkin:

1. Sekin-astalik bilan miqdori ortib boradigan buyumlar va hodisalar bilan tanishtirib borish.

2. Tevarak-atrofimizni o'rab turgan predmetlar va hodisalarning nomini, sifatini, xususiyatlarini, ularning o'zaro munosabatlarini bildiruvchi so'zlarni kiritish.

3. Predmetlarning belgilariga qarab farqlash va umumlash-tirish asosida boshlang'ich tushunchalarni bildiruvchi so'zlarni kiritish.

Lug'atni boyitish ishining uch yo'nalishi bo'yicha olib bori-ladigan ish hamma guruhlar uchun taalluqli bo'lib, faqat mazmun jihatdan farq qiladi. Masalan, tabiat hodisalari, buyumlar, ijtimoiy hayot hodisalari va hokazolar bilan tanishtirishda ish mazmunining oddiydan murakkabga borishi bilan turli guruhlarda o'zaro farq qiladi.

Ikki yoshli bolalar bog'chada, uyda munosabatda bo'ladigan buyumlarning, kiyim-kechaklar, mebellar, idish-tovoqlar, o'yinchoqlar va hokazolarning nomlarini bilib oladilar. Endi ular maishiy-xo'jalik va o'yin faoliyatlarida foydalaniladigan ayrim buyumlar va ular bilan bajariladigan harakatlarning nomlarini bilib olishlari kerak.

Bu yoshda ularning narsa-buyumlar to'g'risidagi bilimlari chuqurlashib va mustahkamlanib boradi, endi ular o'xshash buyumlarni belgilariga qarab farqlashga o'rgatiladi va buning natijasida ular lug'ati *kursi, kreslo, divan, stol, xontaxta, tufl, botinka, kavush, shippak, mahsi, kalish, etik, ro'mol, do'ppi, qalpoq, telpak, yaktak, chopon, chakmon, lozim, shalvar, shim, stakan, piyola, krujka* kabi qator so'zlar hisobiga boyiydi.

Besh yoshli bolalarning faol lug'atiga ular hayotida duch keladigan hamma buyumlarning nomlarini, ularning qismlarini, sifat va xususiyatlarini, fazoviy o'rnini va vaqt munosabatlarini bildiruvchi so'zlar kiritiladi. Shuningdek, bu yoshda ularning lug'atiga maishiy-xo'jalik tushunchalarini bildiruvchi so'zlar (sabzavotlar, mevalar, kiyimlar, o'yinchoqlar, idishlar, oyoq kiyimlari va hokazolar) kiritiladi.

Olti yoshli bolalarning faol lug'atiga buyumlarning muhim belgilarini (yog'och, metall, plastmassa, mato, shisha, chinni), sifat va xususiyatlarini (och qizil, to'q yashil, nordonroq, sariqroq, og'irroq, yengil, sovuqroq, issiqroq, issiq, iliq, iliqroq: pishiq, pishiqroq, pishiq emas; iviydi, sekin iviydi va hokazo) va boshqa tushunchalarni bildiruvchi so'zlar kiritiladi.

Yetti yoshli bolalar lug'atiga esa buyumlarning va material-larning eng muhim belgilarini bildiruvchi so'zlar kiritiladi (nordon — shirin, achchiq — sho'r, yashilroq — sariq; mato — qishlik, tukli, yengil, qalin va hokazo). Bunda farqlashni bildirish uchun zarur bo'lgan so'zlarni kiritish muhim ahamiyat kasb

etadi. Bolalar o'zlari qaysi so'z to'g'ri, aniq ekanligini tanlay olmaydilar, balki eshitayotgan so'zlariga taqlid qiladilar. Shuning uchun tarbiyachining nutqi bolalar uchun namuna bo'lishi, u o'z lug'atini boyitish ustida ishlashi kerak. U ona tilining lug'at tarkibini yaxshi o'rganishi shart. Shunday qilib, bolalarning lug'atini boyitish ishi va uning mazmunini, bolalarning buyumlar to'g'risidagi bilimlarini muntazam ravishda kengaytirishga, umumlashtirishga va chuqurlashtirishga intilishi zarur. Bola lug'atidagi so'zlar miqdori bola tasavvuri bilan mos kelishi kerak. Agar bola tasavvuri rivojlanib, lug'at boyligi sekin o'ssa, u vaqtda bola o'z fikrini boshqalarga bildirishda qiynaladi, nutqi juda kambag'al, tushunarsiz bo'ladi. Agar aksincha bo'lsa, u vaqtda bola so'z ma'nosiga tushunmay, ko'p gapiradigan „vaysaqi“ bo'lib qoladi. Shu bois har ikkala holat ham bola tafakkurining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bola lug'atiga muomaladan chiqarilgan va mahalliy shevaga oid so'zlarni kiritish yaramaydi. Bolalarning bir-birlari va kattalar bilan muloqotda bo'lishlari hamda o'z fikrlarini erkin, tushunarli bayon qilishlari uchun asosiy manbalardan biri bolalar badiiy adabiyotidir. Bolalar kattalarning o'qib berishi, hikoya qilishlari orqali badiiy asarlarni idrok etadilar va shu asosda lug'atlari boyib boradi.

2. Bolalar lug'atini aniqlash va mustahkamlash. Bolalar lug'atidagi so'zlarni mustahkamlashga tarbiyachi alohida e'tibor berishi zarur. Bu vazifa maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bog'cha yoshidagi bola lug'atida so'zlarning mustahkam o'rnashishi uchun uni ko'p marta takrorlash zarur.

Bola xotirasida qiyinlik bilan mustahkamlanadigan murakkab so'zlarga quyidagilar kiradi: 1) umumlashtiruvchi so'zlar: uy hayvonlari (ot, sigir, qo'y, echki, eshak); mebel (stul, stol, divan, xontaxta, javon); oyoq kiyimlari (tufli, botinka, shippak, kavush, kalish), idish-tovoqlar (likopcha, kosa, piyola) va hokazolar; 2) mavhum so'zlar (jimjitlik, sarg'ish, tozalik, go'zallik); 3) sifatlarni bildiruvchi so'zlar (g'adir-budur, tip-tiniq, nordon, shaharlik, temirdek) va hokazolar.

Tovush jihatdan qiyin talaffuz etiladigan so'zlar (trolleybus, motoroller, ekskavator, eskalator, tipratikan, avtobus, termometr, kotlet, kompot, televizor, plastmassa) va mustaqil o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan so'zlar bir necha marta takrorlanadi, bolalarga avval jo'r bo'lib takrorlash, so'ngra yakkama-yakka

takrorlash taklif etiladi. Masalan, „Mana likopcha, bizda likopchalar juda ko'p, hozir navbatchi 5 ta likopcha olib keladi. Hozir enaga likopchaga ovqat solib beradi...“. Bola lug'atini mustahkamlashdan tashqari boshqa vazifa, ya'ni so'z ma'nosini aniqlash ham hal etilmog'i lozim. Bolaning hayotiy tajribasi yetarli bo'lmaganligi uchun ayrim so'zlarning ma'nosini tez o'zlashtira olmaydi. Bu jarayon uzoq davom etib, butun maktabgacha tarbiya yoshini o'z ichiga qamrab oladi.

Masalan, bolalar „stol“ so'zidan erta foydalana boshlaydilar. Ular bu so'z jihoz, buyumning nomi ekanligini biladilar, „stol“, „ovqatlanish“ ma'nosida ham ishlatilishini (Akmalning tug'ilgan kuniga borganimizda „stoli“ yaxshi edi, ya'ni dasturxonda barcha noz-ne'matlar bor edi, yaxshi mehmon qildi) keyinchalik bilib oladilar. „Bayram“ so'zining ma'nosi ham muntazam chuqurlashtirib boriladi: kichik yoshdagi bola „bayram“ so'zini hishayajon (emotsional), xushchaqchaqlik daqiqasi ma'nosida idrok etadi. Katta yoshdagi bola esa „bayram“ (Mustaqillik bayrami yoki Navro'z bayrami) bu butun o'zbek xalqining milliy bayrami, uni butun O'zbekiston xalqi shod-u xurramlik bilan nishonlashini tushunadi.

Bundan tashqari, bolalarning tafakkuri (fikir yuritishlari) o'zining aniqligi, ko'rgazmali bo'lishi bilan kattalarning tafakkuridan farq qiladi. Ular, eng avvalo, aniq so'zlarni o'zlashtiradilar. Bolalar lug'atida umumiy tushunchalarni bildiruvchi so'zlar mavjud bo'lib, ulardan xato foydalanadilar, ya'ni ushbu so'zlarning ma'nosi chegaralangan holda tushuniladi. Buning natijasida bolalar bilan tarbiyachi o'rtasida tushunmovchiliklar vujudga keladi va bolalar tarbiyachining so'zlarini anglab yetmaydilar. Shuning uchun tarbiyachining asosiy vazifasi bolalar yoshiga mos so'zlar tanlab, ularning ma'nosini tushuntirishi, narsa-buyum va hodisalarning nomlarini to'g'ri aytishi kerak. Xulosa qilib shuni aytish joizki, tarbiyachi qaysi turdagi mashg'ulotni o'tmasin, qaysi faoliyatni tashkil etmasin, albatta yangi, bolalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan so'zlarni bolalar lug'atida mustahkamlashi va ularning ma'nosini alohida tushuntirishi shart. Masalan, o'rta guruhda (dastur asosida) „Go'ro'g'li“ dostonidan parcha o'qiyotganda (badiiy asarni o'qib berish mashg'uloti) matnda „baytal“ so'zi uchraydi. Bu so'zni bola ilk bor eshitayotgan bo'lishi mumkin. Tarbiyachi „baytal“ bu ona ot ekanligini bolaga tushuntirib, bolani

(Go'ro'g'lini) emizib turgan ot rasmini bolalarga ko'rsatishi va „baytal“ so'zini ko'p marta takrorlash usulidan foydalanib, bola xotirasida mustahkamlashi kerak.

Shu tariqa doston matnidagi „yilqichi“, „yilqibon“, „suluv“, „kuvi“ kabi so'zlarning ma'nosi ham tushuntirilib, mustahkamlanadi.

3. Bolalar lug'atini faollashtirish. Tarbiyachi bolalarning lug'atini boyitibgina qolmasdan, balki lug'atdagi so'zlardan o'rinli foydalanishga ham o'rgatib borishi, nutq orqali bayon etiladigan fikrlarini aniqroq ifoda eta olish ko'nikmasini hosil qildiradi olishi kerak. Bolalar lug'atini faollashtirishning mazmuni har bir guruhda ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ da bayon etilgan.

Bolalar lug'atini faollashtirish — bu bolalar tomonidan ma'nosini aniq tushungan holda foydalaniladigan so'zlar miqdorining ortib borishidir.

Turli-tuman faoliyat turlarida (mashg'ulotda, o'yin, mehnat, maishiy faoliyat va kundalik tartib jarayonida) bolalarni o'z lug'at boyligidan foydalanishga o'rgatish ular nutqini o'stirishning zarur shartidir, chunki tilni undan foydalanish jarayonidagina egallash mumkin. Bolalarning kattalar bilan nutqiy muloqoti ular lug'atini faollashtirishda qimmatli vosita bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, topshiriqlar berish, ya'ni uslubiyot xonasiga borib, katta tarbiyachidan didaktik (ta'limiy) o'yinchoq yoki surat so'rab kelish; sayr haqida enagaga so'zlab berish; Nomi nima? Rangi qanday? Qanday materialdan qilingan? Nima uchun kerak? kabi savollar berish; bolalarga ma'lum bo'lgan so'zlarni to'g'ridan to'g'ri aytib, esiga tushirish, o'xshashlik bo'yicha (buyumlarning vazifasiga qarab) yangi so'z yasash (qand uchun qanddon, sut uchun sut idish); obyekt uchun xos bo'lgan sifat va fe'llarni tanlash (qanday hikoya? — kulgili, xushchaqchaq, xuddi ertakka o'xshaydi); tarbiyachi tomonidan tushirib qoldirilgan so'zlarni topib aytish va to'ldirish (uning ignalari qishda ... — kumushdek; ayiqlar aravada sil... —silkinishadi) kabi usullardan foydalanib, bolalar lug'atini faollashtirish mumkin.

4. Bolalar lug'atidagi mahalliy shevaga oid so'zlarni adabiy so'zlar bilan almashtirish. O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan nutqimizda ishlatiladigan so'zlarga e'tibor yanada kuchaydi. Bolalar lug'atida mahalliy shevaga oid so'zlarga e'tibor bermaslik kelgusida maktabda ta'lim olish jarayoniga.

kishilar bilan muloqotda bo'lishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, maktabda olib borilgan kuzatishlar natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar nutqidagi orfografik xatolar: a) mahalliy sheva ta'sirida; b) bola qanday gapirsa, shunday yozishidan kelib chiqadigan xatolardir. Mahalliy shevaga oid so'zlarning ko'p ishlatilishi kelgusida maktabda bolalar savodxonligini oshirishga xalal beradi. Bola lug'atining shevaga oid so'zlar hisobiga boyib borishida oilada ota-onalarning, atrofdagi kishilarning, bolalar bog'chasida esa tarbiyachining, bog'cha xodimlarining ta'siri katta. Chunki bolalar atrofdagilardan eshitgan har qanday so'zlarni o'zlashtirib borishadi, natijada bu so'zlar bola lug'atining mahsuliga aylanadi. Shuning uchun tarbiyachi ota-onalar bilan suhbat va ma'ruzalar o'tkazib, ularga iloji boricha adabiy tilda gaplashishlarini, bolani ham sof adabiy tilda so'zlashga o'rgatishlari lozimligini uqtirishi zarur.

Avvalo, tarbiyachi-pedagogning o'zi bolalar bilan sof adabiy til qoidalariga rioya qilib so'zlashishi lozim. Buning uchun o'zbek tili lug'atini muntazam tarzda o'rganib borishi, adabiy talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda gapirishi, o'qib berishi yoki hikoya qilishi, buyumlar, jonli va jonsiz tabiat hodisalari, o'simliklar, hayvonot dunyosi, kattalar mehnati, ijtimoiy hayot hodisalari va hokazolar uchun lug'atchalar tuzishi kerak. Masalan, har bir tarbiyachi o'zining viloyatiga tegishli shevaga oid so'zlarni nazarda tutib, lug'atni quyidagicha tuzishi mumkin:

Buxoro shevasida	Adabiy talaffuzda
julob	paypoq
kallapo'sh	do'ppi
zocha	qo'g'irchoq
murg'	tovuq
gechi	ecki
kurracha	xo'tik
barra	qo'y
tortanak	o'rgimchak

Buxoro shevasida	Adabiy talaffuzda
kadi	qovoq
boyimjon	baqlajon
zaldori	o'rik
satil	chelak
kunjak	burchak
madoncha	hujra
kissa	cho'ntak
choygardon	cho'mich

Bola lug'atidagi mahalliy shevaga oid so'zlarni adabiy so'zlar bilan almashtirish uchun turli usullardan foydalaniladi. Chu-

nonchi: 1) mahalliy shevaga oid soʻzlarni adabiy soʻz bilan almashtirish mumkin boʻlsa (kurracha — xoʻtik), avval xor boʻlib takrorlatish, soʻng esa har bir boladan qayta aytishni talab etish; 2) nomi buzib aytilgan (zocha — qoʻgʻirchoq, barra — qoʻy, murgʻ — tovuq va hokazolar) narsa-buyumning rasmini yoki oʻyinchoqlarni buyumlar ichidan topishni buyurish; 3) shu narsa-buyumning rasmini solib, uning nomini takror aytirish.

Yuqorida bayon etilgan lugʻat ishining hamma ish vazifalari bir vaqtning oʻzida bir butun pedagogik jarayonda hal etiladi. Ayni vaqtda har bir ish vazifasi oʻz xususiyatlariga, oʻz usul va uslubiyoʻtiga ega.

Bolalar bogʻchasidagi oʻquv jarayoni mashgʻulot hisoblanib, ushbu mashgʻulotda lugʻat ishining biron-bir ish vazifasi hal etiladi, qolgan ish vazifalari esa yoʻl-yoʻlakay amalga oshiriladi.

3- §. „Bolalar bogʻchasida taʼlim-tarbiya dasturi“ boʻyicha turli yosh guruhlarida olib boriladigan lugʻat ishi

Turli guruhlarda olib boriladigan lugʻat ishining mazmuni „Bolalar bogʻchasida taʼlim-tarbiya dasturi“ asosida belgilangan. Unda lugʻat ishi bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish dasturi asosida tuzilgan.

Bolalar tevarak-atrof, ijtimoiy hayot hodisalari bilan mehnat, oʻyin, maishiy hayot jarayonida va mashgʻulotlarda tanishib boradilar. „Bolalar bogʻchasida taʼlim-tarbiya dasturi“da bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish bir necha boʻlimlardan iborat qilib ajratib koʻrsatilgan. *Kichik guruhda* tevarak-atrof va ona-Vatan; ijtimoiy hayot hodisalari, buyuk siymolar va bayramlar; kattalar mehnati; transport vositalari, buyumlar. Shuningdek, tabiat bilan tanishtirish bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish va lugʻat ustida ishlash dasturining ajralmas bir boʻlimi boʻlib hisoblanadi. Biz bolalarni oʻsimliklar, hayvonlar, qushlar, hasharotlar dunyosi bilan, tabiat burchagi bilan tanishtirish vositasida muntazam lugʻat ishi vazifalarini amalga oshiramiz. *Oʻrta guruhda* esa yuqoridagi boʻlimlardan tashqari, harbiy qoʻshinlar bilan tanishtirish boʻlimi ajratilgan. Dasturda *katta guruhlar* uchun ancha murakkablashtirilgan materiallar ajratilgan. Chunonchi, ular yuqorida bayon etilgan boʻlimlardan tashqari quyidagi boʻlimlarni oʻz ichiga qamrab oladi: anʼanaviy bayramlar; mashhur sarkardalar; xalq ogʻzaki ijodi; transport va aloqa vositalari.

Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish dasturida ajratib ko'rsatilgan bo'lim materiallarining mazmuni bolalarning yoshiga ko'ra murakkablashib borishi bilan bir-biridan farq qiladi. Bolalarning bilim doiralari ularning buyumlar to'g'risidagi boshlang'ich tushunchalari va tasavvurlariga qarab kengayib boradi. Chunonchi, 2 — 3 yoshli bolalar kundalik tartib jarayonida turli xildagi buyumlar bilan hamda bog'chaga yaqin bo'lgan obyektlarni ko'radilar va ularning nomlarini, ayrim sifatlarini bilib oladilar. 6 — 7 yoshli bolalar esa jamiyat hayoti, ona-Vatanimizdagi voqealar bilan qiziqadilar, bog'chadan tashqaridagi muhim obyektlar, buyumlar, narsa-hodisalarni kuzatadilar, natijada ularning bilim doiralari 2 — 3 yoshli bolalarning bilim doiralari nisbatan ancha keng, aniq, mazmunli bo'ladi va buning zahirida lug'at boyligi tez rivojlanib boradi.

Quyida dastur asosida turli yoshdagi bolalarni tevarak-atrof bilan, ijtimoiy hayot hodisalari bilan tanishtirishning mazmuni va guruhlar bo'yicha dastur mazmunining murakkablashib borishini misol tariqasida keltiramiz.

Buyumlar bilan tanishtirish

Kichik guruhda. Maishiy buyumlar (ko'zgu, taroq, sovun, tish va kiyim cho'tkalar) haqida tushuncha beriladi.

Uy-ro'zg'or buyumlari (palos, gilam, shkaf, karavot, xontaxta, stol); oshxona idishlari (kosa, tovoq, qoshiq, likopcha, lagan, choynak, piyola, chelak, patnis va boshqalar) nomlarini bilib olish, farqlashga; oyoq kiyimlar (etik, kavush, shippak), bosh kiyimlar (do'ppi, qalpoq, ro'mol, telpak) nomlarini, vazifalarini bilib olishga o'rgatiladi.

O'rta guruhda. Tevarak-atrofdagi buyumlar va ularning xilma-xil sifatleri (shakli, rangi) bilan tanishtirish. Uy-ro'zg'or buyumlarining (gilam, palos, ko'rpa, to'shak, ko'rpacha, yostiq, choyshab) shakli va rangi, vazifasiga e'tiborni jalb qilish. Narsalarning qiziqarli tomonini ko'rishga o'rgatish (deraza romi, uning oynasi, darchasi, zulfi va deraza tokchasi). Buyumlarni umumlashtirish, bir tur doirasida farqlash (choy idishlar: choynak, piyola, patnis, likopcha; oshxona buyumlari: cho'mich, kapgir, qozon, kosa, pichoq, tova, lagan, tovoq, tog'ora, jo'va). Bir turdagi buyumlarning xilma-xilligini (turli rang, bichim, o'lchovdagi har xil gazlamalardan tikilgan ko'ylaklar) bilib olish, har xil turdagi buyumlarni juftlash va guruhlash vositasida

buyumlarning belgilari (vazifasi, tuzilishi va shu kabilarga) ko'ra guruhlash ko'nikmalarini takomillashtirish.

Kiyimlar: ustki kiyimlar, bosh kiyimlar, ichki kiyimlar, poyabzal turlari, musiqa asboblarini (surnay, dutor, nog'ora va b.) farqlashga o'rgatish.

Katta guruhda. Buyumlarning muhim belgilari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan bolalar bilimini boyitish. Buyumlarni shu belgilari asosida guruhlarga ajratish. Buyumlarni qanday materiallardan (matodan, qattiq, yumshoq, suyuq) ishlanganligi to'g'risida tushuncha berish va ularni bir-biridan farqlay bilishga o'rgatish. Buyumlarning vazifalari to'g'risidagi bilimlarini kengaytirish.

Ijtimoiy hayot hodisalari bilan tanishtirish

Kichik guruhda. Buyuk siymolar va bayramlar haqida ma'lumot berish. Navoiy rasmi bilan tanishtirish. Tarbiyachi Navoiyning rasmda aks etgan siymosi haqida tushunarli, sodda jummalarda, ayni paytda mehr va iftixor bilan bolalarga tasviriy hikoya aytib berish orqali unga nisbatan muhabbat, hurmat hissini uyg'otadi.

Bolalarda Navro'z, Mehrjon(hosil bayrami), hayit va boshqa milliy bayramlarimiz haqida ilk tasavvur hosil qilish. Tarbiyachi bu bayramlarda hamma chiroyli kiyimlar kiyishi, o'yin-kulgi, xursandchilik bo'lishini va shu bilan birga, eng muhimi, kichiklar kattalarni (ota-onalari, buvi-yu bobolarini) borib ko'rishlari, har xil sovg'alar olib borishlari, ularning duosini olishlari haqida tushuncha beradi.

O'rta guruhda. Bolalarga o'zbek xalqining buyuk siymolari (Navoiy, Bobur va b.) haqida qisqacha so'zlab berish. Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyga nisbatan hurmat va muhabbat hissini tarbiyalash. Navoiyning bolaligi va nuroniy siymosi aks etgan suratlar bilan tanishtirish. Oila a'zolari: otasi, onasi, tog'alari haqida ma'lumot berish. Alisherning bolaligi haqidagi qiziqarli voqealardan hikoya qilish. Navoiy haqidagi afsona va rivoyatlardan o'qish va suratlarini ko'zdan kechirish.

Bolalarni o'zbek xalqining milliy bayramlari bilan tanishtirish. Navro'z — xalqimizning qadimiy bayramlaridan biri ekanligi, uni kattalar ham, bolalar ham birday quvonch bilan nishonlashlari, qiziq-qiziq o'yinlar, sayillar uyushtirilishi, sumalak, halim, ko'k somsa, chuchvaralar pishirilishi haqida so'zlab berish.

Hosil bayrami — Mehrjon. Bayramning nomlanishi haqida qisqacha soʻzlab berish. Bu bayram har yili kuz faslida oʻtkazilishi, unda dala mehnatkashlarining mehnat natijalari namoyish qilinishi, har xil koʻrgazmalar, meva va sabzavotlar savdosini tashkil etish, dilrabo qoʻshiq-raqsalar, bobodehqonning fidoyi mehnatini ulugʻlovchi sheʼrlar barala yangrab, oʻyin-kulgi, xursandchilik avjiga chiqishi, bu toʻkin-sochinlik bayrami ekanligi haqida tasavvur hosil qilish. Bayramda qovun va uzum sayli oʻtkazilishi haqida soʻzlab berish.

Katta guruhda. Buyuk siymolar, allomalar hayoti va tariximiz, buyuk sharq madaniyati bilan tanishtirishni davom ettirish.

Navoiyning buyuk mutafakkir, davlat arbobi boʻlganligi haqida maʼlumot berish. Uning odob-axloqqa, tarbiyaga oid, bolalar yoshiga mos asarlari bilan tanishtirish.

Navoiyning dunyo xalqlari taniydigan buyuk shoir ekanligi, uning oʻzbek adabiy tiliga asos solganligi haqida hikoya qilib berish. Oradan 600 yil oʻtgan boʻlsa ham, uning asarlari oʻz qadriini yoʻqotmaganligi, shu kungacha dunyodagi koʻplab tillarga tarjima qilinganligini aytish.

Navoiyning xalqparvar inson boʻlganligi, xalq uchun kerakli inshootlar qurdirganligi, xalq ham uni juda sevib, hurmat qilganligi haqida gapirib berish.

Alisher Navoiy nomini abadiylashtirish maqsadida Oʻzbekistondagi shahar, muzey, teatr, kutubxona, istirohat bogʻi va koʻchalar Navoiy nomi bilan atalishi haqida maʼlumot berish.

Buyuk insonlar: Al-Beruniy, Ibn Sino, Ulugʻbek, Bobur, Kamoliddin Behzod haqida maʼlumot berish.

Anʼanaviy bayramlar. Navroʻz bayrami bahor faslida oʻtkaziladi. U hijriy hisob boʻyicha 21- martga toʻgʻri keladi va yangi yilning boshlanishi hisoblanadi. Ilgari musulmon xalqlari Navroʻz bayramini keng nishonlaganliklari, keyinchalik bu bayramni nishonlash taqiqlangani haqida qisqacha soʻzlash. Oʻzbekiston mustaqil davlat deb eʼlon qilingach, bu bayram qayta tiklanganligi va endilikda Navroʻz milliy bayramlarimizdan biri deb sanalishi haqida maʼlumot berish. Qadimiy milliy-mavsumiy bayram sayillari bilan bolalarni tanishtirish orqali ularda qadriyatlarimizga nisbatan muhabbatni shakllantirish. Shakl va mazmuni jihatidan xilma-xil boʻlgan sayillarni muntazam ravishda tashkil qilib turish. Masalan: katta sayil (boychechak, ona yer saxovati, gilos, olma) va qushlar hamda gullar bayrami va boshqalar. Bulardan tashqari,

bolalarga milliy marosimlar: to'y, ma'arakalar va boshqalar to'g'risida tushuncha berish.

Bu usullar bolalar lug'atini boyitishga, tarbiyachi nutqidan kerakli so'zlarni ajratib olishga, shuningdek, o'z nutqlarida egallagan so'zlarini ishlata olishga yordam beradi.

Shuning uchun bir uslubiyotning o'zida bir vaqtda bir necha uslubdan foydalaniladi, ammo shulardan bittasi asosiy usul hisoblanadi. Quyida biz lug'at ishining bir necha usullarini ko'rib chiqamiz:

1. Yangi yoki qiyin so'zni aytib berish. Bu usul bolalar lug'atini boyitishning faol usullaridan hisoblanadi.

Belgilangan so'zni tarbiyachi shunday talaffuz etishi kerakki, bolalar uni o'zlari bilmagan holda idrok etsinlar (aytsinlar). Tarbiyachi aytilayotgan yangi yoki qiyin so'zni nutq oqimidagi boshqa so'zlarga nisbatan sekinroq sur'atda talaffuz qiladi. Ammo so'zni bo'g'inlab aytish mutlaqo yaramaydi. So'zni bo'g'inga ajratib aytish — adabiy talaffuz me'yorini buzadi, u og'zaki nutq uchun xarakterli emas. So'zni sekin talaffuz etish kerak, ammo orfoepik tomondan to'g'ri bo'lishi lozim.

2. Obyektni ko'rsatish. So'zni aytish ko'pincha obyektni ko'rsatish bilan bog'lanadi. („Qaranglar, javonning ichida tokchalari bor“, deydi tarbiyachi, javon eshigini ochayotib va uni ko'rsatib.)

3. So'zni tanish so'z yoki tanish sinonim bilan almashtirish va qarama-qarshi ma'noli so'z, tanish antonim bilan taqqoslash. Masalan, akvarium — shisha yashik, unda baliqlar yashaydi, ular bizga shisha orqali yaxshi ko'rinadi.

4. Yangi yoki qiyin so'zni gapda ishlatish. Masalan: tramvay so'zini o'zlashtirishda tarbiyachi shunday deydi: „Yo'lovchilar tramvayning orqa eshigidan chiqishadi“ va hokazo.

5. So'zni takrorlash. Aytilgan yangi yoki qiyin so'zni bolalar xotirasida mustahkamlash uchun tarbiyachi mashg'ulot davomida bir necha marta hamma bolalar bilan jo'r bo'lib takrorlaydi. Bunday takrorlash bolalarning nutq faolligini oshiradi, xotirasini mustahkamlaydi. Biroq bunday usuldan bolalarga tovush talaffuzi qiyin bo'lgan so'zlarni takrorlatishda foydalanilsa yaxshi natija beradi (trolleybus, motoroller, termometr va boshqalar).

Tarbiyachi tomonidan takrorlash uchun namuna sifatida aytilgan so'z aniq bo'lishi va taxminan quyidagicha tushuntirish bilan boshqarilishi kerak: „Hozir hammamiz birgalikda bu so'zni

aytishni o'rganamiz. Bu so'zni men bilan birga o'rtacha ovozda aytin". Tarbiyachi ayrim bolalar so'zni qanday talaffuz etayotganligini diqqat bilan tinglaydi, kerak bo'lsa, namunani takrorlashi mumkin.

Namunani takrorlashda tarbiyachi bolalarga: „Diqqat bilan tinglang, bu so'zni yana takrorlayman“, deb aytishi kerak.

6. Savol berish. Bu usuldan bola lug'atini faollashtirish maqsadida foydalaniladi. Doim to'g'ridan to'g'ri savollar berishdan foydalanilmasdan, balki javob qaytarishga yordam beruvchi savollar berish ham mumkin. Masalan: Koptok o'ng tomondami yoki chap tomondami?

7. So'zning kelib chiqishini tushuntirish. Ba'zi hollarda bolalarning so'zga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish maqsadida uning kelib chiqishini (etimologiyasini) tushuntirish ham katta ahamiyatga ega. Bu usuldan ko'proq katta guruhlarda so'z ma'nosini chuqur tushunib olish, so'zga qiziqishni tarbiyalash maqsadida foydalaniladi. Masalan: Bolalar, nima uchun yuk avtomobili yuk tashuvchi deyiladi?

8. Murakkab so'zlarni hosil qilish. Bu usul maktabga tayyorlov guruhida qo'llaniladi. Bolalar bilan murakkab so'zlarni (yangi so'zni) hosil qilish ustida mashq qilinadi. Bolalarga bir, ikki so'zdan yangi so'z hosil qilish taklif etiladi. Masalan, *gul — guldon; suv — suvchi; och, qizil — och qizil; to'q, sariq — to'q sariq; uzun, quloq — uzunquloq* va boshqalar.

9. Ta'limiy o'yin (didaktik o'yin). Bu usuldan ko'proq mashg'ulot davomida foydalaniladi. Tarbiyachi qisqa muddat ichida (1 — 3 daqiqa) bolalar bilan so'z tanlash bo'yicha mashq o'tkazadi. Masalan: „Kim ko'proq ko'radi va aytadi?“, „Kim dumaloq shakldagi buyumlarni ko'proq aytadi?“ Bu usuldan topishmoqlarni topish, buyumlarni taqqoslashda (xotirasi bo'yicha va ko'rib turgani bo'yicha) katta guruhlarda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

4- §. Tevarak-atrof bilan tanishtirish va lug'at ustida ishlash bo'yicha mashg'ulot turlari

Kuzatish mashg'ulotida lug'at ishi. Ta'limning muhim uslublaridan biri bu kuzatishdir. Kuzatish o'ziga xos bir faoliyat bo'lib, u bolani borliq hayot bilan yaqindan tanishtiradi. Bola, odatda, eshitganlariga nisbatan ko'rgan va kuzatganlarini uzoq vaqt yodida saqlaydi, ulardan ta'sirlanadi, estetik zavq oladi. Turli-

tuman ranglarga boy, go'zal va xushmanzara tabiat bola didi, so'z boyligi, nutqini o'stirish manbayidir. Bolani atrofdagi go'zallikni ko'ra bilishga, ranglarni idrok eta olishga, tovushlar ohangini tinglay bilishga, xushbo'y hidlarni payqay olishga o'rgatish orqali uning fikr doirasi o'stiriladi, nutqi rivojlantiriladi. Bolada tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini so'z bilan ifodalash xususiyatlarini tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Bola tevarak-atrof va ijtimoiy hayot hodisalarini, kishilar mehnatini kuzatar ekan, ularni ifoda etish uchun yangi-yangi so'z va iboralarni o'rgana boshlaydi. Eng muhimi, bola o'zi yashab turgan joydagi o'simlik, hayvon, ijtimoiy hayot, buyumlar bilan yaqindan tanishadi. Bolalarda kuzatish faoliyatining juda yoshligidan paydo bo'lishi haqida pedagog olim D. N. Gonobolin shunday degan edi: „Kuzatish idrokning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan turlaridan biridir. Tashqi dunyo obyektlarini idrok etishning mukammalligi faqat sezgilar (ko'rish, eshitish va boshqalar)ning o'tkirligigagina emas, balki hodisalarini tahlil qila bilish, narsalarning belgilarini farq qilish, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash, bilib olish va shu kabilarga bog'liqdir“. Bolalarni yangi obyekt bilan tanishtirishning asosiy maqsadi shu obyektidagi yangilikni bilib olishga, uning belgilari, xususiyatlari haqida tushunchaga ega bo'lishga hamda atrof-muhit bilan bog'liqligini aniqlashga yordam berishdan iboratdir. Kuzatish jarayonida turli analizatorlar (ko'ruv, eshituv, ta'm bilish, teri) faollashadi, bolalarning ayrim sezgilari so'z bilan (achchiq, taxir, issiq, sovuq, g'adir-budur, silliq, qizil, sariq, ko'k va h. k.) ifodalanadi.

Nutq o'stirish uslubiyotining asoschisi, mashhur pedagog I. Tixeyeva kuzatishning ta'lim jarayonidagi ahamiyatiga yuqori baho berib, shunday degan edi: „...Voqelikni kuzatish har qanday bilimga ega bo'lishning negizidir. Kuzatishdan ko'zlanadigan muhim maqsad bolalarga tevarak-atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilishga va idrok qilinayotgan narsani so'z bilan ifodalashga yordam berishdir“. Idrok bolaning tafakkur faoliyati bilan bog'liqdir: ya'ni obyekt haqida fikr vujudga keladi, muhim belgilari sanab o'tiladi, obyekt boshqa obyekt bilan taqqoslanadi. Kuzatish jarayoni tarbiyachining va bolalarning nutqiy muloqotlari asosida olib boriladi, idrok qilinayotgan muhim tomonlari esa so'z bilan ifodalanadi.

Bolalar bog'chasining eng muhim vazifasi:

1) bolalarda kuzatuvchanlik qobiliyatini o'stirish;

2) amaliy tajribalarni orttirish;

3) nutq ko'nikmalarini hosil qilish uchun o'z his-tuyg'ularidan foydalanishga o'rgatish.

Bolalarda kuzatuvchanlik qobiliyati ularni tevarak-atrofdagi olam bilan tashkiliy tarzda tanishtirish yo'li bilan o'stiriladi. Bolalarning bilim doirasini kengaytirish, nutqini o'stirish va lug'at ustida ishlashida tevarak-atrofdan foydalanishning ikki usuli mavjud:

1. Buyumlarni o'rganiladigan material sifatida bolalarga yaqinroqdan ko'rsatish. Bularga turmushda ishlatiladigan buyumlar, idish-tovoqlar, kiyim-kechak, poyabzal, o'yinchoqlar, tabiatdan gullar, novdalar, mevalar, sabzavotlar, obyektlar, uy hayvonlari va parrandalar, qushlar, baliqlar va boshqalar kiradi. Bunday kuzatish bolalar bog'chasining o'zida o'tkaziladi.

2. Bolalarni obyektga yoki buyumga yaqinlashtirish. Bularga bog'chaning o'zida bevosita kuzatish imkoniyati bo'lmagan obyektlar yoki buyumlar (qurilishlar, do'konlar, pochta, paxta dalasi, transport vositalari va boshqalar) kiradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish eng yaqin joydan, ya'ni guruh xonalari (uyqu xonasi, yuvinish xonasi va hokazolar), ulardagi buyumlar, o'yinchoqlar, tabiat burchagi, guruh maydonchasi va hokazolar bilan tanishtirishdan boshlanadi. Bunday kuzatishlar ma'lum bir maqsadni, ya'ni o'z guruh xonasi, undagi jihozlar va buyumlar, bog'cha binosi, undagi xonalarning, guruh maydonchalarining joylashishi haqidagi, tevarak-atrofdagi buyumlar, bog'chadagi xizmatchilarning mehnati haqidagi bolalarning bilimlarini aniqlash va kengaytirish, lug'atini boyitish va faollashtirishdan iboratdir. Bog'chaning o'zida, guruh xonasida tashkil etiladigan bunday kuzatish mashg'ulotlari Y. I. Tixeyevaning ta'biricha „mahalliy sayohat“ deb yuritiladi. Bunday kuzatish, ko'zdan kechirish mashg'ulotlari bog'chaning hamma guruhlarida o'tkaziladi. Tarbiyachi kuzatish mashg'ulotini o'tkazishga tayyorlanar ekan, u tevarak-atrof bilan va ijtimoiy hayot hodisalari bilan tanishtirish bo'yicha bitta mashg'ulot o'tkazishga tayyorlanar ekan, u mashg'ulot uchun zarur bo'lgan ma'lumot hajmini, shuningdek, kuzatish jarayonida bolalarning bilishlari va o'zlashtirishlari lozim bo'lgan so'zlarni tanlaydi. Mashg'ulotning rejasini tuzishda kuzatish jarayonida foydalaniladigan, bolalar uchun yangi va qiyin bo'lgan so'zlarni belgilab qo'yadi.

Masalan: kichik guruhda guruh xonasi, yechinish xonasi va hokazolar bilan tanishtirilganda bolalarga *dahliz, shkaf, shkaf tokchasi, o'ngda, chapda, ilmoq, oyoq kiyimi, ust kiyimi, ilinadi, yechiladi* va hokazo so'zlar aytiladi, faollashtiriladi, mustahkamlanadi. Shuningdek, o'z guruh xonalari bog'cha binosining qayerida joylashganligini bilib olishga o'rgatiladi.

Shu tariqa bog'cha yer maydoni, undagi barcha binolar: oshxona, kirxona, qorovul xonasi, hamshira, mudira xonasi va musiqa xonalari, gulzor, bog' va boshqalar tanishtirilib, kuzatishlar tashkil etiladi. Kuzatish obyekti va uning mazmuni kichik guruhdan katta guruhga o'tganda murakkablashib boradi.

Bolalar bilan tashkil etiladigan bunday kuzatish mashg'ulotlari bolalarning bilim doirasini kengaytirish va lug'atini boyitish bilan birga, ularda yuksak axloqiy sifatlarni ham tarbiyalaydi. Masalan, bolalarni bog'cha binolari bilan tanishtirayotganda, ularning e'tiborlari xonalarning tozaligiga jalb qilinib, ularda enaganing mehnatiga nisbatan hurmat hissi tarbiyalanadi; qishki ust kiyimlar ko'zdan kechirilayotganda ular uchun chiroyli, issiq kiyimlar tikkan ustalar va ularning mehnatini qadrlash hissi tarbiyalanadi. Shuning uchun mashg'ulotning dastur maqsadida lug'at ishdan tashqari kishilarning mehnatiga hurmat (kattalar mehnatini kuzatishda), tabiatga muhabbat (hayvon yoki o'simliklarni kuzatishda), buyumlarga nisbatan ehtiyotkorlik (buyumlar bilan tanishtirishda) munosabatlari va hokazolarni tarbiyalash ko'rsatiladi.

Kuzatish mashg'ulotlarining boshlanishi muhim bosqich bo'lib, butun mashg'ulot jarayoniga ko'p tomondan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bolalarda kuzatiladigan buyumga qiziqish uyg'otish maqsadida mashg'ulotni qiziqarli qilib tashkil etish kerak. Buning uchun turli usullardan foydalaniladi. Mashg'ulotni muqaddima suhbatidan, ya'ni mavzu mazmuniga taalluqli bo'lgan bir qancha savollar berishdan boshlash mumkin. Masalan: katta guruhda qishki kiyimlarni ko'zdan kechirishdan avval mashg'ulotni quyidagi savollar bilan boshlash mumkin: „Hozir yilning qaysi fasli? Odamlar qanday kiyinishgan? Nima uchun hamma issiq kiyinib olgan?“

Mashg'ulotni mavzu mazmuniga doir topishmoq aytish bilan ham boshlash mumkin. Masalan, tarbiyachi katta guruhda idish-tovoqlarni ko'zdan kechirish mashg'ulotini shunday boshlaydi: „Bolalar, hozir men topishmoq aytaman, sizlar esa hozirgi

mashg'ulotimizda nimalarni ko'zdan kechirishimizni o'zingiz topasiz:

„Qoravoy otdan tushdi, bolalari yugurishdi“. „To'g'ri, bu qozon, idish-tovoqlar. Hozir biz qozon va idish-tovoqlarni ko'zdan kechiramiz“.

Yoki akvariumdagi baliqni ko'zdan kechirishdan avval tarbiyachi bolalarga:

„Tanga-tanga to'ni bor,
Mittigina ko'zi bor,
Yursa suvlar jimirlar,
Qamishlar ham qimirlar“

topishmog'ini aytadi.

Ba'zan tarbiyachi kuzatish mashg'ulotini she'r aytishdan ham boshlashi mumkin. Masalan, kichik guruhda o'yinchoqlar burchagini ko'zdan kechirish mashg'ulotini ushbu she'rni aytishdan boshlaydi:

Quyosh bilan teng turib,
Ozoda kiyintirib,
Senga taqamiz marjon.
Qo'g'irchoq, qo'g'irchoqjon.
Qo'ldan qo'ymaymiz sira,
Yuqtirmaymiz gard, shira.
Ovunchoqsan bizlarga,
Qo'g'irchoqsan bizlarga.

(*Y. Sulaymon. „Qo'g'irchoq“ she'ri.*)

Ayniqsa, kichik guruhdagi mashg'ulotlarda to'g'ridan to'g'ri kuzatish mashg'ulotining mavzusiga taalluqli buyumni ko'rsatish usulidan foydalaniladi. Tarbiyachi bolalarga ovoz tonini biroz balandlab, sho'x ovozda, intonatsiya bilan: „Men sizlarga bir narsa olib keldim! Siz uni ko'rishni istaysizmi?“ deb aytadi. Ushbu guruhlarda kuzatish jarayonida o'yin usullaridan keng foydalaniladi. Ularga maydon bo'ylab yugurishga ruxsat etiladi („Qanday uzun yo'lak!“). Mashg'ulotning boshida tarbiyachi bolalarga ko'rsatmalar beradi (tinch quloq solib o'tiring; kirishingiz bilan salom bering; shovqin qilmang va h. k.).

Mashg'ulotning boshlanish qismi (ko'rsatmalar berish, kirish suhbat va hokazolar) bolalarning yoshiga qarab har xil davom etadi: kichik guruhlarda bir daqiqa, katta guruhlarda esa besh-yetti daqiqa.

Tarbiyachi buyumni, hayvonni, o'simlik va boshqalarni ko'zdan kechirish vaqtida bolalarga kuzatilayotgan obyektни yaxshilab ko'rib, bir-birlari bilan fikrlashib olishlari uchun bir necha daqiqa vaqt beradi. So'ngra kuzatishga rahbarlik qila boshlaydi, ya'ni kuzatilayotgan obyekt bo'yicha savollar bera boshlaydi: Bu nima? Bu kim? U qanday? Nimadan yasalgan? Nima uchun kerak? Qanday? Qancha? va hokazo. Agar obyekt bolalarga ilk bor tanishtirilayotgan bo'lsa, savolga javob berishda qiynalishsa, u vaqtda kuzatish obyektining nomini, uning sifatini yoki xususiyatlarini bildiruvchi so'zni aytib berish usulidan foydalanadi. So'z bolalar idrokini o'stiradi, buyumlar va ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlaydi. Masalan, choy idishlarini ko'zdan kechirish vaqtida tarbiyachi shunday izoh beradi: „Bu quloqli piyola (chashka), uning dastasi o'ng tomonda, tagi dumaloq, bu dumaloq chiziqcha quloqli piyolani likopcha ichiga qo'yish uchun qilingan, quloqli piyolani likopchadagi dumaloq chiziqcha ichiga sekingina, taqillatmasdan qo'yish kerak“. Kuzatish vaqtida tarbiyachi buyumning vazifasini, uni kim tayyorlaganligini, u bilan qanday munosabatda bo'lishni bolalar bilan birgalikda aniqlaydi. Agar jonli obyekt kuzatilayotgan bo'lsa, tarbiyachi bolalarga uni nima bilan ovqatlantirish, qanday parvarish qilish kerakligi hamda ularga nisbatan g'amxo'rlik qilish lozimligini tushuntiradi. Kuzatish mashg'ulotini mavzu va uning mazmuniga mos she'r aytib berish, topishmoq aytish, qiyin so'zlarni mustahkamlovchi ta'limiy (didaktik) o'yinlar o'tkazish bilan yakunlaydi.

Kuzatish natijalari doimo mustahkamlanib borishi shart. Kuzatish jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlovchi mashg'ulotlar uch-to'rt kundan keyin o'tkazilishi mumkin. Masalan, katta guruhdagi mashg'ulotda bolalar meva-sabzavotlarni ko'zdan kechiradilar. Uch-to'rt kundan keyin esa „Qayerda o'sishini ayt“ ta'limiy o'yinni o'tkaziladi. Bundan tashqari, ushbu guruhlarda suhbatlar uyushtirishda, maydonchada, gulzorda, bog'da va hokazolarda mehnatni tashkil etishda, qush va hayvonlarni parvarish qilishda, kitob o'qib berish, diafilmlar ko'rish, illustratsiyalarni ko'rib chiqish va boshqa faoliyat turlarida mustahkamlanib boriladi.

Yuqoridagi fikrlarni amaliy fikrlar bilan tasdiqlash maqsadida tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar bilan tanishtirish bo'yicha mashg'ulot ishlanmalaridan namunalar keltiramiz.

O'RTA GURUH

Mavzu: Quyonna kuzatish.

Maqsad: bolalarni quyonna tashqi ko'rinishi haqidagi tasavvurlarini aniqlash, momiq, yumshoq, juni qalin, kalta dum, orqa oyoqlari oldingi oyoqlaridan uzunroq kabi so'zlar hisobiga bolalar lug'atini boyitish va faollashtirish. Quyonna parvarishlashga qiziqishni shakllantirish.

Mashg'ulot uchun kerakli materiallar. Savatga solingan tirik quyonna, silliq taxtachalar, sabzi, qotgan non, o't, karam.

Mashg'ulotning borishi. Bolalar yarimdoira bo'lib o'tirishadi. Xonaning o'rtasida quyonna uchun joy ajratilgan, bu joyning atrofi quyonna chiqib ketmasligi uchun qurilish materiallari yoki g'ishtlar bilan to'rtburchak shaklida o'rab qo'yiladi. Xonaning eshigi yopib qo'yiladi. Tarbiyachi savatdagi quyonna usti yopilgan holda olib kiradi. „Bolalar, hozir men sizlarga bir topishmoq aytaman. Sizlar uni nima ekanligini topasizlar va bugungi mashg'ulotimizda nimani kuzatishimizni o'zingiz aytasiz: quloqlari uzun, yunglari yumshoq, ranglari oq, qora, kulrang, tez yuguradi, sabzini yaxshi ko'radi. To'g'ri, bu quyonna. Hozir biz quyonna kuzatamiz. Biz nima qilamiz? Men quyonna silab ko'rishingizga ruxsat beraman. Lekin quyonna juda ehtiyotkorlik bilan silang, unga ozor bermang. Yaxshisi, uni qulog'idan dumi tomonga qarab silash kerak: yengil, juda yengil silash kerak. Ko'rsatinglar-chi, qanday silaysiz?“

Bolalar harakatni qilib ko'rsatadilar. Tarbiyachi quyonna savatdan oladi va tizzasiga qo'yadi, bolalardan so'raydi: U qanday? (Katta. Oq junli, juni yumshoq. Quloqlari yumshoq va boshqalar.) So'ng bolalar javobini umumlashtiradi: „To'g'ri, quyonna katta, oq, momiqqina, uning juni yumshoq va qalin“. Tarbiyachi bolalarni oldiga chaqiradi. Ular quyonna silaydilar, uning junini silab ko'radilar. Tarbiyachi bolalarga quyonna qanday harakat qilayotganini kuzatishni taklif etadi. Uni polga qo'yib yuboradi. „Quyonna sakrayapti“, — deyishadi bolalar. Tarbiyachi bolalarga savollar beradi: „Nima uchun quyonna sakray oladi? Uning oyoqlari qanday?“ Tarbiyachi bolalarning javoblari asosida xulosa chiqaradi: „Quyonna shuning uchun ham sakray oladiki, uning orqa oyoqlari, oldingi oyoqlariga qaraganda uzunroq bo'ladi“. So'ngra tarbiyachi bolalarga quyonna barcha harakatini diqqat bilan kuzatishni va bu harakatni ifodalashni aytadi. Bolalar:

„O'tirdi, sakradi, orqa oyoqlarida turdi“, — deb javob beradilar. Tarbiyachi bolalarning diqqatini quyoning qulog'iga qaratadi: „Quyong quloqlarini harakatlantiryapti: bir qulog'ini ko'tarib, atrofga quloq solyapti, tinglayapti, quloqlarini orqa tomonga cho'zyapti, ikkala qulog'ini ko'taryapti, quloqlari uzun, uzunligidan kuragini egallaydi, bir tomoni oq, boshqa tomoni qoramtir, uzun va ensiz“. Keyin tarbiyachi bolalarga quyong qanday ovqatlanishini kuzatishni aytadi: „Quyong juda tez chaynaydi, uning tishlari juda o'tkir“.

Ertalab (kuzatish uchun olib kelishdan oldin) quyongga ovqat bermaslik kerak. Uning uchun sabzi, qotgan non, o't, karam tayyorlab qo'yish kerak. Quyongning egasidan (agar quyong bog'chaning o'zida bo'lmasa) u ko'proq nimani yoqtirishini so'rab olishi kerak.

So'ngra tarbiyachi bolalarga yana bir bor quyongni kuzatishlari uchun imkon beradi, quyongning qanday xulqlarini aniqlaganliklarini, yana nimalari haqida gapirmaganligini so'rab, javoblarini tinglaydi va umumlashtiradi: „Bu katta quyong. Uning junlari momiqqina (yumshoq). O'zining uzun va ensiz quloqlarini orqasi tomon cho'zadi. Ba'zan avval bir qulog'ini ko'taradi, ba'zan esa ikkala qulog'ini birdaniga ko'taradi va tevarak-atrofni tinglaydi. Tinglaydi-tinglaydi va biror tomonga sakraydi! Quyongning orqa oyoqlari oldingi oyoqlariga qaraganda uzunroq. U sakraydi. Tez sakraydi. U shunday tez sakraydiki, buning natijasida uning dumi bor ekanligini sezmay ham qolasan. To'g'ri, quyongning dumi juda kalta, shuning uchun darrov uni payqash qiyin. O'zining o'tkir tishlari bilan u juda tez chaynaydi, sabzini darrov yeb qo'yadi. Karam bilan o'tni esa sabzidan ham tezroq yeb qo'yadi“.

Mashg'ulotni yakunlash.

Tarbiyachi bolalardan quyong haqida ilgari yod olgan she'rlarini so'rab oladi va sayrga chiqib, „Quyongim“ harakatli o'yinni o'ynashlarini aytadi.

KICHIK GURUHI

Mavzu: Qafasdagi qushni (Snegirni) kuzatish.

Maqsad: bolalarga qushni ko'zdan kechirishlarida yordam berish; qushning suv ichishini, don cho'qishini kuzatirish; diqqatlarini qushning chiroyli patlariga qaratish; faol lug'atini *pat, bosh, dum, tumshuq, qanotlari; yuradi, qo'noq ustida o'tiribdi,*

sakraydi, uchadi kabi soʻzlar bilan boyitish; qushlarni parvarish qilish istagini uygʻotish.

Oldindan qilinadigan ish. Mashgʻulotdan 1 — 2 kun oldin snegir qushni aks ettiruvchi rangli rasmni bolalar bilan koʻrib chiqish maqsadga muvofiq boʻladi; bolalar diqqatini qushning tanasi chiroyli patlar bilan qoplanganligiga, koʻkrak qismidagi patlar qizil rangdaligiga, ust qismi kulrang va bosh qismidagi patlar qora ekanligiga yoʻnaltirish kerak. Soʻngra oq-qora rangli rasmni koʻrish mumkin. Bolalar qushning tana qismlari qanday rangdaligini aytib turishadi (koʻkrak qismi, ust qismi, bosh qismi), tarbiyachi esa ranglaydi. Soʻngra tarbiyachi bolalar diqqatini quyidagilarga jalb qiladi: snegirning 2 ta qanoti bor, u uchadi; dumi, tumshugʻi, oyoqlari, tirnoqlari bor. Bolalar qushning nomini esda saqlaydilar. Tarbiyachi tirik snegirni koʻrsatishga vaʼda beradi.

Mashgʻulot uchun kerakli materiallar. Qafasdagi qush (usti yopilgan, xontaxta yoki stol ustiga qoʻyilgan).

Mashgʻulotning borishi. Bolalarni shunday oʻtqazish kerakki, ularga qush qafasi bilan yaxshi koʻrinib tursin. Kichkin-toylardan shovqin qilmay tinch oʻtirishni aytib, usti yopilgan qafasni ochib, qushni bolalarga koʻrsatadi. Qushni yaxshilab koʻrib olishni aytib, juda past ovozda gapirish kerakligini, savollarga yarim ovozda javob berish lozimligini, aks holda qushni qoʻrqitib qoʻyish mumkinligini taʼkidlaydi. Bolalar qushni yaxshilab koʻrib olishgach, tarbiyachi-pedagog savollar beradi: „Bu nima? U qanday qush? Koʻkrak qismidagi patlari qanday rangda? Tanasining ustki qismidagi patlari qanday rangda? Bosh qismidagi patlari qanday rangda?“ Soʻngra qushning qiliqlarini (harakatlarini) kuzatishni taklif etadi. Bolalar nimalarni koʻrayotgan boʻlsalar, shularni (snegir qarayapti, tinglayapti, sakrayapti, choʻqiyapti, uchdi, qoʻndi, suv ichdi, qoʻnoqqa oʻtirdi va hokazolar) gapirib beradilar. Tarbiyachi bolalar javobini umumlashtirib, qushlar haqida gapirib, ularga gʻamxoʻrlik qilish kerakligini eslatib oʻtadi.

Mashgʻulot oxirida tarbiyachi bolalardan xuddi qushga oʻxshab qanot qoqib „uchishni“ taklif etadi.

Ekskursiyada (sayohatda) tevarak-atrofni kuzatish va lugʻat ishi.

Tarbiyachi „Dastur“ talablari asosida bolalar bilan bogʻchadan tashqariga sayohatlar uyushtiradi: bogʻchaga yaqin koʻchalarga, oziq-ovqat, sabzavot doʻkonlariga, xiyobon va bogʻlarga, kutubxona va tikuv ustaxonasiga va boshqa joylarga. Bunday

sayohatlardan maqsad bilimlarni puxta egallash va ko'rgan, kuzatgan voqea, hodisalarni uzoq vaqt xotirada saqlash, so'z boyligini oshirishdan iboratdir. Sayohat vaqtida tarbiyachi bolalarning tevarak-atrof va ijtimoiy hayot hodisalari to'g'risidagi tasavvurlarini aniqlash va kengaytirish bilan bir vaqtda ularning lug'atini boyitadi, aniqlaydi, tafakkurini rivojlantiradi. Sayohat vaqtida yangi bilimlarnigina berib qolmasdan, balki bolalarga ilgaridan tanish va ma'lum bo'lgan so'zlarning ahamiyatini aniqlash, doimo eshitib turadigan, hatto o'zlari ishlatadigan, so'zlarni aniq predmetlar (buyumlar) bilan bog'lash uchun qulay imkoniyatlar yaratiladi. Bolalarning olgan bilimlari puxta bo'lishi va lug'atini boyitib borishi uchun bir obyektga uyushtirilgan sayohat yilning turli fasllarida takrorlanib turiladi, ya'ni qayta-qayta sayohat uyushtiriladi. Takrorlash bilimlarni puxta egallashning asosiy manbayidir. Bir obyektning turli sharoitlarda kuzatish haqiqatni idrok qilishga o'rgatadi, bolalarda faol qiziqishni o'stiradi, so'z boyligini oshiradi, tasavvurlarini oydinlashtiradi va tartibga keltiradi; ilgari ko'rganlarini tez esga tushiradi; yangi-yangi taassurotlarga ega bo'ladi; ilgari ko'rganlari bilan yangi ko'rib turganlarini taqqoslay oladilar, hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yengillik bilan aniqlay olishga o'rganadilar.

Masalan: katta guruh bolalari bilan yilning turli fasl va kunlarida maktabga sayohat uyushtirish: 1) maktab hovlisi va binosini tashqi tomondan kuzatish; 2) kuz faslida, tanaffus vaqtida ba'zi o'quvchilarning quvnoq o'ynab yurganini, ba'zilarni kitob o'qib turganini, boshqalarining esa yangi o'tqazilgan ko'chatni ko'rishayotganini kuzatish; 3) bahor faslida kichkintoy o'quvchilarning maktabdan uyga qaytishayotganini kuzatish. Shuningdek, bog'ning o'ziga yilning turli fasllarida: qishda, bahorda, yozda, kuzda sayohatlar uyushtiriladi:

a) kuzda barglarning to'kilishini, bog'ning bo'shab qolishini, hasharotlarning yashirinishini, qushlarning uchib ketishini, gul va o'tlarning qurishini, jimjittlik hukm surishini kuzatadilar;

b) qishda daraxtlar, gul pushtalari, yo'laklar qor bilan qoplanganligini, bog'ning chiroyini kuzatadilar;

d) bahorda tabiatning uyg'onishini, kunlar ilishi bilan daraxtlarning kurtak chiqarishi, gullashi, barg yozishi, o't-o'lanlarning ko'karishi, qushlarning uchib kelishi va sho'x ovozlarning eshilib turishi, hasharotlarning paydo bo'lishi va hokazolarni ko'radilar;

e) yozda bog' mevalarining pishishi, ayrim sabzavotlarning yer ostida meva tugishi va pishishi (kartoshka, sabzi) va boshqalarni kuzatadilar.

Bunday takroriy sayohatlar uyushtirish natijasida bolalarda tabiat haqidagi bilimlarning bir butun tizimi paydo bo'ladi. Natijada nutqlari rivojlanib, juda so'zamol bo'lib ketadilar.

Sayohatni tashkil etishda tarbiyachining asosiy vazifasi bolalarning bilim doirasini va lug'atini boyitish ishi bilangina chegaralanmasdan, balki tevarak-atrofga to'g'ri munosabatni: kattalarning mehnatini qadrlash, buyumlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, tozalikka, saranjom-sarishtalikka o'rganish, ona-Vatanga, ona-tabiat chiroyiga mehr-muhabbatni tarbiyalash; hayvonlarga, o'simlik dunyosiga ehtiyotkorlik munosabatlarini ham tarbiyalab borishi kerak.

Sayohat va ko'zdan kechirishlarni tashkil etishda tarbiyachi quyidagi qoidalarga rioya qilishi kerak:

a) sayohat va kuzatishlarni shunday tashkil qilish kerakki, u bolalarda qiziqish uyg'otsin. Bolalardagi qiziqish kuzatishning aniq va idrokning chuqur bo'lishiga olib boradi;

b) har bir sayohat va kuzatishlar uchun uncha katta va ko'p bo'lmagan obyektlarni tanlash kerak;

d) bolalarning diqqatini juda ko'p batafsil izohlarga tortish yaramaydi, aks holda tarbiyachining oldindan belgilab qo'yilgan narsalar haqida tushuncha berish imkoni cheklanadi, bolalar diqqati chalg'iydi va ular tez charchab qoladilar;

e) kuzatish vaqtida bolalar idrokining faollashishini ta'minlash kerak: tarbiyachi savollar beradi, bolalar esa javob berishadi; narsani ushlab ko'rishga, agar mumkin bo'lsa, u bilan o'ynashga ruxsat etiladi.

Sayohatdagi kuzatish vaqtida bolalarda tushunchalarning aniq bo'lishi uchun ularning harakatlaridan foydalanish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, yuk mashinasining kattaligini ko'rgazmali tasavvur qilishlari uchun bolalar bir-birlarining qo'llaridan ushlab, yuk mashinasining atrofini o'rab olishadi; g'ildiraklarining balandligini belgilash uchun esa g'ildirak yoniga turib, qo'llarini yuqoriga ko'tarib, mashina kuzoviga yetkazishga harakat qiladilar; uzunligini aniqlash uchun mashinaning uzunligiga qarab hamma bolalar birgalikda qo'llarini yon tomonga cho'zib turishadi; haydovchining qayerga o'tirishini, mashinani qanday bosh-

qarishini aniqlash uchun kabinaga chiqib o'tirishadi: mashina haydovchisi yo'lovchilarni ogohlantirishi uchun signal berishini chuqur idrok etishlari uchun signal berishadi. Bunday harakatni shaxsan bolalarning o'zlari bajarishlari natijasida quyidagi so'zlarni bilib oladilar: *haydovchi, yuk mashinasi* (avtomobili), *kuzov, kabina, rul, signal*. Shuningdek, sayohat vaqtida kuzatishni, uning amaliy tomondan zarurligini to'liq idrok etishlari uchun hayotiy misollar bilan bog'lash juda muhimdir, bu bolalarning qiziqishini kuchaytiradi. Masalan, maktabga tayyorlov, katta guruh bolalari kutubxonaga (qiroatxonaga) borib, u yerdagi ish mazmuni bilan tanishibgina qolmasdan, balki hamma tartibga amal qilgan holda kutubxonaga a'zo bo'lishi, undan bironta kitob olishi kerak. Sayohatni tashkil etishda tarbiyachi kuzatish obyektining uzoq-yaqinligini aniqlashi, shunga qarab yo'lni qanday bosib o'tishni (yayov yoki transportda borishni), bolalarning dam olish joylarini, kuzatiladigan obyektning qaysi jihatlariga bolalar diqqatini yo'naltirish kerakligini, kuzatilayotgan obyekt to'g'risida gapirib berish uchun kimlarni jalb qilishni (yuk mashinasi haydovchisi, tikuvchi, quruvchi, kutubxonachi va hokazolarni) belgilab, ular bilan oldindan bolalarga nima haqida gapirib berish kerakligini kelishib oladi. Shuningdek, qanday tarbiyaviy ishlar olib borilishi nazarda tutiladi: ona-Vatanga muhabbat, mehnatga to'g'ri munosabatni tarbiyalash, madaniy-gigiyenik odatlarni, ko'chada yurish qoidalarini shakllantirish va hokazolar.

Ko'pincha sayohat vaqtida bolalarni predmetlar (buyumlar) bilan uzoqdan turib (ma'lum bir masofada) tanishtiriladi. Shuning uchun bunday holatlarda tarbiyachining nutqi katta ahamiyatga ega: hajm va fazoni bildiruvchi so'zlarni aniq va tez-tez ishlatishi (ko'cha keng, chetlariga daraxtlar ekilgan, uzoqda anhor bor, to'g'rida xiyobon ko'rinib turibdi, bog'chaning chap tomonida shohko'cha bor va hokazo). Mana shularning barchasini hisobga olib, tarbiyachi sayohatning rejasini tuzadi va mashg'ulotni qanday boshlashni, qanday usullardan foydalanishni, asosiy qismining borishini va qanday yakunlashni puxta o'ylab oladi.

Har qanday sayohatning boshlanishi guruh xonasida tashkil etiladi. Tarbiyachi bolalardan qachon, qayerga sayohatga borganliklarini, u yerda nimalarni kuzatganliklarini, bugun ham sayohatga borishlarini, qayerga, nima maqsadda borishlarini aytib beradi.

Tarbiyachi kuzatish yuzasidan yo'l-yo'riq beradi. Bu

mashg'ulot boshlanishining muhim bosqichi hisoblanadi. Tarbiyachi sayohatning maqsadini qisqa va aniq qilib aytib beradi.

Masalan: „Bolalar, bugun biz kiyim tikish ustaxonasiga boramiz. U yerda kiyim-kechaklar qanday tikilishini, bichiqchi tikiladigan kiyimlarni qanday bichishini, bichish uchun qanday buyumlar kerak bo'lishini kuzatamiz va ularning nomlarini xotiramizda saqlab qolamiz“. Ayniqsa, katta guruhlarda mashg'ulotni topishmoq, she'r bilan, sayohat uchun tayyorlab qo'yilgan buyumlarni ko'rsatish bilan ham boshlash mumkin.

Masalan, tarbiyachi bolalarni paxta dalasiga sayohatga olib chiqishdan avval shunday topishmoq aytadi:

Yurar tekis egatdan,
Barmoqlari po'latdan.
Yelkasida qopi bor.
Katta temir savatdan.

(Paxta terish mashinasi)

Yoki bahor faslida bog'ga sayohatga borishdan avval tarbiyachi ushbu she'rni o'qib beradi:

Atrof yam-yashil,	Bahor chog'ida
Bahor chog'ida.	Qushlar sayraydi.
O'sibdi gullar,	Bahor qo'ynida
Vatan bog'ida.	Barcha yayraydi.

Gullar sayliga
Quvnab yelamiz.
To'yib husnidan
O'ynab-kulamiz.

Shuningdek, o'rta va katta guruhlarda mashg'ulotning boshlanish qismini muqaddima-suhbat shaklida o'tkazish mumkin.

Masalan, qishda bolalarning qishki o'yinlarini kuzatish uchun maydonchaga borishdan avval tarbiyachi bolalardan so'raydi: „Hozir yilning qaysi fasli? Kishilar qanday kiyinishadi? Qish faslida bolalar qanday o'yinlar o'ynashadi? Qor o'ynash uchun nimalar kerak?“ So'ngra kuzatishlar yuzasidan ko'rsatmalar beradi: „Bugun sizlar bilan ko'chaga chiqamiz. Bog'chamizning chap tomonida joylashgan o'yin maydonchasiga borib, u yerda bolalar qanday qishki o'yinlar o'ynashayotganini, qanday qilib chana, konki, yaxmalak otishayotganini ko'ramiz“. Bunday tushuntirishlarning oxirida tarbiyachi bolalarga ko'chada yurish-

turish qoidalarini: yo'lkaning o'ng tomonidan yurish, ko'chada baland ovoz bilan gapirmaslik, tarqalib, har tomonga alang-jalang qarab yurmaslik, yo'lni kesib o'tuvchi joy bo'lsa, avval chap tomonga, so'ngra o'ng tomonga qarab o'tish kerakligini yoki militsioner bo'lsa, uning qo'l harakatiga, svetoforming yashil chirog'ining yonishiga qarab o'tish lozimligini eslatib o'tadi.

Sayohatga obyektini kuzatish maqsadida olib borilganda bolalarni joylashtirishga katta ahamiyat berish kerak. Bolalarning xavfsizligi to'la ta'minlanishi, kuzatilayotgan obyekt hamma bolalarga yaxshi ko'rinishi va eshitalishi, hamma bolalar tarbiyachiga ko'rinib turishi kerak. Bolalar kuzatish uchun joy egallaganlaridan so'ng tarbiyachi ular nimalarni kuzatishi lozimligini yana bir marta eslatadi va o'zlari mustaqil ko'rib olishlari uchun biroz vaqt beradi. Savollar, ko'rsatmalar yordamida bolalar diqqati ma'lum obyektlarga jalb qilinadi. Tarbiyachi mashg'ulot jarayonida turli usullardan foydalanadi. Misol tariqasida „Tikuv ustaxonasi (atelye)ga sayohat“ mashg'ulotini olib borish tartibini va uning mazmunini keltiramiz. „Bolalar, qaranglar, qanday yorug' va katta xona! Bu bichish sexi. Bu yerda hech qanday tikuv mashinasi yo'q. Bu yerda kiyimlar tikilmaydi. Bu yerda nima qilishadi? Yo'q, materiallarni faqatgina qirqmay, balki uni bichishadi. Qirqish bilan bichish o'rtasida katta farq bor. Bichiqchilarning hammasi ayollar. Erkak bichiqchilar ham bor. Ular ko'proq erkaklar uchun kastum-shim bichadilar. Ayollar uchun ham ko'ylaklar, kastumlar bichishadi. Qaranglar, bu sexdagi stollar qanday? Ular bolalar bog'chasidagi stollardan nimasi bilan farq qiladi? Nima uchun ular baland va uzun? Kelinglar, yaqinroqdan ko'raylikchi, bichiqchi qanday bichar ekan?“

U stol ustiga matoni juda ehtiyotlik bilan tekis yoyadi. Shunday qilinsa, material yig'ilib qolmaydi, bichiqchi osonlik bilan bichadi. U andazalarni mato ustiga qo'yadi. „Mukarram Ahmedovna, nima uchun andazalarni mato ustiga — bir-biriga juda yaqin qilib qo'ydingiz, shu haqda gapirib bering“. „Shunday qilinsa, mato tejaladi, bichish oson bo'ladi“. „Mana, Mukarram Ahmedovna katta qaychi bilan andaza atrofidan matoni qirqyaptilar — bichyaptilar“.

Shu tariqa bolalar lug'atiga yangi so'zlar — bichish, andaza kabi so'zlar kiritiladi. Bolalar bunday sayohatdagi kuzatishlar jarayonida yangi so'zlarnigina o'zlashtirib qolmasdan, balki matoning buyumga aylanishini, hamma buyumlar matodan

tayyorlanishini, matolarni buyumlarga aylanish jarayoni (tikish, bichish, qirqish va boshqalar) mavjudligini bilib oladilar.

Sayohatdagi kuzatishdan olgan bilimlar albatta mustahkamlanishi shart.

Masalan, o'rta guruh bolalari yuk mashinasini kuzatib bo'lgach, tarbiyachi ularga ko'chadan yana qanday yuk mashinalari o'tishini kuzatishlarini va ular haqida gapirib berishlarini taklif etadi. Shuningdek, sayohatda kuzatilgan voqea va hodisalarni, ish-harakatlarni o'zlari tarbiyachi bilan birgalikda amaliyotda ko'radilar.

Masalan: katta, tayyorlov guruhi bolalarini kiyim tikish ustaxonasiga sayohatga olib borilganidan keyin (3 — 5 kundan keyin) guruhda suhbat o'tkazilib, bolalarga mato tarqatib chiqiladi, matolarni yaxshilab ko'rib chiqadilar. So'ngra andazalar yordamida fartuk bichiladi. Bichilgan fartuk tikuv mashinasida tikiladi. Bunday usul bolalarning kuzatuvchanligini va nutq faolligini, lug'at boyligini o'stiradi, ularda axloqiy sifatlar tarbiyalanadi. Shunday qilib, bolalarning kuzatuvchanligini, lug'atini, nutq faolligini, idrokini rivojlantirishda sayohatdagi kuzatishlar katta ahamiyatga ega.

Narsa-buyumlarni ko'rib chiqish va taqqoslash

„Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ ning „Tevarakatrof bilan tanishtirish va nutq o'stirish“ bo'limlarida bolalarga tevarakatrofdagi predmetlar (buyumlar) hamda uy-ro'zg'or buyumlari haqida boshlang'ich bilimlar berish ko'rsatilgan. Bolalarni buyumlar bilan tanishtirish jarayonida ularning nomi, nima uchun kerakligi, nimadan qilinganligi, u qanday rangdaligi, shakli qandayligi va uning yana qanday belgilari borligi aniqlanadi, bular haqida boshlang'ich bilimlar beriladi. Shu maqsadda buyumlarni (predmetlarni) ko'rib chiqish va u haqda suhbat mashg'ulotini o'tkazish tavsiya etiladi. Yil davomida bunday mashg'ulotdan bir nechta rejalashtirilib, o'tkaziladi. Bunday mashg'ulotlarda uy-ro'zg'or buyumlari (idish-tovoqlar, kiyim-kechaklar, mehnat qurollari, o'quv qurollari), jonli tabiat obyektlari (turli xildagi meva va sabzavotlar, turli daraxtlarning barglari va shoxchalari, uy o'simliklari, akvariumdagi baliq va hokazolar) ko'rib chiqiladi va ular haqida suhbatlar o'tkaziladi. Buyumlarni (predmetlarni) ko'rib chiqish va ular haqida suhbatlar bolalarning bilim doirasini kengaytiradi, ularning

qiziquvchanligini oshiradi, tevarak-atrof haqida to'g'ri tushunchalar beradi. Shu bilan bir qatorda, tarbiyachi bunday mashg'ulot jarayonida katta lug'at ishini olib boradi. Buyumlarining aniq nomlari va ularning sifatlari (materiali, shakli, hajmi, rangi va hokazolar), harakatlarning nomlari (masalan, *pichoq bilan kesadilar, archadilar, to'g'raydilar, qoshiq bilan ovqat yeydilar, qalam bilan bo'yaydilar* va hokazo) va boshqalarni bildiruvchi so'zlarni bilib oladilar, narsa-buyumlarni ko'rib chiqish va u haqda suhbat mashg'ulotlarida bir toifa (kategoriya) ga kiradigan buyumlarni ko'rgazmali taqqoslash usulidan foydalanish katta pedagogik qimmatga egadir. Bolalar buyumlarni bir-biri bilan taqqoslash orqali, ularning belgilarini aytib, xarakterli belgilarini payqab, katta aqliy ish bajaradilar. Buyumlarni taqqoslash jarayonida bolalar oldida kuzatgan narsalarining nomini aytib berish vazifasi turadi. Taqqoslash bolalarning tafakkurini, kuzatuvchanligini rivojlantiradi, lug'atini faollashtiradi, tevarak-atrofga va ijtimoiy hayot hodisalariga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalaydi. Buyumlarning sifatlari va xususiyatlarini chuqur bilib olishga asoslangan taqqoslash mashg'ulotlari o'rta, katta va tayyorlov guruhlarida o'tkaziladi. Sababi shundaki, bu mashg'ulot turi bolalarda buyumlar (predmetlar)ning qismlarini, detallarini, sifat va xususiyatlarini ko'ra olish malakasining shakllanganligiga tayanadi.

Narsa-buyumlarni ko'rib chiqish va ularni taqqoslash mashg'ulotlarining muvaffaqiyati va natijalari bir qancha shart-sharoitlarga bog'liqdir:

1) taqqoslash uchun buyumlarni (predmetlarni) tanlash. Tanlangan buyumlarda taqqoslash uchun yetarli miqdordagi belgilar bo'lishi: ya'ni o'xshash va farq qiladigan (rangi, shakli, uzunligi, qismlari, detallari, materiali, nimaga mo'ljallanganligi va hokazo) belgilar bo'lishi kerak;

2) taqqoslashning reja asosida bo'lishi. Tarbiyachi bolalarni buyumlarni taqqoslashda avval buyumlarning nomi, ularning nimaga mo'ljallanganligi, rangi, shakli, uzunligi bo'yicha taqqoslashdan, buyumlarning qismlarini, detallarini aytib o'tish va bu qismlarni detallarni taqqoslashga, ular o'rtasidagi farqni, so'ngra o'xshash tomonlarini aytishga o'rgatadi. Taqqoslash umumlashtirish bilan yakunlanadi, ya'ni har bir buyumning farqli belgilari ajratib ko'rsatiladi;

3) o'rgatish usullarini tanlash. Bunday mashg'ulotlarda

o'rgatish usullarining asosiylari bu tarbiyachining bolalarga yordam berish maqsadida beradigan savollari va ko'rsatmasidir: a) taqqoslashning ketma-ket bo'lishi; b) bolalar payqay olmagan belgilarni aytib berishi; d) javobning aniqroq bo'lishi va kerakli so'zlarni tanlashi uchun yordam beradigan savol va ko'rsatmalar beradi;

4) tarbiyachi va bolalarning nutq faolligining bir-biriga mos kelishi. Bu mashg'ulot turida ko'proq bolalar nutq faolligini namoyon etishlari kerak. Tarbiyachi esa juda kam gapirib, o'zining aniq savollari, ko'rsatmalari bilan bolalarning aqliy va nutqiy faolligini rivojlantirib, yo'naltirib turadi. O'xshash belgilarga ega bo'lgan bir xil toifadagi narsa-buyumlar bir-biriga taqqoslanadi. Masalan: portfel bilan sumka; kreslo bilan stul; stol bilan xontaxta; sharf va ro'mol; stakan bilan chinni va sopol piyola, choynak va chovgun; kosa, likopcha; sabzi, piyoz, bodring, kartoshka, karam, rediska, lavlagi, pomidor, turp (shakli, rangi, mazasidagi farqni ajratish uchun); olma, nok, limon, behi, shaftoli.

Shuningdek, umumlashtiruvchi so'zlarni bolalar lug'atiga kiritish uchun havoda uchuvchi, suvda, suv ostida, yer ustida yuradigan transport vositalari (transport); qishki, yozgi, kuzgi kiyimlar (kiyimlar); choy idishlari, oshxona, ovqat solinadigan idishlar (idishlar) va hokazolar ko'rib chiqiladi, ular yuzasidan suhbat o'tkaziladi va taqqoslanadi. Shuningdek, turli matolar, shisha bilan qog'oz va shu kabilar taqqoslanadi. Misol tariqasida taqqoslash bo'yicha hog'chada o'tkazilgan bir necha mashg'ulotlarning namunalarini keltiramiz.

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI

Mavzu: Portfel va sumkani ko'rib chiqish hamda u haqda suhbatlashish, taqqoslash.

Maqsad: ushbu buyumlarning nima uchun kerakligini; portfel bilan sumkaning bir-biridan farqli tomonlarini, ularning qismlarini payqab aytib bera olishga o'rgatish. Lug'atini faollashtirish, mustahkamlash va boyitish. Bolalar lug'atiga: *qisqa, to'g'ri burchak, yon tomonida, dastasi* so'zlarini kiritish .

Mashg'ulotning borishi. Tarbiyachi: „Bugungi mashg'ulotimiz juda murakkab. Ikki buyumni (predmetni) taqqoslashimiz (portfel va sumkani stol ustiga qo'yadi) kerak. Bu buyumlarni tartib bilan bir-biriga taqqoslaymiz. Bugun biz qaysi buyumlarni taqqoslar

ekanmiz?“ Bir bola chiqib buyumlarni ko‘rsatib javob beradi: „Bu portfel, bunisi esa sumka“.

Tarbiyachi. To‘g‘ri. Bular kimlar uchun kerak?

Bola. Portfel o‘quvchi uchun kerak. Unga kitoblarini soladi. Yana o‘qituvchi, otalarimiz, onalarimiz, talaba opa va akalarimiz ham portfel olib yurishadi. Ular ham portfelga kitob va daftarlarini solishadi.

2-bolaning javobi. Sumka onalar uchun kerak. Ular sumka bilan oziq-ovqat do‘konlariga, bozorlarga oziq-ovqat, meva va sabzavotlar xarid qilgani borishadi.

Tarbiyachi. Ko‘raylik-chi, sumka portfeldan nimasi bilan farq qilar ekan?

3-bola. Portfel jigarrang, sumka esa qora rangda. Ularning rangi har xil.

4-bola. Yana sumkaning burchaklari yuqori tomonga dumaloq shaklga o‘xshab ketgan, xuddi sumkaning burchaklari yo‘qdek. Portfelning esa yuqorida va pastda burchaklari bor.

Tarbiyachi. Bu haqda qisqa qilib qanday aytish mumkin? Ularning shakllari qanday?

5-bola. Ularning shakllari har xil. Portfel to‘g‘ri burchakli, sumka esa unga o‘xshamaydi.

6-bola. Ular turli xilda yopiladi. Portfelning qopqog‘i bo‘lib, u qulflanadi, qulfi yon tomonida, sumkaning esa bir tomonidan ikkinchi tomonga tortib yopiladigan qulfi bor, u yuqorida (sumkaning ust tomonida) joylashgan.

7-bola. Yana sumkaning portfelnikiga o‘xshash qopqog‘i yo‘q.

So‘ngra tarbiyachi bolalarga portfel bilan sumkaning qulfini, dastasini taqqoslashni taklif etadi. Sumka va portfelning qulflari bir xildami? Dastasi-chi? Endi dastasiga qarang, ular nega har xil? Ichki tuzilishini qaranglar, portfelning va sumkaning ichki qismida qanday farq bor?

Tarbiyachi. Mana, biz sumka va portfel bir-biridan nimasi bilan farq qilishini gapirdik. Ayinglar-chi, ular nimasi bilan bir-biriga o‘xshash, nimasi bilan farqli? Nima uchun sumka va portfel kerak?

10-bola. Portfelga kitob, daftar solib yuriladi, sumka bilan esa do‘konga, bozorga borish mumkin.

11-bola. Mening otam esa portfel bilan do‘konga boradi.

12-bola. Sumkaga ham kitob, daftar solib yurish mumkin,

men buni o'z ko'zim bilan ko'rganman. Mening opam shunday qiladi.

13-bola. Sumkaga ham, portfelga ham narsa solinadi. Nimalardir solib, ko'tarib yuriladi.

Tarbiyachi. To'g'ri. Sumka ham, portfel ham kishilar uchun har xil buyumlarni solib, ko'tarib yurish qulay bo'lishi uchun kerak. Yana nimasi bir xil? Sumka va portfelning nimasidan ushlaydilar?

14-bola. Dastasidan. Ularning dastasi bor.

15-bola. Ularning og'zida qulfi bor. Qulfi bo'lmasa, ochilib ketib, ichidagi hamma narsalar sochilib ketishi mumkin.

Tarbiyachi. To'g'ri. Biz sumka va portfelni juda yaxshilab ko'rib chiqdik, ko'p farqli va o'xshash tomonlarini bilib oldik. Bu sumka va portfel ekanligini qanday qilib darrov bilib olish mumkin?

16-bola. Portfel qora rangda.

Tarbiyachi. Hammangiz shunday deb o'ylaysizmi? Sumkalar qora rangda bo'lmaydimi?

Bolalar jo'r bo'lib javob berishadi: „Bo'ladi“.

17-bola. Ularni ochib, ichini ko'rish kerak. Ularning ichi qanday qilingan?

Tarbiyachi. Ochib ko'rmasdan, portfelni darrov bilib olish mumkinmi?

18-bola. Mumkin. Uning ishlanishi boshqacha, burchaklari, qulfi va dastasi sumkanikidan farq qiladi.

19-bola. U to'g'ri burchak shakliga o'xshaydi, sumka esa har xil bo'ladi.

20-bola. Portfelning hamma burchaklari yaxshi ko'rinib turadi, qulfi yon tomonda, dastasi doimo yuqorida. Shunga qarab darrov bilib olish mumkin.

21-bola. Sumka boshqacha. U boshqacha shaklda bo'ladi, qulfi ham boshqacha qilib o'rnatilgan, dastasi ham har xil bo'ladi. Ularni yengillik bilan darrov bilib olamiz. Ranglari esa har xil bo'lishi mumkin.

Tarbiyachi bolalar javobini tinglaydi, to'ldiradi.

O'RTA GURUH

Mashg'ulot mavzusi. Uy-ro'zg'or buyumlarini ko'rib chiqish, u haqda suhbat va taqqoslash.

Dastur mazmuni. Bolalarni eng muhim belgilarni ajratib

ko'rsata olishga va bu belgilarga qarab o'xshash buyumlarni farqlay olishga o'rgatish. Masalan, stulni kreslodan, piyolani stakandan, dasturxonni salfetskadan (matodan qilingan), choy qoshiqni osh qoshiqdan kabi.

Yuqoridagi buyumlarning nomlarini aniq aytishga o'rgatish; buyumlarning nomlarini, belgilarini, sifatlarini, qismlarini bildiruvchi so'zlarni lug'atlariga kiritish va mustahkamlash.

Mashg'ulot uchun material. Tarbiyachi stoli yoki xontaxta ustida ayiq, qo'g'irchoq va o'yinchoqlar to'plami: ikkita kreslo, stul, taburetka, stol, ikkita piyola, stakan, dasturxon, salfetka, choy qoshiq va osh qoshiq.

Mashg'ulotning borishi. Tarbiyachi bolalar diqqatini o'ziga tortib, bolalarga mehmonlar kelishganligini, to'polon qilmasdan, jimgina o'tirish lozimligini aytib, boshqa xonadan ayiq va qo'g'irchoq o'yinchoqni guruhga olib kiradi, ayiq va qo'g'irchoq bolalar bilan salomlashadi.

Tarbiyachi. Bolalar, kelinglar, hozir mehmonlarimizni choy bilan mehmon qilamiz. Buning uchun nima qilamiz?

Bolalar. Stol yoki xontaxta qo'yamiz.

Tarbiyachi. Hozir bizga Ahmad stol va xontaxtani olib keladi. Ahmad nima olib keldi?

Bolalar. Stol va xontaxta.

Tarbiyachi. Endi ayiq va qo'g'irchoq Lolani stol yoki xontaxta atrofiga o'tqazish kerak. Uni nimaning atrofiga o'tqazamiz? Stol atrofigami yoki xontaxta atrofigami?

Bolalar. Stol atrofiga o'tqazamiz.

Tarbiyachi. Nima uchun stol atrofiga o'tqazamiz? Xontaxta atrofiga ham o'tqazish mumkin-ku?

Bolalar. Stol atrofiga o'tqazsak, mehmonlar bizga yaxshi ko'rinib turishadi. Chunki stol baland, xontaxta esa past, uning atrofiga ko'rpacha solish kerak. Biz ularni o'rtoqlarimiz qanday mehmon qilayotganliklarini yaxshi ko'rolmay qolishimiz mumkin.

Tarbiyachi. Ayiq baqaloq, sho'x. Shuning uchun uni kresloga o'tqazish kerak. Aqida, sen kresloni topib, uni olib kelgin-da, ayiqqa, „Marhamat, o'tiring“ deb aytgin.

Aqida. Mana kreslo. „Marhamat, ayiqjon, o'tiring!“

Tarbiyachi. Aqida sen nima olib kelding? Bolalar, Aqida nima olib keldi? Ayiqni nimaga o'tqazdi? Nima uchun ayiq kresloga o'tirdi?

Tarbiyachi (bolalar javobini tinglaydi, to'ldiradi).

Kreslodan ayiq yiqilib tushmaydi. Bolalar, aytinglar-chi, Aqida kresloni qanday tanib, olib keldi? Kresloning nimasi bor? (Orqa suyanchig'ini ko'rsatadi.)

Bolalar. Orqa suyanchig'i.

Tarbiyachi. Orqa suyanchig'i suyanib o'tirishimiz uchun mo'ljallangan. Yiqilib tushmaslik uchun kresloning ikki tomonida nimasi bor? (Ikki yonidagi suyanchiqlarini ko'rsatadi.)

Bolalar. Qo'llarimizni (qo'limizning tirsagini) qo'yib o'tirish uchun yon tomonlarida ham suyanchig'i bor.

Tarbiyachi. To'g'ri. Mana ayiq bermalol yastanib o'tiribdi. U baqaloq va sho'x bo'lsa ham yiqilib tushmadi. Panjalari bilan ikki yonidagi suyanchig'ini ushlab o'tiribdi. U nimada o'tiribdi?

Bolalar. Kresloda.

Tarbiyachi. Ayiq yiqilib tushmasligi uchun kresloning nimalari bor?

Bolalar. Orqa va yon suyanchiqlari bor (ko'rsatishadi).

Tarbiyachi. To'g'ri, kresloning orqasida va ikki yonida suyanchiqlari bor. Qo'g'irchoq Lolaxonning o'tirishi uchun stul qo'yamiz. Olima, borib stulni olib kel (Olima borib stulni olib keladi va qo'g'irchoqni stulga o'tqazadi). Tarbiyachi bolalarga murojaat etib, bolalar, qani aytinglar-chi, Olima stulni qanday qilib darrov tanib olib keldi? Stulning nimasi bor?

Bolalar. Suyanchig'i.

Tarbiyachi. To'g'ri, stulning orqa suyanchig'i bor, lekin nimasi yo'q? Nargiza, ko'rsatgin.

Nargiza. (Stulning ikki yon tomonini ko'rsatib) yon tomonlarida suyanchig'i yo'q.

Tarbiyachi. To'g'ri, stulning yon tomonlarida suyanchig'i yo'q. Mana, ayiq va qo'g'irchoq Lola stol atrofida o'tiribdi. Ular „Qachon bolalar bizni choy bilan mehmon qilishadi“, — deb kutib o'tirishibdi. Stol ustiga nima solish kerak?

Bolalar. Dasturxon.

Tarbiyachi Gulnoraga dasturxonni topishni va uni stol ustiga solishni taklif etadi. Gulnora dasturxonni topib, uni stol ustiga soladi. Tarbiyachi esa Gulnoradan, qanday qilib dasturxonni topding, nima uchun dasturxonning o'rniga salfetskani (salfetkalarini ko'rsatadi) olmading, salfetkalar qanday? — deb so'raydi. „Salfetka kichkina, dasturxon katta“, — deb javob berishadi bolalar.

So'ngra tarbiyachi bolalardan ayiq va qo'g'irchoq Lola oldiga piyolalarni qo'yishni taklif etadi. Bolalar ayiqning oldiga katta

qizil chinni piyola, qo'g'irchoq Lolaning oldiga oq chinni piyola qo'yadilar.

Tarbiyachi. Bolalar, qanday qilib sizlar piyolani darrov tanib oldingiz, nima uchun stol ustida turgan mana bu stakanni (stakanni bolalarga ko'rsatadi) mehmonlar oldiga qo'ymadingiz?

Bolalar. Stakan tip-tiniq, uzunchoq shaklda, u shishadan qilingan. Piyola esa chinnidan qilingan, uning ust va tag qismi aylana shaklda, u tip-tiniq emas.

Tarbiyachi bolalar javobini tinglaydi, to'ldiradi, so'ngra bolalarga choy qoshiqni topishni va uni mehmonlar oldidagi piyola ichiga qo'yishni aytadi. Bolalar osh qoshiq ichidan choy qoshiqni topib, topshiriqni bajaradilar. Tarbiyachi bolalardan qanday qilib choy qoshiqni topganlarini, nima uchun ular katta qoshiqni (katta qoshiqlarni ko'rsatadi) olmaganliklarini so'raydi.

Bolalar. Choy uchun kichkina qoshiq kerak. Katta qoshiq ovqat yeyish uchun kerak.

Tarbiyachi. To'g'ri, katta qoshiq bilan turli xildagi ovqatlar yeyiladi, kichik qoshiq esa choy uchun kerak. Hozir ayiq va qo'g'irchoq Lolaga choy quyamiz (xuddi choy quyayotgandek harakat qiladi). So'ngra ikkita bolani chiqarib, ayiq va qo'g'irchoqqa choy ichirishni taklif etadi. Mashg'ulotning oxirida ayiq va qo'g'irchoq Lola choy bilan mehmon qilganlari uchun bolalarga rahmat aytishadi. (Tarbiyachi ular o'rnida bolalarga: „Choy bilan bizlarni mehmon qilganliklaringiz uchun rahmat, bizlarni juda xursand qildingiz. Odobli bolalar ekansizlar“ — deb aytadi.) Xayrlashib chiqib ketishadi.

KATTA VA MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI

Bolalar bilan transport turlarini ko'rib chiqish, ular haqida suhbatlashish va taqqoslash.

Dastur mazmuni. Bolalarni guruhdagi buyumlarning muhim belgilarini ajratishga va ularni belgilariga qarab umumlashtirishga o'rgatish. Bolalar lug'atiga *transport* so'zini kiritish.

Mashg'ulot uchun material. Paroxod, yuk mashinasi, samolyot tasvirlangan rasm (yoki o'yinchoqlar), avtobus, yuk va yo'lovchilarni tashiydigan poyezd, vertolyot, qayiq, egarlangan va egarlanmagan (egarlangan otga bir kishi minib olgan) ot, yengil mashina, velosiped, shuningdek, sigir, kombayn, tikuv mashinasi, kreslo, javon, pushka va hokazolarning rasmlari, ikkita flanelograf.

Mashg'ulotning borishi. Tarbiyachi bolalar diqqatini jalb qilib, bir qancha topishmoqlarni tinglashni va javobini topishni taklif etadi:

Qush emas qanoti bor,
Burgutdan zo'r haybati bor,
Uchsa lochin yetolmas,
Tolmas zo'r qanoti bor.

(Samolyot)

Kattaligi uy kabi,
G'izillashib ketadi.
Minib, tushib odamlar,
Manziliga yetadi.

(Mashina)

So'ngra bolalar diqqatini doskadagi (flanelografdagi) paroxod, yuk mashinasi va samolyot rasmlariga yo'naltiradi, yaxshilab ko'rib olishlari uchun vaqt beradi, savollar bilan bolalarga murojaat etadi: „Nimalarning rasmi tasvirlangan? Yuk mashinasi nima uchun kerak? Yuk mashinasining qanday qismlari bor? Uni kim boshqaradi?“ va hokazolar. Shu tariqa samolyot, paroxod rasmlari yuzasidan ham savollar berilib, bolalardan ular haqida gapirib berishlarini so'raydi.

Mashg'ulotning II qismi. Tarbiyachi mashg'ulotning bu qismida bolalarga quyidagi savollarni beradi: Uchta buyumning o'rtasida qanday farq bor? Shuningdek, bolalarga bularning tezligi, harakatga keltiruvchi vositalari, tashqi ko'rinishi va boshqalar haqida gapirib berishlariga yordam beruvchi savollar beradi. So'ngra bolalarning javoblarini umumlashtirib, quyidagi savolga javob berishlarini taklif etadi: „Ularning umumiy tomonlari nimalardan iborat?“ Agar bolalar qiynalishsa, tarbiyachi tomonidan yo'llovchi savol beriladi: „Ular kishilarga nima uchun kerak?“. So'ng bolalar javobini umumlashtiradi: „Paroxod ham, samolyot ham, yuk mashinasi ham kishilarni va yuklarni tashish uchun kerak“. So'ngra ushbu umumlashtirishni belgilovchi so'zni kiritadi: „Bularning hammasi kishilarni va yuklarni tashish uchun xizmat qiladi, ularni transportlar deb aytish mumkin“. Bolalarga buyumlarning hammasini bir so'z bilan nima deyilishini (transport) takrorlashni taklif etadi. Shundan so'ng mashg'ulotning III qismiga o'tadi.

Mashg'ulotning III qismi. Mashg'ulotning bu qismida yangi tushunchani mustahkamlash maqsadida mashq o'tkaziladi. Shu maqsadda tarbiyachi bolalarga stol ustida turgan rasmlar to'plami ichidan (ular ichida mashg'ulot materialida ko'rsatilgan rasmlar bo'lishi shart) transportga taalluqli bo'lgan tasvirlarni olib, o'ng tomondagi flanelografga qo'yishni, chap tomondagi flanelografga esa transportga taalluqli bo'lmagan narsalarni tasvirlovchi rasmlarni qo'yishni va nima uchun shunday qilganliklarini izohlashni taklif etadi. Topshiriqni bolalar navbatma-navbat bajaradilar, agar ular xatoga yo'l qo'ygan bo'lishsa, tarbiyachi boshqa bolalarga qarata „Topshiriq to'g'ri bajarildimi? Nima uchun to'g'ri emas? Uni qanday to'g'ri bajarish mumkin? Nima uchun shunday?“ kabi savollar bilan murojaat qiladi. Bu savollar bolalarni buyumlarning (narsalarning) muhim belgilari to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash maqsadiga qaratilgandir. Shunday qilib, yuqorida ko'rib o'tilgan mashg'ulotlar jarayonida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda so'zlar ma'nosini tushunish malakalari shakllanadi va tafakkuri rivojlanadi, lug'at boyligi o'sadi, mustahkamlanadi.

Suratlarni ko'rib chiqish va ular haqida suhbat mashg'ulotlarida lug'at ishi

Bolalarni tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar, ijtimoiy hayot hodisalari bilan tanishtirishda, ular lug'atini kengaytirishda suratlar muhim ahamiyatga ega. Suratlardan lug'at ishining barcha vazifalarini hal etishda foydalaniladi. Bu mashg'ulot turida tarbiyachining nutqi, ya'ni uning tushuntirishi, yangi so'zlarni aytishi, bolalarga ma'lum bo'lgan so'zlar bilan yangi so'zlarning ma'nosini taqqoslashi va hokazolar asosiy o'rin egallaydi. Buning natijasida bolalarning lug'ati boyib boradi, ular suratdagi tasvirlarni ko'rishga va tushunishga o'rganadilar. Biroq tarbiyachi suratdagi tasvirlar haqida gapirib berish jarayonida bolalarga murojaat etadi, ularga ma'lum bo'lgan so'zlarni faollashtirish usulidan foydalanadi. Tarbiyachi suratlardan bolalar kuzatishi lozim bo'lgan obyekt, ya'ni narsa va buyum, hodisalar, hayvonlar, qushlar va o'simliklar, ayrim tabiat manzaralarining aynan o'zini ko'rsata olish imkoni bo'lmagan hollardagina foydalanadi.

Masalan, yovvoyi hayvonlar, ularning belgilari, ayrim uy hayvonlari (sigir buzog'i bilan, tuya bo'talog'i bilan, eshak xo'tigi bilan va hokazolarni), shahar va qishloq hayoti, kishilar faoliyati

va hokazolar bilan tanishtirishda suratlardan keng foydalaniladi. Shahar bog'chalarining bolalari surat orqali qishloq hayoti bilan tanishganlarida ular dehqonlarning mehnati bilan bog'liq bo'lgan *xirmon, paxtakor, paxtazor, paxta terish mashinasi, zangori kema, bunker, jo'yak, egat* kabi so'zlarni bilib oladilar. Qishloq bog'chasidagi bolalar esa suratlar yordamida shahar hayoti bilan tanishadilar va *bekat, shohko'cha, chorraha, haykal, yodgorliklar, svetofor, trolleybus, tramvay* kabi so'zlar va ularning ma'nosini bilib oladilar. Shuningdek, suratlardan bolalarni sayohatda, sayrda kuzatganlari yuzasidan olgan bilimlarini aniqlash va mustahkamlash maqsadida foydalaniladi.

Bolalar hayotda ko'rgan, ularga tanish bo'lgan buyumlar, narsa va hodisalarni suratda ko'rib, tez bilib oladilar va tushunadilar, bevosita kuzatish vaqtida aniqlay olmagan, ko'rish imkoni bo'lmagan ko'p belgilarni, qismlarni bilib oladilar.

Masalan, uy hayvonlarini, qushlarni, transport vositalarini va boshqalarni kuzatganda ko'p narsalar bolalar uchun noaniq bo'ladi. Aytaylik, bolalar maqsadli sayrga chiqqanlarida tovuqlarni kuzatadilar. Mana shu kuzatishda bolalar xo'rozning baqbaqasini, tojini yoki oyoqlaridagi panjalarini, panjalaridagi tirnoqlarini sezmay qolishlari mumkin. Suratda esa bu aniq tasvirlangan bo'lib, bolalar xo'rozning tashqi tuzilishini tasvirlashganda bu ularning diqqat markazida turadi va *pat, toj, baqbaqa, panjalari* kabi so'zlar bilan lug'atlari yanada boyiydi. Suratda tasvirlangan narsani to'g'ri tushunish fikrlash mahsuli bo'lib hisoblanadi. Bolalar surat yuzasidan yuritgan fikrlarini, hosil qilgan tushunchalarini, taassurotlarini so'z vositasida boshqalarga bildiradilar, suratda tasvirlangan narsa va buyumlarni, hodisalarning nomlarini, ularning belgilarini, sifat va xossalarini so'z bilan ifodalaydilar, sayr va sayohatda ko'rgan narsalari bilan taqqoslaydilar, suratdagi tasvirlar haqida gapirib beradilar. „Suratlar ko'rsatish va ularning mazmunini gapirib berish o'qituvchining bolalarga yaqinlashuvida eng yaxshi vositadir“, — deb ko'rgazmali ishni yuqori baholaydi K. D. Ushinskiy.

Suratlarni ko'zdan kechirish va u haqda suhbat mashg'ulotlari har oyda bir marta rejalashtiriladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun mashg'ulotlarda foydalaniladigan suratlarning maxsus seriyalari nashr etiladi.

Y. G. Baturinaning „Biz o'ynayapmiz“ („Avtobusda ket-yapmiz“, „Uy quryapmiz“, „O'rtog'imizga ko'maklashyapmiz“,

„Koptokni qutqaryapmiz“. „Chana uchyapmiz“) seriyasidagi suratlar, O. I. Solovyovaning „Bizning Tanya“ („Tanyaning kabutarlari“, „Tanya sovuqdan qo‘rqmaydi“, „Kimning qayiqchasi?“), „Yozda“) seriyasidagi suratlar, S. A. Veretennikovaning „Uy hayvonlari“ („Mushuk bolalari bilan“, „It kuchukchalari bilan“, „Sigir buzog‘i bilan“, „Quyong‘alar“, „Echki bolalari bilan“, „Ot toychog‘i bilan“, „Qo‘ylar qo‘zichoqlari bilan“, „Tovuqlar“, „O‘rdak va g‘ozlar“) seriyasidagi suratlar, shuningdek, „Dastur“da ko‘rsatib o‘tilgan talablar asosidagi „Kurkalar“, „Tuya bo‘talog‘i bilan“, „Eshak xo‘tigi bilan“ kabi suratlar, „Bolalar ovqatlanishyapti“ (voqeiy surat) shular jumlasiga kiradi. Ushbu suratlar bo‘yicha mashg‘ulotda bolalar *likopcha, kosa, chinni lagan, qoshiqcha, yeyapti, artyapti, ushlab turibdi, salfetka* so‘zlarini bilib olishadi. „Bolalar bog‘chasida archa bayrami“, „Bolalar tovuq, jo‘jalarni boqishyapti“, P. S. Menshikovning „Yovvoyi hayvonlar“ (12 ta suratdan iborat), „Tipratikanlar“, „Quyong‘alar“, „Olmaxonlar“, „Tulki“, „Bo‘rilar“, „Qo‘ng‘ir ayiqlar“, „Oq ayiqlar“, „Arslonlar“, „Yo‘lbarslar“, „Fillar“, „Maymunlar“ seriyali rasmlari, L. A. Penyevskaya, Y. I. Radinaning „Buvimnikiga — mehmonga“, „Shar uchdi“, „8 Mart bayramiga onamga sovg‘a“, „Maktabda“, „Ishga“, „Shahar ko‘chasi“, „Anhorda“, „Aziz mehmonlar“ nomli suratlar, bulardan tashqari, qishloq bolalar bog‘chalari uchun F. F. Sovetkin va V. I. Chistyakovning „Bolalar bog‘chasi“, „Oila“, „Hovli“, „Qishloq ko‘chasi“, „Bog‘cha“, „Bog“, „Anhorga“ nomli suratlar, O. I. Solovyova va O. A. Frolovaning „Qadrdon dalalar“, „Qishloqda bolalar bog‘chasi“, „Qishloq otxonasida“, „Qishloq bog‘ida“, „Mukofotlangan bilan uchrashuv“ va boshqa suratlar, shuningdek, „Yil fasllari“ (O. I. Solovyovaning „Qishki o‘yin-kulgilar“, „Bahorda xiyo-bonda“, „Yozda bog‘da“, „Shaharda kuz kunlari“) seriyali suratlar va g‘isht teruvchi, bo‘yoqchi, duradgor, g‘allakor, chorvador va hokazolarni tasvirlovchi suratlardan foydalanadi. Bu seriyali suratlardan, asosan, bolalarni tevarak-atrofdagi olam bilan tanishtirish, lug‘atlarini boyitish va faollashtirish, ularda axloqiy sifatlarni tarbiyalash uchun foydalaniladi.

Katta va maktabga tayyorlov guruhida peyzajli suratlardan, naturmortlardan (I. Mashkovning „Taruqli naturmort“, D. Nalbandyaning „Gullar“, I. Levitaning „Siren“ va boshqa asarlari), fotoetudlardan (Y. Ryumkinning „Olmalar“,

Y. Ignatovichning „Moychechaklar“, „Qoqigullar“ va boshqalar) foydalanish mumkin. Bolalar bog'chalari uchun mo'ljallab chiqarilgan suratlarning ichida shunday suratlar borki, ular bolalar uchun notanish, mahalliy sharoitlarga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun kattalardan bunday suratlarda tasvirlangan narsalar haqida batafsil tushunchalar berish talab etiladi. Masalan, shahar bolalari uchun qishloq hayoti to'g'risidagi suratlar („Ot toychog'i bilan“ yoki „Qishloq otxonasida“, „Qishloq bog'ida“, „Qo'ylar“ va boshqalar)dan foydalanishda shunday yo'l tutiladi.

Bolalar o'z lug'atlarini transport turlarini tasvirlovchi suratlarni ko'rib chiqish („Hayajonli uchrashuv“, „Buvimnikiga — mehmonga“, „Pristanda“, „Vokzalda“ va boshqalar) va u haqdagi suhbat mashg'ulotlari orqali boyitib boradilar. Ular bilan tanishish orqali bolalar uchun *perron, vokzal, relslar, bekat, yo'lovchilar vagoni, yuk vagoni, pristan, paluba* kabi so'zlar tushunarli bo'ladi.

Suratlar bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulot tarbiyachidan katta tayyorgarlikni talab etadi. Tarbiyachi surat bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rar ekan, u avvalo, surat mazmuni bilan yaxshilab tanishib chiqishi kerak. So'ng suratlarni ko'rib chiqish natijasida bolalar nimalarni o'zlashtirishlari lozimligini, qaysi yangi so'zlarni esda saqlashlarini va uning mazmunini tushunib olishlarini, suratlarni ko'rib chiqishdagi izchillikni, bolalar diqqatini nimalarga qaratishni va ular yuzasidan beriladigan savollarni o'ziga belgilab qo'yishi lozim. Savollar qisqa va aniq bo'lishi, bolalar tajribasiga asoslanishi, ularga fikr yuritishni, boshlang'ich — oddiy xulosalar chiqara olishni o'rgatishi kerak. Shuningdek, tarbiyachi suratlar bo'yicha mashg'ulotni qanday boshlash va yakunlashni o'ylab qo'yishi, mavzu mazmuniga mos she'rlar, topishmoqlar, maqollar, tez aytishlar, kichik hikoyalar ham tanlashi kerak. Suratni ko'rish va u haqda suhbat mashg'ulotining uslubiyoti (metodi) xuddi kuzatish mashg'ulotining uslubiyotiga o'xshashdir.

Tarbiyachi mashg'ulotdan oldin suratni bolalarga ko'rsatmasdan, guruh xonasiga olib kiradi va uni doskaga teskari tomoni bilan osib qo'yadi. Bunday qilishdan maqsad bolalardagi ixtiyorsiz diqqatdan mashg'ulotning boshlanishida foydalanishdir.

Mashg'ulotni boshlashdan oldin bolalarni jonlantirish, yangi surat mazmunini yaxshilab tushunib olishlari uchun qisqagina

kirish suhbatini o'tkazish mumkin. Masalan, „Mushuk o'z bolalari bilan“ nomli suratni bolalarga ko'rsatishdan avval tarbiyachi bolalarga: Kimning uyida mushugi bor? Nima uchun mushuk saqlaysiz? Uni nimalar bilan boqasiz? U qanday ovoz chiqaradi? kabi savollar beradi. So'ngra bolalarga: „Men sizlarga mushuk va uning bolalari tasvirlangan suratni olib keldim, hozir sizlarga ko'rsataman“, — deb suratning old tomonini ilib qo'yadi va bolalarning uni yaxshilab ko'rib olishlari uchun 1—2 daqiqa vaqt beradi. Suratni yaxshilab ko'rib olishgach, tarbiyachi unda tasvirlanganlar bo'yicha savollar bera boshlaydi. Savollar bolalarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini, dastur maqsadini hisobga olgan holda beriladi. Chunonchi, agar birinchi va ikkinchi kichik guruhlarda ushbu surat bo'yicha mashg'ulot o'tkazilsa, undan maqsad: bolalarning mushuk va uning bolalari haqidagi tasavvurlarini aniqlash (tashqi ko'rinishi, harakati, ovqatni qanday yeyishi) va lug'atini faollashtirish bo'lsa, tarbiyachi bolalarga suratni ko'rsatib shunday savollar beradi: Suratda nima tasvirlangan? Ona mushuk nima qilyapti? Ona mushuk yonida kim yotibdi? Mushuk qanday miyovlaydi? Ikkinchi kichik guruh bolalariga esa yuqoridagi savollardan tashqari yana ushbu savollarni ham berish mumkin: Ona mushukning panjalari qanday rangda? Dumi qanday rangda? Mushukning boshida nimalari bor, tumshug'ida-chi? Kulrang mushukcha nima qilyapti? U nimadan sut ichyapti? U sutni qanday ichyapti? Ip kalavasi bilan o'ynayotgan mushuk bolasini ko'rsatib: Bu mushukcha qanday rangda? U panjalari bilan nima o'ynayapti? Ip kalavallari qanday rangda?

Katta va maktabga tayyorlov guruhida esa beriladigan savollar ancha murakkablashadi. Rasmlarni ko'rib chiqish vaqtida bolalar diqqati ayrim detallarga yo'naltiriladi: Ona mushuk nimaning ustida yotibdi? Uning yonida uxlab yotgan mushukchaning panjalarida nimasi ko'rinib turibdi? Polda sochilib yotgan ip kalavallari qayerda edi? Nima uchun ip kalavallari polda sochilib yotibdi? Kim savatni ag'darib yubordi?

Tarbiyachining savollariga bolalar javob berib bo'lishgach, surat yuzasidan tarbiyachining o'zi gapirib beradi: „Mana bu ona mushuk — Mosh. Uning mushukchalari bor. U gilamcha ustida yotib, bolalariga qarayapti. Kulrang mushukchalar tarelkadagi sutni tili bilan chapillatib ichyapti, targ'il rangdagi mushukcha esa sakrab, savat ichidagi ip kalavallarini ag'darib yubordi. Ip

kalavallari savat ichidan har tomonga sochilib ketdi va targ'il mushukcha ko'k rangdagi ip kalavasini chuvalashtirib o'ynay boshladi. Oq-qora rangli mushukcha esa ona mushukning yonida uxlab yotibdi. Ona mushuk mushukchalariga qarayapti va „xur-xur“ qilib xurillayapti“.

Ushbu mashg'ulot jarayonida yangi so'zlar izohlab beriladi, qiyin so'zlar jo'r bo'lib takrorlanadi. Mashg'ulot topishmoq aytish va uning javobini topish (Kichkina qumg'on, o'tirib ko'zini yumgan), she'r aytish (Sh. Sa'dullaning „Mushuk“ she'rini):

Mushugim deydi: miyov,
Sichqon doim menga yov!
Shuning uchun qo'ymayman,
Qancha yemay to'ymayman

yoki qisqa hikoya o'qib berish bilan (Habib Po'latovning „Mosh hikoyasi“) davom ettirilishi mumkin.

Tarbiyachi ushbu mashg'ulotda bolalar lug'atiga *mushukchalar, ip kalavasi, panja, mo'ylov, ichyapti, chapillatib, chuvalashib, ilashib, dumaloqlanib, kulrang, targ'il, sochib yuborilgan, miyovlaydi, xurillaydi* va boshqa so'zlarni kiritadi. Suratlarini ko'zdan kechirish va u haqda suhbat mashg'ulotining o'ziga xos xususiyati shundaki, mashg'ulotda ko'p o'rinni hikoya, yangi ma'lumotlar va so'zlarni ma'lum qilish, ularni bolalarga oldindan tanish bo'lgan tushunchalar bilan taqqoslash egallaydi. Bunday mashg'ulotlarda bolalarga ma'lum bo'lgan so'zlarni faollashtirish, yangi so'zlarni mustahkamlash elementlari mavjud. Ba'zan katta va maktabga tayyorlov guruhlari bolalariga mashg'ulotda rassomlarning reproduksiya suratlarini ko'rsatishdan ham foydalaniladi; bunday mashg'ulotlar bolalarga estetik va axloqiy tarbiya berishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Undan to'g'ri foydalanish natijasida tarbiyachi bolalar lug'atini sezilarli darajada boyitishi mumkin. Maktabgacha tarbiya pedagogikasida va tasviriy faoliyat uslubiyotida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar yoshiga mos bo'lgan suratlar reproduksiyasining ro'yxatlari ishlab chiqilgan. Masalan, bolalar bog'chalari uchun dasturlarda (Tasviriy san'at bo'limida) R. Ahmedovning „Tong“, O'. Tansiqboyevning „Kuz“, A. Abdullayevning „Shahlo“, P. Benkovning „Dugonalar“ asarlaridan foydalanish belgilangan.

Reproduksiyalar bilan guruh xonasi bezaladi. Yoki har bir bolaga ularning mustaqil ko'rib chiqishlari va estetik zavq olishlari

uchun tarqatib chiqiladi. Bolalar mashg'ulotda bu reproduksiyalarni ko'rib chiqishga va uning mazmunini, tasvirning xarakter va vositasini to'g'ri ko'rishga o'rganadilar. Bunday suratlar bilan mashg'ulot tashkil etishdan avval tarbiyachining o'zi suratni diqqat bilan ko'rib chiqishi, agar imkon bo'lsa, uning asl nusxasini tasviriy san'at ko'rgazmasiga borib ko'rib kelishi, suratni ko'rsatishni nimadan boshlashini, qaysi so'zlarni bolalar lug'atiga kiritishni, bolalarning o'zlaridan nimalar haqida so'rash mumkinligini va boshqalarni belgilab qo'yishi kerak. Surat janriga qarab shunga mos ish uslubiyoti tanlanadi. Buning uchun bevosita bolalarning idrokiga tayanib, ularning his-tuyg'ularini uyg'otish kerak. Bu bolalar lug'atini boyitishga va faollashtirishga yordam beradi.

Masalan, R. Ahmedovning „Tong“ nomli reproduksiyasini ko'rishda bolalar „Mudroq qishloq“, „Tonggi shudring“, „Sokin va go'zal yoz tongi“ va hokazo suratlar bilan tanishadilar. Suratning jozibasini, ifodaliligini tarbiyachi qanchalik o'z hikoyasida bera olish mahoratiga ega bo'lsa, suratni diqqat bilan ko'rib chiqish orqali bolalarda ona-Vatanga bo'lgan muhabbat hissini vujudga kelishiga yordam beradi. Bu turdagi suratlarni ko'rib chiqish mashg'ulotida tarbiyachi rassomlarning mehnatlari haqida, ular qanday qilib bunday suratlarni bunyod qilishlari (ularni alohida bo'yoqlar bilan juda uzoq vaqt — oylar, hatto yillar ichida chizishlari) haqida gapirib berishi mumkin. Keyingi mashg'ulotda esa rassomlar tomonidan chizilgan bunday suratlar muzeylarda saqlanishini, uni juda ehtiyot qilib asrashlarini, uni tomosha qilish, undan zavqlanish uchun juda ko'p kishilar kelishini hikoya qilib beradi, agar imkoniyat bo'lsa, muzeyga borib, suratlar galereyasini tomosha qildirib kelishi ham mumkin. Mashg'ulotdan keyin surat bir necha kun guruh xonasida qoldiriladi va bolalar uni yana bir bor diqqat bilan ko'rib chiqadilar.

Bolalar lug'atini faollashtirish, aniqlash va mustahkamlashda suratlardan keng foydalaniladi. Suratlarning turlari juda xilma-xil. Masalan, predmetli suratlar, voqeyiy suratlar va hokazo. Suratlarni ko'zdan kechirishdagi lug'at ishi bevosita kuzatishdagi lug'at ishidan ancha farq qiladi. Bolalar suratda predmetlarning (buyumlarning) tasvirini ko'radilar va biz bolalarga shu tasvirdagi buyumlarni bilishga, ya'ni ilgari ularga ma'lum bo'lganlari bilan taqqoslashga o'rgatamiz. Suratdagi tasvirni ko'rib chiqish va unda nimalar tasvirlanganligini aytish uchun bola ilgari ko'rgan, idrok qilgan so'zni, predmetni (buyumni) esga keltirishi kerak.

Suratda tipik obraz berilib, aniq narsalar tasvirlanadi, shuning uchun bola suratdagi tasvirni osonlikcha bilib oladi. Chiroyli surat bolalar diqqatini o'ziga jalb qiladi va u suratni diqqat bilan ko'rib chiqish bilan birga, ovoz chiqarib, tasvirdagi buyum, hodisa nomini aytadi, unga o'z munosabatini bildiradi. Dastlab kichkin-toy suratdagi tasvirlarning nomlarini (diqqatini o'ziga tortuvchi, o'ziga yaxshi tanish yoki qiziqarli bo'lgan narsalarni) tartibsiz sanab o'tadi. Tarbiyachining vazifasi bolalarni surat mazmunini idrok qilishga, izchillik (ketma-ketlik) bilan ko'rib chiqishga, asosiy belgilarni ajratib ko'rsata olishga o'rgatishdan iboratdir. Suratlarni to'g'ri ko'rib chiqish malakalari ta'lim jarayonida, tarbiyachi rahbarligida shakllanib boradi. U buyum va hodisalarni suratdan darrov tanib olishga, hayotda ko'rganlari bilan taqqoslashga, tasvirlanganlarni to'g'ri asoslashga o'rgatadi va bolalarning his-tuyg'ularini tarbiyalaydi. Suratdagi tasvirlar yuzasidan beriladigan umumiy savollar (Nima tasvirlangan? Yana nima deyish mumkin?) bolalarni idrok qilishga o'rgatmaydi. Suratdagi mazmunni aniq yoritishga yordam beruvchi ancha to'g'ri savol bu — Surat nima haqida? degan savoldir. Tarbiyachi bolalarni sekin-astalik bilan bu savolga javob berishga o'rgatib boradi. Bunda ushbu usullardan foydalaniladi: 1) o'zi surat mazmunini qisqacha yoritib beradi; 2) markazdagi buyumni (predmetni ko'rsatkich tayoqcha bilan ko'rsatadi va shu vaqtning o'zida: „Bu nima, bu kim?“) deb so'raydi (ya'ni birinchi savol aniq jaranglaydi); 3) surat kompozitsiyasi haqida beriladigan savol tuzilishiga diqqatini yo'naltiradi: „Ona mushuk qayerda yotibdi va u kimlarga qarayapti?“. Katta guruh bolalariga suratga nom o'ylab topishni (faqat mashg'ulot oxirida emas, balki mashg'ulotning boshida ham) taklif etadi. Suratlarni ko'rib chiqish va u haqda suhbat mashg'uloti umumiy ta'limiy (didaktik) prinsiplarga bo'ysunadi, bu haqda bevosita kuzatish mashg'ulotlari haqida fikr yuritilganda yoritib o'tilgan (suratni bolalarga ko'rsatishdan avval diqqatlari to'planadi, tasvirni ko'rib chiqishlari uchun vaqt beriladi, so'ngra tarbiyachi rahbarligida suratdagi tasvirlar birin-ketin ko'rib chiqiladi, ko'rib chiqish jarayonida ular o'rtasidagi mazmunli bog'liqlik aniqlanadi). Bu mashg'ulotda lug'at ishining asosiy usuli savoldir. Bunda turli shakldagi savollardan foydalaniladi: 1. Suratning umumiy mazmunini aniqlash uchun — Surat nima haqida? Uni biz qanday ataymiz? 2. Buyumlarni tasvirlash uchun — Nima?, Qanday?, Qayerda?, Nima qilyapti?, Nimaga

o'xshaydi? 3. Suratning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlash uchun — Nega?, Nima uchun?, Nimaga?, Kimniki?, Nimasi bilan o'xshash? 4. Suratda tasvirlanganlardan chetga chiqish uchun — Keyin nima bo'ladi? Bungacha nima bo'lgan edi? Buni sen qanday topding? 5. Surat mazmuniga yaqin bo'lgan, bolalar shaxsiy tajribasiga oid savollar — Senda shunday o'yinchoq bormi, yaqinda bizning guruhimizga kim keldi? Bu yangi bolani qanday kutib oldik? 6. Katta guruh bolalarining lug'atlarini faollashtirish maqsadida sinonimlarni tanlash uchun savollar: Buni yana qaysi so'zlar bilan aytish mumkin (kun — oftob — quyosh, yordamlashyapti — ko'maklashyapti — qarashyapti, tiniq — beg'ubor, iliq — issiq, go'zal — ko'rkam va boshqalar).

Beriladigan savollar doimo ham javob berishni talab etuvchi bo'lmasdan, balki yordam beruvchi (yetaklovchi) ham bo'lishi mumkin. Bunday savollardan ko'proq kichik guruhlarda foydalaniladi — Bu mushukchami? Bu koptokmi?

Katta guruhlarda Y. I. Tixeyeva tomonidan ishlab chiqilgan usullardan foydalanish mumkin. Bu usul „Kim ko'proq ko'radi“ nomli o'yin shaklidagi mashqdir. Bolalar bu o'yin mashqida suratda tasvirlangan buyumning belgilarini bir-birlarini takrorlamagan holda aytadilar. Bunday usul bolalarda kuzatuvchanlikni, diqqatni rivojlantirish va ularning lug'atini boyitish uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, suratlarni taqqoslash ham (nimasi bilan o'xshaydi, nimasi bilan o'xshamaydi) juda yaxshi usul hisoblanadi. Suratlarni ko'zdan kechirishning va beriladigan savollarning maqsadi rasmning asosiy mazmunini aniqlashdan, ma'lum bir guruh so'zlarni faollashtirishdan iboratdir. Shuning uchun suratni ko'zdan kechirish mashg'ulotida bolalardan asosiy bo'lgan narsalarni so'rashga harakat qilish kerak.

Bolalar lug'atini faollashtirishda stol yoki xontaxta ustida ko'zdan kechiriladigan mayda suratlar ham yaxshi ko'rgazmali material bo'lib hisoblanadi. Tarbiyachi mashg'ulot uchun tarqatma suratlar to'plamini, illustratsiyalarni, otkritkalarni tanlashi zarur. Kichik guruhlarda bunday suratlarni ko'zdan kechirish 5 — 10 daqiqa davom etadi. Bola bu vaqt ichida bir qancha suratlarni ko'zdan kechirib, ularning nomlarini aytishga ulguradi. Ushbu mashg'ulot turini tarbiyachi quyidagicha tashkil etishi mumkin. Avval bolalar shunday o'tqaziladiki, ular tarbiyachi tomonidan berilgan topshiriqni qanday bajarilayotganligini ko'rib turadilar. Shundan so'ng tarbiyachi bolalarga juft suratlardan birini tarqatib

chiqadi (ikkinchisi stol ustiga yoyib qo'yiladi) va topshiriq beradi: qo'lingizdagi rasm belgisiga qarab (rang, shakl va hokazolar), suratning juftini tanlab olasiz. So'ngra tarbiyachi boshqa suratlarni tarqatib chiqadi yoki qo'llaridagi suratni almashtirishni tashkil etadi. Buning uchun tarbiyachi „Ketdik-ketdik“ o'yinidan foydalanishi mumkin. Tarbiyachi „ketdik-ketdik“ deyishi bilan bola qo'lidagi suratni teskari tomoni bilan qo'yib, stol ustida turgan (teskari tomoni bilan qo'yilgan) surat qarshisiga yaqinlashadi, tarbiyachining „To'xta!“ degan buyrug'i bo'yicha harakatni to'xtatib, shu suratga yaqin bo'lgan (teskari tomoni bilan qo'yib qo'yilgan) suratning o'ng tomonini o'girib qo'yadi va uning nomini, belgilarini va hokazolarni aytib beradi.

Shuningdek, yangi o'yinlar, ya'ni loto, kubiklar bilan o'ynashdan avval (o'yinlarni o'yin burchagiga qo'yishdan oldin) ularni ko'zdan kechirish mashg'uloti tashkil etiladi. Bu mashg'ulotda bolalar bilan hamma suratlarning nomlari aniqlanadi va bu o'yinlardan (loto va kubiklardan) foydalanish qoidalari, ularni saqlash va hokazolar to'g'risida tushunchalar beriladi.

Katta guruhlarda suratlarni ko'zdan kechirish bilan bir vaqtda, o'xshash buyumlarni guruhlashga, ular to'g'risida topishmoqlar tuzishga va shunga o'xshash murakkab topshiriqlarni bajarishga o'rgatiladi. Masalan, „Har bir qushni o'z joyiga“ (maktabga tayyorlov guruhi uchun), „Tez javob ber“, „Atelye“ (tikuv ustaxonasi), „Yangi uyga ko'chamiz“ va hokazo o'yinlar. Quyida turli yosh guruhlari suratlarni ko'zdan kechirish va u haqda suhbat mashg'ulotlarining ishlanmalaridan misollar keltiramiz.

IKKINCHI KICHIK GURUH

Mashg'ulot mavzusi. „Qishda sayrda“ degan suratni ko'zdan kechirish. („2 — 3 yoshli bolalarning tasavvurlarini kengaytirish va nutqini rivojlantirish uchun suratlar“ nomli seriyali suratlar. Mualliflar: Y. Radina va V. Yezikeyeva.)

Narimon Orifjonovning „Qishda“ she'rini yoddan aytib berish.

Maqsad. Bolalar tomonidan suratni ko'zdan kechirish, savollarga javob berish, oddiy xulosalar chiqarish, pedagogning surat bo'yicha tuzgan hikoyasiga *yasash, yog'adi, charxpalak, pag'a-pag'a, uchqun, tepalik, sirpanchiq* kabi so'zlarni kiritish, ifodali o'qish ustida mashq qilish.

Mashg'ulotning borishi. „Hovlida qish“. „Ko'chada qor, —

deydi tarbiyachi. — Chanada mazza qilib uchish mumkin. Yana nima qilish mumkin?”

— „Qorbobo yasash mumkin, qorni kurak, belkurak bilan kurash mumkin, qorbo‘ron o‘ynash mumkin“, — deb aytishadi bolalar. „Istaysizlarmi, hozir men sizlarga qishda sayrga chiqqan bolalarni ko‘rsataman“, — deydi tarbiyachi bolalar istagini aniqlash maqsadida. Tarbiyachi doskaga teskari tomoni bilan osib qo‘yilgan suratning o‘ng tomonini o‘girib, bolalar diqqatiga havola qiladi, suratni yaxshilab ko‘rib olish uchun birmuncha vaqt beradi va bolalarning taassurotlarini tinglaydi. Tarbiyachi shunday tushuncha beradi: — Ushbu suratda katta yoshdagi bola (bolani ko‘rsatib) kichkina ukasini chanaga o‘tqazib, qor ustida sudrab ketyapti. Bolalardan so‘raydi: „Sizlar qanday o‘ylaysizlar, kichkintoy bundan xursandmi? Nima uchun?“ Javoblarni tinglaydi, aniqlik kiritadi, yangi savol beradi: „Qizchalar nima qilishyapti?“ Javobni tinglab, bolalar diqqatini chanada o‘tirgan ayiqqa yo‘naltiradi: „Qizchalar, ayiqcha uchun nimadir yasashmayaptimikan?“ Bolalarning taxminiy javoblarini aniqlaydi. „Ayiqcha chanada o‘tirishni istamayapti, qaysarlik qil-yapti,“ — deb tushuncha beradi tarbiyachi. — Siz nima deb o‘ylaysiz, qizchalar unga nima deyishdi ekan?”

Tarbiyachi bolalarga qishda hamma yoq chiroyli bo‘lishi haqida gapiradi: „Qor gupillab yog‘yapti, qor uchqunlari charx-palak bo‘lib aylanib, yerga tushyapti“. So‘ngra tarbiyachi bolalarga navbatdagi hikoyani tinglashni taklif etadi: „Qish. Pag‘a-pag‘a qor yog‘yapti. Bolalar sayr qilishyapti. Katta bola ukasini chanada, qor ustida tortib ketyapti. Kichkintoy xursand. Qizchalar o‘zlari bilan ayiqchasini sayrga olib chiqishgan. „Hozir, ayiqjon, biz senga qordan sirpanchiq yasab, unda seni uchiramiz. Sen tepalikdan chanada uchib, pastga tushasan. Hozircha chanada o‘tirib turgin“, — deyishadi. Tarbiyachi hikoyasini yana bir marta takrorlaydi. Bolalar esa tarbiyachiga hikoyaning ayrim so‘zlarini aytib, yordam berib turishadi. So‘ngra tarbiyachi bolalarga N. Orifjonovning „Qishda“ she‘rini yoddan aytib beradi:

Rosa mazza qish,
Qorlari — kumush.
Oq kiygan atrof,
Qish havosi sof.
Chana uchamiz,

Hech charchamay biz.
Goho qorbo‘ron
O‘ynab, kim chaqqon
Bilib olamiz,
Qoyil qolamiz.

O'RTA GURUH

Mashg'ulot mavzusi. „It o'z bolalari bilan“ nomli suratni ko'rib chiqish („Uy hayvonlari“ seriyali rasmdan, muallifi S. Veretennikova) va „Hayvon bolalarining nomlarini to'g'ri ayt“ degan ta'limiy (didaktik) o'yin o'tkazish.

Maqsad. Bolalarni suratdagi tasvirlarni to'g'ri tushunib olishga, uning mazmuni asosida berilgan savollarga javob berishga, oddiy xulosalar chiqarishga; tarbiyachining surat bo'yicha tuzilgan hikoyasini tinglashga; hayvonlarning, parrandalarning bolalari nomini ko'plikda (qo'zichoqlar, uloqchalar, toychoqlar, kuchukchalar, jo'jalar) to'g'ri ayta olishga o'rgatish, lug'atini boyitish, faollashtirish; nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish. Kattalarga samimiy murojaat etishga o'rgatish; hayvonlarga g'amxo'rlik qilish hissini tarbiyalash.

Mashg'ulot uchun material. „It o'z bolalari bilan“ surati. Quticha, uning ichida o'yinchoq hayvon bolalari yoki ularning suratlari. (Qo'y, sigir, echki, tovuq, ot, itning suratlari.)

Mashg'ulotning borishi. Tarbiyachi bolalarga murojaat etib, ushbu topishmoqni tinglashni va uning javobini topishni aytadi: „Ketaveradi, ketaveradi savatday yerni egallaydi“. Bolalarning javobini tinglaydi va shunday deydi: „Men hozir sizlarga bir surat ko'rsataman, sizlar unda nimalar tasvirlanganligini aytasizlar“. So'ngra suratni bolalarga ko'rsatadi, yaxshilab ko'rib olishlari uchun bir necha daqiqa vaqt beradi. Bolalar suratni yaxshilab ko'rib olishgach, ularga ushbu savollar bilan murojaat etadi: Bu suratda nima tasvirlangan? Ona it nima qilyapti? Ona itning panjalari orasida nima bor? Ona itning yonida nima yotibdi? Ona it yotgan uycha nima deb aytiladi? Mana bu kuchukcha (chumchuqchalarga qarab turgan kuchukchani ko'rsatib) nima qilyapti? Ona it va kuchukchalar nimaga qarashyapti? Chumchuqchalar nima qilishyapti? Tovoqdagi ovqat kimlarga qo'yilgan? Itning egasi nima uchun ular haqida g'amxo'rlik qiladi? It ko'ngilchanmi, rahmdilmi yoki johilmi? Nima uchun siz ona it ko'ngilchan yoki rahmdil deb o'ylaysiz? Suratni ko'rib chiqish tarbiyachining hikoyasi bilan tugallanadi: „Bu suratda it va uning bolalari tasvirlangan. Ona it katta, qora, junlari o'siq, dumi va quloqlarining junlari uzun. Katta, qora va paxmoq itning ikkita kuchukchasi bor. Hali ular juda ham kichkina, hatto ular vovullashni ham bilishmaydi. Kuchukchalarning juni mayin va

o'zlari o'xshovsiz. Kuchuklardan biri ona itning yonida yotibdi. ikkinchisi esa oyoqlarini kerib, kaltagina dumchasini qayirib, chumchuqlarga qarab turibdi. It va uning bolalariga egasi ovqat olib kelib qo'ygan. Itlardan qolgan ovqatni chumchuqlar cho'qishyapti. Ona it yonidagi kuchukcha „ular kimlar?“ degandek qarab turibdi. Bu sariq kuchukcha o'z onasi oldida issiqqina rohatlanib yotibdi. Ikkinchi kuchukcha dumchasini yuqoriga ko'tarib, tovoqdagi ovqatni cho'qiyotgan chumchuqlarga qarab turibdi. U ona itga o'xshaydi, uning ham tumshug'i oq.

Bu surat to'g'risida, — deydi tarbiyachi, — ko'pgina turli hikoyalarni o'ylab topish mumkin. Biz bu suratni o'z xonamizda qoldiramiz va agar sizlar xohlasangiz, kechqurun bu surat bo'yicha hikoya o'ylab topishingiz hamda it va uning bolalari haqidagi hikoyangizni bizga gapirib berishingiz mumkin. Mana bu qutichada (ko'rsatadi) o'yinchoq hayvonlar, parrandalar va ularning bolalari bor. Qo'zichoqlar, buzoqlar, uloqchalar, toychoqlar, kuchukchalar, jo'jalar ham bor. Agar sizlar qo'lingizni ko'tarib, o'zingizga kerakli hayvon bolalarining nomini to'g'ri aytsangiz, masalan „Qo'zichoqlarni bering“ desangiz, men ularni sizlarga bajon-u dil qutichadan olib beraman. Agar sizlar hayvon bolalarining nomini noto'g'ri aytsangiz, ular sizlarga borishni xohlashmaydi. Masalan, „Men buzoqchalarni olishni xohlayman. (Nimani olishni?) Yoki „Marhamat qilib qo'zichoqlarni bering. (Nimani beray?)“. Shu tariqa o'yinni o'tkazadi. Agar bolalar so'rashda adashishsa, unga o'yinchoq hayvonlar berilmaydi, balki o'rtoqlarining qanday so'rayotganliklarini tinglash taklif etiladi. So'ngra tarbiyachi xato qilgan bolaga xatosini to'g'rilashini aytadi. Shundan so'ng tarbiyachi o'yinchoqlarni yig'ishtirib, shunday deydi: „Hayvonlarning bolalari sizlarga o'xshab o'z onalarining oldiga kelishdi. Mana, ularning onalari: qo'y, sigir, echki, tovuq, ot (biya), it“. Tarbiyachi o'yinchoqlarni yoki suratlarni ko'rsatadi. Bolalar ularning nomlarini takrorlaydilar.

KATTA GURUH

Mashg'ulot mavzusi. „Kuzgi kun“ suratini (O. I. Solovyovanning „Yil fasllari“ seriyali suratidan) ko'zdan kechirish va u haqida suhbat.

Maqsad. Bolalarni voqeiy suratni maqsadga yo'nalgan holda ko'rib chiqishlari ustida mashq qildirish: lug'atlarini boyitish.

faollashtirish va mustahkamlash; aniq va qiziqarli hikoyalar tuzishga — suratni tasvirlashga o'rgatish.

Mashg'ulotning borishi. Tarbiyachi bolalarga bugun yangi suratni ko'rsatishini aytadi. Suratni doskaga yoki molbertga qo'yib, uni yaxshilab ko'rib chiqishlari uchun vaqt beradi. Suratdagi hamma narsa bolalarga tushunarli yoki tushunarli emasligini kuzatib boradi va qandaydir savol tug'ilib qolsa, ularga javob beradi. So'ng tarbiyachi bolalarga murojaat etadi: „Siz bu suratning nomini nima deb atagan bo'lar edingiz? Rassom ushbu suratda yilning qaysi faslini va kunning qaysi qismini tasvirlagan? Bu haqda bir gap orqali nima deyish mumkin? (To'g'ri, rassom kuz kunini tasvirlagan va suratning nomini ham „Kuzgi kun“ deb nomlagan.) Siz qanday qilib suratda kunduz kun tasvirlanganligini bilib oldingiz? (Ko'cha yorug'. Bolalar maktabdan qaytishyapti. Buvi nabirasi bilan sayr qilib yuribdi.) Nima uchun siz buni kuzgi kun deb o'ylaysiz? (Daraxtdagi barglar sarg'aygan, qizargan, to'kilyapti. Bolalar o'qishni boshlagan. Peshtaxtalardagi sabzavotlar kuzning saxovati). Bu suratda kuzgi kun qanday tasvirlangan? Iliq, issiq, quyoshli kunda atrof juda chiroyli. Bu suratda qanday tasvirlangan? (Osmon ko'm-ko'k va daraxt shoxidagi barglar ochiq sariq tusda. Sariq va ko'k ranglar ko'zlarni quvontiradi.) Bunday kuz kunlarida ko'chaga chiqqing keladi! O'quvchilar shoshilmasdan maktabdan kelishyapti. Birinchi sinf o'quvchisini onasi kutib olyapti. Peshtaxta oldida turgan o'g'il bola sabzavot xarid qilayotgan buvisini kutib turibdi.

Biz sizlar bilan suratni ko'rib chiqdik, endi bu surat bo'yicha gapirib berishni o'rganamiz. Qani, o'ylanglar-chi, suratni tasvirlashni kim qanday boshlaydi? 2 — 3 bolaning tasviriy hikoyasini tinglaydi va tarbiyachi mashg'ulotni o'zining namu-naviy hikoyasi bilan tugatadi: Ko'chada iliq kuz kunlaridan biri. Ko'm-ko'k osmon va oltinrang barglar ko'zlarni quvontiradi, ko'chani bezaydi.

Bolalar maktabdan shoshilmasdan, osoyishta qaytishyapti. O'g'il bolalardan birining onasi uni kutib oldi. Bir kichkina bola sabzavotlar turgan peshtaxta oldida turibdi va buvisini kutyapti. Uning buvisi sabzavot xarid qilyapti va sotuvchi bilan gaplashyapti. Har ikkala ayol kuz kunining iliq, yoqimli ekanligidan xursand. Ularning chehralarida kulgu“.

Tarbiyachi kuz fasli haqida she'r aytib berish bilan ham mashg'ulotni tugallashi mumkin.

Ta'limiy (didaktik) o'yinlarda lug'at ishi

Ta'limiy o'yinlar bolalar lug'atini faollashtirishning asosiy uslubiyotlaridan (metodlaridan) biridir.

Ta'limiy o'yin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, chunki unda bolalar mashg'ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar. Bolalarning aqliy faoliyatlarini kuchaytiradi, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun imkoniyat yaratib beradi.

Ta'limiy o'yin bolalarning tevarak-atrof, ijtimoiy hayot to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, o'z shaxsiy tajribalari va mashg'ulotlarda olgan bilimlarini amalda qo'llay bilishga o'rgatadi, fikrlash qobiliyatlarini, ijodiy kuchlarini, sensor jarayonini rivojlantiradi, olgan bilimlarini tartibga soladi. Har bir ta'limiy o'yin o'zining dastur mazmuniga ega. Bu „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“da o'z aksini topgan. Masalan:

1) buyumlar, ularning nomi, rangi, shakli, hajmi, sifati to'g'risida bilimlar berish;

2) mehnatning har xil turlari va uning kishilar hayotidagi roli to'g'risidagi bilimlar;

3) tabiat voqealari, narsalar, buyumlar, yil fasllari to'g'risidagi bilimlar;

4) dastlabki matematik tushunchalar: son, sanoq, kattalik, shakl, vaqt va fazoviy tushunchalar berish. Ta'limiy o'yinlar, ularning ta'lim-tarbiyaviy vazifasi, mazmuni, turlari har bir yosh guruhining o'ziga xos ruhiy-fiziologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, bu o'yinlarning tutgan o'rni va vazifasi, mazmunli o'tkazish uslublari „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“da belgilab berilgan. Masalan, 2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan o'tkaziladigan ta'limiy o'yinlardan asosiy maqsad — bolalarni ranglarni bir-biridan farqlashga va nomini aytishga o'rgatish, har xil o'lchamlarning (katta, kichik) shakllarini bilishga, ko'rib va eshitib idrok etish, diqqatni, mayda harakatlarni o'stirishga yordam beradigan, lug'atini boyitadigan, faollashtiradigan o'yinlar o'tkaziladi. Masalan, „Juft kartochkalar“, „Kattalar va kichiklar“, „Qo'g'irchoqni sayrga olib chiqish uchun kiyintiramiz“, „Qo'g'irchoqni cho'miltiramiz“, „Bu nimaning ovozi?“ „Xaltachada nima bor?“ va boshqalar.

Ikkinchi kichik guruhda o'tkaziladigan ta'limiy o'yinlar narsalarning rangini aytish va ularning rangiga qarab ajratishga,

katta-kichikligiga qarab farqlashga va nomlarini to'g'ri aytishga o'rgatish maqsadida o'tkaziladi. Ushbu guruhda Y. I. Tixeyeva tomonidan ishlab chiqilgan qo'g'irchoqlar bilan o'tkaziladigan ta'limiy o'yinlar o'tkaziladi. Masalan, „Qo'g'irchoqni cho'miltirish“ (ustki va ichki kiyimlarning, cho'miltirish uchun zarur bo'lgan buyumlarning nomlarini bilib olish uchun), ko'rpa, yostiqlarni, harakat bilan bog'liq so'zlarni (to'shak, ustini yopib qo'yish, yotqizish va hokazolarni bilib olish uchun), „Qo'g'irchoqni ovqatlantirish“ (idish-tovoqlarni, harakatlarning nomlarini bilib olish uchun), „Yangi qo'g'irchoqni kutib olish“ (kiyim-kechaklarning nomlarini mustahkamlash uchun).

O'rta guruhda o'tkaziladigan ta'limiy o'yinlardan maqsad — turli narsalar va ularni yasash uchun ishlatiladigan materiallarning nomlari (yog'och, temir, chinni, plastmassa) va ularning xossalarini bilib olish, narsalarning tashqi ko'rinishiga qarab bir-biriga taqqoslash, guruhlarga ajratishga o'rgatish. Masalan, „Kimda qanday buyum?“, „Yangi uyga ko'chamiz“, „Nima o'zgardi, top“ va boshqalar.

Katta guruhda esa ta'limiy o'yinlar bolalarning kuzatuvchanligini, narsalarni sinchiklay bilish, bir-biriga taqqoslay olish, ularning belgilaridagi kichik farqlarni (rangi, shakli, katta-kichikligi, materialini) aytib bera olish malakalarini tarbiyalash. Biron hayvon, o'simlik, transport haqida so'ralganda ularning nomini topa olish malakasini o'stirish, buyumlarning umumiy belgilariga qarab guruhlarga bo'lish qobiliyatini rivojlantirish, so'z boyligini faollashtirish va to'ldirish maqsadida o'tkaziladi. Masalan, „Shakliga qarab tanla“, „Kimga nima kerak?“, „Yil fasllari“, „Kimga nechta?“, „Qizil, sariq, ko'k rangdagi narsalarning nomini ayt“, „Tasvirga qarab top“, „Xarid uchun do'konga“, „Tez javob ber“ va boshqalar.

Maktabga tayyorlov guruhida ta'limiy o'yinlar bolalarda kuzatuvchanlikni, ziyraklik, aqliy vazifalarni mustaqil hal qilish, narsalarni turkumlarga (guruhlarga) ajratish, ranglar va ulardagi nozik ayirmalarni bir-biridan farqlashga o'rgatish maqsadida o'tkazish nazarda tutilgan. Masalan, „Dengiz to'liqlanmoqda“, „Qora va oq“, „Qaysi narsani ko'ngilda o'ylab qo'ydingiz“, „Har bir qushni o'z joyiga“, „Lipopchalarga piyolalarni tanla“, „Rangli loto“, „Buyumlarning rangini aniqlaymiz“ va hokozolar. Yuqorida bayon etilgan barcha guruhlardagi ta'limiy o'yinlarning dastur mazmuni va vazifalarini amalga oshirish natijasida bolalar lug'ati

faollashtiriladi va to'ldiriladi. Ta'limiy o'yinni maqsadga muvofiq tarzda o'tkazishda tarbiyachi asosiy o'rin egallaydi. U o'yin jarayonini jonli tashkil etishi, unga bolalarni qiziqтира olishi kerak. Buning uchun oldindan kimdan nima haqida so'rashni belgilab oladi, o'yinning yangi variantlarini kiritadi, nutqining rivojlanishi bo'yicha kuchli va kuchsiz bolani juft qilib qo'yadi, mashg'ulotda hazil-mutoyibalardan, bolalarning faol harakat qilishlaridan foydalanadi. O'yin sur'ati o'rtacha bo'ladi. Chunki bu o'rgatuvchi o'yin bo'lib, bolalarning bilimlari va lug'atlari mustahkamlanadi. Tarbiyachi oldindan belgilab qo'yilgan so'zlarni faollashtirishga erishish maqsadida, bolalar javobining aniqligiga diqqatni yo'naltiradi. Ta'limiy o'yinda hamma bolalarning faol ishtirok etishlarini ta'minlash mumkin (o'yin davomida jo'r bo'lib aytish, ashula aytib berish, buyum haqidagi topishmoqni eslash kabi topshiriqlar berib boriladi). O'yin oxirida xulosa qilish, o'yinni baholash shart emas. Tarbiyachi shunday deyishi mumkin: „Kelgusi safar boshqa o'yinchoqlar bo'ladi, balki bizning mashg'ulotimizga ayiq mehmon bo'lib kelar“.

Lug'at ishi uchun ushbu ta'limiy o'yinlardan foydalanish mumkin: „Top, nima o'zgardi?“ o'yini. Bu o'yinning bir qancha variantlari mavjud. Bu topshiriqning murakkabligiga bog'liq bo'ladi. 2—3 yoshli bolalar bilan o'tkaziladigan o'yinning oddiy turida bolalar qarshisida turgan buyumlarga yangi buyumlar qo'shiladi; yana bir turida buyumlardan biri olib qo'yiladi; ancha murakkab turida buyumlardan biri yangi buyum bilan almashtiriladi yoki o'rni almashtiriladi. Bu o'yinda ot, son, sifat, ravish qo'shimchalari faollashtiriladi. Masalan, qalamlar qutida edi, endi quti ustida; ikkita uzun tasmalar bor edi, endi bittasi uzun, bittasi esa kalta, o'ng tomonda quyon o'tirgan edi, endi qo'g'irchoq o'tiribdi; qo'g'irchoq ro'molda edi, endi do'ppida. Bu o'yinning asosiy vazifasi bolalar tomonidan beriladigan javob uchun aniq so'zlarni tanlashdir. Shuning uchun tarbiyachi bu o'yinda chegaralangan miqdordagi (2 tadan to 5 tagacha) o'yinchoqlardan foydalanadi va ozgina o'zgartirish kiritadi (1—2 ta o'yinchoqni).

„Ajoyib xaltacha“ o'yini. Bu keng tarqalgan o'yin bolalar lug'atini faollashtirish uchun (ayniqsa, kichik guruh bolalari yoki yomon gapiradigan bolalar uchun) ajoyib uslubiyot hisoblanadi. Bu o'yinning ayrim turida bola o'yinchoqni xaltacha ichidan oladi, uni bolalarga ko'rsatadi va bolalarning hammasi

birgalikda uning nomini aytadilar. Bu o'yinda xaltacha o'yin atributi (buyumi) bo'lib xizmat qiladi.

„Ajoyib xaltacha“ o'yinining asosiy qoidasi: xaltachaning ichida qo'l bilan paypaslab ushlangan buyum, narsa nomi aytilmaguncha, xaltachaning bog'i ochilmaydi. Bu o'yin uchun ma'lum bir guruhdagi (toifadagi) buyumlar tanlanishi kerak. Masalan, xaltacha ichiga sabzavotlardan bir nechtasini solish mumkin; kichik guruhlarda shakli va materiali bo'yicha qarama-qarshi bo'lgan buyumlar (bunday buyumlarni qo'l bilan paypaslab topish oson); katta guruh bolalari uchun maishiy buyumlarning haqiqiyidan bir nechta (ip kalavasi, g'altak ip, tish cho'tkasi, qalam va hokazolar)dan foydalanish mumkin. Bu o'yinda, asosan, buyumlarning nomlarini aytish faollashtiriladi („Ayt, qo'lingda nimani ushlab turibsan?“). Kichik guruh bolalarining lug'ati bu o'yin jarayonida ancha faollashtirilishi mumkin. (Sen qo'lingda qanday sharchani ushlab turibsan, kattami yoki kichkinami?)

Katta guruh bolalari bu o'yinda buyumlarning nomlarinigina aytish bilan chegaralanmasdan, balki buyumni xaltacha ichidan olib ko'rsatishdan avval, uning belgilarini (dumaloq, bo'rtibroq chiqqan); qanday materialdan qilinganligini (rezinadan, yog'ochdan, metallidan, loydan, matodan va boshqalar); uning ustki qismining sifatini (silliq, g'adir-budir, sovuq, sirpanchiq va hokazo) aytishi kerak. Xaltacha ichiga solinadigan buyumlar o'yin boshlanishidan avval, bolalar tomonidan yaxshilab ko'rib chiqiladi, nomlari aytiladi. Katta guruh bolalari o'z javoblariga buyumning tasvirini, topishmoq va she'rlarni kiritishlari mumkin.

„*Kimda qanday buyum?*“. Bu o'yin 5 — 7 yoshli bolalar bilan o'tkaziladi.

Maqsadi: 1. Nomlari bir xil bo'lgan ikkita buyumni bir-biriga taqqoslashga, buyumlarni taqqoslash jarayonida ularning eng muhim belgilarini aytishga o'rgatish; kuzatuvchanligini rivojlantirish.

2. Buyumlarning detallari va qismlarning nomlarini bildiruvchi otlar, rangi va shaklini belgilovchi sifatlar, ravish va qo'shimchalar hisobiga bolalarning lug'atini boyitish. Buyumlarning sifatlarini va eng xarakterli tomonlarini bildiruvchi so'zlardan aniq foydalanishga o'rgatish.

O'yin uchun material. Bir-birlaridan bir nechta belgilari va detallari bilan farq qiluvchi buyumlarni tasvirlovchi suratlar jufti:

1) rangi, kattaligi, shakli, teshiklari soni bilan farq qiluvchi 2 ta tugmacha;

2) rangi, shakli va chizilgan rasmi bilan farq qiluvchi 2 ta likopcha (tarelka);

3) gavdasining shakli, uzunligi, qanotining, dumining rangi bilan bir-biridan farq qiluvchi ikkita baliq;

4) yo'l-yo'l va katakli, yenglari uzun va qisqa, bittasidagi cho'ntak bitta va yuqori qismiga, ikkinchisining cho'ntagi ikkita va pastki qismiga o'rnatilgan 2 ta ko'ylak;

5) andazasi va tikilgan gullari bilan farq qiluvchi 2 ta fartuk;

6) shakli va rangi bilan farq qiluvchi 2 ta chelakcha va boshqa buyumlar: ip kalavalari, sharflar, tufllilar, qayiqalar, yengil mashinalar va hokazo.

O'yin mashqining borishi. Tarbiyachi bolalar oldiga 2 — 3 juft buyumlar tasviri tushirilgan suratlarni qo'yib chiqadi va shunday tushuntiradi: „Har bir juft suratda bir xil nomdagi buyumlar tasvirlangan: ko'ylaklar, baliqlar, fartuklar va boshqalar. Ammo bu buyumlar bir-biridan nimasi bilandir farq qiladi. Hozir shular haqida gaplashamiz. Bitta buyum haqida men gapirib beraman, xuddi shunday ikkinchi buyum haqida men kimni chaqirsam, shu bola gapirib beradi. Buyumlar haqida navbatma-navbat shunday gapirib beramiz. Agar men o'zimdagi buyumning rangini aytsam, siz ham oldingizdagi buyumning rangini aytsiz, agarda men buyumning qanday shaklda ekanligini aytsam, siz ham buyumingizning shaklini aniqlab aytishingiz kerak“. Bir bolani chaqirib, unga ko'ylak haqida gapirib berishni taklif etadi.

Tarbiyachi. Mening qo'limdagi suratda ko'ylak tasvirlangan.

Bola. Mendagi suratda ham ko'ylak tasvirlangan.

Tarbiyachi. Mendagi ko'ylakning yenglari uzun. U qish, kuz fasllari uchun mo'ljallangan.

Bola. Mendagi ko'ylakning yenglari kalta, bahor va yoz fasllari uchun mo'ljallangan.

Tarbiyachi. Mendagi ko'ylak katak-katak matodan.

Bola. Meniki yo'l-yo'l.

Tarbiyachi. Ko'ylakning bitta cho'ntagi bor, u ko'krakning chap tomoniga o'rnatilgan va h.k.

O'yindan o'rta guruh bolalarini hikoya qilishga o'rgatishda, bola bilan yakkama-yakka ishlashda ham foydalaniladi.

Tarbiyachi boshqa bir bolaga birgalikda baliq haqida gapirib berishni taklif etadi.

Tarbiyachi. Mening balig'im qizil rangda.

Bola. Mening balig'im ko'k rangda.

Tarbiyachi. Mening balig'imning dumi uzun.

Bola. Mening balig'imning dumi kalta.

Shu tariqa boshqa buyumlar ham taqqoslanadi. Yuqorida bayon etilgan ta'limiy o'yinlardan tashqari bolalar lug'atini faollashtirishga yordam beruvchi buyum yoki suratlar bilan tashkil etiladigan juda ko'p o'yinlar mavjud. Masalan, „Nima bir xil, nima har xil?“, „Kimga nima kerak?“, „Do'konda“, „Sayohat“ va hokazo. Ta'limiy o'yinlardan tashqari ko'rgazmali qurolsiz o'tkaziladigan so'zli mashq va o'yinlar o'tkaziladi. So'zli o'yin mashqlarining maqsadi boshlovchining (o'yinni olib boruvchining) javobiga tez va aniq so'z topib aytishdir. Bu mashq va o'yin katta guruhlarda o'tkaziladi. Mashqlar qisqa muddatli (5 — 10 daqiqali) bo'lib, nutq o'stirish mashg'ulotining bir qismi sifatida rejalashtiriladi. Dastlabki mashg'ulotda o'yin sekinlashgan sur'atda o'tkaziladi, chunki tarbiyachi bolalar javobini tez-tez to'g'rilashiga to'g'ri keladi, kerakli so'zlarni aytib beradi, tushuntiradi.

Keyinchalik bu mashq o'yin shaklini oladi, bunda endi o'yinchilar xato qilganlari uchun o'yindan chetlashtiriladi, aksincha, yaxshi javoblari uchun rag'batlantiriladi. Bunday o'yinlarda o'yin boshlovchi koptok yoki ro'molchadan foydalanib, o'yin ishtirokchilaridan biriga javob berish uchun uni otadi. O'yin boshlovchi rolini avval tarbiyachi bajaradi, o'yin takroran o'ynalganda esa boshlovchi bolalardan tayinlanadi. Bu mashq va o'yinlar tarbiyachidan uzoq tayyorgarlikni talab qilmaydi, u juda osonlik bilan nutq o'stirish mashg'ulotining tarkibiga kiritiladi. Masalan, „Kim nima qiladi?“ mashqi (fe'llarni faollashtirish uchun)da: *oshpaz — pishiradi, qovuradi, qaynatadi; shifokor — davolaydi, issiq o'lchagich (gradusnik) qo'yadi, tekshiradi* va hokazolar. „Buni kim bajaradi?“ (otlarni tanlash uchun): *mashinani boshqaradi — haydovchi; poyezdlarni boshqaradi — mashinist; ko'chani supuradi — farrosh* kabi. „Buni nima bilan bajaradilar“: *yozadilar — qalam, ruchka bilan; chizadilar — qalam, mo'yqalam, bo'r bilan*. „Aniqlovchini tanla“ mashqida bolalar buyumning belgisini aytadilar. Masalan, *olma pishgan, qip-qizil, dum-dumaloq. Sochiq oppoq, uzun, toza* va boshqalar. „Ikki

buyumni ayt, biri ikkinchisidan balandroq (pastroq, torroq, kaltaroq) bo'lsin“ degan mashq ancha qiyin hisoblanadi. Ayniqsa, bolalar lug'atini kengaytirish va faollashtirish, buyumlarni guruhlashga o'rgatuvchi mashqlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Masalan, *divan, stol, stul — jihoz* (mebel); *palto, kamzul, chopon — kiyim* va hokazo. So'zli o'yinda tarbiyachining tushuntirishi asosiy o'rinni egallaydi. O'yin uchun so'zlarni to'liq tanlash, o'yinni olib boruvchi uchun topshiriq va o'ynovchining so'zi muhim ahamiyat kasb etadi, shuning uchun bu mashq va o'yinlarning ishlanmasini batafsil yozish tavsiya etiladi. Ishlanmada (konspektida) bir qancha muddatli mashg'ulot uchun sekin-astalik bilan murakkablashib boruvchi so'z materiali (bir mashg'ulot uchun 5 — 10 ta so'z) tanlab olishi kerak. Bu tarbiyachiga har ehtimolga qarshi, zaruriyat tug'ilganda ma'lum bo'lgan so'zlarni aytish imkonini beradi (masalan, qiynalgan bolalar uchun). O'yin uchun tanlangan so'zlar ro'yxatini yod olgan ma'qul. Bu kerakli ritmni saqlashga yordam beradi. O'yinda topshiriq birdaniga hamma bolalarga beriladi, so'ngra javob berish uchun bir daqiqali sukut saqlanadi. Bir bola yoki bir necha bola navbatma-navbat javob berish uchun chaqiriladi.

Tarbiyachi bolalar javobini baholash uchun sekin-sekin hamma bolalarni jalb etishni boshlaydi. So'zli o'yinlarni o'tkazish tarbiyachidan bolalarni mashg'ulotga alohida tayyorlashni (tashkil etishni) talab etmaydi. Bolalar doimiy o'tiradigan joylarida o'tirishlari mumkin, tarbiyachi esa bolani ismi bilan yoki ko'z qarashi bilan chaqirishi, keyinchalik esa bolaga koptokni yoki qum to'ldirilgan xaltachani irg'itadi. Agar sharoit to'g'ri kelsa, bolalarni doira shaklida turg'izib, o'yinni tashkil etish mumkin. Tarbiyachi so'zli o'yinlarni bolalarning maishiy faoliyatlariga kiritishi, o'yinni o'tkazishdagi bolalar tashabbusini rag'batlantirishi, vaqt-vaqti bilan kalendar (taqvimiy) ish rejasiga kiritishi, tanish so'zli o'yinlarni mashg'ulotdan so'ng rejalashtirishi, uni sayr vaqtida, zalda, guruh xonasida qulay vaqtlarda o'tkazib turishi kerak. Shunday qilib, yuqorida ko'rib o'tilgan mashg'ulot turida bolalarda so'zlarning xarakterli tomonlarini tushunib olish shakllanadi, ularning fikr yuritishlari rivojlanadi. Bolalarning lug'atini mustahkamlashda va faollashtirishda maxsus mashg'ulotlar — ta'limiy o'yinlar tashkil etiladi.

Topishmoqlarni (jumboqni) topish va o'ylashga o'rgatish mashg'ulotlarida lug'at ishi

Bolalar bog'chasida topishmoqlarni topish va uni o'ylashga o'rgatish mashg'uloti alohida o'rin tutadi. „Topishmoq“ so'zi o'ylash, fikrlash, biron yashirin narsani topishni anglatadi. Bola topishmoqni topishga qiziqishi tufayli turli narsa va hodisalarning ichki sirlarini, ular orasidagi bog'lanishlarni bilib oladi. Topishmoq bolani o'ylashga, o'z fikrini to'liq, aniq bayon qilishga o'rgatadi, uning tasavvurini, tafakkurini, barqaror diqqatini rivojlantiradi. Topishmoq bolalarga yangi bilim beribgina qolmay, balki ular olgan bilimlarni to'g'ri idrok qilishga, uni o'z o'rnida qo'llashga o'rgatadi. Topishmoqlarni topish jarayonida bolalar bir qancha aqliy operatsiyalarni bajarishga, ya'ni tahlil qilishga, umumlashtirishga o'rganadilar. Bu mashg'ulot turi bolalar nutqini o'stirishga katta ta'sir qilib, so'zlarni aniq aytishga, jumalarni to'g'ri tuzishga, barcha lug'at ishi vazifalarini amalga oshirishga yordam beradi. Har bir topishmoq buyumning obrazli tasvirini va uning xarakterli belgilarini o'z ichiga qamrab oladi. Bolalar tomonidan topilishi lozim bo'lgan buyum boshqa buyumni tasvirlash orqali beriladi. Shuning uchun bola topishmoqni topishda buyumning asosiy belgilari, uning xususiyatlarini juda yaxshi bilishi, uni boshqa buyumlar bilan taqqoslashni, undagi umumiylikni (o'xshashlikni) ko'ra bilishi kerak. Shuning uchun topishmoqlarni topish mashg'uloti bolalarni buyumlarning xususiyatlari, sifat va belgilari bilan tanishtirilgach, rejalashtiriladi. Bunday mashg'ulot asosida bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha maqsadli natijalarga erishmoq uchun mashg'ulotni o'tkazishda bir qancha uslubiyot qoidalariga amal qilish kerak. Jumladan:

1. Topishmoqni tanlash. Topishmoqlar mazmuni jihatidan bolalarning yosh va ruhiy xususiyatlariga mos bo'lishi, ya'ni ularga tanish bo'lgan buyumlar (predmetlar) bo'lishi shart. Shakli jihatidan bolalar yoshiga mos bo'lgan ikki turdagi topishmoqlardan foydalaniladi: buyumning (narsaning) nomi aytilmasdan, uning xarakterli belgilari tasvirlanadi (masalan, „Qishda va yozda bir xil kiyimda“); shuningdek, bir buyum yoki narsaning xususiyati ikkinchi bir buyum orqali tasvirlanadi (masalan, „Tikuvchimas, bichuvchimas, ninasi ancha ekan, yoviga sanchar ekan“).

2. Mashg'ulot bolani obrazli tasvirlash orqali aniq bir buyumni va uning xususiyatini ko'ra olishga o'rgatish maqsadida o'tkaziladi.

Bu maqsadni nazarda tutib tashkil etilgan mashg'ulotga. birinchidan, ko'rgazmali materialni olib kirish zaruriy shart qilib qo'yiladi: ikkinchidan, so'z obrazi bilan buyumning aniq, xarakterli xususiyatlari (belgilari) o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni (munosabatni) bilib olishga; uchinchidan, topishmoqning javobini asoslashga o'rgatadi. Topishmoqni topishga bag'ishlangan mashg'ulot ikki qismdan iborat bo'ladi. Mashg'ulotning birinchi qismida topishmoqda tasvirlanadigan belgilar bor buyumlar yaxshilab ko'rib chiqiladi. Buning uchun topishmoqlarda foydalaniladigan elementlardan ko'rib chiqiladigan buyumlarning xarakterli belgilarini tasvirlash paytida foydalaniladi. Mashg'ulotning ikkinchi qismi topishmoqni topishga bag'ishlanadi. Tarbiyachi mashg'ulotning bu qismida boladan topishmoqning javobini qanday topganligini so'raydi. Quyida misol tariqasida keltirilgan mashg'ulot ishlanmasida yuqorida bayon etilgan talablar qanday aks etishini ko'rib o'tamiz. Tarbiyachi „ajoyib xaltacha“ ichiga bolalarga yaxshi tanish bo'lgan 4 — 5 ta buyumni soladi va navbat bilan kelib, xaltacha ichidan biror buyumni olishni, uning nomini aytib, stol ustiga qo'yishni taklif qiladi. Buyum hamma bolalar bilan birgalikda ko'rib chiqiladi.

Tarbiyachi: Sen nimani olding?

Bir bola: Qalamni.

Tarbiyachi: To'g'ri, bu qalam. Uning sirti nimadan qilingan? U qanday rangda?

Bolalar: Sirti yog'ochdan qilingan, rangi qizil.

Tarbiyachi: Siz uning qizil ekanligini qanday bildingiz?

Bir bola: Chunki uning sirti qizil rang bilan bo'yalgan.

Ikkinchi bir bola: Agar uning sirti qizil bo'lsa, o'rtasi ham qizil bo'ladi.

Tarbiyachi: Siz to'g'ri topdingiz. Bizning qalamimizning ko'ylagi qizil rangda. Agar qalam ko'k bo'lsa, uning ko'ylagi qanday rangda bo'lar edi?

Bolalar: Ko'k rangda.

Tarbiyachi: Qalamning qaysi tomoni bilan rasm solish mumkin?

Bir bola: Yo'nilgan tomoni bilan.

Tarbiyachi: U nimaga o'xshaydi?

Bolalar: Qushning burniga o'xshaydi. Xuddi tumshug'iga o'xshash.

Tarbiyachi: To'g'ri. Endi qaranglar, men nima qilaman

(doskadagi varaqqa qalam bilan to'g'ri chiziq chizadi). Qog'ozda qalamning nimasi qoldi?

Bolalar: Chizig'i. Qizil rangdagi chiziq.

Tarbiyachi: To'g'ri, iz qoldi.

So'ngra bir bola xaltacha ichidan taroqni oladi.

Tarbiyachi: Bolalar, o'rtog'ingiz xaltacha ichidan ni-mani oldi?

Bir bola: Taroqni oldi.

Tarbiyachi: Bular taroqning nimalari? (Avval taroqning dastasini, so'ngra tishlarini ko'rsatadi.)

Bolalar: Dastasi. Tishlari.

Tarbiyachi: Taroqning tishlari nima uchun kerak?

Bir bola: Sochni tarash uchun.

Tarbiyachi bolaga sochni qanday tarash kerakligini ko'rsa-tishni taklif etadi.

Tarbiyachi: Qaranglar, taroqning tishlari boshimizda qanday sayr qiladi, sochimizni taraydi.

Shu tariqa do'ppi, kiyim cho'tkasi, o'yinchoq gaz plitasi va o'yinchoq dazmol, kiyim tikish mashinasi ko'rib chiqiladi. Hamma buyumlar stol ustiga shunday qo'yiladiki, u bolalarga yaxshi ko'rinib tursin. So'ngra tarbiyachi topishmoqlar aytadi: „Sirti qizil tayoq, ichi qizil bo'yoq“. Bu nima?

Bir bola. Qalam. (Bolalar javobning to'g'riligini tas-diqlaydilar.)

Tarbiyachi: Buni qalam ekanligini siz qanday bildingiz?

Bir bola: Chunki uning sirti yog'ochdan qilingan, u qizil rangga bo'yalgan, yog'ochning o'rtasida esa qizil rang bo'yog'i bor.

Tarbiyachi: Endi boshqa topishmoqni aytaman. U nima ekanligini toping. „Yonsa tutun chiqmaydi, hech yerga gard yuq-maydi. Bas, murvatini burab, gugurt chaqsang faqat, qaynaydi choy, pishadi ovqat.

Bir bola: Gaz plitasi. (Bolalar javobning to'g'riligini tasdiqlaydilar.)

Tarbiyachi: Buning gaz plitasi ekanligini qanday bildingiz?

Bir bola. Gaz plitasining dastasini burab, gugurt chaqsak, gaz yonadi, gaz yonganda tutun chiqmaydi.

Ikkinchi bola: Topishmoqda „...gugurt chaqsang qaynaydi choy, pishar ovqat“ deyilgan. Gaz plitasiga choynak, qozon qo'ysak, unda yonayotgan gaz choyni qaynatadi, ovqatni pishiradi.

So'ngra tarbiyachi bolalarga dazmol („Hunari ko'p ishlasa, agar tokni tishlasa. Tekislanar har g'ijim, chizikli bo'ladi shim“), kiyim tikish mashinasi („Chevarlarga kerak doim, ishlatishar opam, oyim. Ipni sarflar, chopar „g'iz-g'iz“, yo'llarida qoldirar iz“), taroq („Tishlari tishlamaydi, yemaydi, sochlar ichida sayr qiladi“) va do'ppi haqida („Guli to'rtta yarim oy, boshginamdan olar joy“) topishmoqlar aytadi, bolalar ularning javoblarini topib, uning to'g'riligini asoslab beradilar.

Tarbiyachi mashg'ulotni yakunlashda bolalardan qaysi topishmoq ko'proq yoqqanligini, uni takrorlab berishni so'rab, takrorlashda ularga yordam berib turadi.

Dastlab bunday mashg'ulotlardan 2 — 3 tasi turli mavzular asosida o'tkaziladi, keyingi mashg'ulotlar esa ancha murakkablashtiriladi. Masalan, buyumlar ko'rib chiqilgach, ularning usti yopib qo'yiladi va topishmoqning javobi topilgach (asoslangach), stol ustiga qo'yiladi. So'ngra oldindan buyumlarni ko'rib chiqish tashkil etilmay, to'g'ridan to'g'ri ko'rib turgan buyumlari to'g'risida topishmoq aytiladi.

Agar bolalar biror buyum to'g'risidagi topishmoqni topishda qiynalishsa, buyumni (narsani) ko'rib chiqish tashkil etiladi. Yana topishmoqlarni topish mashg'uloti murakkablasha boradi, ya'ni bolalarga ma'lum bo'lgan buyumni (narsani) ko'rsatmay turib, u haqdagi topishmoqlarni topish taklif etiladi. Ammo hamma mashg'ulot jarayonida topishmoqning javobini asoslab (isbotlab) berish shart. Topishmoq aytishga bolalarning o'zlarini ham jalb etish kerak. Ular o'zlariga ma'lum bo'lgan topishmoqlarni ko'rgazmali qurolsiz aytadilar.

Bolalarni topishmoq o'ylashga o'rgatish bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlar dastlabki vaqtlarda buyumlarni (predmetlarni) tasvirlash mashg'ulotlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Tarbiyachi bolalardan birontasiga biron buyumning nomini aytmasdan, uni tasvirlashni, boshqalarga esa, bu nima ekanligini tasvirlashiga qarab, topishlarini taklif etadi (masalan, o'zi dum-dumaloq, rezinadan qilingan, uning bir tomoni qizil, bir tomoni yashil, u bilan voleybol, basketbol, chir-chir (aylanmachoq) o'yinlarini o'ynash mumkin. Toping-chi, bu nima?) Bunday mashg'ulot dastlab ko'rgazmali tashkil etilib, keyinchalik buyumni ko'rgazmasiz tasvirlash kiritiladi. Bunday mashg'ulotning eng muvaffaqiyatli shakli o'yin tarzida o'tkaziladigan mashg'ulotdir. Masalan, „Do'kon“ ta'limiy o'yinida

„xaridor“ oladigan buyumini tasvirlaydi, „sotuvchi“ esa bu qaysi buyum ekanligini topadi. „Tasvirdan top“ ta’limiy o’yini ham bolalarni narsa-buyumlar to’g’risida topishmoq o’ylab topishga o’rgatadi. Topishmoqlarni topish va o’ylash bo’yicha maxsus mashg’ulotlar oyda bir marta, qolgan vaqtda esa mashg’ulotlarning bir qismi sifatida rejalashtiriladi hamda kundalik hayot jarayonida o’tkaziladigan ta’limiy o’yin va o’yin mashqlariga kiritiladi. Shuningdek, topishmoqlardan (ba’zi mashg’ulotlarning mavzusiga qarab) mashg’ulotni boshlashdan avval hamda mashg’ulotni yakunlash qismida ham foydalaniladi.

5- §. Bolalarning har xil faoliyat turlarida lug‘at ishi

Bolalarni tevarak-atrof va ijtimoiy hayot hodisalari bilan tanishtirish, ularning lug‘atini kengaytirish ta’lim jarayonidagina amalga oshirilmay, balki bolalarning boshqa faoliyat turlarida ham amalga oshiriladi. Bolalarning lug‘atini boyitish va faollashtirishda maishiy faoliyatning (ovqatlanish, kiyinish va hokazolar) imkoniyatlari ko’p.

Masalan, bolalar sayrga chiqish oldidan kiyinish jarayonida ular bilan quyidagi mazmunda so’zlashish mumkin:

- Ahmad, qo’lingdagi nima?
- Qalpoq, — deb javob beradi bola.
- Qalpog’ingning rangi qanday?
- Qalpog’imning rangi ko’k.
- Uni senga kim olib bergan?
- Buvim.

Tarbiyachining bir bola bilan bunday tarzda so’zlashayotganini eshitib turgan boshqa bolalar ham o’zlarining qalpoqlarini ko’zdan kechira boshlaydilar va shunday deydilar:

— Mening qalpog’imning rangi qizil, uni buvim tikib berganlar.

— Mening qalpog’im issiq, u mo’ynadan tikilgan va hokazo.

Tarbiyachi hamma bolalarning javoblarini umumlashtiradi: bolalarning qalpoqlari har xil — qizil, ko’k, mo’ynadan tikilgan. Tarbiyachi yana savol beradi: „Qalpoqlar bir xilmi? Ular nimasi bilan o’xshash? Ular bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?“

Bunday savollar buyumlarning nomini mustahkamlashga, o’xshash va farqli tomonlarini ko’ra olishga va buyumlarni so’zlar bilan ifodalashga yordam beradi. Bolalar bilan kundalik tartib jarayonida bunday muloqotda bo’lish natijasida kerakli so’zlar

bolalarning xotirasida tez mustahkamlanadi, lugʻat boyligiga aylanadi. Shuningdek, bolalarning lugʻatini boyitishda ularning ahamiyati katta boʻladi. Masalan, bolalar yirtilgan kitoblarni yamash (yelimlash) jarayonida (tarbiyachining faol rahbarligida) quyidagi soʻzlarni egallab oladilar: *muqova, varaq, jild, oʻlchash, quritish, nomi, zichlash, ustiga, oʻngdan, pastdan, quyuq* va hokazolar.

Oʻyin — lugʻat ishining eng natijali vositasi

Maktabgacha tarbiya pedagogikasida ishlab chiqilgan nazariya asosida bolalar oʻyiniga rahbarlik qilish bolalar xulqini tarbiyalashda muhim oʻrinni egallaydi. Ana shu oʻyinlarning koʻpchiligidan bolalar nutqini rivojlantirishda ham foydalanish mumkin: jumladan, oʻzaro kelishib olish; rol va majburiyatlarini taqsimlash; oʻzi nimani bilsa, oʻrtogʻini ham shunga oʻrgatish va hokazo. Tarbiyachi bolalar oʻyiniga rahbarlik qilar ekan, ularni bir-birlari bilan samimiy ohangda, muloyim soʻzlashishga oʻrgatadi. Shuning uchun ham tarbiyachi bolalar lugʻatini va bilimini oʻyin jarayonida kengaytirish yoʻllarini oldindan puxta oʻylab qoʻyishi kerak: oʻyinni buyumlar bilan, milliy kiyimlardagi bolalarni tasvirlovchi qoʻgʻirchoqlar bilan tashkil etish, oʻyinga va bolalar nutqiga rahbarlik qilish (tarbiyachining bolalarga oʻqib yoki hikoya qilib berishi, oʻyin toʻgʻrisida savollar va jamoa boʻlib gapirib berish va hokazo). Bolalarning rolli oʻyinlariga, ular nutqiga rahbarlik qilishda qanday usullardan foydalanilsa, boshqa oʻyinlarda ham shu usullardan foydalaniladi. Bolalar lugʻatini boyitish, ularning ijodiy faoliyatlarida tasviriy sanʼat bilan tanishish tasviriy faoliyat mashgʻulotlari jarayonida ham amalga oshiriladi. Masalan, tasviriy faoliyat mashgʻulotlarida bolalar ranglarning nomlarini, ularning farqlarini, materiallarning nomlarini (*yelim, loy, plastilin, boʻyoq* va hokazo), tasviriy faoliyat bilan bogʻliq boʻlgan (*boʻyash, botirish, qirqish, yasash, rasm solish*), materiallarning sifatiga doir (*oq rangli qogʻoz, rangli qalamlar* kabi) maxsus soʻzlarni oʻzlashtirib oladilar. Telekoʻrsatuvlarni, kinofilmlarni tomosha qilish bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi, ular uchun notanish, yangi boʻlgan soʻzlarning tushunarli boʻlishiga yordam beradi. Ayniqsa, dramalashgan oʻyinlar, qoʻgʻirchoq va stol teatrlari, ertaliklarda, turli bayramlarda, bolalar konsertlarida ishtirok etishlari ularning lugʻatlarini faollashtirishga yordam beradi.

Ona tili mashg'ulotlarida nutq ustida ishlash tarbiyachining asosiy vazifasi bo'lib, bu vazifalarni maqsadli amalga oshirishda u bir qancha usul va uslubiyotlardan foydalanadi. Shuningdek, tarbiyachi bolalar bilan oddiy matematik tasavvurlarni tarkib toptirish, jismoniy tarbiya, musiqa va boshqa mashg'ulotlarni tashkil etadi. Bu mashg'ulotlarda bolalar sanashga o'rganadilar, vaqt va uning qismlarini, geometrik shakllarni, narsalarning o'lchamini, oddiy matematik tasavvurlarni bilib oladilar, loy va plastilindan har xil buyumlar yasash, rasm chizish (tasviriy faoliyat mashg'uloti), ashulalar, raqslar (musiqa), gimnastika mashqlari, umumrivojlantiruvchi mashqlarni bajarishga (jismoniy tarbiya) o'rganadilar. Asosiy dastur vazifalari bilan bir qatorda, lug'atni boyitish va faollashtirish vazifasi ham kiritiladi. Masalan, oddiy matematik tasavvurlarini o'stirish mashg'ulotlarida bolalar geometrik shakllarning nomlarini: *uchburchak, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak, oval, doira* va boshqalarni; vaqt tushunchalarini: *ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi, sahar, shom, xufton*; o'lchamlarning nomlarini: *katta, kichik, uzun, qisqa, baland, past* va hokazo; fazoviy tushunchalarni: *pastda, balandda, yonda, orqada, oldinda* va son tushunchalarini bilib oladilar. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida esa harakat nomlarini, masalan, *yurish, o'tish, kelish, ketish, kirish; qadam qo'yish, qadam tashlab o'tish; yugurish, chopish, yugurib borish, sakrab-sakrab o'tish, tirmashib tushish* va hokazolarni bilib oladilar va ularni o'z nutqlarida ishlatishga o'rganadilar. Shunday qilib, bolalar bog'chasida lug'at ishi turli xildagi vositalar yig'indisining bolalarga ta'sir etishi asosida amalga oshiriladi.



Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tomonidan lug'atni egallash xususiyatlarini bayon eting.
2. Bolalar bog'chasida lug'at ishining vazifalari va ularning mazmuni haqida nimalarni bilasiz?
3. „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“da turli yosh guruhlarida lug'at ishining mazmuni nimalardan iborat?
4. Lug'at ishi ustida ishlashning qanday usullarini bilasiz?
5. Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish va lug'atini rivojlantirish bo'yicha qanday mashg'ulot turlari mavjud?
6. Bolalar lug'atini boyitishda kuzatish mashg'uloti va uni tashkil etish uslubiyotlari haqida gapirib bering.

7. Sayohat mashg'ulotida lug'at ishi qanday tashkil etiladi va ushbu mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan pedagogik talablar nimalar-dan iborat?
8. Narsa-buyumlarni ko'rib chiqish va taqqoslash mashg'ulotlarida lug'at ishi va ushbu mashg'ulotni o'tkazish uslubiyotini tu-shuntiring.
9. Suratlarini ko'rib chiqish va u haqda suhbat mashg'ulotida suratlar qanday rol o'ynaydi? Ushbu mashg'ulotni o'tkazish uslubiyotini tushuntiring.
10. Lug'at ishida ta'limiy o'yinlar qanday rol o'ynaydi? Ushbu mash-g'ulot turini o'tkazish tartibini tushuntirib bering.
11. So'zli ta'limiy o'yinlarni o'tkazish uslubiyoti qanday?
12. Bolalar lug'atini boyitish, mustahkamlash va faollashtirishda topishmoqlarni topish va fikrlashga o'rgatuvchi mashg'ulotlarning tutgan o'rni va ularni o'tkazish tartibini yoritib bering.
13. Bolalarning har xil faoliyat turlarida va boshqa mashg'ulotlar jarayonidagi lug'at ishini izohlang.
14. „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ asosida turli yosh guruhlarida tevarak-atrof bilan tanishtirish va ijtimoiy hayot hodisalariga qiziqishni tarbiyalash, lug'atini boyitish, faollashtirish, mustahkamlash bo'yicha ish vazifalarini tahlil qiling.
15. Kichik guruh bolalarining lug'atini aniqlang. Buning uchun amaliyot o'taydigan guruhingizdan 3 ta bolaning lug'at boyligini ertalabki soatda tekshiruvdan o'tkazing. Tekshirish uchun uch guruhdagi buyumlardan (paypoq, golfi; kreslo, stol, kursi; piyola, stakan) navbat bilan bolalarga ko'rsating va ulardan har birining nomini aytishni so'rang. Buning uchun „Bu nima?“ yoki „Bu buyum nima deb ataladi?“ degan savol bering. Bola buyumning nomini aytgach, har bir buyum to'g'risida: „Sen buning ... ekanligini qanday bilding?“ degan savol bering.
16. O'rta, katta, maktabga tayyorlov guruhida amaliyot o'tayotganda bolalar lug'atidagi umumlashtiruvchi so'zlarni aniqlash maqsadida uch guruhdagi buyumlarni (rasmini olish mumkin): transport (avtobus, mashina, samolyot, paroxod, poyezd); sabzavotlar (bodring, turp, pomidor, piyoz, rediska, karam); uy-jihozlari (stol, stul, xontaxta, divan, javon, kreslo) tanlang. Bolalar lug'atidagi „transport“ so'zini aniqlash uchun bir guruh tarkibiga kiradigan transport tasviridan 2 — 3 tasini bolaga ko'rsating (avtobus, mashina, velosiped) va „Nima tasvirlangan?“ deb so'rang, so'ngra „Bu buyumlarni bir so'z bilan qanday aytish mumkin?“ deb so'rang. Xuddi shu tartibda boshqa guruh tarkibiga kiradigan bu-yumlar bo'yicha suhbat o'tkazing. Bularning natijalarini daftarga yozib boring.

17. Ikkinchi kichik va katta guruh bolalari uchun kattalarning mehnatini (masalan, enaganing, oshpazning, hamshiraning va boshqalar) kuzatish mashg'uloti ishlanmasini tuzing va ushbu mashg'ulotni bog'chada o'tkazing hamda uning natijasini mudira, katta pedagog, amaliyot rahbari, guruh tarbiyachisi bilan tahlil qiling, tahlil mazmunini majlis bayoni sifatida izohlang.
18. Bolalarning transport to'g'risidagi tasavvurlarini mustahkamlash maqsadida shahar ko'chasi bo'ylab sayohat uyushtirish uchun mashg'ulot ishlanmasini tuzing. Mashg'ulot ishlanmasini tuzishda sayohat mashg'ulotini o'tkazish tartibiga amal qiling. Bolalar lug'atiga: *uzun, keng, ko'cha, qatorda, chapda, o'ngda, orqada, oldinda* kabi so'zlarni kiritish va mustahkamlashni qanday amalga oshirasiz va bolalarga qanday savollar berasiz? Bularni mashg'ulot ishlanmasida ko'rsating.
19. Maktabga tayyorlov guruhi uchun „Buyumlarni taqqoslash“ mavzusida mashg'ulot ishlanmasini tuzing. Taqqoslash uchun buyumlar tanlang. Mashg'ulot ishlanmasida quyidagilarni ko'rsating:
 - a) dastur mazmuniga asosan, bolalarga qanday bilim berasiz, qaysi bilimlarni aniqlaysiz va mustahkamlaysiz; bolalar lug'ati qaysi so'zlar bilan to'ldiriladi; tarbiyaviy vazifalar;
 - b) taqqoslash uchun buyumlar ro'yxati; d) mashg'ulotning borishi.
20. „Nigora sovuqdan qo'rqmaydi“ degan surat bo'yicha suhbat mashg'uloti ishlanmasini tuzing. Suratni ko'rib chiqish va u haqda suhbat mashg'ulotini o'tkazish tartibiga amal qiling.
21. Kichik va o'rta guruh uchun „Top-chi nima yashirdik?“, „Qara va esda saqla“; katta va maktabga tayyorlov guruhi uchun „Top, nima o'zgardi?“ kabi ta'limiy o'yin mashg'ulotining ishlanmasini tuzing va uning birontasini bog'chada o'tkazing.
22. Uy-ro'zg'or buyumlari haqidagi topishmoqlarni topish bo'yicha mashg'ulot ishlanmasini tuzing va uni bog'chada mashg'ulot sifatida o'tkazing (mudira, katta tarbiyachi, amaliyot rahbari, tarbiyachi hamkorligida), tahlil qiling, tahlil mazmunini majlis bayoni sifatida izohlang.

Turli yosh guruhlari uchun topishmoqlar to'plami albomini tuzing. Buning uchun „Dastur“dan foydalaning.

NUTQNI GRAMMATIK JIHATDAN SHAKLLANTIRISH USLUBIYOTI

1- §. Nutqni grammatik jihatdan shakllantirishning vazifalari va mazmuni

„Grammatika“ termini tilshunoslikda ikki ma'noda ishlatiladi: birinchidan, u tilning grammatik qurilishini belgilaydi ikkinchidan, u fan sifatida tushunilib, so'z shaklining o'zgarishi va ularning gapda moslashuvi to'g'risidagi qoidalarni tushuntirib beradi.

Grammatika tilshunoslikning so'z shaklining o'zgarishi, so'z birikmalarining turlari va gapning tiplarini o'rganuvchi qismi.

Grammatika: 1) so'z birikmalari va gaplarni; 2) so'zlar orasidagi leksik-semantik aloqalarni tekshiradi. Grammatika so'z turkumlari va gap tuzilishini, ya'ni tilning grammatik tuzilishini o'rganadi. Grammatik qurilish esa tilning asoslaridan biri: tilning negizi uning grammatik qurilishi bilan leksikasidir. Grammatika ikki qismdan — morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiya so'zlarning tuzilishi va o'zgarishini, so'zlarning nutqda o'zaro birikishiga xizmat qiladigan struktura o'zgarishlarini, so'zlarning tuzilishi, ularning turkumlarga ajralishi va bundagi qonuniyatlarni o'rganadi. Sintaksis esa so'z birikmasida va gapda so'zlarning birikish yo'llarini, gapning strukturasi, tiplarini, gap bo'laklarini tekshiradi. Bolalar tilning grammatik tuzilishini kattalar bilan muloqotda bo'lish va taqlid qilish asosida asta-sekin o'zlashtirib boradilar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar atrofdagi kishilardan taqlid qilish yo'li bilan turli grammatik shakllardagi so'zlarni o'zlashtirib oladilar va ulardan asta-sekin mustaqil ravishda foydalana boshlaydilar. Biroq nutqning grammatik tuzilishini o'zlashtirish murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda, ya'ni ularning nutq malakalarini takomillashtirishda og'zaki nutqning grammatik qurilishini shakllantirishga alohida ahamiyat beriladi. Maktabda bola har doim o'qituvchining talablari bilan to'qnash keladi, qo'yilgan savollarga mustaqil javob beradi, nimanidir hikoya

qiladi, tushuntiradi, isbotlaydi. Bularning hammasi boladan tilning leksik va grammatik jihatlarini, uning frazeologik boyligini, adabiy til qoidalarini chuqur egallashlarini talab etadi.

Bola maktabda nutqini grammatik jihatdan shakllantirishda grammatika qoidalarini o'rganishga asoslanadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar esa nazariy bilimlarga tayanmay, balki atrofdegilar bilan o'zaro muloqotga asoslanadilar. Bog'cha yoshidagi bolalar grammatik qoidalarni tushunib, yodlarida saqlab qolmaydilar. Ular ot, fe'l, sifat, olmosh, kelishik kabi grammatik kategoriyalarning borligini ham, nima ekanligini ham bilmaydilar. Shuning uchun ular grammatikani og'zaki nutq orqali amaliy ravishda o'zlashtirib boradilar.

Bolalar bog'chasida egallangan grammatik malakalar, boshlang'ich sinfda nutqning grammatik tuzilishini nazariy jihatdan egallashlariga asos bo'lib xizmat qiladi.

Yilning boshida tarbiyachilar bolalar nutqidagi grammatik xatolarni mashg'ulotlarda va mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda aniqlab oladilar. Bu tarbiyachilar uchun bajariladigan ish mazmunini belgilashda yordam beradi.

Nutqni grammatik jihatdan shakllantirish ishlari ikkinchi kichik guruhdan boshlanadi. Ushbu guruhda „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ ning „Nutq o'stirish“ bo'limida nutqni grammatik jihatdan shakllantirish bo'yicha quyidagi ish vazifalari va mazmuni belgilab berilgan. Otlarni kelishik qo'shimchalari bilan to'g'ri turlashga, fe'llarni shaxs-son va zamon qo'shimchalari bilan to'g'ri tushlashga o'rgatish. Buyumlarni va narsahodisalarning nomlarini birlik va ko'plikda ifodalashga o'rgatish, nutqning sintaktik tomonini shakllantirish va takomillashtirish. Bolalarga voqeaning sodir bo'lgan vaqtini, joyini ifodalaydigan so'zlarni, sodda va qo'shma gaplarning tuzilishini o'zlashtirib olishlarida yordam berish, ularni uyushiq bo'lakli gaplar tuzishga o'rgatish.

KATTA VA MAKTABGA TAYYORLOV GURUHIDA NUTQNI GRAMMATIK JIHATDAN SHAKLLANTIRISH

Birinchi yarim yillik. Bolalar nutqini grammatik jihatdan shakllantirishni davom ettirish. Bolalarda o'z nutqi va boshqalar nutqiga nisbatan tanqidiy munosabatni tarbiyalash, ularda to'g'ri jumla tuzish malakalarini mustahkamlash. Ot, sifat, fe'llarning

murakkab grammatik shakllaridan foydalanishni mashq qildirish. Ayrim jonivorlarning, narsalarning, uy-ro'zg'or buyumlarining, turli kasb egalarining nomlarini aniq aytishga o'rgatish. Bolalar nutqida uyushiq bo'lakli, yoyiq va qo'shma gaplarning turli xillaridan (bog'langan qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap) foydalanish malakasini mustahkamlash. Masalan: *Lola keldi va biz o'ynadik. Yomg'ir yog'di, shuning uchun biz ekskursiyaga bora olmadik.* Bunda ko'makchi va bog'lovchi so'zlardan foydalanishga o'rgatish. Bolalarni ravishdan foydalanishga o'rgatish (*tez yurdi, sekin gapirdi*); so'z yasash malakalarini mustahkamlash (*o'qit — o'qituvchi, baliq — baliqchi* va boshqalar). Bir fikrni turli so'zlardan foydalanib bayon qilishga o'rgatish: *Ra'no kasal. Ra'no betob. Ra'noning boshi og'riyapti. Ra'noning tobi yo'q.* Bolalarni bir fikrni turli usulda ifodalashga o'rgatish. Masalan: *Biz sayohatga bormaymiz, chunki yomg'ir yog'a boshladi. Yomg'ir yog'a boshlagani uchun, biz sayohatga bormadik.* Bolalar nutqini grammatik jihatdan shakllantirishning eng qulay va samarali usuli, bu—og'zaki mashq va o'yinlardan foydalanish. Masalan: „Ayt-chi, qanday?“ og'zaki o'yini; „Qor qanday? — Oppoq, muzday, sovuq, mayda; Gul qanday? — Chiroyli, qizil, xushbo'y“ va h. k.

Ikkinchi yarim yillikda sodda va qo'shma gaplar tuzishga (avval namuna asosida, keyin mustaqil), so'z turkumlaridan foydalanishga o'rgatish.

Bolalarda sonni otga (*beshta nok, ettita olma*), sifatni otga (*chiroyli ko'ylak, qizil olma*), sifatni fe'lga (*yoqimli kuyladi, chiroyli yozdi*) bog'lab, so'z birikmalari hosil qilish, hayvonlarning bolalari nomini bildiruvchi otlarni ko'plikda (*toychoqlar, qo'zi-choqlar, buzoqchalar*) to'g'ri ishlatish malakalarini takomillash-tirish. Bolalarni turli usullar bilan yangi so'zlar yasashga (*gul—guldon, gulzor, gulchi, gulli; suv—suvli, suvchi* va boshqalar), nutqda sifatdoshlardan (*o'ynayotgan bola*) foydalanishga o'rgatish.

2- §. Bolalar nutqida uchraydigan morfologik va sintaktik xatolar va ularning sabablari

Bolalar nutqning grammatik tuzilishini oila a'zolarining, bog'chada tarbiyachining, atrofni qurshab olgan kattalarning nutqlariga taqlid qilish orqali mustaqil ravishda o'zlashtiradilar. Uch yoshli bola o'z nutqida kelishik, shaxs-son va boshqa grammatik kategoriyalardan foydalanib, sodda va murakkab

jumlalar tuzadi. Jismlarning fazoviy munosabatlarini, ba'zi bir ravishlarni bilib ishlatadigan bo'ladi, ish-harakatning nomini bildiruvchi fe'llarni ham to'g'ri ishlata boshlaydi. Bu yoshda bolaning lug'ati juda tez o'sa boradi, nutqidagi so'zlar soni 1300 — 1500 taga yetadi, endi uning nutqi juda tez rivojlanadi, mazmunan boyiydi, lug'ati kengayadi, nutqi grammatik jihatdan shakllanadi. Ular so'z turkumlaridan otlarni tez o'zlashtiradilar, chunki bolalar narsalarning nomlarini (otlarini) o'z nutqlarida ko'proq ishlatadilar, ular so'z boyligining asosiy qismi otlardan iborat bo'ladi. Biroq bu yoshda nutqning grammatik shakllarini egalashda bir qancha qiyinchiliklarga duch keladilar, ya'ni ular nutqida quyidagi grammatik xatolar uchraydi:

1. Kelishik qo'shimchalarini buzib aytadilar, so'zlarni turlashda qiynaladilar.

2. Sonlarni noto'g'ri ishlatadilar.

3. Fe'l shakllarini ishlatishda qiynaladilar, fe'l zamonlarini (hozirgi, o'tgan va kelasi zamonni) darhol to'g'ri o'zlashtira olmaydilar, ularda o'tgan va kelasi zamon tushunchalari hali shakllanmagan bo'ladi. Shuning uchun o'z nutqlarida fe'llarning zamon qo'shimchalarini almashtirib yuboradilar.

4. Old qo'shimcha va old ko'makchini bir-biriga aralashtirib yuboradilar. 5 — 6 yoshli bolalar nutqi grammatik jihatdan ancha to'g'ri shakllangan bo'ladi. Ular otlarni birlik va ko'plikda, turli kelishiklarda to'g'ri ishlata oladigan bo'ladilar. Katta guruh bolalarida boshqalar nutqidagi kamchiliklarni payqash ham yuzaga keladi. Shuning uchun ular o'zlaridan kichik bolalar nutqlarida grammatik xatolarga yo'l qo'yanlarida, ularning kamchiliklarini tuzatadilar. O'rta va katta guruh bolalari fe'llarning tuslanishi va fe'l zamonlarini amaliy tarzda o'zlashtirib oladilar. Biroq bu yoshdagi bola nutqida grammatik xatolar sezilarli darajada ortib boradi. Buning sababi shundaki, bola yangi so'zlarni o'zlashtirish jarayonida uni yangi grammatik shaklda eslab qololmaydi, yoyiq gapdan foydalangan vaqtda uning mazmuni va shaklini tekshirib ulgura olmaydi.

5 — 6 yoshli bolalar 12 — 15 ta so'zdan iborat jumlar tuza oladilar, biroq ular nutqidagi sintaktik xatolarning miqdori, kichik guruhdagi bolalar nutqidagi xatolarga qaraganda ancha ko'p bo'ladi. Buning sababi shundaki, bola fikrni bayon etish jarayonida bir vaqtning o'zida uning ham shakli, ham mazmuniga e'tibor bera olmaydi. Bolalar nutqidagi morfologik va sintaktik xatolar bir

vaqtda yuzaga keladi. Biroq sintaktik xatolar morfologik xatolarga qaraganda uzoq saqlanadi, hatto bu kamchilik bolani maktabga o'tish davrigacha davom etadi. Bola nutqidagi shu xususiyatlarni hisobga olib, quyidagi vazifalarni amalga oshirishni belgilab qo'yish mumkin: gapning to'g'ri tuzilishini nazorat qilish; ikkinchi darajali va uyushiq bo'lakli gaplarni tuzishga va undan o'z nutqlarida foydalanishga yordam berish.

Yuqorida bayon etilgan bog'cha yoshidagi bolalar nutqidagi grammatik xatolarning sabablarini quyidagilardan ko'rsatish mumkin:

1) bolalar ona tilining morfologik qurilishini hali yaxshi o'zlashtirmaganliklaridan; 2) tarbiyachilar va kattalarning noto'g'ri nutqlari ta'sirida; 3) pedagogik ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligidan, ya'ni kattalar bola nutqidagi xatolarga e'tibor bermay, xatolarni o'z vaqtida tuzatmasliklaridan; 4) mahalliy (sheva) so'zlarning ta'sirida.

Tarbiyachi har bir mashg'ulotda, mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda o'z guruhidagi bolalarning nutqini ta'lim-tarbiya jarayonida o'rganishi, nutqiy xatolarni to'g'rilab borishi shart.

Bir guruhdagi bolalar nutqini o'rganish natijalari asosida shunday xulosa qilindiki, bolalar nutqidagi grammatik xatolar har xil bo'lishi mumkin ekan. Bu quyidagi sabablarga bog'liqligi aniqlandi:

1. Bolaning umumiy ruhiy-fiziologik rivojlanish qonuniyatlariga, ya'ni bola nutqidagi grammatik xatolar uning jismoniy holatiga, diqqatining, tafakkurining rivojlanganlik darajasiga.

2. Bolaning o'zlashtirish darajasi va lug'atiga, nutq apparati va eshitish a'zosining holatiga.

3- §. Bolalar nutqidagi grammatik xatolarni tuzatish yo'llari

Grammatik jihatdan to'g'ri nutqni shakllantirishning asosiy vositalaridan biri bu — maxsus tashkil etiladigan mashg'ulotlar hisoblanadi. Tarbiyachi har bir mashg'ulot turida bolalar nutqidagi grammatik xatolarni tuzatishi kerak. Biroq maxsus tashkil etiladigan mashg'ulotlarda bola nutqidagi u yoki bu salbiy jihatlarni ogohlantirish bo'yicha ish olib boriladi, bola nutqida paydo bo'lgan grammatik xatolarni tez va maqsadga muvofiq tarzda bartaraf etish uchun maxsus usul va uslubiyotlardan foydalaniladi. Bola nutqidagi grammatik xatolarni bartaraf etish bo'yicha

tashkil etiladigan maxsus mashg'ulotlar oyda bir marta, qolgan vaqtlarda esa nutq o'stirish mashg'ulotining qo'shimcha qismi sifatida rejalashtiriladi. Maxsus tashkil etiladigan mashg'ulotlarda bolaning diqqati faqat kerakli grammatik shakllarga jalb qilinadi. So'z, uning shakl jihatdan o'zgarishi, so'z birikmasi yoki gaplar ular aqliy faoliyatining mazmuni bo'lib qoladi. Bunday mashg'ulotlarni izchillik va ketma-ketlik bilan olib borish natijasida bolalar qanday gapirish kerakligini anglaydilar, savodli, chiroyli gapirishga harakat qiladilar. Qulay ishchanlik ruhida tashkil etiladigan mashg'ulotlar bola diqqatini chalg'ib ketishining oldini oladi, ular tarbiyachining tushuntirishlarini, ko'rsatmalarini diqqat bilan tinglaydilar, o'rtoqlarining nutqini kuzatadilar. Mashg'ulotda nutq namunasini oladilar va o'z nutqlarida undan foydalanadilar. Ko'pgina bolalar o'z o'rtoqlarining xatolarini tuzatishda tarbiyachining eng yaqin yordamchisiga aylanib qoladilar.

Bolalar nutqidagi grammatik xatolarni ogohlantirish, tuzatish maqsadida tashkil etiladigan maxsus mashg'ulotlarga rahbarlik qilishda quyidagi umumiy uslubiy (metodik) ko'rsatmalarga amal qilish kerak:

1. Ma'lum bir guruhda tashkil etiladigan mashg'ulot mazmunini uzoq muddatga mo'ljallab tanlash kerak. Mashg'ulot uchun bolalarning o'zlashtirishlari, ishlatilishi qiyin bo'lgan grammatik kategoriyalarnigina tanlash kerak. Bolalarning o'zlari oson o'zlashtirgan bironta grammatik formani (shaklni) qayta o'rgatish maqsadga muvofiq emas. Tarbiyachi yilning boshida bolalar qanday grammatik shakllarni qo'llashda qiynalishlarini, xatoga yo'l qo'yishlarini aniqlab olishi kerak. Buning uchun bola nutqini kuzatadi, alohida bolalar uchun suratli kartochkalar yordamida savol-topshiriqlar beradi. Ba'zida hamma bolalar nutqining holatini tekshiruvchi mashg'ulotdan foydalanish mumkin. Bunday mashg'ulotda bolalar tomonidan ishlatiladigan bir nechta grammatik shakllarning to'g'riligini tekshirish mumkin. Katta va maktabga tayyorlov guruhida bolalar nutqidagi grammatik shakllarni qanday ishlatishlarini tekshirish uchun quyidagi topshiriqlarni taklif etish kerak:

1. O. I. Solovyovaning „To'g'ri gapir“ albomidagi suratlarni ko'rib chiqish va „Bu kim? Ular qancha?“ (jo'jalar, tulkilar, qo'ziqorinlar) degan savollarga javob berish.

2. Suratlar bilan „Nima yo'qoldi“ o'yinini o'ynash.

3. Suratlar (rasmlar) bilan „Gapni oxiriga yetkaz“ mashqini bajarish: Javonda palto... (osilgan); Ilmoqda ko'p... (sochiqlar osilgan).

4. „Gapni tugalla“ so'zli mashqini o'ynash: Lenta uzun, chilvir esa undan... (uzunroq); Pecheniy shirin, asal esa undan...(shirinroq); Bir qiz kuylashni xohlaydi, hamma qizlar kuylashni(xohlashadi).

5. Suratlarini ko'rib chiqish va savollarga javob berish: Qizcha nima chalyapti? (dutor); Ona qozonda nima pishiryapti? (ovqat); Bu bolalar nima qilishyapti? (yugurishyapti) Bu bola-chi? (yuguryapti).

6. Ayiqcha o'yinchog'i bilan „Topshiriq ber“ o'yinini o'ynash: Ayiqchadan choyshabni yig'ishtirishni so'ra (Ayiqvoy, choyshabni yig'ishtirgin.) Ayiq nima qilyapti? (Yig'ishtiryapti.) Ayiq nima qildi? (Yig'ishtirdi.) Ayiqqa yotishni aytamiz. (Ayiqvoy, yot!) Ayiqdan egilishini so'raymiz. (Ayiqvoy, pastroq, yana pastroq egilgin!) Ayiq nima qilyapti? (Egilyapti) va hokazolar. Tekshirish mashg'ulotlari 10 — 20 daqiqa davom etadi. Bunday mashg'ulotlarni yil davomida bir necha marta o'tkazish mumkin. Har bir tekshirishga bag'ishlangan mashg'ulot uchun tanlangan mavzu har xil bo'lishi kerak. Agar aniqlangan xatolar xususiy (individual) xarakterga ega bo'lsa, tarbiyachi uning sabablarini aniqlaydi, bola nutqidagi xatolarni to'g'rilashga ota-onalarni jalb qiladi, uning har kungi nutqini kuzatib (nazorat qilib) boradi. To'g'ri nutq namunasiga diqqatini jalb qiladi. Agar ko'pchilik bolalar nutqida grammatik xatolar aniqlansa, u vaqtda xatolarni tuzatish uchun maxsus mashg'ulotlar tashkil etiladi.

Mashg'ulot uchun dastur materiallarini tanlash. Mashg'ulot uchun faqat birgina vazifa tanlanadi. Masalan, fe'lning 3 shaxs ko'plik shaklini mustahkamlash uchun *xohlamoq* so'zini to'g'ri grammatik shaklda ishlatishga o'rgatish; otlarni kelishiklarda to'g'ri turlashga o'rgatish va hokazolar.

Mashg'ulotda materialni takrorlash. Bolalar grammatik shakllarni doimo to'g'ri ishlatishlari uchun dinamik stereotipni hosil qildirish kerak. Buning uchun eshitgan so'zini kerakli grammatik shaklda ko'p marta takrorlash zarur. Takrorlash esdan chiqarganlarini esga tushirish maqsadida emas, balki esdan chiqarishning oldini olish uchun zarurdir, chunki esdan chiqarganni qayta tiklash uchun juda ko'p vaqt sarf etiladi. Grammatik jihatdan to'g'ri shakllangan nutq malakasini hosil

qilishning sharti—bu takrorlashdir. Biror mavzu mazmunini to bola nutqidagi grammatik xato turi bartaraf etilmaguncha takrorlash zarur. 2 — 3 ta grammatik shakl ustida ishlash bo'yicha mashg'ulot bir oy davom etishi mumkin, grammatikaning turli shakllari bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlar esa navbatlashtiriladi. Ba'zida otlarning ko'plik shaklini o'rgatish uchun uchta mashg'ulot rejalashtirilib, shu uchta mashg'ulotda bitta nomdagi „Nima yo'q“ o'yinini o'tkazish mumkin.

Mashg'ulotning xarakteri. Grammatik jihatdan to'g'ri nutqni shakllantirish bo'yicha mashg'ulotlar ko'rgazmali materiallar yoki ko'rgazmasiz o'tkaziladigan ta'limiy o'yin xarakteriga ega. Mashg'ulotda foydalaniladigan ko'rgazmali materiallar: tabiiy buyumlar (predmetlar), sabzavotlar, mevalar, kiyim-kechaklar, o'yinchoqlar, ularning suratlari. Mashg'ulot erkin, jonli o'tkazilishi kerak, tarbiyachi tushuntirish vaqtida grammatik atamalarni ishlatmasligi lozim. Kichik guruhlardagi mashg'ulot jarayonida va takrorlashda o'yin personajlaridan foydalanish mumkin. Grammatik jihatdan to'g'ri nutqni shakllantirish bo'yicha mashg'ulotlar uzoq davom etmasligi talab etiladi, chunki o'rganiladigan material ancha murakkabdir. O'yin va mashqlar 5 — 10 daqiqa davom etishi va mashg'ulotning bir qismi sifatida rejalashtirilishi kerak. Bunday mashg'ulotlarda o'rgatish usullari quyidagilar: namuna, tushuntirish, takrorlash; tarbiyachi yordamchi usul sifatida nutqi to'g'ri bolani misol qilib ko'rsatishdan foydalanishi mumkin. Agar bola nutqidagi xato mustahkam o'rnashgan bo'lsa va bola to'g'ri nutqni o'zlashtirolmasa, bog'langan nutqni ishlatib, so'ng takrorlash foydalidir. To'g'ri nutq ustida ishlashda taqqoslash usuli asosiy o'rin egallaydi (sifat yasovchi qo'shimchalar, ot yasovchi qo'shimchalar va hokazolar). Shuningdek, tuzatish va aytib turish usulidan keng foydalaniladi.

Morfologiya bo'yicha o'yin va mashqlar. Har bir guruh uchun dastur mazmuniga mos ta'limiy o'yinlar, mashqlar tanlanadi. Bolalarni otlarni ko'plikda to'g'ri ishlatishga o'rgatish uchun barcha guruhlarda „Nima (kim) yo'q?“ ta'limiy (didaktik) o'yinidan foydalanish mumkin. Bu o'yin uchun bir necha guruh buyumlar (predmetlar) tanlanadi. Har bir guruhdagi bir xil nomdagi buyumlar soni bittadan ko'p bo'lishi kerak, masalan: ikkita o'rdakcha, ikkita bayroqcha, ikkita koptok va hokazolar. Bu o'yindan asosiy maqsad bolalarni so'zlarni to'g'ri grammatik shaklda ishlatishga o'rgatishdan iboratdir. Shuning uchun tanlan-

gan buyumlarning soni uncha ko'p bo'lmasligi kerak. aks holda bolalar diqqati so'zlarni to'g'ri ishlatishga qaratilmay, balki buyumlarning nomini esda saqlashga qaratiladi. Shuning uchun kichik guruhlarda o'yin uchun 2—3 guruh buyumlar, katta guruhlarda esa 3—4 guruh buyumlar olinadi. Buyumlar (yoki suratlar) bitta o'yin jarayonida bolalar oldiga turli holatlarda qo'yilib, 1—2 marta ularning o'rni almashtiriladi. Kichik guruhda quyidagi predmetlarni tanlash mumkin: koptoklar, bayroqlar, qo'ziqorinlar, piramidalar; noklar, olmalar, pomidorlar va hokazo.

Katta guruhlar uchun murakkabroq so'zlar (predmetlar) tanlanadi: etiklar, botinkalar, maxsilar, shippaklar. O'yin uchun oldindan to'siq tayyorlanadi va uning orqasida turib buyumlar o'rni almashtiriladi. O'yinning birinchi qismida bolalar tarbiyachi bilan birgalikda o'yin uchun tayyorlab qo'yilgan buyumlarni ko'rib chiqib, ularning nomlarini aniqlashtiradilar, o'yin qoidasi bilan tanishadilar (xontaxta yoki stol ustida turgan narsalarni eslab qolish, nima yo'qligini topish). Tarbiyachining o'zi to'g'ri javob namunasini beradi. Agar bolalar otlarni ko'plikda ishlatishda qiynalsalar, bu o'yinni takrorlash mumkin. Kichik guruhda sonlarni to'g'ri ishlatishga o'rgatish uchun „Do'kon“ o'yini o'tkaziladi. Bolalar do'kondan narsa sotib olayotganda ularning sonini: *bitta olma, ko'p qovunlar* va hokazo aytishga o'rgatiladi.

Kichik guruhda otlarni birlikda va ko'plikda to'g'ri ishlatishga o'rgatish uchun „Kimning dumi?“, „Buyumni egasiga qaytar“, „Daraxtning nomini bargiga qarab top“ va boshqa ta'limiy o'yinlar o'tkaziladi. Shuningdek, „Kim kimni quvib o'tdi?“, „Chelakda nima bor?“, „Suratlarni terib qo'y“ kabi ta'limiy mashqlar tashkil etiladi. Nutqning sintaktik tomoni ustida ishlashda „Gap tuz“ ta'limiy mashqi uchun hayvonlarni, meva va sabzavotlarni, qushlarni tasvirlovchi suratlar tarqatib chiqiladi. Mashqning boshida „Suratda nima tasvirlangan?“ degan savolga javob beradilar. So'ngra tarbiyachi gapning birinchi so'zini aytadi: „O'rmonda ... (hayvonlar yashaydi)“. Qo'llarida hayvonlar surati bor bolalar gapni davom ettiradilar.

Kichik guruhda fe'l shakllarini to'g'ri ishlatishni nutqda mustahkamlash maqsadida qo'g'irchoqlar bilan o'yin mashqlari o'tkaziladi. Bola tarbiyachining savol namunasi bo'yicha mehmon qo'g'irchoqlarga murojaat qiladi: „Barno va Nasiba, sizlar raqsga tushishni xohlaysizlarmi? Sizlar o'qishni xohlaysizlarmi? Sizlar bizning she'rlarimizni eshitishni xohlaysizlarmi?“ va hokazolar.

O'rta guruhda bolalarning nutqini grammatik tomondan to'g'ri shakllantirishga yordam beruvchi bir qancha ta'limiy o'yin va mashqlar rejalashtiriladi. Otlarda kelishik, ko'plik qo'shimchalarini qo'llashga o'rgatish uchun: „Qizcha nima boqyapti?“ (tovuq—tovuqlarni, g'oz—g'ozlarni, o'rdak—o'rdaklarni, jo'ja—jo'jalarni va hokazolar), „Nima yo'q?“ o'yinlaridan foydalaniladi.

Oldida, yonida, ustida, o'rtasida (oralig'ida), tagida so'zlari bilan tanishtirish uchun „Nima o'zgardi?“ o'yini tashkil etiladi. Bu o'yinda tarbiyachi bolalardan „Ilgari buyum qayerda edi, endi u qayerda?“ deb so'raydi. Bolalardan ushbu savolga to'liq javob berish talab etiladi: „Koptok kursi yonida edi, endi u stol tagida turibdi“.

Umumlashtiruvchi so'zlarni ishlatishga o'rgatish uchun „Gap tuz“ ta'limiy mashqi o'tkaziladi. Bu o'yin kichik guruhda o'tkaziladigan xuddi shu o'yindan mazmunan murakkabligi bilan farq qiladi. Masalan: —*Bog'da turli mevalar: olma, o'rik, nok, shaftoli pishdi. Hayvonot bog'ida yovvoyi hayvonlar: tulki, ayiq, bo'ri bor.*

O'rta guruh bolalariga qarama-qarshi ma'noli so'zlar (antonimlar) ishtirokida murakkab gaplar tuzish taklif etiladi. Masalan: *Qishda kunlar sovuq, yozda esa issiq bo'ladi.*

Ushbu guruhda o'tkaziladigan „Do'kon“ ta'limiy o'yiniga qo'shimcha qoidalar kiritiladi: do'konga bitta „xaridor“ emas, bir vaqtda ikkita „xaridor“ keladi. Ular sotuvchiga to'g'ri murojaat qilishlari kerak: „Biz xarid qilishni xohlaymiz“. Sotuvchi rolini ijro etayotgan bola xaridorlarga: „Sizlar nima xarid qilmoqchisizlar?“ deb murojaat etadi. Buyruq fe'lini to'g'ri ishlatishga o'rgatish uchun „Ayiq, bajar!“ degan ta'limiy o'yin ishlab chiqilgan. Bolalar oldiga ayiq mehmonga keladi. Tarbiyachi shunday deydi: „Bu ayiq oddiy ayiq emas, u iltimoslarni bajara oladi, faqat undan to'g'ri so'rash kerak. Hozir ayiqdan yotishini so'raymiz: „Ayiq, yot!“ Tarbiyachi o'yin harakatlarini bajarib ko'rsatadi, ayiqni karavotga yotqizadi. „Aqlli ayiq!“ (uni turg'izadi). Yana bir marta yotishini so'raymiz. Kim iltimos qilmoqchi? Agar bola xato qilsa, ayiq yotmay, tik turaveradi, iltimosni bajarmaydi. Bunday holda tarbiyachi bolalarga savol bilan murojaat qiladi: „Siz nima deb o'ylaysiz, nima uchun ayiq yotmasdan, tik turibdi, balki u sizning iltimosingizni eshitmayotgandir? Yoki siz undan noto'g'ri iltimos qilgandirsiz? Yana bir marta eshitinglar, Nasiba ayiqdan qanday iltimos qiladi? Ayiqdan to'g'ri iltimos

qilsangiz, u sizning iltimosingizni bajaradi va yotadi“. Bu o‘rinda turli fe‘l shakllarini to‘g‘ri ishlatish bo‘yicha mashq qilish mumkin: *chiz, qo‘y, qidir* va hokazolar. Katta va maktabga tayyorlov guruhida otlarni sonlar bilan moslashtirishga o‘rgatish uchun „Uch chizg‘ich“ ta‘limiy o‘yini (O. I. Solovyovanning „Говорим правильно“ albomi); „Rasmlar“, „Kim suratini ko‘rsatadi?“, „Loto“ va boshqa o‘yinlar o‘ynaladi. Ushbu guruhlarda jismlarning fazodagi o‘rnini idrok qilishni shakllantirish maqsadida „Gap tuz“, „Nima o‘zgardi?“ ta‘limiy o‘yinlari o‘tkaziladi.

Bolalarni bog‘langan qo‘shma gaplar qurilishi bilan tanishtirish maqsadida quyidagi savollar tanlanadi va shu asosda gap tuzishga o‘rgatiladi:

— Nima uchun g‘ildirak yumalaydi? — Chunki u dumaloq.

— Nima uchun kapalak uchadi? — Chunki uning qanotlari bor.

Mashg‘ulot oxirida bolalardan gapni to‘liq aytish talab etiladi.

— Nima uchun kishilar soyabon olib yurishadi?

— Kishilar yomg‘ir yog‘anda ho‘l bo‘lmaslik uchun soyabon (zont) olib yurishadi.

— Nima uchun qushlar uchib ketishadi?

— Qishda don-dun topish qiyin bo‘lganligi uchun qushlar issiq o‘lkalarga (tomonlarga) uchib ketishadi.

Shuningdek, katta va maktabga tayyorlov guruhlarida ergashgan qo‘shma gaplar tuzishga o‘rgatish maqsadida „Xatosi qayerda?“ ta‘limiy mashqi uyushtiriladi. Bu mashqda tarbiyachi ikkita ergashgan qo‘shma gap aytadi: birinchi gap mazmunan to‘g‘ri tuzilib, ikkinchi gap esa aksincha, mazmuni buzilib beriladi. Bolalar qaysi gap to‘g‘ri tuzilganligini o‘ylab, so‘ng javob beradilar. Masalan:

— Qarg‘alar uchib kelishdi, chunki bahor fasli boshlandi.

— Bahor fasli boshlandi, chunki qaldirg‘ochlar uchib kelishdi.

Bolalarni murakkab gap tuzishga o‘rgatishda „Telefon“ o‘yini katta yordam beradi. Bu o‘yin qoidasiga asosan, har bir boladan murakkab gap tuzish talab etiladi. Bu o‘yin ancha murakkab bo‘lib, hamma bolalar ham gap tuzish uchun kerakli so‘zlarni darrov tanlay olmaydilar.

Biz quyida ayrim ta‘limiy o‘yinlarning ishlanmasini misol tariqasida keltiramiz.

O‘yin nomi: „Surat bo‘yicha gap tuz“.

O'yinning maqsadi. Bolalarda nutqning grammatik qurilishini, tafakkurni rivojlantirish. Predmetlar, narsa-buyumlar va hodisalar o'rtasidagi mavjud bog'lanishlarni aniqlashga, ularni o'z nutqlarini grammatik shakllar yordamida ifodalashga o'rgatish.

O'yinning materiali. Kishilar, hayvonlar, tabiat hodisalari va boshqalarni aks ettiruvchi predmetli suratlar.

O'yinning borishi. Tarbiyachi bolalarga bir qancha suratlarni ko'rsatadi. Bolalar 10 ga yaqin ko'rsatilgan suratlardan kamida ikkita-uchtasidan foydalanib, oddiy va murakkab gaplar tuzishlari lozim. Masalan, tarbiyachi o't, kurtak chiqarayotgan daraxt, bog', barg, qushlar ini, bolalar, qaldirg'och, buta, quyosh va hokazolarning tasviri tushirilgan suratlarni tanlaydi. Bolalar shu suratlar asosida gap tuza boshlaydilar: „Daraxt kurtaklaridan yosh barglar chiqqa boshladi, chunki ularni quyosh isitdi“; „Quyosh nurlaridan maysalar usti yaltiraydi“; „Bahorda qaldirg'och in qurdi“, „Bahor keldi, daraxtlar kurtak chiqarib, barg yoza boshladi“, „Bahor keldi, kunlar isidi, daraxtlar gulladi“. So'ngra tarbiyachi faol qatnashgan bolalarni rag'batlantiradi.

O'yinning nomi: „Kim bilsa, davomini aytsin.“

O'yinning maqsadi. Bolalarni oddiy yoyiq gaplar tuzishga o'rgatish, to'g'ri so'z tanlash ustida mashq qilish.

O'yinning borishi. Tarbiyachi bolalardan birontasiga istagan bir so'zni aytishni taklif etadi. Uning yonida o'tirgan bola esa o'rtog'i aytgan so'z ma'nosiga mos shunday so'z tanlashi kerakki, undan gap hosil bo'lsin, shu tariqa uchinchi, to'rtinchi, beshinchi bola hosil bo'lgan gapni kengaytiruvchi so'zlarni aytadi. Shu tariqa bir-biriga bog'langan, ma'lum bir mazmunga ega bo'lgan gap tuzdiriladi. Masalan: birinchi bola „*tong*“ so'zini aytadi, ikkinchisi „*otdi*“ so'zini aytib, gap hosil qiladi — „Tong otdi“; uchinchisi „Tong otdi, quyosh chiqdi“, to'rtinchisi „Tong otdi, quyosh chiqdi va nur sochdi“, beshinchi „Tong otdi, quyosh nurini sochdi, hamma uyg'ondi“. So'ngra bolalar tomonidan aytilgan boshqa so'zlar yordamida gaplar tuzdiriladi. O'yinda faol qatnashgan bolalar tarbiyachi tomonidan rag'batlantiriladi.

O'yinning nomi: „Gapni to'ldir“.

O'yinning maqsadi. Bolalarni ergashgan qo'shma gaplar tuzishga o'rgatish ustida mashq qildirish.

O'yinning borishi. Tarbiyachi gapning bosh qismini aytadi, bolalar esa uni to'ldirib, ergashgan qo'shma gap tuzadilar.

Tarbiyachi grammatik materialni oldindan tanlaydi, masalan: „Biz gullarga suv quyamiz, chunki...(ularning o'sishi uchun namlik kerak)“.

4- §. Bolalarning kundalik nutqidagi grammatik xatolarni tuzatish uslubi

Bolalar nutqini grammatik jihatdan shakllantirish doimiy, uzluksiz jarayondir. Bolalar nutqining holatini faqat mashg'ulotlardagina kuzatib bormasdan, balki ularning kundalik hayot jarayonida ham kuzatib borish kerak.

O'z vaqtida tuzatilmagan grammatik xato bola nutqida mustahkamlanib, uni tinglayotgan boshqa bolalar nutqida ham grammatik xatolarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Maxsus mashg'ulotdan tashqari ish bolalar nutqidagi grammatik xatolarni bartaraf etishga qaratilishi kerak.

Bola nutqidagi xatolarni do'stona, xushmuomalalik bilan tuzatish kerak. Hech vaqt bola nutqidagi xatoni takrorlash yaramaydi, yaxshisi grammatik shakli to'g'ri bo'lgan so'zni, gapni oddiy matematik tasavvurlarni rivojlantirish mashg'ulotlarida, ta'limiy o'yinlarda takrorlash joizdir, tarbiyachi barcha mashg'ulotlarda bola nutqini kuzatib borishi va grammatik xatolarini tuzatishi shart, ayniqsa, oddiy matematik tasavvurlarni rivojlantirish mashg'uloti bolalardan aniq nutqni talab etadi. Bolalar bu mashg'ulotda predmetlarni (narsa-buyumlarni) sanaydilar va harakatlarini so'z bilan ifodalaydilar. Shuning uchun tarbiyachi bolalarning sonlarni to'g'ri o'zlashtirishlarini kuzatib borishi kerak. Masalan, beshta sabziga ikkita sabzini qo'shamiz va hokazo.

Bola nutqidagi grammatik xatolarni mashg'ulot jarayonida etarli ovoz tonida, boshqa bolalarga eshitarli qilib to'g'rilash kerak. Ba'zi hollarda aytib turishdan, ayniqsa, katta guruhda qayd qilishdan: „Sen yana noto'g'ri aytding!“; esga tushiruvchi savoldan: „Sen „termometr“ so'zini qanday aytishni esdan chiqaribsan yoki imo-ishoradan foydalanadi.



Takrorlash uchun savollar

1. Nutqni grammatik tomondan shakllantirishning vazifalari va mazmuni nimalardan iborat?
2. Bolalar nutqini grammatik jihatdan shakllantirishda tarbiyachi oldida qanday vazifalar turadi?

3. Bolalar nutqida uchraydigan morfologik va sintaktik xatolar va ularning sabablari nima?
4. Tarbiyachi bolalar nutqidagi grammatik xatolarni ogohlantirish, tuzatish maqsadida tashkil etiladigan maxsus mashg'ulotlarda qanday umumiy uslubiy ko'rsatmalarga amal qiladi?
5. Grammatik to'g'ri nutqni shakllantirish mashg'ulotlarida qanday o'rgatish usullaridan foydalaniladi?
6. Turli yosh guruhlarida bolalar nutqidagi grammatik xatolarni tuzatishda qanday ta'limiy o'yin va mashqlar o'tkaziladi?
7. Bolalarning kundalik nutqidagi grammatik xatolarni tuzatishning qanday usullarini bilasiz?



Amaliy topshiriqlar

1. Suratlar asosida turli yosh guruhidagi bolalar fe'lining ayrim shakllarini qanday ishlatishlarini tekshiring. Buning uchun anketa savollarini tayyorlang, tekshiruv uchun 4 tadan bola tanlang va yakkama-yakka suhbat o'tkazing. So'rov natijalarini majlis bayoni sifatida yozing, noto'g'ri javoblar sonini va foizini hisoblab, bolalar tomonidan fe'l shakllarini o'zlashtirish darajasi haqida xulosa qiling.

2. Ushbu keltirilgan misollar asosida bolalar nutqidagi xatoning xarakterli tomonini aniqlang. Sizningcha, bu xatolarning sababi nimada? Ularni tuzatish yo'llarini taklif eting.

„Bu yerda bos sulati soyingan.“

„Olim: Nega uzun yaxlar yig'lashadi?“

Yo'ldosh: Ular yiqilib tushamiz deb qo'rqishadi-da“.

„Buvi, menga ashula aytib bering!“

— Aytolmayman, men ovozimni yo'qotib qo'ydim.

— Keling, uni qidiramiz“.

3. „Top, bu kim?“, „Top, men qayerda bo'ldim?“ ta'limiy o'yinlarining ishlanmasini tuzing va bu ishlanma asosida o'yinni bog'chada (olti yoshli bolalar guruhida) tashkil eting, uni mudira, katta tarbiyachi, guruh tarbiyachisi, amaliyot rahbari bilan birgalikda tahlil qiling, tahlilni majlis bayoni sifatida hujjatlashtiring.

BOLALAR NUTQNING TOVUSH MADANIYATINI TARBIYALASH USLUBIYOTI

1- §. Nutqning tovush madaniyati to'g'risida tushuncha

Nutq madaniyati — bu bayon etiladigan fikr mazmuniga mos tarzda til vositalarining barchasidan (tovush, intonatsiya, grammatik shakllar, leksik urg'ulardan) to'g'ri foydalana olishdir.

Nutqning tovush madaniyati nutq madaniyatining ajralmas bir qismidir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqning tovush madaniyatini atrofda kishilar bilan muloqotda bo'lishlari natijasida egallaydilar.

O. I. Solovyova nutqning tovush madaniyati asosiy yo'nalishlarini belgilab, shunday deydi: „Tarbiyachi oldida quyidagi vazifalar turadi: bolalarda so'zlardagi tovushlarni aniq, to'g'ri talaffuz etishni tarbiyalash, ona tili, orfoepiya qoidalari asosida so'zlarni to'g'ri talaffuz etishni, aniq talaffuzini (yaxshi diksiyani), bola nutqining ifodaliligini tarbiyalash“.

Biroq nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash bu tovushlarning to'g'ri talaffuzini shakllantirish ekan, deb tushunmaslik kerak. To'g'ri tovush talaffuzini shakllantirish nutqning tovush madaniyati bo'yicha ishlarning bir qismigina (bir bo'lagi) hisoblanadi. Tarbiyachi bolalarda to'g'ri nafas olish va chiqarishni, ona tilidagi hamma tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni, so'zlarni aniq talaffuz etishni, ovozdan to'g'ri foydalanishni, shoshilmasdan nutqning mazmuniga qarab, ifodali gapirishni tarbiyalaydi.

Demak, **nutqning tovush madaniyati** deb, nutqning fonetik va orfoepik jihatdan to'g'riligi, so'zlashgan vaqtda to'g'ri nafas olish va chiqarish, ravshan gapirish, so'zlarda urg'uni to'g'ri ishlatish, nutqning mazmundorligiga qarab uning ifodaliligi, ovoz kuchi va nutq sur'atini tartibga solish tushuniladi. Bolalarga ona tilini o'rgatish bo'yicha ishlar tizimida nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash muhim o'rin egallaydi. Bu jarayonda bola o'zbek tilidagi hamma tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga, mashg'ulotlarda, kundalik muomalada yetarli ovoz kuchida javob

berishga, shoshilmasdan, ifodali gapirishga o'rganadi, bu ishlar qancha erta boshlansa, shuncha katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash nutqning boshqa tomonlarini, ya'ni lug'atini, bog'langan nutqni, nutqning grammatik jihatdan to'g'ri shakllanishini rivojlantiradi. Nutqi yaxshi rivojlangan bola atrofdagilar bilan tez muloqotga kirishib ketadi, o'z fikrini va istagini tushunarli tarzda bayon etadi, o'rtoqlari bilan birgalikda o'ynaydigan o'yinlari haqida darrov kelishib oladi. Aksincha, tushunarsiz nutq o'zaro munosabatni qiyinlashtiradi, bola xarakterida salbiy xususiyatlarning (odamovi, indamas, qo'rqqoq va hokazo) vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bolalar o'zbek tilidagi tovushlarni asta-sekin o'zlashtiradilar. Maktabgacha tarbiya yoshining boshida bolaning nutq apparati shakllanib bo'ladi (kattalarning nutq a'zolaridan biroz farq qiladi), fonematik eshituv qobiliyati yaxshi ishlaydi. Shu bilan bir qatorda, har qaysi yosh davridagi bolalarda nutqning tovush madaniyati sohasida o'z kamchiliklari mavjuddir.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ayrim tovushlarni noto'g'ri talaffuz etadilar, ayniqsa, shovqinli tovushlarning o'r-nini almashtiradilar yoki so'zlar tarkibidagi ba'zi tovush va bo'g'inlarni tashlab ketadilar. Masalan, uch yoshli bola artikulatsiya apparatining (til muskullari, lablar, pastki jag') harakatlari ancha rivojlangan, eshitish qobiliyati, ovoz apparatining ishi takomillashgan bo'ladi.

Ammo bu yoshda nutqning tovush tomoni yaxshi takomillashmagan bo'lib, ular bir qancha tovushlarni talaffuz etmaydilar yoki yengil talaffuz etiladigan tovushlar bilan almash-tiradilar: **r** tovushini **y** (*yidiska*) tovushi bilan; **sh** tovushini **s** (*sapka*) tovushi bilan, **j** tovushini **z**, **d** bilan (*zuda, duda*).

Olti-yetti yoshli bola nutqi har tomonlama to'liq takomillashib bo'ladi. Ammo ayrim bolalar nutqi yetarli darajada ravon bo'lmaydi. Masalan, **sh**, **j**, **r** tovushlarini buzib talaffuz etadilar; **s** tovushini yumshoq **sh** tovushi bilan (*soat — shoat*), **z** tovushini yumshoq **j** tovushi bilan (*zanjir — janjir*) almashtiradilar.

2- §. Nutqning tovush madaniyatiga doir ishlarning vazifalari

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash ona tilidagi tovushlarning aniq artikulatsiyasini, ularni to'g'ri talaffuz etishni, so'z va jummalarni to'g'ri va aniq talaffuzini, to'g'ri nafas olish va

chiqarishni, shuningdek, yetarli balandlikdagi ovozni, odatdagi nutq sur'atini, ifodalilikni, intonatsiya vositalarini (mantiqiy pauzalar, urg'u, nutqning ritmi va tempi, xushohanglik) shakllantirishni o'zida mujassamlantiradi. Nutqning tovush madaniyati yaxshi rivojlangan nutqni eshitish qobiliyati asosida shakllanadi va rivojlanadi. Bolalarda to'g'ri, jarangdor nutqni rivojlantirish bilan bir qatorda, tarbiyachi quyidagi vazifalarni hal etishi kerak:

1. Bolalarda nutqni eshitish qobiliyatini va uning asosiy komponentlarini: eshituv diqqatini (eshitish orqali u yoki bu tovushni va uning yo'nalishini aniqlash malakasi), fonematik eshitishni, temp va ritmni idrok etish qobiliyatini tarbiyalash.

2. Artikulatsiya apparatini rivojlantirish.

3. To'g'ri nafas olish va chiqarish ustida ishlash, ya'ni qisqa nafas olib, uzun havo oqimini chiqarish qobiliyatini tarbiyalash. Bu jummalarni erkin talaffuz qilish imkonini beradi.

4. Muloqot shartlariga mos ravishda ovoz balandligini boshqara olish qobiliyatini tarbiyalash.

5. Ona tilidagi hamma tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni shakllantirish.

6. Har bir tovush, so'z va jummalarning aniq, ravshan talaffuzini shakllantirish, ya'ni ravon gapirishni tarbiyalash.

7. O'zbek adabiy tilining orfoepiya qoidalari (talablari) asosida so'zlar talaffuzini rivojlantirish.

8. Nutqning odatdagi (normal) tempini shakllantirish, ya'ni so'z va jummalarni o'rtacha tempda (nutqni tezlatmay ham, sekinlashtirmay ham) tinglovchilarga uni aniq idrok qilishlari uchun imkoniyat yaratgan holda gapirishga o'rgatish.

9. Nutqning intonatsion ifodaliligini tarbiyalash, ya'ni mantiqiy pauza, urg'u, xushohanglik, temp, ritm va tembr yordamida his-tuyg'ularini va kayfiyatini, fikrlarini aniq ifodalash qobiliyatini tarbiyalash. Tarbiyachi nutqning asosiy buzilishlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Masalan, duduqlanish, ming'irlab (manqalanib) gapirish. Bu tarbiyachilarga nutq buzilishini ogohlantirish va uning oldini olish, bolani mutaxassis — logopedga yuborishlari uchun zarurdir.

„Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“da yuqorida bayon etilgan vazifalar har bir yosh guruhida ularning yoshi va ruhiy holatlarini hisobga olgan holda bayon etilgan. („Bolalar bog'chalari uchun dasturlar“. Tevarak-atrof, badiiy adabiyot bilan tanishtirish, nutq o'stirish. T.,1992- y., 4 — 5, 12, 23- betlar.)

1. Nutqni eshitishni (eshituv diqqatini) rivojlantirish

Nutq shakllanishining boshlang'ich davrida nutqni eshitish qobiliyati asosiy komponentlarining rivojlanishi bir me'yorda (bir tekisda) kechmaydi. Nutq rivojlanishining boshlang'ich davrida bolalarning eshituv diqqatini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Bolalar ovozning o'zgarishini darrov payqab olish (baland tonda berilgan javobga yig'laydilar, samimiy, xushohang tonga jilmayib qo'yadilar), ovozning tempini (onasining va yaqin kishilarning ovozi) hamda so'zning ritmik holatini (so'zning tovush tarkibini, bo'g'in miqdorini) to'g'ri idrok etish, shuningdek, nutq tempini boshqara olish qobiliyatiga egadirlar. Nutq rivojlanishining keyingi davrlarida fonematik (tovushlarni) eshituvni, ya'ni bir tovushni ikkinchi bir tovushdan aniq farqlay olish (ajrata olish) qobiliyatini shakllantirish katta rol o'ynaydi. Bu bolalarni ayrim so'zlarni bilib olishga va tushunishga o'rgatadi.

Yaxshi rivojlangan eshituv diqqati ona tilidagi hamma tovushlarni aniq, ravshan va to'g'ri talaffuz etilishini ta'minlaydi, so'zning aytilish balandligini to'g'ri boshqarish o'rtacha sur'atda, ifodali va mazmunli gapirish imkonini beradi. Nutqni eshitishni rivojlantirish artikulyatsiya apparati a'zolarining harakati jarayonida vujudga keladigan sezgining rivojlanishi bilan mustahkam bog'liqdir. Tarbiyachi bolalarda eshituv idrokini rivojlantirish uchun jarangdorligi jihatdan yaqin va uzoq bo'lgan tovushlarni va tovush birikmalarini eshitish orqali farq qilishga o'rgatadi. Masalan, tarbiyachi turli tovush birikmalarini talaffuz etadi, bolalar esa nimaning (kimning) ovozini eshitayotganliklarini aytadilar. Eshituv idrokini rivojlantirish jarayonida tarbiyachi bolalar diqqatini bir xil tovushlar, tovush birikmalari, so'z va jumlar baland va past, tez va sekin talaffuz etilishi mumkinligiga qaratadi. Tovushlarni, tovush birikmalarini, so'z va jumalarning talaffuzini, balandligini va tezligini ajratishga o'rgatish uchun tarbiyachi bolalarga turli topishmoqlar beradi. Bolalar bolg'acha bilan baland va past (tarbiyachi to'siq orqasidan turib bolg'acha bilan turli balandlikda taqillatadi), qattiq va sekin taqillatish mumkinligini, katta soatlar sekin, kichkina soatlar esa tez (tarbiyachi har xil tezlikda „chiq-chiq“, „chiq-chiq“ deb talaffuz etadi) chiqillashini bilib oladilar. Bolalar eshitgan tovush birikmalarini turli tezlikda takrorlaydilar.

2. Artikulatsiya apparatini rivojlantirish

Nutq tovushlari og'iz bo'shlig'ida shakllanadi. Og'izning shakli va hajmi artikulatsiya a'zolari (lablar, til, pastki jag', yumshoq tanglay) harakatining holatiga bog'liq bo'ladi. Tovushlarni talaffuz etishda nutq a'zolarining to'g'ri holati va harakati artikulatsiya deb ataladi. Artikulatsiya apparati tuzilishining buzilishi (masalan, til yuganchasining kaltaligi, yuqorigi va pastki tishlarning bir-biriga jipslashmasligi, tanglayning haddan tashqari yuqori yoki past joylashganligi va hokazolar) tovush talaffuzining noto'g'ri shakllanishiga sabab bo'ladigan omillardan biridir. Biroq bolalar artikulatsiya apparati a'zolarining to'g'ri harakatlanishiga, eshituv diqqatining yaxshi rivojlanganligiga qaramay, tovush talaffuzida kamchiliklar mavjud bo'ladi. Bolada artikulatsiya apparati harakatining takomillashganligi (tilning kam harakatchanligi) ham tovushning noto'g'ri talaffuz etilishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun tarbiyachi oldida quyidagi vazifalar turadi: 1) tilning harakatchanligini rivojlantirish (tilni keng va tor qilish, keng tilni pastki tish orqasida ushlab turish, yuqorigi tishlar orqasiga ko'tarish, og'iz ichkarisiga, orqaga surish va hokazolar); 2) lablarning harakatini rivojlantirish (lablarni oldinga cho'za olishga, dumaloq holga keltirishga, jilmayish holatiga keltirish, pastki lab bilan yuqorigi oldingi tishlar oralig'ida tirqish hosil qilish; 3) pastki jag'ni ma'lum holatda ushlab turishni rivojlantirish.

3. Nafas olish va chiqarishni rivojlantirish ustida ishlash

Nutq tovushlari hosil qilishning manbayi — bu o'pkadan chiqayotgan uzun havo oqimining kekirdak, hiqildoq, og'iz bo'shlig'i yoki burun bo'shlig'i orqali o'tishi hisoblanadi. Nafas nutq texnikasining muhim qismidir.

Nafas ovoz va nutqni tinglovchiga yetkazish, ovoz kuchini tashkil etish vositasidir. Bolaning nafas olishi qancha yaxshi bo'lsa, ovozi ham, nutqi ham shu qadar jarangdor va kuchli bo'ladi. Chiniqqan va mashq qilingan nafas jumalarni mantiqan yaxlit, o'zaro uzviy bog'liq holda talaffuz etishda muhim rol o'ynaydi. Nutq jarayonida nafas olish va chiqarish nutqsiz nafas olishdan farq qiladi. Nutqsiz nafas olishda havo oqimi burun orqali olinadi va chiqariladi. Nutqsiz nafas olishda burun orqali olinadigan va chiqariladigan havo oqimining davomiyligi bir xilda, ya'ni teng bo'ladi.

Nutq jarayonida nafas og'iz orqali olinib, nafas olish tez bo'ladi, nafas chiqarish esa sekinlashadi. Nutqsiz nafasda nafas olishdan so'ng tez nafas chiqarilib, so'ng pauza qilinadi. Nutqiy nafasda esa nafas olishdan so'ng pauza qilinib, keyin bir tekisda nafas chiqariladi. Nutqda to'g'ri nafas olish va chiqarish to'g'ri tovush talaffuzini ta'minlaydi, kerakli bo'lgan nutq balandligini tutib turish uchun sharoit yaratadi, aniq pauzaga rioya qilishni, nutqning bir tekisda bo'lishini va uning intonasion ifodaliligini ta'minlaydi. Nutq jarayonida nafas olish va chiqarishning buzilishi sabablari bu organizmning umumiy kuchsizlanishidan (darmonsizlanishi), yurak-tomir kasalliklari va hokazolardir.

Bunday hollarda bolalar so'zlarni to'liq aytolmaydilar, oxirgi jumlalarni pichirlab talaffuz etadilar. Ba'zan bunday bolalar uzun jumlalarni nafas olish vaqtida tugallashga majbur bo'ladilar, buning natijasida nutq noaniq bo'ladi. Nafas chiqarishning qisqa bo'lishi bolalarni mantiqiy pauzalarga amal qilmasdan, shoshilib gapirishga majbur qiladi. Shuning uchun tarbiyachi oldida quyidagi vazifalar turadi: 1) maxsus o'yin mashqlaridan foydalanib, erkin, tekis, uzun havo oqimini hosil qilish; 2) tarbiyachi-pedagog nutqiga taqlid qilish orqali nafasdan to'g'ri, o'rinli foydalanishga (bir nafas chiqarishda uncha katta bo'lmagan jumlalarni aytishga) o'rgatish.

4. Ovoz ustida ishlash

Ovoz apparati yordamida balandligi, kuchi, tembri jihatdan har xil bo'lgan tovushlarning yig'indisidan kishi ovozi belgilanadi.

O v o z b a l a n d l i g i — tonni balandlatish va pastlatish, baland ovozdan past ovozga, past ovozdan baland ovozga o'tish.

O v o z k u c h i — tovushlarni ma'lum bir balandlikda (baland — odatdagi balandlik — past), shuningdek, to'liq jarangdor talaffuz etish malakasi.

O v o z t e m b r i — ovozning sifati (jarangli, titroq, jarangsiz, so'niq va hokazolar).

Ovoz — ovoz naychalarining tebranishi natijasida vujudga keladi. Uning sifati nafas, ovoz bo'limlarining artikulatsiyasi apparatlarining hamkorlikda ishlashlariga bog'liq. Yuqori nafas yo'llarining har xil kasalliklari, doimiy tumov, adenoidlar va hokazolar ovoz buzilishlariga sabab bo'ladi. Ko'pchilik bolalarda ovozdan noto'g'ri foydalanish sababli ovoz buzilishlari kelib chiqadi.

Chunonchi: ovoz paychalarining tarang bo'lishi, nutqning har doim baland bo'lishi, ayniqsa, havo sovuq vaqtlarda baqirib gapirish, ovoz tonidan noto'g'ri foydalanish, bola yoshiga mos bo'lmagan ovoz diapazonidan foydalanish (masalan, bolaning uzoq vaqtgacha kichkina bola nutqiga taqlid qilib yoki juda past ovozda gapirishi). Shuningdek, ovozning buzilishi halqumning yoki yuqori nafas yo'llarining kasalliklari bilan og'rigan bolalarda ham vujudga kelishi mumkin. Ovoz imkoniyatlaridan noto'g'ri foydalanish bola shaxsining xususiyatlari (haddan tashqari uyatchan bola doimo past ohangda gapiradi; tez qo'zg'aladigan, jahldor bolalar baland ohangda (tonda) gapiradi), noto'g'ri tarbiyalash bilan (atrofdagilarning o'zlari bolaga doimo baland ohangdagi tonda gapirishadi va bunga bolani o'rgatib qo'yadi) bog'liq. Agar xona doimo shovqin-suron bo'lib tursa, bu bolaning baland, taranglashgan ovoz tonida gapirishga majbur bo'lishi bilan ham bog'liq bo'ladi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda tarbiyachi oldida quyidagi vazifalar turadi: 1) o'yin va o'yin mashqlarida ovozning asosiy sifatlari: kuchi va balandligini rivojlantirish; 2) bolalarni kuchanmasdan, turli vaziyatlarga qarab ovozdan to'g'ri foydalanishga (past-baland) o'rgatish.

5. Ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni shakllantirish

Ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni shakllantirishda maktabgacha tarbiya yoshi eng qulay yosh hisoblanadi. Bolalar bog'chasida ona tilidagi tovushlarni talaffuz etish ishlari tugallanishi kerak. Agar bolalarda nutq apparati a'zolarining harakati yetarli darajada rivojlangan bo'lib, bir harakatdan ikkinchi harakatga tez o'ta oladigan, nutqda nafas olish va chiqarish to'g'ri rivojlangan bo'lib, o'z ovozin boshqara olish malakasi hosil bo'lsagina, tovushlarni to'g'ri talaffuz etish shakllangan bo'ladi. To'g'ri tovush talaffuzini o'zlashtirish uchun nutq eshitish a'zolari yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak, chunki bu holat o'z-o'zini nazorat qilishni ta'minlaydi, o'zini tekshirish esa har doim tovush talaffuzini takomillashtirishga olib boradi. Nutq apparatining nuqsonlari (qattiq va yumshoq tanglayning yorilishi, tishlar tuzilishining notekisligi, til osti yuganchasining kaltaligi va hokazolar), artikulyatsiya apparatining yetarli darajada harakatlanmasligi, fonematik eshituvning rivojlanmaganligi (bir tovushni ikkinchi bir tovushdan ajrata olmaslik) tovush talaf-

fuzining buzilishiga olib boradi. O'z nutqiga e'tiborsizlik bilan qarash (o'zining va boshqalarning nutqini tinglay olmaslik), eshitish qobiliyatining pasayishi, atrofdagilarning noto'g'ri nutqlari tovush talaffuzidagi nuqsonlarga sabab bo'lishi mumkin. Bolalar tomonidan tovushlarni noto'g'ri talaffuz etishning belgilari quyidagilar: ayrim tovushlarni tashlab aytish; bir tovushni ikkinchi bir tovush bilan almashtirish; tovushni noaniq — buzib talaffuz etish va hokazolardir. Ayniqsa, tovushlarni bir-biri bilan almashtirib hamda buzib talaffuz etadigan bolalar bilan ishlashni o'z vaqtida boshlash kerak, chunki tovushlarni almashtirib talaffuz etish kelgusida bolaning yozma nutqiga ham ta'sir etishi (bir tovushni ikkinchi bir tovush bilan almashtirib yozadi) mumkin, tovushlarni buzib, noaniq talaffuz etish va uni o'z vaqtida tuzatmaslik bu nuqsonlarni bartaraf etish uchun kelgusida katta kuch va uzoq vaqt sarf etishni talab etadi. Bundan tashqari, maxsus davolash va o'rganishni talab etuvchi nutqning og'ir nuqsonlari (alaliya, dizartriya va hokazolar) ham tovush talaffuzining buzilishiga sabab bo'ladi.

Mana shu tomonlarni hisobga olgan tarbiyachi quyidagi ish vazifalarini amalga oshirishi kerak: 1) bolalarni hamma tovushlarni so'zning boshida, o'rtasida va oxirida to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish; 2) so'zlarni, tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish; 3) bola nutqidagi nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlash va, zarur bo'lsa, o'z vaqtida maxsus bolalar muassasalariga yo'llash.

6. Ravon gapirish (diksiya) ustida ishlash

Bolalarda ravon gapirish, ya'ni har bir tovushni, shuningdek, so'z va jummalarni aniq talaffuz etish artikulatsiya apparati a'zolari ishining rivojlanishi va takomillashishi bilan bir vaqtda shakllanadi. Ravon gapirish ustida ishlash ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni shakllantirish bilan mustahkam bog'liqdir. Ravon gapirish (diksiya) nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz etish me'yoridir. 2 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqining har tomonlama tez rivojlanishini hisobga olib, bolalar tomonidan so'z va jummalarni aniq va ravshan talaffuz etishga diqqatni qaratish zarur. Bolalarda ravon gapirishni tarbiyalashda jumalardagi so'zlarni hamda so'zlardagi hamma tovushlarni aniq talaffuz etib, sekin sur'atdagi nutqqa taqlid qilish orqali erishiladi.

Biroq ravon gapirishga hamma vaqt ham taqlid qilish orqali erishib bo'lmaydi. Bunga eshitish a'zolarining hamda artikulyatsiya apparati a'zolarining yaxshi rivojlanmaganligi, o'zining ovozidan to'g'ri foydalana olmasligi to'siq bo'lishi mumkin.

Ko'pincha diqqati beqaror, tez qo'zg'aluvchan, boshqalarning nutqiga quloq solmaydigan, o'z-o'zini boshqara olmaydigan bolalar ravon gapira olmaydilar. Bunday bolalarning nutqi yetarli darajada aniq bo'lmaydi, ular har doim ham so'zning va jumlaning oxirini aniq talaffuz etmaydilar. Atrofdagilarning va o'zining nutqini nazorat qilish, nutqda nafas olish va chiqarishni rivojlantirish, artikulyatsiya apparati a'zolari harakatini takomillashtirish, o'z ovozidan to'g'ri foydalanishga o'rganish natijasida bolaning ravon gapirishi (diksiyasi) yaxshilanadi.

7. Orfoepiya ustida ishlash

Kishilar bir-birlarini tushunishlari uchun ularning og'zaki nutqi bir xilda bo'lishi kerak. Ko'pincha bolalar o'z nutqlarida mahalliy (sheva) so'zlarni ishlatadilar, urg'ularni noto'g'ri qo'llaydilar, oddiy so'zlashuvdagi (adabiyot til qoidasiga kirmaydigan) so'zlardan foydalanadilar. Tarbiyachi har doim bolalarni so'zlarni adabiy til qoidalari asosida talaffuz etishlarini nazorat qilib borishi va o'z vaqtida ularning xatosini to'g'rilashi (to'g'ri talaffuz namunasini aytib berish asosida) kerak. Tarbiyachining asosiy vazifasi bolalarda ona tilining orfoepiya qoidalariga mos madaniy talaffuzni takomillashtirishdan iboratdir. Buning uchun u mashg'ulotga tayyorlanish vaqtida turli qo'llanmalardan, lug'atlardan foydalanishi kerak.

8. Nutq tempi (sur'ati) ustida ishlash

Nutq tempi (sur'ati) deganda ma'lum vaqt ichidagi nutq tezligi tushuniladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda sekinlashgan sur'atda gapirishdan ko'ra tezlashgan sur'atda gapirish hollari ko'p uchraydi. Bu esa nutqning aniq, burro bo'lishiga salbiy ta'sir etadi, tovushlar artikulyatsiyasi buziladi, ba'zan alohida tovushlar, bo'g'inlar va hatto so'zlar tushib qoladi. Shuning uchun tarbiyachining asosiy vazifasi bolalar nutqidagi so'zlarning aniq, jarangdorligiga ta'sir etuvchi nutq sur'ati mo'tadil (o'rtacha) bo'lishi ustida ishlashdan iboratdir.

9. Intonatsion ma'nodorlik (ifodalilik) ustida ishlash

Intonatsiya — bu ovozning nutq, tovush doirasida va muayyan vaqt birligi davomida turlicha tovlanishidan iborat. Intonatsiya deganda, nutq tovushi tarkibidagi ohangdorlik va jilo tushuniladi. Intonatsiya chinakam emotsional holatning mahsuli bo'lib, u so'zlovchining xohishi, irodasi, niyati, intilishi, ruhiy kechinmasi kabi omillar bilan, ya'ni so'zlovchining jismoniy va ruhiy holati bilan bog'liq.

Intonatsiya — bu hamma ma'nodorlik vositalarini o'z ichiga qamrab olgan murakkab majmua (yaxlitlik).

Ohangdorlik — jummalarni talaffuz etish vaqtida ovozni balandlatish yoki pastlatish. U nutqqa turlicha ohang beradi (kuylovchan, yumshoq, yoqimli va boshqalar) va bir xillikka yo'l qo'ymaydi.

Ohangdorlik nutqning har bir so'zida mavjud bo'lib, kuchi, balandligi jihatdan o'zgarib turadi:

Temp (sur'at) — mazmuniga qarab nutqning tezlashishi yoki sekinlashishi.

Ritm — urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarning teng tarzda navbatlashib turishi (ya'ni ularning quyidagi sifatlari: uzunligi va qisqaligi, ovozni balandlatish va pastlatish).

Jumla urg'ulari va mantiqiy urg'ular — ifodalanayotgan mazmunga qarab alohida so'zlar (mantiqiy urg'u) yoki guruh so'zlarni (jumla urg'ulari) pauzalar, ovoz tonini balandlatish bilan ajratib, uzoq va katta kuch bilan talaffuz etishdir.

Nutq tembri — so'zlarning tovlanishi, emotsional holatni (qayg'uli, xafaqon, quvnoq va hokazolar) anglatadi.

Ma'nodorlikning ushbu vositalari yordamida fikrlar tugallanishi, aytilgan fikrning asosiy mazmuni o'zgarishi, u qo'shimcha ahamiyat kasb etishi mumkin. Nutqda intonatsion ma'nodorlik bo'lmasligining sababi — eshitish a'zolarining rivojlanmaganligi, noto'g'ri nutqiy tarbiya berish, nutqning har xil nuqsonlari (masalan, dizartriya, rinolaliya va hokazolar) va boshqalarga bog'liqdir. Bola o'z nutqida turli xildagi his-tuyg'ularni boshqalarga bildirishda ma'nodorlikning intonatsion vositalaridan to'g'ri foydalanishi kerak. Tarbiyachining nutqi bolalarda intonatsion ma'nodorlikni (ifodalilikni) tarbiyalashda namuna bo'lishi kerak. Nutqning intonatsion ma'nodorligini

tarbiyalash ustida ishlash taqlid qilish asosida olib boriladi. Tarbiyachi bolalarga she'ni yod oldirishda, qayta hikoya qilishda o'zi nutqning intonatsion vositalaridan keng foydalanadi va bolalar diqqatini nutqning ma'nodorligiga yo'naltiradi. Bolalar tarbiyachining to'g'ri, intonatsion, ma'nodor (ifodali) nutqini eshitib, o'zlari ham nutqlarida mustaqil ravishda kerakli intonatsiyalardan foydalana boshlaydilar. Nutqning tovush madaniyati bo'yicha ishlarning hamma bo'limlari (vazifalari) bir-biri bilan bog'liqdir.

3- §. Nutqning tovush madaniyati bo'yicha ishlarni tashkil etish

1. Bolalar nutqini tekshirish. Nutqning tovush madaniyati vazifalarini to'liq anglab yetgan tarbiyachi har bir bola nutqining tovush madaniyati darajasi bilan tanishadi. Bu tarbiyachiga umumiy vazifalarni aniqlashga yordam beradi.

Shu munosabat bilan o'quv yilining boshida bolalar nutqining tovush tomoni tekshiriladi. Shuningdek, tarbiyachi har bir bolaning nutq holatini kundalik kuzatishlarining natijalari asosida ham o'rganib boradi va ularning nutqlari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Bola nutqini tekshirishdan avval tarbiyachi bog'cha shifokori bilan suhbatda bo'lib, bolalarning artikulatsiya apparati holatlarini ko'zdan kechiradi, nuqsonlarni aniqlaydi. So'ngra nutqning tovush tomoni tekshiriladi. Tekshirish jarayonida maxsus rasmi kartochkalardan foydalaniladi.

Bundan tashqari, so'zning bo'g'in tuzilishi, fonematik idrok (*sa-sha, sha-sa, sa-ja, ja-za* va hokazolar) tekshiriladi. Bolalarga yod olgan she'rlarini aytib berishni taklif etib, ularning nutq sur'atini, ohangdorligini, nutqda nafas olish va chiqarishni, nutqning ravonligini, ovoz tonini, intonatsion ma'nodorligini va hokazolarni tekshiradi.

Bolalar nutqidagi kamchiliklar aks ettirilgan ma'lumotnomada jadvali maktabgacha tarbiya uslubiyot xonasiga (shahar yoki tuman uslubiyot xonasiga) beriladi. Shahar yoki tuman uslubiyotchisi hamma bolalar bog'chasidagi bolalar tovush talaffuzining ahvoli to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi. Ayniqsa, maktabga tayyorlov guruhidagi bolalar nutqining holatlari jiddiy tahlil qilinadi. Bolalar nutqining tovush madaniyati ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlardan maktabgacha tarbiya sohasida ishlovchilarning anjumanlarida foydalaniladi.

2. Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish bo'yicha ishlarni tashkil etish

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tovushlarni talaffuz etish ular nutqini harakatga keltiruvchi apparatning ishlashiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun to'g'ri tovush talaffuzini shakllantirish bilan bir vaqtda, nutqni harakatga keltiruvchi apparatning alohida a'zolarini doimiy mashq qildirish kerak; ayniqsa, lablarning muskullarini, lunj (chakak), tilni; jag'larning harakatchanligini rivojlantirish zarur. Bu a'zolarining aniq harakat qilishi tovushlarning aniq, ravon, to'g'ri talaffuz etilishini ta'minlaydi. Nutq apparati a'zolarining harakatchanligini rivojlantiruvchi mashqlar kichik guruhlarda har kuni, katta guruhlarda esa haftada 3 — 4 marta (mashg'ulotda va mashg'ulotdan tashqari vaqtda) o'tkaziladi. Artikulatsiya mashqlari o'yin tarzida o'tkaziladi. Masalan: „Ayt-chi, xo'roz qanday qichqiradi?“, „Qarg'a qanday qag'illaydi, kuchuk qanday vovullaydi?“ (birinchi kichik guruh) va boshqalar.

To'g'ri tovush talaffuzini tarbiyalash buyicha ishlarni tashkil etishda quyidagi asosiy uslubiyotlardan (metodlardan) foydalaniladi: ko'rgazmali material bilan o'tkaziladigan yoki so'zli ta'limiy o'yin („Kimning uychasi?“, „Do'kon“, „Orkestr“); harakatli o'yinlar („Otlar“, „Poyezd“); tovushga taqlid qiluvchi ertak va hikoyalardan („Qo'lqop“, „Mitti jo'ja“, „Chin do'st“, „Ahmoq sichqon haqida ertak“ va boshqalar); she'rlar, sanamalar, aytishuvlar, tez aytishlardan foydalaniladi.

Shuningdek, to'g'ri tovush talaffuzini shakllantirishda quyidagi usullardan foydalaniladi: 1) to'g'ri talaffuz namunasi (tarbiyachi to'g'ri tovush talaffuzini aytib ko'rsatadi); 2) jo'r bo'lib va yakkama-yakka takrorlash; 3) tushuntirish; 4) to'g'ri artikulatsiyani ko'rsatish.

Agar tovush talaffuzi bo'yicha o'yin mashg'ulotdan tashqari vaqtda o'tkazilsa va unda hamma bolalar qatnashmasa, u vaqtda tovushni yaxshi talaffuz eta olmaydigan bolalar bilan birga tovush talaffuzida hech qanday nuqsoni bo'lmagan bolalardan bir nechtasini o'yinga jalb qilish kerak. (Taqlid qilish uchun namuna bo'ladi.)

Noto'g'ri tovush talaffuzini tuzatish usullariga alohida talablar qo'yiladi: unga tez-tez qaytish kerak emas (ya'ni noto'g'ri tovush talaffuziga): bu bolani asabiylashtiradi, o'yindan yoki

boshqa faoliyatdan chalg'itadi. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolaga mashq qilishga imkon yaratish uchun uning diqqatini to'g'ri tovush talaffuziga yo'naltirish kerak. O'yin mazmuni sekin-astalik bilan murakkablashtirib boriladi, ya'ni o'yindagi tovush materiali murakkablashadi.

3. Nutqni eshitish (eshitish nutqi)ni tarbiyalash ishini tashkil etish

Nutqni eshitishni shakllantirish hamma guruhlarda tashkil etiladi. Ta'limiy o'yinlar eshituv diqqatini rivojlantirishda, ya'ni tovushni eshitish qobiliyatini o'stirishda katta o'rin egallaydi. Kichik guruhlarda bu o'yin mashg'ulotida musiqaviy ovoz chiqaradigan o'yinchoqlardan foydalaniladi. Bu o'yinchoqlar yordamida bolalar tovush kuchini, xarakterini ajrata olishga o'rganadilar. Masalan, „Quyosh va yomg'ir“ o'yinida bolalar tarbiyachining „quyosh“ deyishi bilan „sayrga“ chiqishadi va doira sadosi ostida osoyishta yurishadi (tarbiyachi doirani sekin-sekin chaladi), tarbiyachi „yomg'ir“ deb doirani tez-tez, baland chalishi bilan bolalar o'z „uylariga“ (oldindan belgilab qo'yilgan joyga) yugurishadi. „Topchi, nima qilish kerak?“ o'yinida bolalar doiraning yoki shiqildoq o'yinchoqning kuchli (tez-tez yoki baland) ovozini eshitishlari bilan qo'llaridagi bayroqchalarini silkitishadi, bo'sh (sust, sekin, past) chalganda esa bayroqchani tizzalariga tushirishadi. Shuningdek, „Qayerda chalishdi?“, „Nimada chalishyapti?“, „Masxaraboz to'siq orqasida nima qilyapti?“ degan ta'limiy o'yinlardan keng foydalaniladi. Katta guruhlarda eshituv idrokini rivojlantirishda yuqorida bayon etilgan o'yinlardan tashqari radioeshittirishlar, magnitofon yozuvlari ham katta rol o'ynaydi. Bundan tashqari, tez-tez „bir daqiqa jimjitlik“ni tashkil etish kerak. Bu daqiqani „Kim ko'p eshitadi?“, „Xona nima to'g'risida gapiradi?“ degan mashq tarzida o'tkazish mumkin. Bu mashq jarayonida ba'zi bir bolalarga nimaning tovushini eshitgan bo'lsalar (jo'mrakdan suvning tomchilashini, qafasdagi qushning ovozini yoki qushlarning qanot qoqishidagi tovushni, soatning chiqillashini va hokazolar), shu tovushlarga taqlid qilish taklif etiladi.

Boshqa turdagi o'yinlar nutqni eshitishni (so'zdagi, nutqdagi tovushlarni idrok etish va anglash uchun) rivojlantirishga qaratilgandir. Masalan: „Topchi, men nima dedim?“ ta'limiy o'yinida tarbiyachi bolalardan bir necha metr masofada turib,

avval baland bo'lmagan ovozda, so'ngra pichirlab so'z yoki jummalarni talaffuz etadi, bolalar esa uni eshitib, nima deyilganini topishlari kerak. Tarbiyachi bolalarga bu o'yin qoidasini e'lon qiladi: „Men juda past ovozda gapiraman, siz diqqat bilan quloq soling va men nima deganimni toping. Men kimni chaqirsam, shu bola nimani eshitganini baland va aniq aytadi“.

Kichik guruhda bu o'yin avval ko'rgazmali material asosida o'tkaziladi: tarbiyachi bolalar oldida turgan o'yinchoqlardan birining nomini sekin aytadi, murakkab bo'lmagan topshiriq beradi (Lola, qo'g'irchoqni stulga o'tqiz; Salim, bayroqchani savatga sol; Vali, gulni guldonga qo'y). Tarbiyachi bu topshiriqlarni bolalarga qarab aytadi, bolalar esa aytilgan so'zlarni tarbiyachining artikulatsiya apparati a'zolarining harakatiga qarab topadilar. Bu o'yinlar bir necha marta takror o'tkazilgach, topshiriq murakkablashtiriladi: tarbiyachi bolaning orqasida turib so'zni aytadi. Topshiriq bir marta aytiladi va 4—6 bola (joyida o'tirgan holda) nimani eshitganlarini aytishadi, so'ngra kim to'g'ri topganligi aniqlanadi. Katta guruhda vaqt-vaqti bilan bolalarning o'zlariga o'yinni olib borish (o'yin boshqaruvchisi) vazifasi topshiriladi. Shuningdek, ushbu guruhda jarangdorligi bir-biriga yaqin bo'lgan ikkita so'z aytilib, ularning ma'nosini aytish taklif etiladi. Masalan: *gul — kul; tush — dush; tol — sol* va boshqalar. „Top-chi, men nima dedim?“ o'yini 3 — 8 daqiqa davom etadi.

4. Nutqda nafas olish va chiqarishni rivojlantirishni tashkil etish

Tarbiyachining vazifasi bolani nutq jarayonida to'g'ri nafas olishga o'rgatishdan hamda nutqdagi nafas olish va chiqarishdagi nuqsonni bartaraf etishdan iboratdir. Avvalo, bolalarda shovqinsiz, tinch, yelkasini ko'tarmasdan nafas olishni rivojlantirish kerak. Nafas chiqarishning uzoqligi bolaning yoshiga bog'liqdir: kichik guruhlarda nafas chiqarish 2 — 3 so'zdan iborat jumlani, o'rtacha va katta guruhlarda esa 3 — 5 so'zdan iborat jumlani talaffuz etishni ta'minlashi kerak. Shu tariqa bolalar ancha kuchli nafas chiqarishga o'rganib boradilar. Nutqda nafas olish va chiqarish ustida ishlashda „O'tin yorish“, „Nasos“ o'yin-mashqlaridan; yupqa qog'ozdan qirgilib ipga osilgan kapalak shakllarini, shoxdagi barglarni, qoqigulni, yonib turgan shamni, sharni, sovun ko'pigi va hokazolarni puflash mashqlaridan foydalaniladi.

5. Nutq tempi (sur'ati) va ovoz sifati ustida ishlashni tashkil etish

Bolalarni o'rtacha tempda gapirishga o'rgatish juda muhim. Buning uchun tarbiyachi quyidagi usullardan foydalanishi kerak: ogohlantirish („Men tushunmadim, senga nima beray, sekinroq ayt!“), bog'langan nutq („Kel, qo'g'irchog'ingni birgalikda allalaymiz: Alla-alla-yo, alla! Lolaxon uxlasin!“) va boshqalar. Natijali usul — bu matnida kuyi bo'lgan harakatli o'yinlar va nutqni harakatlar bilan bog'lashdir. Masalan, bola nomidan tanish she'r aytiladi, bu vaqtda ayiq o'yinchog'i stol usti bo'ylab lapanglab yuradi. Ayiqning lapanglab yurish harakati bola nutqining tempini bir qolipda turishiga yordam beradi. Shoshilib gapiradigan bolaga mazmuni harakatlar bilan bog'liq bo'lgan she'rni aytib berishni taklif etish mumkin, masalan, Ergash Yondoshning „Qo'g'irchoq“ she'ri:

Erkatoyim qo'g'irchoq,
Sochi mayin qo'g'irchoq.
Sovg'a qilib to'yingga,
O'lchab mitti bo'yingga.
Tikdim jajji ko'ylakcha,
Avvalgidan bo'lakcha.
Tovlanadi xuddi zar,
Kiyvol, ko'rishsin do'stlar.

She'rni harakatlar ko'rsatish bilan (qo'g'irchoqni bag'riga bosadi, sochini silaydi, bo'yini ko'rsatadi, ko'ylakchani ko'rsatadi, qo'g'irchoqqa kiydiradi) aytib beriladi. Hamma guruhlarda nutq tempini tarbiyalashda ashula asosiy vosita hisoblanadi. Odatdagicha rivojlangan bolalarda nutq ritmida (ohangida, vaznida) keskin buzilishlar kuzatilmaydi. Bu buzilishlar ko'pincha nafas olish va chiqarishning takomillashmaganligidan, kerakli so'zni tez tanlab olmasligidan kelib chiqadi. Tarbiyachining ma'noli (ta'sirli) o'qishiga taqlid qilish orqali bolalar badiiy asarlarning ritmini (ohangini, vaznini) his etish, ajratishga, ya'ni ertak ohangini, mashqni va boshqalarning ohangini his etishga o'rganadilar. Yuqorida bayon etilgan usullardan bolalar ovozining turli sifatlarini, kuchini, balandligini shakllantirishda ham foydalaniladi. Kichik guruhlarda nutqiga ta'sir etuvchi usullardan o'yin vaziyatlarida, badiiy asarlarni o'qib berish vaqtida foydalaniladi. Tarbiyachi nima uchun ba'zi hollarda

baland gapirish kerak emasligini tushuntiradi, o'zining talablarini misollar bilan mustahkamlaydi: bolalarga yarim ovozda murojaat etadi, uyqu xonasida juda sekin (past ovozda) gapiradi. Bunda matn ohangini yarim ovozda aytish talab etiladigan harakatli o'yinlardan ham foydalanish mumkin. Masalan „Mushuk va sichqon“ harakatli o'yinida bolalarga yarim ovozda (juda past ovozda) ushbu matn aytiladi:

Sekin, sichqonlar,
Sekin, sichqonlar.
Mushuk bizning tomonimizda o'tiribdi.
Sichqon, sichqon, ehtiyot bo'l,
Mushukka tutilma!

Katta guruhlarda ovozning egiluvchanligini rivojlantirishga yordam beruvchi mashqlardan foydalanish kerak. Bularga tez aytishuvlar, „Aks-sado“, „Yoqlama“ o'yinlari misol bo'lishi mumkin.

„Aks-sado“ o'yinining mazmuni: hamma bolalar bog'dagi (o'rmondagi) qushlarni tasvirlashadi (ku-ku, chiq-chiriq, chiq-chiriq), aks-sadoni tasvirlovchi bola esa bu tovushlarni juda past ovozda (xuddi uzoq-uzoqlardan eshitilayotgandek) takrorlaydi. „Qopqon“, „Karusel“ harakatli o'yinlaridagi she'r matnlari past, sekin, tez talaffuz etiladi.

„Qopqon“ o'yinidagi matnni qopqon rolini bajarayotgan bolalar doira bo'ylab yurib aytadilar:

Narsalarni kemirib,
Jonga tegdi sichqonlar.
Ehtiyot bo'ling makkorlar,
Sizni quvib yetamiz,
Hammangizni tutamiz....

„Biz ayiqni qanday chaqirdik?“ ta'limiy o'yinini o'tkazish mumkin (avval bitta yirik o'yinchoq bilan, so'ngra mayda tarqatma o'yinchoqlar bilan). O'yin boshlovchi (o'yinni olib boruvchi — tarbiyachining o'zi) to'siq orqasiga yashirinib olgan ayiqqa ovozini o'zgartirib shunday murojaat qiladi: „Ayiq, qani sen, bizga qaragin“. Bu jumlaning talaffuz etilishiga qarab, ayiq har xil harakatlarni bajaradi. Agar past ovozda aytilsa, u yotib oladi, uxlaydi; baland ovozda aytilsa, raqsga tushadi; sekin tempda (sur'atda) aytilsa, lapanglab yuradi; tez tempda (sur'atda) aytilsa,

yuguradi. So'ngra o'yinga bolalar rahbarlik qilishadi. Ular xor bo'lib ayiqni chaqirishlari mumkin. Bu o'yin eshituv diqqatini rivojlantiradi, ovoz kuchini mashq qildiradi. Katta guruh bolalari ovoz balandligini o'zgartirishga qaratilgan topshiriqlarni juda qiziqib bajaradilar. Masalan, hayvonlarning va ularning bolalarini aks ettiruvchi o'yinchoq yoki rasmni ko'zdan kechirish vaqtida turli ovoz balandligidan foydalanib, ularning ovozlari taqlid qiladilar (it baland, yo'g'on ovozda, uning bolasi — kuchukcha past ovozda vovullaydi; echki baland, yo'g'on ovozda, uloqcha esa past, ingichka ovozda ma'raydi va hokazo).

Tovushga taqlid qiluvchi hikoya va ertaklardan keng foydalaniladi. Masalan: X. X. Andersonning „Irkit o'rdakcha“, Sh. Pyeroning „Tulki bilan g'ozlar“, R. Farhodiyning „Tonggi so'z“ hikoyasi, o'zbek xalq ertaklaridan „Fil bilan xo'roz“, „Qarg'avoy“ va boshqalar ovoz sur'atini, kuchi va balandligini o'zgartirishga yordam beradi.

6. Ravshan (burro) gapirish ustida ishlash

Tovush talaffuzini shakllantirish ravshan gapirish bilan mustahkam bog'liqdir. Bizga ma'lumki, maktabgacha tarbiya yoshidagi ko'pchilik bolalar noaniq, mujmal gapiradilar. Buning asosiy sababi lablarning, til va pastki jag'ning sust harakat qilishidir. Buning natijasida og'iz yetarli ochilmay, unli tovushlar aniq jaranglamaydi. So'zlarning aniq talaffuz etilishi — unli tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish hamda undosh tovushlarning hosil bo'lishida nutqni harakatga keltiruvchi a'zolarning (lablar, til, pastki jag' va boshqalar) aniq harakatiga bog'liqdir. Kichik guruhlarda ravshan gapirishni shakllantirish uchun tovushga taqlid qiluvchi bir qancha o'yinlardan foydalanish mumkin.

Tarbiyachi tovush birikmalarini talaffuz etish namunasini bolalarga ko'rsatar ekan, og'iz bilan harakatlarni juda aniq bajarishi, unli tovushlarni yengil cho'zib talaffuz etishi kerak. Bolalar tarbiyachining bunday harakatlariga beixtiyor taqlid qiladilar. Tovushga taqlid qiluvchi o'yinlarni tanlashda shu narsaga e'tibor berish kerakki, bu o'yinlarda bir qancha tovushga taqlid qiluvchi holatlar mavjud bo'lishi kerak. Masalan, o'yinda va hikoyalarda ushbu tovushga taqlid qilish birlashgan bo'lishi kerak: *g'a-g'a-g'a* (o'rdak), *vaq-vaq* (qurbaqa), *qo-qo-qo* (tovuq), *miyov-miyov* (mushuk).

Kichik guruhdagi (4 — 5 yosh) bolalar nutq jarayonida lablar bilan to'g'ri harakat qilishga, og'izni to'g'ri ochishga o'rganib olishsa, ravshan gapirish (yaxshi diksiya) yengil shakllanadi. Agar katta guruhdagi bolalarning lablari kam harakat qilsa, tishlari bir-biriga birikkan holda gapirishsa, ularni ravshan gapirishga o'rgatish ancha qiyin bo'ladi. Chunki avval noto'g'ri shakllangan nutq apparati a'zolari harakatini to'g'rilash zarur.

Katta guruhlarda ravshan gapirishni takomillashtirish uchun maxsus mashqlar va tez aytishlardan foydalaniladi. Tez aytishuv — bir xildagi tovushlar tez-tez uchraydigan, qiyin talaffuz etiladigan jumladir (yoki bir nechta jumla). Tez aytishlardan quyidagi tartibda foydalaniladi. Avvalo tarbiyachi tez aytishlarni tanlaydi. Agar bolalar oyiga 1 — 2 marta tez aytishlardan yod olsalar, u vaqtda bir yilga 8 — 15 ta tez aytishni tanlaydi va ularni qiyinligiga qarab (yengil talaffuz etiladiganlarini oldinroq o'rgatish kerak) taqsimlaydi. Tez aytishlarni mashg'ulotlardagina o'rgatilmay, balki mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda, o'yin jarayonida ham o'rgatish mumkin. Maktabga tayyorlov guruhida katta guruhda o'rganilgan tez aytishlar ham takrorlanadi. Bolalarga murakkab tez aytishlarni o'rgatmaslik kerak, chunki uni hamma bolalar o'zlashtira olmaydilar, natijada bu mashq o'zining ta'limiy ahamiyatini yo'qotadi va hech qanday natija bermaydi. Tez aytishlardan foydalanishning maqsadi — ravshan gapirish (burro gapirish)ni mashq qildirishdan, mashg'ulotlarda uni bolalarga o'rgatish uslubiyotini belgilashdan iboratdir. Tarbiyachi yangi tez aytishni sekinlashgan sur'atda, aniq, tez-tez uchraydigan tovushni ajratib, yoddan aytib beradi. Uni baland bo'lmagan ovozda, ohangdor qilib, bir necha marta takrorlaydi. Bolalar oldiga quyidagi o'quv vazifasini qo'yish mumkin: tez aytishni qanday aytish kerakligini diqqat bilan tinglashga; esda olib qolishga harakat qilishga; uni juda aniq aytishga o'rgatish kabilar. So'ngra bolalar tez aytishni mustaqil tarzda yarim ovozda aytadilar (agar tez aytish matni yengil bo'lsa, bu bosqichni o'tkazmasa ham bo'ladi).

Bunday mashqlarning umumiy davomiylik vaqti 3 — 10 daqiqadir. Bunday mashqlarni xilma-xillashtirish mumkin, masalan, bolalarning „talablariga ko'ra“ tez aytishni takrorlashni taklif etish mumkin, boshlovchining rolini bolalarga topshirish mumkin va hokazo. Tez aytish matnini qator bo'yicha qismlarga ajratib qaytarish ham mumkin. 1- qator: *olma shoxida olmaxon...*,

2- qator: *olmaxonni olma, Olmaxon*. Agar tez aytish bir qancha jumalardan iborat bo'lsa, uni rollarga bo'lib, guruhlar bilan takrorlash mumkin. 1- guruh: *Mashhura moshxo'rdani*; 2- guruh: *Ma'suda moshurani*; 3- guruh: *Shura sho'rvani shoshib shimirdi*. Hamma birgalikda: *Mashhura moshxo'rdani, Ma'suda moshurani, Shura sho'rvani shoshib shimirdi*. Bu usullarning barchasi bolalarni faollashtiradi, ularning ixtiyoriy diqqatlarini rivojlantiradi.

Tez aytishni takrorlashda tarbiyachi bolani oldiga chaqiradi, chunki boshqa bolalar uning artikulatsiyasini, imo-ishorasini ko'rsin. Bolalar javobini baholaganda, talaffuzining aniqlik darajasini ko'rsatish lozim. Ba'zan esa bola diqqatini lab harakatining sifatiga ham yo'naltirish kerak.

Tez aytishlarni kechki o'yin, adabiy ertaliklar dasturiga ham kiritish mumkin. Bu ularning mazmunan xilma-xil bo'lishiga, bolalarni faollashtirishga yordam beradi.

7. So'zni talaffuz qilishda urg'u va nutqning orfoepiyasi (juda to'g'ri talaffuz qilish qoidasi) ustida ishlash

Bu ish mazmuni kichik guruhlarda alohida ahamiyatga ega. Chunki bu yoshdagi bolalarning ko'pchiligi so'zning bo'g'in tarkibini buzib talaffuz etadilar. To'g'ri so'z tarkibini saqlash uchun shoshilmay, tekis so'zlash zarur. Bolalarda bu sifatlar matnidagi so'zlar jo'r bo'lib aytiladigan o'yinlar, oddiy taqlidiy so'zlarni sekin o'qib berish (aytib berish) orqali tarbiyalanadi. So'zni talaffuz etish ustida ishlash uchun ta'limiy o'yinlardan („Do'kon“, „Bu nima?“) foydalaniladi. Ta'limiy o'yinlarni kichik guruhlarda tashkil etishda avval nomi osonlik bilan aytiladigan (ikki bo'g'indan iborat bo'lgan so'zlar: *kubik, mushuk, quyon, kuchuk* va boshqalar, so'ngra murakkabroq so'zlardan) o'yinchoqlardan foydalaniladi.

Talaffuzi murakkab bo'lgan so'zlarni quyidagi o'yinlar orqali talaffuz etishga o'rgatish mumkin: „Top, men nima dedim?“, „Telefon“, „Yo'qlama“ va boshqalar. Katta guruhlarda ushbu o'yinlardan tashqari „Kim yaxshiroq aytadi?“ musobaqa-mashqi o'tkaziladi. Musobaqa-mashqda birdaniga 2 ta zveno (har bir zvenoda 2 — 3 ta bola bo'ladi) qatnashadi. Bir zveno murakkab so'zlar va so'z birikmalarini talaffuz etadi: *issiq choy, termometr, trolleybusda, akvariumda, nordon anor, achchiq garmdori, plastmassali*; boshqa zveno ushbu so'zlarni diqqat bilan tinglaydi,

so'ngra ular murakkab so'zlarni talaffuz etadilar. Agar katta guruh bolalari qiyin so'zlarni buzib talaffuz etsalar, masalan, *bidon, suvoq, maymunjon, magnitofon, tipratikan, motoroller* va boshqalar — bu so'zlarni „Gapni oxiriga yetkaz“ nomli so'zli o'yin va mashqning tarkibiga, qisqa ta'limiy hikoyalarga kiritish mumkin.

So'zlarda urg'ularni ishlatishda ham xilma-xil xatolar uchrab turadi: otlarni bosh kelishikda (*kapalak, bola, paxta, ruchka* va boshqalar), qaratqich kelishigida (*bo'ring, o'rdakning, tipratikanning*) ishlatishda, o'tgan zamon fe'lini (*oldi, berdi, tushundi* va boshqalar) aytishda. Bular ichida shunday so'zlar borki, bola atrofidagilar nutqidan bu so'zlarni qabul qila olmay, o'zi mustaqil tarzda, noto'g'ri urg'uli so'z hosil qiladi. Katta guruh bolalarida so'zlarga urg'uni to'g'ri qo'yishda mustahkam orfoepik malakalarni shakllantirish, so'zning bo'g'in tarkibini to'g'ri idrok etishda eshituv diqqati yetarli darajada rivojlangan bo'lishi kerak. Oddiy so'z talaffuziga o'rganib qolgan bola nutqini to'g'rilash ancha murakkab. Ba'zan xatoni to'g'rilash ustida olib borilgan ish kutilgan natijani bermaydi, bola urg'uni noto'g'ri ishlatishda davom etadi. Buning asosiy sababi nimada? Bola nima haqidadir gapirib berar ekan, u gapning mazmuni bilan band bo'lib, so'zning jarangdorligiga diqqatini yo'naltirmaydi. Bundan tashqari, tarbiyachi shu vaqtning o'zida so'zning talaffuzini turli shakllarda ko'rsatishi zarur. Ixtiyoriy diqqatning, esda olib qolishning boshlang'ich shakllaridan foydalanilsa, bolada o'zining nutqiga yangicha munosabatda bo'lish imkoniyati hamda eshituv idrokida analiz va sintez qilish uchun sharoit vujudga keladi.

So'zlarda urg'uni ishlatishdagi xatolarni tuzatish uchun maxsus mashqlar o'tkaziladi. Agar bola *boshlamoq* fe'lida xatoga yo'l qo'ysa, mashg'ulotda namuna-hikoyani tinglash taklif etilishi mumkin. Fe'ldagi urg'uli bo'g'in (*boshlamoq* fe'lining turli shakllari) ovoz bilan ajratiladi: „*Bahor keldi. Bahorda havo isiy boshlaydi. Qorlar eriydi. Yerni ko'm-ko'k maysalar qoplay boshlaydi. Daraxtlar gullab, barg chiqara boshlaydi. Dalalarda ish qaynaydi. Chigit ekiladi. Qushlar uchib kela boshlaydi*“ yoki „*Salim va Lobar bog'chaga kelishdi. Salim koptok o'ynay boshladi. Lobar aravachada qo'g'irchoqni sayr qildira boshladi. So'ngra ular birgalikda kubiklardan uy qura boshlashdi*“.

Bolalarning o'zlariga ham xuddi shunga o'xshash (*boshlamoq* fe'li ishtirokida) hikoya tuzish taklif etiladi. Hamma bolalar

ham ushbu fe'lni darrov to'g'ri talaffuz eta olmaydilar. Keyingi mashg'ulotlarda hikoya mavzusini o'zgartirish mumkin: „Navbatchilar nima qila boshlashdi?“ va boshqalar. Tushum kelishigidagi otlarda urg'ularni to'g'ri ishlatishni mustahkamlash uchun sifat mazmuniga doir (3 — 4 jumladan iborat) ta'limiy hikoya taklif etish mumkin. Bu ta'limiy hikoyada yetishmaydigan so'zni qo'yish taklif etiladi, masalan: *Bola anhorga ...(g'ozni) haydayapti, g'ozchalar ...(g'ozning) ketidan lapanglab ketishyapti* va hokazolar.

Bolalar nutqining orfoepik tomondan to'g'riligi kattalar nutqiga taqlid qilish orqali shakllanadi. Og'zaki nutqning ikki xil uslubi bor:

So'zlashuv uslubi — bu uslub til vositalarini qo'llashda erkin bo'ladi. So'zlovchi fikrni aytadi-da, keyin yana biror unutilgan so'zini o'sha gapning ketidan keltira beradi: *Dadam yengil mashina oldilar, „Neksiya“*. So'zlashuv uslubida so'z tartiblash qoidalariga, orfoepik qoidalarga amal qilinmaydi.

Publitsistik uslub tilning ta'sir qilish funksiyasi bilan bog'liq. Bu uslub so'z tartiblash qoidalariga, orfoepik qoidalarga rioya qilgan holda, biroz sekinlashgan sur'atda ravshan gapirish bilan ajralib turadi. Bu uslubda ilmiy atamalar kam ishlatiladi, unda turli uslub elementlari (ilmiy, badiiy, kitobiy, so'zlashuv uslublari) aralash qo'llaniladi.

Tarbiyachining nutqi pedagogik yo'nalishning kuchiga qarab, publitsistik nutq xarakteriga ega bo'lishi, orfoepik qoidalarga asoslanishi kerak. Bolalar tarbiyachining nutqi ta'sirida gapirishga o'rganadilar, nutq orfoepik tomondan to'g'ri shakllanib boradi. Tarbiyachi ba'zan, ayniqsa, maishiy faoliyat jarayonida so'zlashuv uslubidan foydalanadi. Shuning bilan bir qatorda, shunday daqiqalar bo'ladiki, tarbiyachi to'liq publitsistik uslubda gapirishi shart: mashg'ulotlarda, yangi qoidalarni tushuntirishda, bolalarga badiiy asarlarni hikoya qilib berish, o'qib berishda, ertaliklarda so'zga chiqishda va boshqalarda.

Katta guruhlarda ba'zi bir orfoepik qoidalarni mustahkamlash uchun ayrim mashqlarni tashkil etish tavsiya etiladi. Masalan, „Do'kon“ „Kutubxona“ va boshqalarda „keluvchilar“ boshlovchining (sotuvchi yoki kutubxonachining) ismi va otasining ismini aytib murojaat etadi. „Gapni tugalla“ mashqida **-choq** (*qo'zichoq, toychoq*); **-voy** (*Laylakvoy, bo'rivoy, quyonvoy*); **-gina** qo'shimchalarini (*qizgina, bolagina*) olgan so'zlarni kiritish mumkin.

Katta guruhlarda uzluksiz tarzda radioeshittirishlarni, magnetofon yozuvlarini, plastinkalarni, teleeshittirishlarni (mashg'ulotlarda va mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda) tinglashni tashkil etish kerak. Tarbiyachi bu ishlarni tashkil etish jarayonida bolalar diqqatini so'zlovchilarning to'g'ri va chiroyli nutqlariga yo'naltiradi, adabiy talaffuz bilan shug'ullanuvchi kishilar bilan uchrashuvlar tashkil etadi. Tarbiyachining o'zi esa adabiy talaffuzni takomillashtirish ustida uzluksiz ishlashi lozim.

Shunday qilib, bolalar nutqiga fonetik ta'sir etish bilan bir qatorda, ularning tovush talaffuzini va ravshan gapirishini, so'zni to'g'ri talaffuz etishini va adabiy so'z urg'ularini to'g'ri ishlatishini ham takomillashtirib boramiz.

8. Nutqning ma'nodorligini (ifodaliligini) tarbiyalash

Bola nutqining intonatsion ma'nodorligini tarbiyalash uchun tarbiyachida katta imkoniyatlar mavjud. Bolaning kundalik hayoti uchun zarur bo'lgan nutq intonatsiyasini tarbiyalash juda muhimdir. Ularga qanday qilib mehmonlarni xushchaqchaq, samimiy taklif etishni, o'rtog'idan nimanidir do'stona so'rab olishni, kichkintoyni mehribonlik bilan o'ynashga taklif etishni ko'rsatishi kerak. Qandaydir tadbirni (mehmonni taklif etish, boshqa guruhga borish, birgalikda ertalik tashkil etish) rejalashtirishda bolalarga hazil va savol shaklida mehmonlar bilan qanday gaplashish kerakligini eslatadi. „Qo'g'irchoq bilan uchrashuv“, „Do'kon“, „Pochta“ ta'limiy o'yinlarida, sayohat vaqtlarida (kutubxonaga, qurilishga, bog'ga, fermaga, oshxonaga, mudira xonasiga va hokazolar) bolalarda samimiy murojaat etishni mustahkamlash bilan birga, so'zlarning ohangiga e'tibor berish eslatiladi. Bir qator o'yinlar, ayniqsa, xalq og'zaki ijodiga oid o'yin matnlari aniq intonatsiya bilan talaffuz etiladi: „Chaqqon bolalar“, „Ikki ayoz“, „Qiziqchilar“ va boshqalar. Ba'zan tarbiyachi o'yin matnini aytib berish bilan cheklanmasdan, balki uni qanday aytish kerakligini ham tushuntiradi.

Uzluksiz ishlash jarayonida bolalarda so'zlashishning yumshoq, samimiy toni tarbiyalanadi.

Tarbiyachi bolalarda nutqning ma'nodorligini (ifodaliligini) shakllantirishda quyidagi usullardan foydalanadi: asarni ma'noli (ifodali) o'qish namunasi; hayotlaridagi o'xshash voqea va hodisalarni esga tushirish; ma'noli (ifodali) o'qish shaklini tushuntirish va ko'rsatma berish; ma'noli (ifodali) o'qigan bolani

namuna qilib ko'rsatish; baholash. Bundan tashqari, maxsus usullar ham bor. Bular quyidagilar: kichik guruhlarda qiziqarli o'yinchoqlarni, bolalarning hissiyotlariga ta'sir etuvchi, asar mazmuniga mos, ma'nodor suratlarini yoki illustratsiyalarni ko'rsatish; o'yin faoliyati va bolalar harakatidan foydalanish. Masalan, „Sovg'a“ o'yinida doira o'rtasida turgan bola o'yin matnida nomlari aytilgan („Mana sizga yarqiragan lenta bilan qo'g'irchoq, ot, pirildoq va samolyot“) sovg'alardan qaysi birini olishini aytadi.

Agar u pirildoq desa — aylanadilar, qo'g'irchoq desa — o'ynaydilar, ot desa — iring'ishlab sakraydilar. Sahnalashtirilgan o'yinlarda, stol usti teatrining spektakllarida intonatsiyalardan foydalanish malakalari mashq qildiriladi. Katta guruhlarda personajlarni tasvirlash usulidan foydalaniladi. Tarbiyachi bolalar bilan birgalikda personajlarga tavsifnoma beradi, bu kerakli intonatsiyalarni qidirib topishga (tulki ayyor, ingichka ovozda, xush ohangda gapiradi, ammo u hiylagar) yordam beradi.

Tarbiyachining savollari ham nutqni ma'noli (ifodali) qilishga yordam beradi: „Qanday aytish kerak? Nima uchun shunday? Yana qanday aytish mumkin? Men sizlarga ertakni qanday hikoya qilib berdim — sekinmi yoki tez?“ Shuningdek, mashqlardan, topshiriqlar berishdan foydalanish ham nutqning ma'nodorligini (ifodaliligini) shakllanishiga yordam beradi. Buning uchun asardagi ayrim qatorlarni jo'r (xor) bo'lib yoki yakkama-yakka takrorlash mumkin. Eng natijali usullardan yana biri rollarga bo'lib o'qishdir (hikoya qilish). Buning uchun tarbiyachi qisqa she'rlardan, hazillardan, sanamalardan, aytishuvlardan foydalanadi. Masalan: „To'rga o'ting to'ralar“, „Palovni yeng jo'ralar“, „Echki keladi ma'rab“, „O'z egasiga qarab“. Kichik hajmdagi folklor janrlari xotirada tez qoladi va bolalarning o'zlariga asarni tanlab olish imkonini beradi. Bu folklor o'yinlarini mashg'ulotlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda yod olish mumkin. Badiiy asarni qayta hikoya qilishda ham, rollarga bo'lib aytilishida ham sahnalashtirish, inssenirovkadan (o'yinchoqlar, siluetlardan) foydalanish mumkin. Katta guruhlarda yakkama-yakka yod olish yoki hikoya qilib berish (kichikintoylar oldida chiqish, bayramlarda onalarga, buvilariga sovg'alar berishda va hokazolar) usulidan keng foydalaniladi. Ma'noli (ifodali) o'qishni va hikoya qilishni shakllantirishga yordam beruvchi usullar juda xilma-xil. Bir mashg'ulotda bir vaqtning o'zida bir qancha usullardan foydalanish

mumkin. Bu bolalarning asarlarni qiziqish bilan, ma'noli, ifodali aytib berishlariga yordam beradi.

4-§. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash bo'yicha mashg'ulotlarning tuzilishi

Bolalar nutqini rivojlantirishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olib, nutqning tovush madaniyatini shakllantirishni, asosan, 3 bosqichga ajratish mumkin.

1- bosqich: 1 yosh-u 6 oylikdan 3 yoshgacha (yilning ikkinchi yarmidan ilk yoshdagi bolalarning 2- guruhi va 1- kichik guruh). Bu bosqichda bolaning faol lug'ati tez rivojlanadi, nutqni yuzaga keltiruvchi artikulatsiya apparati a'zolarining harakati takomillashadi, ya'ni ancha harakatchan, mustahkam bo'ladi. Taqlid qilish qobiliyati rivojlanadi, buning natijasida tarbiyachi bola nutqining tovush madaniyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi imkoniyatga ega bo'ladi. Ushbu guruhda tovush madaniyatini tarbiyalash ishlari turli tovushlarga taqlid qilishdan iboratdir. 1 yosh-u 6 oylikdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan ishlar darajasi ancha o'sadi. Ushbu yoshdagi bolalar bilan tashkil etiladigan ishlar uncha ko'p bo'lmagan bolalar guruhi bilan (5 — 6) olib boriladi.

2- bosqich: 3 yoshdan 5 yoshgacha (2- kichik va o'rta guruh). Bu yoshda so'zlarning fonetik va morfologik tarkibi shakllana boshlaydi. Ancha murakkab artikulatsiya harakatlari takomillashib boradi. Bu bolaga afrikat (qorishiq), sonor va oraliq tovushlarni talaffuz etish imkonini beradi. Bu bosqichdagi ishlar so'zlarning tovush tomoniga ongli munosabatga asoslanadi va ona tilidagi hamma tovushlarni ketma-ket va to'g'ri talaffuz etilishi nazarda tutiladi.

3- bosqich: 5 yoshdan 7 yoshgacha (katta va maktabga tayyorlov guruhi). Bu bosqich nutqning tovush tomonini shakllantirish ishlarining yakunlovchi davri hisoblanadi. Bu bosqichning boshida ancha murakkab, artikulatsiyasi jihatidan yaqin bo'lgan tovushlarni (*s-sh*, *z-j* va hokazolar) aniq farqlashga o'rgatiladi. O'xshash tovushlarni farqlashni takomillashtirish bo'yicha tashkil etilgan ishlar kelgusida fonematik eshituvni rivojlantirishga yordam beradi. Nutqning tovush madaniyatiga doir vazifalarni (tovush talaffuzi, tempi, ravshan gapirish, ma'nodorligi, ovoz sifati va hokazolar) hal etishda ishlarining frontal shaklidan

foydalaniladi. Ular xilma-xildir. Asosiy mashg'ulotlar tarkibiga har xil mazmundagi mashqlar kiritiladi.

I. Bir yarim yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish uslubiyoti

Bir yarim yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda nutqni tushunish tez rivojlanadi, lug'at to'plami keskin ortadi, so'zlar tarkibi takomillashadi. Ular avval tovush birikmalarini, so'zlarni, so'ngra oddiy jummalarni, uncha katta bo'lmagan she'rlarni osonlik bilan takrorlaydilar. Agar 2 yoshli bola o'z nutqida 2 — 3 so'zdan iborat jummalarni ishlatgan bo'lsa, 3 yoshida ular o'z nutqlarida 3 — 5 va undan ortiq murakkab so'zlarni ishlay boshlaydilar. Bu davrda nutqning tovush tomoni: ovoz va artikulyatsiya apparatlari, tovush talaffuzi, eshituv idroki jadal rivojlanadi. Bolalarda yaxshi, aniq, to'g'ri, ma'noli nutqning shakllanishi uchun ilk yoshdan boshlab nutqning tovush madaniyatini rivojlantirish borasidagi ishlarni tashkil etish kerak. Bu bosqichdagi asosiy vazifa — doimiy ravishda eshituv idrokini rivojlantirishdan, artikulyatsiya apparati a'zolarini mustahkamlash va rivojlantirishdan iboratdir. Bu maqsadga erishish uchun ma'lum bir guruhdagi tovushlar olinib, ular bolalar bilan birgalikda tovushlarga taqlid qilish asosida talaffuz qilishga o'rgatiladi. Bular, asosan, oddiy tovushlar guruhidir: unli (*a, i, o, u, e, o'*), lablangan (*p, b, m*), til orqa (*k, g, x*), lab-tish (*v, f*), til oldi (*t, d, n*).

Turli ish shakllariga tovushga taqlid qilishni kiritish tovushlarni turli birikmalarda to'g'ri talaffuz etilishini aniqlash va mustahkamlashga yordam beribgina qolmay, balki ravshan gapirishga (yaxshi diksiya), ya'ni tovush va so'zlarni aniq, to'g'ri talaffuz etishga ham ta'sir etadi. Bir xildagi tovushga taqlid qilish bir necha marta talaffuz etish, nutqda nafas olish va chiqarish, tovushlarni va tovush birikmalarini har xil balandlikda talaffuz etish, ovoz apparatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. Ikki yoshgacha bo'lgan bolalarda nutqni eshitish malakasining rivojlanishiga yordam beruvchi quyidagi tovushlarga taqlid qilish taklif etiladi: parovozning gudogi (*u-u-u*), sigirning ma'rashi (*mu*), kuchukning akillashi (*vov-vov*), o'rdakning g'ag'illashi (*g'a-g'a*) va hokazolar. 2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarning tovushga taqlid qilishi murakkablashadi, masalan: *ku-ku-ku*,

g'oq-g'oq, g'ing-g'ing, miyov-miyov, vaq-vaq va boshqalar. Birinchi kichik guruhda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash mashg'ulotlari oyda bir-ikki marta o'tkaziladi. Bundan tashqari, 2—3 mashg'ulot nutq o'stirish mashg'ulotining bir qismi sifatida rejalashtiriladi. Ular 2 — 3 daqiqadan 4 — 5 daqiqagacha davom etadi. Qo'yilgan vazifalarga qarab, nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash mashg'uloti 2 — 3 qismdan iborat bo'lishi mumkin.

Masalan: 1- qism — *a, u* tovushlarining to'g'ri talaffuz etilishini mustahkamlash. **Maqsad:** *a, u* tovushlarining to'g'ri talaffuzini mustahkamlash, ularni yetarlicha baland ovozda talaffuz etishga o'rgatish.

2- qism: eshituv diqqatini rivojlantirish uchun „Nima jaranglayotganini top“ mashqi.

Maqsad: bolalarni eshitish orqali turli buyumlarni ularning jarangidan farqlashga o'rgatish.

Mashg'ulot uchun kerakli narsalar: to'siq, childirma, qo'ng'iroq, shiqildoq, bolg'acha, o'yinchoq archalar, qo'g'irchoq.

Mashg'ulotning borishi. Tarbiyachi bolalarga doktor Voyjonimni ko'rsatadi va ularga doktor tomoqlarini qanday ko'rganini eslashni aytadi (bolalar og'izlarini katta ochib, „aaaa“ deb talaffuz etadilar). Hamma bolalarning jo'r bo'lib aytgan javobi va yakkama-yakka javoblaridan so'ng tarbiyachi bolalarga parovoz suratini yoki o'yinchog'ini ko'rsatadi va u qanday ovoz chiqarishini esga olishlarini aytadi. Bolalar baland ovozda, bir oz cho'zibroq „u“ tovushini talaffuz etadilar. So'ngra tarbiyachi bolalarga shunday hikoya qiladi: „Kishilar o'rmonda, bog'da sayr qilib yurishganda, yo'qolib qolmasliklari (adashib ketmasliklari) uchun bir-birlariga tez-tez: Au! Au! deb qichqirishadi“. Tarbiyachi stol ustiga o'yinchoq archalarni qo'yib chiqadi va ularning oralarida qo'g'irchoq Lobarni yurgizib, „U adashib qolmasin, kelinglar: Au! Au!“ deb qichqiramiz, deb aytadi. Bolalar Lobarni jo'r bo'lib va yakkama-yakka holda chaqiradilar. Tarbiyachi bolalar yetarlicha baland ovozda *a* va *u* tovushlarini birgalikda, cho'zibroq (*aaauuu*) talaffuz etishlarini kuzatib boradi.

Mashg'ulotning ikkinchi qismida quyidagi buyumlarni tayyorlaydi: to'siq, childirma, qo'ng'iroq, shiqildoq o'yinchog'i, bolg'acha. Bu buyumlarni navbat bilan bolalarga ko'rsatadi, ularning nomini aytadi, qanday ovoz chiqarishini tinglashni taklif etadi. Bolalar hamma buyumlarning nomlarini, qanday

ovoz chiqarishini yaxshilab o'zlashtirib olganlaridan so'ng, buyumlarni to'siq orqasiga yashiradi va turli harakatlarni bajarib, nimaning ovozini eshitayotganliklarini topishlarini ulardan so'raydi. Mashg'ulotdan so'ng qo'ng'iroq, childirma, shiqildoq, bolg'acha stol ustida qoldiriladi, bolalar ularni o'ynaydilar.

Shunday qilib, mashg'ulotlarda va mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda uzluksiz tarzda turli tovushlarga taqlid qilishdan foydalanish jarayonida nutqning tovush tomonini shakllantirishga erishamiz. Ishning bu bosqichida (1 yosh-u 6 oylikdan 3 yosh-gacha) bolalar yoshiga mos ravishda tovushga taqlid qiluvchi o'yinlar, hazil-mutoyibalar, ashulalar, hikoyalar, she'rlar mashg'ulot tarkibiga kiritiladi. Ushbu guruhlarda dasturda ko'rsatilgan tovushlar guruhi ustida ishlash bo'yicha mashg'ulotlar „Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish“ nomli qo'llanmada to'liq o'z aksini topgan.

II. 3 — 5 yoshli bolalarda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish uslubiyoti

3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqi rivojlanishda davom etadi. Bu yoshda bola lug'ati kengayadi, aniq bo'lib, takomillashadi. Ular nutqning grammatik shakllaridan to'g'ri foydalanadilar, uncha katta ahamiyatga ega bo'lmagan ertaklarni, hikoyalarni qayta hikoya qila oladilar, suratdagi asosiy mazmunni tasvirlay oladilar. Shuningdek, nutqning tovush tomoni ham tez rivojlanadi. Bolalar ona tilidagi tovushlarning ko'pini to'g'ri talaffuz etadilar, so'z va jummalarni aniq va ravshan talaffuz etish malakasi hosil bo'ladi, ovozdin to'g'ri foydalanishni o'rganadilar, nutqning tempini (tezligini) kuzata boshlaydilar.

Bu yoshdagi bolalar nutqining tovush madaniyatini shakllantirishning asosiy vazifasi — ona tilidagi hamma tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga o'rgatishdan, fonetik eshituv malakasini rivojlantirishdan iboratdir. Bu vazifalar bilan bir qatorda, tovush madaniyatini shakllantirishning boshqa bo'limlari yuzasidan ham ishlar olib boriladi, chunonchi: vaziyatga qarab ovoz balandligini o'zgartirish malakasini tarbiyalash, odatdagi tempda gapirishga, so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga va ularda urg'uni to'g'ri ishlatishga o'rgatish kabilardir.

Birinchi kichik guruhlarda tovushga taqlid qilishdan keng foydalanilsa, 2- kichik va o'rta guruhlarda esa nutqning tovush

madaniyatini tarbiyalash tovushlarni talaffuz etish ustida ishlash jarayonida amalga oshiriladi. Tovushlarni talaffuz etish ustida ishlash vaqtida nutqni eshitish, nutq jarayonida nafas olish va chiqarish, ovoz sifati, artikulatsiya apparatining harakati, ravshan (burro) gapirish va intonatsiya ham rivojlantirib boriladi. Ona tilidagi barcha tovushlar ustida ishlashning quyidagi ish turlari mavjud: artikulatsiya apparati a'zolarini aniqlash va talaffuz etiladigan tovushni boshqa tovushlar orasidan ajratib talaffuz etish; to'g'ri tovush talaffuzini jummalarda, ma'noli nutqda mustahkamlash.

Tovush talaffuziga doir ishlarning bu turlari mashg'ulotlarda va mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda amalga oshirilishi mumkin.

Barcha ish turlari bir mashg'ulotning mazmuniga kiritilmay, balki quyida sanab o'tiladigan 4 ta ish turining har biri oralig'ida tashkil etiladi. Bu kun oralig'ida bolalar artikulatsiya apparati a'zolarining ma'lum bir holatini va harakatini egallab olish va mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar va bu tovushlarni to'g'ri talaffuz etishning shakllanishiga, uni eshitish orqali idrok qilishga yordam beradi.

Tovushni talaffuz etish bo'yicha ishlar tovush madaniyatining boshqa bo'limlari (nutqni eshitishni, artikulatsiya apparati a'zolarining harakatlari, nutqda nafas olish va chiqarish, ovoz toni, nutq sur'ati, ravshan gapirish, nutqning intonatsion ma'nodorligi) ustida ishlash bilan birga qo'shib olib boriladi.

1- turdagi ish — artikulatsiya apparati a'zolarining harakatini aniqlash.

Tarbiyachi tovushlarning to'g'ri artikulatsiyasini hosil qilishga yordam beruvchi hamda artikulatsiya harakatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun o'yin mashqlarini beradi. Bu bilan tovush madaniyatining quyidagi bo'limlari ustida ishlash belgilanadi: aniq va to'g'ri artikulatsiyani tarbiyalash, uzun, tekis havo oqimini chiqarishni hosil qilish, ovoz kuchini rivojlantirish.

2- turdagi ish — tovush talaffuzini aniqlash va nutqni eshitish malakasini rivojlantirish.

Tarbiyachi tovush talaffuzini aniqlash yoki taqlid qilish orqali tovush hosil qilish uchun o'yin va o'yin mashqlarini taklif etadi. Bolalarning diqqati artikulatsiya apparati a'zolarining holatiga va tovushlarning talaffuziga yo'naltiriladi. Talaffuz etilishi lozim bo'lgan tovushni tovushlar guruhidan ajratish uchun turli o'yinlardan foydalaniladi.

Bu ish turi nutqni eshitish, ovoz balandligini o'zgartirishga, artikulatsiya apparatini rivojlantirishga, nutqda nafas olish va chiqarishni to'g'rilashga yordam beradi.

3- turdagi ish — so'zlar tarkibidagi tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni tarbiyalash va fonematik eshitishni rivojlantirish.

Tarbiyachi so'zlar tarkibidagi tovushlarni aniq va to'g'ri talaffuz etishga yordam beruvchi har xil o'yin materialini (asosan ta'limiy o'yinlarni) beradi. Bolalar so'zdagi tovushlarni ancha cho'zibroq talaffuz etishga, ovoz bilan talaffuz etilayotgan tovushni so'z tarkibidan ajratishga va so'zdagi o'rnini belgilashga o'rganadilar. Shu bilan bir qatorda, bir vaqtning o'zida, fonematik eshituv, ravshan gapirish, orfoepik qoidalarga asosan so'zlarni bo'g'inlarga ajratish vazifalari hal etiladi.

4- turdagi ish — tovushlarni jummalarda talaffuz etishni tarbiyalash, nutqni eshitish malakasini rivojlantirish.

Tarbiyachi bu ish vazifasini hal etish uchun tez aytishuvlar, topishmoqlar, she'rlar, so'z o'yinlari, hikoya va ertaklardan foydalanadi. Talaffuz etilishi lozim bo'lgan tovushni bola qanday talaffuz etayotganini kuzatib boradi. Mustaqil nutqda tovushlarni to'g'ri talaffuz etish, ayni vaqtda, nutqni eshitish, nutqda nafas olish va chiqarishni rivojlantirishni, odatdagi nutq tempidan foydalana olish malakasini hosil qildirishni, nutqning intonatsion ma'nodorligini tarbiyalashni ham amalga oshiradi. Ikkinchi kichik guruhda oyida 1 — 2 marta mashg'ulot va haftada 1 marta mashq o'tkaziladi. Mashq nutq o'stirish mashg'uloti boshqa bo'limlari-ning qismi sifatida tashkil etiladi. Mashqning davomiyligi qo'yilgan vazifaga qarab 2 — 4 daqiqadan 5 — 7 daqiqagacha davom etadi. Mashg'ulot o'yning oxirida tashkil etiladi. Bu mashg'ulot o'tilgan materialni takrorlash va mustahkamlash tarzida o'tiladi.

Quyida misol tariqasida nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash bo'yicha ish turlariga misollar keltiramiz:

S tovushi

1- turdagi ish. „*Ahmad qanday xafa bo'ladi va qanday xursand bo'ladi, ko'rsat*“ *mashqi.*

Maqsad: artikulatsiya apparati a'zolarining to'g'ri holatini va aniq harakatini hosil qilish.

Mashqning mazmuni. Tarbiyachi bolalarga: „Agar Ahmad xafa bo'lsa, u lablarini cho'chchaytirib oladi, mana bunday qilib (jipslashgan lablarni oldinga naychaga o'xshatib cho'zadi), agar

xursand bo'lsa, u jilmayadi (lablarini ikki yon tomonga yoyadi, yuqorigi va pastki tishlariga lablar zich birikkan bo'ladi, u tishlarini yopib turadi)" deb ko'rsatadi.

Tarbiyachi: „Endi men Ahmad haqida hikoya qilib beraman. Agar u xafa bo'lsa, siz lablaringizni cho'chchaytirib (qanday cho'chchaytirishni ko'rsatadi), agar u xursand bo'lsa, siz jilmayasiz (ko'rsatadi)". „Ahmadning onasi mashina o'yinchoq sotib oldi. Ahmad juda xursand bo'ldi. U mashinasini olib ko'chaga sayr qilgani chiqdi, qarasa, yomg'ir yog'yapti, nima qilishini bilmay turib qoldi. U lablarini cho'chchaytirib oldi. Shu paytda Po'lat chiqib qoldi. Ahmad xursand bo'lib, unga kulib qaradi. Po'lat Ahmaddan uning mashinasini g'ildiratish uchun so'radi. Ahmad mashinasini berishni istamadi, lablarini cho'chchaytirib oldi. Birdan qora bulutlar tarqalib, quyosh ko'rindi. Ahmad jilmayib, Po'latga dedi: „Yur, mashinani birgalikda o'ynaymiz.“

„Sayrda“ mashqi

Mazmuni. Tarbiyachi bolalarga murojaat qilib: — Bizning tilimiz sayr qilmoqchi bo'ldi. U uyi eshigini ochdi (og'zini ochadi), avval o'ng tomonga, so'ngra chap tomonga, yana uyiga qaradi, hech kim yo'q, yotib, quyoshda isinmoqchi bo'ldi (keng yoyilgan tilini pastki lablar ustiga qo'yadi).

Bolalar tarbiyachining hamma harakatlariga taqlid qilib boradilar.

„Qorchalar uchadi“ mashqi

Mazmuni. Bolalarga „qorchalar“ tarqatib chiqiladi (ipga osilgan paxta bo'lakchalari). Bolalar „qorchalarni“ puflashadi. Puflashda lunjlarini shishirmasliklari kerak.

2- turdagi ish. „Nasos“ mashqi.

Maqsad: artikulatsiya apparati a'zolarining harakatini, s tovushining to'g'ri talaffuzini aniqlash. Nutqni eshitish malakasini rivojlantirish uchun havo oqimini hosil qilish.

Mazmuni. Tarbiyachi shunday deydi: „Bolalar velosipedda sayr qilmoqchi bo'lishdi, qarashsa, shinasi bo'shab qolgan, undagi hamma havo chiqib ketibdi. Ular nasos bilan shinaga havo yubora boshlashdi. Nasosdan chiqayotgan havoni ifodalash uchun: ssss... ssss... deb ovoz chiqaramiz“. Bolalar tarbiyachi

bilan birga harakatni bajaradilar. „S“ tovushini cho‘zib talaffuz qiladilar.

3- turdagi ish. „*Sen bilasanmi?*“ *marshqi*.

Maqsad: „S“ tovushining to‘g‘ri talaffuzini so‘zlarda mustahkamlash, fonematik eshitishni rivojlantirish.

Mazmuni. Tarbiyachi: „Hozir men sizlarga bir qancha savollar beraman, ularga javob berishda har qaysingizning stolingiz ustida turgan suratlar (rasmlar) yordam beradi. Kim mening savolimga to‘g‘ri javob topsa, chiqib suratda tasvirlangan narsaning nomini aniq qilib aytadi“. So‘ngra savollar beriladi: „Nimalarga tushib yurish mumkin?“ (Bu mavzuga oid bolalarda samolyot, avtobus, trolleybus tasvirlangan suratlar bor), „Do‘konda nimalar bor?“ (sabzi, sochiq, soat, sumka, savat, gilos va boshqalar), „Hayvonot bog‘ida nimalar yashaydi?“ (suvsar, timsoh).

Bolalar rasmda tasvirlangan narsalarning, hayvonlarning nomlarini to‘g‘ri aytgach, tarbiyachi bolalardan so‘zlarning hammasida qaysi tovush takrorlanayotganligini so‘raydi.

4- turdagi ish. „*Pochtalyon*“ *marshqi*.

Maqsad: nutqni eshitish malakasini rivojlantirish, ravshan gapirishni shakllantirish, „S“ tovushining jummalarda to‘g‘ri talaffuz etilishini mustahkamlash, ma‘noli (ifodali) gapirishga o‘rgatish.

Mazmuni. Pochtalyon bolalarga voqeyi rasmlarni tarqatib chiqadi. Rasmni olgan har bir bola uni boshqa bolalarga ko‘rsatib, unda nima tasvirlanganini aytib beradi. Masalan: sigir sog‘ayotgan ayol, suv sepayotgan qizcha, stakandan suv ichayotgan bola, savat ichiga solingan sabzi va hokazolar tasvirlangan rasmlar to‘plamidan foydalaniladi.

Shu tartibdagi mashqlar maxsus qo‘llanmada keng bayon etilgan.

Shuningdek, nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash bo‘yicha oyda 1—2 marta o‘tkaziladigan mashg‘ulotning tuzilishini quyidagi misolda aniq ko‘rsatish mumkin. Bir mashg‘ulotda nutqning tovush madaniyatini shakllantirishning bir qancha vazifalari hal etiladi.

1- qism. Nutqni eshitish malakasini va eshituv diqqatini rivojlantirish. „Top, men nima dedim?“ ta‘limiy o‘yin (2 — 4 daqiqa).

2- qism. Tovush talaffuzini shakllantirish. „Bu kim, top?“ rasmlar bilan o‘tkaziladigan ta‘limiy o‘yin (5 daqiqa).

3- qism. Nutqning ma'nodorligi (ifodaliligi) ustida ishlash. Ilgari yod olgan she'rlarini takrorlash (3—5 daqiqa).

4- qism. Nafas olish va chiqarishni rivojlantirish uchun „Kapalaklar, uching“ mashqi (2 — 3 daqiqa). Mashg'ulotning umumiy davom etishi 12 — 17 daqiqa.

5 — 7 yoshli bolalarda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish uslubi

Katta guruhdagi bolalarning ko'pchiligi ona tilidagi barcha tovushlarni, so'z va jumalarni to'g'ri talaffuz eta oladilar, vaziyatga qarab ovoz tonini o'zgartira oladilar, ma'noli nutqning intonatsion vositalaridan foydalanish malakasiga ega, nutqni eshitish malakasi yetarli darajada rivojlangan bo'ladi. Biroq bu yoshdagi bolalar orasida ayrim tovushlarni va murakkab so'zlarni aniq talaffuz etolmaydigan bolalar uchrab turadi. Ba'zilar odatdagi nutq tempidan to'g'ri foydalana olmaydilar, yetarlicha baland ovozda yoki past ovozda gapirish malakasi shakllanmagan bo'ladi. Ayrim bolalar tovushlarni to'g'ri talaffuz etsa-da, biroq eshitish orqali o'xshash tovushlarni bir-biridan farqlay olmaydilar, bu nuqsonlar kelgusida bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashda qiynchiliklarga sabab bo'lishi mumkin.

5 — 7 yoshli bolalar nutqining tovush madaniyatini shakllantirishning asosiy vazifalari — bu nutqni eshitishni, ma'noli nutqni intonatsion ifodalashni takomillashtirishdan iboratdir. Bu bosqichda nutqning tovush madaniyatini shakllantirishni bolalar tomonidan ko'pincha bir-biriga aralashtirib yuboriladigan tovushlarni: shovqinli va sirg'aluvchi (*sh-s, j-z*), jarangli va jarangsiz (*v-f, z-s, j-sh, b-p, d-t, g-k*), sonor tovushlar (*l-r*) va boshqalarni farqlash ishi bilan bog'lash mumkin.

Bunday ishlarni doimo uzluksiz ravishda olib borish natijasida bolalar o'zlarining tovush talaffuzlarini aniqlaydilar, fonematik eshituv qobiliyati rivojlanadi, artikulatsiya apparati a'zolarining harakatlari takomillashadi, bularning barchasi kelgusida ona tilini muvaffaqiyatli egallashda yordam beradi.

Tovushlarni farqlash ustida ishlash nutqda nafas olish va chiqarishni, ravshan gapirishni, ma'noli nutqni intonatsion ifodalashni, ya'ni nutqning tovush madaniyatining hamma tomonlarini takomillashtirishga yordam beradi.

Har qanday juft tovushni farqlash ishining uchta turi mavjud.

1- turdagi (ko'rinishdagi) ish — o'xshash tovushlarni farqlash.

Tarbiyachi tovushlarning talaffuzi va artikulatsiya xususiyatlariga qarab tovushlarni farqlash ishini olib boradi, buning uchun rasmlardan, namunalardan, ya'ni nomida farq qilina-yotgan tovushlar bor bo'lgan hayvonlar, buyum va narsalarning tasviri aks etgan rasmlardan foydalanadi. Bu ish turi tovushlarni farq qilishga o'rgatish bilan bir vaqtda fonematik eshituvni, tovushlarni aniq talaffuz etishni takomillashtirishga yordam be-radi.

2- turdagi ish — tovushlarni so'zlarda farqlash.

Tarbiyachi nomida farq qilinayotgan tovush bo'lgan turli xildagi rasmlarni, o'yinchoqlarni, narsa-buyumlarni tanlaydi va bolalarni uni farqlashga o'rgatadi. Avval farq qilinayotgan u yoki bu tovush bor bo'lgan so'z, so'ngra farq qilinayotgan tovush-larning biri bilan farq qiladigan so'z, keyin farq qilinayotgan har ikkala tovush bor bo'lgan so'z olinadi. Bolalar ularni to'g'ri, aniq talaffuz etishlari va farqini ko'rsatishlari kerak. Bu ish jarayonini amalga oshirishda ravshan (burro) gapirish, so'zlarni orfoepik qoidalarga amal qilgan holda to'g'ri talaffuz etish takomillashib boradi.

3- turdagi ish — tovushlarni nutqda farqlash.

Buning uchun tarbiyachi so'zli o'yinlar, hikoyalar, sujetli rasmlar, she'rlar, tez aytishuvlar, topishmoqlar, sanamalar, maqollar va boshqa nutqiy materiallarni tanlaydi. Tarbiyachi bu nutqiy materiallar yordamida bolalarga tovushlarni bir-biridan farqlashni o'rgatish bilan bir vaqtda, nutq tempini, ravshan gapirishni, ovozdan to'g'ri foydalanishni, so'zlarni adabiy til qoidalariga rioya qilgan holda to'g'ri talaffuz etishni mustahkam-lash imkoniyatiga ham ega bo'ladi. 5 — 7 yoshli bolalar guruhida nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash bo'yicha mashg'ulotlar har oyda 1—2 marta o'tkaziladi. Bundan tashqari, haftada 2 — 3 marta nutq o'stirish mashg'ulotini boshqa ish vazifalari qismi sifatidagi mashqlar tashkil etiladi. Shuningdek, mashg'ulotdan tashqari vaqtda haftada 2—3 marta harakatli o'yinlar, nafas olish va chiqarish, eshitish diqqatini rivojlantirish uchun takroriy o'yinlar tashkil etiladi.

Mashg'ulotlarning tuzilishi umumiy ta'limiy talablarga asoslanadi: avval bolalar uchun yangi va qiyin bo'lgan material taklif etiladi; ba'zi bir qismlarining mazmuni va davomiyligi va hokazolar o'zgarishi mumkin. Nutqning tovush madaniyatini

tarbiyalash bo'yicha mashg'ulotlar bir necha qismdan iborat qilib tuziladi va bir mashg'ulotning davomiyligi vaqtida tovush madaniyatining bir qancha vazifalari amalga oshiriladi.

Masalan: **1- qism.** Nutqni eshitish yoki fonematik eshitishni rivojlantirish uchun „Berilgan tovush qatnashgan so'z o'ylash“ mashqi (5 daqiqa).

2- qism. Ovoz kuchi va balandligini mashq qilish uchun tovushga taqlid etuvchi ertakni hikoya qilib berish „Mitti jo'ja“ (10 daqiqa).

3- qism. Nutqda nafas olish va chiqarishni mashq qilish uchun „O'yinchoq o'rnini aniqla“ o'yini (2 daqiqa).

4- qism. Ravshan gapirish va nutq tempini mashq qilish uchun tez aytishlarni takrorlash (3 — 5 daqiqa). Mashg'ulotning umumiy davomiyligi 20 — 25 daqiqa.

5- §. Nutqning tovush madaniyati bo'yicha ishlarni rejalashtirish

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash nutqni rivojlantirishning boshqa vazifalari (lug'atini boyitish, bog'langan nutqni rivojlantirish, grammatik to'g'ri nutqni shakllantirish, hikoya qilishga o'rgatish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish, boshlang'ich savodga tayyorlash) bilan mustahkam bog'liq. Nutqning tovush madaniyati buyicha ish maxsus yondashishni, maxsus usullarni talab etadi. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash ishlari maxsus ma'lumotlar jarayonida amalga oshiriladi.

Mashg'ulot nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashning asosiy shakli hisoblanadi. Mashg'ulot onda-sonda emas, balki uzluksiz (sistemali) tarzda o'tkaziladi. Nutqning tovush madaniyatini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun maxsus mashg'ulotlar bilan chegaralanish kerak emas. Shuning uchun nutq o'stirish bo'yicha turli mashg'ulotlarni rejalashtirganda (masalan, she'r yod oldirish, surat bo'yicha ishlash va hokazolar) uning dastur mazmuniga nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashning ayrim bo'limlarini (ma'noli nutqni shakllantirish, nafas olish va chiqarishni, nutq sur'ati, ovoz sifatini va hokazolar) kiritish kerak. Nutqning tovush madaniyatini rivojlantirishda musiqa mashg'uloti katta ahamiyatga ega.

Musiqa mashg'ulotlarining ayrim vazifalari (masalan, ovoz kuchini rivojlantirish, nafas olish va chiqarish, nutq ritmi va boshqalar) mos tushadi.

Tarbiyachi va musiqa rahbarining hamkorlikda to'g'ri tashkil etilgan ishi bolalarda nutqning tovush madaniyatini shakllantirishda yaxshi natijalarga erishishda yordam beradi.

Bolalar tovush talaffuzini, nutqning intonatsion ma'nodorligini turlicha egallaydilar. Ayrim bolalar bilan nutqning tovush madaniyatining u yoki bu bo'limini egallash uchun mashg'ulotdan tashqari vaqtda qo'shimcha ishlash zarur. Shunday qilib, nutqning tovush madaniyatini rivojlantirish bo'yicha ishlar turli shakllarda olib boriladi:

1) nutqning tovush madaniyati bo'yicha mustaqil mashg'ulot yoki nutq o'stirish mashg'ulotining qismi sifatida o'tkaziladigan mashg'ulot;

2) nutq tovush madaniyatining turli bo'limlari nutq o'stirish (ona tili) mashg'ulotlarining mazmuniga kiritilishi mumkin;

3) nutqning tovush madaniyati bo'yicha ishning ayrim bo'limlari musiqa mashg'ulotiga kiritiladi;

4) mashg'ulotdan tashqari vaqtda nutqning tovush madaniyati bo'yicha qo'shimcha ishlarni o'tkazish.

Yuqorida bayon etilgan ish shakllariga kengroq to'xtalib o'tamiz.

1. Nutqning tovush madaniyati bo'yicha mashg'ulotlar. Ik yoshdagi bolalar bilan har kuni yakkama-yakka va uncha katta bo'lmagan guruhchalar bilan (bir yarim yoshgacha 6 ta bola bilan, bir yarim yoshdan 2 yoshgacha 10 ta bola bilan) o'yin mashqlari tashkil etiladi: mashg'ulotlar 10 daqiqa davom etadi.

O'yin-mashg'ulotlar bolalarda eshituv diqqatini, nutqni tushunishni, artikulatsiya apparati a'zolarini rivojlantirishga, tovush va tovush birikmalariga taqlid qilishga, lug'atini faollashtirishga qaratilgan. Bu o'yinlar mazmuniga tovushga taqlid qiluvchi (hayvonlarning, narsa-buyumlarning) ashulalar, hazillar kiritilgan, shuningdek, o'yinchoqlarni va turli buyumlarni ko'rsatishda, nomini aytishda tovushga taqlid qilishdan (kuchukcha—*vov-vov*; soat — *chiq-chiq* va boshqalar) foydalaniladi.

2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulot nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga bag'ishlangan bo'lib, haftada 1 marta tashkil etiladi, davomiyligi 15 daqiqa. Bu yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulot bolalarning eshituv idrokini, nafas olish va chiqarish, ovoz apparatining harakatini rivojlantirishga, artikulatsiyani aniqlashga, so'z va jumalarni to'g'ri va aniq talaffuz etishga qaratilgan.

Bu mashg'ulotlar turli hayvonlarning, ovoz chiqaradigan buyumlarning ovozigacha taqlid qilish, ushbu tovushga taqlid qilishni ashula, hazillar, ta'limiy o'yinlar, kichik she'rlar va hikoyalarga kiritish yo'li bilan o'tkaziladi.

3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan mashg'ulotlar hamma guruh bilan nutq o'stirish mashg'ulotining (haftada 1 marta, 5 — 8 daqiqadan) qismi sifatida va mustaqil mashg'ulot (oyda 1 — 2 marta, 15 — 20 daqiqa) tarzida o'tkaziladi.

Ushbu guruh yoshidagi bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulot fonematik va nutqni eshitishni rivojlantirish, artikulasiya apparatining harakatchanligini takomillashtirish, ona tilidagi hamma tovushlarning to'g'ri talaffuzini egallash va mustahkamlash, so'z va jummalarni ishonchli tarzda to'g'ri talaffuz etish, so'zlarda urg'uni to'g'ri ishlatish, adabiy talaffuz qoidalariga binoan so'zlarni to'g'ri talaffuz etish, ovoz balandligidan foydalana olish malakasini tarbiyalash, so'z va jummalarni ma'noli nutqning intonasion vositalarini hisobga olgan holda kerakli nutq sur'atida talaffuz etishga o'rgatish maqsadida o'tkaziladi.

Bu bosqichda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash ta'limiy o'yinlar, turli nutq materiallaridan iborat bo'lgan (tez aytishlar, topishmoqlar, sanamalar, she'rlar, hikoyalar va boshqalar) o'yin mashqlari asosida amalga oshiriladi.

5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan mashg'ulotlar hamma guruh bolalari bilan nutq o'stirish mashg'ulotining qismi sifatida (5 — 8 daqiqa) hamda oyda bir marta maxsus mashg'ulot sifatida o'tkaziladi.

Bu bosqichda nutqning tovush madaniyatining hamma bo'limlari (vazifalari) bo'yicha hosil qilingan ko'nikma va malakalar qayta ishlanadi, mustahkamlanadi, takomillashtiriladi.

Ayniqsa, tovushlarni bir-biridan farqlashga (*s-sh*, *s-z*, *sh-j*, *f-v* va boshqalar) ahamiyat beriladi. Nutq tovush madaniyatining barcha bo'limlari (vazifalari) ta'limiy o'yinlar, tez aytishlar, sanamalar, maqollar, matallar, aytishuvlar va she'rlar yordamida amalga oshiriladi.

2. Nutqning tovush madaniyatining turli bo'limlarini nutq o'stirish bo'yicha mashg'ulotlar mazmuniga kiritish. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash bo'yicha ish nutq o'stirish mashg'ulotlarining dastur mazmuniga kiritilishi mumkin. Chunonchi, tarbiyachi surat bo'yicha suhbat mashg'ulotini o'tkazish jarayonida bolalar lug'atini faollashtirish va bog'langan

nutqni takomillashtirish bilan bir vaqtda, ravshan gapirishni ham amalga oshiradi. Nutq o'stirish mashg'ulotining boshqa bo'limlari (ta'limiy o'yin, she'ni yod olish, badiiy asarlarni hikoya qilib berish va ular yuzasidan suhbat, ertak va hikoyalarni qayta hikoya qildirish) bo'yicha tashkil etiladigan mashg'ulotning mazmuniga nutq eshitishni, nutqda nafas olish va chiqarishni rivojlantirish, ovozdan foydalana olish malakasini tarbiyalash, tovushlarni to'g'ri va aniq talaffuz etishga, kerakli nutq sur'atidan, intonatsiya vositalaridan foydalanib hikoya qilib berishga o'rgatish va boshqalar kiritiladi.

3. Nutq tovush madaniyatining turli bo'limlarini musiqa mashg'ulotiga kiritish. Nutqning tovush madaniyati ustida ishlashda musiqa mashg'ulotlaridan foydalanish imkoniyatlariga alohida e'tibor berish kerak.

Bu ish tarbiyachi va musiqa rahbarining hamkorligida, kelishuvi asosida o'tkazilishi kerak. Chunki musiqa mashg'ulotining ayrim elementlari (musiqa tinglash, ashula, musiqaviy-ritmik harakatlar) bolalarda nutqni eshitishni, nafas olish va chiqarishni, ovoz sifati, nutq sur'ati va ritmini, ravshan gapirishni, nutqning intonatsion ma'nodorligini rivojlantirishga yordam beradi. Musiqa rahbari qo'yilgan maqsadga erishish uchun musiqa mashg'ulotining turli qismlaridan to'g'ri foydalanish orqali bolalarda nutqning tovush madaniyatini rivojlantirishga yordam berishi mumkin. Masalan, ashula aytish, ashula aytib o'ynaladigan o'yinlar nutqni eshitish diqqatini rivojlantirishga yordam beradi. Nafas olishni va chiqarishni rivojlantirishda ashula aytish katta ahamiyatga ega. U bolalarni jumalarni aytishda to'g'ri nafas olishga va chiqarishga, ashula ohangini buzmasdan to'g'ri aytishga o'rgatadi. Ashula aytish bolalarni tabiiy ovozdan foydalanishga, yetarlicha baland yoki past ovozda ashula aytishga o'rgatadi. Shuningdek, ashula aytish unli tovushlarni cho'zib, aniq, tekis talaffuz etishga, ashula matnidagi so'zlarni ortiqcha kuch ishlatmasdan tiniq va aniq aytishga o'rgatadi.

Musiqa mashg'ulotining hamma qismlari bolalarda odatdagi nutq sur'atini va ritmini (ohangdorligini), nutqning tekisligini rivojlantirishga yordam beradi hamda ma'noli (ifodali) nutqning intonatsion vositalaridan foydalana olish malakasini hosil qiladi.

Shunday qilib, musiqa rahbari bolalarda nutqning tovush madaniyatini shakllantirish bo'yicha ishlarni tashkil etishda faol ishtirok etishi kerak.

4. Mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda nutqning tovush madaniyati va uning turli bo'limlari ustida ishlash.

Nutqning tovush madaniyati bo'yicha ishlarni mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda: ertalabki badantarbiya vaqtida, sayrda, o'yin vaqtida, ertalab bolalar bog'chaga kelganda va uyga ketishlaridan oldin tashkil etish mumkin.

Artikulatsiya apparatini, ovoz kuchini, nutqda nafas olish va chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirish uchun kun tartibiga nutq mashqini kiritish zarur. Bu mashq ertalabki nonushtadan avval yoki ertalabki badantarbiya vaqtida o'tkazilishi kerak. Nutq mashqida o'yin shaklidagi mashqlardan foydalaniladi. Bu o'yin shaklidagi mashqlar artikulasiya apparati a'zolarining harakatini muvofiqlashtirish hamda nafas olish va chiqarishni, ovozni rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi. Nutqning tovush madaniyati bo'yicha dastur materiallarini mashg'ulot jarayonida o'zlashtirilmagan yoki yomon o'zlashtirgan bolalar bilan qo'shimcha ish olib borish zarur. Mashg'ulotlar yakkama-yakka tartibda va guruh (qaysidir tovushni o'zlashtira olmagan bolalar bir guruhga birlashtiriladi) bo'lib tashkil etiladi. Bolalar bilan yakkama-yakka va guruh bo'lib ishlash mashg'ulotlari sayrda, o'yinda, ertalabki qabul vaqtida va uyga ketishdan oldin tashkil etiladi.



Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nutqning tovush madaniyati deganda nima tushuniladi?
2. Bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashning ahamiyati nimada?
3. Bolalar tomonidan nutqning tovush madaniyatini o'zlashtirish xususiyatlarini bayon eting.
4. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash bo'yicha ish vazifalari va mazmuni nimalardan iborat?
5. Tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish haqida tushuncha bering.
6. Ravshan (burro) gapirishga qanday o'rgatiladi?
7. Nutqning orfoepik tomoni, urg'uni ishlatish, so'zni to'g'ri talaffuz etish ustida qanday ishlar olib boriladi?
8. Nutqda nafas olish va chiqarish, nutq sur'ati va ovoz sifatini tarbiyalash mazmunini bayon eting.
9. Nutqning ma'nodorligini tarbiyalash usullari haqida tushuncha bering.
10. Nutq eshitishni tarbiyalash va fonematik idrokni rivojlantirish bo'yicha ishlarning mazmuni nimalardan iborat?

11. Turli yosh guruhlarida nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish uslubiyotini bayon eting.
12. Nutqning tovush madaniyati bo'yicha ishlarni rejalashtirish haqida tushuncha bering.
13. O'zingiz amaliyot o'tkazadigan tayanch bolalar bog'chasida 4 — 5 ta bolaning nutqini tekshiring (ertalabki soatda), tekshirish uchun materiallarni mustaqil tanlang. Tekshirish natijalarini bolalar nutqining holatini aks ettiruvchi jadvalga belgilab boring va ular nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun ish rejasini tuzing va ularni asoslang.
14. Ikkinchi kichik guruh uchun nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash bo'yicha mashg'ulot ishlanmasini tuzing va bu ishlanma asosida bog'chada ushbu mashg'ulotni o'tkazing, uni katta tarbiyachi, amaliyot rahbari, mudira bilan hamkorlikda tahlil qiling va uning mazmunini yozib boring.
15. Artikulatsiya gimnastikasi mashqlarini yozing („Logopediya“ qo'llanmasidan foydalanib. T., „O'qituvchi“, 1993, 74 — 79-betlar) va uning ahamiyatini asoslang.
16. O'zingiz bolalar yoshini tanlagan holda, bu yoshga mos nutqda nafas olish va chiqarishni hamda ovoz kuchini rivojlantirishga yordam beruvchi o'yin-mashqlarning ishlanmalarini tuzing va uni bolalar bilan o'tkazing. (Q. S. Shodiyeva. „Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish“ qo'llanmasidan foydalaning. T., „O'qituvchi“, 1994.)
17. Tovushni to'g'ri talaffuz qilish, ovoz apparatining harakatini rivojlantirish, eshituv idroki, ravshan gapirishni (yaxshi diksiyani) shakllantirish uchun mashqlar ishlanmasini tuzing va ushbu mashg'ulotni bog'chada to'rt yoshli bolalar guruhida o'tkazing, uni amaliyot rahbari, katta tarbiyachi hamkorligida tahlil qiling, tahlil mazmunini yozing.
18. Tajribali tarbiyachilarning ishini kuzating: ular qanday qilib bolalarni maishiy faoliyat jarayonida bir-birlari va kattalar bilan samimiy ohangda gaplashishga o'rgatishadi?
19. Quyidagi qo'llanmaning ayrim bo'limlari bo'yicha (o'qituvchining ko'rsatishi bo'yicha) referat tuzing: Q. S. Shodiyeva „Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish“. T.; „O'qituvchi“, 1995.
20. Guruh xonasida dars vaqtida tuzilgan referatlarni muhokama qiling. O'qigan maqolalaringizdan, adabiyotlaringizdan qanday yangiliklarni bilib oldingiz, buni o'zingiz bilgan ma'lumotlar bilan taqqoslang.

BOLALARNI BOG‘LANISHLI NUTQQA O‘RGATISH USLUBIYOTI

1- §. Bog‘lanishli nutq va uni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda rivojlantirish xususiyatlari

Har bir bola bog‘chada o‘z fikrini mazmunli, grammatik jihatdan to‘g‘ri, bir-biriga mantiqan bog‘langan holda bayon etishga o‘rganishi kerak. Bog‘langan nutqda bolaning mantiqiy tafakkuri, idrok qilganlari yuzasidan fikrlay olishi va mantiqiy nutqda uni to‘g‘ri, aniq bayon etishi aks etadi. Bolaning o‘z fikrini bayon etishiga qarab, nutqning rivojlanganlik darajasini belgilash mumkin.

O‘z fikrini aniq, ifodali, izchillik bilan bog‘lab bayon eta olishi bolaning estetik rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

Bog‘lanishli nutq deganda, ma‘lum bir mazmundagi fikrni mantiqan bir-biriga bog‘lab, izchil ravishda, grammatik jihatdan to‘g‘ri va obrazli qilib bayon qilish tushuniladi.

Bolalarda bog‘lanishli nutqning rivojlanishi ona tiliga o‘rgatishning quyidagi vazifalarini ham hal qiladi:

1) lug‘at ishini (keng so‘zlar to‘plami va undan foydalana olish, fikrni aniq va to‘liq ifoda etishga yordam beradi);

2) nutqni grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirishni (o‘z fikrini sodda va yoyiq, ergashgan va bog‘langan qo‘shma gaplardan, son, sifat, kelishik qo‘shimchalaridan to‘g‘ri foydalanib bayon etish);

3) nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashni (nutqning aniq, ma‘noli, burro bo‘lishi).

Nutqning ikki xil: dialogik va monologik turlari mavjud bo‘lib, ularning har qaysisi o‘z xususiyatiga ega. Dialogik nutq shakli (ikki yoki bir necha kishining suhbat, savollar va uning javoblari) bu to‘liq bo‘lmagan (qisqa) javobdir. Dialogik nutqning asosiy belgilari—to‘liq bo‘lmagan, undov so‘zlardan iborat, aniq intonatsion manodorlik (ifodalash), imo-ishora va boshqalardir. Dialogik nutqda savol tuza olish va savol berish, eshitgan savoliga taalluqli javobni berish, kerakli e‘tirozni bildirish, suhbat-

doshining javobini tuzatish va to'ldirish, muhokama va munozara qilish, o'z fikrini asoslash va boshqalar juda muhimdir.

Monologik nutq bir kishining nutqi bo'lib, so'zlovchidan keng, aniq, to'liq, bog'langan fikrni talab etadi.

Monolog hikoya tushuntirish, so'zlovchidan o'z fikrini asosiy narsaga qaratishni, jonli, obrazli, his-hayajon bilan gapirishni talab etadi. V. I. Tixeyeva, A. Sh. Usova, A. M. Muxina, L. A. Penevskaya, M. M. Konina, O. I. Solovyova va boshqalarning bog'lanishli nutq sohasida olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida bolalarda bog'lanishli nutqni rivojlantirishda tarbiyachining rahbarlik roliga katta ahamiyat beradilar. Ular: „Agarda bog'lanishli nutqqa qaratilgan mashg'ulotlar uzluksiz (sistemali) tarzda olib borilsa, unga tarbiyachi ongli ravishda rahbarlik qilsa, bolalarda o'z fikrlarini bir-biriga bog'lab gapirish malakasi rivojlanadi“, degan fikrni bayon etadilar.

Kichik yoshdagi bolalarda nutqni tushunish takomillashadi (so'zli topshiriqlarni, kattalarning ko'rsatmalarini, murakkab bo'lmagan adabiy asar mazmunini tushunadilar). Endi nutq aloqa vositasigina bo'lib qolmay, balki kattalarning so'z orqali tushuntirishlari yordamida bilimlarni egallash manbayiga aylana boshlaydi. Bolaning kattalar, tengdoshlari bilan bo'ladigan ancha murakkab va turli xildagi muomalasi nutqning rivojlanishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltiradi: tasavvurlarini boyitadi, lug'atini kengaytiradi. Ko'p harakatlar qilishi natijasida uning nutqi fe'llar, olmoshlar, ravishlar, old qo'shimchalar bilan boyiydi. Turli so'zlardan va ularning turli tartibidan foydalanib, oddiy gaplar tuza boshlaydi: *Behzod cho'miladi; Sayrga chiqaman; Sutni men ichmayman*. Uch yoshli bolalar uchun oddiy shakldagi dialogik nutq (savollarga javob) xosdir. Biroq ular endi o'zlarining fikrlarini bog'lab bayon etishni o'zlashtira boshlaydilar. Ular hali o'z nutqlarida juda ko'p xatolarga yo'l qo'yadilar: gapni noto'g'ri tuzadilar, buyumlarning harakatini, sifatini noto'g'ri aytadilar. Bolalarni so'zlashuv nutqiga o'rgatish va uni rivojlantirish monologik nutqni shakllantirishning asosi hisoblanadi. O'rta guruh yoshidagi bolalarda bog'lanishli nutqning rivojlanishida ular lug'atida 2,5 mingtagacha so'zlarning bo'lishi va ularni faollashtirish katta ahamiyatga ega.

Bu yoshdagi bola kattalar nutqini tushunibgina qolmay, balki o'z nutqida buyumlarning belgilarini, sifatini bildiruvchi so'zlarni, vaqtni va oddiy munosabatlarni aks ettiruvchi ravishlarni ishlata

boshlaydi. 4 — 5 yoshli bolaning dialogik nutqida savolga to'liq, keng javob berish talab etilsa-da, to'liq bo'lmagan jumalarni ishlatish hollari juda ko'p uchraydi, mustaqil javob berishda qiynaladilar, ko'pincha ular tasdiq shaklidagi savollardan foydalanadilar, savollarni to'g'ri tuza olmaydilar, o'rtoqlarining javobini tuzatish va to'ldirishga qiynaladilar. Shuningdek, ularda nutqning tuzilishi ilk shakliga ega bo'ladi. Ergashgan qo'shma gaplarni ishlatishda asosiy qism (*shuning uchun, nima, qachon*) tashlab ketiladi. Bolalar sekin-astalik bilan surat va o'yinchoqlar asosida mustaqil ravishda uncha katta bo'lmagan hikoyalar tuza boshlaydilar.

Biroq ularning hikoyalari ko'pincha kattalar hikoyasining aynan nusxasi bo'ladi. Ular hali kerakli narsani keraksizdan, muhimni ikkinchi darajalidan ajrata olmaydilar.

Katta guruh yoshidagi bolalarda bog'lanishli nutq ancha rivojlangan bo'ladi. Ular umumlashtirish, xulosa chiqarish, muhokama yuritish kabi malakalarga ega bo'lishadi. Dialogik nutqlarga, savollarga aniq, qisqa yoki keng tarzda javob bera oladilar. Savollarni to'g'ri tuza olish malakasi paydo bo'ladi, kerak paytda luqma tashlash, o'rtog'ining javobini to'ldirish va tuzatish kabi xususiyatlar rivojlanadi.

Ularda katta kishilarning ta'siri ostida fikr yuritish faoliyati takomillashadi, uning mazmuni va shaklida o'zgarish yuz beradi.

Narsa-buyumlardagi yoki hodisalardagi eng muhim belgilarni aytib berish malakasi shakllana boshlaydi. 5 — 6 yoshli bolalar suhbatda va so'zlashishda faol ishtirok etadilar: tortishadilar, muhokama qiladilar, o'z fikrlarini asosli deb biladilar, o'rtoqlarini bunga ishontiradilar. Endi ular narsa-buyumlarning, hodisalarning nomlarini aytish bilangina chegaralanmaydilar, balki ularning eng xarakterli belgilarini, sifatlarini aytadilar, narsa- buyumlarni yoki hodisalarni yetarli darajada to'liq tahlil qiladilar. Buyumlar va hodisalar o'rtasidagi ba'zi bir bog'lanishlarni belgilay olish malakasi bolalarning monologik nutqida o'z aksini topadi. Bu yoshga kelib ularning nutqida ergashgan qo'shma gaplar paydo bo'la boshlaydi, to'liq bo'lmagan va oddiy gaplar miqdori kamayadi. Taklif etilgan mavzuda tasviriy va voqeiy hikoya tuzish malakasi paydo bo'ladi. Biroq bu yoshda ham bolalar tarbiyachining namunasiga muhtoj bo'ladilar. Ularning hikoyasida tasvirlanayotgan narsa- buyumga yoki hodisaga o'zining emotsional munosabatini bildirish hali yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi.

Bolalarda bogʻlanishli nutq mashgʻulotlar va kundalik hayot jarayonida rivojlantiriladi. „Bolalar bogʻchasida taʼlim-tarbiya dasturi“ning kichik guruh bolalarini hikoya qilishga oʻrgatish boʻlimida bogʻlanishli nutqni rivojlantirishga yordam beruvchi tayyorgarlik ishlarini olib borish koʻrsatilgan.

Ayniqsa, ushbu guruhda soʻzlashuv nutqini rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Shuning uchun kichik yoshdagi bolalarning har bir aytgan fikriga ehtiyotkorlik bilan munosabatda boʻlib, uni qoʻllab-quvvatlash kerak.

Avval bolalarni soʻz yordamidagi topshiriqlarni (oʻyinchoqni olib kelish, nimanidir koʻrsatish yoki suratdan kimnidir, nimanidir koʻrsatish) bajarishga, soʻngra tarbiyachining savollariga javob berishga, uni tinglashga, ertakdagi ayrim qahramonlarning ashulalarini tarbiyachi bilan birgalikda takrorlashga oʻrgatiladi. Bu yoshdagi bolalarga beriladigan savollar bola uchun aniq va tushunarli boʻlishi kerak. („Sen qanday oʻyinchoqlarni yaxshi koʻrasan? Bu oʻyinchoq haqida gapirib ber. Bu suratda nima tasvirlangan?“)

Tarbiyachi bolaning bitta yoki ikkita jumladan iborat boʻlgan fikrlarining mazmunini fahmlab, oʻzining savollari bilan bolaning fikrini toʻliq va grammatik jihatdan toʻgʻri bayon etishga undaydi.

Soʻzlashuv nutqini rivojlantirish — bolalarni kattalarning nutqini tinglash va tushunish, savollarga javob berish, boshqa bolalarning oldida oʻz fikrini aytish, bir-birini tinglashdan iborat.

Oʻrta va katta yoshdagi bolalar monologik nutqning asosiy turi — hikoya va qayta hikoya qilish malakasini egallaydilar. Hikoya va qayta hikoya qilish bogʻlangan nutqning eng murakkab turidir. Bolalarda bogʻlanishli nutqni rivojlantirish ularni hikoya qilishga oʻrgatish orqali amalga oshiriladi. (Bolalar bogʻchasi dasturlari. Tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutq oʻstirish, badiiy adabiyot. T., 1992, 5 — 6- betlar.)

2- §. Bolalar bilan soʻzlashish — dialog nutqni shakllantirishning asosiy uslubi

Soʻzlashuv nutqi ogʻzaki nutqning ancha oddiy shakli boʻlib, u suhbatdoshlar tomonidan quvvatlanadi. Soʻzlovchilar turli vositalardan (ifodali vosita, koʻz qarashlar, imo-ishora, intonatsiya va hokazolar) foydalanib, bir-birlarini tushunadilar. Soʻzlovchilar uchun muhokama etiladigan predmet (buyum, narsa) maʼlum boʻladi. Bu nutq shakli sintaktik tomonidan ham juda oddiy:

tugallanmagan gaplardan, xitob, undov so'zlardan foydalaniladi; u savol va javoblardan, luqma tashlashdan va qisqa xabarlardan iborat bo'ladi. Ruhshunoslikda oddiy dialog (tayyorlanmagan) bilan suhbat o'rtasidagi farq aniqlangan. Suhbat o'ziga xos dialog bo'lib, ma'lum bir mavzu yo'nalishidan iborat bo'ladi. Suhbatning maqsadi qandaydir savolni (masalan, mavzuni) muhokama qilishdir. Suhbatni olib borish uchun suhbatda ishtirok etuvchilar oldindan tayyorlanadilar, unda kengroq ma'lumotlar ko'proq bo'ladi.

So'zlashuv nutqi bog'langan, tushunarli bo'lishi kerak. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar so'zlashuv nutqini kattalar rahbarligida egallashadi. 2 — 3 yoshli bolalar so'zlashuv mazmunidan tez chalg'iydilar. Ularda hali tafakkur, xotira, diqqat, lug'at boyligi, nutqning grammatik tomoni yaxshi rivojlanmagan. Dialog nutq esa bolalardagi tafakkurning, xotira va diqqatning, lug'at boyligining rivojlanganligi, nutqning grammatik jihatdan shakllanganligiga bog'liqdir.

4 — 5 yoshli bolalar sekin-astalik bilan fikrni keng va to'liq bayon etishga o'ta boshlaydilar. So'zlashganda ko'plab savollar (Nega? Nima uchun?) bera boshlaydilar. 5 yoshli bolalar uzoq vaqt davomida so'zlashish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bola bunday so'zlashuvda savollarga javob beradi, suhbatdoshini tinglaydi va hokazo.

„Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“da birinchi va ikkinchi guruhda so'zlashuv nutqiga quyidagi talablar, vazifalar qo'yilgan: tarbiyachining nutqini tinglash va tushunish, berilgan savollarga tortinmasdan javob berish malakasini shakllantirish. Ularni savol bilan murojaat etishga o'rgatish.

O'rta va katta guruhlar uchun „Dasturda“ ularning so'zlashuv nutqiga qo'yilgan vazifalar ancha murakkablashadi: suhbat vaqtida faol ishtirok etish; mavzu bo'yicha berilgan savollarga tushunib, qisqa va to'la javob berish, o'rtoqlarining berayotgan javoblariga e'tibor berish malakasi oshiriladi. Bolalarni so'zlashuv nutqiga o'rgatish til vazifalarini (javob shakllari, savol) bajaribgina qolmasdan, balki nutqiy sifatlarni (samimiylilik, dilkashlik, xushmuomalalik, vazminlik va hokazo) va bir qancha xulq-odob qoidalarini ham hal qilishi lozim.

Tarbiyachining bolalar so'zlashuv nutqiga ta'sir etish yo'llari juda xilma-xildir. Hamma guruhlarda bu vazifani amalga oshirishga yordam beruvchi vosita — bu kundalik hayot jarayonida bolalarning

soʻzlashuv nutqiga rahbarlik qilishdir. Shuningdek, soʻzlashuv nutqi turli xil mashgʻulotlarda ham shakllantirib boriladi.

Kichik guruhlarda nutq faolligi va soʻzlashish malakasi hayotiy vaziyatlardagi muloqot va bolalarning faoliyatlari jarayonida tarbiyalanib boradi. Bu jarayon bolaning bogʻchaga kelgan kunidanoq boshlanadi.

Tarbiyachi bolalar bilan soʻzlashganda buyumlarning nominigina soʻrab qolmasdan, balki ularning sifatlarini, qismlarini, u bilan qilinadigan harakatlarni ham soʻraydi.

Tarbiyachining oʻzi bolalarni soʻzlashishga undashi (enaganing ismini, otasining ismini, ayrim bolalarning ismini, qushning, gulning nomini aytishni soʻrash va hokazo), ularning tashabbusini quvvatlashi kerak. Agar bola bogʻchaga birinchi kelgan kunida gapga aralashmasa, odamovi boʻlib oʻtirsas, tarbiyachi bunday bola bilan alohida munosabatda boʻlishi, unga shirin soʻz aytishi, u bilan oʻynashi, buyumni harakatda koʻrsatishi va harakatlarni aytishi kerak.

Bolalar bilan soʻzlashishni tashkil etishda enaga ham faol ishtirok etishi lozim. Enaga bolani oʻziga qarata iltimos va murojaat qilishiga, uni soʻzlar, jumlar bilan ifodalashga oʻrgatib borishi kerak.

Tarbiyachi bolalardan bugun qayerga borganlarini, yer maydonchasi yoki tabiat burchagida qanday yangiliklarni koʻrganlarini soʻraydi. Bunday soʻzlashuvga koʻproq kam gapiradigan, indamas bolalarni (ularga murojaat qilish: Ahmad ham bordimi? Sayyora ham quyonlarga sabzi berdimi?) jalb qilish juda zarurdir. Bolalarda soʻzlashuv nutqi malakalarini shakllantirish uchun soʻzli topshiriqlar berish usulidan foydalaniladi. Buning uchun tarbiyachining oʻzi iltimos qilish namunasini aytib beradi, baʼzan esa kichkintoyga buni takrorlashni taklif etadi. Bunday topshiriq samimiy nutq shaklini mustahkamlashga yordam beradi.

Tarbiyachi soʻzlashuv nutqining rivoji uchun bolalar bilan birgalikda rasmlarni, bolalar kitoblarini va ulardagi suratlarni koʻrib chiqishni tashkil etadi. Maʼlum bir mavzuda soʻzlashish uchun tarbiyachining uncha katta boʻlmagan (Men trolleybusda nimani koʻrdim? Boshqa bolalar bogʻchasida qanday qiziq voqeani kuzatdim?) hikoyalari boʻlib oʻtgan xuddi shunga oʻxshash voqeani bolalar yodiga tushirishga yordam beradi, mulohaza yuritishi va baho berishini faollashtiradi.

Bunda eng natijali usullardan biri — turli yoshdagi bolalarni

birlashtirish va boshqa guruhlarga borishni tashkil etishdir. Chunki kichik guruhga kelgan katta guruh bolalari kichkintoylardan ularning o'yinchoqlari, kitoblari va boshqalar haqida so'raydilar.

Bolalarning so'zlashuv nutqini rivojlantirishga ularning o'yinlari, ayniqsa, voqeaband-ijroli o'yinlar: „Kasalxona“, „Sartaroshxona“, „Haydovchi-haydovchi“, „Do'kon-do'kon“, „Dengiz va cho'l“, „Kitoblar suhbat“, „Tuya va tuyaqush“ (o'rta guruhda) va hokazolar katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, bolalarning mehnat faoliyati ham so'zlashuv nutqini rivojlantirish imkonini beradi. Masalan: tuvakdagi pomidor ko'chatini jo'yaklarga ekish jarayonida tarbiyachi bolalar bilan quyidagi mazmunda so'zlashadi (har bir tuvakka ko'chat egasining — bolaning ismi yoziladi):

Tarbiyachi: Bolalar, hammangiz ko'chat ekilgan tuvaklaringizni olib keldingizmi?

Bolalar: Ha!

Tarbiyachi: Bolalar, aytinglar-chi, tuvakdagi ko'chatni yerga o'tqazganimizdan keyin kimning ko'chati qayerda ekanligini qanday bilasiz?

Lola: Tuvakni yerga to'liq ko'mmasdan, ism yozilgan joyni ko'rinarli qilib qo'yish kerak.

Akmal: Tuvakka uzun xivich (cho'p) tiqib qo'yib, unga ismlarimiz yozilgan qog'ozchalarni osib qo'yish kerak.

Tarbiyachi: Mana, ikkita taklif: Lola tuvakni to'liq ko'mmaslikni, ismlar yozilgan joyni ko'rinarli qilib qoldirishni, Akmal esa tuvakka yoki tuvak yoniga uzun cho'p tiqib, unga ismlar yozib qo'yilgan qog'ozlarni osib qo'yishni taklif etishyapti. Bu ikki taklifni muhokama qilamiz. Qaysi taklif yaxshiroq? Gavhar, sen nima deb o'ylaysan?

Gavhar: Kelinglar, ko'chat ekilgan tuvakni yerga oxirigacha ko'mamiz.

Tarbiyachi: Shuhrat, sen ayt-chi, agar biz tuvakni yerga oxirigacha ko'mmasak, yozuvini ko'rinarli qilib qoldirsak-da, ko'chatni sug'orish uchun suv quysak, unda bolalarning ismi yozilgan joy nima bo'ladi?

Shuhrat: Tuvakdagi yozuvlarga loy yopishib, yozuv ko'rinmaydi.

Tarbiyachi: To'g'ri aytasan, Shuhrat.

Akmal: Mening taklifim Lolaning taklifidan yaxshiroq!

Tarbiyachi: O'z-o'zini maqtab gapirish yaxshi emas. Bu

beodoblik hisoblanadi. Sening taklifing yaxshi yoki yaxshi emasligini boshqa bolalar aytishsin.

Behzod: Akmal yaxshi taklifni aytdi.

Tarbiyachi: Nima uchun?

Behzod: Chunki uzun cho'pga yozib qo'yilgan yozuvlar yaxshi ko'rinadi.

Tarbiyachi: Ko'chatni bemalol sug'orish mumkin. Yozuvlar o'chib ketmaydi. Hozir Behzod bilan Gavhar duradgor Ahmad akaga borib, ulardan uzun cho'p (reyka) borligini aniqlashadi. Bizga 25 ta uzun cho'p kerak. Siz buni Ahmad akaga qanday tushuntirasiz?

Har bir bola duradgor bilan bo'ladigan so'zlashuvlarning mazmunini aytishadi. Tarbiyachi aytilgan fikrlarning ichidan eng qisqa va tushunarlisini tanlab oladi va kichikintoyga duradgorga borib, o'zining iltimosini xuddi shunday tushuntirishni tavsiya etadi.

Katta guruhlarda ham shu usullardan foydalaniladi, biroq so'zlashuv nutqining mavzulari, topshiriq va hikoyalarning mazmuni murakkablashadi. Ushbu guruhda ko'proq kattalar bilan muloqotda bo'lish malakalarini o'stirishga, jamoat joylarida so'zlashish qoidalariga amal qilishga katta ahamiyat beriladi. Jamoa bo'lib so'zlashishda bolalarning javobini to'ldirishga, tuzatishga, so'rashga, qayta so'rashga o'rgatadi. Shu tariqa kundalik hayot jarayonida bolalarning so'zlashuv nutqi shakllantirib boriladi.

3- §. Maxsus mashg'ulotlarda dialogik nutqqa o'rgatish uslubiyotlari va usullari

Bolalarning so'zlashuv (dialogik) nutqini tarkib toptirishda maxsus mashg'ulotlar ham olib boriladi. Bu mashg'ulotlar: 1) suhbatlar; 2) ta'limiy o'yinlar; 3) suratlarni ko'rib chiqish va u haqda suhbat.

Suhbat mashg'ulotlarining ahamiyati. Suhbat ta'lim-tarbiyaviy ishning murakkab turidir. Suhbat tarbiyachining guruhdagi hamma bolalar bilan ma'lum bir mavzu yuzasidan maqsadga qaratilgan holda tashkiliy so'zlashishidir.

Bolalar bog'chasida bolalar bilan o'tkaziladigan suhbat ularning kundalik faoliyatlari va turli voqea-hodisalarni kuzatishi natijasida olgan tushunchalarini aniqlash va ularni bir tizimga solish maqsadida o'tkaziladi. Tarbiyachi bolalar bilan suhbatni tashkil etar ekan, u bolalarga haqiqatni to'liq va chuqur idrok

qilishga yordam beradi, ularning diqqatini tushunish qiyin bo'lgan voqea-hodisalarga jalb qiladi. Suhbat mashg'ulotida bola ilgari ko'rgan, kuzatgan voqea va hodisalarni qaytadan esga tushiradi, mantiqiy fikr yuritadi, tahlil va muhokama qiladi. Suhbat bolalarni jamoaga birlashtiradi, bir-birlariga bo'lgan qiziqishni oshiradi, bilim va tasavvurlarini mustahkamlaydi, ularning nutqiga (lug'atini faollashtirishga, grammatik shakllarni takomillashtirishga) sezilarli darajada ta'sir etadi, tarbiyachining gaplarini, o'rtoqlarining berayotgan javobini e'tibor bilan eshitishga odatlanadilar. Suhbat bolalarni o'z fikri bilan o'rtoqlashishga, jamoada so'zlashishga, faolligini oshirishga, o'z-o'zini tuta bilishga odatlantiradi, dunyoqarashini shakllantiradi, ya'ni yuqori axloqiy sifatlarni tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Suhbat uslubiyoti bolalarda bilim, axloqiy sifatlarni tarkib toptirish bilangina cheklanmay, balki ularning bog'lanishli nutqini o'stirishda, tevarakatrofdagi narsalarga qiziqishga, ularni aniq ko'rishga va ushbu narsalarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatishda muhim vosita hisoblanadi.

Suhbat mashg'ulotida tarbiyachi quyidagilarni amalga oshiradi:

1. Bolalarning tajribalarini aniqlaydi va tartibga soladi, ya'ni tarbiyachi rahbarligida kuzatish vaqtida va oiladagi, bolalar bog'chasidagi turli faoliyatlar jarayonida kishilar hayoti va tabiat to'g'risidagi bilim hamda tasavvurlarini aniqlaydi.

2. Bolalarda tevarakatrofga to'g'ri munosabatni tarbiyalaydi.

3. Bolalarni suhbat mavzusidan chalg'imag, o'z fikrini maqsadga yo'naltirilgan holda izchillik bilan bayon etishga o'rgatadi.

4. O'z fikrini oddiy va tushunarli tarzda ifodalashga o'rgatadi.

5. Bolalarning ilgari o'zlashtirgan bilimlariga asoslanib, ularning fikrlarini faollashtiradi, mustaqil mulohaza va muhokama qilishga o'rgatadi, muhokama qilinayotgan hodisaga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish fazilatini shakllantiradi va tarbiyalaydi. Bundan tashqari, tarbiyachi suhbat vaqtida bolalarda barqaror diqqatni, boshqalarning nutqini tinglash va tushunishni, savollarga ortiqcha kuttirmasdan, chaqirishni kutmasdan, tez javob berish istagini, yetarli ovoz balandligida, hamma eshitarli qilib aniq gapirish odatini ham tarbiyalaydi.

Suhbat mashg'ulotida bolalar kelgusida maktabda ta'lim olish jarayonida zarur bo'lgan bilim, malaka va odatlarni egallaydilar.

Suhbat bolalarning xilma-xil faoliyatlariga va xulqlariga katta ta'sir etadi.

Masalan, oila, onalar mehnati to'g'risidagi suhbatlardan so'ng bolalar o'zlarining yaqin kishilariga amaliy jihatdan o'z munosabatlarini namoyon etishga harakat qiladilar. Bunday suhbatlardan keyin bola tarbiyachisiga: „Yaqinda onamning tug'ilgan kunlari, ularga nima sovg'a qilishim mumkin, maslahat bering“, — deb murojaat etadi.

Transport vositalari to'g'risidagi suhbatdan keyin esa ko'cha bo'ylab harakat qilayotgan mashinalarni zo'r qiziqish va diqqat bilan kuzatadilar, ularda juda ko'p qizaqarli savollar paydo bo'ladi. ijodiy o'yinlarining mazmuni sezilarli darajada boyiydi.

Suhbat turlari

Suhbat asosan 3 xil bo'ladi:

1. Kirish suhbat.
2. Sayohat va kuzatish davomida o'tkaziladigan suhbat.
3. Yakuniy suhbat.

Kirish suhbat. Bu suhbat turidan bolalarni sayohatga olib borishdan oldin yoki bolalarga o'qilgan badiiy asarlarni qayta hikoya qildirishdan oldin foydalaniladi. Masalan, 6 yoshli bolalar bilan „Pomidor o'tqazdik“ mavzusida suhbat o'tkazishda (pomidor o'tqaziladigan yerga olib borishdan avval) tarbiyachi bolalarni guruh xonasida to'plab, qisqacha kirish suhbatini o'tkazadi, kirish suhbatini davomida bolalarga quyidagi savollarni beradi:

— Bolalar, eslanglar-chi, biz sizlar bilan tuvakdagi pomidor ko'chatlarini yerga (jo'yaklarga) qachon ekan edik?

— Kimning ko'chati qayerga ekilganligini tez bilib olish uchun qanday belgi qo'ygan edik?

— Pomidor yaxshi hosil berishi uchun uni qanday parvarish qilish kerak?

— Pomidorga suvni nimada quyish yaxshiroq — leykadami yoki chelakdami?

Bolalar javobidan so'ng tarbiyachi ularni to'ldirib, shunday deydi: — To'g'ri, bolalar, biz uch kun oldin guruhimizning yeriga tuvakdagi pomidor ko'chatlarini ekan edik. Har kim o'z ko'chatini parvarish qilishi uchun har bir ko'chat kimniki ekanligini bildiruvchi uzun cho'pni tuvak yoniga (yerga) suqib, unga ismlarni yozib qo'ygan edik. Mana bugun biz sizlar bilan

yerga ekilgan pomidor ko'chatlarimizni parvarish qilish uchun boramiz va u yerda kimning ko'chati qanday ko'karganini, unga qanday qilib suv berishni, qanday o'g'it solishni kuzatamiz. Mana, men pomidor ko'chatlariga suv quyish uchun leykachalarni tayyorlab qo'ydim. Leykachalardan quyilgan suv xuddi yomg'irga o'xshab tushadi. Bu ko'chat ildizlarining atrofini yumshatishga, ildizning yaxshi rivojlanishiga yordam beradi. Hozir hammangiz kiyimlaringizni kiyib olib, ikkitadan bo'lib, qo'l ushlab, ekin maydonimizga borishga tayyorlanasiz.

Bog'cha dahlizida shovqin qilmasdan, boshqa guruhlarning mashg'ulot o'tishlariga xalaqit bermasdan, sekin-asta yuramiz.

Sayohat yoki biror-bir narsani kuzatish davomida suhbat o'tkazish. Bolalarni pomidor ko'chati ekilgan yerga olib borib, pomidor ko'chatining o'sishini kuzatish va uni qanday parvarish qilish to'g'risidagi suhbatni tarbiyachi quyidagi savollar asosida davom ettiradi:

— Bolalar, biz hozir qayerga keldik?

— Kimning ko'chati qayerga ekilganligini qanday bilib olasiz?

— Pomidor ko'chati yaxshi o'sishi uchun nima qilish kerak?

— Parvarish qilish nimalardan iborat?

— Nima uchun o'simlikka namlik (suv) kerak?

— Suvni nimada quygan yaxshiroq? Nima uchun? (Bir bolaga leykachani beradi, u o'z ko'chatiga suv quyadi.)

— Nima uchun ko'chatga oziq beriladi? (Tarbiyachi ko'chatga oldindan tayyorlab qo'yilgan o'g'itni solib ko'rsatadi va ustidan leyka bilan suv quyadi.)

— Ko'chatga nima uchun quyosh nuri kerak?

— Begona o'tlarning ko'chat uchun qanday zarari bor?

Shundan so'ng tarbiyachi bolalarning javobini to'ldirib, suhbatni pomidor haqidagi she'rni aytib berish bilan tugatadi:

Barglar ostidan

Boqsam mo'ralab.

Uzgingiz kelar,

Tongda saralab.

Xoh salat qiling,

Xoh soling oshga.

Ishtaha ochgum

Keksa-yu, yoshga.

Tarbiyachi mashg'ulotdan so'ng bolalarga o'z ko'chatlariga o'g'it va leykadan suv quyishni aytadi, o'zi esa topshiriqni bolalar qanday bajarayotganlarini kuzatib boradi, zarur bo'lsa, yordam beradi.

Yakuniy suhbat. Bu suhbat turi bolalarning ko'rgan-eshitgan narsalari haqidagi bilimlarini aniqlash va uni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi.

Tarbiyachi bolalarni pomidor ko'chatni ekilgan yerga boshlab borib, ko'chatni parvarish qilish kerakligi va bu ish nimadan iborat ekanligi haqida suhbat o'tkazib, parvarish bilan bog'liq bo'lgan ishlar bajarilgach, oradan bir hafta o'tgach, „Biz pomidor ko'chatini qanday ekdik va parvarish qildik“ mavzusida yakuniy suhbat o'tkazadi.

Ushbu suhbat jarayonida bolalarga quyidagi savollarni berish mumkin:

- Biz o'tgan haftada qayerga borgan edik?
- U yerda biz nimani kuzatgan edik?
- Biz tuvakdagi pomidor ko'chatini qayerga ekkam edik?
- Har kim o'z ko'chatini yoniga qanday belgi qo'ygan edi? Buni nima uchun qilgan edi?
- Nima uchun pomidor ko'chatiga o'g'it solinadi?
- Ko'chatga suvni nimada quydingiz? Nima uchun leykada suv quydingiz?
- Pomidor ko'chatlari uchun quyosh nuri nima uchun kerak?
- Pomidor yaxshi o'sishi uchun uni nimalardan tozalash kerak?
- Pomidor qachon ekiladi? U qachon pishadi?
- Bizning ekin maydonimizda yana qanday sabzavotlar bor? Ular nima uchun kerak?

Tarbiyachi bolalar javobini to'ldiradi va suhbatni sabzavotlar to'g'risidagi she'rlar yoki topishmoqlar aytish bilan tugatadi.

Har bir suhbat 3 qismdan iborat bo'ladi:

1) suhbatni boshlash; 2) suhbatning borishi; 3) suhbatni yakunlash.

Suhbat mashg'ulotini tashkil etishda asosiy o'rinni **suhbatni boshlash** qismi egallaydi. Suhbatni boshlashda bolalar e'tibori biror-bir narsa yoki suratni ko'rishga yoki bo'lmasa, ularga tanish bo'lgan hodisalarni eslashga qaratiladi. Ba'zan suhbatni quyidagi jummalarni aytish bilan ham boshlash mumkin: „Men ko'pincha o'ylab qolaman, baliqlar akvariumda o'zlarini qanday his qilgan ekanlar...“, „Bugun men avtobusda emas, trolleybusda kelishimga to'g'ri keldi va shunda o'ylab qoldim, mening bolalarim qanday transportlarga tushish mumkinligini bilisharmikan?“, „Bolalar,

kim biladi, mening qo‘limdagi nima?“ Ba‘zan tarbiyachi suhbatni suhbat mavzusiga yaqin bo‘lgan topishmoq yoki she‘r aytib berishdan ham boshlashi mumkin.

Suhbat mashg‘ulotining borishida tarbiyachining tushuntirishi, ko‘rsatmasi, bergan savollari asosiy o‘rinni egallaydi. Suhbat uchun savollarni to‘g‘ri tanlay bilish juda muhimdir. Savollar bolalarga tushunarli bo‘lishi lozim. Shuning uchun bolalarga beriladigan savollarni tuzishda tarbiyachi oldiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

1. Savol aniq va sodda bo‘lishi kerak.
2. Savolni tuzayotgan vaqtda tarbiyachining o‘zi bolalardan qanday javob chiqishini ko‘z oldiga keltirishi lozim.
3. Bolalarning idrok qilishlari turlicha bo‘lishini hisobga olib, tarbiyachi yordamchi savollar berish orqali asosiy savolning mazmunini bolalarga anglatishi lozim.

Masalan, bolalarning oshpaz mehnati haqidagi tushunchalarini aniqlash va mustahkamlash maqsadida tarbiyachi ularni oshxonaga olib boradi va oshpazning ishini kuzatish jarayonida bolalar bilan suhbat o‘tkazadi. Buning uchun suhbat olib borish jarayonida quyidagi savollarni berish mumkin:

- Biz hozir qayerga keldik?
- Oshxonada kimlar ishlaydi?
- Ular qanday ishlarni bajaradilar?
- Qanday ovqatlarni tayyorlaydilar?
- Nimalarni qovuradilar?
- Nimalarni qaynatadilar?
- Hozir qanday ovqatlarni tayyorlamoqdalar?
- Bu ovqatlarni pishirish uchun qanday asboblari kerak bo‘ladi?
- Ovqat tayyorlash uchun qanday masalliqalar kerak?
- Oshpaz ovqatni kimlar uchun tayyorlaydi?
- Qani aytib-chi, oshpaz mehnati yengilmi yoki og‘irmi?

Tarbiyachi suhbatni topishmoq, she‘r, maqol, ashula aytib berish, suhbat mavzusiga taalluqli suratni ko‘rsatish, axloqiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan mantiqiy xulosalar qilish bilan yakunlaydi.

Suhbat mazmuni va mavzulari.

Suhbat mazmuni — bu „Dastur“ning „Bolalarni tevarakatrof bilan tanishtirish va ijtimoiy hayot hodisalariga qiziqishni tarbiyalash“ bo‘limidagi materiallar hisoblanadi. Bunga tevarak-

atrof va ona-Vatan, maishiy mavzudagi, buyuk siymolar va bayramlar, harbiy qo'shinlar, mashhur sarkardalar, kattalar mehnati, transport va aloqa vositalari, maishiy-xo'jalik va mehnat buyumlari, xalq ijodi, tabiat, shuningdek, bolalar bog'chasida bolalarning turli faoliyatlari (o'yinlari, mehnat, o'zaro yordam va hokazo) kiradi.

Maishiy mavzularda suhbatlar. Bu bolalar o'zlari shaxsan kuzatgan va ishtirok etgan voqea va hodisalardir. Bu suhbatlarda bolalar uyda kim bilan yashashlari, oila a'zolarining ismlari, ularning qayerda ishlashlari, uyda nima ishlar qilishlari, qanday dam olishlari, o'zlarining o'yinlari, uydagi mashg'ulot va o'yinlar, kuchiga yarasha kattalarga yordam berish va hokazolar haqida gapirib beradilar, uydagi va bog'chadagi muhitni bir-biriga taqqoslaydilar.

Tevarak-atrof va ona-Vatan to'g'risidagi suhbatlarda bolalar o'zlari tug'ilib o'sgan joylari — o'z shahar va qishloqlari; bog'chaga yaqin joylashgan ko'cha, binolar, maktab, do'kon, choyxona, idora, mahalla, undagi diqqatga sazovor joylar, me'morchilik yodgorliklari, maydon va xiyobonlar; o'z ko'chasi, mahallasining nomi va boshqalar haqida gapirib beradilar; O'zbekiston to'g'risida qisqacha ma'lumot beriladi, O'zbekistonning poytaxti — Toshkent haqida, Toshkentdagi Mustaqillik maydoni, Alisher Navoiy xiyoboni va hokazolar (har bir viloyatning o'z tarixiy joylari, shahari, tumani) haqida gapirib beriladi.

Katta kishilarning mehnati haqidagi suhbatlar bolalarni kattalar faoliyatining ma'nosini tushunib olishlariga yordam beradi. (Bolalar bog'chalari uchun dasturlar. Tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutq o'stirish, badiiy adabiyot. T., 1992, 2, 8, 16 - betlar.)

Buyuk siymolar va bayramlar haqidagi suhbatlarda bolalar o'zbek xalqining buyuk siymolari (Navoiy, Bobur, Al-Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Yunus Rajabiy, Kamoliddin Behzod, O'rol Tansiqboyev), o'zbek xalqining milliy bayramlari (Navro'z, Hosil bayrami — Mehrjon, Gullar va qushlar bayrami, to'ylar, sayillar) haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

Harbiy qo'shinlar haqidagi suhbatlarda bolalarga harbiy qo'shinlarda tankchilar, dengizchilar borligi, vatanni himoya qilish uchun jasur, kuchli, chaqqon bo'lishlari kerakligi haqida so'zlab beriladi.

Mashhur sarkardalar to'g'risidagi suhbatlarda bolalar Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur,

Sobir Rahimov kabi mashhur sarkardalarning hayotidan olingan qiziqarli voqealarni bilib oladilar.

Transport va aloqa vositalari to'g'risidagi suhbatlarda bolalarga transport va aloqa xodimlarining xizmatlari haqida tushuncha beriladi. Pochta, telefon, telegraf, ularning vazifalari to'g'risida gapirib beriladi.

Xalq ijodi to'g'risidagi suhbatlarda bolalarga so'zana, naqqoshlik, zardo'zlik, kulolchilik, milliy hunarmandchilik namunalari, me'morchilik yodgorliklari haqida gapiriladi. O'zbek xalq qo'shiqlari: lapar, alla, ertaklar, ermaklar; topishmoqlar, maqollar, sanamalar, aytishuvlar, ovutmachoqlar, tez aytishlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Tabiat to'g'risidagi suhbatlarda bolalarni yil fasllari, hayvonlar, o'simliklar, kattalarning tabiatdagi mehnatlari haqidagi tasavvurlari aniqlanadi va mustahkamlanadi.

Maishiy-xo'jalik va mehnat buyumlari to'g'risidagi suhbatlarda jihozlar, idish-tovoqlar, kiyim-kechaklar, o'yinchoqlar, ba'zi bir mehnat qurollari muhokama qilinadi, ularning nima uchun kerakligi, nimadan, qanday tayyorlanganligi, ayrim muhim belgilari (rangi, shakli, uzunligi), bu buyumlarni kim va qayerda tayyorlaganligi, uni qanday saqlash lozimligi aniqlanadi.

Suhbatga tayyorlanish va uni o'tkazish.

Suhbatlar birinchi kichik guruhdan boshlab o'tkaziladi.

Suhbat yilning ikkinchi yarmidan boshlab o'tkazilgani ma'qul. Chunki bu davrgacha bolalarda kerakli tajriba to'planadi. Bir oyda 1 — 3 ta suhbat o'tkazish tavsiya etiladi. Suhbatni tashkil etish uchun tarbiyachidan tayyorgarlik talab etiladi. Tarbiyachi navbatdagi ishlarni rejalashtirishda tevarak-atrof bilan tanishtirish bo'yicha qaysi dastur materialini suhbat tarzida berish maqsadga muvofiq ekanligini belgilaydi, so'ngra mashg'ulotni olib borish rejasini tuzadi.

Bolalar diqqatini tez to'plash va ularning mashg'ulotga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, aqliy faoliyatini faollashtirish, hissiyotlariga ta'sir etish uchun mashg'ulotni qanday boshlash kerakligini puxta o'ylab oladi. Bunday emotsional vositalar sifatida suratlardan, bolalar uchun notanish bo'lgan yangi topishmoqlardan, suhbat mazmuniga yaqin bo'lgan she'rlardan foydalanish mumkin.

Masalan, kuz haqidagi suhbatni O'. Tansiqboyevning „Kuz“ reproduksiyasini (katta guruhda) ko'rsatishdan boshlash mum-

kin. Bu asar bolalarning xotirasida bog'ga uyushtirilgan sayohat vaqtidagi taassurotlarini jonlantiradi.

O'zbekiston haqidagi suhbatni esa O'zbekistonning uzoq o'tmishiga doir ba'zi yodgorliklarni, hujjatli suratlarni ko'rsatishdan boshlash mumkin.

Ba'zi vaqtda suhbatni mavzuga bog'liq bo'lgan savollarni berishdan ham boshlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, kattalarning mehnatlari haqidagi suhbatni „Bolalar kimning otanasini qayerda, kim bo'lib ishlaydi?“ — degan savol bilan boshlaydi. Tarbiyachi bolalar mavzudan chetga chiqib ketmasliklari, chalg'imasliklari uchun oldindan suhbatning rejasini belgilab oladi.

Avvaldan rejaga ega bo'lgan tarbiyachi bolalarni har qanday sharoitda ham, navbatdagi reja savolini berish bilan mavzuga qaytara oladi. Tarbiyachi o'zining savollari bilan bolalar fikrini narsa va hodisalarning xarakterli va muhim belgilariga yo'naltiradi. Bolalarga ularning fikrlarini faollashtirishga yordam bermaydigan, yoshiga mos bo'lmagan savollarni berish yaramaydi. Shu nuqtayi nazardan besh-olti yoshli bolalarga: Sigirning oyog'i nechta? Quyoning nechta qulog'i bor? kabi savollarni berish yaramaydi. Birinchidan, bu bolaga ma'lum bo'lgan narsa; ikkinchidan, oyoqning, dumning, quloqning soni (miqdori) to'g'risidagi suhbat bolalarning hayvonlar to'g'risidagi bilimlariga hech qanday ma'lumot qo'shmaydi.

Chunki hamma hayvonlarda oyoq, quloq va hokazolar mavjud. Bir hayvon ikkinchi hayvondan gavda qismlarining miqdori bilan farq qilmaydi, balki hayot tarzi, harakati bilan ajralib turadi. Hayvonlarning tashqi belgilari to'g'risida eng to'g'ri savol quyidagicha bo'lishi mumkin: Mushukning ko'zlari qanday? Uning dumi qanday? va hokazolar. Suhbatning asosiy savollari (qo'shimcha savollar ham) tarbiyachining ishlanmasiga yozilishi kerak.

Shuningdek, tarbiyachi suhbat mavzusi uchun kerak bo'ladigan ko'rgazmalarni oldindan tayyorlashi va bolalar diqqatini jalb qilmaydigan joyga qo'yib qo'yishi kerak.

Mashg'ulot oxirida suhbat mazmunini mustahkamlash yoki uning bolalarga emotsional ta'sirini chuqurlashtirish foydalidir. Buni turli yo'llar bilan amalga oshirish mumkin, chunonchi: tarbiyachi suhbat mazmunini qisqa hikoya qilib berish, suhbat mavzusiga bog'liq bo'lgan ta'limiy o'yin o'tkazish (3 — 5 daqiqa):

tanish suhbat mazmuniga yaqin bo'lgan she'r yoki ashulani aytib berishni taklif etish; badiiy hikoya o'qib berish va hokazo. Tarbiyachining qaysi variantni tanlab olishi suhbatning mavzusiga, bolalar bilimining boyligiga va vaqtga bog'liqdir. Sabzavotlar to'g'risidagi suhbatni „Paypaslab top“ ta'limiy o'yini bilan; Navro'z bayrami to'g'risidagi suhbatni musiqa mashg'ulotida o'rganilgan ashulani aytirish bilan tugallash mumkin. Tarbiyachi suhbatda hamma bolalarning faol ishtirok etishiga harakat qilishi kerak. Buning uchun quyidagi qoidalarga amal qilishi kerak: savolni guruhdagi hamma bolalarga qarata berib, so'ngra javob berish uchun bittadan chaqirish kerak. Doimo bir boladan so'rash yaramaydi. Iloji boricha berilgan savolga ko'proq bolalarni javob berishga jalb qilishi kerak. Agar tarbiyachi bitta bola bilan uzoq gaplashsa, boshqa bolalar suhbatda ishtirok etishni istashmaydi. Shuningdek, tarbiyachining o'zi suhbat vaqtida bolalarga ma'lum bo'lgan narsalar haqida ko'p gapirsa ham bolalar suhbatda ishtirok etishmaydi.

Bolalar suhbat vaqtida jo'r (xor) bo'lib emas, balki bitta-bitta javob berishlari kerak. Agar zarurat bo'lmasa, bolalarning javobini bo'lmaslik lozim: agar bola zaruriy bilimga ega bo'lmasa, uyatchan bo'lsa, undan to'liq javob berishni talab etmasdan, qisqa javobi bilan qoniqish kerak. Bolalar savollarga yetarli ovoz balandligida, aniq va tetik javob berishlari lozim. Agar bola past ovozda javob bersa, tarbiyachi undan javobni baland ovozda, ammo qichqirmasdan takrorlashini talab etishi zarur. Masalan; „Sen nima deganingni hech kim eshitmadi, — deb tushuntirishi kerak. — Javobingni baland ovozda takrorla“. Tarbiyachi suhbatga tayyorlanishda va uni o'tkazishda ushbu qoidalarga qat'iy amal qilishi kerak.

Misol tariqasida katta guruhda o'tkaziladigan „Bolalar bog'chasi xodimlarining mehnati“ mavzusidagi suhbatni keltiramiz.

„Bolalar bog'chasi xodimlarining mehnati“ mavzusida suhbat.

Maqsad. Bolalarning bog'cha xodimlarining mehnatlari to'g'risidagi bilimlarini aniqlash va kengaytirish, har xil mehnat turlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatish; fe'llarni hosil qilish ustida mashq qilish.

Oldindan qilingan ish. Mashg'ulotdan 2 — 3 kun oldin (kechki soatda) tarbiyachi bolalarni yig'ib, ulardan bolalar bog'chasining mudirasi kim, u nima ish qiladi, deb so'raydi. Tarbiyachi bog'chada nima qilishi bilan qiziqadi. Bolalarning uzuq-

yuluq, ishonchsizlik bilan aytgan javoblarini tinglab, shunday deydi: „Sizlar bu kishilarning mehnatlari haqida juda kam bilar ekansizlar. Bu haqda ko‘proq bilishni istaysizlarmi?“ Bolalardan tasdiq javoblarini eshitib (bog‘cha xodimlari bilan oldindan kelishilgan bo‘ladi), uch-to‘rtta bolani oshpazning, hamshira va mudiraning, tarbiyachining yoniga ularning faoliyatlarini kuzatish va mehnatlari haqida ko‘p narsalarni bilib olishlari (so‘rab olishlari) uchun (35 — 40 daqiqaga) yuboradi.

Yuborilgan bolalar qaytishgach, o‘z taassurotlari bilan o‘rtoqlashishlarini so‘raydi. Boshqa bolalarga esa eshitganlari haqida qanday gapirib berish mumkinligini o‘ylashni taklif etadi.

Mashg‘ulotning borishi. Bizning Vatanimizda kichik yoshdagi bolalar maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyalanadilar, — deb so‘z boshlaydi tarbiyachi. — Kichkintoylar uchun bolalar bog‘chasida hamma sharoitlar muhayyo bo‘lishi, ular vaqtni qiziqarli o‘tkazishlari uchun ko‘p kishilar mehnat qilishadi. Men, bolalar bog‘chasida ko‘p kishilar mehnat qilishadi, deb aytdim. Men xato qilmadimmi? Maktabgacha tarbiya muassasalarida qanday kasbdagi kishilar mehnat qilishadi? Bolalar bilan doimo yonma-yon tarbiyachi va enaga mehnat qiladilar. Tarbiyachining vazifalariga nimalar kirishi haqida batafsilroq gapirib beringlar. (Har kuni ertalab bolalarni kutib oladi, ota-onalar bilan suhbatlashadi, o‘yinlar tashkil etadi, mashg‘ulotlar o‘tkazadi va boshqalar).

Enaga kun bo‘yi qanday ishlarni bajaradi, siz ularga qanday yordam berishingiz mumkin?

Siz bolalar bog‘chasi mudirasining ishlari haqida nimalarni bilasiz? Bizning oshpazimiz qanday mehnat qiladi? Bolalar bog‘chasining o‘z hamshirasi bo‘lsa qanday yaxshi — har doim ham davolash muassasasiga (poliklinika) borib yurilmaydi. Bolalar bog‘chasida hamshira nima qiladi? Suhbatni tarbiyachi shunday yakunlaydi: „Bugun biz bog‘cha xodimlarining mehnatlari, ularning vazifa va burchlari haqida ko‘proq bilib olishga harakat qildik. Siz nima deb o‘ylaysiz, kimning ishi qiziqroq va nima uchun? Bolalarning javobini tinglaydi. Yangi savol beradi: „Aytinch, kimning mehnati muhimroq?“ Xulosani izohlaymiz: „Har bir kishining mehnati bir xilda muhim va kerakli. Har bir kishi o‘z ishini yaxshiroq bajarishga harakat qiladi“.

Mashg‘ulotning 2- qismi. Tarbiyachi quyidagi so‘zlarni aytib, ular ishtirokida gaplar o‘ylab topishni taklif etadi: *yurdi, ketdi, kirdi, keldi*. So‘ngra bolalardan bu so‘zlarga o‘xshash yana qanday

soʻzlarni aytish mumkin, deb soʻraydi (*yetdi, oʻtdi, uzoqlashdi, tushdi, chiqdi*), bu soʻzlar ishtirokida ham gaplar tuzdiradi.

Suhbatda oʻrgatish va tarbiyalash usullari

Suhbatda asosiy oʻrgatish usuli savollar berishdir. Mazmuni va shakli jihatdan har xil murakkablikka ega boʻlgan savollardan foydalaniladi. Ayniqsa, bolalardan xulosa chiqarishni, muhokama qilishni, obyektlar oʻrtasidagi bogʻlanishlarni aniqlashni talab etuvchi savollar juda muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, obyektlarni taqqoslashni talab etuvchi savollar ham oʻz qimmatiga ega. Masalan: Tramvay trolleybusdan nimasi bilan farq qiladi? Qaysi sabzavotlarni xomligicha, qaysilarini pishirilgan, qaysilarini qovurilgan holda yeymiz?

Baholovchi savollar bolalarni faollashtirishga yordam beradi. Masalan, suyuq ovqatning turlari haqidagi savollarga dastlab javob beruvchilar juda koʻp boʻladi. Biroq ovqatning 3 — 4 turini aytishgach, bolalar aytilgan suyuq ovqat xillarini takrorlay boshlashadi: mastava, moshxoʻrda, karam shoʻrva. Bu holda tarbiyachi savolni boshqacha shaklda bergani maʼqul. Kimga qaysi suyuq ovqat koʻproq yoqadi? Yana juda koʻp bolalar javob berish uchun qoʻl koʻtarishadi: makaron shoʻrva, noʻxat shoʻrva, qovurma shoʻrva va hokazo.

Bolalarga ona tilini oʻrgatishda, lugʻatini faollashtirishda suhbatning ahamiyati juda katta. Suhbatda lugʻat ishining turli usullaridan foydalanish mumkin. Tarbiyachining ayrim soʻzlarning ahamiyatini (baʼzan kelib chiqishini ham) tushuntirishi juda muhim. Masalan, oziq-ovqatlar haqidagi mashgʻulotning borishi jarayonida tarbiyachi shunday tushuntiradi: „Ha, bu oziq-ovqatlar muzlatgichda saqlanadi. Ularga sovuq joy kerak. Ular aynib qolmasligi uchun muzlatgichda saqlanadi“. „Toʻgʻri, bu maxsus xona, u „omborxona“ deb ataladi. Omborxonada oziq-ovqatlar saqlanadi. „Omborxona“ soʻzini esda saqlang“. Lugʻat ishida soʻzlarni tarbiyachi bilan birgalikda joʻr (xor) boʻlib takrorlashdan foydalaniladi. Shuningdek, yangi yoki talaffuzi qiyin soʻzlarni (motoroller, trolleybus, tipratikan va boshqalar) takrorlash mumkin.

Mashgʻulotda bolalarning faol ishtirok etishlarini taʼminlash uchun ularni tarbiyachiga va oʻz oʻrtoqlariga savollar berishga oʻrgatish kerak. Chunki bolalarning savol berishi ularning diqqatini barqarorlashtiradi, qiziquvchanligini, sinchkovligini

oʻstiradi. Buning uchun tarbiyachi suhbat jarayonida bolalarda paydo boʻlgan savollarga katta eʼtibor berishi kerak. Ularni ragʻbatlantirishi, kuzatuvchanliklari, qiziquvchanliklarini taʼkidlab oʻtishi lozim.

Tarbiyachi bolalarni savollarga soʻzlar yoki jumlar bilan javob berishga oʻrgatib qolmay, balki oʻz fikrini kengroq bayon etishga ham oʻrgatib boradi. Buning uchun bir-biriga bogʻlangan 2 — 3 ta savol berish usulidan foydalanadi. Masalan: Bizning yechinish xonamiz haqida gapirib ber. U qanday? Guruh xonasidan nima bilan farq qiladi? U yerda qanday jihozlar bor va ular nima uchun kerak?

Bolalar fikrining toʻliq emasligi koʻrsatma berishni talab etadi: kengroq gapirib ber; oʻzing esla va hammasi haqida gapirib ber va boshqalar. Suhbatda oʻyin va emotsional xarakterdagi usullardan foydalanish ham yaxshi natijalar beradi: soʻz oʻyinlari, „Shundaymi yoki shunday emasmi?“, „Masxaraboz oʻrganyapti“ shaklidagi oʻyin- mashqlari, topishmoqlar, musiqa tinglash, badiiy asarlarni oʻqib berish. Tarbiyachi deyarli barcha suhbat mashgʻulotlarida koʻrgazmali qurollardan foydalanadi. Uning maqsadi — bolalar diqqatini toʻplashga yordam berish, bilimlarini aniqlash va boyitish, turli xil analizatorlar ishtirokida suhbatda ishtirok etishni yengillashtirish. Suhbat mashgʻulotida foydalaniladigan buyumlar (materiallar) xarakteri jihatidan juda xilma-xil. Masalan, buyumlarning asli (oʻzi), oʻyinchoqlar, suratlar (rasmlar), yirik suratlar yoki illustratsiyalar (tasvirlar), amaliy sanʼat jihozlari. Suhbatning kirish qismida foydalaniladigan koʻrgazmali qurol bolalar diqqatini toʻplashga, ularning bilimlarini jonlantirishga (bayram toʻgʻrisidagi suhbatda bayram jihozlari, bolalarning uydagi hayotlari haqidagi suhbatda „Oilada“ nomli surat) yordam beradi.

Mashgʻulotning borishida foydalaniladigan koʻrgazmali quroldan bolalarning bilimni aniqlash, diqqatini faollashtirish, mashgʻulotning oxirida esa emotsional kayfiyatni vujudga keltirish maqsadida foydalaniladi.

Taʼlimiy oʻyinlar va ularning bolalar soʻzlashuv nutqini oʻstirishdagi ahamiyati. Kichik guruhlarda bolalarni soʻzlashuv nutqiga oʻrgatishda mashgʻulotning oʻyin shaklidan foydalaniladi. Bu mashgʻulot turiga bolalarning nutq faolligi (savollarga javob berishi) asosiy oʻrinni egallaydi. Taʼlimiy oʻyinlar koʻproq qoʻgʻirchoqlar bilan olib borilib, bunda tarbiyachi qoʻgʻirchoq ishtirokida uncha

katta bo'lmagan insenirovkani o'ynaydi, masalan: yangi qo'g'irchoq bilan uchrashuv, qo'g'irchoq oshpaz va hokazolar. Qo'g'irchoqlar bilan birga o'tkaziladigan ta'limiy o'yinlarda tarbiyachi bolalar bilan qo'g'irchoq nomidan so'zlashadi, ya'ni bolalarga savollar beradi, o'zi savol berib, o'zi javob qaytaradi. So'zlashuvning bunday shakli bolalar qiziqishini oshiradi, nutqini faollashtiradi. Bolalar tarbiyachining har bir harakatini zo'r qiziqish bilan kuzatadilar, tushuntirishlarini, savollarini va javoblarini diqqat bilan tinglaydilar va o'zlari ham savollar berishga harakat qiladilar.

Misol tariqasida „Qo'g'irchoq oshpaz ishlayapti“ (5 yoshli bolalar bilan) ta'limiy o'yin mashg'ulotining namunasini keltiramiz. Stol ustida qo'g'irchoq oshpaz, oshxona idish-tovoqlarining to'plami, o'yinchoq gaz plitasi, „oziq-ovqat“ qo'yilgan stol.

Tarbiyachi: Bolalar, bizga Shuhrat ismli yangi oshpaz keldi. U yaqinda oshpazlar tayyorlaydigan bilim yurtini (maktabini) bitirgan, uning hali ish tajribasi yo'q. Unga sizning yordamingiz kerak. Men oshpaz Shuhrat nomidan gapiraman va ishlarni bajaraman, sizlar esa, agar men xato qilsam tuzatasizlar, siz xato qilsangiz, oshpaz tuzatadi. Tushunarlimi?

Oshpaz Shuhrat (tarbiyachi). Sizlarga sabzavotlardan qanday ovqat tayyorlab beray?

Vali. Sabzili kotlet... Shuhrat aka, siz sabzili kotletni qovuring.

Oshpaz Shuhrat. Yaxshi. Hozir men sabzili kotlet tayyorlayman: avval go'shtni olaman... Go'shtni? (oshpaz Shuhratning xatosini bolalar to'g'rilashi uchun *go'sht* so'zini intonatsiya bilan ajratib aytadi).

Noila. Shuhrat aka, go'sht kerak emas.

Oshpaz Shuhrat. Nima uchun? Go'sht oziq-ovqat mahsuloti emasmi?

Noila. Go'sht oziq-ovqat mahsuloti, ammo siz sabzili kotlet tayyorlamoqchisiz, demak, sabzi kerak.

Oshpaz Shuhrat. Voy, to'g'ri! Qiyma tayyorlash kerak, sabzini maydalash kerak. Hozir men uni sabzavot maydalagichga solib o'tkazaman, qirg'ichda maydalash ham mumkin, keyin sabziga yorma (manniy yorma) quyaman, tuxum chaqib solaman. Men to'g'ri aytmadimmi? Behzod, nima deysan?

Behzod. Yormani quymaydilar, soladilar. (Agar Behzod xatoni tuzata olmasa, oshpaz Shuhratning o'zi xatosini eslab, uni tuzatadi.)

Oshpaz Shuhrat. Endi kotlet qilaman. hozir unga botirib olaman, Lola, unni to'kadilarmi yoki quyadilarmi?

Lola. Unni to'kadilar.

Oshpaz Shuhrat. Endi tovaga yog'ni to'kaman va kotletni qovuraman, to'g'rimi? Ra'no, balki nimanidir to'g'ri aytmagandirman?

Ra'no. Shuhrat aka, yog'ni to'kmaydilar, quyadilar. Hamma suyuq narsalarni quyadilar, sochiluvchan narsalarni esa to'kadilar (sochadilar), qattiq narsalarni soladilar. (Ra'noni bu javobni aytishga oldindan tayyorlash mumkin.)

Oshpaz Shuhrat. Ha, ha, Ra'no, men endi esladim, suvni, qaymoqni, yog'ni va boshqa suyuq narsalarni quyadilar; yormani, tuzni, shakarni, unni soladilar (to'kadilar), go'shtni, sabzavotlarni, saryog'ni tovaga, tovoqqa qo'yadilar. Men bularni esimdan chiqarmasligim uchun, sen Lobar, yana bir marta bularni men uchun takrorla, nimalarni quyish mumkin?

Lobar. Har qanday suyuq narsalarni: suvni, yog'ni, qaymoqni, sutni quyadilar.

Oshpaz Shuhrat. Yaxshi, Lobar. Karim, nimani solish mumkin?

Karim. Yorma, un, tuz, shakar solinadi.

Shu tariqa rejadagi suhbat davom etadi. Bunday mashg'ulotlarni o'tkazish tarbiyachidan oldindan tayyorgarlik ko'rishni talab etadi. Buning uchun ta'limiy o'yin rejasini tuzib olish, ishtirok etuvchilarni tanlash, voqealarning borishini nazorat qilish lozim. Bunday mashg'ulotlar bolalarning nutqini faollashtirish maqsadida tashkil etiladi, shuning uchun so'zlashuvda bolalarning faol ishtirok etishlarini nazarda tutish kerak.

Suratlar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda bolalarni so'zlashuv nutqiga (dialogga) o'rgatish. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda suratlardan bolalarni so'zlashuv nutqiga va hikoya qilishga o'rgatish vositasi sifatida foydalaniladi. Bog'cha yoshidagi bolalarning nutqini o'stiruvchi, tasavvurlarini kengaytiruvchi seriyali suratlardan foydalanish mumkin.

Ta'limiy o'yinlar haqida IV bobda to'liq ma'lumotlar berilgan. „Biz o'ynayapmiz“ (muallif — Y. G. Baturina), „Uy hayvonlari“ (muallif — S. A. Veretennikova), „Yil fasllari“, „Yovvoyi hayvonlar“. Bolalar bog'chasida ona tili mashg'ulotlarida lug'aviy -

mantiqiy mashg'ulotlar albomidagi (B.A. Кирюшкин, Ю.С. Ляховская. Альбом словарно-логических упражнений на занятиях по родному языку в детском саду. М.,1973.) „Qishlab qoluvchi qushlarni boqish“, „Sabzavotlar yetishtirish (parvarish qilish)“, „Yangi yil bayrami“ va hokazolardan foydalaniladi.

Bog'cha yoshidagi bolalarni idrok qilishga tayyorlash har xil bolalarning fikr yuritishiga turtki bo'ladigan qisqa va aniq savollar berish, musiqa tinglash (masalan, „Kuz kunlari“ suratini ko'rishdan avval kuz haqidagi musiqa asari tinglanadi); tarbiyachi qish fasli to'g'risidagi uncha katta bo'lmagan she'rni aytib beradi („Qishki o'yinlar“ suratini ko'zdan kechirish mashg'ulotidan avval) va hokazolar. Surat bo'yicha suhbat mashg'ulotiga tayyorlanish va uni o'tkazish tarbiyachiga ma'lum bir qiyinchiliklar tug'diradi. Bolalar suratning mazmunini tushuntirishlari va ularda ijodiy-emotsional munosabatlarni hosil qilish uchun tarbiyachi, eng avvalo, bolalarga rasm mazmunini yaxshi tushunib olishlariga yordam beradigan har xil savol va topshiriqlarni oldindan o'ylab qo'yishi kerak. Misol tariqasida „Qishki o'yinlar“ nomli surat bo'yicha (katta guruhda „Yil fasllari“ seriyali suratdan foydalaniladi) o'tkaziladigan mashg'ulotning namunasini keltiramiz.

Tarbiyachi bolalardan yilning qaysi fasli boshlanganligini, qishning qaysi oyi ekanligini so'raydi. Bolalarning javobini tinglaydi va davom ettiradi:

— Qish — yilning ajoyib fasli, to'g'ri emasmi? Bolalar qish faslida sayrdan uylariga qaytgilari kelmaydi, chunki ko'chada juda qiziq, ajoyib narsalar juda ko'p-da. Chang'ida, konkida va chanada uchish, xokkey o'ynash, qordan qorqiz, qorbobo, uy, minora, qasr va hokazolar yasash mumkin. Qish fasli to'g'risida juda ko'p she'rlar, hikoya va ertaklar yozilgan, suratlar ham chizilgan. Tarbiyachi qish fasli haqidagi she'rlardan birini aytadi. „Qishki o'yinlar“ nomli suratni doskaga ilib qo'yadi va bir qancha savollar beradi:

— Bu rasmni qanday nomlash mumkin? Yilning qaysi fasli va kunning qaysi vaqti tasvirlangan? Bu qish kunida ob-havo qanday? Siz kun iliq va quyoshli ekanligini qanday aniqladingiz? Qishning iliq, quyoshli kunlaridan birida bolalar sayrga chiqishdi. Hammaga ko'nglidagi ish topildi. Sizlar mening aytganlarimga qo'shilasizlarmi? Buni siz qanday tasdiqlaysiz?



Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Bog'lanishli nutq va uni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda rivojlanish xususiyatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Bolalar bilan so'zlashish — dialog nutqni shakllantirishning asosiy uslubi ekanligi haqida tushuncha bering. Tarbiyachi bolalarni so'zlashish nutqiga qaysi mashg'ulotlarda o'rgatadi?
3. Bolalarni dialog nutqqa o'rgatishda suhbat mashg'ulotining ahamiyati nimada?
4. Qanday suhbat turlarini bilasiz? Ularning mazmuni haqida nimalarni bilasiz?
5. Har bir suhbat necha qismdan iborat va har bir qismning pedagogik qimmatini nimadan iborat?
6. Suhbat mazmuni va mavzulari haqida ma'lumot bering.
7. Tarbiyachi suhbatga qanday tayyorlanadi va uni o'tkazishda nimalarga e'tibor beradi?
8. Suhbatga o'rgatish va tarbiyalash usullari nimalardan iborat?
9. Ta'limiy o'yinlar bolalarning so'zlashuv nutqini o'stirishda qanday ahamiyatga ega?
10. Suratlar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda bolalarni so'zlashuv nutqiga o'rgatish nimadan iborat?



Amaliy topshiriqlar

1. „Transport turlari“ mavzusidagi suhbat mashg'ulotini o'tkazishga tayyorlaning. (5 — 6 yoshli bolalar bilan.)

Suhbatning maqsadi: a) bolalarni suhbatlashishga, suhbatdoshini tinglashga, o'zini tutib tura olishga, kutib turishga o'rgatish; b) dialog nutqini rivojlantirish.

Mashg'ulotga tayyorgarlik: bolalar avtobusda, yengil avtomobilda yurish tajribasiga ega bo'lishlari kerak.

Suhbatning taxminiy rejasi:

— Bolalar, eslanglar-chi, hayvonot bog'iga biz nimada borgan edik? (*Avtobusda.*)

— Eslaysizmi, avtobus qanday edi? (*Katta, unga hamma bolalar va juda ko'p katta kishilar sig'gan edi.*)

— Uning tashqi tomoni qanday rangda edi? Qizilmi? Ko'kmi? Ichki qismi, o'tirg'ichlari qanday rangda edi?

— Haydovchi qayerda o'tirgan edi? (*Oldinda, rul yonida.*)

— Aytinglar-chi, yengil avtomobilga: „Nexia“, „Tiko“ga

guruhimizdagi hamma bolalar sig'ishi mumkinmi? Nima uchun sig'maydi? Yengil avtomobilga necha kishi sig'ishi mumkin?

— Kim yengil mashinada o'tirgan? Nima uchun biz hayvonot bog'iga yayov ketmadik?

Tarbiyachi mashg'ulot ishlanmasini tuzganda bolalarning lug'atiga qaysi so'zlarni kiritishni hamda qaysi grammatik shakllarni faollashtirishni belgilab oladi.

2. Ikkita-uchta suhbat mashg'ulotini kuzating va kuzatishni quyidagi reja asosida amalga oshiring:

Mashg'ulotning dastur mazmuni qanday? Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya talablariga mos keladimi? Bolalarning tafakkurini va nutqini rivojlantirish bo'yicha vazifalar ushbu yosh guruhlari uchun mosmi?

Mashg'ulotning tuzilish qismi qanday (suhbat qismlarga to'g'ri keladimi), dastur vazifalarini hal etishda har bir qismning rolini izohlang.

Berilgan savollarning mazmuni qanday, mantiqan to'g'rimi? Tarbiyachi tanlagan mavzu bo'yicha dastur maqsadini amalga oshirishga yordam beradimi? Bolalarning javoblari berilgan savolni yoritishga yordam beradimi?

Ko'rgazmali qurol to'g'ri tanlanganmi? Qo'yilgan vazifani yechishda ko'rgazmaning roli qanday?

3. Bolalar bog'chalari uchun dasturlar (Tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutq o'stirish, badiiy adabiyot) asosida suhbat mavzularini (turli yosh guruhlari uchun) tuzib chiqing va ularda dastur maqsadini ko'rsating.

BOLALARNI HIKOYA QILISHGA (MONOLOG NUTQQA) O'RGATISH

1- §. Bolalarni monolog nutqqa o'rgatish bo'yicha ish mazmuni va vazifalari

Monolog nutq dialog nutqqa nisbatan ancha murakkab bo'lib, bu bitta odam tomonidan amalga oshiriladigan nutqdir. Monolog nutqda bitta kishi gapiradi, qolganlar esa tinglaydilar. Monolog nutq ko'pchilikka qarata aytiladigan nutq bo'lgani uchun, u har doim mantiqiy jihatdan izchil, grammatik jihatdan shakllangan, hammaga tushunarli va ravon bo'lishi kerak.

Monolog nutq yaxshi xotirani, nutqning shakl va mazmuniga diqqatni yo'naltirishni talab etadi. Shuning bilan bir vaqtda, monolog nutq tafakkurga tayanadi.

Monolog nutq lingvistik (tilshunoslik) tomondan ham murakkab hisoblanadi. Monolog nutq tinglovchilarga tushunarli bo'lishi uchun yoyiq gaplardan, aniq lug'atdan foydalanish kerak.

Hikoya qila olish qobiliyati kishilarning muloqotda bo'lish jarayonida katta rol o'ynaydi. Bola uchun esa bu qobiliyat bilish vositasi, o'z bilimlarini, tasavvurlarini tekshirish vositasi hisoblanadi.

Bolalarda monolog nutqning shakllanishi ularda mantiqiy tafakkurning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, bola nutqi monolog nutqqa aylanishi uchun u tilning lug'atini va grammatik tomonini erkin egallagan bo'lishi kerak.

Ruhshunoslarning aytishicha, bolalarda monolog nutq besh yoshdan boshlab paydo bo'ladi.

Ruhshunos D. B. Elkanin bu haqda shunday yozadi: „Bola hayot tarzining o'zgarishi, kattalar bilan yangi munosabatlarning va yangi turdagi faoliyatlarning shakllanishi nutq shaklini va uning vazifasini (xizmatini) farqlashga olib keladi. Muomalaning yangi vazifalari vujudga keladi, bola o'z taassurotlarini, kechinmalarini, rejalarini (niyatini) kattalarga yetkazishga harakat qiladi. Nutqning yangi shakli — monolog tarzida xabar qilish, ko'rgan va eshitganlari to'g'risida hikoya qilish paydo bo'ladi“, bolalarni hikoya qilishga o'rgatish jarayonida barkamol tarbiya berishning xilma-xil masalalarini hal qiladi, aqliy rivojlanishga yordam be-

radi. Hikoya qilib berishda mantiqiy tafakkur, diqqat rivojlanadi, nutq grammatik jihatdan shakllangan bo'lib, o'zini tutish, jamoa oldida so'zga chiqish malakasi hosil bo'ladi".

Shu munosabat bilan bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturida bolalarni hikoya qilishga o'rgatish bo'yicha har bir yosh guruhlariga ish vazifalari va mazmuni belgilab berilgan. Bu guruh bolalarini tanish hikoya va ertaklarni (tarbiyachining savollari va kitobdagi rasmlar yordamida, keyinchalik mustaqil) so'zlab berishga o'rgatiladi, o'yinchoq, buyum va rasm mazmuni bo'yicha hikoyani (3—4 gapdan iborat) takrorlash ko'nikmasi tarbiyalanadi, tanish ertaklardan olingan parchalarni sahna-lashtirishda qatnashishga o'rgatiladi.

O'rta guruhlarda hikoya qilishga o'rgatish vazifalari va ularning mazmuni ancha murakkablashadi. Ushbu guruh bolalari birinchi yarim yillikda tanish hikoya va ertaklarni mustaqil holda qayta hikoya qilishga, asar qahramonlarining suhbatini ifodali so'zlab berishga o'rgatiladi.

Mashg'ulotlarda birinchi marta o'qib berilgan kichik ertak va hikoyalarning mazmunini qayta hikoya qilishga, o'rtoqlari hikoya qilayotganda e'tibor bilan tinglashga, o'yinchoqlar, turli buyumlar va yil fasllarini tavsiflovchi (avval tarbiyachining savollari, so'ngra namuna va reja asosida) hikoya tuzishga o'rgatiladi.

Ikkinchi yarim yillikda bolalarga tanish ertak va hikoyalarni tinglashni, ularda ishtirok etuvchi personajlarning gaplarini, o'ziga xos xususiyatlarini tushunishni, asar mazmunini hikoya qilayotgan o'rtoqlarining nutqini diqqat bilan eshitishni, asar matnini buzib hikoya qilgan joylarini payqashni o'rgatish davom ettiriladi.

Katta va maktabga tayyorlov guruhleri uchun „Nutq o'stirish“ bo'limida bolalarni hikoya qilib berishga o'rgatish yuzasidan olib boriladigan ishlar, ularning mazmuni quyidagicha belgilangan:

Birinchi yarim yillik. Badiiy asarlarni qayta hikoya qilish malakasini o'stirish. Adabiy asarlarni mazmunli, mantiqiy izchillikda, aniq va tasviriy, ifodali hikoya qilishga o'rgatish.

Tarbiyachi qayta hikoya qilishni o'rgatayotganda bolalar diqqatini, ayniqsa, ertakning boshlanmasi, takrorlanib kelayotgan parchalarga, xulosa qismiga: hikoyalardagi qahramonlarning o'zaro nutqi kabilarga qaratishi lozim.

Bolalar asar voqealarini so'zlayotganda ovoz ohangining xilma-xil turini (so'roq, his-hayajon, hayratlanish, iltimos) qo'llay bilishlariga erishish.

Bolalarga o'yinchoqlar va buyumlar haqida hikoya tuzishni o'rgatayotganda o'yinchoqlarni ta'riflab berishga, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatuvchi belgilarni (rangi, shakli, qanday o'ynalishi va boshqalar) aniq so'zlar orqali ifodalashga o'rgatish.

Ijodiy hikoya qilish. Bolalarni tarbiyachi tomonidan belgilangan hikoya yoki ertakni nihoyasiga yetkazishga, qisqa, lo'nda jumalalar tuzishga, tasviriy vositalardan foydalanishga o'rgatish.

Bolalarning shaxsiy tajribalari va tarbiyachi taklif etgan hayotiy mavzular asosida mantiqiy rivojlanib boruvchi hikoya yoki ertak tuzish qobiliyatlarini rivojlantirish: „Quvonchli kun“, „Xafa bo'lgan kunim“, „Mehmonda“, „Bizning oila“, „Eng yaqin o'rtog'im“, „Dam olish kuni“, „Dadamga qarashdim“, „Qo'g'irchoq teatriga bordim“ va boshqalar.

Bolalarni tuzayotgan hikoya yoki ertaklarida ishtirok etuvchi qahramonlarning ruhiy kechinmalarini bilishga o'rgatish; „Birinch qor“, „Yaxmalakda“, „Yangi yil bayrami“, „Qorbobo“, „Men sevgan fasl“, „Tashqarida qor, uyimizda bahor“, „Xolaxola o'ynadik“, „Kim oladi-yo, shuginani-yo“ o'yini, „Men onamga yordamchi“, „Ukamga mehribonman“ va boshqalar.

Bolalarga suratlar bo'yicha hikoya tuzishni o'rgatayotganda, avvalo, ularning mustaqil fikrlashlariga, suratda tasvirlangan voqealarga o'z munosabatlarini bildirishlariga imkon yaratish kerak. Shu bilan birga, rasmda aks ettirilgan mavzuli voqeaga qarab ilgari nima bo'lgani va keyin nima bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritishga undash. Tabiat manzaralari aks ettirilgan suratga qarab, undagi go'zallikni, nafislikni ifodalay oladigan tasviriy so'zlar, o'xshatish va sifatlashlar ishtirokida gap tuzishga o'rgatib borish.

Bolalarning birgalikdagi hayot tajribalaridan olingan voqealar: ekskursiya, sayr, mehnat jarayoni, jonli va ravon hikoya qilib berish malakasini tarbiyalash. Hikoya qilayotganda tevarak-atrofdagi buyum, voqea-hodisalarning nomini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini, xatti-harakatlarini to'g'ri ifodalashga, voqealarning vaqti va joyini ko'rsatishga o'rgatish. Topishmoqlar o'ylab topishga undash.

Ikkinchi yarim yillik. Bolalarni badiiy asarlarni qayta hikoya qilishga o'rgatishni davom ettirish.

Bolalarni manzarali suratlar bo'yicha maxsus hikoyalar to'qishga o'rgatish, ularni surat mazmunini tushunishga, suratdagi manzarani tevarak-atrofdagi manzaralar bilan taqqoslashga, o'z hikoyalarida tasviriy so'z va iboralardan foydalanishga

o'rgatishni davom ettirish. Bolalar mustaqil hikoya tuzayotganlarida og'zaki nutq shakllaridan foydalanishlariga erishish.

Ijodiy hikoya qilish: tarbiyachi tomonidan taklif etilgan mavzu bo'yicha voqeani izchil davom ettirib, tugal mazmunli hikoya tuzish ko'nikmalarini mustahkamlash, voqea sodir bo'lgan joy, vaqt, tabiat manzarasini qisqacha tasvirlash, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ko'rsatishlariga ahamiyat berish: „Gul bayrami“, „Navro'z“, „Onamlarning bayrami“, „Bahor keldi“, „Men qushlarga don berdim“, „Men onamga yordamchi“, „Tomorqada“, „Mening mushugim“, „Metroda“, „Avtobusda“, „Trolleybusda“, „Ko'chada“, „Bozorda“, „Do'konda“, „Arqon o'ynadik“, „Quvlashmachoq“, „Bekinmachoq“, „Mehmon-mehmon“ mavzularida hikoya o'ylab topishga undash.

Mustaqil tuzgan hikoyalardagi personajlarga qisqacha ta'rif berishlariga, ularning xatti-harakatlarini baholashlariga ham diqqatni qaratish va o'rgatib borish.

Mustaqil tanlangan mavzu bo'yicha hikoya tuzishda voqealarning izchilligiga, tugal mantiqqa ega bo'lishiga, tasviriy ifoda vositalaridan o'rinli foydalanishlariga ahamiyat berish.

Monolog nutqini o'stirishning yuqoridagi dastur vazifalari va mazmuniga ko'ra bog'chaning o'rta guruhidagi bolalar hikoya qilib berishning quyidagi turlarini egallashlari lozim:

1. Tanish ertak va hikoyalarni qayta hikoya qilib berish.

2. Mashg'ulotlarda birinchi marta o'qib berilgan hikoya va aytib berilgan qisqa ertaklarni qayta hikoya qilib berish.

3. Ko'rib turgan narsa-buyumlar: o'yinchoqlar, o'simliklar, kiyimlar, idish-tovoqlar, mebellar va hokazolar bo'yicha tasviriy hikoya tuzish.

4. Voqeaviy-sujetli rasmlar bo'yicha tasviriy hikoya tuzish.

5. Bolalar o'z tajribalari asosida xotiradan hikoya qilib berishlari.

Katta guruh dasturida hikoya qilishning quyidagi turlari bayon etilgan:

1. Badiiy asarlarni qayta hikoya qilib berish.

2. Narsa-buyumlar: o'yinchoqlar, o'simliklar, kiyim-kechaklar, idish-tovoqlar, mebellar va hokazolar haqida hikoyalar, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatuvchi belgilarni tuzish.

3. Rasmlar bo'yicha tasviriy va voqeaviy hikoya tuzish.

4. Xotiradan o'z shaxsiy tajribasida kuzatgan voqea va hodisalarni, narsalarni, bog'chada va uyda nimalar qilganini, guruhda va uyda bo'lib o'tgan eng qiziqarli voqealar haqida hikoya qilib berish.

5. Ta'limiy o'yinlar asosida tasviriy hikoya tuzish: „Qo'g'irchoq, o'yinchoqni top“, „Qo'g'irchoq, menda qanaqa gul bor“, „Qo'g'irchoq, top-chi, yonimda kim o'tiribdi?“, „Qo'g'irchoq, qo'limdagi suratlar qaysi ertakdan olinganini top-chi?“ va boshqalar.

6. Ijodiy hikoya qilishga, tarbiyachi tomonidan boshlangan ertak va hikoyani oxiriga yetkazish, tarbiyachi taklif etgan mavzu va reja asosida ertak yoki hikoya to'qish, berilgan 3 — 4 so'z yordamida ertak yoki hikoya to'qishga o'rgatish.

Maktabgacha tayyorlov dasturida ham hikoya qilib berishning xuddi katta guruhdagi kabi turlari ko'rsatilgan.

2- §. Bolalarni hikoya qilib berishga o'rgatishda foydalaniladigan usullar

Bolalarni hikoya qilishga o'rgatishda maxsus usullardan foydalaniladi. Ulardan asosiylarini aytib o'tamiz:

1. Hikoya namunasini berish usuli. Bunda qandaydir buyumni (predmetni) yoki voqeani jonli va qisqa tasvirlanadi. Bu usul birmuncha yengil usul bo'lib, tarbiyachi bolalarga narsa-buyum, rasm, voqea haqida tayyor hikoya aytib beradi, bolalar hikoyani tinglab, o'z hikoyalari uchun mazmun tanlaydilar, uning hajmini, izchilligini belgilab oladilar. Shuning uchun bu usul bolalarni hikoya qilib berishga o'rgatishga yordam beruvchi ta'limiy usul bo'lib hisoblanadi.

Namuna bolalarning taqlid qilishiga mos bo'lishi, ya'ni hajmi kichik, fikrlar izchil bayon qilinishi, jumlar qisqa va grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishi lozim. Masalan, tarbiyachi o'yinchoqni tasvirlashga o'rgatishda o'zi bitta o'yinchoqni olib, u haqda shunday tasviriy hikoya tuzadi:

— Mana bu ayiqcha. U jigarrang, yumshoq baxmaldan yasalgan. Uning bosh qismida ikkita kichkina quloqlari, ikkita qop-qora, dum-dumaloq ko'zlari, tumshug'i bor. Tumshug'ida esa burni bor. Tanasida 4 ta oyog'i bor. Ayiqcha o'yinchog'i bizga o'ynash uchun kerak.

Bolalar namuna hikoyadan yaxshi foydalanishlari uchun uning matni qisqa gaplardan iborat bo'lishi va izchil bayon qilinishi kerak.

Hikoya namunasi boshqa usullarga nisbatan hikoya qilishga o'rgatish jarayonini yengillashdiradi, bolalar erishishi kerak bo'lgan natija ko'rsatib beriladi. Bundan tashqari, namuna bolalarning

hikoya qilishlari lozim bo'lgan mavzularning taxminiy mazmunini, ularning hajmini, ketma-ketligini belgilaydi.

Tarbiyachining namuna hikoyasidan bolalarni hikoya qilib berishga o'rgatishning dastlabki bosqichlaridan, shuningdek, yangi vazifa qo'yilganda yoki hikoya qilib bera olmaydigan bolalarga yordam berishda foydalaniladi. Tarbiyachining namuna hikoyasini yomon hikoya qiladigan 1 — 2 bola takrorlashi mumkin.

Namuna hikoya usulidan mashg'ulotning boshida foydalanish kerak. Undan mashg'ulot oxirida foydalanish esa hech qanday ijobiy natija bermaydi, chunki bolalar namuna hikoyaga taqlid qila olmaydilar, o'z nutqlarida undan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar.

2. Hikoya rejasini berish usuli. Hikoya rejasi 2 — 3 asosiy savoldan iborat bo'lib, fikrning ketma-ketligini va mazmunini belgilaydi. Namuna usulidan foydalanib hikoya qilib berish bilan bog'liq 2 — 3 mashg'ulotdan keyin hikoyani reja asosida so'zlab berishga o'rgatish mustaqil, yetakchi usullardan biri bo'lib qoladi. Bolalar hikoyasi xilma-xil bo'lishi uchun tarbiyachi oldindan asosiy va qo'shimcha reja tayyorlab qo'yishi kerak. Bir mashg'ulot jarayonida savollarni almashtirish (yangilash) bolalar diqqatini faollashtiradi.

Masalan, maktabga tayyorlov guruhi bolalariga o'z guruh xonalarini tasvirlash uchun taxminan quyidagi rejani taklif etish mumkin:

1. Xonani kim toza saqlaydi?

2. Sen xonani yig'ishtirishda (tozalashda) qanday yordam berasan?

5 yoshli bolalar guruhi bilan dastlabki mashg'ulotlarda, agar bola rejadan chetlashsa, uning nutqini bo'lmasdan, oxirigacha tinglab turish lozim. Ammo asta-sekin hikoyaning to'liq yoki izchil emasligini aytib, boshqa bolalarni javobni to'ldirishga jalb qilishi kerak.

6 yoshli bolalarning hikoyasiga dastur talablarini (ularning maqsadga qaratilganligi va izchilligiga) qo'yadi. Shuning uchun bolalarni hikoya rejasiga amal qilishga o'rgatish kerak. Ayniqsa, bu rasm asosida hikoya qilish va o'z tajribalaridan hikoya tuzishga taalluqlidir.

Tarbiyachi hikoya qiluvchining mavzudan yoki rejadan chetga chiqib ketganini o'zi ko'rsatibgina qolmay, balki bolalarni o'rtog'ining hikoyasini nazorat qilib borishga jalb qilishi kerak.

(Hozir nima haqida hikoya qilib berish kerak? Hammaga tushunarli bo'lishi uchun avval nimani hikoya qilib berish yaxshiroq?)

Hikoya namunasini berish hikoya qilishga o'rgatishning eng yengil usuli, hikoya rejasini berish usuli esa ancha qiyin. Bu usul murakkab bo'lishiga qaramay, bolalarni hikoya qilishga o'rgatishda keng tarqalgan muhim usul hisoblanadi.

3. Rejani jamoa bo'lib muhokama qilish usuli. Reja asosida hikoya tuzish va uning mazmunini boyitishni yengillashtirish maqsadida, rejani jamoa bo'lib muhokama qilish tavsiya etiladi. Bu usuldan katta va maktabga tayyorlov guruhlarida reja asosida hikoya qilishga o'rgatishning dastlabki bosqichida foydalaniladi. Masalan, tarbiyachi bolalarga shunday yo'llanma beradi: „Biz qanday qilib jo'ja boqqanimizni gapirib bering. Jo'jalar qayerdan paydo bo'ladi? Ularni qanday parvarish qildingiz? Jo'jalar katta bo'lganda, ular qanday bo'lishdi?“

Bu usulning mohiyati nimadan iborat?

Hikoyani tuzishga qadar tarbiyachi bolalar bilan birgalikda rejadagi ayrim savollarni muhokama qiladi, ya'ni hikoya mazmunining xilma-xil bo'lishi imkoniyatlarini ko'rsatadi. Rejadagi bir savolga (masalan, „Bola qanday kuchukcha topib oldi?“) bir necha bola joyida o'tirgan holda javob berishini taklif etadi. Bolaning joyida o'tirgan holda javob berishi — bu hali hikoya emas, balki bir yoki bir necha gap. Hikoya rejasini jamoa bo'lib muhokama qilish usuli esa bolalarning tashabbuskorligini jonlantiradi, faollashtiradi, bolalarni murakkab jarayon hisoblangan mustaqil hikoya tuzishga o'rgatadi.

4. Jamoa bo'lib hikoya tuzish usuli.

Bu usul o'ziga xos bo'lib, undan bolalarni ijodiy hikoya tuzishga o'rgatishda foydalaniladi. Oldindan belgilab qo'yilgan hikoya rejasini ketma-ket muhokama qilish jarayonida tarbiyachi va bolalar ayrim javoblarni tinglaydilar, ulardan qaysi biri yaxshiroq ekanligini muhokama qiladilar. Tarbiyachi ularni o'ylab topilgan hikoyaning boshlanishi sifatida takrorlaydi. So'ngra navbatdagi eng yaxshi savol tanlanadi, tarbiyachi esa aytilgan eng yaxshi jumalarning va o'zining gapini birlashtirib, kichik hikoya tuzadi.

Oxirida hikoya tarbiyachi tomonidan takrorlanadi, so'ngra 2—3 bola takrorlaydi. Bu usulning mohiyati shundaki, mashg'ulotda barcha bolalar faollik ko'rsatishadi, ularning xayollari asta-sekinlik bilan shakllanadi. Biroq bu usulning bir qator kamchiliklari mavjud: bolalarning nutq faoliyati jumalarni tuzish,

so'zlarni tanlash bilangina chegaralanadi, ular monolog nutqni rivojlantirish ustida kam mashq qiladilar. Shuning uchun bu usuldan foydalanish chegaralangan.

5. Hikoyani qismlar bo'yicha tuzdirish usuli.

Ayrim mashg'ulotlarda hikoyani qismlar bo'yicha tuzdirish usulidan foydalanish mumkin, bu usul hikoya tuzishni yengillashtiradi, chunki topshiriq hajmi kamayadi. Shuningdek, mashg'ulot ancha qiziqarli va xilma-xil bo'lib, hikoyalar to'liq va chuqur mazmunga ega bo'ladi, ko'p bolalardan so'rash imkoniyati vujudga keladi.

Mazmuni alohida qismlarga yengil ajraladigan rasmlarni qism bo'yicha tasvirlash mumkin. Masalan, bolalar ushbu rasmlarni qism bo'yicha tasvirlashlari mumkin: „Tovuqlar“, „Mushuk bolalari bilan“, „Echki bolalari bilan“, „Sigir buzog'i bilan“, „Qishki o'yinlar“ va hokazolar.

Tarbiyachi tasviriy hikoya uchun mavzu taklif etishdan avval rasmni kichik-kichik qismlarga ajratib chiqadi. Masalan, „Quyvonlar“ degan mavzuda tasviriy hikoya tuzishda tarbiyachi bolalarni shunday ogohlantiradi: „Quyvonlar haqida hikoya qilamiz, ammo hammasini bir yo'la emas, balki quyvonlar haqida hamma narsani xotirlash (esga tushirish) uchun tartib bilan gapiramiz“. So'ngra har bir qism uchun reja taklif etish mumkin. Masalan: „Hozir, bolalar quyvonni tanasi nima bilan qoplanganligini, uning tumshug'i qanday ekanligini, u qanday harakat qilishini (yurishini) eslaymiz“.

Bu reja asosida 2 — 3 bola hikoya qilib bergach, navbatdagi qismga o'tiladi: „Bizning quyvonlarimiz qayerda yashashini, katagida nimalar borligini, ular nima uchun kerakligini gapirib bering“. So'ngra quyvonning oziqlari, kim ularga g'amxo'rlik qilishi va hokazolar haqida hikoya qilib berish mumkin. Mashg'ulot oxirida nutqi yaxshi, hikoya qilish malakasi rivojlangan bir bola rasmda tasvirlangan narsalar haqida batafsil gapirib berishi mumkin.

6. Savollar berish usuli.

Bu usul hikoya qilishga o'rgatishda ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Savollar, asosan, hikoya aytib berilgandan keyin aniqlik kiritish va to'ldirish maqsadida beriladi.

7. Aytib turish usuli.

Hikoya qilish jarayonida bola qandaydir xatoga yo'l qo'yishi yoki ayrim joyini esdan chiqarganda so'z yoki gapni aytib

turishdan foydalanish o'rinli. Bolaning xatosini to'g'rilash yoki hikoyaning esdan chiqargan joyini aytib turish yetarlicha baland ovozda, samimiy bo'lishi kerak. Bola tarbiyachining tuzatishini takrorlashi shart emas, aks holda u o'z hikoyasining davomini yo'qotib qo'yadi. Bolalar hikoya qilib berayotganlarida ular nutqidagi xatolarni e'tiborsiz qoldirish kerak emas — xatoni hikoya jarayonida to'g'rilash mumkin, agar ko'pchilik bolalarda xato uchraydigan bo'lsa, tarbiyachi ular bilan lug'at ustida ishlash yoki grammatik to'g'ri nutqni, nutqning tovush madaniyatini shakllantirish uchun tashkil etiladigan mashg'ulotlarda shug'ullanadi.

8. Baholash usuli.

Bu usuldan foydalanishning asosiy maqsadi shundaki, baho faqat hikoyasi baholanayotgan bolagagina ta'sir etib qolmasdan, balki hikoya tuzishi lozim bo'lgan boshqa bolalarga ham ta'sir qilsin. Shuning uchun bu usuldan mashg'ulot davomida foydalaniladi. Mashg'ulot oxirida berilgan baho, o'z mohiyati bilan foydasizdir, bundan tashqari, barcha tinglangan hikoyalarning sifati qanday bo'lganligini bola esda saqlashda qiynaladi, mashg'ulotning oxirida ular toqatsizlanadilar va buning natijasida tarbiyachining ko'rsatmalarini idrok eta olmaydilar. Har bir hikoyani batafsil baholash shart emas, biroq ayrim hikoyalardagi biror ahamiyatli tomonni, izchillikni, yangilikni yoki kamchiliklarni (lug'ati, ovoz kuchi, qomatini noto'g'ri tutish va hokazo) aytib o'tish kerak.

Masalan, ikkita o'yinchoqni stol bo'ylab yurgizib, harakatlarni aniq aytib, hikoya qilib berish topshirig'i berilgan.

Tarbiyachi hikoya qilib bergan bolaning hikoyasini shunday baholaydi: „Yasha, Salim. Sen birinchi bo'lib hikoya qilib bersangda, o'rdakchalar qanday harakat qilishlarini aytishni esingdan chiqarmading. Sening hikoyangni qiziqib tingladik“.

Ba'zan o'rtoqlarining hikoyasini muhokama qilishga bolalarning o'zini ham jalb qilish mumkin. Bu usul katta guruhlarda qo'llaniladi. Chunki 6 yoshli bolalar hikoyaning sifatini (to'liqligini, qiziqarliligini, ifodaliligini va boshqalarni) ayta oladilar.

Shunday qilib, tarbiyachi bolalarni hikoya qilib berishga o'rgatishda foydalaniladigan hamma usullarni juda yaxshi bilishi va bu usullardan sharoitga qarab, mashg'ulot uchun yetakchi usulni tanlashi kerak.

3- §. Adabiy asarlarni qayta hikoya qilish

Qayta hikoya qilish — hikoya qilishning birinchi turi hisoblanadi. Qayta hikoya qilish tinglangan badiiy asarlarni ma'noli og'zaki nutqda takroriy aytishdir. Qayta hikoya qilish bolalar badiiy nutqining rivojlanishiga, emotsional va obrazli so'zlarni tanlashga o'rgatadi, jonli so'zni egallashga yordam beradi, asarni tinglay bilish, uning mazmunini tushunish ko'nikmasini o'stiradi, ularni bayon qilishdagi izchillikni, muallifning ifoda usulini eslab qolishga, asarni tushunib, jamoa oldida og'zaki aytib bera olish malakasini shakllantiradi.

Qayta hikoya qilishga o'rgatish samarali bo'lishi uchun, eng avvalo, qayta hikoya qilish uchun matnlarni to'g'ri tanlash lozim.

Har bir asar bolalarda jamiyatimiz uchun zarur bo'lgan sifatlarni tarbiyalashi va rivojlantirishi kerak. Qayta hikoya qilish uchun asar tanlanganda quyidagi talablarga amal qilish kerak: yuqori badiiy qimmatga, g'oyaviy-mantiqiy yo'nalishga ega bo'lishi, jo'shqinligi, fikrning yangiligi va bayonning obrazlilik, voqealarning ketma-ketlilik, mazmunining qiziqarliligi. Shu bilan bir qatorda, badiiy asarning hajmi va uning bola yoshiga mos kelishini ham hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu talablarga xalq ertaklari, hajmi uncha katta bo'lmagan hikoyalar misol bo'la olishi mumkin. Shuningdek, dasturda bolalarning qayta hikoyalarga bir qancha talablar qo'yilgan:

1) ma'nosiga tushungan holda, ya'ni matnni to'liq tushunib hikoya qilish;

2) asarni to'liq bayon etish, ya'ni asardagi muhim joylarini tashlab ketmasdan bayon etish;

3) izchillik (ketma-ketlik) bilan hikoya qilish;

4) muallif matnidagi lug'atlardan va iboralardan foydalanish, ayrim so'zlarni ularning sinonimlari bilan almashtirish;

5) to'g'ri ohangdan foydalanish, uzoq pauzalarning bo'lmasligi;

6) og'zagi nutq madaniyatiga e'tibor berish: qayta hikoya qilayotganda gavdani to'g'ri tutish, tinch turish, tinglovchilarga murojaat qilish, nutqning intonatsion ma'nodorligidan (ifodaliligidan) foydalanish, yetarlicha baland ovozda tovushlarni aniq talaffuz etish.

Ushbu talablarning barchasi bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lib, bulardan birortasini ham e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Qayta hikoya qilishga o'rgatish usullari

Ma'lumki, qayta hikoya qilish monolog nutqni shakllantirishda eng birinchi bosqich hisoblanadi. Shuning uchun har bir bola qayta hikoya qilishni yaxshi egallab olishi shart. Buning uchun har xil usullardan foydalaniladi. Bular quyidagilar:

1. Tarbiyachining bola bilan birga qayta hikoya qilishi.

Tarbiyachi bu usuldan qayta hikoya qilishga o'rgatishning dastlabki bosqichida, ayniqsa, hikoya qilib bera olmaydigan bolalar bilan ishlashda keng foydalanishi kerak.

Qayta hikoya qilish jarayonida tarbiyachi bolalarga sezdirmagan holda gavdasini to'g'rilashi, imo-ishora, ko'z qarashi bilan dalda berishi mumkin, mashg'ulotning oxirida esa, albatta, bolani maqtash kerak: „Yasha, endi boshqa bolalarga hikoya qilish yengil bo'ladi. Faqat keyingi safar balandroq ovozda hikoya qilgin“.

2. Qayta hikoyani takrorlash.

Bu usuldan ko'proq o'rta va katta guruhlarda foydalaniladi. Bu bola uchun ancha murakkab bo'lgan usuldir, chunki u tarbiyachining hikoyasiga alohida luqma tashlash (gap qistirish) bilan birga, to'liq jumalarni ham takrorlashiga to'g'ri keladi.

3. So'z va jumalarni aytib turish.

Bu usul qayta hikoya qilishning ravonligini, izchilligini ta'minlaydi, uzoq pauza qilishga yo'l qo'ymaydi. Bu usuldan ko'proq bola asar matnining ayrim joylarini esdan chiqarganda foydalaniladi.

Agar bola juda yaxshi hikoya qilsa-yu, biroq nutq sur'ati juda sekin bo'lsa, tarbiyachi pauza vaqtida sabr-toqat bilan hikoyaning davomini kuzatishi: bolaning gavda holatiga e'tibor bilan qarashi, dalda berishi orqali bola diqqatini to'plashi kerak.

Agar bola hikoya qilayotgan vaqtda tebranib (chayqalib) tursa, boshini egsa, qo'li bilan ortiqcha harakatlarni qilsa, uning hikoyasini bo'lib tanbeh berish yaramaydi, balki bunday hollarda imo-ishora, ko'z qarashi bilan uning xatosini, kamchiligini tuzatishi, hikoya qilib bergandan keyin esa hammaga eshitalarli qilib: „Hikoya qilayotganingda tinch turishing, boshingni pastga egmasdan, o'rtoqlaringga qarab turishing kerak, axir ular sening hikoyangni tinglashadi-ku“, deb aytishi kerak. Tarbiyachi bolaning bu nuqsonlarini kundalikka belgilab qo'ysa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki keyingi qayta hikoya qilib berish mashg'ulotidan oldin yana bir marta bolani ogohlantirishda bundan foydalanadi.

Tarbiyachi aytib turish orqali, bolani qayta hikoya qilayotganida yo'l qo'ygan grammatik xatolarni to'g'rilaydi. Bu usul qayta hikoya qilishga o'rgatishning keyingi bosqichlarida ham qo'llaniladi.

4. Savollar berish.

Bu usul keng tarqalgan bo'lib, u muqaddima (kirish) suhbatida va mashg'ulot jarayonida qo'llaniladi. Qayta hikoya qilish mashg'ulotida foydalaniladigan savollarni shartli ravishda ishlatilishiga va maqsadiga qarab bir qancha turkumga ajratish mumkin. Hikoya qilolmaydigan bolalarga qayta hikoya qilishni boshlagunga qadar yordamchi savollar berish mumkin, bu hikoyani boshlashga yordam beradi, masalan: „Sen nima haqida hikoya qilasan, ola quyon to'g'risidami? Mayli, kel boshlaymiz. Kunlardan bir kuni jikkakkina ola quyon sheriklariga...“. Yoki: „Turna Tulkini o'zi bilan olib, osmonga ko'tarilibdi va unga nima debdi? Yerni ko'ryapsanmi? Mana shu Turnaning aytgan gaplarini, Tulkining esa javobini aytib bering... Ha, mushtumday... Bu yog'ini o'zing davom et“.

Bola qayta hikoya qilib bergandan keyin, albatta, savol berishdan foydalanish mumkin. Bu asar mazmunini bola qay darajada tushunganini aniqlashga yordam beradi, matnni qayta hikoya qilayotgan vaqtda tashlab ketilgan joylarini tiklashga yordam beradi.

Ayrim hollarda qayta hikoya qilishdan keyin qahramonlarning fe'l-atvori yoki ularning ifodali nutqi haqida savol berish mumkin.

Qayta hikoya qilish o'rtasida uncha katta bo'lmagan mashqlar o'tkazish yoki ko'rsatma berishdan foydalanish mumkin. Shuningdek, asar matnining ayrim joylarini yana bir marta takrorlash usulini qo'llash mumkin.

5. Rag'batlantirish.

Qayta hikoya qilish jarayonida tarbiyachi bolani jilmayish, boshini qimirlatish (tasdiqlash), qisqa so'z aytish („Yasha“, „Barakalla“) bilan rag'batlantiradi.

Qayta hikoya qilib bergandan so'ng bolani maqtaydi. Bunda qayta hikoya qilishning biror ijobiy sifatini ta'kidlab o'tadi.

6. Qismlar bo'yicha qayta hikoya qilish.

Bu usul bolalar idrokining qimmatini yo'qotmaydi, chunki qayta hikoya qilish uchun bolalarga mazmuni tanish bo'lgan asar tanlanadi. Qismlar bo'yicha qayta hikoya qilish usulidan foydalanib, mashg'ulotni tashkil etish jarayoni bolalardan kun davomida so'rash imkonini yaratib beradi.

7. Rollarga bo‘lib qayta hikoya qilish.

Bu usul nutqning ma‘nodorligini (ifodaliligini) shakllantirishga yordam beradi. Tarbiyachi tomonidan ishtirok etuvchi shaxslar xarakterining izohlanishi bolalar nutqining oydinlashishiga, diqqatining faollashishiga katta ta‘sir etadi. Rollarga bo‘lib qayta hikoya qilish o‘rta guruhdan boshlab qo‘llaniladi. Bu usuldan mashg‘ulotning oxirida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

8. O‘yin usuli (dramalashtirilgan o‘yin).

Bu usulda personajlarning (ishtirok etuvchilarning) luqma tashlashlari harakatlar bilan boshqariladi: bolalar imo-ishoradan, hayvonlarning ovozloriga taqlid qilishdan va boshqalardan keng foydalanadilar, biroq o‘yin uchun hech qanday niqoblar, dekoratsiyalar talab etilmaydi. Tarbiyachi avval o‘zi muallif nomidan gapiradi, so‘ngra bola gapiradi. Dastlab rolni ijro etish uchun nutqi bo‘sh rivojlangan bolalar chiqariladi. Dramalashtirilgan o‘yin 5 daqiqa davom etadi. Turli yosh guruhlarida qayta hikoya qilib berishga o‘rgatish mashg‘ulotining tuzilishi (o‘tkazish uslubiyoti) har xil bo‘ladi.

Qayta hikoya qilish uchun tanlangan matn bolalar uchun tushunarli bo‘lishi kerak.

Qayta hikoya qilish mashg‘ulotlari har bir yosh guruhining shaxsiy xususiyatlarini, ularning qayta hikoya qilish qobiliyatlarini hisobga olgan holda tuziladi.

Bu yoshdagi bolalarni qayta hikoya qilishga o‘rgatish ularga tanish bo‘lgan ertaklarni („Bo‘g‘irsoq“, „Sholg‘om“, „Bo‘ri bilan echki“, „Ochko‘z it“) takrorlashdan boshlanadi. Tarbiyachi kichkintoy bolalarni qayta hikoya qilishga o‘rgatishda quyidagi usuldan foydalanadi. Bolalar tarbiyachining takroriy hikoyasidagi bitta-ikkita so‘zni yoki to‘liq gapni takrorlaydilar:

- Chol bilan kampir...
- Yashashar ekan.
- Bir kuni chol...
- Sholg‘om ekibdi.

So‘ngra bolalar sekin-asta savollar yordamida qayta hikoya qilishga o‘rgana boshlaydilar. Savollar voqealar ketma-ketligini belgilashga, ishtirok etuvchilarning nomini aytishga qaratilgan bo‘ladi:

- Bo‘g‘irsoq kimni uchratdi?
- Quyonni.

Agar bola ertakning boshlanishini yaxshi eslab qolgan bo‘lsa,

u holda uni mustaqil hikoya qilib bera oladi. So'ngra qayta hikoya qilish jarayonida bola qiynalsa, tarbiyachi yordamlashadi, ya'ni matnni esiga tushirishdan foydalaniladi, bu ertak mazmunini oson takrorlashga yordam beradi.

Qisqa xalq ertaklarini qayta hikoya qilishdan so'ng kichik hajmdagi hikoyalarni qayta hikoya qilishga o'tishi mumkin (Mirmuhsin. „Olxo'ri“, „Tosh“).

Mashg'ulotda asarga ishlangan illustratsiyalar ko'rsatiladi. Ko'rsatish savollar, ko'rsatmalar berish bilan birga qo'shib olib boriladi. Illustratsiyalarni asarni o'qib berishdan avval yoki o'qib bergandan keyin ko'rsatgan ma'qul. Tarbiyachi shunday deydi: „Hozir men sizlarga rasmlarni ko'rsataman, so'ngra hikoya o'qib beraman“ yoki „Hozir hikoyani o'qib beraman, so'ng rasmlarni ko'rsataman“.

O'rta guruhda bolalarni qayta hikoya qilishga o'rgatishda ancha murakkab bo'lgan vazifalar hal etiladi: bolalarni kichik hajmli va tanish bo'lgan ertak va hikoyalarni hikoya qilib berishga o'rgatib qolmasdan, balki asar qahramonlarining gaplarini ifodali qilib bayon etishga, boshqa bolalarning qayta hikoya qilishlarini diqqat bilan tinglashga va matnga taalluqli bo'lmagan jummalarni topishga o'rgatadi. Ushbu guruhda bolalar butun yil davomida 8 — 10 ta adabiy matnni (o'zbek ertaklaridan „Tulki bilan Turna“, „Maqtanchoq quyon“, „Fil va xo'roz“, „Ikki o'rtoq“, A. Oripovning „Bobo va nabira“ she'rining mazmunini qayta hikoya qiladilar.

O'rta guruh bolalariga qayta hikoya qilishlari uchun tavsiya etilgan asarlar mavzusi, mazmuni va shakli jihatdan katta farq qiladi. Shuning uchun o'rta guruh bolalarini qayta hikoya qilishga o'rgatishdagi muhim vazifa — bu ularga asarning mantiqiy bog'lanishini, uning mazmunini tushunib olishga yordam berishdir. Bunga asarni dastlabki o'qishdan so'ng o'tkaziladigan suhbat orqali erishish mumkin. Bunday suhbatda tarbiyachining savollari asosiy metodik usul bo'lib hisoblanadi.

Badiiy asarlar yuzasidan ikki guruhdagi savollar berilishi mumkin:

- 1) asar mazmunini tushunib olishga yordam beruvchi;
- 2) voqeaning ketma-ketligini esga tushirishga yordam beruvchi.

Shuningdek, asar o'qib berilgandan keyingi suhbat bola nutqidagi lug'at boyligini aniqlash va faollashtirish, qahramonlarning ovozlarni ifodali bayon etishga ta'sir etish kabilarni amalga oshirishga yordam beradi.

Adabiy matn o'qib berilgandan so'ng, bolalar asar mazmunini tushunib olganlarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan qisqa suhbat o'tkaziladi.

Tarbiyachi bolalarga shunday savollar beradi: „Ertak nima haqida ekan? Bu ertakdagi quyon qanday? (qo'rqqoq, yolg'onchi, tarbiya ko'rmagan.) Quyon sheriklariga nima deb maqtanibdi va u bilan qanday voqea ro'y beribdi? Agar siz maqtanchoq quyonchani uchratib qolsangiz, unga nima degan bo'lar edingiz? (Uyalmasanmi, maqtanchoqlik qilishga. Yolg'onchi, qo'rqqoqsanku. Bundaylarni biz o'zimizga sherik, o'rtoq qilib olmaymiz, u bilan birga o'ynamaymiz.) Asar matni yuzasidan suhbat o'tkazilgach, u ikkinchi marta o'qib yoki hikoya qilib beriladi va bolalar tomonidan qayta hikoya qildiriladi. Tarbiyachi bolalarga shunday deydi: „Endi diqqat bilan tinglanglar. Hozir men bu ertakni yana bir marta o'qib (hikoya qilib) beraman. So'ngra sizlar menga qayta hikoya qilib berasizlar“. O'rta guruhda tarbiyachi va bolaning birgalikda (hamkorlikda) qayta hikoya qilishlaridan keng foydalaniladi. Bola qayta hikoya qilayotganda tarbiyachi jummalarni uning esiga tushirib turadi, esidan chiqargan so'zlarni aytib turadi. Bu qayta hikoya qilishning ravonligini ta'minlaydi, jumlar uzilib qolishining oldini oladi. Sekin-astalik bilan bolaning qayta hikoya qilishiga talab orta boradi. Endi tarbiyachi boladan hikoyaning to'liq bo'lishini („Sen nima haqida hikoya qilib berishni esingdan chiqarding?“), asarni qayta hikoya qilib berayotganda bola diqqatini asardagi personajlarning so'zlarini ifodali qilib aytib berishga jalb qilish kerak. Masalan: „Tulki xo'rozdan derazadan qarashini qanday so'raydi?“ — „Samimiy, ayyorona“; „Maqtanchoq quyon o'rtoqlariga nima deb maqtandi?“ — „Be-e. Yem bo'lib bo'pman. Boshiga chiqib bir tepdim, til tortmay o'lib qoldi“ — (Maqtanib, gerdayib.) Ushbu guruhda savollar bo'yicha qayta hikoya qilishdan ham foydalanish mumkin. Ba'zi hollarda bolalar asar mazmunini o'z so'zlari bilan bayon etadilar. Bunday holda bola tomonidan tanlangan so'zlarni muallifning fikrini aniq va to'g'ri ifodalashini nazorat qilib borishi kerak.

Bolalarning qayta hikoya qilishlarini baholash muhim uslubiy (metodik) usullardan hisoblanadi. O'rta guruhda bolalarning hikoyasini tarbiyachi baholaydi. Bolalarning qayta hikoya qilishini baholashda uning yaxshi tomonlarini va kamchiliklarini, harakatchanligini aytib, qisqa tahlil qilish lozim. Bu bilan quyidagi dastur vazifasini bajarish zarur: bolalarda qayta hikoya qilishda

matnga to'g'ri kelmaydigan joylarni seza olish qobiliyatini tarbiyalash. Tarbiyachi bolalarni qayta hikoya qilishga o'rgatish orqali ularning nutq faolligini, mustaqilligini rivojlantirishga ta'sir etadi.

Katta guruhlarda adabiy asarlarni qayta hikoya qilishga o'rgatishda yangi vazifalarni hal etish nazarda tutiladi: tarbiyachining yordamchi savollarisiz ertak va hikoyalarning mazmunini bir-biriga bog'lab, izchillik bilan, ifoda vositalaridan foydalanib, grammatik tomondan to'g'ri bayon eta olishga o'rgatish. Endi bu guruhda ancha murakkab, hajmi kattaroq bo'lgan asarlarni qayta hikoya qilish taklif etiladi. (Bu guruhlarda qayta hikoya qilish uchun tavsiya etilgan asarlar ro'yxati „Badiiy terma kitob“da ko'rsatilgan. Tuzuvchilar: S. G'oziyeva, D. Ochilova, L. Dolimova. T., „O'qituvchi“, 1993.)

Masalan: „Bo'ri bilan tulki“ (o'zbek xalq ertagi), „Chumchuq“ (o'zbek xalq ertagi), Gulxaniyning „Toshbaqa bilan chayon“ masali, „Zumrad va Qimmat“ (o'zbek xalq ertagi) va hokazolar.

Adabiy asarlarni qayta hikoya qilish mashg'ulotida tarbiyachi o'z oldiga bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirish, matn mazmunini bir-biriga bog'lab, ketma-ketlik bilan, nutqning ifodali vositalaridan foydalanib, aniq, grammatik jihatdan to'g'ri bayon etishga o'rgatish vazifasini qo'yadi. Qayta hikoya qilib berishga o'rgatish mashg'ulotini o'tkazish uslubiyoti (metodi) ushbu guruh bolalari bog'lanishli nutqining rivojlanganlik darajasiga, tarbiyachining o'z oldiga qo'ygan vazifasiga, shuningdek, qayta hikoya qilib berish uchun tavsiya etilgan adabiy asar matniga bog'liq bo'ladi. Qayta hikoya qilib berish mashg'uloti ushbu qismlardan iborat bo'lishi mumkin:

1. *Kirish suhbat*. Bu suhbat asar mazmunini idrok qilishga, bolalarning tasavvurlarini aniqlashga, kerakli emotsional holatni vujudga keltirishga va hokazolarga qaratilgandir.

2. *Badiiy asarni o'qib berish*. Asarni dastlabki o'qib berishda bolalarga uning mazmunini esda saqlab qolish kerakligini, so'ng uni qayta hikoya qilib berish lozimligini ta'kidlamaslik kerak, aks holda, badiiy asarning g'oyaviy tomonini idrok eta olmasligi mumkin. Asar matnini ma'noli qilib, ishtirok etuvchilarning dialogini intonatsiya bilan ajratib o'qib berish (yoki hikoya qilib berish) juda muhimdir. Shunday qilinganda bolalarga asardagi qahramonlarga va voqealarga o'z munosabatlarini bildirishga yordam bergan bo'lamiz.

3. *O'qib berilgan asarning mazmuni va shakli yuzasidan suhbat.* O'qib berilgan yoki hikoya qilib berilgan asar mazmuni yuzasidan beriladigan savollar oldindan yaxshilab o'ylab qo'yilgan bo'lishi kerak.

Mashg'ulotning bu qismi uncha uzoq bo'lmasligi, bolalarga 4 — 5 savol berish bilan kifoyalanish lozim.

4. *Adabiy asar matnini ikkinchi marta o'qib berish* (yoki hikoya qilib berish). O'qib berishdan avval tarbiyachi bolalarga asarni diqqat bilan tinglashni, uning mazmunini esda olib qolishni, keyin qayta hikoya qilib berishlarini ta'kidlaydi.

5. *Bolalar tomonidan asarni qayta hikoya qilib berish.* Misol tariqasida o'zbek xalq ertaklaridan „Uch tulki“ ertagini qayta hikoya qilish mashg'ulotini keltiramiz.

Tarbiyachi ertakni o'qib berishdan (yoki hikoya qilib berishdan) avval bolalarga quyon, qo'ng'iroq, eshak va uning bolasi xo'tikning, tulkining (ona tulki, ota tulki, bola tulki) rasmlarini ko'rsatadi va bolalardan ularning nomini so'raydi. Tarbiyachi bolalardan tulki qanday hayvon ekanligini, eshak, uning bolasi xo'tik, quyon qanday hayvon ekanligini so'rab oladi. So'ngra tarbiyachi bolalarga mana shu hayvonlar, „Uch tulki“ ertagida uchrashini aytadi va bolalarga bu ertakni hikoya qilib beradi (yoki o'qib beradi). Shundan so'ng asar mazmuni yuzasidan savollar beradi: „Hozir men sizlarga qaysi ertakni hikoya qilib berdim? Bu ertak qaysi hiylagar hayvon haqida yozilgan? Ertakdagi tulkilar qanday? Rahmdilmi yoki hiylagarmi? Ular qanday qilib quyonni aldashdi? Ertak oxirida tulkining bolasi Qashqani (quyonni) qanday qilib aldaganini kim eslab qoldi?“

Tarbiyachi bolalarga savollarga hammalari to'g'ri va aniq javob berganlarini, asar mazmuniga yaxshi tushunib olganlarini aytib, „Hozir men bu ertakni yana bir marta hikoya qilib beraman, sizlar esa uni diqqat bilan tinglanglar, keyin uni menga qayta hikoya qilib berasizlar“, — deydi.

Asarni ikkinchi marta hikoya qilib bergach, 5 — 6 bolani ertakni qayta hikoya qilib berishga chiqaradi. Har bir bolaning qayta hikoya qilib berishlari baholanadi. Masalan: „Behzod ertakni juda qiziqarli, ifodali qilib aytib berdi, ammo uning hikoyasi to'liq bo'lmadi. U ona tulki quyonni qanday aldaganini hikoya qilib bermadi“.

Katta guruh bolalarini qayta hikoya qilishga o'rgatishda turli usullardan foydalaniladi:

a) tarbiyachi tomonidan tuzilgan reja asosida qayta hikoya qilish;

b) bolalarga tanish bo'lgan ikkita-uchta asarlardan birini o'z xohish-istaklari bilan qayta hikoya qilish;

d) asarni sahnalashtirib, qayta hikoya qilish.

Katta guruh bolalari o'ртоqlarining hikoyalarini baholashga jalb etiladi.

Bunday muhokamani uyushtirish metodik jihatdan juda murakkab bo'lib, u tarbiyachidan katta mahoratni, har bir bolaning shaxsiy xususiyatlarini bilishni talab etadi. Yana bu ishning murakkabligi shundan iboratki, bolalar hamma hikoyalarni eslarida saqlashlari lozim bo'ladi, shuning uchun bolalarning hikoyasini yozib borgani ma'qul, so'ngra ularning ba'zilarini muhokamadan avval o'qib berishi kerak. Muhokamani tashkil etish bolalarni qayta hikoya qilishdagi yaxshi va yomon tomonlarni seza olishga, o'ртоqlariga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalashga yordam beradi.

4- §. Bolalarni rasmga qarab hikoya qilishga o'rgatish

Rasmga qarab hikoya qilish illustratsiyali materiallar tarkibiga kiradi. Tarbiyachi rasmlar yordamida bolalarning tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytiradi, tafakkurlarini rivojlantiradi, xotirani mustahkamlaydi va nutqni boyitadi. Shuningdek, ko'rish imkoniyati bo'lmagan narsa va hodisalar bilan tanishtiradi, ular to'g'risidagi bilimlarini aniqlaydi va to'ldiradi, yuqori axloqiy sifatlarni (mehnatga qiziqish, ona tabiatga muhabbat, o'z o'ртоqlariga sadoqat va hokazolar) shakllantirishga yordam beradi. Bolalarni hikoya qilishga o'rgatish uchun narsa-buyumlarni tasvirlovchi predmetli rasmlardan, sujetli rasmlardan, reproduksiyalardan, peyzaj va naturmort, etud rasmlardan foydalaniladi.

M. M. Konina bolalarni rasmlarga qarab hikoya qilishga o'rgatishning quyidagi mashg'ulot turlarini ajratib ko'rsatadi: 1) narsa-buyumlarni tasvirlovchi rasmlar bo'yicha tasviriy hikoya tuzish; 2) voqeaband rasmlar bo'yicha tasviriy hikoya tuzish; 3) voqeaband rasmlar asosida mazmunli hikoya tuzish; 4) voqealar ketma-ket keladigan rasmlar to'plami asosida hikoya tuzish; 5) peyzajli (manzarali), naturmort rasmlar bo'yicha tasviriy hikoya tuzish.

Tarbiyachi hikoya qilish uchun rasm tanlashda quyidagi talablarga amal qilishi kerak: a) voqealar oddiy bo'lishi, bolaning yoshiga qarab voqeaning murakkablashib borish tamoyiliga amal qilishi; b) mazmuni jihatidan bolalarning yoshiga va nutqining rivojlanish darajasiga mos bo'lishi; d) bolaning xayolini, tafakkurini, estetik his-tuyg'ularini, kuzatuvchanligini, nutqini rivojlantirishga yordam berishi; e) rasmda tasvirlangan narsa-buyumning ko'rinishi yoki voqeaning biror-bir qismida haqiqatni buzib tasvirlash hollari bo'lmasligi.

Turli yosh guruhlarida rasmga qarab hikoya tuzishga o'rgatish uslubiyoti

Kichik guruh. Bu guruhda rasmga qarab hikoya qilishga o'rgatishga tayyorgarlik bosqichi amalga oshiriladi. Bu guruh bolalari hali o'z fikrlarini bir-biriga bog'lab bayon eta olmaydilar. Ularning nutqi dialog ko'rinishiga ega bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar rasmdagi narsa-buyumlarning nomini, ularning ayrim sifatlarini va harakatlarini aytib berish bilangina kifoyalanadilar, bu bolalarda idrokning yaxshi rivojlanmaganligi, so'z to'plamining kamligi, gaplarni to'g'ri tuza olish malakasining shakllanmaganligi bilan bog'liqdir. Rasm bo'yicha ishlashda tarbiyachining asosiy vazifasi quyidagilar: 1) rasmni ko'rib chiqishga, undagi eng muhim narsani seza olishga o'rgatish; 2) rasmda tasvirlangan narsa-buyumlarning nomlarini aytishdan sekin-astalik bilan bog'langan nutq ustida (savollarga javob berish va uncha katta bo'lmagan hikoyalar tuzish) mashq qilishga o'tish.

Bolalarni rasmlar bilan tanishtirish mashg'uloti turli xilda olib borilishi mumkin. Mashg'ulot asosan ikki qismdan iborat bo'ladi:

1. Savollar yordamida rasmni ko'rib chiqish.
2. Tarbiyachining namuna-hikoyasi bilan yakunlash.

Mashg'ulot uncha katta bo'lmagan kirish suhbatini bilan boshlanishi mumkin. Uning maqsadi rasmda tasvirlanganlar to'g'risida bolalarning tasavvurini aniqlashdan va emotsional kayfiyatni vujudga keltirishdan iboratdir. Tarbiyachining savollari mashg'ulotdagi asosiy metodik usullardan biri hisoblanadi, shuning uchun savollarni oldindan puxta o'ylab olish muhimdir. Bolalarga beriladigan savollar tushunarli bo'lishi va unga javob berishda qiyinchilik tug'dirmasligi kerak.

Kichik yoshdagi bolalar rasm asosida ikki-uch so'zdan iborat bo'lgan gaplar yordamida hikoya qilib berishga o'rganadilar. Rasmni

ko'zdan kechirish bolalar nutqining to'g'ri va aniq rivojlanishiga yordam beradi. Tarbiyachi, rasmda tasvirlangan narsa-buyumlarni va voqealarni to'g'ri aytishlarini nazorat qilib borishi kerak. Tarbiyachi o'z nutq namunasi, savollari, ko'rsatmalari bilan bolalarga rasmda tasvirlangan narsa-buyumlarning sifat va belgilarini aniq belgilovchi so'zlarni tanlay olishlarida yordam beradi.

Kichik guruhlarda dastlabki rasmlar alohida narsa-buyumlar (o'yinchoqlar yoki tanish uy jihozlari), uy hayvonlari, bolalar hayotidan olingan murakkab bo'lmagan voqealar tasviridan iborat bo'ladi. Mashg'ulotdan so'ng rasm guruh xonasida bir necha kunga qoldiriladi. Bolalar yana bir marta rasmni ko'zdan kechirib chiqadilar. Ilgari ko'rmagan narsalarini ko'radilar, bir-birlariga fikrlarini aytishadi. Tarbiyachi bunday ko'zdan kechirishlarga rahbarlik qiladi, ya'ni ularning aytayotgan fikrlarini aniqlashtiradi, qo'llab-quvvatlaydi, rag'batlantiradi.

O'rta guruh. Bu guruh bolalarining nutqi takomillashadi, fikrlashi faollashadi, uncha katta bo'lmagan hikoya tuza oladilar.

Dastlab bolalar tarbiyachining savollari yordamida hikoya qilib beradilar. Bu bolalarning jamoa bo'lib tuzgan yoki tarbiyachi va bitta bolaning hamkorlikda tuzgan hikoyasi bo'lishi mumkin. Mashg'ulot oxirida tarbiyachi bolalarning barcha aytgan fikrlarini umumlashtirib, o'zi to'liq hikoya qilib beradi.

So'ngra bolalar tarbiyachining namuna-hikoyasini takrorlaydilar. Bu guruhda tarbiyachining namuna hikoyasi bolalarning undan nusxa olishlari uchun beriladi. „Xuddi mendek hikoya qilib bering“, „Yasha, mening hikoyamni eslab qolibsan“, — deb tarbiyachi bolalarni rag'batlantiradi, ya'ni ushbu guruhda bolalardan mavzudan chetga chiqib ketmaslik talab etiladi. Namuna-hikoya ma'lum bir talablarga javob berishi kerak.

O'rta guruh bolalarini narsa-buyumlarni tasvirlovchi va voqeali rasmlar bo'yicha tasviriy hikoya tuzishga o'rgatish mumkin. Tarbiyachi bolalarni o'z hikoyasida lug'atidagi so'zlardan, sifatdoshlardan, aniqlovchidan, holdan va boshqalardan keng foydalanishga o'rgatishi kerak. Bolalar rasmlar bo'yicha tasviriy hikoya tuzishga (bir yoki bir qancha narsa-buyumlarning yoki obyektlarning sifatlari, xususiyatlari, xarakterlari to'g'risidagi hikoya) o'rganib olganlaridan so'ng voqeaband suratlar bo'yicha voqeaband hikoyalar tuzishga o'rgatiladi. Bolalar tarbiyachi yordamida tasviriy xarakterga ega bo'lgan bog'langan hikoya

tuzadilar. Bu sekin-astalik bilan bolalarni mustaqil ravishda voqeaband hikoyalar tuzishlariga yordam beradi.

Katta guruhda bolalarning faolligi o'sadi, nutqi takomillashadi, turli rasmlar bo'yicha mustaqil hikoya tuza oladilar. Rasmlardan foydalanilgan mashg'ulotlarda ularning mazmuniga qarab har xil vazifalar qo'yiladi: 1) bolalarni rasmlarning mazmunini to'g'ri tushunishga o'rgatish; 2) his-tuyg'ularni tarbiyalash (rasmlarning mazmuniga qarab aniq rejalashtiriladi: tabiatga muhabbat, kasb-hunarga hurmat va hokazolar); 3) rasmlar bo'yicha bog'langan hikoya tuzishga o'rgatish; 4) lug'at to'plamini kengaytirish va faollashtirish (bolalar xotirada saqlashlari lozim bo'lgan yangi so'zlar yoki aniqlanishi va mustahkamlanishi lozim bo'lgan so'zlar oldindan aniq rejalashtiriladi). Katta guruhda bolalarni hikoya qilishga o'rgatish jarayonida tarbiyachining rahbarligi o'zgaradi. Endi u shaxsan ishtirokchilikdan kuzatuvchi rolga o'tadi, zarur bo'lgandagina aralashadi. Katta guruh bolalarining hikoyalariga katta talablar qo'yiladi: voqealarni uzviy bog'langan holda, grammatik jihatdan to'g'ri jumlar tuzib bayon qilish; til vositalarining (harakatlarni, sifatlarni, holatlarni va boshqalarni aniq belgilash) mustaqilligi, obrazlilik, bir maqsadga qaratilganligi, topshiriqni bola tomonidan ongli tarzda anglash uni to'g'ri bajarishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Bu jihatlarga tarbiyachining rahbarlik qilishi juda katta ahamiyatga ega, u topshiriqni tushunishga va to'g'ri bajarishga yordam beradi. Tarbiyachining namuna-hikoyasi, ayniqsa, maktabga tayyorlov guruhida ularning hikoya qila olish malakasini yanada yuqori darajada rivojlanishi uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Tarbiyachi boladan namuna-hikoyaning aynan o'zini takrorlashni talab qilib qolmasdan, balki takomillashtirib, o'zgartirib, umumlashtirgan holda, adabiy obrazlardan foydalanib hikoya qilishni talab etadi. Namuna ko'pincha rasmning bir qismi uchun taalluqli bo'lib, u boshqa qismlar yuzasidan mustaqil hikoya tuzish imkonini beradi. Maktabga tayyorlov guruhida tarbiyachining namuna-hikoyasi, guruhda rasmdagi mazmunni bog'langan holda bayon etishga qiynaladigan bolalar bo'lsagina taklif etiladi. Bunday mashg'ulotlarda hikoya rejasini berish, hikoya mazmunini va izchilligini aytib turishdan foydalanish yaxshi natijalar beradi.

Katta guruhda rasimga qarab hikoya tuzishning hamma turlaridan foydalaniladi: narsa-buyumlarni tasvirlovchi va voqeaband rasmlar bo'yicha tasviriy hikoya tuzish; peyzajli va

naturtmortli rasmlar bo'yicha tasviriy hikoya tuzish; rasmlar seriyalari — to'plamlari bo'yicha, masalan, „Bizning yer maydonchamiz qishda va yozda“) hikoya tuzish.

Rasmlar to'plami bo'yicha hikoya tuzish malakasini takomillashtirishda quyidagi usullar yordam beradi: jamoa bo'lib hikoya tuzish — avval boshlanishini tarbiyachi tuzadi, bolalar tugallashadi; bir bola boshlaydi, boshqasi davom ettiradi.

Quyida misol tariqasida bog'lanishli nutqni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulot ishlanmasini keltiramiz. Bu mashg'ulotda nutqning turli vazifalari hal etiladi.

I qism. Bog'lanishli nutq. „Tipratikanlar“ rasmi bo'yicha hikoya qilish.

Dastur mazmuni. Bolalarning yovvoyi hayvonlar (tipratikanlar) to'g'risidagi mavjud bilimlaridan foydalanib, rasm bo'yicha hikoya qilishga o'rgatish.

II qism. Lug'at ishi. Topishmoqlarni topish.

Dastur mazmuni. Bolalarni topishmoqlardagi obrazli ifodalarning mazmunini tushunishga o'rgatish.

III qism. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash. „r-l“ tovushlarining to'g'ri talaffuzini mustahkamlash.

Dastur mazmuni. „r-l“ tovushlarining to'g'ri talaffuzini aniqlash, mustahkamlash, fonetik idrokni o'stirish. „r-l“ tovushlari bo'lgan so'zlarni aniq va cho'zib talaffuz etishga o'rgatish.

Mashg'ulotning borishi. Tarbiyachi bolalarga tipratikan haqidagi she'rni aytib beradi.

So'ngra tarbiyachi so'raydi: „Tipratikanning tanasi nimalar bilan qoplangan?“ (*Ignalar bilan.*) „Tipratikan qanday?“ (*Tikanli.*) Tipratikan haqidagi topishmoqni tinglashni taklif etadi:

Tikuvchimas, bichuvchimas,

Ninasi ancha ekan, yoviga sanchar ekan.

So'ng shu topishmoq yuzasidan ham savollar beradi: „Nima uchun: ninasi ancha ekan, yoviga sanchar ekan“ deb aytilgan? (Chunki uning tanasi ignalar bilan qoplangan, bironta yovvoyi hayvon uni yemoqchi bo'lsa, dumaloqlanib olib ignalarini tikkaytirib oladi, natijada uning ignalari yovga (dushmaniga) sanchiladi. Biz ham uni tutib olmoqchi bo'lsak, ignalarini qo'limizga sanchib olishi mumkin. Unga tegib bo'lmaydi, tikanli.)

Yana bitta topishmoq aytadi:

„Ignalarini o'zi bilan olib yuradi,

Tikishni esa bilmaydi“.

Tarbiyachi so'raydi: Nima uchun „Tikishni bilmaydi“ deyilgan? Yana qanday ignalar bor, ular nima uchun kerak? (Tikuv ignalari, tikish uchun.) Tipratikanning ignalari bilan tikish uchun ishlatiladigan ignalar nimasi bilan o'xshash? (ular o'tkir, uzun, ingichka.)

Tarbiyachi „Tipratikanlar“ rasmini („Yovvoyi hayvonlar“ seriyali rasmlardan) ko'rsatadi. Bolalarga uni diqqat bilan ko'rib chiqishni taklif etadi va savollar beradi: „Bu rasmda nima tasvirlangan? Ona tipratikan nima qilyapti? Tipratikan bolalari-chi? Tipratikanlar nima yeydi? Unga ignalar nima uchun kerak? U qanday? Tipratikanni nima bilan taqqoslash mumkin?“ Javoblarni tinglaydi va bolalarga tipratikanlar haqida aytilganlarni esdan chiqarmaslikni aytadi. Shu rasm yuzasidan bir bolaning hikoyasi:

„Ona tipratikan va tipratikanchalar yashashar ekan. Kunlardan bir kuni ular o'tloqqa sayr qilgani borishibdi. Ona tipratikan shiliqqurtlarni ko'rib ularga tikilib qaray boshlabdi. Ikkita tipratikancha esa qo'ng'izga qarab o'ylashibdi, bu kim ekan, bitta tipratikancha esa xuddi koptokka o'xshab, dum-dumaloq bo'lib olibdi. Qo'ng'iz yiqilib tushgan edi, tipratikancha qo'rqib, tumshug'ini ichkariga yashirdi“.

Ikkinchi bir bolaning hikoyasi: „Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Ona tipratikan bilan tipratikanchalar yashar ekan. Kunlardan bir kun ular sayr qilgani bog'ga borishibdi. Ona tipratikan shiliqqurti ko'rib qoldi. Ikkita kichkina tikanli tipratikanchalar chuvalchangni ko'rib qolib, unga qarab turishibdi va qanday taqsimlab olishga hayron“.

Uchinchi bolaning hikoyasi: „Tipratikanchalar va ona tipratikan yashar ekan. Kunlardan bir kun ular o'rmonga sayr qilgani borishibdi. Ikkita tipratikancha qo'ng'izni ushlab olishdi va uni taqsimlay olishmadi. Ular qarasarlar, shox-shabballarning ostida bir ko'k rangdagi dum-dumaloq narsa. Bu ularning akalari bo'lib, u qo'rqanidan xuddi koptokka o'xshab dum-dumaloq bo'lib olgan edi. Ular akalariga qarayotganlarida, qo'ng'izlar qochib qolishdi“.

Tarbiyachi bolalardan kimning hikoyasi nimasi bilan ko'proq yoqqanligini, har bir tinglagan hikoyalarida qanday yangi va qiziqarli narsalarni eshitganliklarini so'rab oladi.

Katta guruh bolalari sekin-astalik bilan rasmda tasvirlangan tabiat manzaralarini (peyzajni) tasvirlash bilan o'z hikoyalarini

to'ldirib boradilar. Masalan, „Qishki o'yinlar“ rasmi yuzasidan bola shunday hikoya qilishi mumkin: „Bu rasmda qish tasvirlangan. Kun iliq va quyoshli. Osmon ko'm-ko'k, beg'ubor...“. Rasm bo'yicha hikoya qilishga bunday tasvirlashni kiritish bolalarni manzarali (peyzajli) va naturmort rasmlar bo'yicha hikoya tuzishga tayyorlaydi. Bu hikoya turi maktabga tayyorlov guruhida tashkil etiladi. Bolalarni manzarali va naturmort rasmlar bo'yicha hikoya qilishga o'rgatishning qiziqarli va samarali uslubiyotini N. M. Zubareva ishlab chiqqan. Jumladan, ushbu uslubiyotni u quyidagicha yoritadi: „Bolalarni manzarali rasmni idrok qilishga sekin-astalik bilan, ularning emotsional kayfiyatlariga tayangan holda, tabiatni kuzatish bilan bog'lab o'rgatib boriladi. Manzarali rasmni idrok qilishni tevarak-atrofdagi tabiatning rang-barangligini va chiroyini kuzatish bilan (quyoshning chiqishi va botishi, momaqaldiroq, oqshom, ob-havo (bulutli, ochiq), izg'irin shamol va boshqalar) bog'lab olib borish kerak. Manzarali rasmni ko'rib chiqishda quyidagi savollardan foydalanish maqsadga muvofiqdir: Rassom bizga bu o'rmon haqida (ushbu daraxt, maysazor, o'tloq haqida) nimalarni hikoya qilib bermoqchi bo'lgan? Nima uchun rassom o'zining rasmini shunday nomlagan? Rassomga nima qiziqroq, chiroyliroq ko'rinadi? Tarbiyachining „nima haqida...“, „nima to'g'risida...“ degan savollari rasmning tavsifini aniqlashga, tabiat manzarasi to'g'risida aniq tavsif berishga yordam beradi. U yoki bu rasmning badiiy g'oyasini yaxshi tushunish va aniqlash uchun musiqadan, poetik (she'riy) asarlardan foydalanish ma'qul. Bu bolalarda, bir tomondan, barqaror diqqatning vujudga kelishiga yordam bersa, ikkinchi tomondan, ularning kayfiyatini ko'taradi, tasvirlash uchun o'xshatishlar, epitetlar, taqqoslashlar va kinoyalarni tanlashga yordam beradi“.

Masalan, Safo Ochilning, „Ko'klam qo'shig'i“, Shukur Sa'dullaning „Bahor keldi“, Zafar Diyorning „Qor“, she'r-laridan, tabiat to'g'risidagi o'zbek xalq qo'shiq va laparlaridan foydalanish mumkin.

Rasmning g'oyasini tushunishga yordam berishda ushbu metodik usul ham yordam berishi mumkin: tarbiyachi bolalardan qor bilan o'ynayotganlarida, uyda onalari bo'lmaganda, shifokor emlash uchun kelganda va hokazo vaziyatlarda kayfiyatlari qanday bo'lishini so'raydi. Tarbiyachining namuna-hikoyasi yoki adabiy asarni o'qib berishi katta ahamiyatga ega. Masalan,

V. Baksheyevning „Yashil bahor“, O‘. Tansiqboyevning „Kuz“ rasmini ko‘zdan kechirishda mashg‘ulotni O‘tkir Hoshimovning „Tomchi haqida ertak“ hikoyasini, Qudrat Hikmatning „Bu qaysi fasl?“ asaridan parcha o‘qib berish bilan tugallash mumkin.

Maktabga tayyorlov guruhida naturmortlarni ko‘rib chiqish va tasvirlash mashg‘uloti tashkil etiladi. Tarbiyachi doskaga uncha murakkab bo‘lmagan rasmni (naturmortni) yoki rasmda tasvirlangan idishlardan, gullardan, mevalardan stol ustida, xuddi rasmda tasvirlangandek, „naturmort“ yasaydi. So‘ngra bolalarning o‘zlari narsa-buyumlardan „naturmort“ yasaydilar va bir vaqtning o‘zida „naturmortni“ tasvirleydilar: rangini, bo‘yoqlarning mosligini, narsalarning shaklini aytib tasvirleydilar, keyin esa rasmdagi „naturmort“ bilan taqqoslaydilar. „Stoldagi naturmort“ni ko‘rib chiqish bolalarga narsa-buyumlarning turli sifat xususiyatlarini, belgilarini aniqlashga yordam beradi, ularning estetik sifatleri to‘g‘risidagi tasavvurlari doirasini kengaytirishga ta’sir etadi. Bola sekin-astalik bilan mustaqil ravishda naturmortlarni tasvirlashga o‘tadi. Ushbu naturmort rasmlardan foydalanishi mumkin: D. Nalbandyan „Gullar“, I. Levitan „Siren“, A. Laktinov „Fevral“, I. Mashkov „Taruvi bilan naturmort“, P. Kanchalov „Deraza oldidagi siren“, A. Fatxullin „Nishona“. Shuningdek, tarbiyachi mashg‘ulotda fotoetud reproduksiyalaridan ham foydalanishi mumkin. Y. Ryumkinning „Olmalar“, Y. Ignatovichning „Momaqaymoq“ va „Moychechak“ rasmlarini ko‘zdan kechirish yaxshi natijalar beradi.

5- §. O‘yinchoqlarga qarab hikoya qilishga o‘rgatish

Bolalarning eng sevimli va qiziqarli mashg‘ulotlaridan biri bu o‘yinchoqlarni ko‘rib chiqish va tasvirlashdir. O‘yinchoqlarga qarab hikoya tuzishning ma’nosi juda keng. U bolalarda axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi, birgalikda hikoya qilish malakalarini rivojlantiradi, xotira, diqqat va irodani mashq qildiradi. Hayotda hosil qilgan tajribalarini, idroklarini mustahkamlaydi; kam gapiradigan bolalarning nutqiy muloqotga kirishib ketishiga ta’sir etadi, ularning hayotlarini sermazmun va quvnoq qiladi; lug‘atini faollashtiradi, bog‘langan nutqning rivojlanishiga yordam beradi. O‘yinchoqlar bo‘yicha mashg‘ulotni tashkil etishda o‘yinchoqlarni tanlashga jiddiy e’tibor berish kerak. Kichik guruh bolalariga tasvirlash uchun taklif etiladigan o‘yinchoqlar o‘zining ba’zi

bir xususiyatlariga ega: o'yinchoqlar nomi bo'yicha bir xil bo'lishi mumkin, biroq tashqi ko'rinishi jihatidan bir-biridan farq qilishi kerak (katta va kichkina ayiqchalar; sochi mayda o'rilgan, do'ppi kiygan va sochiga lenta taqilgan qo'g'irchoq; qizil va yashil piramidalar, kubiklar va hokazolar). O'yinchoqlarni bu tartibda tanlash bolalarning lug'atini faollashtirishga va taqqoslash usulidan foydalanish asosida bog'lanishli nutqini rivojlantirishga yordam beradi.

Katta guruhlarda taxminan quyidagi o'yinchoqlarni tanlash mumkin (tarbiyachi oldindan o'yinchoqlar to'plami ro'yxatini tuzib qo'yadi):

Sentabr. Qog'ozdan yasalgan to'q sariq, zarg'aldoqrang bayroqcha; matodan yasalgan yashil rangdagi bayroqcha; yog'ochdan yasalgan qo'ziqorin; plastmassadan va metallardan qilingan chelakchalar; har xil kattalikdagi qo'g'irchoqlar to'plami; qayiqchalar (o'yinchoqlar nimadan yasalganligini, nomini, rangini bildiruvchi so'zlarni mustahkamlash uchun).

Noyabr. Soatlar, pochta qutisi, telefon, paroxod, avtomobillar, samolyotlar (shakl va fazoni bildiruvchi, *oldinda, yuqorida, orqada* kabi so'zlarni mustahkamlash va tushuntiruvchi hikoyalar tuzish uchun).

Yanvar. Juft o'yinchoqlar to'plami: past va baland ikkita piramida; ikki xil avtomobil; mushuk va kuchuk; har xil rangdagi ikkita otcha; ikkita har xil qo'g'irchoq (*o'ngda, chapda, yonda, ketma-ket* so'zlarini mustahkamlash hamda taqqoslovchi hikoya tuzish uchun).

Turli yosh guruhlarida o'yinchoqlarga qarab hikoya tuzishga o'rgatish.

Kichik guruh. Ushbu guruhda o'yinchoqlarni tasvirlash bo'yicha mashg'ulotlar emotsional shaklda, odatdagi oddiy ta'limiy o'yin ko'rinishida („Ajoyib xaltacha“, „Bu kim?“, „Sen nimani topding?“) olib boriladi.

O'yinchoqlarni tasvirlash bo'yicha mashg'ulotlar ularni ko'rib chiqishdan boshlanadi. Tarbiyachi bolalar diqqatini o'yinchoqlarning tashqi ko'rinishidagi xarakterli xususiyatlarga qaratadi (rangi, shakli, materiali), ularning belgilarini bildiruvchi so'zlarning to'g'ri aytilishini nazorat qiladi. Tasvirlash tarbiyachining savollari yordamida olib boriladi. Kichkintoylarga tugallangan hikoya berilmay, balki alohida jumlar aytiladi, shuning uchun savollar

yordamida uzuq soʻzlar, jumlarlar, luqma tashlashlar birlashtiriladi. Tarbiyachi bolalarning javoblaridan keyin ularni umumlashtiradi, oʻyinchoqlar haqidagi namuna-hikoyani taklif etadi. Masalan, kuchukcha oʻyinchoqʻini olib (tarbiyachining stoli ustida ikki xil rangdagi kuchukcha, biri katta, oq baxmaldan qilingan, qulogʻi pastga tushgan; ikkinchisi, kichkina, qora rangda, quloqlari tik) shunday deydi: „Men hozir bu oʻyinchoq kuchukcha haqida gapirib beraman. Sizlar esa diqqat bilan tinglab oʻtiringlar, keyin sizlar ham kuchukcha haqida xuddi mendek gapirib berasizlar: Bu oʻyinchoq — kuchukcha. U katta, rangi oppoq, baxmaldan yasalgan. Kuchukchanning boshida ikkita uzun quloqlari bor. Uning bitta qulogʻi tik, yuqoriga qaragan, ikkinchi qulogʻi esa pastga osilib tushgan. Kuchukchanning boʻynida yashil rangli lentasi bor. Uning uzun dumi, oldingi va orqa oyoqlari ham bor. U „vov-vov“ deb vovullaydi. Bu oʻyinchoqni biz juda sevib oʻynaymiz, oʻzimiz bilan sayrga olib boramiz. Oʻynab boʻlgach, uni oʻyinchoqlar burchagiga qoʻyib qoʻyamiz“. Bolalar, endi kuchukcha haqida sizlar gapirib berasizlar. Men kinni chaqirsam, shu bola oʻyinchoqni olib, uning nomini, rangini, qanday materialdan yasalganligini, uning nimalari borligini aytib beradi. Bolalar shu tariqa sekin-astalik bilan namuna-hikoya asosida tasviriy hikoya tuza boshlaydilar.

Oʻrta guruhda bolalar sekin-astalik bilan mustaqil ravishda oʻyinchoqlar boʻyicha tasviriy hikoya tuza boshlaydilar. Oʻrgatishning eng natijali usullaridan biri bu har doimgi mashgʻulotda namuna-hikoyadan foydalanishdir. Namuna-hikoyani mashgʻulotning qaysi qismida (mashgʻulotning boshida, oxirida) berishni bolalarning hikoya qilib bera olish darajasi belgilaydi. Ushbu guruh bolalari yilning ikkinchi yarmidan boshlab tarbiyachining rejasi asosida hikoya tuza boshlaydilar. Dastlab uncha katta boʻlmagan reja asosidagi ikki-uchta savol oʻyinchoqlarning nomini, ularning asosiy sifatlarini va u bilan qilinadigan harakatlarni birlashtiruvchi uncha katta boʻlmagan hikoya tuzishni nazarda tutadi. („Oʻyinchoqning nomi, rangi, hajmi, u bilan qanday oʻynash mumkinligini gapirib bering“.) Sekin-astalik bilan rejani murakkablashtirish, yaʼni savollarni har xil berish mumkin. (Bu oʻyinchoq qanday materialdan qilingan? U senga yoqadimi?)

Oʻyinchoqlar bilan oʻtkaziladigan taʼlimiy oʻyinlardan keng foydalaniladi: „Oʻyinchoqlar doʻkoni“ , „Pochtachi sovgʻa olib

keldi“. Bunday mashg‘ulotlarni emotsional tarzda o‘tkazish bog‘lanishli nutqqa o‘rgatish uchun qulay sharoit yaratadi. Ayniqsa, o‘yinchoqlar haqidagi topishmoqlardan foydalanib o‘tkaziladigan mashg‘ulot juda qiziqarli o‘tadi.

Bolalar tasviriy hikoya tuzishga yaxshi o‘rganib olganlaridan so‘ng, o‘yinchoqlar to‘plami bo‘yicha voqeaband hikoyalar tuzishni taklif etish mumkin. Bu mashg‘ulot uchun o‘yinchoqlarni shunday tanlash kerakki, oddiy voqea chizig‘ini belgilash qiyin bo‘lmasin (qizcha, qo‘ziqorin, savatcha, archa, tipratikan). Tarbiyachining savollari bolalarga hikoya voqealarini izchil yoritishga yordam beradi. Chunonchi: „O‘rmonda qizcha bilan qanday voqea sodir bo‘lishi mumkin? Qizcha o‘rmonda nimani uchratib qolishi mumkin? Nimani topib olishi mumkin? U o‘rmondan savatchasida nima olib keldi?“ Hikoya tuzishda tarbiyachining hikoya-namunasidan ham foydalaniladi. Bolalar bu hikoya namunasining aynan o‘zini takrorlaydilar, shuning uchun namunani har bir mashg‘ulotda berish maqsadga muvofiqdir.

Namuna bolalarni voqeaviy hikoya tuzishga o‘rgatib qolmasdan, balki nutqiy qurilmalarni ham berishi kerak. Shuning uchun hikoyaga ko‘chirma gapni, tasvirli (obrazli) ifodalarni, uncha katta bo‘lmagan tasvirlashlarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, tarbiyachining namuna-hikoyasi: „Gavhar ismli qizcha yozda qishloqdagi buvisinikiga dam olgani bordi. Kunlardan bir kuni u savatchasini olib o‘rmonga sayr qilgani chiqdi. Qarasa, yo‘lning chekkasida tipratikan yugurib ketyapti. Gavhar uni ushlab, savatchasiga solib, uyiga olib ketmoqchi bo‘ldi, biroq bu fikridan tez qaytdi. „Mayli, tipratikan o‘rmonda yashay qolsin, bu yerda unga juda ham yaxshi“ deb o‘yladi-da, gullar, qo‘ziqorinlar tera boshladi“.

O‘yinchoqlar to‘plami bo‘yicha voqeaband hikoya tuzish mashg‘uloti ikki qismdan iborat bo‘ladi: 1) o‘yinchoqlarni ko‘rib chiqish; 2) o‘yinchoqlar bo‘yicha hikoya tuzish. Birinchi qismning maqsadi — bolalarni o‘yinchoqlar bilan tanishtirish, har biriga qisqacha ta‘rif berish. Bu qism vazifa berish, hikoyaning qisqacha rejasi yoki namuna-hikoya tuzish bilan tugallanadi. (Bu o‘yinchoqlar haqida hikoya tuzishga o‘rganamiz.)

Katta guruhda o‘yinchoqlar bo‘yicha bog‘langan hikoya tuzishning xilma-xil mashg‘ulot turlaridan foydalaniladi, chunonchi: 1) o‘yinchoqlarni tasvirlash; 2) o‘yinchoqlar to‘plami bo‘yicha voqeaband hikoya tuzish; 3) bitta o‘yinchoq

bo'yicha voqeband hikoya tuzish. Mashg'ulot ikkinchi yarim yillikdan boshlab tashkil etiladi. Mashg'ulot muvaffaqiyatli o'tishi uchun uni jihozlashni va tashkil etishni oldindan o'ylab qo'yish kerak. Guruhda bolalar diqqatini chalg'itmaslik uchun o'yinchoqlarni yashirin holda (qutichada, sandiqchada va hokazo) olib kirgan ma'qul. Dastlab mashg'ulotga 6 — 8 yirik o'yinchoq olib kiriladi. Mashg'ulotni boshlashda tarbiyachi bolalarga o'yinchoqlarni ko'rib chiqqanliklarini, ular har xil rangda va har xil materialdan yasalgan bo'lishini bilishlarini eslatib o'tadi. Yana ularga o'yinchoq olib kelganligini ma'lum qiladi. Tarbiyachi bolalarga bugungi mashg'ulotda o'yinchoqlarni ko'zdan kechiribgina qolmasdan, balki ular haqida hikoya tuzishlarini ma'lum qiladi. Bolalarga shunday deydi: „Avval o'yinchoqni diqqat bilan ko'zdan kechirish kerak, so'ngra u nima deb aytilishini, qanday rangda ekanligini, nimadan yasalganini gapirib berish kerak“. Tarbiyachi dastlabki mashg'ulotda hikoyaning namunasi yoki rejasini (Bu qanday buyum? Uning qanday qismlari bor? Ular nima uchun kerak? Bu buyumdan qanday foydalanishni tushuntir va ko'rsat) beradi. Ushbu guruhda mustaqillikka va ijodiylikka undovchi mashg'ulotlardan keng foydalaniladi: „O'yinchoqlar bo'yicha topishmoqlar aytish o'ynaymiz“. (Stol ustiga echki, it, xo'roz, ot, toshbaqa, mushuk, qo'y o'yinchoqlari qo'yiladi. Ularga oid topishmoqlar oldindan tanlab qo'yiladi: „Boshida tayog'i bor, sakkizta tuyog'i bor“, „Emaklagan toshni ko'rdik, toshdan chiqqan boshni ko'rdik“, „To'rtidir uning oyog'i, temir mixli tuyog'i, manzilga yetishtirar, toshdan qattiq tuyog'i“, „Ketaveradi, ketaveradi, savatday yerni egal-laydi“, „Erta turadi, jar chaqiradi“, „Kichkina qumg'on, o'tirib ko'zini yumgan“. Tarbiyachi bitta o'yinchoq bo'yicha topishmoqni aytadi, bolalar topadilar. So'ngra bolalarning o'ziga topishmoqlar aytish taklif etiladi) „Cevimli o'yinchoqlarimiz haqida gapiramiz“. O'yinchoqlarni ta'riflashda bolalar nutqiga katta talablar qo'yiladi. Bolalarga berilgan „Qanday o'yinchoq?“ degan savolga o'yinchoqning har bir qismini diqqat bilan ko'rib chiqib uni tasvirlashni (shaklini, uzunligini, rangini, nimadan qilinganligini va hokazolarni) talab etadi. Bolalar uni darrov to'liq tasvirlab bera olmaydilar. Tarbiyachi bolalarga hikoyani to'ldirishni taklif etadi yoki o'zi hikoya namunasini beradi.

Bolalar o'yinchoqlar to'plami ichidan o'zlari istagan o'yinchoqni tanlab, ular bo'yicha qiziqarli hikoyalar o'ylab

topishadi, biroq baʼzan mazmundan chetga chiqib ketish hollari ham boʻladi. Bunday hollarda tarbiyachi oʻzining savollari, esga tushirishi, aniqlik kiritishi, toʻldirishi bilan mantiqli, tasvirli hikoya tuzishga yordam beradi.

Katta va maktabga tayyorlov guruhida oʻyinchoqlar yordamida inssenirovka koʻrinishidan iborat boʻlgan hikoya tuzishga ham oʻrgatib boriladi. Tarbiyachi bunday hikoyaning namunasini beradi. Masalan, qizcha va kuchukcha toʻgʻrisida hikoya: „Bir qizcha yashar edi va uning oppoqqina, yaxshigina kuchukchasi bor edi. Qizcha uni boqar, sayrga olib chiqar edi. U kuchukchasining boʻyniga qizil tasma bogʻlab qoʻygan edi. Kunlardan bir kun qizcha maktabga oʻqishga ketdi. Uyga kimdir keldi-yu, eshikni ochiq qoldirdi, kuchukcha esa koʻchaga yugurib chiqdi. Qizcha maktabdan kelsa, kuchukcha yoʻq. Qidirib topa olmadi. U koʻchaga yugurib chiqdi. Qarasa, qoʻshni uyning darvozasi oldida oʻtiribdi. U juda kir boʻlib, titrab yigʻlar edi. Qizcha uni koʻtardi-da, uyga olib keldi“. Hikoya oʻyinchoqlarni harakatlantirish bilan aytiladi.

Bogʻlanishli nutqni jonli va ravshan boʻlishi uchun oʻyinchoqlar bilan tashkil etiladigan spektakllar katta ahamiyatga ega. Bu spektakllarni katta guruh bolalari kichkintoylarga qoʻyib berishadi. Spektakl boshlanishidan avval tarbiyachi guruh bolalari bilan kichkinagina suhbat oʻtkazadi, bolalarga oʻyinchoqlar uchun „voqealar“ oʻylab topishni va uni oʻrtoqlariga gapirib berishni taklif etadi. Mavzular hayotiy yoki xayoliy boʻlishi mumkin. Masalan, „Hayvonot bogʻida ayiq hayotida qanday voqea sodir boʻladi?“, „Tulkining tugʻilgan kuni“, „Oʻyinchoqlar doʻkoni“, „Yangi yil kechasi“ va boshqalar.

Tabiiy buyumlarni tasvirlash. Bu mashgʻulot katta taʼlim-tarbiyaviy ahamiyatga ega, bunday mashgʻulotlarda bolalarning kundalik hayotlarida ishlatiladigan, atrofni oʻrab turgan, roʻzgʻorda ishlatiladigan buyumlar tasvirlanadi. Shuningdek, tabiat obyektlari (mevalar, uy oʻsimliklari, barglar), xoʻjalik buyumlari, tanish mehnat qurollari va hokazolar boʻlishi mumkin. Bolalar hikoya tuzar ekan, ularning buyumlar (shakli, nimadan qilinganligi, uning vazifasi) toʻgʻrisidagi bilimlari yanada mustahkamlanadi. Buyumlarni tasvirlash bilan bir vaqtda ularning kuzatuvchanligi, tahlil qila olish malakasi, taqqoslash qobiliyati rivojlanadi. Bu mashgʻulot turida buyumlar yigʻindisidan (25 — 30 dona, vazifasi, turkumi va hokazolari bir xil boʻlgan) foydalangan maʼqul. Masalan, katta guruhda quyidagi buyumlardan foydalanish

mumkin: turli xildagi sovundonlar, tish choʻtkalari, gʻiloflar, taroqlar, oynalar va hokazo; idish-tovoqlar va oshxona buyumlari (oʻqlov, kapgir, chovli, tuzdon va hokazo); tikuv buyumlari (ip gʻaltaklari, tugmachalar, qaychilar, igna qadagichlar va boshqalar); maktab (oʻquv) anjomlari (qalamlar, oʻchirgʻichlar, chizgʻichlar, ruchkalar). Bolalarning hikoyasini buyumlarning turkumlanishi asosida, vazifasiga qarab (Yana kimda gʻiloflar bor?), materiali boʻyicha (Yashil rangdagi buyumlarni eslaysizmi?) navbatlashtirish mumkin.

Mashgʻulotda topishmoqlardan ham foydalanish mumkin: Hammaga toʻn tikadi, oʻzi yalangʻoch (*Igna*); Tap-tap etadi, tagidan karvon oʻtadi. (*Elak*); Borishda qorni och, qoʻshiq aytar, kelishda qorni toʻq yigʻlab qaytar (*Chelak*). Bolalarning taqqoslovchi hikoyalaridan ham foydalanish mumkin. Masalan, ikkita ignadonni tasvirlash: „Mening ignadonim plastmassadan yasalgan, uniki esa — yogʻochdan. Mening ignadonimning yuqorisida angishvonasi bor, unikida esa yoʻq. Mening ignadonimning uchi oʻtkir, xuddi raketaga oʻxshaydi, uning ignadoni esa xuddi hushtakka oʻxshaydi“. Bunday mashgʻulotlar natijasida bolalar oʻzlari mustaqil ravishda buyumlar toʻgʻrisida, uning eng muhim belgilarini ajratgan holda topishmoqlar oʻylab topishga oʻrganadilar.

6- §. Bolalarni oʻz tajribalaridan (xotiradan) hikoya qilib berishga oʻrgatish

Bu hikoya turi bolalarning bogʻlanishli nutqini rivojlantirishga, muloqotga oʻrgatishda, oʻz his-tuygʻularidan foydalanish va uni bogʻlangan holda bayon etishga odatlantiradi. Oʻz fikrlarini aniq, ravshan va tushunarli tarzda bayon etish malakasi shakllanadi.

Bu hikoya turining rivojlanish asosi bolalar hayotining mazmunidir. Bolalar hikoyasining mavzulari uchun sayrlar, sayohatlar, mehnat va bayramlar asos boʻladi. Tevarak-atrofdagi narsa-buyumlar va hodisalarni kuzatish, sheʼrlar, badiiy asarlardan parchalar oʻqib berish, tasvirlashga asoslangan taʼlimiy oʻyinlar oʻtkazish, bolalar nutqini badiiy soʻz va iboralar bilan boyitish ularni oʻz hayotlaridagi qiziq voqealar haqida hikoya qilib bera olish qobiliyatini rivojlantirishning muhim shartlari hisoblanadi.

Oʻz tajribalaridan hikoya tuzish *oʻrta guruhdan* boshlanadi. Bolalarga oʻzlariga tanish boʻlgan, yaqinda boʻlib oʻtgan aniq-

ravshan voqealar mavzu sifatida taklif etiladi: „Bizning bayram“, „Biz onamizga qanday sovg'a tayyorladik?“, „Biz anhorga qanday bordik?“. Yaqin atrofdagi kishilar mehnati bilan bog'liq bo'lgan mavzularni ham taklif etish mumkin: „Oshxonada kim ishlaydi?“, „Zulfiya opa — bizning farroshimiz“. Shuningdek, ota-onalarning mehnatlari bilan bog'liq bo'lgan mavzularda („Mening otam va onam qayerda ishlaydilar?“) hikoyalar tuzdirish mumkin. Yuqoridagi mavzularda mashg'ulot o'tkazishdan avval tarbiyachi bolalarni oshxonaga olib boradi, farrosh mehnati bilan tanishtiradi, ota-onalarga bolalariga o'z kasblari haqida (Qayerda kim bo'lib ishlaydi? Bu kasb nimasi bilan muhim?) gapirib berishlarini aytadi. Sayrlar, bolalarning mehnat, tabiat to'g'risida kichik hikoyalar tuzishlari uchun asos bo'lib hisoblanadi. Avval bolalar narsa-buyumlar yoki tabiatdagi mehnat va turli hodisalar haqida voqeaviy hikoyalar tuzishga o'rgatiladi. („Biz tomorqada qanday ishladik?“, „Biz qanday qilib kuchukchani boqdik?“) Tarbiyachi hikoya uchun mavzu tanlar ekan, u bolalarni bog'chaga yaqin bo'lgan tabiat manzaralari bilan tanishtiradi, sayohat yoki sayrning mazmunini va maqsadini belgilaydi. Bolalarni hikoya tuzishga tayyorlash ishlari sayohat, kuzatishlar vaqtida olib boriladi. Tarbiyachi bolalarga sayohatda, sayrda ko'rgan-kuzatganlari bo'yicha savollar beradi.

Mashg'ulot oxirida tarbiyachi: „Bizning bog'imiz haqida nima deyish mumkin, u qanday?“ degan savol beradi va hajmi uncha katta bo'lmagan hikoyaning namunasini beradi. Tarbiyachi bolalarning taassurotlarini mustahkamlash maqsadida ta'limiy o'yin o'tkazadi. Rasmni ko'rishni taklif etadi yoki she'r aytib beradi. Taklif etilgan mavzuda hikoya qilishga o'rgatishni jamoa bo'lib hikoya tuzishdan boshlash ma'qul. Tarbiyachi hikoyani boshlaydi, bolalar esa uncha katta bo'lmagan tasvirlashlar bilan hikoya qilib beradilar. Tarbiyachi hikoyani yozib borishi va mashg'ulotning oxirida o'qib berishi maqsadga muvofiqdir. O'z tajribalaridan (xotiradan) hikoya tuzishning muhim metodik usullaridan biri — bu bolalar diqqatini qaysidir, qandaydir voqeani eslash va uni o'z hikoyasi yuzasidan o'tkazadigan suhbatida esga tushirishni aytadi, hikoyaning asosiy qismlarini belgilaydi (avval nimani hikoya qilamiz, keyin-chi, nima bilan (qanday) yakunlaymiz).

Shuningdek, bu hikoya turida tarbiyachining namuna-hikoyasi ham katta rol o'ynaydi.

Bolalarni o'z tajribalaridan hikoya qilishga o'rgatish ularni o'zlariga yaqinroq bo'lgan mavzuda ancha uzoq so'zlashishga o'rgatadi va ijodiy hikoya tuzishga zamin tayyorlaydi. Katta va maktabga tayyorlov guruhida bu hikoya turining roli ancha ortadi, bu guruhdagi bolalar ko'rgazmali quoolsiz hikoya tuza boshlaydilar. Xotiradan hikoya tuzishning hamma turlari bo'yicha (shaxsiy, jamoa tajribalaridan, ko'rgazmali quoolsiz tasvirlashga oid ta'limiy o'yinlar) mashg'ulotlar tashkil etiladi.

Bolalarning ijtimoiy hayot hodisalari, kishilar mehnati bilan tanishish doirasi kengayadi. Shuning uchun ham ularning hikoya mavzulari murakkablashishi mumkin. Masalan, katta guruh bolalari qurilishdagi kishilarning mehnatlarini kuzatganlaridan so'ng, tikuv ustaxonasiga (atelyega) va boshqalarga sayohatga borishgach, ularga quyidagi mavzularda hikoya tuzish taklif etilishi mumkin: „Bu uyni kim qurgan?“, „Kiyimlarni qanday tikadilar?“, „Bizning dam olishimiz uchun kimlar mehnat qilgan?“ va hokazo.

Maktabga tayyorlov guruhida esa quyidagi mavzular berilishi mumkin: „Biz kutubxonada bo'ldik“, „Maktabdagi darslar“, „Biz shirinliklar fabrikasida nimalarni ko'rdik?“ va hokazo. Ushbu guruhda tabiat to'g'risidagi mavzular ham murakkablashadi.

Keyinchalik bolalar hikoyasi uchun bayramlar, kattalar mehnati, tabiat manzaralari haqida kichik rasmi albomcha tuzish mumkin. O'z shaxsiy tajribasidan hikoya tuzishga bemor o'rtog'iga yoki boshqa shahardagi tengdoshlariga jamoa bo'lib xat matni tuzish ham kiradi.

7- §. Ijodiy hikoya qilish

Bola ijodiy hikoya tuzar ekan, uning mazmunini mustaqil o'ylab topish, mazmuni tushunarli bo'lishi uchun zaruriy so'zlarni to'g'ri tanlashi va ularni mantiqan bir-biriga to'g'ri bog'lay olishi lozim. Yaxshi hikoya yoki ertak tuzish uchun uning kompozitsiyasini (bog'lamini, kulminatsiyasini, yechimini) bilishi hamda katta so'z boyligiga ega bo'lishi, uning mazmunini qiziqarli tuza olishi, o'zining fikrlarini aniq va ifodali qilib bayon eta olishi kerak. Bola doimiy mashq qilish orqali o'z fikrini bir-biriga bog'lab bayon eta olishi va hikoya, ertak to'qiy olishi mumkin. Bu vazifa esa katta va maktabga tayyorlov guruhida amalga oshiriladi. Chunki bu yoshdagi bolalarning nutqi grammatik jihatdan to'g'ri

shakllangan, lug'ati boy, fikr yuritish doirasi keng, o'z fikrini ketma-ket bog'lab bayon eta olish malakasiga, boy hayotiy tajribaga, xilma-xil hayotiy taassurotlarga ega bo'ladi. Bu esa ijodiy hikoya tuzishga o'rgatishning asosiy shartlaridan biridir. Shuning uchun ham „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ da katta va maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarni ijodiy hikoya qilishga o'rgatishga bir qancha talablar qo'yilgan. Ushbu guruh bolalari birinchi yarim yillikda tarbiyachi tomonidan boshlangan hikoya yoki ertakni nihoyasiga yetkazishga, qisqa, lo'nda jumlar tuzishga, tasviriy vositalardan foydalanishga, tarbiyachi taklif etgan mavzu asosida („Quvonchli kun“, „Mehmonda“, „Bizning oila“, „Eng yaqin o'rtog'im“, „Dam olish kuni“, „Dadamga qarashdim“, „Zo'r multfilm ko'rdim“ va hokazo) mantiqiy rivojlanib boruvchi hikoya yoki ertak tuzishga, tuzayotgan hikoya yoki ertaklarida ishtirok etuvchi personajlarning ruhiy kechinmalarini ta'sirchan bera bilishga o'rgatiladi. Bundan tashqari, bolalar suratlar bo'yicha hikoya tuzishda rasmi aks ettirilgan mavzuli voqeaga qarab ilgari nima bo'lganini va keyin nima bo'lishini aytib berishga, tabiat manzaralari aks ettirilgan suratga qarab, undagi go'zallikni, nafislikni ifodalay oladigan tasviriy so'zlar, o'xshatish va sifatlashlar ishtirokida hikoyalar tuzishga o'rgatib boriladi. Bolalarning hayot tajribalaridan olingan voqealar: sayohat, sayr, mehnat jarayoni jonli va ravon hikoya qilib berish malakasini tarbiyalaydi. Hikoya qilayotganda tevarakatdagi buyum, voqea-hodisalarning nomini, ularning o'ziga xos xususiyatlari, xatti-harakatlarini to'g'ri ifodalashga, voqealarning vaqti va joyini ko'rsatishga o'rgatish, topishmoqlar o'ylab topishga undash kabi vazifalar qo'yilgan.

Ikkinchi yarim yillikda esa dasturga asosan bolalarni ijodiy hikoya qilishga o'rgatishda quyidagi ish vazifalari belgilangan: tarbiyachi tomonidan taklif etilgan mavzu bo'yicha voqeani izchil davom ettirib, tugal mazmunli hikoya tuzish ko'nikmalarini mustahkamlash, voqea sodir bo'lgan joy va vaqt, tabiat manzarasini qisqacha tasvirlash, personajlar ruhiy kechinmalarini ko'rsatishlariga ahamiyat berishga o'rgatish. Mustaqil tuzgan hikoyalaridagi personajlarga qisqacha ta'rif berishlariga, ularning xatti-harakatlarini baholashlariga o'rgatish, mustaqil tanlangan mavzu bo'yicha hikoya aytilayotganda voqeaning izchilligiga, tugal mantiqqa ega bo'lishiga, tasviriy ifoda vositalaridan o'rinli foydalanishlariga ahamiyat berishga o'rgatish kabi vazifalar qo'yilgan.

Ijodiy hikoyaning bir qancha turlari mavjud:

Tarbiyachi boshlagan ertak yoki hikoyaning oxirini o'ylab topish va oxiriga yetkazish. Tarbiyachi bu hikoya turida hikoya yoki ertakning boshlanishi, uning bog'lamini aytadi, bolalar esa qahramonlar bilan bo'ladigan asosiy voqealarni o'ylab topadilar.

Masalan, bolalar tomonidan hikoyaning oxirini o'ylab topish. Tarbiyachi bolalarga qanday qilib Vali ismli bola otasi bilan hayvonot bog'iga borganligi haqidagi hikoyaning boshlanishini tinglashni taklif etadi. „Valining otasi uni hayvonot bog'iga olib borishni va'da qildi. Vali bu kunni juda sabrsizlik bilan kutdi. Dam olish kuni Valining otasi uni erta uyg'otdi va ular hayvonot bog'iga jo'nashdi...“ Bolalar, endi sizlar bola u yerda nimalarni ko'rganligini o'ylab topinglar va hikoyani oxiriga yetkazinglar. O'rtog'ingizning hikoyasini takrorlamang, har qaysingizning hikoyangiz har xil bo'lsin.

Ertakning oxirini o'ylab topish

Dastur mazmuni: bolalarda xayolni rivojlantirish, uncha katta bo'lmagan ertak to'qishga, uning mazmunini izchillik bilan bayon etishga o'rgatish.

Mashg'ulotning borishi.

Tarbiyachi: „Bolalar, bugun biz sizlar bilan ertak to'qishni o'rganamiz. Ertak „Ayiqcha qanday qilib etigini yo'qotdi va uni qanday topib oldi?“ deb ataladi. Men ertakning boshlanishini o'yladim, siz esa oxirini o'ylab topinglar. Ertakning boshlanishini tinglang: „O'rmonda ona ayiq ayiqchasi bilan yashar edi. Ayiqcha juda ham sho'x, qiziquvchan edi, ona ayiq uni juda ham yaxshi ko'rar edi. U ayiqchasiga qizil etikcha sovg'a qildi. Etikcha ayiqchaga juda yoqdi, u etikchani kiyib, har tarafga yugurar, hatto uxlab yotganida ham uni yechmas edi. Kunlardan bir kuni ona ayiq ovqat izlab, uzoq joylarga ketdi. Ayiqcha esa yolg'iz o'zi qoldi. O'tirib-o'tirib, uning anhorda cho'milgisi kelib qoldi. U mazza qilib anhorda cho'mildi, biroq etikchasini yo'qotib qo'ydi“.

Endi sizlar ayiqcha qanday qilib etikchasini yo'qotganini, so'ngra uni qanday qilib topib olganligini o'ylab topinglar. Balki ayiqcha etigini yechib, uni qayerga qo'yganini esidan chiqargandir yoki uni tulki olib ketgan bo'lishi mumkin. Balki unga kimdir etigini topishga yordam bergandir?“

Quyida bolalar tomonidan oxiri o'ylab topilgan ertaklardan birini misol tariqasida keltiramiz:

Ahmad. Ayiqcha etigi bilan anhorda cho'mildi. Etikchalar esa oyog'idan chiqib, anhor bo'ylab oqib ketdi. Buni ayiqcha sezmay qoldi, anhordan chiqqandan keyingina buni bilib qoldi: qarasa, oyog'ida etikchalari yo'q. U etikchalarni topmoqchi bo'ldi. U anhorga qayta tushdi. Etikchalarini uzoq qidirdi. So'ngra uzoqda bir qizil narsani ko'rib qoldi. Ayiqcha uning yoniga suzib bordi, qarasa, o'zining etikchalari. U etikchalarini olib, oyog'iga kiyib oldi. U juda xursand bo'lib, uyga qaytdi.

Maftuna. Ayiqcha cho'milgani bordi. Etigini yechib suvga tushdi. U cho'milayotganida tulki kelib etikchalarini olib ketdi. Ayiqcha mazza qilib cho'milib bo'lgach, anhordan chiqib qarasa, etikchalari yo'q. U etikchalarini qidira boshladi. Qidirib-qidirib juda charchadi va tulkidan uning inida dam olishga ruxsat so'radi. Tulkining inida o'zining etikchalarini ko'rib qoldi. Tulkidan etikchalarini tortib olib, uyiga ketdi.

Salim. Ona ayiq ovqat izlab ketganda, ayiqcha anhorga cho'milish uchun bordi. U etikchasini yechishni esidan chiqarib, cho'mila boshladi. Anhordan chiqib qarasa, etigi yo'q. U etigini qidira boshladi. Qirg'oqda fil turar edi. Fil undan: „Ayiqcha, sen nimani qidirayapsan?“, — deb so'rabdi. Men anhorda etikchalarni yo'qotib qo'ydim, — debdi ayiqcha. Ayiqcha fildan etikchasini topishga yordam berishini so'rabdi. Fil anhorga tushib, xartumi bilan etikchani qidira boshlabdi va uzoq qidirib, etikchani topibdi. Ayiqcha juda ham xursand bo'lib ketibdi va filga rahmat aytibdi.

Ijodiy hikoya tuzishning ikkinchi turi bu — tarbiyachining rejasi asosida hikoya yoki ertak tuzish. Bu hikoya turi bolalardan mustaqillikni talab etadi, chunki tarbiyachi tomonidan berilgan reja hikoya va ertak mazmunining ketma-ketligini belgilaydi xolos, mazmuni rivojlantirishni esa bolaning o'zi mustaqil amalga oshirishi lozim.

Ijodiy hikoyaning uchinchi turi bu tarbiyachi tomonidan taklif etilgan mavzu asosida (rejasiz) ertak yoki hikoya o'ylab topishdir. Bu hikoya turi ijodiy xayolni rivojlantirish, mustaqil fikr yuritishga katta yordam beradi, bola bu hikoya turida muallif sifatida hikoyaning mazmunini va uning shaklini mustaqil tanlaydi. Tarbiyachi tomonidan taklif etilgan mavzuning o'zi bolalarni hikoya to'qishga tayyorlashi kerak. Bolalar bu hikoya turi orqali narsa-buyumlarni tasvirlashga, qahramonlarning his-tuyg'ularini, kayfiyatlarini bildirishga, ular bilan bo'ladigan voqealarni bayon etishga, hikoyaning oxirini qiziq voqea bilan tugallashga

o'rganadilar. Bolalar mustaqil ravishda hikoya yoki ertak o'ylab topishlari uchun turli xildagi mavzular berilishi mumkin. Masalan: „Tulkining tug'ilgan kuni“, „Quyvon qanday qilib o'rmonda sayr qildi“, „Bo'riining sarguzashti“. Misol tariqasida „Mushukning tug'ilgan kuni“ degan mavzuda 6 yoshli bolalarning tuzgan ertaklarini keltiramiz.

„Mushuk uzoq uxlati, so'ngra uyg'ondi: „Miyov-miyov, bugun mening tug'ilgan kunim, tezroq turish kerak“. U uyqudan turdi, o'rinlarini yig'ib, qo'l-yuzlarini yuvdi va mehmonlar uchun dasturxon tuzay boshladi. Mushuk yelib-yugurar va qo'shiq aytar edi. So'ngra mehmonlar kela boshlashdi: „Taq, taq, taq, uy bekasi uydami?“ — deb so'rashdi ular. „Marhamat qilinglar!“ Mehmonlar sovg'alarni berishdi: „Tabriklaymiz, sovg'amizni qabul qiling!“ „Rahmat! Dasturxonga qaranglar“. Mehmonlar ovqatlanishar, mushuk esa ular atrofida parvona bo'lar edi.

Mehmonlar dasturxondagi noz-ne'matlardan yeyishdi va mushukka minnatdorchilik bildirishdi. Mushuk xola mehmonlarga shunday dedi: „Kelinglar, raqsga tushamiz“. Hamma raqsga tushdi, xursand bo'lishib, uy-uylariga tarqalishdi. Mushuk xursand bo'lib, shunday dedi: „Tug'ilgan kun qanday yaxshi!“.

Ijodiy hikoya turlaridan eng murakkablari — bu mustaqil ravishda tanlangan mavzu asosida hikoya yoki ertak to'qishdir. Bu hikoya turining muvaffaqiyatli chiqishi tarbiyachining bolalarni qiziqitira olishiga, ularda emotsional kayfiyatni vujudga keltirishiga, ijodiy xayolga ta'sir etishiga bog'liqdir. Bu ijodiy hikoya turini „Kim qiziqroq ertak tuzadi?“ shiori ostida o'tkazish mumkin. Bu hikoya turida bolalarni o'rtoqlarining tuzgan ertak yoki hikoyasini baholashga, hikoyadagi ijobiy va salbiy tomonlarni ko'ra olishga o'rgatish juda muhimdir. Buning uchun tarbiyachi baholashning namunasini beradi. Bolalar uchun ijodiy hikoyaning murakkab turi — bu tabiat haqida tasviriy hikoya tuzish hisoblanadi. Bolalar bu hikoya turini tasvirichining aniq ko'rsatma berishi natijasida sekin-astalik bilan egallaydilar. Jumladan, yil fasllari to'g'risida („Bahor“, „Mening sevimli faslim“) hikoya tuzishdan avval tarbiyachi bolalarga biror faslga oid ob-havo, so'ngra o'simliklar va daraxtlar, hayvonlar haqida, bolalar qanday o'yinlar o'ynashlari va kattalar qanday mehnat qilishlari to'g'risida gapirib berishlarini taklif qiladi. Ba'zan reja berish mumkin. Masalan: 1. Bahor fasli qish faslidan nimasi bilan farq qiladi? 2. Bahor faslida ob-havo qanday bo'ladi? 3. Daraxt va o'simliklarda qanday

o'zgarishlar bo'ladi? 4. Bahorda qushlar va hayvonlar qanday yashashadi? Kattalar bahor faslida bog'da qanday mehnat qilishadi?

Tabiat to'g'risida ijodiy hikoya qilishga o'rgatishning dastlabki bosqichida bolalar diqqatini hikoyadagi mazmunning ketma-ketligiga qaratish kerak. Bolalar mazmuni aniq bo'lgan hikoya tuzishga o'rganib olganlaridan so'ng ularning o'zlariga hikoya rejasi va bayonning ketma-ketligini mustaqil ravishda hal etish imkonini berish kerak.



Takrorlash uchun savollar

1. Bolalarni monolog nutqqa o'rgatish bo'yicha ish mazmuni va vazifalari nimalardan iborat?
2. Adabiy asarlarni qayta hikoya qilishga o'rgatishda qanday usullardan foydalaniladi?
3. Rasmga qarab hikoya qilishga o'rgatishda qanday mashg'ulot turlaridan foydalaniladi?
4. Bolalarning nutqini o'stirishda o'yinchoqlarga qarab hikoya qilishga o'rgatishning ahamiyati nimalardan iborat?
5. Bolalarni ijodiy hikoya tuzishga qanday o'rgatiladi?

BOLALARNI BADIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISH

1- §. Bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda badiiy adabiyotning ahamiyati

Bolalar badiiy adabiyoti ularga aqliy, axloqiy va estetik tarbiya berishda, *nutqini har taraflama rivojlantirishda va boyitishda* katta ta'sir etuvchi vosita hisoblanadi. Badiiy adabiyot bolalarga jamiyat hayotini va tabiatni, kishilik dunyosining ichki his-tuyg'ularini va o'zaro munosabatlarni poetik obrazlarda ochib beradi, tushuntiradi. U bolaning his-tuyg'ularini rivojlantiradi, xayolini tarbiyalaydi va o'zbek adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan tanishtiradi. Bu namunalar o'zining ta'siri jihatidan xilma-xildir: hikoya orqali bolalar so'zlarning aniqligini, ma'nodorligini anglab oladilar; she'rlardan esa ularning musiqaviyligini, kuylanuvchanligini, ohangdorligini bilib oladilar, xalq ertaklari bolalarga tilning ifodaliligini, mazmundorligini ochib beradi, nutqning xilma-xilligini, hazil-mutoyibaga boyligini bolalarning ko'z oldida namoyon qiladi.

Badiiy adabiyot bolalarga kishilarning hayoti va mehnatlari, ishlari va qahramonliklari, bolalikdagi eng qiziqarli voqealar, ularning o'yinlari, mehnatlari haqida hikoya qilib beradi.

Badiiy adabiyot bolalarga hayotni tushuntiradi va shu orqali bola hayotiy tajribasining ortib borishiga ta'sir etadi. Badiiy adabiyot kishilarning ichki dunyosini, ularning his-tuyg'ularini, xarakterlarini ochib berishi bilan bolalarni hayajonlanishga, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholashga va uni muhokama qilishga o'rgatadi. Badiiy asarning eng yaxshi namunalari bolalarda axloqiy sifatlarni tarkib toptirishga: yaxshi — yomon, haq — nohaq, rost — yolg'on va h.k. so'zlarning ma'nosini tushunib olishlariga yordam beradi.

2- §. Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishda bolalar bog'chasining tarbiyachisi oldida turgan vazifalar

Bolalar bog'chasi tarbiyachisining oldida har bir badiiy asarni san'at asari sifatida bolalar ongiga yetkazish, uning mazmunini ochib berish, badiiy asarda qatnashuvchi personajlarga nisbatan

emotsional munosabatda bo'lish, muallifning lirik kechinmalarini his etishga, ya'ni asarda qatnashuvchi qahramonlarga nisbatan o'z munosabatlarini ifodalashga o'rgatish kabi murakkab vazifalar turadi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun tarbiyachining o'zi, bolalarni badiiy asar bilan tanishtirishdan avval, uni his etishi va tushunishi, mazmunini tahlil eta olishi zarur. Shuningdek, pedagog o'qish va hikoya qilib berish texnikasini, ya'ni aniq diksiyani, ifodali o'qish vositalarini (mantiqiy urg'uni to'g'ri qo'ya olish, pauza, ovoz toni va tempi) egallagan bo'lishi kerak.

Badiiy asarning har bir janrini ifodali tarzda bolalarga yetkaza olingandagina, uning g'oyaviy mazmunini to'g'ri idrok ettira olish mumkin. Bolalarda badiiy asarni idrok etish qobiliyati o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, uni bolaning ilk yoshidan boshlab rivojlantirish va tarbiyalash kerak, shundagina bola keyinchalik badiiy asarlarni diqqat bilan tinglashga, badiiy nutqqa e'tibor berishga o'rganadi. Bolalar ongiga badiiy asarlarning axloqiy, estetik mohiyatini yetkazish — bu murakkab vazifa hisoblanadi.

Pedagogik rahbarlikning bir maqsadga qaratilishi bolalar tomonidan badiiy asarlarning estetik jihatlarini va ularning mazmunini, badiiy ifoda vositalarini idrok etish imkonini yaratadi.

3- §. Turli yosh guruhlarida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish bo'yicha „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ning mazmuni

„Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ bolalar adabiyoti bilan tanishtirishda quyidagi vazifalarni qo'yadi: bolalarda badiiy so'zga muhabbatni tarbiyalash; kitobni sevishtirishga o'rgatish. Shuningdek, dasturda bolalarga qaysi asarni o'qib berish, hikoya qilib berish, yod olish ko'rsatilgan.

Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish bo'yicha dastur vazifalari birinchi kichik guruhdan boshlab belgilab berilgan. „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ning *birinchi va ikkinchi kichik guruhlarida* badiiy adabiyot bilan tanishtirish bo'yicha quyidagi ish vazifalari belgilangan:

1. Bolalarda badiiy asarga nisbatan qiziqish uyg'otish. Ularni yoshiga, qiziqishlariga mos keladigan asarlar bilan tanishtirish.

2. Bolalarda ertak, hikoya, she'rlarni berilib tinglash, tushunish, voqealar rivojini diqqat bilan kuzatish ko'nikmalarini hosil qilish.

3. Asar mazmuni bo'yicha beriladigan savollarga javob berish. qisqa she'rlarni, ertak va hikoyalarning mazmunini buzmay (tarbiyachi bilan birga, keyinchalik mustaqil) takrorlash kabi ko'nikmalarni o'stirish. Bolalarda asarlar bo'yicha ishlangan rasmlarga nisbatan qiziqishni rivojlantirish.

O'ra guruhda esa bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning quyidagi vazifalari belgilangan:

1. Bolalarda badiiy adabiyotga qiziqish va tabiiy muhabbatni tarbiyalash. Ularni turli mavzudagi ertak, shuningdek, topishmoqlar, sanamalar, hadislar, maqollarning mazmunini idrok etishga o'rgatish.

2. O'zbek xalq dostonlaridan olingan parchalar bilan tanishtirish. Sharqning buyuk allomalari haqida qisqacha ma'lumot berish orqali bolalar qalbida avlod-ajdodlarga nisbatan hurmat, iftixor tuyg'usini uyg'otish.

3. Asarlar mazmuni bo'yicha savollarga javob berish ko'nikmasini mustahkamlash.

4. Asarda ishtirok etuvchi qahramonlarning xatti-harakatlarini baholashga, ayrim ma'naviy sifatlarini (yaxshi, yovuz, jasur), ruhiy kechinmalarini (xafa, xursand) ta'riflashga undash. She'r, ertak, topishmoq, hikoya, sanamalarni ifodali aytishga o'rgatish.

Katta va maktabga tayyorlov guruhida:

1. Bolalarda hayotga nisbatan qiziqish va muhabbatni yanada kuchaytirish, asardagi go'zallikni, nafosatni his etish kabi ko'nikmalarni mustahkamlash.

2. Ularning badiiy asarlardagi qahramonlar xatti-harakatlari va xulq-atvorlarini to'g'ri baholash, aks ettirilayotgan voqealar mohiyatini tushunish qobiliyatlarini o'stira borish lozim.

3. Bolalarning milliy, badiiy didlarini rivojlantirish, badiiy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari, ba'zi janrlari, asarning tili haqidagi boshlang'ich tasavvurlarini shakllantirish.

4. Bolalarni asar g'oyasini tushunishga, tasviriy vositalarni his etishga, she'riy nutqdagi musiqiylik, ohangdorlik va ritmni payqay olishga o'rgatish.

5. Bolalarning o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti, sharq allomalari, yozuvchilari, shoirlari haqidagi tushunchalarini boyitish. Ertak va hikoyalarni o'qib berganda va bolalar tomonidan badiiy asarlarni qayta hikoya qilish jarayonida badiiy asarlarda aks etgan voqea va obrazlarga nisbatan ularning shaxsiy munosabatlarini aniqlab, to'g'ri yo'l ko'rsatib borish.

Asarlardagi obrazlar haqida gapirilayotganda, ularning holatlarini imo-ishora, yuz ifodasi, harakatlar orqali bayon qilishga o'rgatiladi.

4- §. Badiiy asarlarni o'qib berish mashg'ulotlariga tarbiyachining tayyorlanishi

Tarbiyachi badiiy asarlarni shunday o'qib yoki hikoya qilib berishi kerakki, u bolalarni o'ziga jalb qila olsin, bolalar asardagi obrazlarning siymolarini ko'z oldiga keltirib, tasavvur qila olsinlar va hayajonlansinlar.

Tarbiyachining badiiy asarlarni o'qib yoki hikoya qilib berishga tayyorgarligi muallifning nima demoqchi ekanligini yoki xalq ehtaklarining g'oyaviy mazmunini, unda ishtirok etuvchilarning xarakter va o'zaro munosabatlarini aniqlashdan boshlanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun yozilgan asarlarda qahramonlarning xarakteridagi xususiyatlardan biri ajratib ko'rsatiladi. Masalan: „Quyoning uychasi“ ertagida tulki ayyor, kuchsizlar ustidan hukmronlik qiluvchi, xo'roz esa botir, topqir, kuchsizlarni himoya qiluvchi sifatida tasvirlanadi.

Asar shunday tarzda muhokama etib olingach, uni ifodali bayon etish ustida ishlanadi. Bu uch yo'nalishda olib boriladi: 1) emotsional va obrazli ifodalilik, intonatsiyaning xilma-xilligi va boyligi ustida ishlash; 2) asarning ayrim qismlari o'rtasiga mantiqiy urg'u qo'yish; 3) aniq va to'g'ri talaffuzni hosil qilish; har bir so'zni to'g'ri talaffuz etishga erishish kerak, shundagina bolalar uni to'g'ri idrok etadilar.

Tarbiyachi bunday tayyorgarlik jarayonida adabiy asarning g'oyaviy mazmuniga tushunib yetadi va matnni esda saqlay oladi, o'zining kichik tinglovchilari bilan erkin muloqotda bo'ladi va uning nutqi ravon, aniq bo'lib, ishonchli chiqadi, aytilayotgan so'z ishonarli, ta'sirchan, bolalar uchun tushunarli bo'ladi.

Agar tarbiyachi bolalarga tanish bo'lgan asarni o'qib yoki hikoya qilib bermoqchi bo'lsa, ilgari uni bolalarga yetkazish ustida yetarli darajada ishlagan bo'lsa, u vaqtda mashg'ulotga quyidagicha tayyorlanadi: asar matnini va ilgari hosil qilingan ifodali o'qish vositalarini yodiga tushirish maqsadida uni bir necha marta ovoz chiqarib o'qiydi, mashg'ulot rejasini tuzadi. Mashg'ulot rejasida asarni bolalarga qanday yetkazish — o'qib berish yoki hikoya qilib berish usuli ko'rsatiladi.

Dastur mazmunida tarbiyachi kitobdan foydalanishning ta'lim va tarbiyaviy maqsadlarini belgilab oladi, bolalarni qanday yangi so'zlar bilan tanishtirishni ko'rsatadi.

Tarbiyachi tomonidan o'qib yoki hikoya qilib berish uchun tanlangan badiiy asarlarning g'oyaviy mazmuni bolalarga tushunarli bo'lsa, ularning yuragiga yetib borsa, asar o'zining tarbiyaviy rolini bajargan bo'ladi.

Bolalar bog'chasining tarbiyachisi yozuvchi va bolalar o'rtasida vositachi bo'lib hisoblanadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o'quvchi emas, tinglovchidirlar. Bolalar tomonidan badiiy asarlarni qanday idrok qilish tarbiyachiga bog'liq.

Tarbiyachi asarni qanchalik ifodali, mazmunli o'qisa, bolalar shunchalik diqqat bilan tinglaydilar, uning mazmunini yaxshi tushunadilar. Badiiy asarlar tarbiyachi tomonidan kitobdan o'qib berilishi, kitobsiz yoddan aytib berilishi, hikoya qilib berilishi mumkin. Asar mazmunini bolalarga yetkazish asar janriga va tinglovchilarning yoshiga bog'liq.

Xalq ertaklarini — xalq og'zaki ijodiyoti namunalarini bolalarga kitobdan o'qib bermasdan, hikoya qilib bergan ma'qul. Tarbiyachi dastur asosida o'qib berishi yoki hikoya qilib berishi uchun asar tanlagach, asarning g'oyaviy mazmuni va uning tili bolalarga tushunarlimi yoki yo'qmi, shuni oldindan tasavvur etishi kerak. Agar tarbiyachi ulardagi ayrim ifodalar, so'zlar bolalarga tushunarli emasligini taxmin qilsa, u holda muallifning bayon etmoqchi bo'lgan fikrlarini bolalar tomonidan idrok etish qiyinlashadi. Mana shunday hollarni oldindan bilgan tarbiyachi bolalarga ma'nosi tushunarsiz bo'lgan so'zlarni quyidagi usullar yordamida tushuntirishi lozim: asarni hikoya qilayotgan vaqtda to'xtalmasdan (uzoq pauza qilmasdan), yangi so'zni sinonimi bilan yoki qisqa jumlar bilan tushuntirishi kerak. Masalan, K. D. Ushinskiyning „Sabr qilishni o'rgan“ nomli asarini o'qib berishda „g'o'ra“ so'zi uchraydi, bu so'z hammaga tushunarli bo'lavermaydi, shu sababli tarbiyachi bu so'zni o'qiyotganda bolalarga tushunarli bo'lgan „xom“ so'zini ishlatadi. Demak, tarbiyachi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishdan avval asardagi ayrim so'zlarni, ya'ni bolalar tushunishi qiyin bo'lgan so'zlarni qaysi so'zlar bilan almashtirishni belgilab oladi. Agar ayrim notanish so'zlar va jumlar bolalarga muallifning asosiy fikrini idrok qilishlariga xalaqit bermasa, u holda ushbu so'zlarning ma'nosini tushuntirish shart emas.

5- §. Turli yosh guruhlarida badiiy adabiyot bilan tanishtirish uslubiyoti

Har bir yoshda bola nutqini rivojlantirishning o'ziga xos vazifalari bo'ladi. Adabiy asarlarni idrok etish darajasi o'sib borgan sari bu vazifalar murakkablashib boradi.

Biz hozir quyidagi guruhlar bo'yicha badiiy asarlar bilan tanishtirish mashg'ulotini o'tkazish yo'llarini ko'rib o'tamiz.

IKKINCHI KICHIK GURUH

Mashg'ulot o'tkazishda tarbiyachi oldida quyidagi vazifalar turadi:

- 1) bolalarda badiiy adabiyotga nisbatan qiziqish uyg'otish;
- 2) ertak, ermak, hikoya, she'rlarni berilib tinglash, tushunish, voqealar rivojini diqqat bilan kuzatish ko'nikmalarini hosil qilish;
- 3) asar mazmuni bo'yicha beriladigan savollarga javob berish;
- 4) ertak va hikoyalarning mazmunini buzmay (tarbiyachi bilan birga, keyinchalik mustaqil) takrorlash kabi ko'nikmalarni o'stirish;
- 5) bolalarda asarlarga ishlangan rasmlarga nisbatan qiziqishni rivojlantirish.

„Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ga binoan, bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish deganda ertaklar, hikoyalar, she'rlar va kichik-kichik folklor asarlari: hazillar, ermaklar, ashulalar, tez aytishlar, maqol va matallarni o'qish tushuniladi.

Kichik guruhdan boshlab bolalarni adabiy asar janrlarini ajrata olishga o'rgatish lozim.

Tarbiyachi bolalarga badiiy asarning janrini aytishi kerak. Masalan, „Bugun men sizlarga ertak aytib beraman“, „Hozir men hikoya o'qib beraman“, „She'r o'qib beraman“ kabi.

Kichik guruh bolalari badiiy asar janri haqida eshitishi bilan „Masha va ayiq“, „Qizg'anchiq it“, „Mushuk, xo'roz va tulki“, „Bo'ri bilan echki“ ertak ekanligini, X. Ermatovning „Non“, „Shaftoli“ asarlari she'r ekanligini, X. To'xtaboyevning „Hassa“, E. A'zamning „May yomg'iri“ asarlari hikoya ekanligini esda olib qoladilar. Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishda ertaklar hikoya qilib beriladi, hikoya o'qib beriladi, she'r yoddan aytib beriladi.

Turli adabiy janrlar ularni bolalarga yetkazishning turli xarakterini talab etadi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarga

ertaklarni kitobdan o'qib bermasdan hikoya qilib bergan ma'qul, bu bolalarga emotsional ta'sir o'tkazishni kuchaytiradi, ertakning asosiy mazmunini tushunib olishga yordam beradi. Agar tarbiyachi kitobga qaramay, bolalarga qarab hikoya qilsa, u xuddi har bir bola bilan gaplashayotgandek bo'lib, bu orqali monolog nutqni eshitish va uni tushunish malakasini tarbiyalashga erishadi. Agar ertak mazmun jihatdan uncha katta bo'lmasa, uni ikki, hatto uch martagacha hikoya qilib berishi yoki eng qiziqarli joylarini takrorlashi mumkin.

Asar (ertak) hikoya qilib berilgach, bolalardan ertakdagi eng qiziqarli joylarini esga tushirib takrorlash taklif etiladi.

Kichik yoshdagi bolalar uchun hajmi uncha katta bo'lmagan hikoya va ertaklarni, she'rlarni o'qib berish tavsiya etiladi. O. Mahkamovning „Mushuk“, X. Ermatovning „Non“, „Shaf-toli“, „Anor“ kabi asarlari kichikintoylarda ijobiy his-tuyg'ularni, nafosatni tarbiyalashga yordam beradi.

Kichik guruhda she'r yoki hikoyalar o'qib berilgach, bolalarga o'z hayotlaridagi shunga yaqin voqealarni eslab aytib berish taklif etiladi.

Masalan, M. Murodovning „To'p“ hikoyasi o'qib berilgach, bolalardan to'pni kim bilan o'ynashini, u bilan qanday o'yinlar o'ynashlarini so'rash mumkin.

Kichik yoshdagi bolalarga ko'plab savollar berish yaramaydi, biroq asar mazmunini qanday tushunib olganliklarini, qaysi so'zlar xotirasida qolganligini, asar mazmunida uning shaxsiy hayoti bilan bog'liq voqealar borligini aniqlash maqsadida ikkita-uchta savol berish kerak.

Yil davomida bolalarga tanish bo'lgan hikoyalar, ertaklar, she'rlar takroran o'qib beriladi, hikoya qilinadi. Bu ertak va hikoyalar, she'rlarning bolalar xotirasida uzoq saqlanib qolishiga yordam beradi.

O'RTA GURUH

O'rta guruhda badiiy asarlarni idrok etish bo'yicha ishlar olib boriladi. Bu guruh bolalari endi asar mazmunini chuqur idrok eta boshlaydilar. Bolalar asardagi qahramonlarga nisbatan o'z munosabatlarini aniqroq ifoda etishga harakat qiladilar. Bu guruhda ham xuddi kichik guruhdagidek, tarbiyachi tanishtirayotgan adabiy asar janrini aytadi: Hozir men sizlarga o'zbek xalq ertaklaridan „Oltin tarvuz“ ertagini hikoya qilib beraman yoki

L. N. Tolstoyning „Ikki o‘rtoq“ hikoyasini o‘qib beraman va h. k.

Bu guruhda adabiy asar mavzulari juda xilma-xildir. Tarbiyachi bolalar diqqatini asarning mazmunigagina emas, balki adabiy tilning ayrim xususiyatlariga (badiiy so‘z va ifoda, o‘xshatish va taqqoslash) ham yo‘naltiradi. Tarbiyachi asarni o‘qib bergach, bolalarga beriladigan savollarni puxta o‘ylab, to‘g‘ri berishi kerak. Bolalarga beriladigan savol asardagi qahramonlarning xatti-harakatlarini baholashga, ular haqidagi o‘z fikrlarini to‘g‘ri bayon etishga yordam berishi lozim. To‘g‘ri berilgan savol bolalarni o‘ylashga, fikr yuritishga, xulosa chiqarishga undaydi.

Masalan, „Oltin tarvuz“ ertagini hikoya qilib bergach, quyidagi savollarni berish mumkin: „Bu ertakda nima haqida hikoya qilinadi? Sizga bu ertakda kim nimasi bilan yoqdi? Laylakni davolagan chol haqida nima deyish mumkin? Boy haqida-chi? Boy Laylakning oyog‘ini sindirib to‘g‘ri ish qildimi? Nima uchun kambag‘al cholning polizida oltin tarvuz unib chiqdi? Boyning polizida-chi? Boyni Laylak qanday jazoladi? Nima uchun Laylak boyni jazoladi?“

Bunday savollar bolalar asar mazmunini qanday tushunib olganliklarini va asar qahramonlariga nisbatan munosabatlari qanday ekanligini aniqlashga yordam beradi. Badiiy asarni to‘g‘ri tahlil qilish badiiy nutqning qimmatini oshiradi, bolalarni mustaqil hikoya qilishga tayyorlaydi. O‘rta guruhda ham xuddi kichik guruhdagidek bolalar lug‘atini boyitish bo‘yicha ishlar olib boriladi, mashg‘ulotda o‘zlashtirilgan yangi so‘zlarni mustahkamlash ustida ish olib boriladi.

KATTA GURUH

„Bolalar bog‘chasida ta‘lim-tarbiya dasturi“ katta guruh bolalarida badiiy-adabiy asarlarning mazmunini idrok etishda ifodali vositalarning ayrim xususiyatlarini aniqlay (seza) olishga o‘rgatishni vazifa qilib qo‘yadi.

Katta guruh bolalari badiiy asarlar mazmunining ayrim xususiyatlarini, mazmunining ifodaliligini chuqurroq tushunib olish qobiliyatiga ega. Bu yoshdagi bolalar adabiy asar janrlarini farqlay oladilar. Ular poeziya bilan prozani bir-biridan yengil ajrata oladilar. Tarbiyachi mashg‘ulotni muqaddima suhbatidan (asar mazmuniga yaqin mavzuda), asar mazmuniga taalluqli rasmni ko‘rsatib, u haqda suhbat o‘tkazish, bolalarning shaxsiy tajribalariga tayanib suhbat o‘tkazish bilan boshlashi mumkin.

Ertakni o'qib bergandan so'ng, u tahlil qilinadi. Tahlilni shunday o'tkazish kerakki, bolalar asarning g'oyaviy mazmunini chuqur tushunib olsinlar.

Bolalarni hikoya janrlari bilan tanishtirish jarayonida asarlarni bunday tahlil qilish tasvirlanayotgan voqealarning jamiyatdagi ahamiyatini, qahramonlarning o'zaro munosabatlarini ochib berishga yordam beradi. Asar o'qib yoki hikoya qilib berilgach, bolalarga beriladigan savollar asarning g'oyaviy mazmunini aniqlashga, uni tushunishga yordam berishi, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholay olishga o'rgatishi kerak.

Masalan, o'zbek xalq ertaklaridan „Zumrad va Qimmat“ ertagi hikoya qilib berilgach, bolalarga quyidagi savollarni berish mumkin: „Bu ertakdagi qaysi qahramon sizga yoqdi? Zumrad haqida nima deyish mumkin? Qimmatni qanday qiz deyish mumkin? Nima uchun kampir Zumradga qimmatbaho sovg'alar beribdi? Nima uchun kampir Qimmatdan judayam xafa bo'libdi? Qimmat va uning onasi qanday jazolanibdi?“

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI

„Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ bu yosh guruhidagi bolalar oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

1. Bolalarda kitobga, badiiy asarga bo'lgan muhabbatni tarbiyalash; badiiy obrazni his eta olish; poetik eshituv diqqatini rivojlantirish (jarangdorligini, ohangdorligini, she'riy nutqning ritmikasinil ilg'ab olish), o'qishning intonatsion ifodaliligini rivojlantirish. Ertak, hikoya, she'rlarning badiiy tilini his qilish va tushunish. Bu guruhda ham tarbiyachi badiiy asarlarni tahlil qilishdan keng foydalanadi. Bolalar asarni tahlil qilish orqali adabiy janrlarni, ularning xususiyatlarini tushunishga, ertak va hikoyalarni, she'rlarning ifodali tilini his etishga, badiiy shakl bilan mazmunning o'zaro bog'liqligini bilib olishga o'rganadilar. Badiiy asarlar bilan tanishtirishga doir o'tkaziladigan har bir mashg'ulotda nutqni rivojlantirish bo'yicha turli xildagi vazifalar qo'yiladi. Har bir mashg'ulot bolalarni, ya'ni she'r eshituvchini tarbiyachining bergan savollariga o'z fikrlarini bir-biriga bog'lab grammatik jihatdan to'g'ri va obrazli, badiiy qilib javob bera olishga, ona tilidagi sinonimlardan foydalana olishga o'rgatishi kerak. Tarbiyachining asarni dastlabki o'qishdan maqsadi tinglovchilarga asarni san'at asari sifatida yetkazishdir. Bolalarni badiiy asar bilan ikkinchi marta tanishtirishda esa asar chuqurroq

tahlil qilinadi, bolalarning diqqati badiiy ifoda vositalariga yo'naltiriladi.

Tarbiyachi bu guruhda mashg'ulotni boshlashdan avval bolalarni adabiy asarni idrok etishga tayyorlaydi: asar mazmuniga yaqinroq mavzuda kichik suhbat o'tkazadi, bunda bolalarning shaxsiy tajribasiga murojaat etadi. Masalan, tarbiyachi bolalarga aka-uka Grimmlarning „Qorqiz“ asarini hikoya qilib berishda, avval shunday savollar beradi: Bolalar, qish faslida ob-havo qanday bo'ladi? Nima yog'adi? Bolalar qanday o'yinlar o'ynashadi? Qordan nima yasashadi? Kun isishi bilan qordan yasalgan narsalar nima bo'ladi? va h.k.

Bunday tarzda o'tkazilgan kirish suhbatini asar mazmunini chuqur anglab olishga yordam beradi. Ba'zan mashg'ulotni muallifning suratini ko'rsatishdan, shu muallifning qanday asarlarini bilishlarini so'rashdan ham boshlash mumkin. Shundan so'ng tarbiyachi ertakni hikoya qilib beradi, hikoya bo'lsa, o'qib beradi, asardagi notanish so'zlar ma'nosi tushuntiriladi, rasmlari ko'rsatiladi va asar mazmuni bo'yicha savollar beriladi, ya'ni o'qib berilgan asar yuzasidan suhbat o'tkaziladi. Asar o'qib berilgach (ertak hikoya qilib berilgach), bolalar bilan quyidagilar haqida suhbat o'tkazishimiz mumkin:

1. Muallif tomonidan qo'yilgan savolga javob berish bo'yicha suhbat. Agar muallif bu asarni o'quvchilarga savol berish bilan tugallasa, bu savolga javob berish uchun suhbat o'tkaziladi.

2. O'qib berilgan asar bilan bog'liq suhbat. Agar o'qib berilgan asar mazmuni bolalarning shaxsiy hayotiy tajribasi bilan bog'liq bo'lsa, tarbiyachi asarni o'qib bergach, o'z kuzatishlari, taassurotlari haqida gapirib berishni taklif etadi.

Masalan, T. G'oyibovning „Hunarli yigit xor bo'lmas“ asarini tinglagach, bolalar tarbiyachining taklifiga ko'ra hunarlar haqida, uning ahamiyati haqida gapirib beradilar.

3. O'qib berilgan asar mazmuni bo'yicha suhbat. Bu suhbatning asosiy maqsadi o'qib berilganni eslash va asar mazmuni bo'yicha o'z fikrini bildirishdan iboratdir. Masalan, V.V Mayakovskiyning „Kim bo'lsam ekan?“ asarini bir necha marta takroriy o'qish natijasida uning mazmuni bolalar xotirasida uzoq saqlanadi, so'ng bolalarga kasblar haqida, qaysi kasb ko'proq yoqishi haqida gapirib berish taklif etiladi.

4. O'qib berilgan asarni gapirib berish uchun o'tkaziladigan suhbat. Tarbiyachi bu suhbat turidan ertak yoki hikoya o'qib

berilgach foydalanadi. Bolalarga hikoya yoki hikoya qilib berilgan asar mazmuni yuzasidan savollar beriladi. Bu bolalarni hikoya qilib berishga va matnni esda saqlab qolishiga yordam beradi. Tarbiyachi bunday suhbat uchun oldindan savollar tuzib qo'yishi lozim.

Quyida maktabga tayyorlov guruhida badiiy asarni hikoya qilib berish bo'yicha mashg'ulot namunasini keltiramiz.

H.H.Niyoziyning „Toshbaqa bilan Chayon“ masalini o'qib berish.

Dastur mazmuni. Bu masal misolida bolalarga do'stlik, do'stga xiyonat qilishning salbiy oqibatlari haqida tushuncha berish.

Mashg'ulotga tayyorgarlik. „Toshbaqa bilan Chayon“ masali asosida ishlangan rasmlar (Rassom Habibullo Rahmatullayevning „Cho'pchagim cho'pchak — oltin belanchak“ kitobi uchun (Toshkent, 1994- y.) ishlagan rasmlari), H. H. Niyoziyning portreti.

Mashg'ulotning borishi. Tarbiyachi bolalarga masal asosida ishlangan rasmni ko'rsatib, bolalardan unda nima tasvirlanganini so'raydi. „Mana bu rasmda Toshbaqa va Chayon tasvirlangan. Toshbaqa do'sti Chayonni ustiga mindirib, daryodan suzib o'tayapti. Hozir men sizlarga mana shu Toshbaqa bilan Chayon haqidagi masalni o'qib beraman. Bu masalni H. H. Niyoziy yozgan (uning portretini ko'rsatadi)“.

Tarbiyachi tomonidan asarning o'qib berilishi.

Tarbiyachi masalni o'qib bergach, uning mazmuni yuzasidan quyidagi savollarni beradi:

1. Hozir men sizlarga qaysi masalni o'qib berdim? Uni kim yozgan ekan?

2. Bu masal nima haqida ekan?

3. Bu masaldagi qaysi qahramon sizlarga yoqdi? Nimasi bilan yoqdi?

4. Chayon haqida nima deyish mumkin?

5. Chayon do'stliga xiyonat qilib to'g'ri ish qildimi? Chayonni Toshbaqaning haqiqiy do'sti desa bo'ladimi?

6. Toshbaqa do'sti Chayonni nima uchun oqizib yubordi? U to'g'ri ish qildimi?

7. Sizingcha do'st qanday bo'lishi kerak?

Masalga chizilgan illustratsiyalar ko'rsatiladi.

Tarbiyachi: Rassom Habibullo Rahmatullayev bu masalga rasmlar chizgan. Biz hozir ularni birgalikda ko'rib chiqamiz.

Rasmlarni ko'rib bo'lgach, tarbiyachi bolalardan kim toshbaqa va chayon haqida topishmoq, do'stlik haqida maqol bilishini so'raydi: „Har kim ekkanini o'radi“ maqolini masaldagi qaysi qahramonga nisbatan ishlatish mumkin? Nima uchun shunday deb o'ylaysiz?

6- §. O'qilgan asarni mustahkamlash usullari

Tarbiyachi bolalarga o'qilgan asarni chuqurroq o'zlashtirib olish, uni eslab qolishlariga yordam berish uchun turli metodik usullardan: takroriy o'qib berish, hikoya qilib berish, sahnalashtirish va boshqalardan foydalanadi.

Takroriy o'qib berish. Bolalarda qiziqish uyg'otgan kichik asarni o'qib yoki hikoya qilib bergach, yana 1 — 2 marta takror hikoya qilib berish yoki o'qib berish yaxshi natija beradi. Agar hikoya qilib beriladigan asar hajmi yirik bo'lsa, u vaqtda eng qiziqarli yoki bolalarga yoqqan joyi takror o'qib beriladi. Tarbiyachi takror o'qib berishni 2 — 3 hafta o'tgach o'tkazgani ma'qul.

Katta guruhlarda tanlab o'qish (asarning eng qiziqarli joylarini, boshlanishini, xotima qismini, bolalarga yoqqan joyini) usuli ham qo'llaniladi. Bunday o'qish o'yin usulida, topishmoq aytish, viktorina tarzida berilishi mumkin. (Bu parcha qaysi asardan? Bu ertak yoki hikoya nima bilan tugadi? Bu asarning qaysi joyi sizlarga juda yoqdi? Bu parcha hikoyadanmi yoki ertakdanmi va hokazo.)

Sahnalashtirish va insenirovka bolalarni badiiy asar bilan ikkinchi marta tanishtirish vositasidir. Eshitilgan asar mavzusi bo'yicha dramalashtirilgan o'yinni hamma yosh guruhlarida o'tkazish mumkin. Dramalashtirilgan o'yin odatdagi o'yindan rollarga bo'linib o'ynaladigan tayyor voqea borligi bilan farq qiladi. Dramalashtirilgan o'yin uchun qahramonlarning nutqi dialog shaklida yozilgan asarlarni tanlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, bunday o'yinlar uchun „Qizil Shapkacha“, „Tulki“, „Xo'roz bilan mushuk“, „Bo'g'irsoq“ va boshqalardan foydalanish mumkin.

Tarbiyachi badiiy asarni o'qib yoki hikoya qilib bergandan so'ng, bolalar bu asar mazmuniga taalluqli rasmlarni ko'radilar. So'ngra tarbiyachi kim qaysi qahramon rolini o'ynashini so'rab, bolalarni rollarga bo'lib chiqadi. Dastlab o'zi boshqaruvchi bo'ladi. Bolalar matnni yaxshi o'zlashtirib olishgach, takror o'ynashda hamma rollarni o'zlari o'ynaydilar. Ertak yoki hikoyani

dramalashtirish uchun tarbiyachi oldindan qahramonlarning (obrazlarning) kastum elementlarini (masalan, „Qizil Shapkacha“ ertagini dramalashtirish uchun qizil shapkacha, bo‘ri, kampir, quyon, tulki, ayiq va hokazolarning niqobini) tayyorlab qo‘yadi.

Bolalar bog‘chasida badiiy asar insenirovkasidan foydalaniladi. Bolalar oldindan rollarni yod oladilar, repetitsiya qiladilar. Dekoratsiya, kastum kengroq qo‘llanilib, kerakli musiqa tanlanadi. Bunday spektaklni bayram kunlari, ota-onalar majlisiga bag‘ishlab tayyorlash mumkin.

7- §. Bolalarga she‘rni yod oldirish

Bolalar bog‘chasida bolalarga she‘r yodlatishning asosiy maqsadi va ahamiyati ularda she‘riyatga bo‘lgan muhabbatni, badiiy didni tarbiyalash, poeziyaning eng yaxshi namunalarini idrok etishni shakllantirishdir.

Shuningdek, bolalarga estetik tarbiya berishda ham she‘r yod oldirishning ahamiyati benihoya kattadir. „Bolalar bog‘chasida ta‘lim-tarbiya dasturi“da yod oldirilishi lozim bo‘lgan she‘rlarning ro‘yxati berilgan. Bu she‘rlar bolalar hayotidan olingan bo‘lib, ular quvnoq o‘yinlar, o‘yinchoqlar, uy hayvonlari, tabiat to‘g‘risidagi she‘rlardir. She‘r yod oldirishda tarbiyachi oldida bir qancha vazifalar turadi:

1. O‘qilgan she‘rni hamma bolalar esda saqlab qolishlariga erishish.

2. Bolalarda she‘rga (poeziyaga) nisbatan qiziqish uyg‘otish va mustahkamlash.

3. She‘r mazmunini va undagi ayrim qiyin so‘zlarning ma‘nosini tushunib olishlariga yordam berish.

4. Tinglovchilar oldida she‘rni ifodali aytib berishga o‘rgatish.

Bu vazifalarning barchasi bir vaqtda amalga oshiriladi. Yodlatish uchun she‘r tanlashda „Dastur“ vazifalariga, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga, esda saqlash qobiliyatlariga e‘tibor berish kerak. Yodlatish uchun she‘r tanlashda shuni hisobga olish kerakki, she‘r hajm jihatidan uncha katta bo‘lmasligi, kichik guruhlarda 1 banddan oshmasligi, o‘rta guruhda 2 band, katta guruhlarda 3—4 banddan oshmasligi kerak. Bolalar bir oy ichida kuni bilan 1—2 ta she‘rni (mashg‘ulotda) yod oladilar. Ba‘zilarini (sanamalar, kikkamalar, ashulalarni) mashg‘ulotdan tashqari vaqtda (sayrda, o‘yin jarayonida)

beixtiyor eslab qoladilar. Tarbiyachi bolalar bilan she'r yod oldirish mashg'ulotini tashkil etishdan avval guruhdagi bolalarning qaysisi tez, qaysi birlari sekin, qaysilari puxta, qaysilari bo'sh yod olishlarini aniqlab olishi kerak.

Kichik guruhda she'r yod oldirishda ko'rsatmalilik, o'yin harakatlari orqali ko'rsatish, ovozga taqlid qilish usullaridan keng foydalaniladi. Masalan, „Ayiqcham“ she'rini yodlatish.

Dastur mazmuni. Bolalarni she'r mazmuni bilan tanishtirish, uning ma'nosini tushunishga va yod olishga yordam berish. Bolalarni o'z o'rtoqlari oldida she'r aytishga o'rgatish.

Mashg'ulot uchun material. Katta ayiqcha o'yinchog'i.

Mashg'ulotning borishi. Bolalar yarimdoira hosil qilib o'tiradilar.

Tarbiyachi: Bolalar, qaranglar, bizga kim mehmon bo'lib kelibdi? Bu nima?

Bolalarning javoblari tinglanadi.

Tarbiyachi: Biz sizlar bilan bu ayiqchani ko'rganmiz. Ayiqchanning bosh qismida ikkita qulog'i, dum-dumaloq, munchoqdek ko'zlari, tumshug'i va tana qismida to'rtta oyog'i borligini bilamiz. Ayiqcha o'rmonda, hayvonot bog'ida yashaydi, u asalni juda yaxshi ko'radi. Qaranglar, u qanday chiroyli, biz bu ayiqchani juda yaxshi ko'ramiz, u bilan o'ynaymiz. O'yinchoq ayiqcha haqida chiroyli she'r yozilgan (she'rni yoddan aytib beradi):

Ayiqchamning oyog'i tushdi uzilib,
Qarab turar ayiqcham ko'zi suzilib.
Ayiqchamni men juda yaxshi ko'raman,
Uzilgan oyog'ini o'zim tikib qo'yaman.

Tarbiyachi bu she'rni aytish bilan bir vaqtda matn mazmuniga taalluqli harakatlarni bajaradi, ayiqchanning uzilib tushgan oyog'i, ko'zini ko'rsatadi, bag'riga bosadi, tikish harakatini bajaradi. So'ngra bir bolani yoniga chaqirib, she'rni yoddan aytib turadi, bola esa harakatlarni bajaradi. Shu tariqa 2—3 bolani yoniga chaqirib, she'r matniga mos harakatlarni bajarishni taklif etadi. Keyin she'rni (harakatlarini ko'rsatish bilan) takrorlash uchun tez eslab qoladigan bolalarni chaqiradi. Bolalar she'rni harakatlarini ko'rsatish bilan aytib beradilar, tarbiyachi esa bolalarga ayrim so'zlarni, jummalarni (agar esdan chiqarsa) aytib turadi. Mashg'ulotning oxirida bolalar ayiqcha bilan o'ynaydilar. Bu she'r ona tili mashg'ulotining boshqa turlaridan (didaktik

o'yin, rasm yuzasidan suhbat va h.k.) farqli ravishda mashg'ulotning ikkinchi qismi sifatida rejalashtirilib, takrorlanadi. „Ajoyib xaltacha“ didaktik o'yini o'ynalib, mashg'ulot oxirida „Ayiqcha“ she'rini takrorlatish mumkin.

Kichik guruhlarda yiliga 1—2 marta tanish she'rlarni, ovutmacholarni, ashulalarni bolalar xotirasida mustahkamlash uchun mashg'ulot o'tkazish mumkin. Masalan: „Ajoyib xaltacha“ didaktik (ta'limiy) o'yini o'ynaladi. Xaltachaga bolalarga ilgari yod olgan she'r va ashulalaridan ma'lum bo'lgan o'yinchoqlar: ayiqcha, toychoq, mushuk, xo'roz, koptok, qo'g'irchoq va h.k. lar solinadi. Bolalar yarim doira hosil qilib o'tiradilar. Tarbiyachi o'yinchoqlar solingan xaltachani bolalarga ko'rsatib: Bolalar, bu nima? Uni silkitib, ichida nimalar borligini ayta olasizmi? — deb so'raydi. So'ng bolalar javobi tinglanadi.

Tarbiyachi: To'g'ri, kimki xaltachaning ichidan bitta o'yinchoqni olsa, shu o'yinchoqning nomini aytib, u haqda she'r aytib beradi, deb aytadi va o'zi xalta ichidan bitta o'yinchoqni olib, u haqda yod olingan she'rni aytib beradi. So'ngra bolalarni yoniga bitta-bittadan chaqirib, xaltacha ichidan o'yinchoq olishni va u haqda she'r aytib berishni taklif etadi.

O'rta guruhda she'r yodlatishda yilning boshida kichik guruhdagi usullar: o'yinchoqni, buyumni, harakatlarni ko'rsatish usullaridan foydalaniladi. Yilning ikkinchi yarmidan boshlab o'yin usullari yoddan aytib berilgan she'r ustida suhbatlashish bilan almashinadi.

Katta guruhda mavzusi jihatdan turli xildagi: ona - Vatan, tabiat, bayramlar, kishilarning mehnatlari, bolalar hayoti, o'simlik va hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi she'rlar yod oldiriladi. Bu guruhda tarbiyachining vazifasi faqat bolalarning she'rni yod olishlariga yordam berishgina emas, balki uni emotsional tarzda idrok qilishlariga erishish hamdir.

Bolalarni she'rni ifodali aytib berishga o'rgatishga alohida ahamiyat berish lozim. Tarbiyachi suhbat vaqtida bolalarga bayramlar haqidagi she'rlarni sevinch ifodasi bilan, kuz haqidagi she'rlarni esa biroz g'amgin ohangda aytilish sabablarini tushuntiradi.

She'rni nutq o'stirishga doir bir necha mashg'ulotlarning ikkinchi qismida, ertalabki va kechki soatlarda takrorlash rejalashtiriladi. Quyida misol tariqasida tayyorlov guruhlarida she'r yodlatish mashg'ulotining ishlanmasini keltiramiz.

Z. Diyorning „Binafsha“ she’rini yod oldirish.

Dastur mazmuni. Bolalarga binafsha bahor faslining elchisi ekanligi to’g’risida tushuncha berish va mustahkamlash. She’rning mazmunini tushunishga, unda aks etgan ko’tarinki ruhdan, quvnoq ohangdan, sevinch, shodlikdan ta’sirlanishga undash.

Mashg’ulotga tayyorgarlik. Binafsha gulini guldonga solib, bolalarga ko’rinmaydigan joyga qo’yish.

Mashg’ulotning borishi.

Tarbiyachi: Hozir o’lkamizda qaysi fasl? Bu faslda ob-havo qanday bo’ladi? Qanday gullarni bahor elchisi deymiz? Binafshalar qayerlarda ochiladi? Siz shu gulni ko’rganmisiz? (Binafsha gulini ko’rsatadi.) Bolalar javobidan so’ng tarbiyachi ularning javoblarini umumlashtirib, shunday deydi: To’g’ri, hozir bahor fasli. Bahor faslida hamma yoq chiroyli libosga burkanadi. Bog’larda qushlar sayraydi, kapalaklar guldan gulga qo’nib yayraydi. Bahor elchilari binafsha, lola ochiladi. Hamma bog’larga, dala va adirlarga gul tergani chiqishadi. Bahor fasli, gullar haqida shoirlar she’rlar yozishgan. Mana, bolalar shoiri Zafar Diyor ham binafsha haqida she’r yozgan.

Tarbiyachi she’rni yoddan aytib beradi. So’ngra she’r mazmuni yuzasidan quyidagi savol-javob tarzidagi suhbat o’tkaziladi:

Zafar Diyorning „Binafsha“ she’ri sizga yoqdimi? Sizlarga hammadan ko’ra ko’proq nimasi yoqdi? Binafsha haqida nima deyilgan? Binafshaning hididan nimalar lazzat olar ekan? Bu she’rda kapalak haqida nima deyilgan? Bu she’rda kimlar binafshani maqtashlari haqida yozilgan? Kimning esida qoldi? Kim aytib bermoqchi?

Tarbiyachi bolalar javobini to’ldirib: „Endi diqqat bilan tinglang. Bu she’rni sizlarga aytib beraman. Sizlar she’rni yod olishingiz kerak“, — deydi. She’rni ikkinchi marta ifodali qilib yoddan aytib bergach, takrorlashga istagan bolani chaqiradi, so’ngra o’zi belgilab qo’yg’an bolani she’rni yoddan aytish uchun chaqiradi.

Mashg’ulotning 2- qismida „Gullar do’koni“ ta’limiy o’yini o’tkaziladi.

8- §. Bolalar bog’chasida kitob burchagi tashkil etish

Bolalarning kitobga bo’lgan qiziqishlarini va undan foydalanishning eng oddiy malakalarini (kitobdagi rasmlarni ko’rib chiqish) tarbiyalash maqsadida bolalar bog’chasining har bir

guruhida kitob burchagi tashkil etiladi. Kitob burchagi uchun yorug' va qulay joy tanlanadi. Shuning uchun kitob burchagiga stol lampasini qo'ygan ma'qul. Kichik guruhda kitob burchagi kitob tokchasida yoki stol ustida tashkil etiladi. Katta guruhlarda esa kitob javonida tashkil etgan ma'qul. Chunki bu guruhda kitob boshqa guruhlariga nisbatan ancha ko'p bo'ladi. Kitob burchagi o'zining tashqi ko'rinishi bilan bolalarni o'ziga jalb qilishi kerak. Kitob burchagiga bolalar hayotidan, ertaklardan olingan rasmlardan osib qo'yish mumkin. Katta va maktabga tayyorlov guruhlarida esa shoir va yozuvchilarning, masalan, Zulfiya, Q. Muhammadiy, E. Vohidov, P. Mo'min, A. Oripov va h. k. larning portretlarini osib qo'yish mumkin. Bu adiblar bilan ularning yozgan asarlari haqida ularning kitoblarini bolalarga o'qib berayotgan vaqtda tanishtirib boradi. Har bir guruh uchun „Dastur“ asosida kitoblar tanlanadi. Qo'shimcha adabiyotlar ham tarbiyachi tomonidan tanlanib, kitob javonida saqlanadi.

O'rta guruhning kitob burchagida kichik guruh bolalari uchun „Dastur ro'yxati“ga kiritilgan kitoblar ham bo'lishi mumkin, xuddi shunday katta guruhning kitob burchagida ham kichik, o'rta guruh uchun mo'ljallangan kitoblar bo'lishi kerak. Katta guruhda tashkil etilgan (javon) kitob burchagi mavzular bo'yicha tashkil etilib, ular bir-biridan ko'rsatkich taxtacha bilan ajratib qo'yiladi, ya'ni ko'rsatkich taxtachaga kitob mavzusiga taalluqli rasm yopishtiriladi. Masalan, tabiat to'g'risidagi kitobni yoki ertak kitobni bola osonlik bilan topib olishi uchun tabiat manzarasi tasvirlangan yoki ertak mazmuniga taalluqli rasm yopishtirilgan taxtacha bilan bir-biridan ajratib qo'yiladi. Kichik guruhda bir nomdagi kitobdan bir necha nusxadan (ikki, uchta) qo'yiladi, chunki kichik guruh bolalarining bir qanchasi bir vaqtda ko'rishni istaydi. Kitob burchagidagi kitoblarni vaqti-vaqti bilan almashtirib turish kerak. Agar tarbiyachi kitob burchagidan qaysidir kitob onda-sonda olinayotganini ko'rsa, bu kitobni vaqtincha olib qo'yib, bir qancha vaqt o'tgach, yana kitob burchagiga qo'yishi kerak. Kitob uzoq saqlanishi, yirtilmasligi uchun bolalar kitob betini yaxshilab ko'rib bo'lishgach, u muqovalanib qo'yiladi. Kitobni shunday muqovalash kerakki, uning yuza qismi, undagi rasmlar ko'rinib tursin.

Kitob burchagida kitoblardan tashqari bolalarning o'zlari mustaqil ko'rishlari uchun albomlar ham bo'lishi kerak. Tarbiyachi albomlarning mavzusini „Dastur“dan, ya'ni bolalarni

tevarak-atrof bilan tanishtirish va ijtimoiy hayot hodisalari bilan tanishtirish, tabiat bilan tanishtirish bo'limlarining dastur talablari va vazifalari asosida tanlaydi. Bular bolalar bog'chasining maishiy-xo'jalik, jamoat hayoti mavzulariga taalluqli rasmlar bo'lishi mumkin.

Hamma guruhlardagi kitob burchaklarida har qaysisida 8—10 ta rasm yoki fotosuratlar solingan bir necha papka (har bir guruhda 8—10 tadan) hamda bolalar chizgan rasmlar solingan bir necha papka bo'lishi kerak. Papkalarga undagi materiallarga tegishli illustratsiyalar yoki manzaralar tasviri solib qo'yilgan bo'ladi. Bolalar rasmlarni ko'zdan kechirib bo'lganlaridan keyin ularni kerakli papkalarga joylashtiradilar. „Bizning O'zbekiston“, „Toshkent — O'zbekistonning poytaxti“, „Qadimiy va navqiron Buxoro“, „Samarqand — qadimiy obidalar shahri“, „O'zbek milliy hunarmandchiligi“, „Buxoro zardo'zligi“, „Onalarimiz mehnati“, „Bizning bayramlar“, „Ertaklar olamida“ va h.k. nomlardagi albom va papkalar bo'lishi mumkin.

Yirtilgan kitoblarni yamash kitob burchagining zaruriy ish shakllaridan bo'lib, kichik guruhlarda tarbiyachi o'zi bolalar oldida kitobni yamaydi, katta guruhlarda esa bu ishda tarbiyachiga bolalar yordamlashadi. Tarbiyachi bolalarning kitob burchagida o'zlarini qanday tutishlarini, kitobga qanday munosabatda bo'layotganliklarini, bolalarning kitobdagi rasmlarni ko'rishga qanchalik e'tibor berayotganliklarini nazorat qilib, bolalar bilan yakka tarzda shug'ullanadi.

9- §. Mashg'ulotdan tashqari vaqtda badiiy adabiyotdan foydalanish

Mashg'ulotdan tashqari vaqtda badiiy adabiyotdan foydalanishga turli yosh guruhlarida tashkil etilgan kitob burchagida ishlash, bolalar uchun mo'ljallangan badiiy asarlarni sahna-lashtirish, ya'ni qo'g'irchoq teatri, soya teatri (ko'lanka), stol teatri, diafilmlar namoyish etish, radio va teleeshittirishlar tashkil etish kiradi. Tarbiyachi mashg'ulotdan tashqari qulay vaqtda bolalarni kitob burchagidagi kitoblar bilan tanishtiradi, kitobdagi rasmlarni ko'rsatib, u haqda suhbat o'tkazadi, asarlarni o'qib yoki hikoya qilib beradi, mualliflar bilan tanishtiradi, bolalarga oldingi mashg'ulotlardan tanish bo'lgan, shuningdek, dasturga kiritilmagan asarlarni takror o'qib berish mumkin. Mashg'ulotdan tashqari vaqtda tabiat haqidagi asarlarni, lirik she'rlarni, matal va

qochirimlar, topishmoqlar, sanamalar va hokazolarni aytib berish bolalarning his-tuyg'ulariga katta ta'sir etadi. Mashg'ulotdan tashqari vaqtda (kechki soatlarda) o'rta guruhdan boshlab o'qib berilgan kitob haqida, yozuvchi va shoirlar haqida suhbatlar o'tkaziladi. Kutubxonaga, kitob do'koniga sayohatlar tashkil etiladi. Yilning turli fasllarida tabiat qo'yniga sayohatlar uyushtirish jarayonida bahor, yoz, kuz, qish haqidagi she'rlar aytib beriladi, hikoyalar, ertaklar o'qib beriladi. Shuningdek, mashg'ulotdan tashqari vaqtda bolalar uchun tarbiya vositasi bo'lgan materiallardan, topishmoqlardan keng foydalaniladi. Bolalarning tanish asarlar haqidagi bilimlarini tarbiyachi tomonidan tashkil etilgan o'yinlarda („Maktab-maktab“, „Bog'cha-bog'cha“, „Qo'g'irchoq teatri“ va h.k.) mustahkamlash mumkin.

Masalan, tarbiyachi qo'g'irchoqlar uchun ertalik tashkil qilishni bolalarga taklif etadi. Bu ertalikda bolalar tanish ertaklarni qo'g'irchoqlarga so'zlab berishadi. Shuningdek, tarbiyachi „Radio“, „Televizor“, „Diafilm“ o'yinlaridan keng foydalanib, ertak va hikoyalarni aytib berishni taklif etadi. O'rta guruhdan boshlab dramalashirilgan o'yinlardan foydalaniladi. Bu bolalarda badiiy asar namunalarini aytib berishga, kitobga qiziqishga, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, bir jamoa bo'lib o'ynashga yordam beradi.

Katta guruhlarda kitob burchagida mashg'ulotdan tashqari vaqtda badiiy asarlar bilan tanishish maqsadida mavzular bo'yicha kitob ko'rgazmasi tashkil etiladi. Masalan: „Bizning tabiat to'g'risidagi kitoblarimiz“, „Bizning bayramlar“ va h.k. Bunday ko'rgazmalar sevimli kitoblar bo'yicha suhbat o'tkazishda yordam beradi. Ko'rgazmada bir qancha yozuvchi va shoirlarning portretlari ham qo'yilishi kerak. Shuningdek, bir guruhda ba'zi bayramlar uchun („Ertaklar olamida“, „Mehrjon bayrami“, „Gullar bayrami“, „Qushlar bayrami“, „Qovun sayli“ va h.k.lar) turli janrdagi asarlarni, masalan, she'rlar, topishmoqlar, hikoyalar, ertaklardan olingan parchalar, maqol, matallarni tanlash tavsiya etiladi.

10- §. Adabiy viktorinalar o'tkazish

Adabiy viktorinalar o'tkazishdan asosiy maqsad, bolalarning badiiy asarlarga bo'lgan qiziqishlarini mustahkamlash, ilgari tanish bo'lgan badiiy asar janrlarini eslashga yordamlashish, emotsional his-tuyg'ularini, xotirasini rivojlantirishdir.

Adabiy viktorinalar oʻrta va katta guruhlarda har bir faslda bir marta tashkil etiladi. Viktorinani musobaqa tarzida bir guruhni ikkita komandaga ajratish yoki ikkita bir xil guruhlar bilan (musobaqa uyushtirish) oʻtkazish mumkin. Masalan, quyida oʻrta guruhda oʻtkazilgan adabiy viktorinaning mashgʻulot ishlanmasini keltiramiz.

Maqsad. Bolalarga turli usullar yordamida bir faslda oʻqib va hikoya qilib berilgan ertaklar, hikoyalarning nomini eslashga yordamlashish. Ertaklardan parchalar oʻqib berish orqali bolalar xotirasini rivojlantirish.

Mashgʻulot uchun material. Sh.Pyeroning „Qizil Shapkacha“, „Boʻri bilan echki“, „Fil va Xoʻroz“, „Dumsiz tulki“ ertagi va ularga ishlangan rasmlar, „Tulki bilan Turna“ ertagida qatnashuvchi qahramonlar rasmini toʻplash.

Mashgʻulotning borishi. Tarbiyachi bolalarga kitob muqovasidagi rasmni koʻrsatadi va bu ertakka nom oʻylab topishni taklif etadi. Shundan soʻng tarbiyachi asardan parcha oʻqiydi va uni qaysi ertakdan ekanligini bolalardan soʻraydi. Masalan, „Kunlardan bir kuni jikkakkina ola quyon sheriklariga: — Men hech kimdan qoʻrqmayman, tulkini bir puflab osmonga uchirib yuboraman, — deb chiranibdi. Hamma uning mardligiga qoyil qolibdi. Shu payt birdan boʻri kelib qolibdi“. (Oʻzbek xalq ertagi, „Maqtanchoq quyon“).

„Bor ekanda yoʻq ekan, och ekanda toʻq ekan, bir och boʻri boʻlgan ekan. Kunlardan bir kuni don yeb yurgan bir xoʻrozni koʻrib qolibdi. Boʻri xoʻrozni ushlash payiga tushibdi“. (Oʻzbek xalq ertagi, „Och boʻri“.)

„Xoʻrozvoy bogʻga chopqillab kelibdi-yu, koʻm-koʻkkina gʻoʻr maymunjonni choʻqiy boshlabdi. Shu payt Tovuqxon xoʻrozga qarab: „Yema, Xoʻrozvoy, maymunjon pishgunicha sabr qil, — debdi“. (K. Ushinskiy. „Sabr qilishni oʻrgan“.)

Kichkina echki uloq,
Oʻynar oshib umbaloq,
Men bilan inoq oʻrtoq.
Koʻkat bersam yamlaydi,
Orqamdan hech qolmaydi.

(*Sh.Saʼdulla. „Uloqcham“ sheʼri.*)

„Topinglar-chi, men qaysi sheʼrdan parcha oʻqidim, kim bu sheʼrni oxiriga yetkazadi“. Bolalar sheʼrni oxirigacha aytib beradilar.

Tarbiyachi navbatdagi vazifani diqqat bilan tinglashni taklif etadi. „Topinglar-chi, bu sahna qaysi ertakdan?“ — deb stol ustiga tulki va turnaning rasmlarini qo'yadi. „Bu parranda bizning mashg'ulotimizga qaysi ertakdan yugurib keldi?“ Tarbiyachi oldindan bir bolani qarg'a qilib tayinlagan bo'ladi. Qarg'a qilib tayinlangan bola „Qar-qar, qar“ deb tarbiyachining oldiga yugurib keladi. Bolalar esa uning qaysi ertakdan ekanligini topadilar. So'ngra tarbiyachi bolalarga „Qizil Shapkacha“ ertagiga ishlangan rasmlarni ko'rsatadi va ular nima haqida ekanligini so'raydi. So'ngra tarbiyachi bittadan o'g'il va qiz bolani chiqaradi, ular Bo'ri va Qizil Shapkacha dialogini aytib beradilar. Shundan so'ng tarbiyachi bolalarga turli ertak va hikoyalardan parchalar aytib berishni taklif etadi.

Adabiy viktorinani tashkil etish har bir tarbiyachidan ijodkorlikni talab etadi. Tarbiyachi adabiy viktorinani „Kim ko'p topishmoq aytadi? Kim ko'p maqol aytadi? Kim tez aytishuvni bir nafas chiqarishda uch marta aytadi? Kim eng ko'p she'r biladi?“ kabi shiorlar ostida o'tkazishi mumkin.

Adabiy viktorinalarni bir necha mavzular asosida ham tashkil etish mumkin. Masalan, „Yil fasllari“, „Ertaklar olamida“, „Tabiat to'g'risida“, „Hayvonot olamida“ va hokazolar. Bunday mavzularda o'tkaziladigan adabiy viktorinalar uchun bir necha kun (o'yinlar uchun ajratilgan vaqtda) tayyorgarlik ishlari olib boriladi. Bolalar sevimli asarlari uchun chizilgan rasmlar joylashtirilgan albom va papkalarni ko'rib chiqishadi, ilgari tinglangan ertak va hikoyalarni, she'r va topishmoqlarni eslariga tushirishadi, ertak uchun ishlangan rasmlarni ko'rib chiqishadi, belgilangan kun oldindan tayyorlab qo'yilgan kitoblar (ko'rgazma mavzusi asosida) stol ustiga qo'yiladi. Bolalar bog'cha xodimlarini va boshqa guruh bolalarini taklif etadilar. Ularga kitob ko'rgazmasini ko'rsatib, she'rlar aytib berishadi, topishmoqlar aytish va topish, ertaklarni hikoya qilib berish tashkil etiladi.

Adabiy viktorinani tashkil etish uchun oldindan uning ssenariysini tuzib olish maqsadga muvofiqdir. Buni har bir tarbiyachi o'z mahoratiga qarab tuzishi kerak.

11- §. Badiiy asarlarni sahnalashtirish

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar faqat tinglovchi bo'libgina qolmay, balki tomoshabinlardir. Bolalar bog'chasida badiiy asarlarni sahnalashtirishning bir necha turi mavjud. Bularga

qo'g'irchoq teatri, soya (ko'lanka) teatri, stol teatri, barmoq teatri, diafilmlar, radio va televideniye orqali sahnalashtirilgan asarlar bilan tanishish kiradi. Bolalar qo'g'irchoq yoki soya teatrining spektakllarini tomosha qilishni yaxshi ko'radilar. Bu tomoshalar bolalar uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Sahnalashtirilgan asarlar bolalarning estetik tasavvurini boyitadi, chunki spektaklda san'atning bir qancha turlari: badiiy so'z, tasviriy san'at (bezak, qo'g'irchoqlar yoki siluetlar), sahna san'ati, musiqa va hokazolar birlashgan bo'ladi. Spektaklning bolalarni o'ziga jalb qila olishining sababi shuki, unda ishtirok etuvchi qo'g'irchoqlar jonlanadi, to'siq orqasida yoki ekranda sodir bo'layotgan voqealarni haqiqiy deb biladilar. Sevimli qahramonlari bilan qanday voqealar sodir bo'lishi haqida qayg'uradilar, qahramon og'ir ahvolga tushib qolganda yordam berishga harakat qiladilar. Ko'rgan spektakllarini bir-birlariga gapirib beradilar, buning natijasida ularning nutqi rivojlanib boradi. Respublikamizning barcha viloyatlarida qo'g'irchoq teatri bo'lib, bu qo'g'irchoq teatrlarining repertuaridan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun spektakllar o'rin olgan. Qo'g'irchoq teatr jamoasi bolalar bog'chasida tez-tez spektakl namoyish etib turishadi. Qo'g'irchoq teatrini bolalar bog'chasiga taklif etishdan avval bog'cha mudirasi yoki tarbiyachi oldindan spektaklni qaysi guruh uchun namoyish etish mumkinligini aniqlashi kerak. Bolalar bog'chasida qo'g'irchoq yoki ko'lanka teatrini o'z kuchlari bilan tashkil etish ham mumkin. Qo'g'irchoq teatrini kunning ikkinchi yarmida ko'rsatish maqsadga muvofiq. Qo'g'irchoq teatri zalda, agar zal bo'lmasa, guruh xonasida ko'rsatiladi. Oldindan spektaklga zaruriy narsalarni tayyorlab qo'yish kerak. Bolalarni o'tqazish uchun qulay joy tayyorlanishi, ya'ni namoyish etilayotgan narsalar aniq ko'rinib turishi lozim. Qo'g'irchoqlarning ko'rinishini to'rt joydan tekshiriladi: o'rtadan, birinchi qatorning ikki chekkasidan va orqa qatorning chekka joylaridan. Stullarni qo'yish uchun 5—6 yoshli bolalarni jalb qilish kerak.

O'yinchoqlar spektaklini kichik guruhlarda quyidagi ertaklar asosida tayyorlash mumkin: o'zbek xalq ertaklaridan „Qizg'anchiq it“, „Fil bilan Xo'roz“, „Bo'ri bilan Echki“, rus xalq ertaklaridan „Sholg'om“; o'rta guruh uchun L.N.Tolstoyning „Ikki o'rtoq“, „Uch ayiq“, o'zbek xalq dostonlaridan „Alpomish“, „Go'ro'g'li“; katta guruhlar uchun o'zbek xalq ertaklaridan „Egri va To'g'ri“, „Saxiy bilan Baxil“, A. Avloniyning „Xo'roz ila Bo'ri“, Sh. Pyeroning „Qizil Shapkacha“ va hokazolar.

O'yinchoqlar teatri uchun oddiy bolalar stoli sahna bo'lib xizmat qiladi. Unga voqealar rivojiga ko'ra zarur bo'lgan bezaklar qo'yiladi. Spektakl uchun yaxshi holatdagi (hatto, yangi) o'yinchoqlar tanlanadi.

Tarbiyachi o'yinchoqlar spektaklini boshlashdan oldin o'z stulining ikki yoniga stulcha qo'yadi. Bitta stulchaga hali spektaklga qatnashmagan o'yinchoqlarni, ikkinchisiga esa qatnashgan o'yinchoqlarni qo'yadi. Tarbiyachi stulga o'tirgan holda, ertakni hikoya qiladi va ertakdagi hikoyaning borishiga qarab, o'yinchoqni stol bo'ylab harakatlantiradi.

Soya (ko'lanka) teatri bolalarda qiziqish uyg'otadi. Soya teatri ertaklarni inssenirovkalashning keng tarqalgan turi. Soya teatrini namoyish etish ertak yoki hikoya, masalni o'qish bilan bir vaqtda namoyish etiladi. Soya teatri o'zining bir qancha xususiyatlariga ega: siluettlarning harakatsizligi, ularni ketma-ket qo'yishning imkoniyati yo'qligi; soya teatrida „Tulki va Turna“, „Bo'g'irsoq“ va hokazolarni namoyish etish mumkin. Soya teatrining imkoniyatlarini kengaytirish uchun bir personajning bir nechta siluettlari (ko'rinishlari) tayyorlanadi.

Soya teatrini namoyish etish uchun birinchi kunlarda 3 ta tarbiyachi ishtirok etadi: 1 tasi ekran oldida o'tirib, matnni o'qiydi, 2 tasi esa ekran orasida turib, siluettlarni boshqaradi. Spektaklni ko'rsatishning bir qancha variantlari bor. Asarning hammasini o'qish mumkin yoki muallif matnini o'qish bilan chegaralanish mumkin, personajlarning so'zini esa ekran orqasida turgan tarbiyachilar aytib turishadi.

Tarbiyachilar siluettlarni boshqarish malakasini egallab olishgach, bitta tarbiyachining o'zi (bolalarni yordamchi qilib) spektaklni ko'rsatishi mumkin.

Tarbiyachi bir nechta personaj uchun matnni o'qishiga to'g'ri keladi. Shuning uchun har qaysi personajning ovozini bolalarga yetkaza olishi ustida (diksiya, ovoz tonining ifodaliligi va hokazo) mashq qilishi kerak.

Ko'lanka teatri uchun ekran va siluettlar tayyorlanadi. Ekraning (soya teatrining sahnasi, taxta rom) eni 1 metr, bo'yi 60 sm, pastki taxtasi (oyog'i 10 sm) bo'lib, unga yupqa oq mato tortiladi. Yupqa kartondan siluettlar yasaladi va har ikkala tomoni qora rangga (tush bilan) bo'yaladi. Siluettlarning pastiga qo'l bilan ishlash uchun taglik yasaladi. Soya teatrini namoyish etishdan avval xona qorong'i qilinadi. Ekraning orqasiga

bir metr naridan yorug'lik (stol lampasi yordamida) beriladi. Namoyish etilgan siluetlar to'liq ko'rinishi, ammo taglik bilan tarbiyachining qo'li ko'rinmasligi kerak.

Diafilm va diapozitivlar — oynada yoki plyonkada ko'rsatiladigan kitobiy suratlar. Diafilm ko'rsatish bolalarga ekranlashtirilgan asar voqeasini yaxshiroq eslab qolish imkonini beradi. Tarbiyachi diafilm ko'rsatishga tayyorlanish paytida undan foydalanishning maqsadini aniqlashi lozim. Diafilmdan bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish va lug'atini boyitish uchun, nutqini o'stirishda, ko'ngil ochish va boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin.

Hamma diafilmlar qiziqarli va bolalarga tushunarli bo'lishi, ularda tanish narsalar notanish narsalar bilan birgalikda namoyish qilinishi lozim. Diafilmda yangi material qanchalik ko'p bo'lsa, seans shunchalik qisqa bo'ladi. Bir seansda mazmunan bir-biriga yaqin kichikroq ikkita diafilmni ko'rsatish mumkin. Agar seans uzoq davom etadigan bo'lsa, bolalar toliqib qoladilar.

Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish va ularning lug'atini boyitish uchun diafilmning matnini aytib turib namoyish qilish va takror ko'rsatish usullaridan foydalanish mumkin.

Diafilm ko'rsatishdan oldin bolalar ekranlashtirilgan she'rni yoki mazmunan diafilmga yaqin she'rni yod olishlari mumkin. Bunday oldindan tanishtirish bolalarning diafilmdagi muhim narsalarnigina emas, balki ikir-chikirlarni ham aniqroq ko'rishlariga yordam beradi.

Tarbiyachi diafilmni bolalarga namoyish qilishdan oldin o'zi ko'radi, matnni ifodali o'qishni o'rganadi, qaysi kadrlarni bolalarga batafsil ko'rsatishni aniqlab oladi.

Radioeshittirishni tashkil etish

Agar televideniye bolalarga qahramonlarni ko'rgazmali tarzda ko'rsatish imkoniga ega bo'lsa, radio esa so'z va musiqa bilan ta'sir etish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Radioeshittirish bolalardan so'zlarga diqqat qilishni talab etib, ularning nutqini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyachi bolalarni radioeshittirishga tayyorlashda ovozli diafilmlardan foydalanadi. Bolalar suxandonning nutqini idrok qilishga o'rganib olganlaridan so'ng, radiosuxandonning nutqini idrok eta boshlaydilar. Bolalar eng qiziqarli radioeshittirishlarni tinglar ekanlar, ular o'zlaricha voqealarni, qahramonlarni, tabiat

manzaralarini ko'z oldilariga keltiradilar, ya'ni so'zlarni predmet va hodisalar bilan taqqoslaydilar.

Ko'pgina radioeshittirishlar dasturlarga kiritilgan badiiy asarlar asosida tuzilgan. Tarbiyachi radioeshittirishlarni tashkil etishda shunday sharoitni yaratishi kerakki, bolalarni hech kim chalg'itmasin, ular ertak va hikoya mazmunining „ichiga kirib ketsin“. Radioeshittirishdan keyin tarbiyachi eshitilgan asar mazmunini muhokama qilishni tashkil qiladi. Bolalar tarbiyachining savollari yordamida asarni qayta hikoya qilib beradilar, qahramonlarning xatti-harakatlariga o'z munosabatlarini bildiradilar. Agar zarur bo'lsa, tarbiyachi tinglangan asardan parcha o'qib beradi, voqealarni izohlaydi. Uzluksiz (muntazam) tinglangan radioeshittirish, teleeshittirishlarni muntazam tomosha qilish bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi.

Radioeshittirishdan so'ng suhbat, dramalashtirilgan o'yinlar o'tkaziladi. Radioinssenirovka qahramoniga jamoa nomidan xat yozish va uni bolalar uchun eshittirishlar tahririyatiga yuborish ham mumkin.

12- §. Pedagogik jarayonni hisobga olish

To'g'ri tashkil etilgan pedagogik jarayonni muntazam suratda hisobga olib borish lozim. Bu jarayonning muhim ahamiyati shundaki, u tarbiyachining faoliyatini, bolalarning muvaffaqiyatini baholaydi va tahlil qiladi.

Hisobot tarbiyachi ish uslubiyotini qay darajada tushunishini, bolalarning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra turli ish uslublarini tanlay bilishini, ayrim bolalar nutqidagi rivojlanish jarayonini kuzatishini belgilaydi. Hisobotning asosiy shakli — tarbiyachining o'z kundalik ish faoliyatini yozib borishidir. Bu yozuvlar qisqa bo'lib, unda bolalarning umumiy faoliyatlari (materialni faol o'zlashtirdilar yoki qiziqmadilar, mavzu bolalarning yoshiga mos yoki qiyin, ko'pchilik vazifalarni to'g'ri yoki mustaqil bajardi va h. k.) aks etadi. Shu bilan birga, ba'zi mavzularning bolalar tomonidan qiyin o'zlashtirilish sabablari: mavzuning bolalar tajribasidan yiroqligi, o'rgatish usullarining ancha qiyinligi, sharoit yetarli emasligi va h. k. lar ko'rsatiladi. Hisobotda har doim bolalar nutqining qaysi jihatlari ustida mashq qilinganligi, takomillashtirilganligi (hikoyaning to'liqligi, so'zlarning aniqligi, nutqning ifodaliligi va h. k. lar) ko'rsatiladi.

Hisobotda guruhda olib borilgan pedagogik jarayonga umumiy baho berish bilan bir qatorda, alohida bolalar muvaffaqiyati ham aytib o'tiladi. Dastur materialini u yoki bu sabablarga ko'ra o'zlashtira olmaydigan bolalar doimo nazorat qilib boriladi. Tarbiyachi ishning sifatini ko'rsatishi bilan bir qatorda, kelgusida bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarni, ish usullarini belgilaydi. Ayniqsa, nutqida ayrim kamchiliklari bo'lgan bolalarning dastur materialini o'zlashtirishi (tovush talaffuzini egalladi, savollarga to'liq javob berishga o'rgandi, she'rni jonli, ifodali aytishga o'rgandi va h. k.) ham alohida ko'rsatib o'tiladi. Hozirga qadar pedagogik jarayonni hisobga olishning va bolalar bilimini, qobiliyatini nazorat qilishning shakllari to'g'risidagi masala ishlab chiqilmagan.

Tarbiyachi ko'pincha hamkasblarining ish rejalarini ko'rib chiqish va baholashda (topshiriqlar, o'zaro tahlil, o'quv topshiriqlari va h. k.) ishtirok etadi. Shuning uchun tarbiyachi hamkasbining ish rejasini tahlil qilish uchun bir qator asosiy savollarni tuzib qo'yishi kerak. U quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Umumiy ma'lumot.

Nechanchi sonli bolalar bog'chasi, qaysi guruh, tarbiyachining familiyasi, reja qaysi vaqt uchun tahlil qilinyapti.

2. Nutq o'stirish bo'yicha bir haftalik mashg'ulot uchun belgilangan vazifalar to'liq qamrab olinganmi, ularning mazmuni ushbu guruhning dastur mazmuni va o'tkazish vaqtiga javob beradimi? Agar rejada kamchiliklar aniqlangan bo'lsa, uni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatish kerak.

3. Bir oyga mo'ljallab tanlangan mashg'ulotlarni baholash. Bolalarga ona tilini o'rgatishda foydalaniladigan uslublarning xilma-xilligi nimada ko'rinadi?

4. Mashg'ulotdan tashqari vaqtda nutq o'stirish bo'yicha turli xil ish shakllaridan foydalanilganmi? Bolalar bilan yakkama-yakka (qo'shimcha) ishlash mazmuni to'g'ri tushunilganmi?

5. Bir kunlik ish rejasi va hisobotni baholash. Kundalik ish rejasining to'liqligi va aniqligi. Alohida bolalarning yutuqlarini hisobga olish.

6. Ona tili bo'yicha ish rejasi uchun umumiy baho. Mashg'ulot mazmuni va uni jihazlanishining xarakterli xususiyatlari.



Takrorlash uchun savollar

1. Turli yosh guruhlarida monolog nutqqa o'rgatishning dastur bo'yicha ish mazmuni va vazifalari nimalardan iborat?

2. Turli yosh guruhlarida dastur vazifalariga ko'ra hikoya qilishga o'rgatish bo'yicha qanday mashg'ulot turlarini bilasiz?
3. Bolalarni hikoya qilib berishga o'rgatishda foydalaniladigan qanday usullarni bilasiz?
4. Bolalarni qayta hikoya qilib berishga o'rgatishning ahamiyati nimada?
5. Bolalarni rasmlarga qarab hikoya qilishga o'rgatishda rasmlar qanday ahamiyatga ega?
6. Bolalar bog'chasida bolalarni hikoya qilishga o'rgatish uchun foydalaniladigan rasmlar va ularni tanlashga qanday talablar qo'yilgan?
7. Bolalarni rasmlarga qarab hikoya qilishga o'rgatishning mashg'ulot turlari, mashg'ulotni olib borish vaqtida amal qilinadigan qoidalar nimalardan iborat?
8. Turli yosh guruhlarida rasmga qarab hikoya tuzishga o'rgatish uslubiyotlari haqida nimalarni bilasiz?
9. O'yinchoqlarga qarab hikoya tuzishga o'rgatishning va ushbu mashg'ulot uchun o'yinchoqlar tanlashning ahamiyati nimada?
10. Turli yosh guruhlarida o'yinchoqlarga qarab hikoya tuzishga o'rgatish mashg'uloti qanday olib boriladi?
11. Bolalarni o'z tajribalaridan hikoya qilib berishlariga o'rgatishning ahamiyati va bu hikoya turining mazmuni nimadan iborat?
12. Turli yosh guruhlarida o'z shaxsiy tajribasidan hikoya tuzish mashg'ulotlari, mavzulari va tarbiyachining bu mashg'ulot turini o'tkazishdagi tayyorgarlik ishlari nimalardan iborat?
13. Ijodiy hikoya qilish, bu hikoya turining ahamiyati, ijodiy hikoya qilishga o'rgatishga qo'yilgan talablar nimalardan iborat?
14. Ijodiy hikoyaning turlari, bu mashg'ulotlarni o'tkazish tartibi haqida nimalarni bilasiz?
15. Bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda badiiy adabiyotning ahamiyati nimada?
16. Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishda bolalar bog'chasining oldida qanday vazifalar turadi?
17. Turli yosh guruhlarida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish bo'yicha „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ning mazmuni haqida nimalarni bilasiz?
18. Badiiy asarlarni o'qib yoki hikoya qilib berishga tarbiyachi qanday tayyorgarlik ko'radi?
19. Turli yosh guruhlarida badiiy adabiyot bilan tanishtirish uslubiyoti qanday?
20. O'qilgan asarni mustahkamlashning qanday usullarini bilasiz?
21. She'rni yod oldirishning ahamiyati, bunda tarbiyachi oldida turgan vazifalar nimalardan iborat?
22. Turli yosh guruhlarida she'r yod oldirish mashg'ulotlarida qaysi usullardan foydalaniladi?

23. Bolalar bog'chasida kitob burchagi tashkil etish, uning ahamiyati, turli yosh guruhlarida uning o'ziga xos xususiyatlari, kitob burchagida ishlash uslubiyoti haqida nimalarni bilasiz?
24. Adabiy viktorinalar qanday o'tkaziladi?
25. Adabiy asarlar qanday sahnalashtiriladi va uning qanday turlari bor?
26. Diafilmlar namoyish etish, teleeshittirishlar, radioeshittirishlar qanday tashkil etiladi?



Amaliy topshiriqlar

1-topshiriq. „Tulki, xo'roz, mushuk“ ertagini qayta hikoya qilish uchun kirish suhbatini va ertakni hikoya qilib bergandan so'ng beriladigan savollarni tayyorlang.

2-topshiriq. Dastur asosida qayta hikoya qilish uchun mazmuni qisqa ertak yoki hikoya tanlang va mashg'ulot ishlanmasini tuzing.

3-topshiriq. Tarbiyachining bolalarni hikoya qilishga o'rgatish mashg'ulotini kuzating, bu mashg'ulotni yozib oling va muhokama eting.

4-topshiriq. Magnitofon yordamida turli yosh guruhidagi bolalarning hikoyalarni yozib oling. Bu hikoyalarni quyidagi usulda tahlil qiling:

- 1) bayon etish rejasining mantiqiyiligi;
- 2) bola nutqining to'g'riligi (grammatik, fonetik, leksik tomondan);
- 3) bola nutqining ifodaliligi, mazmundoriligi, ifoda vositalari;
- 4) tarbiyachining yordami talab etildimi (savolni takrorlash, aytib turish va h.k.).

5-topshiriq. Turli yosh guruhlarida bolalarning erkin mavzularda tuzgan hikoyalarni magnitofonga yozib oling va uni quyidagi usulda tahlil qiling:

- 1) nutqning to'g'riligi;
- 2) bola nutqining emotsionalliligi;
- 3) voqeani tanlashda mustaqillik darajasi.

6-topshiriq. Bolalarni rasmlarga qarab hikoya qilishga o'rgatish bo'yicha 2—3 ta mashg'ulot ishlanmasini tuzing.

7-topshiriq. Q. Shodiyevaning „O'rta guruh bolalari nutqini o'stirish“ (T., „O'qituvchi“, 1993- yil) kitobidan „Bog'langan nutqni rivojlantirish“ (24—34-sahifalar) bo'limi asosida referat tuzing.

NUTQ O‘STIRISH BO‘YICHA ISHLARNI REJALASHTIRISH

Maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyachisi faoliyatida ta’lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va uni amalga oshirish juda muhim bosqich hisoblanadi. Rejada umumiy pedagogik-psixologik vazifalar bilan bir qatorda, maxsus vazifalar ham o‘z aksini topadi. Savodli rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan ishlarning o‘z vaqtida bajarilishi bola nutqigagina emas, balki uning har tomonlama rivojlanishiga ham ta’sir etadi.

Ishlarni rejalashtirishning asosiy manbai — bu davlat ta’lim standarti va „Bolalarni rivojlantirish, maktabga tayyorlash tayanch dasturi“ hisoblanadi. Ularda turli yosh guruhlaridagi bolalar faoliyat turlaridagi tarbiya maqsadi, bilimlar hajmi va darajasi, hosil qilinadigan ko‘nikma va malakalar ko‘rsatilgan. Shuningdek, bolaning tug‘ilganidan yetti yoshgacha bo‘lgan davrida jismoniy, aqliy, axloqiy, nafosat tarbiyasini amalga oshirish bo‘yicha taxminiy ish mazmuni ham o‘z aksini topgan. Nutq o‘stirish bo‘yicha ishlarni rejalashtirishda bolalar tomonidan ona tilini o‘zlashtirish qonuniyatlarini hisobga olish zarur. Bolalar tomonidan atrofda gilarining nutqini tushunish va uni idrok qilish uning nutq organlari muskullarining mashq qilinganligiga bog‘liq bo‘lib, bolalarning tovush madaniyati bo‘yicha nutqiy faolligini oshirish mashg‘ulotlaridagina emas, balki mashg‘ulotdan tashqari vaqtlarda ham rejalashtirilishi lozim. Artikulatsiya apparatining aniq va to‘g‘ri harakati nutq aniq, ifodali, mazmunli bo‘lishining asosi hisoblanadi. Bolalar bog‘chasida ona tilini o‘rgatish dasturi maktabdagidan farq qilib, bog‘cha bolalariga jonli so‘zlashuv nutqi amaliy o‘rgatilib, ular o‘z nutqlarini kattalarning nutqlariga, badiiy adabiyot asarlarining til namunalariga taqlid qilish orqali egallaydilar. Nutqni tushunish va bolalarning fikr yuritishini rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlarni rejalashtirishda ularning hissiy tasavvurlariga tayanib, tevarak-atrofnı o‘rab olgan obyektlar va hodisalar bilan tanishtirishni so‘z bilan bog‘lab olib borishni nazarda tutmoq zarur. Bunda, albatta, tanishtirish, tushuntirish metodlaridan foydalanib, hodisalarning o‘zaro bog‘liqligi.

munosabatlari hisobga olinadi. Chunonchi: predmetlarni kuza-tish va tekshirish, o'yinchoqlarni va illustratsiyalarni (rasmlarni) ko'rib chiqish, o'simlik va hayvonot dunyosini, tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini kuzatish va hokozolar bolalarning savollari, tarbiyachining ko'rsatishi, tushuntirishi, hikoya qilib berishi, badiiy asarlarni o'qib berish, topishmoqlarning javobini topish, xalq maqollaridan foydalanish kabi usullar yordamida rejadagi ishlar amalga oshirib boriladi.

Nutq o'stirish mashg'ulotlarida, ayniqsa, bolalarning badiiy asarlarni o'qib, hikoya qilib berishlariga katta ahamiyat beriladi. Badiiy asarlarni qayta hikoya qilib berishga o'rgatish va ularni sahnalashtirish, she'rni yod oldirish tarbiyachiga katta mahorat va mas'uliyat yuklaydi. Muallif tomonidan badiiy asar mazmuni qanchalik yorqin ifodalangan bo'lsa, unda ishtirok etuvchilarning nutqlari (gaplari) bolalarga ifodali, mazmunli yetkazilsa, u bolalarni hayajonlantiradi, his-tuyg'ularining rivojlanishiga, asar qahramonlari bilan bo'ladigan voqealarning uzoq esda saqlanishiga, lug'atining boyishiga hamda nutqining grammatik jihatdan to'g'ri shakllanib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalar hech qanday qiyinchiliksiz tarbiyachining asar yuzasidan bergan savollariga javob bera oladilar, ayrim so'zlarni, jummalarni takrorlaydilar, qahramonlarning ijobiy va salbiy tomonlarini xarakterlab bera-dilar, tarbiyachiga taqlid qilib, ularning ovozini o'xshatishga ha-rakat qiladilar.

Yuqori saviyada yozilgan badiiy asarlar bolalarning nutq normalarini (me'yorlarini) muvaffaqiyatli o'zlashtirishlariga hamda tilning emotsional tomonlarini his etish qobiliyati rivoj-lanishiga, og'zaki nutqning intonatsion ifodaliligi shakllanishiga ta'sir etadi.

So'zlashish-suhbat metodidan bolalar lug'atini faollashtirishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu metod orqali bola lug'atidagi so'zlardan o'rinli foydalanishga, gaplarni to'g'ri tuzishga o'rganib boradi. Bunda tarbiyachi kichik guruhda tabiiy obyektlar va ular-ning modellari (o'yinchoqlar, suratlar)ga tayanish usullaridan, katta guruhlarda esa so'zli didaktik o'yinlardan foydalanadi.

Qayta hikoya qilish metodidan besh yoshli bolalar guruhida tashkil etiladigan ishlarda keng foydalaniladi. Uning yordamida bolalar nutqining leksik, grammatik, intonatsion jihatlari shakl-lanadi. Ular bog'lanishli dialogik va monologik nutqni badiiy asar

namunalari yordamida amaliy tomondan egallab oladilar. Badiiy asarlarni qayta hikoya qilishga o'rgatishda tarbiyachining asosiy vazifasi mazkur yoshdagi bolalarga mos bo'lgan, mazmuni va tili jihatidan bolalarga tushunarli bo'lgan asarlarni tanlashdir.

Hikoya o'ylab topish (to'qish) metodi bolalarni ijodiy izlanishga: kuzatganlari bo'yicha hikoya tuzish; xotiradan hikoya tuzish; xayoliy hikoya tuzishga o'rgatadi.

„Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ har bir yosh guruhida ona tiliga o'rgatish bo'yicha ish vazifalarini belgilab bergan. Tarbiyachining asosiy vazifasi bir yil mobaynida nutq o'stirish bo'yicha olib boriladigan ishlarni, bolalar nutqiy malaka va ko'nikmalarining rivojlanganlik darajasini aniq hisobga olgan holda yillik va oylik ish rejasini tuzishdir: mashg'ulotning turi va uning maqsadi, ish usullari, didaktik materiallar (tabiiy obyektlar, ularning modellari, rasmlar, badiiy asarlar, so'zli didaktik o'yinlar va hokazo).

Maqsadga muvofiq hisoblangan ish rejalaridan biri — bu mashg'ulotning oylik (4 haftalik) ish rejasidir. Oylik ish rejada mashg'ulotlarning izchilligi, unda ona tilining barcha komponentlari (lug'at ishi, tovush madaniyatini tarbiyalash, bog'lanishli dialogik va monologik nutq, tilning grammatik qurilishi)ni rivojlantirish o'z aksini topadi. Bola nutqining hamma tomonlarini bir vaqtning o'zida parallel tarzda rivojlantirib borish kerak, chunki bola nutqini o'stirish bo'yicha ish vazifalari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun bir mashg'ulotning o'zida bola nutqini o'stirishning bir necha vazifalari hal etiladi, ammo ulardan biri asosiy hisoblanib, boshqasi esa mashg'ulotning bir qismi sifatida rejalashtiriladi. Masalan, gap to'g'risidagi tasavvurni shakllantirish, ya'ni so'zlardan gap tuzish, gapni so'zlarga ajratish asosiy vazifa qilib rejalashtirilsa, mashg'ulotning ikkinchi qismi sifatida gapdagi so'zlar tarkibidagi qiyin talaffuz etiladigan tovushlar talaffuzi ustida mashq qilish rejalashtiriladi.

Har bir mashg'ulotni rejalashtirishda bolalar bilan ishlash usullari aniqlanadi. Ular mashg'ulotning murakkablik darajasiga qarab har xil bo'lishi mumkin: tabiiy materiallar va ularning modellari (o'yinchoqlar), ko'rgazmali qurollardan foydalanish (rasmlar, illustratsiyalar, diafilmlar va kinofilmlar), tarbiyachining nutq namunasi, badiiy matnlar; savol-topshiriqlar, ko'rgazmali qurollar, tushuntirish, magnitofon tasmlari, so'zli didaktik o'yinlar, sahnalashtirilgan o'yinlar va hokazolar. Ish usullari

nutqni rivojlantirish bo'yicha vazifalarning mazmuniga (fonetika, leksika, grammatika) va nutqiy malakalarning rivojlanganlik darajasiga qarab tanlanadi.

Mashg'ulot rejasida (konspektida) testli (matnli) didaktik materiallar —ertaklar, she'rlar, hikoyalar, topishmoqlar, maqollar, tez aytishuvlar alohida o'rinni egallaydi. Bu materiallar mavzu jihatidan mashg'ulotning mazmuni, ta'lim-tarbiyaviy maqsadi, didaktik vazifalari bilan mos kelishi, nutqning ifodaliligini belgilovchi vosita sifatida so'zlarni morfologik tomondan tahlil qilish, tovushlarni talaffuz etish ustida mashq qilish imkoniyatini ta'minlashi lozim. Bu materiallar obrazli va bolalarga mos bo'lishi kerak (hajmi, mazmunining murakkabligi, yangi so'zlarning, tushunchalarning soni, ularning murakkabligi va hokazolar). Rejada yoki mashg'ulot ishlanmasida quyidagilar o'z aksini topishi kerak: mashg'ulotning maqsadi (tarbiyaviy, ta'limiy, ayniqsa, *nutqiy vazifa*); mashg'ulotni o'tkazish joyi (*guruh xonasi, boshqa xizmatchi va yordamchi xonalar yoki bolalar bog'chasining yer maydoni, shahar ko'chasi, maktab binosi, xiyobon, bog', dala, va hokazolar*); ish usullari (*kuzatish, suhbat, tarbiyachining hikoyasi, didaktik o'yinlar va hokazo*); didaktik materiallar (*tabiiy obyekt, o'yinchoqlar, rasmlar, badiiy asar matni*).

Mashg'ulot rejasida tarbiyachiga butun bir mashg'ulotni hamda uning har bir qismi tuzilishini aniq belgilashga, bir ish turidan ikkinchisiga o'tish vaqtini aniq belgilashga, bolalarning emosional reaksiyalariga, nutqiy holatlariga e'tibor berishga, mashg'ulot vaqtida yuzaga kelgan holatlarni va vaziyatlarni hal qilishga yordam beradi.

Ish rejasida ham xuddi mashg'ulot ishlanmasi (konspekti)dek mashg'ulotda hal qilinadigan nutq ishi vazifalari bo'yicha bolalarga beriladigan asosiy savollarni, badiiy asar matnini (qayta hikoya qilish, she'rni yod olish, sahnalashtirish uchun) yozib qo'yish lozim.

Har oyga tuziladigan ish rejasida yillik va kvartallar bo'yicha bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar asosida tuziladi.

Tarbiyachi o'zining ishchi daftariga oldindan bolalarga yil davomida tanishtiriladigan obyektlarni va beriladigan bilim hajmini yozib qo'yishi va shu asosda didaktik materiallar (so'zli va ko'rgazmali) tayyorlashi lozim.

Har kuni mashg'ulot tugagach, bolalar bilan olib borilgan ishlarga yakun yasaladi (xulosalanib, hisobot yoziladi). O'z vaqtida va savodli tarzda qilingan ishlarni hisobga olish quyidagilarni aniqlab beradi: belgilangan nutqiy vazifalarni bolalar o'zlashtira olishdimi, buning uchun bolalarning bilimlari yetarli edimi, kim va nima uchun berilgan vazifa (topshiriq)ni bajara olmadi; tanlangan badiiy asar matni to'g'ri tanlanganmi; tanlangan ish usullari qanday natija beradi va hokazolar. Boshqacha qilib aytganda, hisobot — qilingan ishlarni sanab o'tish emas, balki bolalar tomonidan nutq o'stirish bo'yicha materiallarning o'zlashtirilish darajasi va hajmini hisobga olinishidir.

Ishlarni rejalashtirish va hisobga olish bir-biri bilan uzviy bog'liq: savodli rejalashtirilgan va amalga oshirilgan ish bolalar nutqining rivojlanishini nazorat qilishga imkon bersa, bajarilgan ishlarni o'z vaqtida savodli hisobga olib borish esa rejalashtirilgan nutqiy ishni amalga oshirishda nafaqat bolalarning yoshini hisobga olish, balki mazkur guruh bolalarining nutqiy xususiyatlariga ham e'tibor berishni talab etadi.

Mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda nutq o'stirish bo'yicha olib boriladigan ishlar ham mashg'ulot vaqtida amal qilinadigan didaktik tamoyillarga tayanadi, ammo o'ziga xos xususiyatlarga ega: qisqa vaqt ichida mashqlar o'yin shaklida (topishmoqlar aytish va topish, tez aytishlar aytish) o'tkaziladi; tanish she'rlar, sahnalashtirilgan o'yinlar takrorlanadi. Bu mashq va o'yinlar uncha katta bo'lmagan bolalar guruhi hamda alohida bolalar bilan yakkama-yakka tarzda o'tkaziladi. Bundan asosiy maqsad, bolalarda mashg'ulotdan tashqari vaqtda olib boriladigan nutq o'stirish bo'yicha ishlarga qiziqish, istak va xohish uyg'otishdan iboratdir.



O'tilganlarni mustahkamlovchi savol va topshiriqlar

1. „Ishlarni rejalashtirish“ nimalarni o'z ichiga oladi?
2. Tarbiyachining ishlarni rejalashtirishi fanni va pedagogik amaliyotni sintezlash ekanligini isbotlang.
3. Bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha ishlarni muvaffaqiyatli rejalashtirishning shartlari nimalardan iborat?
4. Mashg'ulotlarni bir oylik rejalashtirishning bir haftalik, ikki haftalik rejalashtirishdan farqi va afzalliklari nimalardan iborat?
5. Mashg'ulot rejasining mashg'ulot ishlanmasidan farqi nima?
6. Didaktik materiallarni tanlashga qanday talablar qo'yilgan?



Amaliy topshiriqlar

1. Bolalar bog'chasi tarbiyachisining bir yillik yoki kvartallik ish rejasi asosida bir oylik ish rejasini tuzing va qilingan ishlar bo'yicha hisobot yozing.

Mashg'ulotning taxminiy rejasi (sentabr oyi uchun).

Birinci kichik guruh (uch yoshli bolalar guruhi).

1- mashg'ulot. „Qo'g'irchoqlarimiz uchun uy“ didaktik o'yini.

Mashg'ulotning maqsadi: yaqin tevarak-atrof to'g'risidagi tushunchalarini va uni idrok qilishlarini kengaytirish.

Predmetlarning nomlarini aniqlashtirish: mebellar, idish-tovoqlar, o'yinchoqlar (koptok, qo'g'irchoq, mashina, ayiq, piramida; likopcha, kosa, piyola, qoshiq; o'yinchoqlar, idish-tovoqlar uchun shkaf, stol-stullar).

Ushbu predmetlarning xususiyatlarini va ularning nima uchun ishlatilishini bilishlarini aniqlash (shishadan, sinuvchan, yog'ochdan). Tushuncha-tasavvurlarini shakllantirish: („o'yinchoqlar“, „idishlar“, „mebellar“).

Buyumlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash.

Didaktik materiallar: qo'g'irchoq xonasining maketi (uch qavat buklanadigan to'siq). O'yinchoq mebel va idishlar, mayda o'yinchoqlar: koptok, qo'g'irchoq, ayiq, mashina, piramidalar.

Ish usullari: guruh xonasini bolalar bilan ko'rib chiqish — mebel va idish-tovoqlar, o'yinchoqlar, ularning nomlari va xususiyatlari, nima uchun ishlatilishi bilan tanishish: bu predmetlarni ishlatilishiga qarab bir-biri bilan taqqoslashtirish, bolalarni umumlashtiruvchi so'zlar ma'nosini tushuntirish: o'yinchoqlar, idishlar, mebellar.

Tarbiyachining tushuntirishlari: o'yinchoqlar — biz ular bilan o'ynaymiz, idishlar ularda ovqat yeyiladi; shkaflar — o'yinchoqlar va idish-tovoqlar saqlanadi.

O'yin usullari: tarbiyachi bolalar bilan birgalikda qo'g'irchoq uchun xona jihozlaydi. O'yinchoqlarni tabiiy narsalar bilan solishtirish, taqqoslash (qo'g'irchoqning xonasidagi mebel, idish-tovoqlar, o'yinchoqlar)ni farqlash (katta, kichkina).

Bolalarga beriladigan savollar: „Bu nima? U qanday? U qanaqa? U bilan nima qilish mumkin? Undan qanday foydalaniladi?“

Ko'rsatmalar: „Marhamat, takrorla“, „Hammamiz yana birgalikda aytamiz“, „Shoshilma, yana bir marta sekin takrorla, hamma bolalar eshitsin“.

Tarbiyachining namunaviy nutqi: narsalarning nomini, xususiyatini, belgisini, u bilan bo'ladigan harakatlarni shoshilmasdan, aniq, dona-dona qilib aytish; bolalarga beriladigan savollarning, qilinadigan murojaatlarning aniqligi.

Bolalarni rag'batlantirish: „To'g'ri aytding, yasha!“, „Aqllisan, juda to'g'ri aytding“, „Olima hozir harakat qiladi, u buning uddasidan chiqadi“.

2- mashg'ulot. „Qo'g'irchoq Olima yuvinyapti“ didaktik o'yini.

Mashg'ulotning maqsadi: yuvinish buyumlarining nomini aniqlash: sovun, sovun qutichasi, tish cho'tkasi, tish pastasi, sochiq, taroq; ularning xususiyatlarini hajmi, rangi va nima uchun ishlatilishini bildiruvchi so'zlarni aniqlash; suvning xususiyatini (sovuq, issiq, tiniq, oqar suv) bildiruvchi so'zlarni; harakatlarning xarakterli belgilarini so'zlar bilan ifodalanishini (quritish, ho'llash, sovunlash, shimarish, ishqalash, yuvib tashlash, artish, tarash, qo'yish, osish). She'rni ifodali va jarangli aytish ustida mashq qilish.

Mashg'ulot jarayonida o'rtoqlariga yordam berishga tayyor turish, saranjom-sarishtalikni tarbiyalash.

Didaktik material: uzun yengli ko'ylak kiygan, plastmassadan qilingan katta qo'g'irchoq.

Yuvinish uchun zarur bo'lgan tabiiy vositalar. Tolib Yo'l-doshning „Sochiq, sovun va tish cho'tka“ she'rini o'qib berish:

Sovun, sochiq, tish cho'tka

Xizmatin bilib qo'ying.

Yuz-u qo'lni oq sochiqqa

Artib bo'lgach ilib qo'ying.

Sovunni ham yaxshi saqlang,

Yerda qolib ezilmasin.

Qutichada tursin toza

Tutganimiz sezilmasin.

Tish cho'tkasini rosa chaying

Yuvi bo'lgach tishingizni.

Rahmat desin ko'rgan barcha

Bu odobli ishingizni.

Tozalikning boshi shudir

Tish cho'tkasi, sovun, sochiq.

Bularni soz tutganlarga

Hayot uchun keng yo'l ochiq.

Ish usuli: predmetlarni ko'rib chiqish va ularning xususiyatlarini, nima uchun ishlatilishini (ishlatib ko'rsatish bilan) tushuntirish; bolalarda tarbiyachi tomonidan talaffuz etilgan so'z va jummalarni takrorlash istagini uyg'otish.

O'yin usuli: tarbiyachi bolalarga qo'g'irchoqqa yuvinishida yordam berishni taklif etadi va ularga yuvinishni qanday ketma-ketlikda olib borish kerakligini (avval, keyin) ko'rsatishni aytib, qo'g'irchoq nomidan bolalarga murojaat etish: „Olima aytdiki, u.... (yuvinishni xohlaydi)“.

Tarbiyachining namunaviy nutqi: bolalarga va qo'g'irchoqqa murojaat qilib aytiladigan so'z va jummalarni aniq va ravshan talaffuz etish.

She'ni ifodali, his-hayajon bilan o'qish.

3- mashg'ulot. „Qo'g'irchoq Olima ovqatlanyapti“ didaktik o'yini.

Mashg'ulotning maqsadi: narsa-buyumlarning nomlari: mebellar (stol-stul, shkaf), idish-tovoqlar (chuqur va mayda tarelka, katta va kichik qoshiq, piyola), ovqatlar (karam sho'rva, kartoshkali kotlet, shavla); ovqat ta'mining xususiyatlari (karam sho'rva — mazali, kotlet — issiq, yumshoq, shavla — shirin hid keladi va hokazolar). Shoirona nutqqa qiziqishni, she'ni tinglay olish malakasini tarbiyalash.

Stol atrofida madaniy xulq me'yorlariga rioya qilishni (qoshiqni o'ng qo'lda ushlash kerak; ovqatni shoshilmasdan yeyish va og'izni yopib chaynash kerak, ovqat yeyayotganda stulda tebranib o'tirish yaramaydi; ovqat uchun minnatdorchilik bildirish) tarbiyalash.

Samimiy murojaat etish malakasini tarbiyalash: marhamat, rahmat.

Didaktik material: katta qo'g'irchoq, sochiq, o'yinchoq mebel va idish-tovoqlar va ovqatlar.

A.Ro'zimuhammedovning „Qo'g'irchog'im“ she'rini o'qib berish.

Qo'g'irchog'im Lolaxon,
Malohati bir jahon.
Yuzida bordir xoli,
Jilmayadi iboli.
Qo'g'irchog'im, do'mbog'im,
Aqlligim, oppog'im

Bo'yniga taqdim marjon,
Qayrilma qosh qo'g'irchoq.
Uni quchib o'ynayman,
Men bog'chaga kelgan chog'.
Qo'g'irchog'im, do'mbog'im,
Aqlligim, oppog'im.

Ish usullari: bolalarni mebellar, idish-tovoqlar, taom yeyishdagi harakat nomlarini bildiruvchi so'zlarni eslashga undash.

O'yin usullari: „Olimaga (qo'g'irchoqqa) ovqatni qanday yeyishni eslatamiz“.

Ko'rsatma: „Iltimos, Olima, marhamat, ol, ye“. Endi, bu gapni Lola takrorlaydi. „Olima,“

Bolalarga beriladigan savollar: „Stol ustiga qaysi idish-tovoqlarni qo'yish kerak? Kichkina chuqur tarelka nima uchun kerak? Nima uchun biz Olimaning bo'yniga sochiqcha bog'ladi? Nima uchun Olima (qo'g'irchoq) bizga „rahmat“ dedi?“

Bolalarning to'g'ri javobini va samimiy muomalasini rag'batlantirish. A.Ro'zimuhammedovning „Qo'g'irchog'im“ she'rini ifodali o'qish.

4- mashg'ulot. „Qo'g'irchoq sayrga otlanyapti“ didaktik o'yini.

Mashg'ulot maqsadi: qiz bola (qo'g'irchoq Salima) va o'g'il bola (qo'g'irchoq Salim)ning kiyimlari nomini aniqlash: qizlar uchun ichki kiyim (yengsiz), ko'ylak va o'g'il bolalar uchun ko'ylak, shim; tufli, botinka; shapka, sharf, palto. Bolalar nutqida *ko'k, qizil, oq, yashil, uzun, qisqa* so'zlarini (sifatlarni) faollashtirish. Kiyimlar degan umumlashtiruvchi so'zni bolalar lug'atiga kiritish. Asosiy ranglarni ajrata olishga va nomini aytishga, kiyimlarni kiyish, ob-havoga bog'liqligini bilib olishga o'rgatish.

Ifodali nutqqa qiziqishni, she'r tinglash malakasini tarbiyalash.

Hozirjavoblik va boshqalarga yordam berish istagini tarbiyalash.

Didaktik material: katta qo'g'irchoq Salim va Salima, ular uchun ichki va ustki kiyimlar, oyoq kiyimlari.

Tolib Yo'ldoshning „Qo'g'irchog'im o'ynasin“ she'ri.

Yoqalari tugmali,	Ko'rgan hamma qarashgan,
Etaklari burmali	Qo'g'irchog'im o'ynasin.
Ko'ylagi xo'p yarashgan,	Qizaloqlar havasda,
Qo'g'irchog'im o'ynasin.	Kim balandda, kim pastda,
Qora munchoq ko'zlari,	Qo'g'irchog'im o'ynasin.
Lola misol yuzlari,	

Ish usullari: kiyim-kechaklarning nomlarini, rangini va ular nima uchun mo'ljallanganligini, xususiyatlarini aytish.

Taqlid qilish orqali tarbiyachi aytgan so'zlarni uning ketidan takrorlash. Kiyimlarning nomlari, sifat va xususiyatlarini, „kiyimlar“ degan tushunchani shakllantirish.

O'yin usuli: bolalarni Salim va Salimaga kiyinishlarida yordam berishga taklif etish, qaysi kiyimni avval, qaysinisini keyin kiyishni, kimga nimani kiyintirishni aniqlab olish.

Bolalarga beriladigan savollar: „Bu nima? U qanday? Bu kimniki? Uni qanday kiyaypti? Keyin nimani kiyadilar? Paltoni

qachon kiyishadi? Nima uchun? Sharfni nima uchun o'rashadi? Salim va Salimaning shapkalari bir-biriga o'xshaydimi? Ularni bir-biridan qanday farq qildingiz?“. Tarbiyachi tomonidan Tolib Yo'ldoshning „Qo'g'irchog'im o'ynasin“ she'rini ifodali o'qish. Bolalarga o'qib berilgan she'r yuzasidan berilgan Qo'g'irchoqning ko'ylagi qanday ekan? (Yoqalari tugmali, etaklari burmali) Ko'zlari qanday? (qora munchoq). Yuzlari-chi? (loladek) kabi savol-javobdan so'ng, she'rni takroriy o'qib berish.

Savollarga to'g'ri javob bergan va qo'g'irchoq Salim, Salimalarning kiyinishlarida yordamlashgan bolalarni rag'batlantirish.

5- mashg'ulot. Qudrat Hikmatning „Bu qaysi fasl“ she'rini o'qib berish.

Mashg'ulotning maqsadi: bolalarda ifodali nutqni eshitish malakasini, tarbiyachi bilan birgalikda she'rdagi ayrim so'zlarni takrorlash istagini tarbiyalash. Nafosat his-tuyg'ularini tarbiyalash, a unli tovushining aniq talaffuzi ustida mashq qilish.

Didaktik material: she'r mazmunida ifodalangan fasllar tasvirlangan rasmlar, she'r matnidagi personajlar (predmetlar) ning shaklini kartondan yasab, uning bir tomonini bo'yash.

Ish usullari: bolalarning shaxsiy hayotlariga tayanish. Bolalar bilan suhbatda yilda nechta fasl borligini, bahor, yoz, kuz, qish faslida qanday ishlar qilinishini so'rab, ularni fasllar to'g'risidagi tasavvurlarini aniqlab olish.

Bolalarga beriladigan savollar: „Bolalar, qanday fasllarni bilasiz?“, „Bahor fasli haqida kim nimalarni biladi?“, „Qovun, tarvuz, g'alla qaysi faslda pishadi?“, „Qachon bog'da mevalar pishadi, daraxtlar bargini to'kadi?“, „Qaysi faslda qor yog'ib, anhordagi suvlar muzlaydi, bolalar chana tortishadi, archa mehmonga keladi?“.

O'yin usuli: bolalar she'rdagi *maysa, maza, hafsala, g'alla, bog'ga, yoqqa, marra, barra, g'o'za, yana, chana* so'zlarini talaffuz etadilar. Bu so'zlarni talaffuz etganlarida so'zlar oxiridagi **a** tovushini cho'zib (aaa.....aaa....aaa...) talaffuz etishadi. Avval bu so'zlarni tarbiyachi talaffuz etib ko'rsatadi, so'ngra bolalar takrorlaydilar.

Faol ishtirok etgan bolalar rag'batlantiriladi.

6- mashg'ulot. „Kim qanday o'ynaydi?“ didaktik o'yini.

Mashg'ulotning maqsadi: savollar yordamida rasmga qarab hikoya qilishga o'rgatish. Asosiy ranglar (ko'k, qizil, yashil) to'g'risidagi tasavvurlarini mustahkamlash, bu ranglarni rasmlarni

ko'rish jarayonida bilish, lug'atida *tez, jarangli, sekin, xushchaqchaq* kabi so'zlarni faollashtirish, a tovushining aniq talaffuz etilishini mustahkamlash.

Didaktik material: 20x30 hajmdagi sujetli rasm: bola koptok o'ynayapti; qizcha piramidani yig'yapti; bola uy qurayapti; bola avtomobil boshqaryapti; qizcha qo'g'irchoqni allalayapti.

Fayzi Shohismoilning „To'p-to'p“ she'rini o'qib berish.

Tarvuz kabi yumaloq,	Koptogim to'p-to'p.
Yashil, sariq, qizil, oq,	Otib, ilib o'ynayman,
Koptogim to'p-to'p.	Mazza qilib o'ynayman,
Meni har kun bog'chamda,	Koptogim to'p-to'p.
Kutib turar tokchada,	

Ish usullari: „Kim koptok o'ynayapti?“, „Kim piramidalarni yig'yapti?“, „Kim uy qurayapti?“, „Kim avtomobil boshqaryapti?“, „Kim qo'g'irchoqni allalayapti?“, „Bu bola nima qilyapti?“, „Bu qizcha nima qilyapti?“, „Bola avtomobilni qanday haydayapti?“ (*tez*), „Qizcha qo'g'irchoqni qanday allalayapti?“ (*sekin*), „Koptok qanday?“, „U qanday sakraydi?“.

Ko'rsatma: „Rasmga diqqat bilan qara“, „Yana bir marta eshit“, „Yana bir marta balandroq ayt“, „Hammasini birgalikda aytamiz“.

Fayzi Shohismoilning „To'p-to'p“ she'rini ifodali o'qish.

O'yin usullari: „Koptokni qanday otib o'ynashingizni ko'rsating“, „Koptok yuqoriga qanday sakrab-sakrab o'ynaydi, ko'rsating“. „Ana bu rasmdagi qizcha qo'g'irchog'ini allalagandek, sizlar ham qo'g'irchog'ingizni allalang“. *Sekin* aaa....aaa....aaa..“ deb qo'g'irchoqni allalaymiz, shunda u *tez* uxlab qoladi.

7- mashg'ulot. „Daydi shamol“ didaktik o'yini.

O'yin maqsadi: bolalarda asosiy ranglar to'g'risidagi tasavvurlarni mustahkamlash: qizil, ko'k, yashil. Ustki kiyimlarning nomini mustahkamlash: palto, plash, kurtka, shapka. „u“ tovushining aniq talaffuzi ustida mashq qilish.

Didaktik material: flanelegraf, „bolalar sayrda“ mavzusidagi manzara. Qizchani (qizchaga ism qo'yish kerak) ustida qizil palto va qizil shapkacha. o'g'il bolaning (bolaga ism qo'yish kerak) ustida ko'k rangli kurtka va ko'k shim. Boshqa bir qizchani (qizchaga ism qo'yish kerak) ustida yashil plash va boshida yashil shapka. Shamol esib, bolalarning ko'k, qizil, yashil shapkalarini uchirib ketdi. Bolalarning shapkalarini qaytarib olib kelib kiydirish kerak: „Kimga qaysi rangli shapkani kiydirish kerak?“

Haydar Muhammadning „Shamol“ sheʼrini oʻqib berish.

Shamol, shamol, jon shamol!

Hammadan chaqqon shamol!

Bogʻimizga kel tezroq,

Pishgan oʻriklarni qoq!

Ish usullari: bolalarga savollar: „Kimning ustida paltosi bor?“, „U qanday rangda?“, „Kim ustiga kurtka kiygan?“, „U qanday rangda?“, „Kimning ustida plash bor?“, „U qanday rangda?“, „Boshlariga kiyib olgan shapkalarining hammasi bir xilmi?“, „Oʻgʻil bola kiyib olgan shapkani nima deymiz?“, „Ana bu qizchanning ustidagi paltosi bilan shapkasining rangi oʻxshashmi?“, „Boshqa qizchanning plashi bilan panamasi bir xilmi?“ (Ular bir xil.) „Oʻgʻil bolaniki-chi?“, „Kimga qaysi rangdagi shapkachani kiydirish kerak?“, „Shamol qanday esadi?“, „U qanday ovoz chiqaradi?“.

8- mashgʻulot. „Ayiqcha biznikiga mehmonga keldi“ didaktik oʻyini.

Mashgʻulotning maqsadi: ayiqning gavda qismlari nomlarini aytish: boshi, tanasi, oyoqlari; bosh qismida ikkita munchoqdek koʻzi, burni, ogʻzi, quloqlari bor; oʻyinchoq qanday matodan tikilganligini aytish: paxmoq ayiq, yumshoq matodan tikilgan, chiroyli. Harakatining xarakterli tomonini va „ovozini“ aytish: maymoq oyoq, lapanglab yuradi, irillaydi.

u tovushini aniq talaffuz etish ustida mashq qilish.

Bolalarni muloyim, samimiy muomala shakllaridan foydalanishga oʻrgatish, saxiylik his-tuygʻularini tarbiyalash: „Ayiqvoy, iltimos, yegin!“, „Salomatliging uchun ye!“, „Ayiqvoy, xayr!“ Sheʼrni tinglash malakasini tarbiyalash.

Didaktik material: katta, baxmaldan tikilgan jigarrang ayiq. Yogʻochli bochka „asali“ bilan.

Oʻyin usullari: bolalarga savollar berish: „Kim guruhimizga mehmon boʻlib keldi?“, „Qanday ayiq, kattami yoki kichkina?“, „Ayiqning boshida (kallasida) nimalari bor?“ (ikkita qop-qora, marjonga oʻxshash, dum-dumaloq koʻzi, burni, ogʻzi). Ayiqning juni qanday? Ayiq qanday yuradi? U qanday irillaydi? (ovoz chiqaradi).

Koʻrsatma: „Ayiqni silaymiz“, „Ayiq bilan raqsga tushamiz“, „Ayiqni asal bilan mehmon qilamiz“, „Birgalikda „Ayiqcha, iltimos ye! Salomatliging uchun ye!“ deb aytamiz“, „Tinglanglar, ayiq sizga qanday „rahmat“ deydi“, „Ayiqqa: „xayr!“ deb

aytamiz“, „Ayiqqa o‘xshab irillang: „u...u...u...“ Tinglanglar, qizcha qanday qilib o‘zining ayiqchasi bilan o‘ynaydi“.

9- mashg‘ulot. „Mushukni kuzatish“ didaktik o‘yini.

Mashg‘ulotning maqsadi: bolalarning mushuk va uning qiliqlari to‘g‘risidagi tasavvurlarini aniqlash va lug‘atini boyitish: „Kichkina, targ‘il, boshi dumaloq, tanasi, oyoqlari, dumi uzun, juni yumshoq, silliq, paxmoq, issiq. Boshida ikkita ko‘zi, burni, og‘zi, mo‘ylovlari, ikkita qulog‘i bor. Asta-sekin yuradi, yurishi eshitilmaydi, sakraydi, ilib oladi, tirnaydi, xurillaydi. Go‘sh, baliq, non, sichqon yeydi, sutni tili bilan shaloplatib ichadi“.

Bolalar lug‘atini turli so‘z turkumlariga oid so‘zlar bilan boyitish.

Jonivorlarga bo‘lgan samimiy, ijobiy, emotsional munosabatni tarbiyalash, ularga g‘amxo‘rlik qilish hissini uyg‘otish.

Mazmunli nutqni diqqat bilan tinglay olish malakasini tarbiyalash.

Didaktik material: mushuk, sut solingan idish (chuqur kichkina tarelka), bir bo‘lak xom go‘sh yoki baliq; uzun ipga bog‘langan kichkina qog‘oz o‘rami.

Sh.Sa‘dullaning „Lola va mushuk“ she‘ri.

Men Lolaman, Lolaman,	Mushugim bor qora mosh,
Ozoda qiz bolaman.	O‘zi judayam yuvosh.
Erta bilan turaman.	Mendan oldin turadi,
Yuz-qo‘limni yuvaman.	Yuz-qo‘lini yuvadi.

Ish usullari: mushukning tana qismlarini, harakatlarini, qiliqlarini kuzatish va ularni so‘z bilan aytish. Mushukning junini silab ko‘rishga taklif etish, silayotgan vaqtda juni *yumshoq, silliq, paxmoq, issiq* degan so‘zlarni aytish.

Mushukchani ovqatlantirishini (mashg‘ulotgacha mushukchani ovqatlantirish zarur) kuzatish: sutni tili bilan shaloplatib ichadi, panjalari, tili bilan yuvinadi.

Mushuk bilan o‘ynash — uzun ipga osilgan qog‘ozni osiltirib turish va mushukchani unga qarab qiladigan harakatini kuzatish: sakraydi, panjasidagi tirnoqlari bilan uni ushlab oladi.

Mashg‘ulot oxirida mushuk haqidagi she‘rni o‘qib (aytib) berish, topishmoqlar aytish. Bolalarning o‘zlaridan ham mushuk haqida bilgan she‘rlarini so‘rash.

Bolalarni mushukka ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lganliklari, savol-javoblarda faol ishtirok etganliklari uchun rag‘batlantirish.

10- mashg'ulot. „Sholg'om“ ertagini hikoya qilib berish.

Mashg'ulotning maqsadi: bolalarning sholg'om haqidagi tasavvurlarini aniqlash: dumaloq, qattiq, shirin. Badiiy nutqni eshitishga o'rgatish. Ertakni takroriy eshitish istagini (ko'rgazmali quolsiz) uyg'otish va tarbiyachi bilan birgalikda ertakni aytib berishda ishtirok etishga undash.

Bolalar tomonidan ushbu so'zlar tushunilishini aniqlash: oldin, eng avvalo, so'ngra (ertaklardagi personajlarning ketma-ketligi).

„Tortishibdi-tortishibdi“ harakatlar imitatsiyasini, jarangli nutq tempida so'zni tasavvur etish hissini shakllantirish.

Didaktik materiallar. ertak matni. Ertakda ishtirok etuvchi qahramonlarni stol teatrida ko'rsatish uchun ularning shakllari.

Ish usullari: bolalarga tabiiy sholg'omni ko'rsatish, uni paypaslab ko'rish: dumaloq, silliq, qattiq (mashg'ulotgacha boshqa bir sholg'omni tozalab, kichkina-kichkina qilib to'g'rab qo'yiladi va bolalarga yeb ko'rib, uning mazasi qanday ekanligini aytish taklif etiladi).

Ertakni stol teatrida ko'rsatish, qahramonlarning so'zlarini takrorlash: tortishibdi-tortishibdi, uni tortib olisholmabdi.

Ertakni ko'rgazmali quolsiz aytib berish.

Bolalarga savollar. „Birinci bo'lib sholg'omni tortib olishga kim kelibdi?“, „Sichqon mushukdan oldin cholga yordamga kelibdimi?“.

Sholg'omni qanday tortishganini ko'rsatishga undash (tortishibdi-tortishibdi). Kelinglar, bolalar ertakni boshidan aytamiz.

Ko'rsatma: „Ertakni birgalikda aytamiz“.

Ertakdagi ketma-ketlikka rioya qilganlari uchun rag'batlantirish.

11- mashg'ulot. O'zbek xalq ertaklaridan „Bo'ri bilan echki“ ertagini hikoya qilib berish.

Mashg'ulotning maqsadi: bolalarni xalq og'zaki ijodiyoti bilan tanishtirish. Ifodali nutq namunasini tinglay olish malakasini o'stirish, baxtsizlikka uchragan qahramonga nisbatan achinish va uning shodligidan xursand bo'lish hissini tarbiyalash. Ertakdagi salbiy qahramonga va uning xatti-harakatlariga nisbatan nafrat hissini tarbiyalash. Qahramonlarning ovoz tonlariga taqlid qilish orqali nutqning ifodaliligini tarbiyalash.

Didaktik material: ertak matni. Stol teatri uchun ertakdagi qahramonlarning shakllari. Bo'ri va qo'zichoq o'yinchog'i.

Ish usullari: bolalarga echki va bo'ri o'yinchog'ini ko'rsatish. Ertak matnida uchraydigan *yamlab, ma'qul, tisanib, shox uribdi, a'zoyi badani qaqqshab, nom-nishon* so'zlarini tushuntirish.

Tarbiyachi tomonidan ertak mazmunini stol teatrida (Bo'ri va echki shakllari yoki o'yinchoqlarini ertak mazmuniga mos ravishda harakatlantirib, qahramonlarning ovozlari taqlid qilib) ko'rsatish bilan hikoya qilib berish. Hikoya qilib bergach, bolalarda ijobiy va salbiy qahramonlarga nisbatan his-tuyg'ularni vujudga keltirish uchun bir necha daqiqa vaqt berish. Echki shaklini yoki o'yinchog'ini olib, uning qanday ekanligini va bo'riga nima deb aytganlarini aytish istagini vujudga keltirish. Bo'ringa qanday hayvon ekanligini, u echkiga nima deganini aytib berish istagini uyg'otish.

Bolalar ishtirokida ertakni ikkinchi marta takroriy hikoya qilish: tarbiyachi hikoyani boshlaydi, bolalar davom ettiradilar. Indamas, tortinchoq, uyatchan bolalarni savollar berish orqali ertak mazmunini aytib berishga jalb qilish va ularni ruhlantirib turish.

Ertak mazmunini hikoya qilib berishda ishtirok etgan bolalarni rag'batlantirish.

12- mashg'ulot. Q. Muhammadiyning „Qo'zichoq“ she'rini o'qib berish.

Mashg'ulotning maqsadi: ifodali nutqni eshitishga bo'lgan qiziqishni, emotsional his-tuyg'uni tarbiyalash, she'rni takroriy eshitish hamda, uni matnini tarbiyachi yordamida aytish, hayvonlarga nisbatan g'amxo'rlik qilish istagini uyg'otish.

Didaktik materiallar. Q. Muhammadiyning „Qo'zichoq“ she'ri.

Yumshoq matodan yasalgan qo'zichoq o'yinchog'i yoki rasmi, yam-yashil o't, idishda suv.

Ish usullari: tarbiyachi she'rni ifodali o'qib beradi (she'r mazmuniga oid xatti-harakatlarni bajaradi). Takroriy o'qib berishda bolalar tarbiyachi bilan birgalikda she'r matnidagi ayrim jumalarni takrorlaydilar.

Bolalarga savollar. „Qo'zichoq nimalarni yeydi?“ „U qanday sakraydi?“, „Har kuni ertalab uni qanday parvarish qilish kerak?“. „Nima uchun uni har kuni parvarish qilish kerak?“

She'rni birgalikda aytishga undash.

Bolalarni mashg'ulotdagi faolliklari uchun rag'batlantirish.



Amaliy mashg'ulotlar

1- *topshiriq*. Sentabr oyi uchun katta guruh bolalari nutqini rivojlantirish mashg'ulotining kengaytirilgan rejasini tuzing.

1- **mashg'ulot**. „Ajoyib xaltacha“ didaktik o'yini orqali meva va sabzavotlarni ko'rib chiqish va ularni tasvirlash. (Topishmoqlar aytish va ularni topish orqali meva va sabzavotlarning nomini topish o'yin-mashg'ulotini o'tkazish mumkin.)

X. Ermatovning „Nok“, „Shaftoli“, „Anor“ she'rlarini o'qib berish.

2- **mashg'ulot**. Meva va sabzavotlardan tayyorlangan mahsulotlar haqida suhbat (mevalardan va sabzavotlardan tayyorlangan mahsulotlar: quritilgan mevalar, konservalangan har xil meva sharbatlari, kompotlar va sabzavot tuzlamalari va boshqalar).

1. X. Ermatovning „Nok“, „Shaftoli“, „Anor“ she'rlarini takroriy o'qib berish (bolalarning o'zlaridan ham meva va sabzavotlar haqida bilgan she'rlarini so'rash).

2. Maktabga tayyorlov guruhida „Karam tuzlash“ mashg'ulotini kuzatish.

3- **mashg'ulot**.

1. Xiyobonga uyushtirilgan sayr vaqtida kuzgi barglarni (xazonrezgini) yig'ish va ularni ko'rib chiqish.

2. „Daraxtni bargiga qarab top“ didaktik o'yini.

3. Sh.Sa'dullaning „Kuz“ she'rini o'qib berish.

G'ir-g'ir shamol yeladi,
Buni hamma biladi.
O'giradi yelga yuz:
Marhamat! Kel, oltin kuz!
Maktab borar qiz-o'g'il,
Qo'lda kitob hamda gul.
Oltin oqar daladan,

Tong yorishgan palladan.
Quyosh tushar taftidan,
Qo'rqib qishning aftidan.
Sarg'ayadi ko'katlar,
Barg to'kadi daraxtlar.
Hosil yig'ib olinar,
Qishga zamin solinar.

4- **mashg'ulot**.

1. Bog'chaga yaqin joylashgan binoni (magazin, maktab, poliklinika, aholi yashaydigan uy, madaniyat saroyi) kuzatish.

2. Odil Abdurahmonning „Usta“ she'rini o'qish.

Men ham kichik ustaman,
O'z ishimga puxtaman.
Dadam bilan ertalab,

Yog'och, taxta randalab.
Uycha qurdik tovuqqa,
Qolmasin deb sovuqqa.

5- mashg'ulot.

1. Sayr vaqtida transport (yuk tashuvchi va yo'lovchilarni tashuvchi avtomobil) vositalarini kuzatish; yo'l qoidalari bilan tanishish.

2. To'lqinning „Mashinam“ she'rini o'qib berish.

G'iz-g'iz uchar mashinam,
Viz-viz uchar mashinam.
Murvatin burab qo'ysam,
Tez-tez uchar mashinam.
Dadam keltirgan uni,
O'ynasin deb har kuni.
Bog'chamga birga borar,

Tashiyman uni-buni.
Bo'la qolsaydim katta,
Shofyor bo'lgum albatta.
Qizil chiroq yonganda—
To'xtab qolaman shartta.
Viz-viz uchar mashinam,
G'iz-g'iz uchar mashinam.

6- mashg'ulot.

1. Oshpazning mehnatini (ishini) kuzatish: mehnat qurollari, oshpazning ovqat pishirishdagi harakatlari; oshpazning o'z ishiga bo'lgan munosabati.

2. M.Abdullaning „Oshpaz“ she'rini yod oldirish.

Yoqdim olov,
Yondi lov-lov.
Shirin bo'lib,
Pishdi palov,
Qo'lni yuving,
Qani yuring.

Tan yayratib,
„Oshni uring“.
To'yib yeysiz,
„Rahmat“ deysiz!
Tuz solmabman,
Uzr, essiz...

7- mashg'ulot.

1. Kattalarning oilada va maishiy xo'jalik ishlaridagi mehnatlari haqida suhbat.

2. Mehnat to'g'risidagi maqollar aytish.

3. M. Abdullaning „Oshpaz“ she'rini takrorlash.

8- mashg'ulot.

1. „Bizning yangi o'yinchoqlarimiz“ mavzusida o'yinchoqlarga qarab tasviriy hikoya tuzish.

2. Anvar Obidjonning „Maymoq“ she'rini o'qib berish.

Bilaman, qo'ng'ir ayiq,
Nega oyog'ing maymoq.
Chunki o'sding o'rmonda,
Bebotinka, bepaypoq.
Shunga oyog'ing maymoq

Tentirab yurma sayoq.
Vaqtning bekor o'tkazma,
Botinka tik qunt bilan.
Bolangga to'qi paypoq,
U ham bo'lmasin maymoq.

9- mashg'ulot.

1. Rangli rasmlar yordamida „Yozda“ mavzusida hikoya tuzish.
2. Ilyos Muslimning „Yoz“ she'rini yodlatish.

Keldi yoz chog'i,	Shakardek asal
Mevalar pishdi.	Uzum qildi tok.
Olmalar shoxi	Bizning polizda
Egilib tushdi.	Qovun, tarvuz ko'p.
Oldik ko'p hosil:	Yetildi yozda,
O'rik, olma, nok.	So'yib yedik xo'p.

10- mashg'ulot.

1. Tarbiyachi tomonidan Aziz Abdurazzoqning „Mushuk bilan chumoli“ ertagi mazmunini („Bog'chaga — Do'mboqchaga“ kitobi. T: Cho'lpon, 1992- y, 62- b.) hikoya qilib berish.

2. Mehnat va mehnatsevarlik haqidagi maqollardan aytib berish:
 - a) Mehnat, mehnatning tagi rohat.
 - b) Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik.
 - d) Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar.

2-topshiriq. Sentabr oyi uchun maktabga tayyorlov guruhi bolalarining nutqini rivojlantirish bo'yicha kengaytirilgan mashg'ulot rejasini tuzish.

1- mashg'ulot.

1. Maktab to'g'risida suhbat.
2. Valentin Berestovning „O'qishni bilsang o'zing“ she'rini yod oldirish.

Qanday yaxshi, qanday soz,	Yolvorib turmay,
O'qishni bilsang o'zing.	Yoki opajoningga
Yordam kutib oyingdan	Yalinib yurmay,
Jovdiramaydi ko'zing.	Kutib, chorlab o'tirmasdan
„O'qib ber“ deb buvingga	Shart o'qiysan, tutilmasdan.

2- mashg'ulot.

1. Maktabga sayohat — ekskursiya (maktab binosi va uning nima maqsadga yo'naltirilganligi; dars, o'quvchilarning maktab tartib-qoidalariga amal qilishlari).

2. Valentin Berestovning „O'qishni bilsang o'zing“ she'rini takrorlash.

3- mashg'ulot.

1. Portfel va sumkani ko'rib chiqish, ularni bir-biriga taq-qoslash (ular nima uchun mo'ljallanganligi, shakli, rangi, qismlari va h.k.).

2. „Ayt qanday“ didaktik o‘yini (maktab o‘quv qurollarini tasvirlash, ular to‘g‘risida topishmoqlar aytish va topish).

4- mashg‘ulot.

1. Xiyobonga sayohat. Daraxtlarning barglarini kuzatish.
2. „Daraxtni bargidan top“ didaktik o‘yini.
3. Temir Ubaydullaning „Majnuntol“ she‘rini yod oldirish.

Egilibdi majnuntol,	Ketmaysan o‘sib nechun.
Sochi uzun, qaddi dol.	— Ona yerim jonimdir,
Poyida suv shildirar,	Tomirimda qonimdir.
O‘z tilida chuldirar:	Unutmayman shuni hech,
— Sug‘oraman tun-u kun,	Ta‘zimdaman erta-kech.

5- mashg‘ulot.

1. Boshqoli don-dunlarni ko‘rib chiqish: bug‘doy, arpa, jo‘xori.
2. Do‘stjon Matjonning „Boshqoq“ she‘rini o‘qib berish.

Bir bug‘doy boshog‘i	Ba‘zan shunday bo‘lar:
Hovuch-hovuch don.	Uch-to‘rtta boshqoq
U menga va senga	Sochilib qoladi
Shirin totli non.	Yo‘llarda, o‘rtoq.

Zoriqmasin deya	Bu ona tuproqqa
Sira tirik jon,	Egil, terib ol.
Dalada ter to‘kar	Bitta donimiz ham
G‘allakor dehqon.	Bo‘lmasin uvol!

6- mashg‘ulot.

1. „Kombaynchilar g‘allani o‘rishyapti“ rasmi asosida hikoya tuzish.
2. Do‘stjon Matjonning „Boshqoq“ she‘rini yod oldirish.

7- mashg‘ulot.

1. „Bog‘da meva yig‘imi“ rasmi asosida hikoya tuzish.
2. Zafar Diyorning „Olma“ she‘rini o‘qib berish.

Bog‘ga kirdim, olmalar	Oltin kabi ko‘rinar,
Qip-qizarib pishibdi;	Ular mening ko‘zimga.
Silkitibdi shamollar	Bunday shirin olmalar
Yerga to‘p-to‘p tushibdi.	O‘z bog‘imda yetildi;
Mazasini totiyman,	Yashnab o‘ssin deb ular,
A‘lo erur qanddan ham.	Halol mehnat yetildi.
Bunday shirin olmani	Mevalarning urug‘in
Men ko‘rganman kamdan kam.	Eking, asrang, o‘rtoqlar.
Havas bilan har birin	Kelajakda ulardan
Olib ko‘rdim qo‘limga,	Yaratilgay gul bog‘lar.

8- mashg'ulot.

1. Ota-onalarning ishlab chiqarishdagi mehnatlari haqida suhbat.

2. V.V.Mayakovskiyning „Kim bo'lsam ekan“ she'rini o'qib berish.

9- mashg'ulot.

1. Bolalar kutubxonasiga sayohat (ekskursiya).

2. P. Mo'minning „Oshno kitoblar“ she'rini o'qib berish.

Bizni doim shod etar
Bilinga kon kitoblar.
Yo'limizni yoritgan
Siz bilag'on kitoblar.

Uchar bo'lsak osmonga
Qanot bo'lgan kitoblar.
Suratlari rang-barang
Gulday kulgan kitoblar.

Har sohani tanitgan,
Bizlarga bop kitoblar.
O'rgatamiz barchaga
Yaxshi odob kitoblar.

Sizni sevib o'qiyimiz,
Doim oshno kitoblar.
Sizni toza asraymiz,
Yashang dono kitoblar.

10- mashg'ulot.

1. Ko'cha bo'ylab maqsadli sayohat: aholi yashaydigan uylar, magazin-do'kon, mehnat qahramoniga o'rnatilgan yodgorlik (sharoitga qarab boshqa yodgorliklar). Ularning maqsadli yo'nalganligi. Suhbat vaqtida bolalardan yoyiq (murakkab) gap shaklida so'zlab berishni talab etish.

2. „Topinglar-chi, biz qayerda bo'ldik?“ didaktik o'yini (kelishik qo'shimchasini to'g'ri ishlatishga o'rgatish).

11- mashg'ulot.

1. Qishlab qoluvchi va uchib keluvchi qushlar (rasmlarini ko'rsatish bilan) haqida suhbat.

2. Sh. Sa'dullaning „Chumchuqcha“ she'rini yod oldirish.

Hay, hay chumchuq, jajji qush,
Shoxda turma, pastga tush
Erta-yu kech tinmaysan,
Charchash nima bilmaysan.

Chirqillaysan izlab don,
Mana, chumchuq, senga non!
Qorning to'ysa, aytarsan,
So'ng uyingga qaytarsan!

12- mashg'ulot.

1. Raim Farhodiyning „Tonggi so'z“ hikoyasini bolalarga qayta hikoya qildirish (nutq tovushlarini talaffuz etilishini mustahkamlash).

2. Sh. Sa'dullaning „Chumchuqcha“ she'rini takrorlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., „Sharq“, 1997- y.
2. *Abdullayeva Q.* Nutq o'stirish. T., „O'qituvchi“, 1980- y.
3. *Asqarova M., Abdullayev Y., Omilxonova M.* O'zbek tili darsligi (7- sinf). T., „O'qituvchi“, 1974- y.
4. *Гербова В.В.* Занятия по развитию речи в старшей группе детского сада М., „Просвещение“, 1984 г.
5. *Гербова В.В.* Занятия по развитию речи с детьми 4—6 лет. М., „Просвещение“, 1987 г.
6. *Jahongirov G'.* O'zbek bolalar folklori. T., „O'qituvchi“, 1975- y.
7. *Ma'rufov A.* Paronimlar lug'ati. T., „O'qituvchi“, 1974- y.
8. *Panina I.A.* Yaslida olib boriladigan ishlarni planlashtirish va hisobga olish. T., „O'qituvchi“, 1975- y.
9. *Razbayeva E.* Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni himoya qilib berishga o'rgatish. T., „O'qituvchi“, 1975- y.
10. *Razbayeva E.* Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan suhbat o'tkazish. T., „O'qituvchi“, 1975- y.
11. *Tuxeeva E.I.* Развитие речи детей. М., „Просвещение“, 1981 г.
12. *Usmonova O'.* Talaffuz madaniyati. T., „Fan“, 1976- y.
13. *Федаренко Г.А. Фомичева Г.А.* и др. Методика развития речи детей дошкольного возраста. М., „Просвещение“, 1984 г.
14. *Shodiyeva Q.S.* Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. T., „O'qituvchi“, 1995- y.
15. *Shomahmudova R., Mo'minova L.* Bog'cha va kichik maktab yoshidagi bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni tuzatish. T., „O'qituvchi“, 1981- y.
16. *Швайко Г.С.* Игры и игровые упражнения для развития речи. М., „Просвещение“, 1988 г.
17. *G'oziyeva S.* Rasmi topishmoqlar. T., „O'qituvchi“, 1979- y.
18. *Сохин Ф.А.* Развитие речи дошкольного возраста. М., „Просвещение“, 1979 г.
19. Nutq o'stirish (Bolalar bog'chalari uchun she'r va topishmoqlar to'plami). T., O'zbekiston tasviriy san'at muallimlari uyushmasi. 1992- y.
20. Bog'chaga — do'mboqchaga. T., „Cho'lpon“, 1992- y.
21. Kichkintoylar uchun xrestomatiya. T., „O'qituvchi“, 1978- y.

MUNDARIJA

I bob. Maktabgacha tarbiya tizimida ona tili

1- §. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyala- lashda ona tilining ahamiyati	3
2- §. Til tafakkur quroli va muomala vositasi ekanligi	6
3- §. Bolalarni axloqiy va estetik ruhda tarbiyalashda ona tilining roli	8
4- §. Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar nutqini rivojlan- tirish	9
5- §. Bolalar bog'chasida nutqni rivojlantirish dasturi, uning ilmiy asosi, tuzilishi va mazmuni	15
6- §. Dastur vazifalarini amalga oshirish yo'llari	18
Takrorlash uchun savollar	26
Amaliy topshiriqlar	26

II bob. Tarbiyachining nutqi — bolalar nutqini rivojlantirishning asosiy manbayi

1- §. Tarbiyachi nutqining bolalar nutqini to'g'ri rivojlantirish uchun namuna sifatidagi ahamiyati	27
2- §. Tarbiyachi nutqiga qo'yiladigan pedagogik talablar	28
3- §. Tarbiyachining o'z nutqini takomillashtirish ustida ishlashining zarurligi	31
Takrorlash uchun savollar	36
Amaliy topshiriqlar	36

III bob. Ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish uslubiyoti

1- §. Ikki yoshgacha bo'lgan bolalarning rivojlanishida nutqning ahamiyati	37
2- §. Bola hayotining ikkinchi yili. Ikki yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	47
3- §. Ikki yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish uslubiyotlari	51
4- §. Ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda ta'limiy o'yin va mashg'ulotlar, ularga qo'yiladigan talablar	56
Takrorlash uchun savollar	67
Amaliy topshiriqlar	67

IV bob. Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish va lug'at ustida ishlash uslubiyoti

1- §. Tevarak-atrof bilan tanishtirishning ahamiyati, bolalar tomonidan lug'atni o'zlashtirish xususiyatlari.....	68
2- §. Bolalar bog'chasida lug'at ishining vazifalari va mazmuni	71
3- §. „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ bo'yicha turli yosh guruhlari olib boriladigan lug'at ishi	78
4- §. Tevarak-atrof bilan tanishtirish va lug'at ustida ishlash bo'yicha mashg'ulot turlari	83
5- §. Bolalarning har xil faoliyat turlarida lug'at ishi	131
Takrorlash uchun savol va topshiriqlar	133

V bob. Nutqni grammatik jihatdan shakllantirish uslubiyoti

1- §. Nutqni grammatik jihatdan shakllantirishning vazifalari va mazmuni	136
2- §. Bolalar nutqida uchraydigan morfologik va sintaktik xatolar va ularning sabablari	138
3- §. Bolalar nutqidagi grammatik xatolarni tuzatish yo'llari	140
4- §. Bolalarning kundalik nutqidagi grammatik xatolarni tuzatish uslubiyoti	148
Takrorlash uchun savollar	148
Amaliy topshiriqlar	149

VI bob. Bolalar nutqining tovush madaniyatini tarbiyalash uslubiyoti

1- §. Nutqning tovush madaniyati to'g'risida tushuncha	150
2- §. Nutqning tovush madaniyatiga doir ishlarning vazifalari	151
3- §. Nutqning tovush madaniyati bo'yicha ishlarni tashkil etish ..	160
4- §. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash bo'yicha mashg'ulotlarning tuzilishi	173
5- §. Nutqning tovush madaniyati bo'yicha ishlarni rejalashtirish ..	183
Takrorlash uchun savol va topshiriqlar	187

VII bob. Bolalarni bog'lanishli nutqqa o'rgatish uslubiyoti

1- §. Bog'lanishli nutq va uni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda rivojlantirish xususiyatlari	189
2- §. Bolalar bilan so'zlashish — dialog nutqni shakllantirishning asosiy uslubi	192
3- §. Maxsus mashg'ulotlarda dialogik nutqqa o'rgatish uslubiyotlari va usullari	196
Takrorlash uchun savol va topshiriqlar	212
Amaliy topshiriqlar	212

VIII bob. Bolalarni hikoya qilishga (monolog nutqqa) o'rgatish

1- §. Bolalarni monolog nutqqa o'rgatish bo'yicha ish mazmuni va vazifalari.....	214
2- §. Bolalarni hikoya qilib berishga o'rgatishda foydalaniladigan usullar	218
3- §. Adabiy asarlarni qayta hikoya qilish	223
4- §. Bolalarni rasmga qarab hikoya qilishga o'rgatish	231
5- §. O'yinchoqlarga qarab hikoya qilishga o'rgatish	238
6- §. Bolalarni o'z tajribalaridan (xotiradan) hikoya qilib berishga o'rgatish	244
7- §. Ijodiy hikoya qilish	246
Takrorlash uchun savollar	251

IX bob. Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish

1- §. Bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda badiiy adabiyotning ahamiyati	252
2- §. Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishda bolalar bog'chasining tarbiyachisi oldida turgan vazifalar	252
3- §. Turli yosh guruhlarida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish bo'yicha „Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi“ning mazmuni	253
4- §. Badiiy asarlarni o'qib berish mashg'ulotlariga tarbiyachining tayyorlanishi	255
5- §. Turli yosh guruhlarida badiiy adabiyot bilan tanishtirish uslubiyoti	257
6- §. O'qilgan asarni mustahkamlash usullari	263
7- §. Bolalarga she'rni yod oldirish	264
8- §. Bolalar bog'chasida kitob burchagi tashkil etish	267
9- §. Mashg'ulotdan tashqari vaqtda badiiy adabiyotdan foydalanish	269
10- §. Adabiy viktorinalar o'tkazish	271
11- §. Badiiy asarlarni sahnalashtirish	272
12- §. Pedagogik jarayonni hisobga olish	276
Takrorlash uchun savollar	277
Amaliy topshiriqlar	279

X bob. Nutq o'stirish bo'yicha ishlarni rejalashtirish

O'tilganlarni mustahkamlovchi savol va topshiriqlar	284
Amaliy topshiriqlar	285
Amaliy mashg'ulotlar	295

74.102
Sh74

Shodiyeva Q.

Nutq o‘stirish uslubiyoti: Pedagogik yo‘nalishdagi kasb-hunar kollejarining maktabgacha ta‘lim ixtisosligi talabalari uchun darslik/Q. Shodiyeva; O‘zR oliy va o‘rta-maxsus ta‘lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limini rivojlantirish instituti. — Toshkent: „O‘qituvchi“ NMIU, 2008. — 304 b.

ББК 74.102я722

QUMRI SHODIYEVA
NUTQ O‘STIRISH USLUBIYOTI

*Pedagogik yo‘nalishdagi kasb-hunar
kollejarining maktabgacha ta‘lim ixtisosligi
talabalari uchun darslik*

„O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2008

Muharrir *G. Nasriddinova*
Badiiy muharrir *Sh. Xo‘jayev*
Texnik muharrir *S. Tursunova*
Musahhihlar: *N. Jumayeva, D. Ismoilova*
Kompyuterda sahifalovchi *N. Ahmedova*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 24.09.2008. Bichimi 60x90^{1/16}.
Kegli 11 shponli. Tayms garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli b. t. 19,0. Nashr. t. 18,0. 2- zavod.
1000 nusxada bosildi. Buyurtma №365.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O‘qituvchi“ nashriyot-
matbaa ijodiy uyi. Toshkent-129, Navoiy ko‘chasi, 30- uy. // Toshkent,
Yunusobod dahasi, Murodov ko‘chasi, 1- uy.
Shartnoma № 12-78-08.